O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL MASALALARI: MUAMMO, TADQIQOT” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI TO‘PLAMI

2023-yil 23-noyabr, Navoiy

COLLECTION OF MATERIALS THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON THE THEME “GLOBAL ISSUES OF PRIMARY EDUCATION DEVELOPMENT: PROBLEM, RESEARCH”

November 23, 2023, Navoi

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ «ГЛОБАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ»

23 ноября 2023 года, Навои

Navoiy shahri,
23.11.2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL MASALALARI: MUAMMO, TADQIQOT” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI TO‘PLAMI

2023-yil 23-noyabr, Navoiy

I qism

COLLECTION OF MATERIALS THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC – PRACTICAL CONFERENCE ON THE THEME “GLOBAL ISSUES OF PRIMARY EDUCATION DEVELOPMENT: PROBLEM, RESEARCH”

November 23, 2023, Navoi

Part I

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ «ГЛОБАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ»

23 ноября 2023 г. Навои

Том I

Navoiy shahri,
23.11.2023

O‘O‘K: 811.512.131

“Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning global masalalari: muammo, tadqiqot” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – Navoiy, 2023. – 298 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-apreldagi 39-sonli bayoni hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi “2023-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 118-sonli buyrug‘iga asosida Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi tomonidan 2023-yil 23-iyun kuni o‘tkazilgan “Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning global masalalari: muammo, tadqiqot” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan mutaxassislar, olimlar, pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrirlar:

T.Utapov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor v.b., dotsent
M.Ernazarova – filologiya fanlari doktori, professor
G.Shamsidinova – biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

G‘.Hamroyev – Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc)
M.Suyunov – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

M.Pardayeva – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
R.Ravshanova – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
M.Jumayeva – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
F.Holikulova – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
R.Isroilova – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
M.Norqobilov – Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi dotsenti v.b.,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
F.Ergashova – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
katta o‘qituvchisi
A.Najimova – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
katta o‘qituvchisi
I.Norova – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
o‘qituvchisi

Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Kengashining 2023-yil 18-noyabrdagi 4-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM – TA’LIMNING POYDEVORI

Sobirov Bahodir Boypo‘latovich
Navoiy davlat pedagogika institute rektori, texnika fanlari doktori, professor. O‘zbekiston

Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida to‘lqinlanib so‘zlamaslikning iloji yo‘q. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlarni tashkil etadi.

Xususan, oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida bugungi kunda universitetlarning ta’lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo‘lmoqda. Yoshlarimiz sog‘lom hamda go‘zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo‘yicha doimiy ish o‘rniga ega bo‘lish mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilinayapti va bu jarayonda ta’lim olishni eng asosiy shart sifatida ko‘rmoqda.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik.

Barchamiz bugungi taraqqiyotimizning har bir bosqichida, har bir lahzasida kimdir, fikri bilan, kimdir g‘oyasi bilan, kimdir harakati va yana kimdir amaliy natijalari bilan taraqqiyotimizga munosib hissa qo‘shmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich ta’lim bosqichi asosiy poydevorni tashkil etib, o‘quvchi yoshlarning kelgusidagi ma’naviy-axloqiy, kognitiv rivojlanishi, o‘quv-biluv va mehnat faoliyati ayni shu bosqichda ularga beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarga bog‘liq sanaladi. Sohani har tomonlama taraqqiy ettirishda mamlakatimizda salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligi hech kimga sir emas. Ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo‘nalishlarini aniqlash, pedagog kadrlarning kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirish, ularni jahon standartlari mos holda shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan sanaladi.

Keyingi yillarda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalariga yangicha innovatsion yondashuvlar, mavjud qarashlar, tushunchalar va munosabatlarni taraqqiyot ko‘zgusi va samaradorlik mezonlari bilan qayta ko‘zdan kechirishni taqozo etmoqda. Boshlang‘ich ta’limda ham tub yangilanishlar yuz berib, o‘quvchilarni intellektual rivojlanishlari, ta’lim olishga intilishlari, zamonaviy dunyo talablariga mos shaklda bilim bilan qurollanishlariga sharoit va imkoniyatlar yaratib kelinmoqda.

Darhaqiqat, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so‘nggi yillarda ta’lim sohasini isloh qilishga, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirishga, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga jiddiy e’tibor qarata boshladi. Bu boradagi islohotlar 2017-yil 14-martdagi “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 22-maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2017-yil 30-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident Qarorlarida o‘z aksini topgan.

E’tibor beradigan bo‘lsak, mazkur qarorlarda uzluksiz ta’lim tizimining deyarli barcha turlari qamrab olinganligini ko‘rishimiz mumkin. Qolaversa, “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ham ta’lim sohasini tubdan takomillashtirishga e’tibor qaratilgan. 2022-yil 28-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarda mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da “Milliy o‘quv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 669 nomdagi, shu jumladan, 2022-yilda 296 nomdagi yangi darslik, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarini yaratish” maqsadi doirasida qator vazifalarni amalga oshirish belgilab olingan.

2019-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonning qabul qilinishi davlat tili taraqqiyoti borasida olib boriladigan keyingi faoliyat yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ushbu farmonda qayd etilgan vazifalarni bajarish, o‘zbek tilini rivojlantirish, dunyo tillari darajasiga ko‘tarish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim- tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qaroriga ko‘ra “Maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim o‘quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini va uzviyligini ta’minlash” vazifasi ijrosini ta’minlash bo‘yicha tayyorlangan Umumiy o‘rta ta’limning 1-11-sinflari uchun Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqildi.

Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflari uchun ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturi mukammal tuzilgan bo‘lib, o‘quvchini kreativ fikrlashga, izlanishga, ijodiy fikrlashga yo‘naltirish bilan birga tinglab tushunish, o‘qib tushunish, so‘zlash, yozish kabi nutqiy kompetentsiyalarni shakllantirishga, xalqaro baholash mezonlariga mos holda yaratilgan.

Ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mazkur hujjatlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim turlari o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog‘liq umumiy jihatlar mavjud.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ijodiy yondashuv, ularning mustaqil va ijodiy ishlarining asosiy harakatlantiruvchi omili bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ularni ijodiy yondashuvlarga va kasbiy faoliyatga tayyorlashning dastlabki bosqichidanoq, ya’ni oliy o‘quv yurtlarida o‘qib yurgan davrlarining dastlabki paytlaridanoq boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu bilan bo‘lajak o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonining keyingi qismlarini optimallashtirish ishlarida ham bemalol qatnasha oladi.

Konferensiyalar tashkil etish ham ilmiy tadqiqotlarimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-apreldagi 39-sonli bayoni hamda Oliy ta‟lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi “2023-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 118-sonli buyrug‘iga binoan Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi tomonidan 2023-yil 23-noyabr kuni “Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning global masalalari: muammo, tadqiqot” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazish rejalashtirilgan.

Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi aynan boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari, muammo va yechimlariga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir. Konferensiyada boshlang‘ich ta'limni rivojlantirishning global masalalari, boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitishda to‘rt blokli model (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik) tatbig‘i, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chiroyli yozishga o‘rgatish amaliyoti, boshlang‘ich ta'lim fanlarini integratsiyalab o‘qitish xususiyatlari, boshlang‘ich sinf õquvchilarining bilimini baholashda xalqaro tajribalar kabi bir qator masalalarni ijobiy hal etishning nazariy jihatlarini ko‘rsatib berishi shubhasizdir.

Bugungi kun talabi bilimli, bilim olish yo‘llarini puxta o‘zlashtirgan, mustaqil idrok qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan shaxsga ehtiyoj sezadi. Ta’limning maqsadi mustaqil ijodiy fikrlovchi hamda yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashdir.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL MASALALARI

Ernazarova Manzura Saparboyevna – Navoiy pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi mudiri, f.f.d. (DSc), prof. O‘zbekiston.

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari, ya’ni ona tili va o‘qish savodxonligi ta’limi jarayonida nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirish metodologiyasining zarurati asoslangan. Til ta’limi uchun o‘quvchilarda nutqiy (tinglab tushunish, o‘qib tushunish, so‘zlash, yozish) kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy maqsad va vazifa ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Nutqiy kompetentsiya, tinglab tushunish, o‘qib tushunish, so‘zlash, yozish, lingvistik kompetentsiya, metodologiya, kreativlik.

ГЛОБАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В статье обоснованы актуальные вопросы начального образования, а именно необходимость методики развития речевых компетенций в процессе обучения родному языку и грамотности чтения. Проанализировано, что формирование и развитие речевых компетенций учащихся (аудирование, чтение, говорение, письмо) является основной целью и задачей языкового образования.

Ключевые слова: Речевая компетенция, понимание аудирования, понимание прочитанного, говорение, письмо, языковая компетентность, методология, креативность.

GLOBAL TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF PRIMARY EDUCATION

Annotation: The article substantiates current issues of primary education, namely the need for methods for developing speech competencies in the process of teaching the native language and reading literacy. It is analyzed that the formation and development of students’ speech competencies (listening, reading, speaking, writing) is the main goal and task of language education.

Key words: Speech competence, listening comprehension, reading comprehension, speaking, writing, language competence, methodology, creativity.

Jahon globallashuv sharoitida davlat va jamiyat taraqqiyotining rivojlanishida eng muhim omil deb qaralayotgan ta’lim tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Kanada, Koreya, Shveytsariya, Vengriya, Turkiya va Xitoy kabi mamlakatlarining ta’lim muassasalarida nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirish yetakchi o‘rinda turadi.

Ta’lim tizimining dunyo amaliyotida o‘qitish metodikasini individuallashtirish va kompetentsiyaviy yondashuvlar integratsiyasi asosida o‘qitish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ta’lim sifatini oshirishning yetakchi omili sifatida qaraladi.

Bu o‘rinda nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirish metodologiyasiga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud manbalarda metodologiya tushunchasiga hodisaning turli qirralarini e’tiborga olgan holda turlicha yondashuvlar, nuqtai nazarlar bilan munosabatda bo‘lingani kabi, unga berilgan ta’riflar ham turlicha, bu ta’riflar bir-biriga ziddek tuyuladi. Falsafiy nuqtai nazardan bir narsaga berilgan xilma-xil ta’rif, baho, aslida, bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi tavsiflar sifatida baholanishi lozim, ularning har birini to‘g‘ri qabul qilish uchun qaysi asosdan kelib chiqilayotganligini anglamoq va qabul qilmoq kerak bo‘ladi. Masalan, metodologiya tushunchasiga «ilmiy tadqiq metodlari haqida ta’limot, ma’lum bir fanda qo‘llaniladigan metodlar majmuasi» [4:215], «bilish jarayoniga dunyoqarash tamoyillarini qo‘llash» [8:3], «biror fanga tatbiq etiladigan tadqiqot usullarining majmui; ilmiy bilish va dunyoni o‘zgartirish metodi»[3:258], «ilmiy metod hamda xususiy fanlar metodlari, ya’ni bilish faoliyati yo‘llari haqidagi ta’limot sifatida har qanday fan nazariyasi va amaliyotida katta ahamiyatga ega»[10:211], «inson bilish faoliyatining vositalari, maqsadi va nazariy asosini aniqlab beruvchi»[1:8], «u yoki bu falsafiy sistemaga xos bilish metodi tamoyillariga muvofiqlik, u yoki bu fan tarmog‘iga xos tadqiqot metodlari haqidagi ta’limot»[7:45] degan ta’riflar berilgan. Qolaversa, uning muayyan ilmiy tadqiqot sohasida ishlatiladigan xilma-xil metod, tahlil usullari majmui yoki ular haqidagi ta’limotni emas, balki o‘rganish obyektini qay tarzda tushunish hamda unga qanday nuqtai nazar asosida munosabatda bo‘lishni, shu bilan birga, qanday natija yoki samarani mo‘ljallashini, umuman olganda, o‘qituvchining qaysi dunyoqarash asosida ish tutishini bildirishi haqidagi fikrlar ham mavjud.

Metodologiya quyidagi uch omilning yaxlitlikda mavjud bo‘lishini taqozo qiladi: 1) tadqiq obyektini bilishning qaysi bosqichida (empirik yoki nazariy) tekshirayotganligi; 2) o‘rganish obyektiga qanday usul bilan

yondashishni; 3) tadqiq obyektiga qaysi nuqtayi nazardan yondashuv, ya’ni qaysi omillarga tayanib ish ko‘rilishi nazarda tutiladi [2: 8].

Davr taqozo qilayotgan yangi tarixiy zaruratni idrok etish, undan kelib chiqqan holda o‘rganish obyektiga munosabatda bo‘lish, fanning dolzarb vazifalariga mos zamonaviy metodologiya, metodlar va metodikani tanlash yoki ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasida lisoniy ziddiyatlarni tadqiq qilishdan, birliklarning lisoniy sathda mavjud bo‘lgan mavhum va «jonsiz» qarama-qarshi qutblarini zid qo‘yishdan ko‘ra ularning nutq jarayonida bog‘lanuvchi, mavhum lisoniy ziddiyatlar nafaqat so‘nuvchi, balki bir-biri bilan birlashib, hamkorlik qilib, yaxlitlik kasb etadigan jihatlariga e’tibor qaratish kuchaymoqda. Bu ijtimoiy hayotda hodisalarni dialektik miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuniga tayangan holda jonli sistemalar va ularning funktsionallashuvini o‘rganuvchi sinergetik metodologiya asosida ish ko‘rish zarurati kuchayganligi bilan belgilanadi.

Nutq insoniy ong asosida nutqiy qobiliyatning ishga solinishi, uning natijasi ta’sir qamrovining kengayib ketishi bilan belgilanadi. Nutq lisonning jonli voqelanishi va real namoyon bo‘lishidir. Unga lisoniy qonuniyatlar, lisoniy birlik va strukturaga xos barqaror belgilarning foydalanuvchi ongli faoliyati asosida, nutq yo‘nalishi va oqimi sifat hamda miqdoriga bevosita yoki bilvosita ta’sir qiluvchi nolisoniy omillar bilan qorishgan holda moddiylashuvi sifatida qaraladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida ona tilini o‘qitishni rivojlantirish kontsetsiyasining bosh yo‘nalishi, maqsad, vazifalari, mazmuni, tamoyillaridan kelib chiqqan holda tilshunoslik hamda metodika fanlarining so‘nggi yutuqlari, ulardan ta’lim oluvchilarning hayotiy ehtiyojlariga moslarini tanlagan holda ta’lim muassasalarida ona tili ta’limini amaliy jihatdan samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ona tili ta’limining mazmuniy tuzilishini, shaklini va eng asosiysi, metodologiyasini yangilash zarurati, bugungi kunda til ta’limi uchun o‘quvchilarda nutqiy (tinglab tushunish, o‘qib tushunish, so‘zlash, yozish) kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy maqsad va vazifa sifatida belgilangan. Nutqiy kompetentsiyalarni shakllantirishga asoslangan yangi metodologiya ishlab chiqilgan.

Ona tili ta’limida lingvistik kompetentsiyalarga oid bilimlarning amaliy-nutqiy kompetentsiyalar ustida ishlash asosida amalga oshirilishi yetakchi tamoyil sifatida belgilanganligi natijasida ta’lim oluvchilarning mustaqil, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvorlik kasb etishi, o‘quv materiallarini amaliy o‘zlashtirishda yordam beradigan metodik ta’minotning yaratilishi ahamiyatlidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tilidan egallagan bilim darajasi ko‘pdan beri hammamizni tashvishga solayotgani hech kimga sir emas. Ayniqsa, o‘quvchilarning nutqiy kompetentsiyasi va ijodiy fikrlash darajasi eng asosiy muammolardan biridir. Biz ko‘p hollarda o‘quvchini daryo o‘rtasida turib suv izlayotgan shaxsga o‘xshatamiz. Daryo to‘la suv–bola chanqoq. Lug‘atlarimiz so‘zga to‘la, o‘quvchining bisotida so‘z kam. Bu holat, avvalo, ona tili ta’limi mazmuni bilan chambarchas bog‘langan.

Ta’lim mazmuni dastur va darsliklar hamda o‘quv-metodik qo‘llanmalarda o‘z ifodasini topadi. Ona tili fanini o‘qitishning samaradorligi juda ko‘p omillar bilan chambarchas bog‘langan. Bular ichida ona tili ta’limi mazmuni muhim va etakchi sanaladi. Chunki samaradorlik avvalo o‘quvchilarga “Nimani o‘qitish” masalasi bilan chambarchas bog‘liq. Ona tili ta’limidan o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan zaruriy bilimlar hamda shu bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko‘nikmalar tizimi to‘g‘ri belgilansa, mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati, ya’ni kompetensiyasini shakllantira olsak, “Qanday o‘qitish kerak” degan savolga javob topish mumkin. Samaradorlik ana shu ikki omil bilan bevosita aloqador bo‘lib, bir jarayonning ikki qirrasidir. Bular shu darajada bir-biri bilan bog‘langanki, biri ikkinchisiz hech qanday samara bermaydi.

Metodist olimimiz Asqar G‘ulomov ta’kidlaganidek, “ta’lim mazmunining to‘rtinchi tarkibiy qismi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar tizimi” ekan, darhaqiqat, bugungi ta’limning talabi darsning subyekti o‘qituvchi va o‘quvchi ekanligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. O‘quvchini ta’lim jarayonining subyektiga aylanishi, pedagogni bu jarayondan chetda qoldirmaydi, aksincha, uning ta’sirini kuchaytiradi. Bu murakkab jarayonda o‘qituvchi ham nafaqat nazoratchi, balki tashkilotchiga, faol ishlovchiga, bevosita o‘quv faoliyatining subyektiga aylanadi. Bu yo‘l bilan egallangan bilimlar, shubhasiz, o‘quvchining “shaxsiy mulkiga” aylanadi hamda nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga erishiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi ta’limining samarasi o‘quvchining tilshunoslik yoki adabiyotshunoslikdan olgan bilimi bilan emas, ona tili imkoniyatlaridan foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Shu bois ona tili va o‘qish savodxonligi mashg‘ulotlarida asosiy e’tibor o‘quvchilarga tilning grammatik qurilishini emas, balki ularning so‘z boyligini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, fikrini sharoitga mos ravishda ifodalay olish ko‘nikmalarini kengaytirishga qaratilmog‘i zarur.

Yosh avlodni tarbiyalashda o‘z ona tilida aniq, tushunarli, ta’sirchan, chiroyli so‘zlashga o‘rgatish masalasi asosiy o‘rinda turadi. O‘quvchilarni savodli, o‘z fikrini to‘g‘ri va erkin bayon qila oladigan, nutq madaniyatiga ega kishilar qilib tarbiyalash vazifasi dastlab boshlang‘ich ta’lim bosqichida amalga oshiriladi. Nutqni yaxshi egallagan, o‘z tilining imkoniyatlaridan keragicha foydalana oladigan o‘quvchi, albatta, boshqa o‘quv predmetlarini ham ancha oson va to‘liq o‘zlashtiradi, ularda bilim va madaniyatga bo‘lgan intilish kuchayadi.

Demak, “Zamonaviy ta’limda tilshunoslikning ilmiy masalalariga doir qoidalar keskin qisqartirilib, uncha chuqurlashtirilmagan lingvistik ma’lumotlar tafakkur va nutq o‘stirish amaliyoti “soyasi”da bo‘lishi va unga xizmat qilishi, o‘quvchining miyasi zinhor samarasiz lingvistik qoida va idroki til qurilishiga doir mashqlar bilan band qilib qo‘yilmasligi maqsadga muvofiq” [5: 23]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga amaliyot uchun kerak bo‘lgan ayrim

qoidalarnigina berish, fikrni ifodalash usullarini, nutq sharoitiga mos ravishda qo‘llash yo‘llarini berish, bunga asoslangan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, nutqiy malakalarni rivojlantirishga e’tiborni kuchaytirish zarur.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim sohasida ham amaldagi ona tili ta’limi reproduktiv darsliklardan yangi – kognitiv darsliklarga o‘tish davri kelganligi bilan izohlanadi. Bizga ma’lumki, reproduktiv o‘qitishda o‘quvchiga egallashi lozim bo‘lgan bilimlar, tegishli qoida va xulosalar, unga mos mashq va topshiriqlar tizimi, uni bajarish namunasi tayyor qilib beriladi. Kognitiv ta’limda esa o‘quvchini izlanish, qiyoslash, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish, xulosa chiqarish va bilim olishga undaydi, bilim olish yo‘llarini o‘rgatadi.

Kognitivlikning bosh omili har bir mashg‘ulotda darslik talabi asosida bilimlarni takrorlash emas, balki yangi bilimlar hosil qilish, ijodiy tafakkurning yuksalishiga erishishdir. O‘quvchi darsda ko‘chiruvchi, takrorlovchi, bajaruvchi emas, balki izlovchi, qiyoslovchi, kashfiyotchi bo‘lishi, har bir o‘quv mashg‘ulotida bahs-munozaraga kirisha olishi lozim bo‘ladi.

Dars jarayonida o‘quvchi darslik topshirig‘i asosida ishlashi, fikr qilishi, masalaning to‘g‘ri yechimini topishi va biror xulosaga kelishi uchun o‘z fikrini asoslash va isbotlashga, himoya qilishga intilishi zarur. Demak, ona tili mashg‘ulotlarida kognitiv ta’lim tizimini qo‘llash tasodifiy hodisa emas, balki, zaruriyatdir. O‘quvchilarning ijodiy tafakkurni rivojlantirish, mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan har bir darslikning o‘quv lug‘atlari bo‘lishi shart. Shuningdek, qo‘shimcha axborot manbalari: badiiy adabiyotlar, o‘quv texnika vositalar, elektron o‘quv adabiyotlar, elektron darslik va elektron qo‘llanmalar, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari til imkoniyatini egallashda samarador vositalar sanaladi.

Umumiy o‘rta ta’limning “Ona tili” (1-11-sinf) fanining Milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan darsliklarda amaliy ko‘nikmalarni, nutqiy kompetentsiyalarni, ijodiy, kreativ fikrlashni rivojlantirishga e’tibor qaratilgan edi. Nazariy ya’ni lingvistik-grammatik mavzular amaliy-nutqiy mavzular, matnlar ichiga singdirilgan. Bunda ona tili butun borliqni: tabiatni, jamiyatni, fanlarni, o‘zlikni anglash va o‘rganish vositasiga aylantirilgan. O‘quvchi tilning qonun-qoidasini emas, balki har qanday vaziyatda, turli ijtimoiy munosabatlarda uni qo‘llashni o‘rganadi. Olgan bilimlari evaziga til birliklaridan foydalanish, ifodali va ravon o‘qiy olish malakasi shakllanadi, bir so‘z bilan aytganda, nutq so‘zlashga, teran fikrlashga o‘rganadi. Berilgan mavzularning hayotiyligi kundalik faoliyat uchun zaruriy ko‘nikmalarni, nutqiy kompetentsiyalarni, ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkonini berishga qaratilganligi, topshiriqlarning o‘quvchi hayotida uchraydigan vaziyatlarda keng qo‘llashi nazarda tutilgan holda o‘quvchining mantiqiy fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy topshiriqlarga e’tibor qaratilganligini alohida ta’kidlash lozim.

Nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirishning sifat va samaradorligini ta’minlash maqsadida o‘quvchilarning bilim, ong va tafakkurni rivojlantirish asosida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo‘llashga o‘rgatadigan kompetentsiyaviy, innovatsion yondashuvga asoslangan ta’lim tizimini jahon andozalariga to‘liq moslashtirish, strategiya, innovatsiya va sifrovizatsiya mohiyatini anglagan, islohotlar ijrosini ta’minlashga qodir bo‘lgan kadrlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Nutqiy kompetentsiyalar ustida ishlash o‘quvchilarning o‘qish, anglash, tafakkur qilish, bunyod etish, yangi g‘oyalar, kreativlik, tashabbuskorlik kompetentligini, zamonaviy ko‘nikma va malakalarini rivojlanishiga hamda xalqaro mehnat bozorida tengdoshlari bilan barobar raqobat qilishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kun talabi bilimli, bilim olish yo‘llarini puxta o‘zlashtirgan, mustaqil idrok qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan shaxsga ehtiyoj sezadi. Ta’limning maqsadi mustaqil ijodiy fikrlovchi hamda yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashdir.

Ona tili va o‘qish savodxonligi ta’limi o‘z maqsadiga zamonaviy tipdagi dastur, darslik va turli ta’lim vositalari yordamida erishadi. Zamonaviy darslik asosida tadbirkor, axborot manbayidan to‘g‘ri, oqilona, unumli, samarali va tez foydalana oladigan, o‘z sharoitida ularni maqsadli qo‘llay biladigan barkamol shaxs voyaga yetadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bushuy T., Safarov. Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. – B.8.
2. Ernazarova M. Grammatik ma’no lisoniy va pragmatik omillar yaxlitilgida. Toshkent, 2016, 158.
3. Falsafa. Qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq, 2004. – B.258.
4. Filosoficheskiy slovar. – M.: PL, 1968. – C.215.
5. Mengliyev B. Ijtimoiy buyurtma va til tadqiqi hamda ta’limi. Toshkent, 2011, 23-bet.
6. Milliy o‘quv dasturi. Toshkent, 2021.
7. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. I jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B.45.
8. Stepanov Yu.S. Metodы i printsipы sovremennoy lingvistiki. – M., 1975. – S.3.
9. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. Bobomurodova A. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2012, 380.
10. Shermuhammedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. – Toshkent: O‘zMU, 2005. – B.211.

TINISH BELGILARINI ISLOH QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mirzayev I.K.
SamDU, f.f.d., professor, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, O‘zbekiston.

Annotatsiya. Maqolada tinish belgilarining paydo bo‘lishi, nuqta, ikki nuqta, qo‘shtirnoq haqida qisqacha ma’lumot beriladi, o‘zbek tili tinish belgilari ruscha tinish belgilarining tarjimasi ekani qayd etiladi, Yevropa va Rossiyada tinish belgilarining ko‘payishiga sabab bo‘lgan omillar ko‘rsatiladi, tinish belgilarining funktsiyalari ko‘rsatiladi, O‘zbekistonda imlo 5 marta isloh qilingani holda tinish belgilari tizimi biror marta ham isloh qilinmagani, ularning ko‘p qo‘llanishi salbiy holat ekani uqtiriladi, bu holat punktuatsiyaning mavjud tizimini qayta ko‘rib chiqish lozimligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: tinish belgisi, punktuatsiya, nuqta, vergul, qo‘shtirnoq, funktsiya, tizim, omil, istiqlol.

Abstract. The article briefly discusses the history of the origin of punctuation marks, notes the direct translation of Russian punctuation marks into the Uzbek language, explains the reasons for the increase in their number, and also indicates the functions that they perform in a sentence. All this, according to the author of the article, determines the need to reform the system of punctuation marks.

The article is accompanied by a scientific work by Prof. Gani Zikrilloev (BukhSU).

Key words: sign, punctuation, system, dot, vergul, quotation marks, parentheses, ellipsis, reform, function, independence.

Аннотация. В статье кратко освящается история возникновения пунктационных знаков, отмечается прямой перевод русских пунктационных знаков на узбекский язык, обьясняются причины увеличения их количества,а также указываются функции, которые они выполняют в предложении.

Все это, по мнению автора статьи, обуславливает необходимость реформирования системы пунктационных знаков.

К статье приложена научная работа проф.Гани Зикриллоева (БухГУ).

Ключевые слова: знак, пунктуация, система, точка, вергуль, кавычки, скобки, многоточие, реформа, функция, независимость.

I. Yevropa tillarida tinish belgilarining paydo bo‘lishi aleksandriya grammatikalariga, xususan, eramizdan avvalgi II-I asrlarda yashnab ijod etgan Aristofan, Aristarx, Dioniseyning tadqiqotlariga borib taqaladi. Tinish belgilari yozuvdan ancha keyin paydo bo‘lgan. Uning hozirgi ko‘rinishi XV asrda shakllangan. XV asrgacha Yevropa va Rossiyada so‘zlar qo‘shib, oraliqsiz yozilgan.

Manbalarda keltirilishicha, dastlab nuqta (tochka) paydo bo‘lgan va u hozirgidek misraning pastida emas, balki o‘rtasida qo‘yilgan. Uni birinchi bo‘lib Maksim Grek (asl ismi Mixail Trivolis (1480-1556, Gretsiya, Rossiya) kashf etgan. Tinish belgilari haqidagi fanning punktuatsiya deb atalishi nuqta (fr. point) bilan bog‘liq.

Tinish belgilaridan foydalaniladigan tillarda eng ko‘p ishlatiladigan belgi vergul (zapyataya) hisoblanadi. Ikki nuqta XVI, qo‘shtirnoq XVIII asrda muomalaga kiritilgan va b.

XX asrda yevropa tinish belgilari tizimi rus tilidan kalka yo‘li bilan o‘zbek tiliga ham kirib kelgan:

Русча	-	***O‘zbekcha***
точка		nuqta
запятая		vergul [1]
тире		tire, chiziqcha
точка с запятой		nuqtali vergul
двоеточие		ikki nuqta
вопросительный знак		so‘roq belgisi
восклацательный знак		undov belgisi
кавычки		qo‘shtirnoq
скобки		qavs
многоточие		ko‘p nuqta

II. Yevropa va Rossiyada tinish belgilarining tarkib topishi, ko‘payishi va takomillashuvida adiblarning (ayniqsa, rus sovet proletar shoiri V.V.Mayakovskiyning), til hodisalarining qo‘llanishini me’yorlashtirish bilan shug‘ullangan tilshunoslarning (Ya.K.Grot, A.B.Shapiro, D.E.Rozental (Rossiya), punktuatsiyani tilshunoslik sohasi sifatida o‘rgangan olimlarning (K.F.Bekker (Germaniya), J.D.Damuret (Frantsiya), M.V.Lomonosov, Boduen do‘ Kurtene, V.A.Itskevich, L.G.Vedenina, N.S.Valgina (Rossiya), kitob bosish kashf etilishining (XV-XVI asrlar) xizmatlari katta bo‘lgan. V.I.Klassovskiy rus tili punktuatsiyasini nemis tili punktuatsiyasiga qiyoslab o‘rgangan [qarang. Lingv. entsik. slovar 1990, 407].

Tilshunoslikda tinish belgilari qo‘llanishining quyidagi vazifalari aniqlangan:

1) *Semantik* vazifa (yozma matnni o‘qish va tushunishdagi roli – S.I.Abakumov, A.B.Shapiro);
2) *Grammatik* vazifa (yozma matnning sintaktik tuzilishini aniqlashdagi roli – Ya.K.Grot);
3) *Intonatsion* vazifa (tinish belgilarining nutq ritmikasi va melodikasi ko‘rsatkichi sifatidagi roli);

1 O‘zbek tilida *запятая* termin ham emas, balki uning lotincha tarjimasidan foydalaniladi.

4) *Kommunikativ* vazifa (yozma matnda tinish belgilari yordamida so‘z va so‘z birikmalarining kommunikativ yukini ko‘rsatishdagi roli);

5) *Funktsional* vazifa (tinish belgilarining qo‘llanish qonun-qoidalarini o‘rganishdagi roli).

Tinish belgilaridan foydalanish darajasi har yerda har xil. Masalan, Dog‘iston avtonom respublikasida amal qilayotgan lazgin tillaridan biri bo‘lmish tabosaran(darvoqe, tabosaran tilida 44 tadan ortiq kelishikdan foydalaniladi) tilida eng murakkab punktuatsiya amal qilsa, kxmer, laos, tay tillarida esa tinish belgilaridan foydalanilmaydi.

III. Alifbo, jumladan, tinish belgilarining ko‘pligidan norozilik kayfiyatlari hamma davrlarda ham bo‘lib turgan. Masalan, Rossiyada alifbo islohoti Petr I tomonidan o‘tkazilgan. 1918-yilda Rossiya FA o‘tkazgan alifbo islohida bir necha harf va tinish belgilari chiqarib tashlangan.

Quroni Karimda biz bilgan birorta ham tinish belgisi yo‘q. Unda zeru zabar deb atalmish tinish belgilari batamom boshqa maqsadlarda qo‘llanadi. Ular to‘xtam (pauza), qo‘shib yoki ajratib o‘qish vazifalarni bajaradi. Suralarning oyatlarga bo‘linishi, to‘xtam (vaqf) va yarim to‘xtam (sakt) bizga Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) va ul zotning sahobai ikromlaridan yetib kelgan. Keyinchalik ajam (arab bo‘lmagan)lar tajvid qoidalarini buzmasliklari uchun zeru zabarlar kashf etilgan [qarang: Koran. Vopros po soderjaniyu].

O‘zbekistonda keyingi 30-35 yil ichida o‘zbek orfografiyasi 5 marta isloh qilingani holda, rus tilidan olingan o‘nta tinish belgisini qo‘llash tamoyillari bir marta ham qayta ko‘rib chiqilmagan yoki o‘zbek tili qonun-qoidalariga moslashtirilmagan. Natijada, masalan: *“Sobir: har bir ishiga tajriba ko‘zi bilan qarash kerak”, - deydi, - dedi Karim* gapida besh xil tinish belgisidan bir yoki ikki marta foydalanilgan [misol prof. G‘ani Zikrillaevniki, 253-b.]. Tinish belgilarining *milliyligiga* (prof. K.Nazarov) tarjima matnlarda ham amal qilinmaydi. Qiyoslang: *“Va: Ey Robbim, meni muborak manzilga tushirgin, sen O‘zing manzilga tushiruvchilarning eng yaxshisisan, degin, dedik”*. Qur’oni karimning ushbu oyatida qo‘llangan tinish belgilari haqida prof. G‘ani Zikrillaev shunday yozadi: “Shu o‘n beshta mustaqil va yordamchi so‘zdan iborat jumlada to‘qqiz o‘rinda tinish belgisi qo‘llangan. Naml surasining 16-oyati tafsiri oltmish oltita mustaqil, yordamchi va qisqartma so‘zdan tarkib topgan. Unda oltmish besh o‘rinda tinish belgisi qo‘yilgan” [Zikrillayev, 453-454].

Prof. G‘ani Zikrillayev tinish belgilari tizimini tilning bosh xususiyati bo‘lmish tejamkorlik tamoyili asosida qayta ko‘rib chiqish lozimligi haqida etiborga molik fikrlarnini bildiradi. Biz bu fikr-mulohazalarni ushbu maqolaga ilova qilamiz va hurmatli anjuman qatnashchilaridan ularga munosabat bildirishlarini so‘raymiz.

Xullas, o‘zga tillardan o‘zlashtirilgan tinish belgilari tilimizning milliy xususiyatlarini aks ettirmaydi, aholining savodxonlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘quvchilarning fikrlash imkoniyatlarini cheklaydi. Bu kabi nojo‘ya holatlar o‘zbek tili tinish belgilari tizimini isloh qilish dolzarb vazifalardan ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. А б д у р а ҳ м о н о в Ғ. Тиниш белгиларини ўрганиш методикаси. –Т., 1968.
2. З и к р и л л а е в Ғ. Руҳ ва тил. –Т.: Фан, 2018.
3. Зикриллаев Ғ. Истиқлол ва пунктуация.
4. В е д е н и н а Л. Г. Пунктуация французского языка, М., 1975.
5. Н а з а р о в К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. –Т.: Фан, 1974.
6. Н а з а р о в К. Ўзбек тили ишора-имло қоидалари (Пунктуация). –Т., 1996.
7. В а л г и н а Н. С., Русская пунктуация: принципы и назначение, М., 1979.
8. Р о з е н т а л ь Д. Э. Справочник по пунктуации. Для работников печати, М., 1984.
9. И в а н о в а В. Ф. История и принципы русской пунктуации, Л., 1962.
10. И ц к о в и ч В. А. Опыт описания современной пунктуации // Нерешённые вопросы русского правописания, М., 1974.
11. К л а с с о в с к и й В. И. Знаки препинания в пяти важнейших языках, СПБ 1869.
12. К о р а н. Вопрос по содержанию // wwwwhy_islam.to.
13. D a m o u r e t t e J. Traité moderne de ponctuation, P., 1939.
14. S k e l t o n R., Modern English punctuation, 2 ed., L., 1949.

BOSHLANG‘ICH SINFLAR UCHUN ONA TILIDAN LEKSIK MINIMUMNI ANIQLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori,
filologiya fanlari doktori, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflar uchun ona tilidan leksik minimumni aniqlashning muammo va yechimlari tahlil qilingan. 2-sinfdan boshlab, to‘g‘ri, ravon va boy nutqning asosiy vositasi bo‘lgan so‘zning turli qirralariga alohida e’tibor qaratish ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Leksik minimum, boshlang‘ich sinf, adabiy til, to‘g‘ri talaffuz, imlo, uslub, so‘z san’ati.

Аннотация: В статье анализируются проблемы и пути решения определения лексического минимума родного языка для начальных классов. Утверждается, что начиная со 2-го класса необходимо уделить особое внимание различным сторонам слова, которое является основным инструментом правильной, беглой и насыщенной речи.

Ключевые слова: Лексический минимум, начальный класс, литературный язык, правильное произношение, орфография, стиль, искусство слова.

Annotation: The article analyzes the problems and solutions to determining the lexical minimum of the native language for primary grades. It is argued that starting from the 2nd grade it is necessary to pay special attention to the various aspects of the word, which is the main tool for correct, fluent and rich speech.

Key words: Lexical minimum, elementary grade, literary language, correct pronunciation, spelling, style, art of words.

XIX asrning keyingi yarmida Yevropa va G‘arbda sanoatlashuv davri boshlandi. Sanoqli kishilar ishlaydigan kichik tsexlar, artellar, ustaxonalar, do‘kon-dastgohlar, kichik manifakturalar o‘rnini katta-katta, zamonaviy zavod va fabrikalar egallay boshladi. Ularda mamlakatning turli burchaklaridan kelgan, har xil shevada gapiradigan ming-minglab ishchilar ishlashar, tabiiyki, ularning o‘zaro muloqotlarida, zamonaviy texnika bilan “tillasha” olishlarida, albatta, muammolar mavjud edi. Mehnat unumdorligiga erishish uchun ishchilar savodli bo‘lishlari, loyihalarni o‘qiy olishlari, dastgohlarning texnik yo‘riqnomalaridan foydalana bilishlari, zarur hollarda texnik ta’lim ola bilishlari kerak edi. Shu tariqa, sanoat, ishlab chiqarishning shiddatli yuksalishi milliy tillarning adabiy me’yorlarini ishlab chiqish, yagona adabiy tilni shakllantirish va uning ta’limini tashkil etish zaruratini kun tartibiga qo‘ydi. Bu holat O‘zbekistonimiz uchun ham begona emas edi.

O‘tgan asrning ilk choragida hali hozirgi o‘zbek adabiy tili (aslida tili emas, balki nutqi) shakllanmagan, me’yorlari ishlab chiqilmagan, busiz esa na ta’limni, na ish yuritishni yo‘lga qo‘yib bo‘lar edi. Adabiy til taraqqiyot uchun suv va havodek zaruratga aylandi. Ma’lumki, adabiy til umumxalq tilining me’yorlashtirilgan ko‘rinishi bo‘lib, bu me’yorlar orfoepik (talaffuz), orfografik (imlo) va grammatik (gap qurilishi) hamda uslubiy (so‘z tanlash va qo‘llash) turlarni o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich ta’lim ham adabiy til, ilmiy asoslangan me’yorlardan iborat bilimlarga tayanishi kerak. Shuning uchun ilk boshlang‘ich sinflar tashkil etilib, o‘quvchilarga adabiy tilning zarur qoidalari singdirila boshlagan. Ya’ni, harf va tovushlar, undosh tovushning turlari va o‘zgarishi, imlosi, bo‘g‘in va urg‘u, so‘z ma’nolari, so‘z turkumlari, shakl yasovchi qo‘shimchalar va ularning imlosi, gap bo‘laklari, sodda va qo‘shma gap, tinish belgilari, talaffuz va imlo qoidalari, til birliklarining uslubiy xususiyatlari kabilar. Adabiy nutqqa o‘rgatish uchun shuning o‘zi, uning ta’limi uchun boshlang‘ich sinf yetarli edi. Bu bilimlar to‘la ma’nodagi zarur va ishlaydigan bilim edi. Keyinchalik yetti yillik ta’limga o‘tildi. Ana shu vaqtdan adabiy til ta’limidagi zaruratning an’anaga aylanishi yuz bera boshladi.

Yuqori to‘rt (4-7) sinf uchun yangi talab va maqsad qo‘yilmasdan, o‘ziga xos ta’lim mazmuni ishlab chiqilmasdan, boshlang‘ich sinflar uchun belgilangan zaruriy bilimlar nozarurlari bilan chuqurlashtirilaverdi. Ta’limdagi miqdor o‘zgarishlari natijasida sifat o‘zgarishlari yuz bera boshladi – adabiy til ta’limida tilshunoslikning nazariy asoslari ko‘proq o‘rin egallay boshladi. Adabiy nutq ta’limi lingvistik bilimlar soyasida qola boshladi. O‘n, keyinchalik o‘n bir, bora-bora o‘n ikki yillik o‘rta ta’limga o‘tilgach, ona tili ta’limi o‘zining asl maqsadidan chekinib, asosan tilshunoslikka aylanib qoldi.

Ta’limda o‘qituvchi og‘ir tilshunoslik bilimlarini, ya’ni tushuncha va qoidalarni o‘quvchiga yetkazishga, uning bilimiga aylantirishga urinar ekan, faqat maktab ta’limi uchun xos bo‘lgan asosiy vazifa – o‘quvchida to‘g‘ri talaffuz, imlo, uslub, so‘z san’ati(yangi so‘zlarni o‘zlashtirish, so‘zlarni tanlash, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash)ga doir ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ko‘nikmani malakaga, malakani odatga aylantirish muammosiga o‘z-o‘zidan keyingi darajali masala sifatida qaraydigan bo‘lib qoldi. Joriy darsliklarimiz tubdan yangilanishi kerak. Chunki:

birinchidan, eng a’lochi o‘quvchi ham shaxsning so‘z boyligini ko‘rsatuvchi, o‘zi o‘qiyotgan, hatto maktab dasturiga kiritilgan badiiy asarlardagi *junbushga kelmoq, chapdast, rutubat, jarohat, yara, ohanrabo, habib, hassos, quralay, g‘avvos, to‘namoq* kabi minglab so‘zlarning ma’nolarini tushunmay o‘tib ketaveradi. Chunki ona tili ta’limi – so‘z ta’limi bo‘lmay qolgan;

ikkinchidan, o‘quvchilarning yangi so‘zlarni egallashi, so‘z boyligini oshirib borishi zarurati shu darajada kamayib ketganki, hatto ona tilidan lug‘at daftari yuritilmaydi;

uchinchidan, ona tili mashg‘ulotlarida lug‘atlar bilan ishlashga yo‘naltiradigan mashq va topshiriqlar deyarli yo‘q;

to‘rtinchidan, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, o‘zbek tilining har bir davrdagi xususiyatlarini o‘zida aks ettiradigan va tasdiqlangan o‘quv lug‘atlari chop etilmagan;

beshinchidan, maktab darsliklarining ilovasida egallanishi, o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan so‘zlarning emas, balki lingvistik terminlar lug‘atlarining ilova qilib kelinayotganligi ham ona tili mashg‘ulotlarining tilshunoslik darslariga aylanib qolganligini ko‘rsatadi.

So‘z, ibora, maqol, matallar, ularning qo‘llanishi, imlosi kabi masalalar maktab ona tili ta’limi mazmunining asosi, o‘zagini tashkil etishi lozim.

Ona tili ta’limi o‘quvchini so‘z saltanatiga olib kirishi kerak. Buning uchun til va adabiyot fanlari integratsiyasi masalasini mutlaqo qayta ko‘rib chiqish lozim. Ma’lumki, adabiyot darslarida, asosan, mumtoz adiblarimiz ijodi o‘rganiladi. Demak, shunga muvofiq ravishda, bu sinfda ona tili darslari “Ona tili. Mumtoz so‘z” deya nomlanib, o‘quvchilar mumtoz matnlar mazmunini o‘rganishlari, tahlil qilishlari, so‘zlarning zohiriy, botiniy, ramziy ma’nolarini o‘rganishlari, lug‘atlar bilan ishlashlari, ma’no “mag‘iz”larini chaqishlari zarur. Bu quyidagi jihatlari bilan e’tiborga molik bo‘ladi:

birinchidan, o‘quvchilar mumtoz adabiyotga ongli ravishda oshno bo‘ladilar;

ikkinchidan, ularning so‘z zaxirasi, demakki, nutqi muttasil boyib boradi;

uchinchidan, o‘quvchilarning savodxonligi avtomatik ravishda oshib boradi;

to‘rtinchidan, mumtoz so‘zlar ma’nosidagi ma’rifat, ma’naviyat, qadriyatlarimiz avlodlar ongiga singib boradi;

beshinchidan, o‘quvchilarimizda mantiqiy, obrazli, assotsiativ fikrlash, tafakkur yuksalib boradi.

Aytilganidek, 2-sinfdan boshlab har bir sinfda to‘g‘ri, ravon va boy nutqning asosiy vositasi bo‘lgan so‘zning turli qirralariga alohida e’tibor qaratiladi. Masalan, “Ona tili. So‘z mulkiga sayohat” (5-sinf), “Ona tili. So‘z sehri” (6-sinf), “Ona tili. Fasohat” (7-sinf), “Ona tili. Madaniy nutq” (9-sinf) kabi.

O‘quv lug‘atlari zarurligi haqida ko‘p gapirib va yozib kelinmoqda. O‘quv lug‘atlari yaratilmas, o‘quvchilarning stolida ona tilidan uning yoshiga mos ko‘plab o‘quv lug‘atlari turmas, buning uchun o‘quv leksikografiyasi nazariy va amaliy soha sifatida tizimli yo‘lga qo‘yilmas ekan, ona tili ta’limi o‘zining haqiqiy mohiyatidan begonaligicha qolaveradi.

Mamlakatimizda o‘quv lug‘atchiligi sohasi eng oqsoq sohalardan. Uning yetarli darajada shakllanmaganligi lug‘atlarni tayyorlash va nashr qilish bilan bog‘liq ilmiy va moliyalashtirish tizimi yaratilmaganligi bilan bog‘liq.

Ona tili ta’limidagi farzandlarimizning bilimli, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikr, tafakkur sohiblari bo‘lib voyaga yetishiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar haqidagi bu fikr va takliflarimizga ularning yechimiga bevosita yoki bilvosita daxldor soha mutasaddilari, mutaxassislari, umuman, ta’lim fidoyilari befarq bo‘lishmaydi va o‘zlarining xolis munosabatlarini bildirishadi degan umiddamiz.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’limdan boshlab, ona tili o‘qitishda o‘quvchilar leksik minimumi va grammatik maksimumni aniqlash dolzarb masalalardan bo‘lib turibdi. O‘quv lug‘atlarini yaratishda ham leksik minimumni e’tiborga olish zarur. Ijodkorlarga bolalar uchun asar yozib berishlari uchun ham leksik minimum juda kerak bo‘ladi.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA KO‘RIB TUSHUNISH FIKRLASHGA O‘RGATUVCHI MUHIM KO‘NIKMA SIFATIDA

Hamroyev G‘ofir Hasanovich
Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Annotasiya. Maqoladaboshlang‘ich ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan yangi pedagogik texnologiyalar hayot uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qilishi, aslida ta’lim real hayotning uzviy bir qismi bo‘lishi, idrok bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rib tushunish ko‘nikma va malaka sifatida alohida o‘rganilmasligi, didaktikada barkamol insonni tayyorlash, kasbiy malakani rivojlantirish tizimida ham kompetentsiya sifatida mavjud emasligi, uni tadqiq qilish zarurati mavjudligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: ko‘rib tushunish, ko‘nikma, malaka, kompetentsiya, idrok qilish, analitik tafakkur, tinglab tushunish, so‘zlash, kuzatish, qarash, solishtirish, taxmin qilish, o‘quv topshiriqlari, savol, didaktika, metodika, umumiylik, xususiylik, mohiyat, hodisa, pragmatik yondashuv, baholash

ОБЗОР КАК ВАЖНЫЙ НАВЫК МЫШЛЕНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В статье отмечается, что новые педагогические технологии, применяемые в образовательном процессе, должны служить развитию навыков и умений, необходимых для жизни, что, по сути, образование является неотъемлемой частью реальной жизни, что восприятие, связанное с восприятием, не может изучаться отдельно как умение и квалификация, что подготовка компетентного человека в дидактике не существует как компетенция даже в системе развития профессиональной компетенции, на основе.

Ключевые слова: видение, умение, компетентность, компетентность, восприятие, аналитическое мышление, понимание на слух, речь, наблюдение, взгляд, сравнение, предположение, учебные задания, вопрос, дидактика, методика, общность, особенность, сущность, явление, прагматический подход, оценка

Abstract. The article notes that new pedagogical technologies used in the educational process should serve the development of skills and abilities necessary for life, that, in fact, education is an integral part of real life, that perception associated with perception cannot be studied separately as a skill and qualification, that the training of a competent person in didactics is not exists as a competence even in the system of professional competence development, based on.

Keywords: vision, skill, competence, competence, perception, analytical thinking, listening comprehension, speech, observation, view, comparison, assumption, study tasks, question, didactics, methodology, generality, peculiarity, essence, phenomenon, pragmatic approach, assessment

Kirish. Inson tinglash barobarida o‘qib tushunishdan oldin *ko‘rib tushunish* jarayonlarini bosib o‘tadi. Pedagogikada ko‘rish orqali ko‘proq ma'lumot o‘zlashtirish mumkinligi ilmiy asoslangan, ammo ta’limda ko‘rib tushunish masalasi ko‘nikma yoki malaka darajasida tadqiq qilinmay kelinadi. Aslida insonlar borliqni, vaziyatni, predmetni, jarayonni bir xilda, yetarli darajada ko‘rib tushuna olmaydi. Buning uchun maxsus tayyorgarlik jarayonini o‘tashi, ta’lim olishi zarur. Didaktikada ko‘rib tushunish – oddiy fiziologik hodisa emas, muhim pedagogik omil sifatida tadqiq etilishi hamda uning ko‘nikma, malaka hamda kompetentsiya darajasida tavsifi berilishi lozim. Ko‘rib tushunish idrok qilish, analitik tafakkurni shakllantiruvchi zarur instrument, uni ta’lim oluvchida shakllanganini baholovchi indikatorlarni ham ishlab chiqish kerak.

Jahon tajribasida talabalarni kasbga tayyorlash bo‘yicha turli yondashuvlar qo‘llaniladi. Ularning orasida dual yondashuv samaraliroq ekanligi tobora ommalashib bormoqda. Adam Smit o‘zining taniqli asarida ta’kidlaganidek: “Dual ta’limda – ish joyida ustoz shogirdga kasb-hunarning an’anaviy usullarini o‘rgatish deb hisoblash kerak, chunki usta bilan birga ish olib borish, yosh ishchilarni kasbga bo‘lgan qiziqishlarini orttirib boradi”[1]. Olim dual ta’lim tizimi, Yevropa ta’lim tizimining amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, kelajakdagi mutaxassisning muvaffaqiyatli kasbiy va ijtimoiy moslashuvi uchun ta’lim tashkilotlari va ish beruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mahsulidir. Talaba o‘quv jarayonining dastlabki bosqichlarida korxona, tashkilot xodimi sifatida ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan. Mashhur “Xalqlar boyligining tabiati va sabablariga doir tadqiqotlar”asarida Adam Smit ikki tomonlama o‘qitishda shogirdlik va murabbiylik tizimlarini ish joyida kasbiy tayyorgarlikning an’anaviy usullari, deb hisoblash kerakligini ta’kidlaydi, chunki usta yonida ishlash jarayonida, bo‘lajak ishchilar *ko‘rib tushunish asosida*ta’lim asoslarini o‘rgandilar. Kasbikki tomonlama o‘qitish modelli korxonalarni kadrlar tayyorlash jarayoniga jalb qilishni nazarda tutadi, bu esa xodimlarni o‘qitish bilan bog‘liq juda katta xarajatlarga olib keladi, chunki ular yuqori sifatli kasb-hunar ta’limi xarajatlari kapitalning ishonchli hissasi ekanligini yaxshi bilishadi. Shu bilan birga, ular nafaqat o‘qitish natijalari, balki o‘qitish mazmuni, uni tashkil etish bilan ham qiziqishadi, deb ta’kidlaydi [2].

Sudakova talabalar uchun ikki tomonlama ta’lim erta mustaqillikka erishish va kattalarga qiyinchiliksiz moslashish uchun ajoyib imkoniyatdir. Dual ta’lim tizimi axborot yetishmasligi va nochor amaliy ta’lim oqibatida ta’lim boshqa shakllari uchun muqarrar holda, ish mohiyatiga silliq kirishini ta’minlaydi. Bu nafaqat muayyan mehnat vazifalarini bajarishni o‘rganishga imkon beradi, balki jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi, kasbiy kompetentsiya va mas’uliyatni shakllantiradi. Dual ta’lim modeli o‘z darajangizni boshqarish uchun ajoyib imkoniyatlarni taqdim etadi. Uning doirasidagi tayyorgarlik darajasi doimiy ravishda oshib bormoqda. Hech bir ta’lim tashkiloti ishlab chiqarish bo‘yicha bunday bilim va malakalarni ikki tomonlama o‘qitish kabi chuqur berishga qodir emas, bu uni muvaffaqiyatli darajaga ko‘taruvchi muhim qadam bo‘ladi [2: 62-64].

Dual ta’lim tizimi nazariyani amaliyotda ko‘rish va tushunish, o‘zlashtirish faoliyatidir. Ta’kidlagnimiz kabi, ko‘rib tushunish ko‘nikma yoki malaka sifatida ajratilmaydi. Uning bir qismi til ta’limidagi o‘qib tushunish ko‘nikmasi tarkibida baholab ketiladi. Unda, asosan, rasm, video hamda audiovizual materiallarni tushunishga e’tibor qaratiladi. Xalqaro pedagogikada vizual tushunish *(understanding vision)* alohida kompetentsiya siftida mavjud emas. Shu bilan birga, ma’lumotni vizualizasiya qilish, vizual ma’lumotlarni tahlil qilish va tushunish, axborotni uzatish uchun vizual vositalar va usullardan foydalanish qo‘shimcha mahorat yoki ko‘nikma sifatida qaralishi mumkin. Bu dizayn, marketing, ma’lumotlar tahlili va taqdimot tayyorlash kabi sohalarda foydalaniladi. Vizual tushunish – rasmlar, diagrammalar, grafiklar va boshqalar kabi vizual tarzda taqdim etilgan ma’lumotlarni tahlil qilish va sharhlash qobiliyatidir. Vizual idrok etish qobiliyati yuqori bo‘lgan odamlar vizual elementlarni tanlab olish va tahlil qilish, munosabatlarni aniqlash, shuningdek, taqdim etilgan ma’lumotlar bo‘yicha xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega. Ushbu kompetentsiya dizayn, mediya, markting, reklama va san’at kabi sohalarda ayniqsa muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko‘rib tushunish kompetentsiyasi esa – ta’lim oluvchida predmetdan tashqari ***holatni, jarayonni, faoliyatni*** ko‘rib tushunish, tahlil qilish va o‘z xulosasini bayon qilish faoliyatidir. Bunda faqat rasm, video materiallar emas, butun o‘quvchi yoki talabaning kelajak hayotida duch keladigan predmetlar, holat, jarayon va faoliyatni ko‘rib tushunish nazarda tutiladi. Shuningdek, talablarni kasbga tayyorlashga yo‘naltirilgan dual ta’lim tizimida ularning dars-mashg‘ulotlar bilan birga ishlab chiqarish jarayonlarini ham borib ko‘rib o‘rganish asosidagi ko‘nikma va malakalarini baholash imkoni bo‘ladi. Ko‘rib tushunish ko‘nikmasining malaka va kompetentsiyaga aylanish mexanizmi ishlab chiqilishi bugun muhim, hal qilishi lozim bo‘lgan pedagogik, metodik muammolardan biridir.

Dual ta’limda ko‘rib tushunish ko‘nikmasi kasbiy kompetentsiyaga ega bo‘lishda quyidagi vaziflarani bajaradi:

т/р	**Ta’limmazmuni**	**Ko‘nikmavamalakalar**	**Natija**
1.	O‘quv adabiyotlar	O‘qib tushunadi	Ma'lumotga ega bo‘ladi
2.	O‘qituvchilar	Tinglab tushunadi	Ma'lumotga ega bo‘ladi
3.	Rasm, video, haykaltaroshlik namunalaridagi predmet, harakat, holat, jarayon va faoliyatni	Ko‘rib tushunadi	Malakaga ega bo‘ladi

Mazkur model o‘quvchilarda komunikativ kompetentsiyani hosil qilishda yordam beradi.

Ko‘rib tushunish ko‘nikmasi kasbiy kompetentsiyaga ega bo‘lishda quyidagi vazifani bajaradi:

T/r	**Ta'limmazmuni**	**Ko‘nikmavamalakalar**	**Natija**
1.	O‘quv adabiyotlarni	O‘qib tushunadi	Ma'lumotga ega bo‘ladi
2.	O‘qituvchilarni	Tinglab tushunadi	Ma'lumotga ega bo‘ladi
3.	Rasm, video, haykaltaroshlik namunalaridagi predmet, harakat, holat, jarayon va faoliyatni	Ko‘rib tushunadi	Malakaga ega bo‘ladi

Faoliyat zarur kompetentsiya sifatida kuidagilard quyidagilardan iborat:

- til vakolatlari;
- nutqni konvertatsiya qilish;
- pragmatik kompas;
- tadqiqot;
- aloqa tarkibi.

Mutaxassislarning malakasini oshirish uchun malakali tadqiqotlar o‘tkazish uchun harakatlar zarur.

Bu talablarni amalga oshirish, formatlash qo‘mitalari, albatta, maxsus o‘qitilgan, buni talab qiladi. Suhbat davomida kelajakda nima bo‘lishi mumkinligi bilan bog‘liq masalalar muhokama qilindi.

Pragmatizm – ta’limni hayotga yaqinlashtirish, ta’lim maqsadlariga amalda erishish tarafdori bo‘lgan falsafiy-pedagogik yo‘nalish bo‘lib, dastlabki pragmatistlarning g‘oyalari amerikalik faylasuf va pedagog D.Dyui tomonidan ishlab chiqilgan [3]. Uning qayd etishicha, ta’liminsonni hayotga tayyorlash vositasi emas, u hayotning o‘zi. Tarbiya odamlarni birlashtirishi, yoshlarni ijtimoiy tinchlik va totuvlik ruhida tarbiyalash lozim.

D.Dyui ta’lim ijtimoiy muhitni yaxshilash, jamiyat turini inqilobiy o‘zgarishlarsiz o‘zgartirishning hal qiluvchi vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Amerika deskriptiv lingvistika maktabi pragmatik ta’lim zarurligini isbotlay olgan va umumiy aholining taraqqiyoti va manfaatlariga mos keladigan ta’lim maqsadlarini taklif qila olgan.

Bu ham didaktik, ham psixologik (ruhiy) jarayon bo‘lib, jumladan, psixolog olim M.Neppning ta’kidlashicha, bola 2-3 yoshida ona tili grammatikasini egallay boshlaydi, chunki boshqa odamlarning nutqini anglab, so‘zlar kombinasiyasi va jumlalar tuzilishida ongosti sezgilari orqali kodlangan ob’ektiv qonuniyatlarni, ko‘plab ajdodlarning tajribasini qabul qiladi. Odam ongida nutqi rivojlanishi bilan bir qatorda, ongostida mumkin bo‘lgan harakatlarning ichki rejasi tuziladi, muayyan vaziyatda amalga oshiriladigan harakatlar modellari yaratiladi.

L.S.Vigotskiy, I.Ya.Zimnyaya, A.A.Leontev, S.L.Rubinshteynlarning psixologik tadqiqotlari tahlili til tashuvchisini shakllantirishning muvaffaqiyati ona tilining kommunikativ rivojlanish darajasiga bog‘liqligi haqida gapirishga imkon beradi. I.Zimnyayaning fikricha, “Ona tilining kommunikativ rivojlanishi”ni ta’minlaydigan murakkab ko‘p qirrali hodisa sifatida quyidagilarni ko‘rib chiqish kerak:

lug‘at miqdori (leksik minimum);

nutqiy malakalarni egallashning mohirlik darajasi;

fikrini ongli ravishda izchil bayon qila olish qobiliyati suhbatdoshining replikalariga munosib javob bera olish, eshitganlariga munosabat bildirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan og‘zaki muloqot shakllarini bilish darajasi;

matnni o‘qish sur’ati darajasi;

yozma nutq ko‘nikmalarinining shakllanish darajasi;

kognitiv qiziqishlarning shakllanish darajasi; umumiy dunyoqarash darajasi [5].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommend.) Ko‘rib tushunish ham tinglab tushunish, o‘qib tushunish, gapirish va yozish ko‘nikmalari kabi ta’limning asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin, zero, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar mazkur ko‘nikmaga ega bo‘lishmaydi, dars davomida ko‘rib tushunish ko‘nikmasi o‘zlashtirilmaydi, bevosita ko‘nib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlarni takomillashtirish masalasi alohida tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilmagan. Tahlillarimiz uzluksiz ta’limdagi islohotlar ko‘p jihatdan aynan ko‘rib tushunishni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlarining qanday qo‘yilishiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda. Bunday o‘quv topshiriqlarini aynan ko‘rib tushunish (analitik tafakkur) fahmlash, anglash, so‘zlash va insho ko‘nikmalarini rivojlantirishga mo‘ljallab tuzish, beriladigan savollarni o‘quvchini o‘ylantiradigan, fikrini aniqlashtirishga, dunyoqarashini rivojlantirishga yo‘naltirish mamlakatda ta’limini sifat bosqichiga olib chiqadi.

Адабиётлар ro‘yxati

1. Смит А. "Исследование о природе и причинах богатства народов". – М.: ЭКСМО, 2007. – Серия: антология экономической меди — 960-е годы).

2. Судакова, Л. V. дуалтаълиммоделинингмоҳиятиваасосийхусусиятлари / Л. V. Седакова. - Матн:

тўғридан-тўғри // таълимватарбия. — 2016. — № 2 (7). - ПП. 62-64.

3. Джон Дьюи. Общество иего проблемы John Dewey. The Public anditsProblems. Denver, 1927./ Дж.Дьюи. Общество иего проблемы– Перевод санглийского: И.И.Мюрберг, А.Б.Толстов, Е.Н.Косилова.– М.,2002.

4. Нэпп М., Холл Д. Невербальное общение. Мимика, жесты, движения, позы и их значения –М. Еврознак,2007. –512 с.

5. Зимняя И.А. Личностно-деятельностный подход в обучении как фактор гуманизации образования // Русский язык за рубежом. 1991. -№ 3. - С. 91-95.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA MATN USTIDA ISHLASHNING AHAMIYATI

Niyozmetoza Roza Hasanovna- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, pedagogika fanlari doktori.Toshkent,O‘zbekiston
Qoraboyev Husniddin Kamolovich - mustaqil tadqiqotchisi. Toshkent,O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishda matn ustida ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari asoslangan. O‘quvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishda matn mazmunini tushunib o‘qishga o‘rgatuvchi turli ish turlaridan foydalanbish metodikasi sharhlangan va metodik tavsiyalar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich ta’lim, ongli o‘qish, darslik bilan ishlash, lug‘at blan ishlash, uyga vazifa, mustaqikl faoliyat, hamkorlik.

ЗНАЧЕНИЕ РАБОТЫ НАД ТЕКСТОМ В ПОВЫШЕНИИ ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется особенностям работы над текстом в развитии читательской грамотности у учащихся младших классов. Объясняется методика использования разных видов работы для обучения учащихся пониманию и чтению содержания текста в развитии читательской грамотности и даются методические рекомендации.
Ключевые слова: читательская грамотность, начальное образование, осознанное чтение, работа с учебниками, работа со словарным запасом, домашнее задание, самостоятельная деятельность, сотрудничество.

THE IMPORTANCE OF WORKING ON THE TEXT IN IMPROVING READING LITERACY IN PRIMARY CLASS STUDENTS

Abstract: This article focuses on the specific features of working on the text in the development of reading literacy in elementary school students. The method of using different types of work to teach students to understand and read the content of the text in the development of reading literacy is explained and methodical recommendations are given.
Key words: reading literacy, primary education, conscious reading, working with textbooks, working with vocabulary, homework, independent activity, cooperation.

Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘qilgan matn mazmunini chuqurroq tushunishga bevosita xizmat qiluvchi ish turlari va uy vazifalari o‘qish bo‘yicha olib boriladigan ishlar sirasida muhim o‘rin tutadi. Shubhasiz, uyda bajarish uchun beriladigan har qanday vazifalar o‘quvchilarning imkoniyatlari, bilim va ko‘nikmalari saviyasi, hayot tajribasi kabi tomonlar sarhisob qilinadiki, bu masalalarni bilish, muammolarni mahorat bilan hal etish o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini ta’minlash garovi hisoblanadi.[1.65]

“O‘qish: 3-sinf” nomli metodik qo‘llanmada ta’kidlanganidek, “Hozirgi kunda zamonaviy maktabning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni tarbiyalash hamda jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashish va unga yetarli darajada foyda beradigan bilimlar bilan qurollantirishdan iborat”. Bu muammoni hal etishning muhim yo‘nalishlaridan biri o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish, ularda bilim olishga qiziqish, mustaqillik va ijodkorlikni rivojlantirish, ma’naviyatini shakllantirishni ko‘zda tutadigan o‘qitish metodlari hamda o‘quv-metodik materialni ishlab chiqish va tatbiq etishdan iboratdir. Ana shu yo‘nalishdagi ish turlaridan biri o‘qilgan hajman kattaroq matnda uchragan ma’nosi notanish so‘zlarni uyda daftarga yozib kelishdir. Bunday topshiriqning mohiyati shundaki, har bir o‘quvchining hayotiy tajribasi, maishiy turmushda orttirgan bilimi va tajribasi individualdir.[3.187] Ularning qiziqishlari ham, bilimi ham, tabiat hodisalaridan, tibbiyot ilmidan, mehnat faoliyatidan xabardorligi ham har xildir. 3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida “Matnda qo‘llangan so‘zlar lug‘ati” berilgan. Darslarda hajman kattaroq matnlarni o‘qish jarayonida ushbu lug‘atdan to‘liqroq foydalanish imkoniyati bo‘lmaydi. O‘qituvchi matnni izohli o‘qish jarayonida notanish so‘zlardan ayrimlarini (o‘zi o‘quvchilar bilmaydilar deb hisoblaganlarini) tushuntirib o‘tadi. Lekin bunday tushuntirishdan so‘ng ulardan ayrimlari esda olib qolinsa, ayrimlari unutiladi, yana bir qanchasi (o‘qituvchi izohlamaganlari) notanishligicha qolib ketadi.

O‘quvchilar mustasno tariqasida (aslida bunday ish uy vazifasi qilib topshirilmasligi kerak) uyda hajmi katta sanoqli matnlardan o‘zlari ma’nosini tushunmasdan qolgan so‘zlarni lug‘at tarzida daftarlariga ajratib yozadilar va darslik lug‘atida borlarining izohini yozib qo‘yadilar, yo‘qlarini ochiq qoldiradilar.[2.45]

Ilmiy maqola tipidagi matnlar, qisman adabiy materiallar sifatida ertaklar, maqollar, topishmoqlar, she'rlar aks ettirilgan. Bunday holatlarda har bir mavzu o'z leksik qatlami bilan namoyon bo'lib, bir mavzu leksikasi ikkinchi mavzuni o'rganishga yetarlicha yordam bera olmaydi.

Xullas, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'qish bo'yicha matn mazmuni doirasida yoki undan chetga chiqib, matnda keltirilgan faktlarni o'quvchilarning o'z hayot tajribalari, tasavvurlari, tushunchalari asosida ishga tushirilayotgan bilimlarni chuqurlashtirish, shu maqsadda hajman katta sanoqli matnlarda uchragan notanish so'zlarni daftarga yozib kelish, matnga doir savollar asosida uning mazmunini ixcham holda tasavvur qilish, o'qilajak matn mazmunini oldindan taxmin qilish va boshqa shu kabi ish turlaridan uy vazifalarini keltirib chiqarish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'qish: 3-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma /Gulzoda Boymurodova, Xadicha Sattorova, Shahnoza Muslimova,Fotima Karimova, Gulsara Saydaliyeva, Zahro Kabilova.– T.: "Sharq", 2016. – 6-b.

2. Baltayeva A.T. Adabiyot darslarida o'quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o'rgatish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 50 b.

3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2017. – 255-b.

ХАЛЫҚ АУЫЗ ӘДЕБИЕТІНДЕГІ ҰЛТТЫҚ ДҮНИЕТАНЫМ ЖӘНЕ БАЛАЛАР ФОЛЬКЛОРЫ

А.Е.Мамаева
Шымкент Университеті, Қазақстан Филология ғылымдарының кандидаты.

Annatatsiya: Xalq og'zaki adabiyotida milliy dunyoqarash va bolalar folklori asrlar davomida bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Lullabies, olovli qo'shiqlar, sanamak, chalg'ituvchi, topishmoqlar, masxara, she'rlar va ertaklar, afsonalar-bularning barchasi tilni, fikrlarni rivojlantiradigan, talabalarning milliy dunyoqarashini o'rgatadigan va boyitadigan etnopedagogik asarlardir.

Kalit so'zlar: dunyoqarash, bolalar folklori, milliy, etnopedag

НАЦИОНАЛЬНОЕ МИРОВОЕ ХАРАКТЕРИСТИЕ И ДЕТСКИЙ ФОЛЬКЛОР В УСТНОЙ НАРОДНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация:Национальное мировоззрение и детский фольклор в народной устной литературе на протяжении веков были тесно связаны. Колыбельные, песни, санамак, загадки, насмешки, стихи и сказки, легенды все это этнопедагогические произведения, которые развивают язык, мысли, наставляют и обогащают национальное мировоззрение учащихся.

Ключевые слова:м ировоззрение, детский фольклор, национальная, этнопедагогика.

NATIONAL WORLD CHARACTERISTICS AND CHILDREN'S FOLKLORE IN ORAL FOLK

Annotation: National worldview and children's folklore in folk oral literature have been closely linked for centuries. Lullabies, songs, sanamak, riddles, ridicule, poems and fairy tales, legends are all ethnopedagogical works that develop language, thoughts, instruct and enrich the national outlook of students.

Keywords: worldview, children's folklore, national, ethnopedagogy.

Халық ауыз әдебиетіндегі ұлттық дүниетаным мен балалар фольклоры ғасырлар бойы бір-бірімен тығыз байланысып астасып жатыр. Отандық философ М.Орынбеков: «Дүниетаным жеке адам және оның қоғамдағы орны, сана сезімдік қалпы жайлы ұғымдарының жиынтығы, дүниенің біртұтастығын түсіну нәтижесі болып табылады» деген [1]. Ертеде қазақ халқы күнтізбе мен жыл қайыруды саусақтың көмегімен де жазып отырған. Ғ.Ақпанбектің «Қазақ халқының дүниетанымы» [2] атты еңбегінде қазақтардың уақыт, жыл, ай мерзімдерін төрт саусақпен белгілегенін атап көрсеткен. Мәселен, төрт саусақтың буындарының жалпы саны он екі, яғни төрт саусақ жылдың төрт мерзімі мен оның буындары он екі айды белгілейді. Сұқ саусақ көктем: наурыз, сәуір, мамыр. Ортаңғы ұзын саусақ - жаз: маусым, шілде, тамыз. Аты жоқ саусақ-күз: қыркүйек, қазан, қараша. Шынашақ - қыс: желтоқсан, қаңтар, ақпан. Әр саусақтың ұзындығы жыл бойындағы күннің ұзақтығын білдіреді. Наурыз бен қыркүйекте күн мен түн теңеледі, сондықтан сұқ саусақ пен аты жоқ саусақтың ұзындықтары шамалас. Ортаңғы ұзын саусақтың бірінші буыны-маусым айы, бұл айда күннің ең ұзақтығы - 22 маусымға дәл келеді. Ал түннің ең қысқасы 22 желтоқсанға тура келеді. Ортаңғы ұзын саусақтың бірінші буыны мен шынашақтың басы бір деңгейге шамалас екендігі көрінеді [2, 103 б.]. Яғни ата-бабаларымыз он саусақты әлемдік құрылыммен тығыз байланыстыра білген. Мұны ел аузындағы «бес саусақтай білу», «алақанға салғандай» деген сөздерден де аңғаруға болады. Сонымен-ақ, балаларға арналған саусақ ойындары «Қуыр-қуыр-қуырмаш», «Бес саусақ» т.б. жоғарыда айтылған оймен астарласып жатқандығы байқалады. Жалпы дүниетаным деп өмірдің әлемдегі болмыстардың, адамның мақсаты мен мәнін, оның құндылықтар әлемін тұтас қамтитын, тануға бағытталған біртұтас әмбебап көзқарасты айтамыз [3, 32 б.] Осыны ескере келе, ұлттық дүниетаным мен балалар фольклоры бір-бірімен байланысып астасып жатқандығын көруге болады.

Бесік жыры, тұсау кесу жыры, санамақ, жаңылтпаш, жұмбақ, мазақтама, тақпақ, жырлар мен ертегілер, аңыз әңгімелер бәрі де тілді, ойды дамытып, тәлім-тәрбие беріп, бастауыш сынып оқушыларының ұлттық дүниетанымын байытатын этнопедагогикалық ғаламат туындылар. Бұл — халық педагогикасының үлкен бір саласы. Жалпы педагогика ғылымының негізі халық педагогикасында жатыр. Тұрмыс-салт әуендерімен айтылатын бесік жыры бөбекті жұбату үшін және оған тілек айту үшін ғана шығарылған емес. Ең әуелі ырғағы бесіктің тербелісіне сәйкес келетін сабырлы екпінде айтылатын қоңыржай әуен бөбектің сезім мүшелері арқылы оған сүйкімді, сүйсінерлік әсер етіп, жан-жүйесін жадыратады, яғни ұнамды, ұнасымды әсермен баланы жұбатады. Екіншіден, баланың келешегіне үміт артып, тілек айта отырып, оны жұбатушы ана болашақтың шамшырағы мен нұр сәулесінен қуат алғандай әсерленеді. Үшіншіден, ата-ана жатқа айтқан тілектерді тілі шыққан балдырғандар да жаттап, әрі тілі дамиды, әрі сол сөздерден тәлім алады. Бесікке бөлеу жыры нәрестені бесікке салғанда, қуаныш-тілек ретінде, көбінесе көңілді, әуезді әуенімен айтылады:

Мойнымдағы маржаным,
Қорадағы мал-жаным:
Бесігіңе жата ғой,
Тәтті ұйқыға бата ғой
Балжан болсын есімің,
Құтты болсын бесігің.

Балғын бөбек бесік жырының жанға жайлы әуезді әуеніне жұбанып, рахатқа бөленеді. Мұның психологиялық, медициналық мәні де зор. Әуен (музыка) бөбек жанына дем береді. Бесік жыры көбінесе тілек айту мәніне құрылады да, жыр айтушы бөбектің келешегіне сенім артып, қуанышқа бөленеді.

Үміт тілек:

Айыр қалпақ киісіп,
Ақырып жауға тиісіп,
Батыр болар ма екенсің?
Бармақтарың майысып,
Түрлі ою ойысып
ұста болар ма екенсің?!

Бата тілек (сенім арту):

Ала биең құлындап,
Алатауға сыймасын!
Қара биең құлындап,
Қара тауға сыймасын...
Ақылыңмен батыл бол,
Ағайынмен тату бол.
Бағаналы таудай бол,
Жағалалы көлдей бол!

Халық педагогикасының бұл саласы ғасырлар бойы бала тәрбиесіне өз өрнектерімен әсер етіп, қазіргі көркем әдебиет нұсқаларымен дамып келеді.

Халық арасында кең тараған этнографиялық астары мол салт өлеңдерінің бірі –«тұсау кесу» жыры.Өлеңнің аты да халықтың тұсау кесу ырымына байланысты қойылған.Бұл ырым бала өміріндегі елеулі оқиға ретінде атап өтіледі.Ырымның негізі аяғынан қаз тұрып, апыл-тапыл жүре бастаған сәбидің қаламын байлап тұрған тылсым күш бар, соны қиып жіберсе, бала жүгіріп кетеді деген көне магиялық ұғымнан туған сияқты [4]

Бастауыш сыныптарда тәрбие берудегі тиімді құралдарының бірі - ертегі. Ертегілердің мазмұнында халықтың тыныс-тіршілігі, әдет-ғұрыптары мен дәстүрлері, бақыт жолындағы күресі, адамдардың өзара қарым-қатынастары мен мінез-құлықтары, адамдардың еңбексүйгіштігі, өз халқына, Отанға, туып-өскен табиғатқа деген сүйіспеншіліктері бейнеленген. Т.Барласұлы ертегінің адам баласына тәлім-тәрбиелік, рухани маңызы жөнінде айта келіп: «Ертегі - рухани тәрбиенің мәні аса зор, көзіміз көріп, құлағымыз ести алмайтын, тек ақылмен ажыратып, жүрекпен ғана түйсіне алатын материалдық әлеммен бірге шегі жоқ рухани әлем болмысының біртұтас түсінікті баян етілген көрінісі», - деп анықтама береді. [5].

Көшпелі елдің барша тіршілік болмысы табиғатпен тамырлас. Жыл маусымдарымен санаса отырып жасалатын көшу, қонулар (жайлау, күзек, қыстау)-қазақтың материалдық, өндіріс жүйесі шаруашылығының біртұтастық құрылымы болып қалыптасқан әлеуметтік экономикалық және әлеуметтік мәдени жүйесі. Мұндай жүйе барша өмір салтын, әлеуметтік тарихтың қарқынын, материалдық және рухани мәдениеттің төлтума қасиетін, салт-дәстүр мен талғам дүниетанымдарын реттеп, әрі өміршең етіп отырды. Сондықтан көшпелі қазақтың барша тіршілік болмысының табиғатпен тамырлас болуы тарихи даму барысындағы өмір сүру кепілі. Бұл ауыз әдебиетінде өз көрінісін тапты. Мысалы: Қазақ халқы кейбір құбылыстардың аспан денелерімен байланысты екенін байқаған болатын. Сол кезден-ақ әр түрлі есептеулермен, бес саусақтың жалпы он екі буыны бар екенін анықтаған және ол, мысалы ай ретін санауға, мүшел есебін жүргізуге, бір күндегі сағат санын есептеуге қолайлы болатын. Мысалы, төрт саусақ, жылдың төрт мезгіліне сәйкес келетін.

1. «Балаң үйрек» көктем мезгілінің наурыз, сәуір, мамыр айларын
2. «Ортан терек» жаз мезгілінің маусым, шілде, тамыз айларын

3. «Шылдыр шүмек» күз мезгілінің қыркүйек, қазан, қараша айларын
4. «Кішкентай бөбек» қыс мезгілінің желтоқсан, қаңтар, ақпан айларын көрсеткен.
Саусақтар бірдей болмағандықтан, олардың ұзындықтары бойынша да ерекшелінген, мысалы, «Ортан терек» ең ұзыны болғандықтан, бұл Күннің ұзаратынын, ал «Кішкентай бөбек» Күннің қысқаратынын көрсеткен. Бұл да балалар фольклорында өз көрінісін тапқан.

Қорыта келе, жазба күнтізбесі болмаса да өз заманында астрономиялық білім-біліктің озық үлгісін көрсеткен ата-бабаларымыз әлем бейнесін өз дүниетанымында зерделеп, атадан балаға мирас етіп, халық ауыз әдебиетімен сабақтастыра білгенін ұлттық мәдениетіндегі аса маңызды рухани құндылыққа жатқызуға болады. Жұмысымызды түйіндей келе, халық ауыз әдебиетіндегі ұлттық дүниетаным мен балалар фольклоры әліде болса жан-жақты зерттеу болашақтың еншісі деп білеміз.

Пайдаланылған әдебиеттер тізімі

1.М.Орынбеков.Ежелгі қазақтың дүниетанымы. Алматы:Ғылым.1996ж.168б
2 .Ғ.Ақпанбектің .Қазақ халқының дүниетанымы Алматы:2000ж.
3.Толысбай К. Асан Қайғының дүниеге көзқарасы- Алматы, 2000. - 146 б.
4.К.Матыжанов.Рухани уыз. Алматы; Атамұра 2023 ж.
5. Барласұлы Т Жаратылыстың жеті жұмбағы / Барласұлы Т // Қазақ әдебиеті. - 2000. - 19 мамыр. - С. 2000

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA BOLALAR FOLKLORINING O‘RNI

Olimjon QAYUMOV
Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, filologiya fanlari doktori.Toshkent,O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada folklor san’ati tarixi, uning ildizlari, asosiy mezonlari va bugungi kundagi ahamiyati qay darajada ekanligi yoritilgan.
Kalit so‘zlar: madaniyat, san’at, folklor, nomoddiy madaniy meros, doston

РОЛЬ ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА В ФОРМИРОВАНИИ МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В статье описывается история фольклорного искусства, его истоки, основные критерии и то, насколько оно важно сегодня.
Ключевые слова: культура, искусство, фольклор, нематериальное культурное наследие, эпос.

THE ROLE OF CHILDREN'S FOLKLORE IN FORMING THE THINKING OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Abstract. The article highlights the history of folklore art, its roots, main criteria and degree of importance today.
Keywords: culture, art, folklore, intangible cultural heritage, epos.

Xalq pedagogikasi aslida ajdodlarimiz ugitlari va an’analari asosida shakllanib, o‘zining mustahkam hayotiy asosiga egaligi bilan ajralib turadi. Dunyo tajribasida yosh avlodni tarbiyalashning turli yo‘llariga bag‘ishlangan minglab tadqiqotlar yaratilmoqda. Biroq, yaratilgan tadqiqotlar millatning shakllanishi, milliy o‘zligini saqlab qolishi, yosh avlodni umumbashariy qadriyatlarga sodiq, yuksak axloqiy sifatlarga ega shaxs sifatida shakllantira olayaptimi? Bu to‘lg‘onib turgan olamning oldida turgan, tahlikalardan sarosimaga tushib, hadiklar orolida jon saqlay olishga inonib qolayotgan odam bolasini va uning jamiyati uchun muhim bo‘lgan muammolardan biridir. Bugungi jahon tarbiya fanlari yosh avlodni umumbashariy qadriyatlarni hurmat qiladigan, odam va olamga ezgulik ko‘zlari bilan boqadigan, tabiat va jamiyat taqdiri bilan o‘zini taqdirdosh sanaydigan keng mulohazali komil shaxslarni tarbiyalashni nazarda tutadi. Metodologik maqsadlari mushtarak bo‘lgan barcha tarbiya fanlari shaxs tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratishi tabiiy holdir.

Bolalar tarbiyasida folklor asarlarining o‘rnini mantiqan ochib berishga qaratilgan tadqiqotlar taniqli o‘zbek folklorshunoslari: T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, M.Jo‘rayev, D.O‘rayeva, J.Eshonqulov, Sh.Turdimov, S.Mirzayeva, Sh.Shomusarov, O.Qayumov, U.Sattorov, M.Raxmonovalarning tadqiqotlarida uchraydi.

Markaziy Osiyo xalqlarida folklor xalq pedagogikasining tayanchi ekanligini tojik folklorida tarbiya an’analari masalalarini tadqiq etgan tadqiqotchi B.N.Karmishova ishlarida kuzatamiz. Olimaning qayd etishicha, tojik xalq og‘zaki ijodi namunalari tarbiyalanuvchilarning o‘zligini anglash jarayonida muhim tarbiya vositasi vazifasini o‘taydi. Tarbiyalanuvchi qahramonlarning xulqi va harakatlari, munosabatlaridan ma’lum ma’noda ibrat oladi. O‘zining ajdodlari, millati bilan bog‘liq etnik belgilar va qadriyatlar borasida tushunchaga ega bo‘ladi. Olima ta’kidlaganidek, folklor – qadriyatlarning to‘laqonli kartinasini o‘zida aks ettirgan ma’naviyat sarchashmasidir.

M.M.Mamadnosirova: “Biz xalq an’analari, urf-odatlari va marosimlari farzand tarbiyasida muayyan bilim va malakalarni o‘zida mujassamlashtirganligi, yosh avlod tarbiyasida buyuk tajribalarni ifodalaganligiga ishonch hosil qildik,-deb takidlaydi” [3]. Olima yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlar muhim o‘rin tutishi, axloqiy tarbiyani shakllantirishda milliy qadriyatlarga tayanib ish ko‘rish maqsadga muvofiq kelishini ta’kidlaydi.

Etnopedagogikaning zamonaviy bosqichi taraqqiyotida ilmiy yondoshuvni o‘rgangan chechen tadqiqodchisi Madina Marxiyevaning kuzatishlarida etnopedagogikaning kengayishi etnomaniyat diterminatsiyasi, tarbiya –

etnopedogogik bilimlarni ommalashtirish, zamonaviy ta’lim va milliy ta’limga doir qadriyatlar tizimi ekanligi dalillar asosida isbotlanadi. Etnopedagogika sohasi milliy tarbiyaning ilmiy asosda tadqiq etishi ma’lum. Demak, Kavkazorti xalqlarida ham yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni beqiyos bo‘lib, ularning ajdodlari an’analari, urf-odatlari va madaniy merosiga sodiqlikda tarbiyalashga xizmat qilarkan.

Rus pedagogi Barkova Antonina Mixaylovnaning bolalar tarbiyasida folklorning ijtimoiy pedagogik faktorlariga bag‘ishlangan dissertatsiya ishida xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti bolalar axloqiy tarbiyasida muhim o‘rin tutishi: ular nutqining rivojlantirish, tafakkurini o‘stirish kabi muhim xususiyatlari ilmiy asoslangan.

Ma’lumki, shaxs tarbiyasi go‘dakning oiladagi tarbiyasidan boshlanadi. Oilada bolaning tafakkurini to‘g‘ri shakllantirish uchun qadimdan folklor asarlaridan keng foydalanilgan. Qadimdan onalarimiz inson bolasidagi informasion ehtiyojning yuqoriligini inobatga olgan holda bolalarini tez aytishlar, topishmoqlar, sanamalar va turli o‘yinlar vositasida tarbiyalaganlar. Odatda tez aytishlar bolalar folklorining alohida janri bo‘lib, bolalarning nutqiy takomilini ta’minlashga xizmat qilgan bo‘lsa, topishmoqlar ularning fikrlash, anglash va sintez qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim tarbiya vositasi bo‘lgan. Bolalar folklorining kichik janrlari: tez aytishlar va topishmoqlarning bog‘cha yoshidagi bolalarga o‘rgatish tarbiyalanuvchilarning keyingi bosqichga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etgan bola tarbiyasida uning dunyoqarashini shakllantirish, olam va odamni anglash unga munosabat hissi uning dastlabki tasavvurlari zaminida shakllanadi. Bolaning to‘g‘ri mulohaza qilaolish ko‘nikmasi faqat va faqat uning informasion ehtiyoji orqali shakllanadi. Bola qancha olam va atrof muhit to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lsa, shuncha fikri teran bo‘la boshlaydi. Buning uchun albatta bolalarning aqliy imkoniyatlari, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ma’lumotga bo‘lgan tashnaligini qondirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymog‘imiz lozim.

Qadimdan bolalarning olamni anglashga bo‘lgan intilishlari ularning: **Nima uchun?** -degan savoliga javob izlashi oqibatida shakllangan. Shuning uchun bolalarimizga biz dastlab tez aytishlar orqali yengil va o‘zlashtirishi oson bo‘lgan ma’lumotlarni yetkazishimiz lozim. Bolaning qiziqishi tabiat hodisalarining kelib chiqishini, qanday paydo bo‘lishini anglashga intilishda ham ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun bolalarimizga kichik syujetli miflarning o‘qib berishimiz maqsadga muvofiq keladi.

Bolalarga miflarning o‘rgatishdan asosiy maqsadimiz ularning fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, tasavvur olamini kengaytirish, fantastik tasvirlar orqali bolalarning xayolat ufqlarini boyitib borishga erishishimizga olib keladi. Odatda biz ijodiy kreativ fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash maqsadimiz ekanligini ko‘p bor ta’kidlaymiz. Biroq, bolaning kreativ fikrlash mexanizmining shakllantirish omillarini olislardan qidiramiz. Aslida bolalarning tanqidiy keng mulohaza yuritishlari uchun xalq pedagogikasi an’nalariga tayanib ish ko‘rishimizning o‘zi kifoya.

Xullas, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurini shakllantirishda bolalar folklorining o‘rni quyidagilarda ko‘rinadi:

1. Bolalarning informativ ehtiyojlarini qondirish asosida ularning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda folklor materiallari bilan tanishtirish;
2. Bolalarga dastlab tez aytishlar, keyin topishmoqlar, keyin miflar(asotirlar), keyinchalik biroz murakkab syujetli ertaklar matnlarini o‘rgatish lozim.
3. Bolalarning folklor materiallari orqali dunyoqarashi kengayadi, nutqiy ravonligi, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishi ta’minlanadi, obrazli tasavvuri shakllanadi, xayol surish, mustaqil fikrlash malakasi shakllanib boradi, natijada bola har bir predmet yoki tushuncha yuzasidan o‘z fikriga ega bo‘la boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзаев Т. Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари.–Тошкент, Фан, 1968.–Б.94-9
2. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.128;
3. Жўраев М. Ой олдида бир юлдуз – Тошкент: Фан, 2001. – Б.113 -118
4. Ўша муаллиф. Остонаси тиллодан.–Тошкент, 2003;
5. Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Тошкент: Фан, 2001
6. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – Б.139 -211
7. Мирзаева С. Ўзбек халқ афсун-дуолари фольклор жанри сифатида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1992. – 2-сон. – Б.31 -34
8. Ўраева Д. Кинна айтимларининг поэтикасига доир // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 2-китоб. – Тошкент: Фан, 2010.

BOSHLANG‘ISH SINFDA O‘QUVCHILAR TALAFFUZNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH XUSUSIDA

M. B. Abdiyev
filologiya fanlari doktori, professor. O‘zbekiston

Mamlakatimizda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish doirasida ona tilini o‘qitishning kompleks tizimi yaratildi, shuningdek, Respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo‘naltirilgan tizim ham ishlab chiqildi. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etib, o‘sib kelayotgan yosh avlodga ona tilini o‘qitish, ona tilida erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, buning negizida ularning jahon svilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratildi.

Respublikamizda ta`lim sohasida juda ko‘p o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalar qo‘llanib kelinmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qitish maqsadi va mazmuniga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Til o‘qitish metodikasi an’anaviy o‘qitish tizimidan kommunikativ o‘qitish tizimiga ko‘chgach, juda ko‘plab o‘qituvchilar talaffuz qurilishiga alohida e’tibor bera boshlashdi. Chunki ko‘p yillardan buyon, talaffuzni o‘qitish va o‘rganish eng zerikarli yo‘nalishlardan biri deb hisoblab kelingan.

Odatda o‘smirlar va katta yoshlilarga taqlid qilishga harakat qiladilar, ammo bunga erisha olmaydilar, chunki, taqlid qilish qobiliyati bolalik davrida kuchli bo‘ladi va bu o‘smirlik davriga kelib yo‘qolib boradi. Bunga sabab, bolalarda nutq organlari talaffuz qilish uchun moslashuvchan bo‘ladi va ular har qanday tilda va har qanday so‘zni eshitganiday qilib talaffuz qila olishadi. Biroq o‘smirlik davrida, nutq organlari allaqachon rivojlanib, moslashib bo‘lgan bo‘ladi, shu sababli ularning ona tilidagi taqlidi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

To‘g‘ri va ravon, tushunarli talaffuz muloqotning asosiy kalitidir, shu sababli ona tilini o‘qitishda to‘g‘ri talaffuz til o‘rganuvchilarining so‘zlashish qobiliyatini ham kuchli shakllanishiga e`tibor berish lozim.

Bugungi kunda tilni, ayniqsa o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat tili nafaqat o‘zbeklar uchun nafaqat har bir inson uchun, balki butun jamiyat uchun juda muhimdir.

Buning uchun bolalar nutqini to‘g‘ri talaffuzni o‘qitishning eng yaxshi usullaridan biri bu- qaytarish mashqlaridir. Boshlang‘ich ta`limda bola ona tilini eshitishga odatlanmagani, atrofida shu til muhiti yo‘qligi bois, interferensiyani yengib o‘tish, hamda so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzini ta'minlash uchun mashg‘ulotlarda ko‘proq tinglash va taqlid qilish mashqlaridan foydalanish kerak bo‘ladi. Xususan, kichik yoshdagi bolalarga ona tilini o‘rgatishda avvalo, adabiycha so‘zlar tovush kodida uchraydigan monoftong, diftong, triftonglar bilan bog‘liq talaffuz qiyinchiliklarini aniqlashtirish kerak bo‘ladi .

Tushunarli va ravon talaffuzning afzalliklari juda ham ko‘p. Jumladan, juda ko‘plab ilmiy izlanishlar natijalariga ko‘ra, bolalar va kattalar adabiy tilda tushunarsiz va noto‘gri talaffuz qilishganida, bu ularning adabiy tilda gapirishi darajasi past ekanligini ko‘rsatishi isbotlangan. Shu sababli ham standart o‘zbek tilida so‘zlashish katta ahamiyatga ega. Ammo juda ko‘pchilik til o‘quvchilar o‘zlari tushunadigan tarzda, adabiy tilda talaffuz qilishadi. Agarda kishi o‘z talaffuzida, ya’ni nostandart yoki boshqalar tushunmaydigan tarzda talaffuz qilganda bunday muloqot butunlay cheklangan, tushunarsiz va ma’nosiz bo‘ladi. Bordi-yu, kishi ongidagi talaffuzga yaqin bo‘lgan talaffuzni idrok etayotganida, uni tushunishi juda oson bo‘ladi. Masalan, “singil” so‘zi ba`zi o‘qituvchilar tomonidan “sin-gil” deb talaffuz qilinganida, ng -tovushlar birikmasini ikkiga bo‘lib, adabiy til me’yori buzilishiga olib keladi.

Shunigdek u, o‘, i tovushlarining og‘zaki adabiy tilda ikki xil shakli mavjudligini hisobga olgan holda o‘quvchilarga boshlang‘ich sinflardan to‘g‘ri talaffuzini shakllantirishga e`tibor berish kerak. Undoshlarda x va h, k va q harflari hamda ng harfiy birikmasi talaffuzini to‘g‘ri shakllantirishga e`tibor berish lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga ona tili talaffuzini o‘qitish muhim bo‘lib, ona tilida aniq va to‘g‘ri talaffuzga ega bolalarda kuchli emotsional-ruhiy holatni ko‘rish mumkin, ya’ni ona tilida muloqot jarayonida tinglovchi maqsadini tushuna olish qobiliyati va o‘z fikrini erkin ifodalay olish qobiliyati shakllanadi va bu esa o‘z navbatida bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonch hissini ortib borishiga yordam beradi.

Ona tilida to‘g‘ri va ravon talaffuzga ega bo‘lmaslik, shu tilda o‘qish va eshitishdagi qobiliyatsizlikni ham sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, bola so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qila olmasa u boshqalarni tushunishga ham qiynaladi, chunki boshqalar talaffuzidagi so‘zlar u uchun yot so‘zdek tuyuladi,

Bugungi kunda ona tili talaffuzini kommunikativ o‘qitishda, quyidagi mashqlarga tayaniladi, ya’ni ko‘rgazmali va eshitish mashqlari, harakatlari, kinestetik mashqlar, og‘zaki nutq mashqlari (masalan: hazillar, latifalar, reklama qilish, kulguli vaziyatlar, adabiyotdan kichik sahnalar tayyorlash) ona tili talaffuzini shakllantirish va rivojlantirishda juda sermahsul usullardan ekanligini aytishgan

Bolalarda taqlidchanlik xususiyati kuchli bo‘lgani bois, ular atrofdagi nutqiy muloqotni oson o‘zlashtiradilar. Demak, ona tili talaffuzini o‘rganishda taqliddan foydalanish samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Bolalarda har bir narsaga qiziqish (masalan, yangi o‘yinchoqlarga, voqealarga, predmetlarga) xususiyati kuchli bo‘ladi. Yangi narsalarning nomini eslab qolish istagi bolada kuchli bo‘lib, nutqqa moyillikni yuzaga keltiradi. Ona tili talaffuzini o‘rganishda aynan shu xususiyatdan samarali foydalanish kerak.

Bolalar narsalarni o‘z qo‘llari bilan ushlash, yalash, yeb ko‘rish orqali hissiyotlariga bog‘lab qabul qiladilar (kattalar, odatda, bundan tortinadilar). Bu bolalarda barcha analizatorlarning muntazam faoliyat yuritishiga ishtirok etishiga va nutqni tez egallay boshlashiga yordam beradi. Qayd etilganlardan kelib chiqib, ona tillarini o‘rganishda lingvopsixologik xususiyatlar ham hisobga olinishiga to‘g‘ri keladi

Ohang ona til talaffuzida muhim o‘rin tutadi, ammo til o‘rganuvchilarida bu ham qiyinchilik tug‘dirishi mumkin .Talaffuz bilan ishlashda uni butun tana orqali his qilish zarur, ya’ni faqat talaffuz bilan ishlabgina qolmay, ko‘z harakati, mimika va tana harakatini ham ishlatish zarur

Boshlang‘ich sinf bolalari olti va yetti yosh oralig‘ida ona tili talaffuzini o‘rganishni boshlashsa, ona tili talaffuzida mukammal bo‘lishadi. Ular tilni tovush, ovoz, jestika (imo-ishoralar), so‘zlovchining yuzi va ovoz tonidan va atrofni o‘rab turgan atmosferadan o‘rganishadi. Ular dastavval o‘zlari turgan muhitni nazorat qiladi va aniq so‘zlarni o‘rganishadi. Asta-sekinlik bilan o‘zlarining mavhum o‘ylarini ham aniqlashtirib, ularni ham aniq so‘z sifatida talaffuz qila boshlashadi. Ular so‘z boyligida qanchalik aniq tushunchali so‘zlar ko‘p bo‘lsa, ular tilni shunchalik tez o‘rganishadi. Shu sababdan bog‘cha bolalariga, ona tilini o‘qitayotganda albatta rasmlar yoki o‘sha obyektni o‘zini olib kelib, ularga aniq tushuncha berish kerak. Chunki ular o‘rganayotgan narsalari haqiqiyligini ko‘rishsa, ushlashsa va o‘ynashsa tezda tilni idrok etadi. Ular to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki nazariy jihatdan til o‘rganishni xohlashmaydi, aksincha faol bo‘lib, o‘yin orqali o‘rganishni xohlashadi.

Bolalarda ona tili talaffuzi va nutqning ravonligini ta’minlash maqsadida matematika, tabiat, san’at darslari ham adabiy tilida olib borilishi ham mumkin. Chunki, bunday imkoniyat bolalarda nafaqat to‘g‘ri talaffuz va nutq shakllanishiga balki tabiiy muloqot guvohi bo‘lishlariga ham yordam beradi. Vaholanki, birgina cheklangan adabiy tili darsi davomida matematika, geografiya va tabiat kabi fanlardan yetarlicha adabiy tilida bilimga ega bo‘lish mushkul. Bordi-yu, ular boshqa fanlarni ham erta yoshdanoq ona tilida o‘rganishsa u holda, kelajakda akademik sohada ham albatta katta yutuqlarga erishishadi. Yana bir muhim jihat bu – bolalarning maktabdan keyingi, ya`ni uydagi vaqtlarini samarali o‘tkazishga alohida e`tibor berish lozim bo‘ladi. videolardan foydalanishidir. Ularga turli rasmlar orqali tasvirlangan kitoblarni berib, matn mazmunini tushunishlariga sharoit yaratish va bog‘chada adabiy tilida dars beradigan o‘qituvchi aniq, ravon va to‘g‘ri talaffuzga ega bo‘lishi kerak. Har bir yangi so‘zni o‘rgatish jarayonida bolalarga so‘zni bir necha marta aytib, to‘g‘ri talaffuzni o‘rgatishi lozim. Ona tili o‘qitishda, ayniqsa kichik yoshli bolalarga ona tili o‘qitishda hayajonni jiddiylikni kamaytirish juda muhimdir. Ona tili o‘qituvchilari bolalarning jiddiyligini kamaytirish uchun bolalarga nisbatan o‘zini g‘amxo‘r, ochiq ko‘ngil, saxiy va quvnoq qilib tutishi, darslarni qiziqarli o‘tishi, bolalarning barchasiga birdek e`tibor berib, ularning faolliklarini doimiy ravishda baholab bormog‘i lozim. Bundan tashqari, bolalar o‘zlarining boshqalar tomonidan hurmat qilinishi va e`zozlanishini juda xohlashadi. Shu sababli bog‘chadan boshlab ona tili talaffuzini ona tilini o‘qitishda faqat ona tilidan foydalanish kerakmi yoki birinchi boshqa tildan ham foydalanish zarurmi?- degan tabiiy savol tug‘iladi. Bu savollarga javob sifatida bir necha o‘qitish metodlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Masalan, direkt metod va audiolingual metodlar ona tilini o‘qitishda faqat ona tilidan foydalanishni talab qiladi. Ammo davlat tilini o‘rganuvchilar uchun grammatika tarjima metodida, ba`zi bir grammatik qoidalarni tushuntirishda bolalarning yoshi va bilim darajasiga hisobga olinadi. Faqat so‘zlardan emas, turli xil jismlar va rasmlar juda muhim. Bolalarga ona tilini o‘qitayotganda, albatta turli xil rasmlar va jismlarni ko‘rsatib, imo ishoralar va tana tilidan foydalanishlari zarurdir. Turli xil rasmlarga qaraganda, kichik yoshli bolalar jismlarni ushlab, his qilishib o‘rganishni afzal ko‘rishadi. Boshqa tomondan, maktabning boshlang‘ich sinf bolalari uchun rasmlar va ko‘rgazmali qurollar ma’qulroq hisoblanadi. bolalariga ona tilini o‘qitishda konkret jismlarni darsga olib kelishning ilojisi bo‘lmaganida kattaroq qilib tasvirlangan rasmlarni olib kelish maqsadga muvofiqdir. Boshlang‘ich sinf bolalariga ona tili talaffuzini o‘qitishda va bunda muvaffaqiyatga erishishda asosiy urg‘u bolalar kayfiyatiga berilishi maqsadga muvofiq. Chunki bola nutqi, miyasi, talaffuzi va ruhiy kechinmalari o‘zaro chambarchas bogliq. Ular dars davomida o‘qituvchilari tomonidan qadrlanishni va e`tiborda bo‘lishni xohlashadi. Ona tilida to‘g‘ri talaffuz va ravon nutqqa ega bo‘lishi uchun bolalarda ko‘tarinki kayfiyat, o‘qituvchidan rozilik hissi va darsga bo‘lgan qiziqish kuchli bo‘lishi kerak. Bularning barchasi esa o‘qituvchining bolalarni sevishi, hurmat qilishi, o‘z vaqtida ularga birdek e`tiborli bo‘lish kabi ma’suliyatni talab etadi. Bolalar miyasi esa ushbu hislatlar jam bo‘lgan o‘qituvchi bilan kuchli istak ila birlashadi va ravon, to‘g‘ri talaffuzga ega bo‘lishadi. Sinfxonasining rang-barangligi ham boshlang‘ich sinfbolalar uchun juda muhim. Bolalarga darsga bo‘lgan diqqatni jamlash qobiliyati juda mushkul bo‘lib, juda qisqa vaqtni o‘z ichiga oladi.

Talaffuz qoidalarini o‘rganish maktab bolalari va o‘smirlar uchun g‘alatidek tuyuladi, ammo kichik yoshli bolalar uchun bu juda qiziqarli. Negaki, ular yangi narsani bajarib ko‘rishga doimo tayyordirlar va hech ham uyalishmaydi. Ayni mana shu sabab ham, ona tili to‘g‘ri talaffuz qoidalarini bog‘cha yoshidanoq bolalarga o‘qitish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli, kichik yoshli bolalarga ona tili o‘qituvchilari turli xil, qiziqarli o‘yinlar orqali dars o‘tishlari lozim. Bundan tashqari, bolalar judayam energiyaga boy bo‘lib, ona tili darslarida tez-tez o‘yinlarning o‘zgarishi ularning ko‘plab qobiliyatlari namoyon bo‘lishiga yordam beradi. Shu sababli, o‘qituvchilar darsdan avval dars rejasini tayyorlashi lozim, chunki qisqa dars davomida darsni rejalashtirishga vaqt bo‘lmaydi. Qolaversa, bolalar turli o‘yinlarda o‘zlarining faolliklarini ko‘rib, ona tiliga bo‘lgan qiziqishlari oshib boradi va o‘zlaridan ham qoniqish hosil qiladi. Ma`lumki bolalarning ona tilini o‘rganishda va talaffuzini shakllantirishda muvaffaqiyatga erishishda aniq dastur rejasi, o‘qitish materiallari va metodikasi juda muhim. Bundan tashqari ota-onalar motivatsiyasi va xulq atvori ham ona tilini o‘rganishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bolaning nutqi, talaffuzi, aksenti va xulq atvoriga kuchli ta`sir o‘tkazuvchi omillardan biri ijtimoiy faktorlardir. Shu sababli ham ona tili fonologiyasini o‘rganishda sotsiolingvistikaning o‘rni beqiyos. Til o‘rganish bu, nafaqat yangi bilimga ega bo‘lish, balki boshqa bir etnolingvistik jamiyatning simvolik belgilarini qabul qilish jarayonidir.

O‘ziga baho va ishonch hissi yuqori bo‘lgan bolalar, buning aksi bo‘lgan bolalardan, og‘zaki nutq bo‘yicha yuqori natijalarni ko‘rsatishadi. Bundan ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinf bolalairda talaffuzni shakllantirishda ularning ona tili bo‘yicha og‘zaki nutqini rivojlantirishda albatta, ularda o‘ziga yaxshi baho berish va ishonch hissini yuksaltirmoq lozim, uni doimiy ravishda rag‘batlantirib, motivatsiya bermoqlik zarur. Chunki bola psixologiyasida unga berilgan alohida e’tibor, uning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va bahosining oshishiga sabab bo‘ladi.

Har qanday tilni o‘rganishda o‘sha til fonetikasining o‘rni beqiyosdir. Chunki fonetika to‘g‘ri va ravon talaffuz asosidir. To‘g‘ri va ravon talaffuz, og‘zaki nutq mukammal shakllangan, ohang, ritm, tezlik va ravonlik mavjud bo‘lgan nutqdir.

Ona tilini o‘qitishda talaffuzning erta bolalikdanoq e`tibor beriliishi, keyinchalik bolada nafaqat talaffuz mukammalligi balki o‘qish ravonligiga ham turtki bo‘ladi. Deyarli barcha o‘qituvchilar grammatika, lug‘at, dialoglar, eshitish va o‘qish qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berishgan. Ammo, ona tili talaffuz qoidalarini, faqatgina ayrim holatlarda o‘rgatishgan. To‘g‘ri va ravon, tushunarli talaffuz muloqotning asosiy kalitidir. Shu sababli ona tilini o‘qitishda to‘g‘ri talaffuz til o‘rganuvchilarining so‘zlashish qobiliyatini ham kuchli shakllanishiga yordam beradi.

To‘g‘ri talaffuzni o‘qitishning yillar davomida inkor qilib kelinishining asosiy sababi, uni o‘qitishni xohlamaslik emas, aksincha uni qanday o‘qitish metodikasini bilmaganlik, asosiy sababi ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ona tili talaffuzini o‘qitishda tovushlar va ohang bilan ishlashga sabr yetishmasligi, hamda o‘qituvchilarning vaqtdan yutishga bo‘lgan urinishlari talaffuzni o‘qitishdan onalab o‘tishlariga sabab bo‘lgan.

Aksariyat o‘qituvchilar ona tilini o‘qitishda, talaffuzga alohida e’tibor berishida, o‘qitish metodikasidagi ikkilanishlar to‘sqinlik qilganligini aniqlangan. Ushbu muammolarni yechishda ona tilini o‘qitishni avvalo talaffuzdan boshlash kerakligini muhim faktorlar bilan bog‘lanadi. Masalan, yosh faktori, ya’ni talaffuz rivoji yoki muvaffaqiyatsizligining bosh sababidir. Chunki, faktlarga ko‘ra, bolalar o‘n ikki yoshga qadar, tilga taqlid qilishga ham miya, ham til motorikasi bilan moslashib, o‘sib boradi. O‘n ikki yoshdan keyin nutq organlari talaffuz qilishga, taqlid bo‘yicha o‘sishdan to‘xtaydi. Shu sababli, ona tili talaffuzini kechroq o‘rgangan o‘smir va kattalar ona tilida haqiqiy adabiy tildagidek talaffuzga ega bo‘lib gapirisha olmaydi. Ona tilida so‘zlar talaffuzini o‘qitishda bolalar nutqini to‘g‘irlash, shakllantirish va rivojlantirish bir muncha oson va muvaffaqiyatli yakunlanuvchi jarayondir.

Xullas, ona tili darslari boshlang‘ich darajasida talaffuz qoidalarini o‘qitish muhim ekanligini isbotlangan. Tovushlar, so‘zlar va gap ohangining xato aytilishi tinglovchiga noqulaylik va tushunmovchilikni keltirib chiqadi. G‘aliz talaffuzga ega so‘zlovchi tinglovchidagi noqulaylikdan o‘zi ham xijolatli holatga tushadi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi kamayib boradi, bundan tashqari, tinglovchida so‘zlovchining adabiy tilida bilim yetishmasligini bildiruvchi fikr paydo qiladi. Adabiy tilini ona tili sifatida o‘rganuvchilarga talaffuz qoidalarini o‘qitishda nafaqat tovushlar va ohangni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish kerak. Yuqorida bayyon etilganlardan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ona tilida to‘g‘ri talaffuzni shakllantirish va rivojlantirishning muhim ekanligini ko‘rish mumkin.

БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ЎЗБЕК ТИЛИ ДАРСЛАРИНИ СИФАТЛИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИ

(Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактаблари мисолида)

Шахло НАРАЛИЕВА,
Жумабек Ташенев номли университет Халқаро ҳамкорлик департаменти директори,
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD).
Қозоғистон Республикаси,
Ҳулкар ҲАМРОЕВА,
Ўзбекистон давлат хореография академияси доценти,
филология фанлари доктори(Ds).Toshkent,O‘zbekiston

Аннотация. Мазкур мақолада Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларининг бошланғич синфларида ўзбек тили дарсларини сифатли ташкил этишнинг инновацион усуллари тадқиқ қилинади.

Калит сўзлар: ўқувчи, ўзбек тили, нутқ, Қозоғистон, бошланғич, инновацион усул, дарс лойиҳаси.

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ КАЧЕСТВЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

(В случае общеобразовательных школ Казахстана, где обучение ведется на узбекском языке)

Абстрактный. В данной статье исследуются инновационные методы качественной организации занятий по узбекскому языку в начальных классах общеобразовательных школ Казахстана, где обучение ведется на узбекском языке.

Ключевые слова: студент, узбекский язык, речь, Казахстан, начальная школа, инновационный метод, проект урока.

PROBLEMS AND SOLUTIONS OF QUALITY ORGANIZATION OF UZBEK LANGUAGE LESSONS IN PRIMARY CLASSES

(In the case of secondary schools in Kazakhstan, where instruction is conducted in Uzbek)

Abstract. In this article, innovative methods of quality organization of Uzbek language classes in primary grades of general education schools in Kazakhstan, where education is conducted in the Uzbek language, are researched.

Key words: student, Uzbek language, speech, Kazakhstan, primary, innovative method, lesson project.

Бола шахси шаклланишида бошланғич синф даври энг муҳим давр ҳисобланади. Бошланғич синф ўқувчилари ишонувчан, ташқи таъсирга берилувчан бўлиб, уларда ижобий ҳиссиётлар, фазилатларни таркиб топтириш, юксак ахлоқий меъёрларни шакллантиришда асосий масъулият бошланғич синф ўқитувчисининг зиммасига тушади. Бу даврда ўқитувчининг ҳар бир гапи, ҳар бир хатти-ҳаракати, таъсир кўрсатиш услуби бола учун ҳақиқат мезони вазифасини бажаради. Чунки ўқувчилар ўқитувчиларга қаттиқ ишонадилар, уларнинг фикр-мулоҳазаларига қулоқ соладилар, талабларига ҳамиша амал қиладилар.

Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларининг бошланғич синфларида ўзбек тили дарсларини кузатиш давомида баъзан анъанавий ҳамда ноанъанавий машғулотлар аралаш шаклда қўлланилаётган дарс машғулотларига ҳам дуч келдик. Ҳатто аралаш шаклдаги дарслар миқдори анъанавий ҳамда ноанъанавий машғулотларга нисбатан баландроқ эканлигини ҳам кузатдик. Бу мактабларда ўзбек тили ўқув предметини ўқитаётган ўқитувчи-методистларимизнинг дарс ўтиш усулларида ҳали эски қолиплардан тўла қутула олмаётганликларидан дарак беради.

Ўзбек ва қозоқ тиллари орасидаги бир тил оиласига мансублик; ҳудудий чегара нуқтаи назаридан Ўзбекистон ва Қозоғистон Республикалари ўртасидаги қўни-қўшничилик; қондошлик ришталари; ижтимоий турмуш тарзининг яқинлиги, ўзбек тили, адабиёти, санъати, маданиятининг қозоқ тили, қозоқ адабиёти, қозоқ санъати ва маданиятининг ўзбекларга таъсири умумтуркий маънавиятнинг ўзига хос қирраларидан бири ҳисобланади, десак, муболаға бўлмайди. Икки халқ ўртасидаги узилмас ришталар боис Ўзбекистонда яшовчи қозоқ миллати вакиллари учун 218та махсус қозоқ мактаби фаолият кўрсатар экан. (Бошқа бир интернет маълумотида “Республикада ҳозир 800 минг атрофида қозоқ миллатига мансуб киши яшайди... Ўзбекистонда қозоқ тилида таълим берувчи 376та умумтаълим мактаби бор” деган хабарга ҳам дуч келамиз) Қозоғистон Республикасида, айниқса, юртимизнинг жанубий қисмида кўплаб ўзбек оилалари истиқомат қилишади (Статистик маълумотларга кўра, Қозоғистонда 700 мингдан зиёд ўзбек яшайди), уларнинг фарзандлари ўз она тилида таълим олишлари учун Қозоғистонда 137 та давлат, 3та хусусий ўзбек мактаби фаолият юритмоқда. Биз, қозоғистонлик мутахассис сифатида бу маълумотларга аниқлик киритиб айта оламизки, бугунги кунда мингдан ортиқ мактабларда таълим беш тилда – қозоқ, ўзбек, рус, тожик, уйғур тилларида олиб борилмоқда. Қозоғистон Республикасида соф ўзбек тилига ихтисослашган мактаблар сони 4 тани ташкил этади.

Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларининг бошланғич синфларида ўзбек тили машғулотларини ташкил этиш жараёни муаммолари тўғрисида фикр юритилганда унинг икки жиҳатини фарқлаб олишимиз зарур:

1. Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларининг бошланғич синфларида ўзбек тили машғулотларини ташкил этиш жараёнида таълим мақсади, таълим мазмуни, таълим усули, таълим воситалари ва ўқитувчи-ўқувчи муносабатлари ўртасидаги мувофиқлик билан боғлиқ муаммолар.

2. Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларининг бошланғич синфларида ўзбек тили машғулотларини ташкил этиш жараёни ва унинг муваффақиятли кечишини таъминловчи ижтимоий шароитлар билан алоқадор муаммолар.

Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларининг юошланғич синфларида ўзбек тили машғулотларини ташкил этиш жараёнида таълим мақсади, таълим мазмуни, таълим усули, таълим воситалари ва ўқитувчи-ўқувчи муносабатлари ўртасидаги мувофиқлик билан боғлиқ муаммолар деганда қуйидагилар назарда тутилмоқда:

1. *Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларининг бошланғич синфларида ўзбек тили машғулотларини ташкил этиш жараёнида таълим мақсади билан боғлиқ муаммолар*. Бизга маълумки, ўзбек тили таълими мақсади ҳамиша маънавий-маърифий тамойиллар билан боғлиқ равишда ҳукумат томонидан белгиланади ва мактаб ўзбек тили таълими олдига ижтимоий буюртма сифатида қўйилади. Демак, ўқитувчи фаолияти туфайли таълим жамият томонидан пухта ўйлаб чиқилган мақсад, мазмун ва дастурлар асосида амалга ошириладиган жараёнга айланиб, жамият кутган натижаларни беради. Таълим инсон билиш фаолиятининг энг мураккаб турларидан бири бўлиб, билимларни ўзлаштириш натижасида тафаккур ривожланишини фаоллаштиради.

Ўзбек тилидан анъанавий дарслар таълими шароитида ўқувчиларнинг ўқув-билув фаолиятини кузатиш шундай хулосага олиб келди:

бошланғич синф ўқувчилари ўзбек тили машғулотларида маълум мавзуга оид билимларни ўрганишгач, шу билимлар прагматикаси сифатида амалий топшириқларни бажариш жараёнида хатоларга йўл қўядилар. (Бу ўқувчиларнинг фанни ёмон ўрганганининг натижаси эмас, балки ўрганилган билим билан уни

нутқ фаолиятида қўллаш ўртасида мустаҳкам алоқадорликни ҳосил қила олмаслиги билан боғлиқ. Зеро, билим ва унинг нутқ фаолиятида қўлланиши ўртасидаги узвийлик ўқитувчи томонидан “ўргатилмайди”, балки бу ўқувчи томонидан ўрганганларини нутқида қўллай олиш кўникмаси асосида ҳосил қилинади);

анъанавий методика ўзбек тили таълими жараёнини бир хил қолипга солиб қўяди. (Дарс ташкилий қисм билан бошланади, уй иши текширилади, ўтилган мавзу сўралади; янги мавзуни ўқитувчи тушунтиради, мавзу машқ ва топшириқлар асосида мустаҳкамланаи ва ҳк.) Бугун техника, интернет, чексиз ахборот асрида яшаётган ўқувчини анъанавий шаклдаги дарслар ўзига жалб эта олмаслиги тайин). Анъанавий дарслар, одатда, бихевиористик (рецептив) ёндашув асосида амалга ошириладики, унинг натижаси белгиланган муайян доирадагина фаолият кўрсата оладиган интеллектуаллик даражаси ўртамиёна бўлган шахс тарбияси учун хизмат қилади.

Ноанъанавий дарслар деганда, биламизки, дарс ўтишнинг меъёрлашиб қолган кўринишларидан воз кечилади. Статистик маълумотларга кўра, камида беш минг йилдан бери она тили муайян бир тизимга солинган дарслар ўлароқ ўқитиб келинади. Айтиш мумкинки, шунча вақтдан бери инсон ақли одам боласига ўз она тилини ўргатиш ҳамда бу ўргатишнинг энг қулай ва энг самарали йўлларини излашдан тўхтамайди. Тамаддуннинг тинимсиз тараққиёти, тадрижий такомили натижасида юзага келган янгидан-янги ижтимоий-иқтисодий шароитлар ўқитиш самарадорлигини янада ошириш учун ҳам катта-кичик имкониятларни очади ва табиий равишда энг мақбул ўқитиш усули сифатида турғунлашган муайян қоидалар эскиради. Янги ижтимоий-иқтисодий шароитлардан келиб чиққан ҳолда яна янги ўқитиш усуллари изланади. Бир сўз билан айтганда, ўзбек тили таълими (умуман, таълим) замон тақозосига мувофиқ ана шундай муттасил, мунтазам ривожланиб, такомиллашиб, мақбуллашиб борадиган ўзига хос жараёндир.

Бугун дунёдаги бутун янгиланиш ва тараққиётнинг ҳаракатлантирувчи кучи ахборот технологиялари бўлиб қолди. Зеро, жаҳон миқёсида ахборот коммуникацион технологиялар кириб бормаган соҳанинг ўзи деярли қолмади. Таълимнинг барча тур ва босқичларида бўлгани каби бошланғич синф ўзбек тили машғулотларида ҳам ноанъанавий дарсларни ташкил этишда, асосан, ахборот коммуникацион технологиялардан фойдаланиш ижобий самара беради. Биз уларни таълим методлари билан боғлиқ тарзда ёритишга ҳаракат қиламиз.

Ўзбек тили таълимининг самарадорлигини ошириш учун дарсларнинг дидактик-прагматик қисмини нутқдан тилга тамойили асосида ташкил этиш ўзига хос метод ҳисобланади. Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларининг бошланғич синфларида ўзбек тили машғулотларини нутқдан тилга қараб бориш методи асосида ташкил этиш ўқув-тарбия жараёнида таълим олувчиларнинг онгли тарзда, мустақил фаоллигини таъминлайди. Ўзбек тили таълимида нутқдан тилга қараб бориш методининг самарадорлиги (алоҳида тамойил сифатида) методист олимлар томонидан махсус тадқиқ этилган. Мазкур методнинг самараси ўлароқ ўқувчида теварак-атрофидаги нарса/буюмлар, воқеа/ҳодисалар, тушунчалар орасидаги алоқадорлик ҳамда фарқларни илғай олиш, улар ҳақида фикрлаш, фикрлашиш; мулоҳазаларини ўз сўз(нутқ)и орқали баён эта олиш малака ва кўникмалари ривожланади. Бола тафаккурида соддадан мураккабга, хусусийликдан умумийликка, ҳодисадан моҳиятга, оқибатдан сабабиятга қараб интилиш тизимлашиб боради.

Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларининг бошланғич синфларида она тили машғулотларини оммавий ташкил этиш шакллари, одатда, макон ва замонига қараб икки гуруҳга бўлинади:

а) синф-дарс машғулотлари ва

б) синфдан ташқари ишлар (турли суҳбатлар, бадиий-композицион кечалар, учрашувлар, кўрик-танловлар, олимпиада ва б.)

Биламизки, умумий характерли тил тафаккурнинг моддийлашиш шаклидир. У ўзининг лисоний бирликлари орқали тафаккур ҳукмларини гап, матн кўринишида нутқ учун ҳозирлайди. Нутқ хусусий бўлиб, у инсонларнинг муносабати, мулоқоти ва баҳсларида воқеланади. Ҳар бир ўқувчида тафаккур~тил~нутқ бирлиги орасидаги изчилликни таъминлаш, асосан, бошланғич синфларда ўзбек тили машғулотларининг самарадорлигига боғлиқ. Бу борада мактабда она тили дарсларининг асосини семантик жиҳатдан боғланишли, психологик жиҳатдан руҳий-тарбиявий, педагогик жиҳатдан боланинг ёш хусусиятларига мос матнлар устида ишлаш ташкил этилмоғи аҳамиятли.

Бошланғич синф ўқувчилари нутқини уларнинг ёшларига мос халқ мақоллари билан бойитиш, бу борада турли дидактик ўйинларни ташкил этиш каби қатор методлар ҳам ўзбек тили таълими мақсади рўёбини таъминлашга хизмат қила олади. Зеро, ўзбек тили таълими жараёнида бошланғич синф ўқувчисининг сўз бойлигини ошириш, сўзларнинг маъно нозикликлари, фарқ ва ўхшашликларини ҳис қилиш ва англаб етиш, тўғри талаффуз қилиш ва ёзиш, сўзларни боғлаб гап туза олиш кўникмаларини шакллантириш ва малакасини ўстириш муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон – Қозоғистон: азалий дўстлик ва стратегик шерикликка асосланган алоқалар // Халқ сўзи. 2019 йил. 14 апрель. https://xs.uz/uz/site/newspaper.

2. Тажбенова С.С. Она тили дарсларида ўқувчиларга назарий билимларни амалда қўллашни ўргатиш методикаси (таълим қозоқ ва ўзбек тилларида олиб бориладиган бошланғич синфлар мисолида): пед. фанлари бўй. фалс. докт. (PhD). диссертацияси автореф. –Тошкент, 2018. – 49 б.

3. Нурлыбеков Б. история развития школ Южно-Казахстанского края (1864-1917 гг. И 1917-1924 гг.) // дисс.канд. пед.наук. - Чимкент. 1964.
4. Ҳамроқулова Ш. Қозоғистондаги ўзбекларнинг республика фан ва маданияти ривожига қўшган ҳиссаси (1925-2015 йй).– Тошкент.: Янги нашр, 2015.- Б. 174 б.
5. Ҳамроқулова Ш. Билингвал таълим – Қозоғистондаги ўзбек мактабларида// Сўз санъати, 2021. – 4-сон.
6. Ҳошимжонов И. Билингвал-Қарноқда // Жанубий Қозоғистон. 2005.
7. Жилин А.Н. Узбеки в Южном Казахстане // Современное развитие этнических групп Средней Азии и Казахстана. – Москва: Изд. инст. этн. и атрп., 1992.
8. Эрназарова М.С. Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларнинг 2-синфларида ўзбек тилини ўқитиш методикаси: пед. фанлари номз.диссертацияси автореф. –Тошкент, 1999.
9. Азимов И. Бундан ўзимиз манфаатдормиз. https://kun.uz/news/2021/10/13/
10. Ш.Наралиева, Б.Турдикулов, Н.Корганбаева. Ўзбек тили. Умумтаълим мактабларининг 5-синфи учун дарслик. Қозоғистон Республикаси Таълим ва фан министрлиги тасдиқлаган. Алматы.: “Жазушы” нашриёти, 2017.

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI FANINING MAZMUN-MOHIYATI

Klaraxon Mavlonova,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU Ona tili ta’limi kafedrasi dotsenti, p.f.d. (*PhD)*

Annotatsiya. Maqolada Barcha umumta’lim fanlari qatori ta’lim sifatini yangi bosqichiga ko‘tarish bilan bog‘liq jarayonda Milliy o‘quv dasturining ishlab chiqilishi hamda “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklarining kommunikativ va kognitiv yondashuvlar asosida yaratilayotgani, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy tafakkurini, fikrlash doirasini shakllantirish muhim ahamiyatga egaligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ, kognitiv, kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz, sintez, ijodiy tafakkur.

СОДЕРЖАНИЕ-СУТЬ ПРЕДМЕТА РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ

Аннотация

В статье приведены рассуждения по поводу разработки Национальной учебной программы в процессе поднятия качества образования на новый уровень, в том числе по всем общеобразовательным предметам, и создания учебников «Родной язык и читательская грамотность», основанных на коммуникативном и когнитивном подходах, в учебном процессе, о важности формирования творческого мышления и кругозора учащихся путем обучения их наблюдать, понимать, сравнивать, анализировать и синтезировать события.

Ключевые слова: коммуникативное, познавательное, наблюдение, понимание, сравнение, анализ, синтез, творческое мышление.

CONTENT IS THE ESSENCE OF THE SUBJECT OF NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY

Annotation

The article provides discussions on the development of the National Curriculum in the process of raising the quality of education to a new level, including in all general education subjects, and the creation of textbooks “Native Language and Reading Literacy”, based on communicative and cognitive approaches, in the educational process, about the importance of developing students' creative thinking and outlook by teaching them to observe, understand, compare, analyze and synthesize events.

Key words: communicative, cognitive, observation, understanding, comparison, analysis, synthesis, creative thinking.

Barcha umumta’lim fanlari qatori ta’lim sifatini yangi bosqichiga ko‘tarish bilan bog‘liq jarayonda Milliy o‘quv dasturi[1]ning ishlab chiqilishi hamda “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklarining kommunikativ va kognitiv yondashuvlar asosida yaratilayotgani mazkur sohadagi jiddiy islohotlardan darak beradi.

Ma’lumki, ona tili va o‘qish fanlari dars soatlari qisqarmagan holda o‘quv maqsadlari uyg‘unligidan kelib chiqib, Ona tili va o‘qish savodxonligi fani joriy etildi. Quyida ta’limdagi mazkur takomillashuvning mohiyati, boshlang‘ich sinflarda Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitish bilan bog‘liq masalalarga to‘xtalib o‘tamiz.

I. Mohiyat va tahlil.

1. Ta’lim berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, ya’ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir (amalda ona tilini o‘qitishda til strukturasiga asoslangan grammatik yondashuv ustuvor bo‘lgan).

2. Tilni amaliyotda qo‘llash, ya’ni matnni o‘qish orqali ham grammatika, ham uning qo‘llanishini o‘rgatishga asoslaniladi.

3. O‘quv materiallari tilni o‘zlashtirishda nutqiy vaziyatning o‘rni nechog‘li muhimligidan kelib chiqqan holda tanlanadi, ya’ni qaysi yoshdagi bola qanday mavzularda muloqot qilish, til birliklaridan foydalanishga ehtiyoji borligi inobatga olinadi.

4. Til ta’limi jarayonida lisoniy struktura emas, balki mazmun birlamchi ekanidan kelib chiqib, grammatik bilimlar spiralsimon shaklda beriladi (amalda til sathlari kesimida muayyan sinfda vertikal tarzda o‘qitilgan. Aslida, nutqiy muloqotda barcha til sathlariga ehtiyoj seziladi). Ona tilidan ta’lim mazmuni tilning barcha xususiyat va qonuniyatlari parallel ravishda soddadan murakkabga tomon, amalda qo‘llash ehtiyojidan kelib chiqqan holda

o‘rgatishga asoslangan, ya’ni malaka talablarida ko‘rsatilgan ko‘nikma va malakalarni egallash uchun nutqiy mavzu doirasida qaysi grammatik bilimlarga zarurat bo‘lsa, shundan o‘quvchining yosh xususiyatlari va o‘quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda foydalanilgan. Bir mavzuga qayta-qayta murojaat qilinishi va uning doimiy murakkablashib borishiga e’tibor qaratilgan, yani grammatika tildan ongli foydalanish maqsadidagina o‘qitilishi asos qilib olinadi.

5. Fanlararo integratsiya shunday namoyon bo‘ladiki, o‘quvchi ehtiyoj sezadigan har qanday o‘quv fani doirasidagi mavzular shakllantirilib, ularda til birliklaridan qanday foydalanish, nimalarga e’tibor berish kerakligi barcha uslubdagi turli sohalarga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali mustahkamlanadi (o‘quvchiga ma’lum vaziyat va holatlarda tildan qanday foydalanish kerakligiga kam e’tibor berilgan).

3. 1–11-sinflarda ona tilini o‘qitish mazmuni va uzviyligi ta’minlanadi (amalda boshlang‘ich hamda yuqori sinflarda uzviylik va mazmunda ayrim nomuvofiqliklar mavjud edi).

4. Bo‘lim hamda shu asosda tanlangan nutqiy mavzularga oid turli uslubdagi matnlar bolaning yosh xususiyatlariga mos holda tanlanadi, yaxlit mazmun ifodalagan matn, matn parchalarini o‘qish, eshitish va tahlil qilishga yo‘naltiriladi.

5. O‘quvchining o‘qib tushunish, eshitib tushunish, og‘zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e’tibor qaratiladi (amalda asosiy e’tibor lingvistik bilim berish hamda yozma nutq o‘stirishga qaratilgan).

6. Video va audiomateriallar orqali yozma ko‘nikma bilan birgalikda og‘zaki nutqni rivojlantirish ko‘zda tutiladi. Videomaterial tilning qanday vaziyatda qo‘llanayotgani haqida to‘liq tasavvur bersa, audiomaterial ularning intonatsiya, ohangini yaxshi o‘zlashtirishga, ularning turli o‘zgarishlari qanday ma’no anglatishini tushunishga yordam berishiga e’tibor qaratilgan (amalda kontekstdan ajratib olingan gaplar orqali bir turdagi malakani rivojlantirishga haddan ziyod ko‘p e’tibor qaratilgan).

7. Badiiy matn tanlash va matn ustida ishlashda bolaning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tilning ifoda imkoniyatlarini tushunishi va his eta olishi, “so‘zni hazm qila olish” imkoniyatlari e’tiborga olinadi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy tafakkurini, fikrlash doirasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda kommunikativ yondashuv, faoliyatga yo‘nalgan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yondashuvi, farqli va tanqidiy yondashuv kabilar e’tiborda bo‘lishi lozim.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rishimiz mumkinki, mazkur o‘zgarishlar barobarida “Yangi o‘quv dasturi spiralsimon, ya‘ni yangi ma‘lumotlarni berish barobarida oldin o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarga qaytib, ularni takrorlab, yangi bilimlar bilan uyg‘unlashtirish tamoyilida tuzilgan ekan, u yoki bu grammatik qoidalarni qay tarzda tushuntirish va qanday qilib nutqiy kompetensiyalarni shakllantirshga bo‘ysundirish, shuningdek, amaliy ko‘nikmalarni malakalarga va malakalarni kompetensiya darajasida shakllantirish yuzasidan izlanishlar, tajribalar, tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish darkor” [2].

II. Nutqiy va lingvistik kompetentlik mezonlari.

Boshlang‘ich ta’limning savod o‘rgatish bosqichi yakunlangach, Ona tili va o‘qish savodxonligi darslari boshlanadi hamda 4-sinf yakuniga qadar izchillikda davom ettiriladi. Milliy o‘quv dasturida har bir sinfni tamomlagan o‘quvchi egallashi lozim bo‘lgan malakalar belgilab berilgan. Quyida 1- va 4-sinfni yakunlagan o‘quvchi egallashi kutilayotgan malaka talablarini keltirib o‘tamiz:

O‘qib tushunish ko‘nikmasi.

Tilga oid egallanishi ko‘zda tutilgan to‘rt lisoniy malakaning biri – o‘qib tushunish malakasini shakllantirishda yaxlit matn bilan ishlashga oid topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda “Ona tili” hamda “O‘zbek tili” darsliklarida berilayotgan mashq va topshiriqlarning aksariyati shaklan bir xil xi bo‘lib, tahlilga, o‘ylashga, izlanishga emas, ma’lum qoidalar asosida til hodisalarini mexanik tarzda aniqlashga qaratilgan. O‘quvchilarni “tahliliy faoliyatga undash uchun esa aqliy mehnatni talab etadigan mashqlar zarur” [3; 22-b.] Mashqlar bilan birga tahliliy faoliyatga undovchi topshiriqlar ustida ishlash ham juda muhim. Keyingi avlod darsliklarida ushbu mazmundagi mashq va topshiriqlar hajmining ortishi kuzatiladi [4].

“Matnni o‘qib tushunish murakkab psixolingvistik jarayon bo‘lib, grafemalarni tanish, so‘zni o‘qish, so‘zning lug‘aviy ma’nosini, kontekstual ma’nosini anglash, sintaktik strukturani to‘g‘ri hal etish (ya’ni so‘zlarning o‘zaro munosabati, qaysi so‘z gapdagi asosiy tushunchani, qaysilari unga tobe tushunchalarni ifodalayotganini anglash), shuningdek, matn mazmuniy bloklarining o‘zaro bog‘lanishini tushunish kabi darajalardan iborat bo‘ladi”, “mazkur darajalardan o‘tib matnni o‘qib chiqqan har bir o‘quvchini matnni to‘liq tushungan” deb bo‘lmaydi [5; 221-b]. O‘quv yili davomida matn ustida ishlashga oid topshiriqlarning muntazam o‘tkazib borilishi o‘quvchida DTSda belgilanganidek, “turli janrdagi matnlarni ifodali va ta’sirchan o‘qiy olish, gapning ifoda maqsadi, his-hayajon, sodda va qo‘shma gaplar ohangiga rioya qilib o‘qiy olish”[6; 142-b.]nigina emas, matnni o‘qib tushunish, ya’ni uni idrok eta olishga oid malakalarning shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Aksariyat hollarda o‘qish bilan bog‘liq berilgan topshiriqlarda asosiy e’tibor matnda ochiq ifodalangan ma’lumotlarni topish va aytib berishga, qisman badiiy matnning til xususiyatlari bilan bog‘liq savol va topshiriqlarga (4-sinf “O‘qish kitobi”da badiiy tasvir vositalarini tushunish bilan bog‘liq topshiriqlar berilgan) yoki didaktik maqsadlarga qaratib kelingan. Endilikda esa o‘qib tushunish kompetensiyasining barcha jihatlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar ishlab chiqilgan.

Birgina “Mening mahallam” mavzusi doirasida o‘quvchining suhbat matni (dialog), ma’lumot-axborot matni, badiiy matn (K.Turdiyeva. “Mahalla – ota-ona” she’ri), shuningdek, turli savollar, mashq va topshiriqlar shartini o‘qib tushunishi ko‘zda tutilgan.

Tinglab tushunish.

Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuda alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan (amalda mazkur ko‘nikmani shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar ajratilmagan). Endilikda esa tinglab tushunish kompetensiyasining barcha jihatlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar ishlab chiqilgan.

Quyida “Mening mahallam” mavzusi doirasidagi tinglab tushunish bilan bog‘liq ta’limiy ishlarni izohlaymiz:

“Hashar – elga yarashar” audiomatnini tinglang.

1. Mahalla ahli deganda kimlar nazarda tutiladi?
2. Mahallada kimlarning ahvolidan xabar olinar ekan? Nima uchun?
3. Hashar nima? U qaysi bayramlardan oldin o‘tkaziladi? Hasharda nimalar qilinar ekan?
4. “Hashar – ko‘ngilli tadbir” deganda nimani tushundingiz?
5. Sizning mahallangizda ham hashar bo‘lib turadimi?

Savollar bilan ishlangach, tinglagan matnida qo‘llangan, bolaning tushunishi uchun murakkabroq yoki obrazli qilib tasvirlangan jumlalar ustida ish olib boriladi. Maqsad bir fikrning turli shakllarda ifodalash mumkinligi bilan amaliy jihatdan tanishtirib borishdan iborat.

Quyidagi gaplarda qanday farqni ko‘ryapsiz?

Qiynalganlarga ***yordam qo‘lini cho‘zishni*** o‘z burchlari deb biladilar.	Qiynalganlarga yordam berishni o‘z burchlari deb biladilar.
Mahalladoshlar bilan bir oila a’zolaridek ***qo‘lni qo‘lga berib*** mehnat qilamiz.	Mahalladoshlar bilan bir oila a’zolaridek birgalikda mehnat qilamiz.
Keyin ***mahalla ahli*** dasturxon atrofida ***jamuljam*** bo‘ladi.	Keyin mahalladagi odamlar dasturxon atrofida yig‘iladi.
Hamma ***topganini o‘rtaga qo‘yib***, ko‘pchilik bilan birga ***baham ko‘radi.***	Hamma uyidan biror yegulik olib chiqib, ko‘pchilik bilan bo‘lishib yeydi.
Ko‘nglimiz ***tog‘dek ko‘tariladi.***	Juda xursand bo‘lamiz.

Keyingi jarayonda tinglagan matnidan ajratib olingan gaplarning to‘g‘ri yozilganiganini aniqlashga qaratilgan topshiriq ustida ishlanadi (mashq daftarida).

Og‘zaki nutq.

“Mening mahallam” mavzusi doirasida og‘zaki nutq bilan ishlash jarayonini izohlaymiz: darslikda 4 xil ko‘rinishdagi mahalla rasmi berilgan.

Topshiriq. Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering. Bolalar rasmlarni diqqat bilan kuzatib chiqishadi. Keyin rasm asosidagi savollar bilan tanishiladi.

1. Ayting-chi, bu rasmlarda qayer tasvirlangan?
2. Sizningcha, bu rasmlarni nima bog‘lab turibdi?
3. Rasmdagi qaysi joy sizga yoqdi? Nima uchun?
4. Berilgan rasmlardan qaysi biri siz yashab turgan joyga o‘xshayapti?

Ushbu savollarga imkon qadar sinfdagi barcha o‘quvchilar javob berishlari kerak. Chunki mazkur darsning bosh maqsadi og‘zaki nutqni o‘stirish, nutqiy mavzu doirasiga bolani olib kirishdan iborat. Ko‘p hollarda savollarga darsda qo‘l ko‘targan o‘quvchilarning 3–4tasidangina javob olishga odatlanganmiz. Bu yondashuv orqali bolaning og‘zaki nutqini o‘stirib bo‘lmaydi. Har bir nutqiy mavzu doirasida har bir bolani dars davomida gapirtirishga undash lozim bo‘ladi. Shundagina o‘quvchi qayta-qayta mashq qilish orqali nutqiy vaziyatlarda og‘zaki fikr ifodalashga tayyorlanib boradi.

Darslikda, shuningdek, o‘quvchilar yodlash uchun berilgan she’rni aytib berishlari uchun alohida soatlar ajratilgan.

Yozma nutq.

Odatda, bolaning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, matn yaratish ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida savollar, rasmlar yoki kuzatuvlar asosida matn tuzish bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar berib boriladi, ammo bu jarayonda qanday qilib yozish masalasi e’tibordan chetda qoladi. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida ushbu jihatlarga e’tibor qaratilgan: noto‘liq matnni to‘ldirish, berilgan namuna asosida yozish, taqdim etilgan tanlovlar asosida yozish, savollarga ketma-ketlikda javob yozish asosida matn yaratish, sujetli rasmlar asosida yozish kabi. Quyida namuna keltirib o‘tamiz (“Mening mahallam”):

O‘zingiz yashayotgan mahalla haqida matn tuzing. Quyidagi tanlovlardan foydalanishingiz mumkin:

1-tanlov

Bu – mening mahallam

a) mahallangiz nomi;
b) joylashgan o‘rni;
d) bino va ko‘chalar.

2-tanlov

Mahallam tarixi

a) mahallangiz nomi va ma’nosi;
b) mahalladagi odamlar;
d) urf-odatlar.

3-tanlov

Mahalladagi o‘rtoqlarim

a) ismlari;
b) ularning fe’l-atvori;
d) eng yoqtirgan o‘rtog‘ingiz;
e) yoqtirishingiz sababi.

Lingvistik bilim.

Lingvistik bilimlar matnga asoslangan shaklda beriladi, ya’ni bola o‘qigan yoki eshitgan matnida uchragan til birliklari ustida ishlaydi. Namuna:

Ikki ustunda berilgan matnlarni diqqat bilan o‘qing va savollarga javob bering.

Mahallamiz nomi – Sariosiyo. ***Sariosiyo nomi*** bobomning aytishlaricha, “tegirmonboshi” degan ma’noni bildirar ekan.	Mahallamiz nomi – Sariosiyo. ***Bu nom*** bobomning aytishlaricha, “tegirmonboshi” degan ma’noni bildirar ekan.
Men mahallamizdagi Abu Rayhon Beruniy ko‘chasida yashayman. ***Abu Rayhon Beruniy ko‘chasidan*** keyingi ko‘cha Xo‘jamurod Baxshi deb nomlanadi. ***Xo‘jamurod Baxshi ko‘chasining*** nomlanishi mahallamizda yashab o‘tgan bir avliyo bilan bog‘liq.	Men mahallamizdagi Abu Rayhon Beruniy ko‘chasida yashayman. ***Undan*** keyingi ko‘cha Xo‘jamurod Baxshi deb nomlanadi. ***Bu ko‘chaning*** nomlanishi mahallamizda yashab o‘tgan bir avliyo bilan bog‘liq.

1. Sizningcha, qaysi ustundagi matn to‘g‘ri? Nima uchun?
2. Matnlardagi qaysi so‘zlar almashgan?
3. “Qayer?”, “qayerda?” so‘roqlariga qaysi so‘zlar javob bo‘lyapti?
4. Joy nomlari qanday yozilishi kerak?

Matnda bir xil so‘z yoki jumlani qayta-qayta takrorlamaslik uchun u, bu, shu kabi so‘zlardan foydalanamiz.

Bunday amaliy ishlar orqali o‘quvchining nutq jarayonida olmoshdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasi shakllanib boradi.

III. Darslik, mashq daftari hamda “O‘qituvchi kitobi” bilan ishlash mazmuni.

Darslikning o‘ziga xosligi shundaki, mavzuga mos metodika va texnologiyalar har bir nutqiy mavzu doirasida izchillikda taqdim etilgan, ya’ni turli xildagi qiziqarli didaktik o‘yinlar, o‘quv materiallari, ko‘rgazmalilik darslik va mashq daftaridan o‘rin oladi. O‘qituvchi tajribasi hamda mahoratidan kelib chiqib takomillashtirtishi mumkin. Illustrativ materiallardagi o‘quvchiga tushinish qiyin bo‘lgan so‘zlar darslikning orqa qismida maxsus lug‘atga joylashtirilishidan tashqari ularni tabiiy holda o‘zlashtirishga qaratilgan maxsus mashqlar ham ishlab chiqilgan.

O‘qituvchi kitobida o‘tilayotgan nutqiy mavzular doirasida qanday malaka talablari qo‘yilgani, bunda qaysi jihatlarga e’tibor berish lozimligi, mashq va topshiriqlarni bajarish bilan bog‘liq metodik yo‘l-yo‘riqlar, darsni qanday texnologiya asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Mashq daftarida darslikda ishora qilingan, maxsus belgi bilan ajratilgan topshiriqlar bajarib boriladi. O‘quvchilar daftarga yozishlari, chizishlari, bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirishlari, o‘qib va tinglab tushunish, matn tuzish bilan bog‘liq topshiriqlarni bajarishlari hamda rasmlarni bo‘yashlari mumkin.

Milliy o‘quv dasturi mohiyatidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, sinflararo uzviylikni nazarda tutgan holda keyingi avlod darsliklarini yaratish vazifasi yuzaga kelmoqda. Bunda tilimizning boshqa fanlar bilan aloqasini ta’minlashga, ona tilining barcha ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fanlar, o‘quv predmetlarining o‘rganish va o‘rgatish vositasi ekanligini chuqur anglagan holda undan ilmiy va amaliy faoliyatda foydalanishga, ijtimoiy hayotning turli qirralarini aks ettirishga, shuningdek, ta’lim oluvchilarning yosh, gender va etnomadaniy xususiyatlariga, to‘rt lisoniy malakaning baravar shakllantirishga e’tibor qaratilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, o‘qish savodxonligi doirasida har qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmasini egallash nazarda tutilsa, grammatik savodxonlik jarayonida “asosiy diqqatni o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning ma’no nozikliklari, farq va o‘xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so‘zlarni bog‘lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma’noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o‘zgalar fikrini to‘g‘ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to‘g‘ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va malakasini o‘stirishga qaratish zarur” [7; 74].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta ta’limning ona tili fanidan Milliy o‘quv dasturi (1–11-sinf). – Toshkent, 2020. http://uzviylik.tdi.uz/
2. V.Qodirov. Til va adabiyot ta‟limiga yangicha yondashuvlar yuzasidan mulohazalar. Global ta’lim va milliy metodika. V an’anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2021. – B. 33–37.
3. ***Yo‘ldoshev R., Mirjalolova L. Ona tili ta’limida kompetensiyaviy yondashuv. – T.: Fan va texnologiyalar, 2015. – 48 b.***
4. N.Mahmudov va b. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik/To‘la yangilangan 5-nashr. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMU, 2020. – 192 b.; Qodirov M., Ne’matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019. – 144 b.; Mengliyev B.v.b. Ona tili. 2-qism. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2020. – 96 b.; Mengliyev B.v.b. Ona tili. 2-qism. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2020. – 96 b.
5. Azimova I. Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Global ta’lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2019. – B. 215–224.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Умумий ўрта ва ўрта махсус касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 14-сон.
7. Менглиев Б. Тилшуносликнинг амалий масалалари. Монография. – Тошкент: Clobe Edit, 2020. –100 б.
8. Azimova I. Ona tili bo‘yicha Milliy o‘quv dasturida qo‘llangan yondashuv. https://www.youtube.com/watch?v=TqAkPZ_0M8o
9. https://www.youtube.com/watch?v=oLII9JOPB3M

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI BADIIY MATNLAR TAHLILIGA O‘RGATISH

Xolida G‘ulomova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga asoslanilgan holda ularning badiiy-estetik didini o‘stiruvchi badiiy saviyasi yuqori bo‘lgan turli janrdagi matnlar hamda ilimiy-ommabop matnlar, matn tahlilida muayyan tamoyillarga amal qilingandagina matn tahlilidan ko‘zlangan maqsadga erishilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy-estetik did, badiiy saviya, turli janrdagi matnlar, ilimiy-ommabop matnlar, matn tahlili, muayyan tamoyil.

ОБУЧЕНИЕ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ АНАЛИЗУ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ

Аннотация

В данной статье приведены рассуждения о том, что цель анализа текста может быть достигнута только при соблюдении определенных принципов при анализе текстов различных жанров с высоким художественным уровнем, развивающие художественно-эстетический вкус учащихся на основе их жизненного опыта.

Ключевые слова: художественно-эстетический вкус, художественный уровень, тексты разных жанров, научно-популярные тексты, анализ текста, неизменный принцип.

TEACHING PRIMARY SCHOOLCHILDREN THE ANALYSIS OF LITERARY TEXTS

Annotation

This article presents arguments that the goal of text analysis can only be achieved if certain principles are observed when analyzing texts of various genres with a high artistic level, developing the artistic and aesthetic taste of students based on their life experience.

Key words: artistic and aesthetic taste, artistic level, texts of different genres, popular science texts, text analysis, unchanging principle.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarning umumiy o‘rta ta’limda bilim va ko‘nikmalarni egallashga poydevor yaratadi. Ta’lim sifati, birinchidan, milliy o‘quv dasturi asosida ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklari o‘quv materiallari hamda topshiriqlari mazmuni ishlab chiqiladi. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklariga badiiy, ilmiy-ommabop matnlar kiritilishi nazarda tutilgan. O‘quvchilarning hayotiy tajribasiga asoslanilgan holda ularning badiiy-estetik didini o‘stiruvchi badiiy saviyasi yuqori bo‘lgan turli janrdagi matnlar hamda ilimiy-ommabop matnlar tanlanadi. Shuningdek, lingvistik tushunchalarni kiritishda ham uning amaliy

ahamiyati hamda o‘quvchining uni ongli anglay olish qobiliyati hisobga olinadi. Bu talablar o‘quvchining dastur talablarini o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Ikkinchidan, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi o‘qitish metodlari, usullari va vositalariga ham bog‘liq. Ta`lim metodlari, usullari va vositalari ta`lim sifatini oshirishning asosiy omillari sanaladi. Jumladan, o‘qitishda o‘zaro hamkorlikka tayanish, ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchining birgallikdagi faoliyatini tashkil etilishi har ikki tomonning shaxslararo muloqot madaniyatini tarbiyalaydi, o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshini tinglashga, tushunganlarini, tushunchalarini til vositasida suhbatdoshiga yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadilar.

Matn ma’lumotlariga ijodiy va tanqidiy yondashuvga undovchi metod va usullar o‘quvchilarni o‘qigan axborotini baholashga, muammolarni mustaqil hal qilishga o‘rgatadi.

Matn tahlilida muayyan tamoyillarga amal qilingandagina matn tahlilidan ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Jumladan, o‘quvchining ma’lumotni yaxlit, izchil, hissiy idrok qilishi uchun matnni bir butun holda o‘qitish. Bu badiiy asarning birlamchi idrok talablari bilan ichki bog‘lanishni va idrok sifatini yaxshilash, shu orqali asarga qaytib uni tahlil qilish ehtiyojini yuzaga keltirishni nazarda tutadi. MO‘Dida “O‘qish savodxonligi mukammal bo‘lgan o‘quvchi boshqa fanlarda o‘rganayotgan matnlarni o‘qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy (kreativ) fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqati rivojlantiriladi”2 Ikkinchidan, badiiy asar tahlilini ta’lim va tarbiya maqsadiga yo‘naltirish asarni to‘laqonli idrok qilish, uning g‘oyasini tushunishni ta`minlaydi. Uchinchidan, matn tahlilida o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tahlil usullarini tanlash talab etiladi. To‘rtinchidan, matn tahlili o‘quvchining badiiy matnni tushunish ehtiyojlariga javob berishi kerak. Beshinchidan, matnni *ikkinchi marta mustaqil o‘qishga tavsiya qilish kich*ik maktab yoshidagi o‘quvchilarning matn mazmunini to‘liq anglashlari uchun imkoniyat beradi.

Matnning *janr xususiyatlari va badiiyatidan kelib chiqib* tahlil yo‘nalishlari va usullari belgilab olinadi. Adabiyotning turli xil adabiy turlari va janrlari mohiyatan bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun badiiy asarlarni tahlil qilishda bir xil yondashuvlar bo‘lishi mumkin emas. Ilmiy-ommabop matnlar tahlili badiiy matn tahlilidan farq qiladi. Masalan, she’riy asar tahlilida quyidagi tahlillar amalga oshiriladi:

O‘quv materiali. Qish to‘zg‘itar momiq par (Qudrat Hikmat)3.

Darsning maqsadi:

1. O‘quvchilarni she’rni ifodali o‘qishga, she’r matni ustida ishlashga o‘rgatish; shoirning qish fasli xususiyatlarini she’r orqali tasvirlashdagi mahoratini ochib berish; o‘quvchilarning qishning xususiyatlari, qorning hayot uchun foydasi haqidagi tushunchalarini boyitish.

2. O‘quvchilarning lug‘atiga *bulut to‘shagi, momiq par, oq namat (qor), izg‘irin, hovuz, mo‘rkom, surunkasi, fayz bermoq, oq choyshab* kabi so‘z va ibora, tasviriy ifodalarni kiritish.

3. O‘quvchilarning mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish.

4. Tabiatni sevish, uning ehsonlarini qadrlashga o‘rgatish.

Darsda qo‘llaniladigan metodlar: izohli o‘qish, mustaqil ish metodi, tarmoqlash metodi.

Darsning jihozi: qish fasli tasvirlangan rasmlar, Q. Hikmat portreti, shoir haqidagi maolumotlar yozilgan ko‘rgazma.

Darsning borishi:

1. O‘quvchilarda yangi mavzuni o‘rganishga qiziqish uyg‘otish, topishmoq aytish yo‘li bilan bugungi darsning mavzusini aniqlashtirish:

Oppoqqina dasturxon
Er yuzini qoplagan. (Qor)
Bostirdim ikki tovuq,
Biri issiq, biri sovuq. (Yoz, qish)

Savol: Bugungi o‘qish darsimiz qaysi mavzu haqida ekan?

2. Qish fasli haqida kirish suhbati. Xattaxtaga qish fasli tasvirlangan rasmlar ilinadi va savollar beriladi:

− Yil qaysi fasl bilan boshlanadi? − Qish fasli haqida nimalarni bilasiz? Rasmlardan foydalanib so‘zlang. − Qish bekorchilik faslimi?

Qor haqidagi afsona qisqa so‘zlab beriladi: Qadimda osmondan un yog‘ilar ekan. Odamlar o‘z ehtiyojlariga yarashasini olib, uylariga olib kirar ekan. Qishloqda bir ochko‘z boy unlarning o‘ziga keragidan ham ortig‘ini qoplab o‘z uyiga tashiy boshlabdi. Hatto yer yuzini chegaralab olibdi. O‘z yerim degan joylardagi unlarni boshqalarga bermabdi. SHunda osmon-u qish va bulutlarning jahli chiqib, unlarni muzdek qorga aylantirib qo‘yishibdi. **Savol:** Tabiatda ranglar har xil. Siz qaysi ranglarni yaxshi, yoqimli deb hisoblaysiz?

1. **O‘quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini aniqlash.** Buning uchun qish fasliga xos xususiyatlarni aytish topshirig‘i beriladi. O‘qituvchi tarmoqlash usulida yozib boradi:

2 Umumiy o`rta ta`limning MO`D. Ona tili. (1-11-sinf). Toshkent. 2020. 4-bet.

3 S.Matchonov va b. Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi. –T.: Ishonchli hamkor. 2022.



4. Xattaxtaga «Qish to‘zg‘itar momiq par» (Qudrat Hikmat) deb yoziladi. O‘qituvchi savol beradi va o‘quvchilar javobini umumlashtirib to‘ldiradi:

− She’r muallifi kim ekan? U haqida nimalarni bilasiz?

O‘qituvchi hikoyasi. Qudrat Hikmat − isteododli bolalar shoiri. U qisqa umr ko‘rgan. Shoir o‘z ijodini kichkintoylarni ilmga ishtiyoq, ona-Vatanga, jonajon yurtimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga bag‘ishlagan.

Qudrat Hikmat 1925 yilda Toshkent shahrida kambag‘al dehqon oilasida tug‘ildi. Birinchi she’rlari 1945 yilda bolalar gazetalarida bosildi.

1960-yildan boshlab bolalar nashriyotida ishladi. Asar muallifi haqida ma’lumot berish o‘quvchida, birinchidan, o‘z vatanining mashhur insonlari bilan faxrlanish, ikkinchidan, ularga bo‘lgan havas o‘zida ular kabi eliga xizmat qilish tuyg‘usini shakllantiradi

Uning «Mening Vatanim» (1950), «Baxtli bolalar» (1952), «Obodlik» (1953), «Do‘stlik» (1954), «Rodnoy Uzbekistan» (1955) kabi qator she’riy to‘plamlari nashr etilgan. Keyinchalik «Ilonshoh va uning amaldori ari haqida ertak» (1963), «Soatjonning soati» (1964), «Toshbaqalar hujumi» (1965), «Daydi bola», «O‘g‘lim bilan suhbat» kabi kitoblari bosilgan.

Kitoblari ko‘rsatiladi. Ularni o‘qishga daovat etiladi.

O‘qituvchi shoirning biror she’ridan parcha o‘qib berishi ham mumkin. Masalan:

Tinchlik haqida qo‘shiq

Tinchlik juda soz,
To‘kin-sochin yoz.
O‘q tovushi chiqmas,
Yangrar do‘stlik, soz.
− Bo‘lsa-chi urush
O‘t tushar har yon.
Tinch, shirin turmush,
Bo‘ladi vayron.

5. She’r bilan tanishtirish. O‘qituvchi she’rni ifodali o‘qib (yoki yod aytib) beradi.

6. She’r yuzasidan kirish suhbati.

− SHe’r nima haqida ekan?

− SHe’rdagi qaysi jumlalar sizga juda yoqdi? Nima uchun?

7. She’rni ichda o‘qish.

8. SHhe’rni topshiriqlar asosida o‘qitish.

− Birinchi to‘rtlikni o‘qing. Unda qaysi so‘z va iboralar o‘z maonosida qo‘llanmagan? Ularning qaysi ma`noda qo‘llanganini izohlashga harakat qiling.

− Quyidagi to‘rtlikning qaysi misralarida jonlantirish qo‘llangan? Jonlantirish deganda nimani tushunasiz?

Mahalla-ko‘y ko‘chada
CHuvurlashib qor kurar,
Esib sovuq izg‘irin:
− Tezroq yur! — deb buyurar.

− Quyidagi to‘rtlikning keyingi ikki misrasidagi so‘zlarning maonosini tushuntirishga harakat qiling.

Pirpiratib ko‘zini
Avtobuslar o‘tadi.
<u>Qahraton qish hovurni</u>
<u>Mo‘rkon kabi yutadi.</u>

Mustaqil ish. ***1-topshiriq:*** She’rni ichingizda qayta o‘qing. Qaysi misrada o‘xshatish borligini aniqlang.

O‘quvchilar:

Tomlar <u>kiydi oq qalpoq</u>
Hovlilarda <u>sen tepa.</u>
<u>Osmon elak</u>, nazdimda,

SHahrimizga un separ.

− Oxirgi to‘rtlikdagi *“O‘ra kumush choyshabga”* misrasida ham o‘xshatish bor.

2-topshiriq: SHe’rni yana ichingizda o‘qib, qorga berilgan buyruqni toping.

O‘quvchilar:

Etar shuncha yoqqaning
Uzoq dala, qirga bor! (buyruq)

Vodiylarga fayz berib
Gullat bog‘-u rog‘ini. (buyruq)

O‘ra kumush choyshabga,
O‘lkamning har yog‘ini.

3-topshiriq: Jonsiz narsalar she’rda jonli qilib ifoda etilgan misralarni toping.

Ular seni kutmoqda
Har zarrangga bo‘lib zor.
Savab bulut to‘shagin
Qish to‘zg‘itar momiq par − misralarida qaysi badiiy vosita qo‘llanganini ayting.

9. She’rdagi qahramonlar ustida ishlash. Savollar beriladi:

− *She’rda nimalar haqida gap boryapti?*
− *Ularni she’rdagi qahramonlar deyish mumkinmi? Nima uchun?*
− *O‘ylang, she’rda nechta qahramon bor? Ular qaysilar?* (Qish, izg‘irin, avtobus, osmon)
− *SHe’rda kim g‘orga qarata gapiryapti?* (SHoir)
− *SHoirning qorga qarata aytgan gaplarini o‘qing.*

10. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

Osmon elak nazdimda
Shahrimizga un separ...
O‘ra kumush choyshabga
O‘lkamning har yog‘ini, − deganda shoir nimalarni nazarda tutadi?

11. Uyga vazifa. She’rni yod oling. She’r mazmuniga mos rasm ishlang.

Ijodiy ish uchun topshiriq: She’rdan olgan taassurotingizdan foydalanib, *qish, qor, sovuq* haqida 4-5 gapli matn tuzing. Matningizda she’r matnidagi quyidagi so‘z va iboralardan foydalaning: *momiq par, oq choyshab, qahraton qish, osmon elak, qor zarralari, izg‘irin, fayz beradi, oq kiyimda*.

Namuna: Qahraton qish kunlari edi. Osmon elak kabi qor zarralarini yerga elardi. Yer bir zumda oq choyshabga o‘raldi. Daraxtlar qordan oq kiyim kiydi. Bu qishlog‘imizga fayz berib turardi.

12. Yakunlovchi suhbat.

− Darsda qanday she’r bilan tanishdingiz?
− Tabiatning ehsonlariga qanday munosabatda bo‘lish kerak ekan?
− Qor, qish haqida qanday topishmoqlarni bilasiz? Maqollardan-chi?

Matnning janriy farqlanishidan qat`iy nazar o‘quvchilarning o‘qish malakalari takomillashtirib boriladi. Bu ta’limning boshlang‘ich bosqichiga xos bo‘lib, unga ko‘ra, o‘qish malakasi o‘quvchilarning shaxsiy maqsadiga aylantirilgandagina yaxshilanadi: qaysi o‘quvchi o‘z xohishi bilan ko‘p o‘qisa, natija yaxshi bo‘ladi.

O‘quvchilarning kitobxonlik kompetetntsiyasini rivojlantirishda badiiy asar tahlili muhim o‘rin tutadi. Badiiy asar tahlili o‘quvchilarning nafaqat o‘rganilayotgan asar g‘oyasini o‘zlashtirishiga, balki ularda kitobxonlik kompetentsiyasini shakllantirishga ham yordam beradi.

O‘qishning natijasi asar mazmunini hamda undagi ilgari surilgan g‘oyani anglashdir. “Ta`lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi”4 Bu natija nafaqat o‘qish texnikasida, balki o‘quvchining fikrlash darajasini oshirish, umumlashtirish qobiliyatini shakllantirish, nutqini rivojlantirish darajasi – lug‘atining boyligi, so‘z ma’nosini aniq tushunishi; o‘qiladigan matnning xususiyatlarini anglashi, hayot haqidagi mavjud bilim, shuningdek, tajribasini ko‘rsata olishi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta`lim to‘g‘risida. Ta`lim sohasidagi umumiy prinsiplar. 2020.
2. Umumiy o‘rta ta`limning MO‘D. Ona tili. (1-11-sinf). Toshkent. 2020. 4-bet.
3. S.Matchonov va b. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Ishonchli hamkor. 2022.

4 O`zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta`lim to`g`risida. Ta`lim sohasidagi umumiy prinsiplar.2020. 3-bet.

HAMZA IJODIDA BOLALAR ADABIYOTI MUAMMOLARI

Xurshida Xamrakulova,
Toshkent amaliy fanlar universiteti filologiya fanlari doktori, Professori, Toshkent,O‘zbekiston.
xamrakulova.xurshida@mail.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada milliy uyg‘onish davrining ko‘zga ko‘ringan pedagoglaridan Hamzaning “Yengil adabiyot” darsligiga kirgan asarlari va “Mevalar mojarosi” turkumidagi she’rlari tahlilga tortilgan. Tahlil natijasida Hamza ijodining bolalar adabiyoti rivoji va taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta’siri aniqlangan.
Kalit so‘zlar: “Yengil adabiyot”, darslik, maktab, ilm, jahl, olim, “Mevalar mojarosi”, munozara, bolalar adabiyoti

ПРОБЛЕМЫ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ТВОРЧЕСТВЕ ХАМЗЫ

Аннотация: в данной статье проанализированы произведения выдающегося педагога эпохи национального возрождения Хамзы, включённые в учебник "Легкая литература", и стихотворения из цикла "Дискуссия фруктов". В результате проведенного анализа установллено влияние творчества Хамзы на становление и развитие детской литературы.
Ключевые слова: "Легкая литература", учебник, школа, наука, гнев, ученый, "Дикуссия фруктов", дискуссия, детская литература

PROBLEMS OF CHILDREN'S LITERATURE IN HAMZA'S WORK

Abstract: this article analyzes the works of Hamza, one of the prominent pedagogues of the national renaissance period, included in the "Light Literature" textbook and the poems in the "Fruit Conflict" series. As a result of the analysis, the impact of Hamza's work on the development and progress of children's literature was determined.
Key words: "Light literature", textbook, school, science, anger, scientist, "Fruit conflict", discussion, children's literature

Didaktik adabiyotda davrning axloqiy ta’limiy qarashlari o‘z ifodasini topadi. Ayniqsa, bolalarga bag‘ishlangan asarlarda didaktik xususiyatlar ancha bo‘rtiq holda namoyon bo‘ladi. Shuni ham aytish lozimki, XX asr boshlari bolalar she’riyati, nasri (hikoyatlar, masallar, ibrat va pandlar)ning mavzu ko‘lami nisbatan cheklanganligini kuzatish mumkin. Maktab mavzusi (“Yengil adabiyot”ning 6-13-darslaridagi she’rlar), ilm-ma’rifatga targ‘ib (“Yengil adabiyot” 15-36-darslar) axloq-odob, vatanparvarlik mavzusidagi (“Turkiy Guliston yoxud axloq”, “Adibus-soniy”), tarbiyaviy mohiyat kasb etadigan majoziy xarakterdagi asarlardan iborat edi.

Hamza – serqirra faoliyat egasi. Hamza ijodi, shaxsiyati turli davrlarda xilma-xil talqinlarga sabab bo‘lgan bo‘lsa ham, uning millat tafakkuri boyishiga qo‘shgan hissasi salmoqlidir. Hamza ijodida pedagogik risolalar alohida o‘rin egallaydi. “Yengil adabiyot” Hamza nomini abadiylikka muhraydigan asarlaridan biridir. “Yengil adabiyot” pedagogik jihatdan sinfdan tashqari o‘qishga mo‘ljallangan asar bo‘lib, muallif uni 1-sinf talabalari uchun mo‘ljallaydi va o‘zi ta’kidlaganidek, “haftada bir darsdanga tayyor” qilingan asar hisoblanadi. Mazkur asarni shartli ravishda oltiga bo‘lish mumkin:

1. Hamd. 2.Na’t. 3.Maktabga da’vat tarzidagi darslar. 4. Ilmga targ‘ib qiluvchi darslar. 5. Olimlik va johillikning farqini ko‘rsatuvchi darslar.
6. Ma’rifiy hikoyalar.

Darslar odatdagidek, hamd va na’t bilan boshlanib so‘ng maqsad muddaoga o‘tilgan. Mazkur asar bola tafakkurini o‘stirish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga yo‘naltirishi jihatidan o‘z davrining muhim qo‘llanmalaridan hisoblangan. “Yengil adabiyot”ning birinchi darsi tavhiddan boshlangan. Bu dars an’anaviy tarzda Allohning birligi, sheriksizligi kabi sifatlarni bayon etgan va bola tushuncha va anglamlariga mos tarzda izohlab berilgan. O‘quvchi Allohga xos tushunchalarni kundalik kuzatishlari bilan qiyoslaydi va muallif fikri bilan quvvatlaydi:

Xudoning yo‘q otosi,
Qarindosh ham onosi,
Ham oning yo‘q xotuni,
Ham er-u qiz bolosi, –

misralarida ifoda etilayotgan sodda so‘zlar va quyma fikrlarni bola tez ilg‘aydi. Tabiiyki, 5-8- yoshli bolaga bundan ortiq tushuncha mavhum va qabul qilinishi murakkab. Buni yaxshi bilgan Hamza insonning ko‘rish, eshitish, och-to‘qlikni his qilish Yaratganda inson kabi emasligi, bu esa Ungagina xos sifatlar ekanini tushuntirib beradi. Har bir dars to‘rt bandlik yigirma qatordan iborat misralardan tuzilgan bo‘lib, barmoq vaznida 7 bo‘g‘inli, 4+3 turoqli misrlardan tashkil topgan. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari uchun 4+3 turoqli misralalardan iborat 7 bo‘g‘inli she’rlar o‘qishga va yod olishga qulay bo‘lgani uchun hozirgi bolalar she’riyatida ham keng ishlatiladi. Garchi Hamza birinchi darsni tavhid darsi deb atagan bo‘lsa ham, ma’no-mazmuniga ko‘ra ikkinchi va uchinchi darslar ham tavhid darsi hisoblanadi.

To‘rtinchi, beshinchi darslar Muhammad (s.a.v)ga bag‘ishlangan. To‘rtinchi dars xulosasiga “***Kim rasul ham tangriga Bo‘yinsunmas amriga, Qiyomat kun, shubhasiz, Ketar do‘zax qa’riga”*** [1.B.316.], – deya qat’iy hukm chiqaradiki, bu ana shu darslardan ko‘zlangan xulosa ekanligini o‘quvchi anglab yetadi.

Oltinchi darsdan boshlab o‘n uchinchi darsgacha “maktab xususinda”. Bu darslarda muallif maktab *“dinning chirog‘i”, “ millat atosi”, “millat yo‘lboshi*”, “ *har millat joni*”, “*millat quyoshi*”, “*millat saroyi”, “millat guli”,*

“millat bog‘i”, “*dunyo behishti”* ekanini qator sifatlashlar bilan quvvatlantiradi va asoslaydi. Pirovard natijada ***“Maktab bolaning ishi O‘yun bo‘lmas xohishi, faqat o‘quv, yozuvda O‘tar ham yoz-u qishi”*** [1.B.320.] kabi misralarda Hamzaning maktabdan kutgan natijasi va ayni vaqtlardagi orzusi aks etgan.

O‘n to‘rtinchi darsdan boshlab ilm alohida mavzu sifatida qalamga olinadi. Muallif fikrlarini yorqin ifodalash uchun tazod va muqobala san’atidan foydalanadi. Ilmni jaholat bilan qiyoslash asnosida “ilm – haqning rahmati”, “jahl – haqning lan’ati” degan hukm chiqaradi. Ilmni “jannat eshigi”, jahlni “do‘zax eshigi” deb ta’riflagan muallif ***“Jahl bo‘lsa nahrimiz, Zillat ko‘rub dahrimiz. Bir kun harob o‘lg‘usi Vatan, millat, shahrimiz”*** [1.B.320.] deb yozadiki, bu o‘sha davr oydinlarining ham jiddiy muammosi edi. Hamza ilm va jahl obrazlarini munozara tipida bir-biriga qiyoslaydi. Albatta, qiyoslar o‘rtasidagi farqni anglash o‘quvchiga qulaylik tug‘diradi va muallif g‘oyasini yetkazishga xizmat qiladi. Yigirma ikkinchi darsdan boshlab olimlik va uning fazilat, johillik va xatari haqida bahs yuritiladi. ***“Olim bo‘lsak dunyoda, kelur har ish bunyoda, Biz ham suv ostin kezub, ham ucharmiz havoda”*** [1.B.326.]. Shu tariqa “Yengil adabiyot” muallifning pedagogik mahorati o‘laroq yaratilgan asar ekanligi oydinlashib boradi. Muallif olimlik va johillik mamlakat taqdirini hal etuvchi muhim omil ekanligini bayon etadi.

Yigirma beshinchi darsdan boshlangan “Jujuqlari ilma targ‘ib” o‘ttiz birinchi darsgacha davom etadi. O‘ttiz birinchi darsdan boshlab bola “tilga” kiradi. Ya’ni avvalgi darslardan muayyan bilim hosil qilgan o‘quvchi anglash bosqichiga o‘tadi. Bola tilidan aytilgan she’rlarda Hamza ifoda yo‘sinini o‘zgartiradi: she’riy shakl barmoq tizimidan aruz tizimiga o‘tadi. Buning ham o‘ziga xos sababi bor. Aruz tizimi kuy, ohangga esh bo‘lgani uchun bu tizimdagi she’rlarni o‘quvchi qo‘shiq sifatida kuylashi ham mumkin. Muayyan ohangda bu misralar bola qulog‘iga xush yoqadi. ***“Maorif sharbatindan aylasak no‘sh, Kamola yetg‘usidir aql ham xush”*** [1.B.332.] degan bola ***“Nihoyat bizda maktab, ilm yo‘qtur, Chiqardi bizdanam ko‘p yaxshi do‘qtur”***[1.B.333.] deya o‘kinchini yashirmaydi. “Yengil adabiyot”ning 31-36-darslariga qadar muallif mavjud jamiyatdagi holatni bola ko‘zi bilan kuzatadi. O‘ttiz oltinchi darsning har bayti Allohga murojaat shaklida beriladiki, bu bandaning Yaratgandan ayri bo‘lolmasligining isbotidir.

Bola tilidan qilingan munojot kattalarni ham befarq qoldirmasligi tabiiy:

Ilohi, ahlimizga ver hamiyat,
Solub maktablar etsun dinga xizmat.
Ilohi, jumlamiz ayla doim,
Bu millat yo‘lida xizmatga qoyim.
Qabul et, kel, sabiylarni duosin,
Yetur barcha qulingni muddaosin [1.B.335.].

“Yengil adabiyot”da berilgan qalam radifli g‘azal o‘zidan keyingi darslardagi hikoyatlar uchun kalit vazifasini o‘taydi. Negaki, savodi chiqqan bola uchun Hamzaning qisqa hikoyatlar berib borishi mantiqan o‘zini oqlaydi. Shu ma’noda o‘ttiz yettinchi darsdan boshlab “To‘g‘ri so‘z bola”, “Ota nasihatining natijasi”, “Qimorning boshi” kabi hikoyalar beriladi. Va har bir hikoya qissadan hissa tarzida xulosalanib boradi.

Hamzaning bolalarga bag‘ishlab yozilgan pedegogik asarlari g‘oyasida millat bolalariga xitob, ilm olishga da’vat, jaholatning zarari, ota-onaga munosib farzand, Vatanga muhabbat, axloq va tarbiya kabi umumiy didaktik masalalar yetakchilik qilgan bo‘lsa, “Mevalar mojarosi” nomi bilan bog‘liq kichik she’rlar turkumida obrazlarning o‘zini namoyon etishi, tasvirda bayonga yo‘l qo‘yilmagani, bu esa asarda hikoyachining emas, qahramonning tasvirda asosiy o‘ringa chiqishi, natijada voqelikning jonlanishi kabi badiiylikning muhim shartlari amalga oshadiki, bu bolalar she’riyati yangi qirralari bilan o‘zgarishga yuz tutganini ko‘rsatar edi.

Hamzaning ilm-ma’rifat, maktab haqidagi she’rlari, masallari tahlilga tortilgani holda “Mevalar mojarosi” turkumi mustaqillik davrida yaratilgan bolalar adabiyotiga oid darslik va qo‘llanmalarda tilga olinmagan. Hamzaning “Tanlangan asarlar” I tomida berilgan izohda shunday yozilgan: “Sanasi noma’lum ushbu she’r qo‘lyozmasi H.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar instituti Hamza arxivida (inv. № 115) saqlananadi. Katak daftar varaqlariga arab grafikasida qora qalam bilan yozilgan. Avtografga sarlavha qo‘yilmagan. She’r “Tanlangan asarlar” (1949, 1979)da, “Asarlar” (1969)ning I tomida, va mukammal asarlar to‘plamining II tomida nashr qilingan. Nashrda qo‘lyozma asosiy matn qilib olindi” [1. B. 527], – deb yozilgan. ziyouz.com kutubxonasi saytida mavjud bo‘lgan Hamza “Tanlangan asarlar”ining 1-tomida (O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent – 1958) bu turkum yozilgan sana 1914 deb ko‘rsatilgan [2. B. 36]. Nazarimizda, Hamza ushbu she’rni maktab o‘quvchilari uchun darsliklar yaratgan vaqtlarida yozgan. Chunki, “Yengil adabiyot” tarkibidagi she’rlarning qurilishi “Mevalar mojarosi”dagi she‘rlarga o‘xshaydi. “Mevalar mojarosi” kabi asarlar bolalarning tafakkurini kengaytirish va tasavvurini boyitishda muhim ahamiyatga egadir.

Mevalar orasidagi munozaralar xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyotimizning sara asarlarida uchraydi. Adabiyotshunos olim N.Rahmonov uning dastlabki ildizlari miflar bilan bog‘liqligini ta’kidlab o‘tgan [3. B. 257]. Hamza bu munozarani bolalar tushuncha va anglamlariga mos tarzda yozgani uning pedagogik mahorati ulkan so‘z ustasi ekanini bildiradi. O‘rik bilan boshlangan “Mevalar mojarosi” mavsumiy mevalarning har turli jihatlarini o‘quvchiga yetkazishni nazarda tutgan. ***“O‘ruk o‘rnudan turub, Rangini sarg‘ayturub, Keldi tutni boshiga, Shovqin solib, tik turub”*** [1. B. 254.].

Misralarda takrorlangan “turub ma’noning turlanishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, o‘rikning jonlantirilishi, tutning boshiga shovqin solib kelish o‘rinlari o‘zgacha manzara hosil qilib o‘quvchini o‘ziga rom etadi.

Dedi: “Ey tut taltayib,
Dema har so‘z yalpayib,

Boshginangga bir uray,
Yerda qolgin shalpayib [1. B. 254.].

Tutga do‘q urish ohangiga mos ravishda uyg‘unlashib kelgan “taltayib”, “yalpayib”, “shalpayib” so‘zlari tutning shu paytdagi fe’l-atvorini aks ettirgan. Ayniqsa, ***“Boshginangga bir uray, yerda qolgani shalpayib”*** deyilganlagi holat bola ko‘z o‘ngida muhrlanib qoladi. Hamza ilg‘or pedagog sifatida bolaga sirtdan ta’sir emas, ichdan ta’sir qilish ma’nosida obrazlarning o‘zini jonlantirgan, ularga ma’no yuklagan.

Seni ko‘p yegan kishi,
Badan qashimoq ishi,
Ortuqchadur ustiga
Yurakburuq tashvishi [1. B.254.].

Muallif tutni ko‘p yeganda yuz beradigan badan qichishishi, yurakburuq bo‘lishini ham misralar orasiga joylaydiki, fanlar orasidagi integratsiya masalasi Hamzaning ham diqqat markazida turgani ayon bo‘ladi.

Ore, man sandan keyin,
Sandan yuz hissa shirin,
Aytub ado qilayin,
Qaysi husnumni birin [1. B. 254.].

Munozara shartiga ko‘ra so‘z olgan obraz avval raqib etib tanlangan obrazni “do‘pposlab” bo‘lgach, o‘zini tavsif qilishga o‘tadi. Shuning uchun o‘rik tutdan yuz hissa shirinligini aytib, husni bilan maqtanishga o‘tadi. Bolalar uchun obrazlar o‘rtasidagi qiyos asarni tez anglab olishlarida katta o‘rin tutadi. Shuning uchun qadimdan munozara tipidagi asarlarga qiziqish katta bo‘lgan.

O‘zum ming dardga davo,
Qurutsa andan bajo,
Hatto mag‘zimni olub,
Solgay qandolat aro [1. B.254.].

O‘rik ming dardaga davo ekanligini, qandolatdagi muhim ahamiyatini bayon etgach: ***“Muxtasar aylay so‘zum, Meva ichra bir o‘zum, Bog‘ ichini yorutar, Oppoq, oydindak yuzum”*** [1. B. 254.], – deya suhbatga yakun yasaydi. Mevalar mojarosi shu bilan tugamaydi. Aks holda munozara sharti bajarilmagan bo‘ladi. Chunki bahs bir taraflama bo‘lmaydi. Shuning uchun bahsga boshqa mevalar ham aralashadi. Chunonchi, ***“Gilos haddan oshiqib, Xafalikdan toshiqib, Keldi o‘ruk boshiga, Musht ko‘tarib shoshiqib”*** [1. B. 255.] kelishi mojaroning davom etishiga ishora qiladi.

Tomonlar bahsda yutishi uchun tezkorlik, hozirjavoblik juda muhim. Bunday o‘rinlarda voqea-hodisalar keskin tus oladi, ishtirokchilarning xotirjam bahs olib borishiga chek qo‘yadi. Bu holat bolalar o‘yinlaridagi vaziyatlarda ham yuz beradi. Demak, bolalar ishtirokchilarning kayfiyatiga tez moslashadi. Shuning uchun gilosning haddan oshishi, o‘rikning boshiga ***“Musht ko‘tarib toshiqib”*** kelishini o‘quvchi tabiiy qabul qiladi.

«Ey o‘ruk, san so‘zlama,
Maqtanmoqni ko‘zlama!
Yonboshingga bir tepay,
Bog‘ga hargiz yuzlama [1. B.254.].

Gilos o‘rikning maqtanishiga e’tiroz bildiradi. Uning e’tirozi shunchalar kuchliki***, “Yonboshingga bir tepay, Bog‘ga hargiz yuzlama”*** deyish darajasiga boradi. Mana shu misralardagi so‘zlashuv uslubi asar dramatizmini oshiradi. Shundan so‘ng o‘quvchi gilosning o‘rikni kamsitishga tayyorligini his qiladi. Kutilganidek, “***G‘o‘rang qursun kech bitar, Yegan kishi ich ketar, Pishkoning shalpaytirib, Qurug‘ingdan bod yetar”*** [1. B. 255.] degan ta’nalar yog‘ila boshlaydi. Mana shu ta’nalar o‘rinli ekanini bola sezib turadi. Shu tariqa har bir mevani istemol qilishda me’yorga amal qilish lozimligi ham uqtirib boriladi.

Munozaraning o‘zini sifatlash, ta’riflash qismida gilosning o‘ziga xos sifatlari bayon etiladi: “***Bilursan otim gilos, Suyar meni omu xos. Mani ko‘rgan kishilar, O‘zga meva xohlamas”*** [1. B. 255.]. Shu tariqa gilosning “asaldan shirinligi”, azaldan “ming kasal”ga dori ekanligi ham ta’rifdan chetda qolmaydi. Ammo gilos ancha kamtarin, u o‘zining “haddini biladi”. Shuning uchun: “***Kaltaroq qilay so‘zim, Maqtasam arzir o‘zim. Bog‘ga kirgan ko‘ziga, Yoqutdek yonar yuzim»***[1. B.255.]**,** – deya bahsdan chetlashadi. Hamza bahsda ishtirok etgan oluchaning ***“gezorib”, “Qonlar tomib, qizarib”*** kelishini mevaning rangi moslaydi. Boshdanoq mevalar rangining tasvirlanishi o‘quvchilarda ularning ta’mi bilan bog‘liq hislarini ham uyg‘otadi. Shuning uchun ***«Ey gilos, lof urmagil, Achchig‘im kelturmagil! Tumshug‘ingga bir solay, So‘ngra yig‘lab yurmagil”*** [1.B.256.], – degan misralarni to‘g‘ri qabul qiladi.

Munozara qoidasiga ko‘ra qarshi tomonning illatlari ham bir-bir bayon etilishi lozim. Bunga olucha ham alohida e’tibor qaratgan: ***“Maza yo‘q, hukming turush, Chun o‘larsan yo‘q qurush. Sani yeganlar bo‘lur, Qo‘nich bezgak, ich burush”*** [1. B.256.]. O‘quvchi mojaro orqali yana bir mevaning “illati”dan xabar topadi. Bu esa bolalarda nafs tarbiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Hamza xalq tabobatini yaxshi bilgan mutaxassis sifatida oluchaning ishtahani ochuvchi, yurakda paydo bo‘lgan qurtni davolovchi dori sifatidagi xislatini ham bayon etadi va nihoyat bolalarga ma’qul bo‘lgan mavzu bilan

yakunlaydi: ***“Maqtasam bir yil o‘tar, Bog‘bon ho‘llikda sotar. Ortganimni qurutib, Qand bila qiyom etar...”*** [1. B.256.].

Kuzatilsa mojaro ishtirokchilari bo‘lgan mevalar boshidanoq bir-biriga do‘q-po‘pisa qilishadi. Bu holat bolalar tabiatiga begona bo‘lmaganidek, turkum sarlavhasini ham asoslashga xizmat qilgan. O‘rik tutning boshiga ***“Shovqin solib, tik turub”*** kelsa, ***gilos “musht ko‘tarib, shoshiqib”*** keladi. Bu bilan kifoyalanmay, o‘rikning yonboshiga bir tepishini ham pisanda qilib o‘tadi. Yoki oluchaning gilosga ***“Musht ko‘torib, bezorib”*** turishida ham ularning tabiati bilan bog‘liq jihatlar borki, muallif bolalar ko‘z o‘ngida jonli tasvirni yuzaga chiqarishga erishgan. Xususan, o‘rik pishganda yerga tap-tap tushishi uning shovqin solishi, gilos va oluchaning musht ko‘tarishlari mevalarning shakli bilan bog‘liq holda tasvirni jonlantiradiki, bu Hamza badiiy mahoratining bir yana bir qirrasi hisoblanadi. Misralarning sodda, tushunarli so‘z va iboralardan tizilgani, hatto biroz qo‘pol ko‘ringan birikmalarning bola kundalik faoliyatidagi voqea-hodisalarga uyg‘un holda muayyan obraz yaratishga xizmat qilgani muallifning bola tabiatidan, uning ruhiyatidan yaxshigina boxabar ustoz bo‘lganiga ishontiradi.

Hamza o‘zining zamondoshlaridan farqli tarzda bolalar adabiyotiga oid ko‘plab she’rlarini barmoq tizimida yozgan. Bu bolaning she’rni oson yodlashi, undagi fikrlarni o‘zlashtirishiga qulaylik tug‘dirgan. Hamza o‘z davridagi darsliklar bolalarga ochiq va tushunarli bo‘lishiga harakat qilgan edi. Shu maqsadda 1914-1915- yillar oralig‘ida bolalar uchun “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” kabi bir qator darsliklarida ham shu usuldan foydalangan. “Yengil adabiyot”dagi 45 saboqqa mo‘ljallangan 1-30-darslaridagi she’rlar barmoq tizimining 7 bo‘g‘inli vaznida (4+3 turoq) yozilgani yuqorida ayon bo‘ldi. O‘qish va yodlashga oson bo‘lgani uchun bolalar ijodkorlari hozirda ham 7 bo‘g‘inli she’rlar yozishga ko‘p e’tibor berishadi. 7 bo‘g‘inli misralar ko‘tarinki kayfiyatni ifodalash, harakat tezligini tasvirlashga qulay. Shu ma’noda Hamza “Mevalar mojarosi” turkumiga 7 bo‘g‘inli vaznni tanlaydiki, 4+3 turoq aynan mojaroning tezlashgan o‘rinlariga tabiiylik bag‘ishlagan.

Garchi dastlabki alifbolar va darsliklarda mumtoz an’analarga xos didaktik ruh saqlangan bo‘lsa ham (bu o‘z davrida bolalar adabiyotining shakllanishi borasidagi jiddiy olg‘a siljish edi), bolalar olamini tushuna borish, badiiy matn orqali tafakkurni va bola iqtidorni to‘g‘ri yo‘nalishga sola bilish ma’nosida milliy pedagoglarimizning sa’y-harakatlari taxsinga loyiq edi. Bu borada Hamza ijodi milliy pedagogikamizning olg‘a bosishida jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, Hamza kabi millat oydinlarining yangidarsliklar va mavzularning yangilanishi borasidagi harakatlari bilan bolalar adabiyotining rivojlanishi va taraqqiyotiga zamin hozirladi.

Adabiyotlar:

1. Ниёзий Ҳамза Ҳакимзода.Тўла асарлар тўплами. Беш томлик. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1988. – 552 b.
2. Ниёзий Ҳамза Ҳакимзода. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1958. (https://www.ziyouz.com/).
3. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари ИИ жилд (ХИВ — ХВ асрнинг бошлари). Тузувчи, изоҳ ва шарҳлар муаллифи филология фанлари доктори, профессор Насимхон Раҳмонов. – Тошкент: Фан, 2007. – 320-b.

TA’LIM JARAYONIDA DIDAKTIK VA KOMPYUTER O‘YINLARINING O‘RNI

SabirovaNasibaErgashevna
Xorazm viloyati XTXQTMOHM
“Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi mudiri f.f.d (DSc) dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqoladao‘quvchilarning kompyuter o‘yinlaridan me’yorida va samarali foydalanishi bo‘yicha fikr-mulohazalar keltirildi. Xususan, rivojlantiruvchi kompyuter o‘yinlari o‘quvchilarda mustaqil ta’limni rivojlantirishi, Internetdan foydalanishni bilish esa axborotni izlash va to‘g‘ri tanlashlari uchun zamin hisoblanishi yoritildi.

МЕСТО ДИДАКТИЧЕСКИХ И КОМПЬЮТЕРНЫХ ИГР В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация: В этой статье представлены отзывы о том, как учащиеся могут правильно и эффективно использовать компьютерные игры. В частности, было отмечено, что развивающие компьютерные игры помогают учащимся развивать самостоятельное обучение, а знание Интернета является основой для поиска информации и осуществления правильного выбора.

THE PLACE OF DIDACTICAL AND COMPUTER GAMES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract: This article provides feedback on how students can use computer games properly and effectively. In particular, it was noted that developmental computer games help students to develop independent learning, and knowledge of the Internet is the basis for searching for information and making the right choice.

Inson hayotida ta’lim butun umr davom etuvchi va faqat o‘rganish bilan chegaralanmaydigan jarayon hisoblanadi. Inson farzandi dunyoga keliboq, sezgi a’zolari yordamida hayotni bilish, o‘rganishni boshlaydi. Ulg‘aya borgan sari uning bilim va tajribasi oshib, tasavvur doirasi kengayib boradi. U tafakkur vositasida ayon va noayon haqiqatlarni ham idrok etishni o‘rganib oladi.

O‘qituvchilardan o‘z o‘quvchilarining nafaqat borliq to‘g‘risidagi bilimlarini, balki, tafakkur vositasida anglab olgan bilimlarini ham ro‘yobga chiqarish, ifodalab berishga o‘rgatish talab qilinadi. Ma’lumki bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri yosh avlodni komil inson, yuksak ma’naviyatli, vatanparvar, chuqur bilimli ijodkor va har tomonlama faol qilib tarbiyalashdir. O‘zbek tili ta’limi jarayoni, uni rivojlantirish va o‘zgartirish o‘qituvchi va sinf

o‘quvchilarining o‘zaro ochiq muloqoti va ishonchi muhitida samarali bo‘ladi. Ta’lim jarayonida qo‘llanadigan o‘yinlar qisqa vaqtga mo‘ljallangan bo‘lib, guruh bo‘lib mashq qilishga odatlantiradi, oldindan tayyorgarlikni talab etmaydi. O‘yinlar vaqtida kichik guruhlar faolligi ortadi, ta’lim ishtirokchilarining diqqati ishga (ta’lim jarayoniga) to‘liq jalb etiladi.O‘yinlar vositasida o‘quvchilarga yangi bilimlar berish, ko‘nikma hosil qilish, kichik guruhlar a’zolarining ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantirish mumkin.

Darsda turli grammatik va didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarda tezkorlik, sezgirlik, qat’iyat, qiyinchiliklarni engish, boshlangan ishini oxirigacha etkazish, o‘zaro hurmat, bir-birini tinglash, nutqni rivojlantirish, fikrlash doirasini kengaytirish olijanob fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ona tili va adabiyotdan nazariy tushunchalar, ta’rif-qoidalar, mustaqil ijodiy ishlar, fikrlab, taqqoslab, guruhlab, umumlashtirib o‘rganilsa, mavzularni o‘zlashtirish ancha oson va qiziqarli kechadi.

Ko‘pincha bolalarimizning kompyuter va telefonlarda o‘yin o‘ynashidan xavotirga tushamiz. Bu zararli, sog‘lig‘i uchun ziyon-ku, deb o‘ylaymiz. Kompyuter o‘yinlari mutlaqo zararsiz — agar me’yorini bilsak, haddan ziyod berilib ketmasak, elektron o‘yinlarni hatto kattalar va bolalar uchun eng foydali mashg‘ulotlar ro‘yxatiga kiritsa ham bo‘ladi. Negaligini quyidagilarni o‘qib tushunib olasiz degan umiddamiz.

Xilma-xil ovqatlar tanimizga har xil ta’sirini o‘tkazgani kabi, turli janrlardagi kompyuter o‘yinlari ham o‘ziga xos ta’sir kuchiga ega.Kompyuter o‘yinlarixilma-xildir, lekin ularning hammasini o‘ynash tavsiya etilmaydi.

Kompyuter o‘yinlari klassifikatsiyasi:

1. Strategik o‘yinlar.
2. Mahalliy o‘yinlar.
3. Sport o‘yinlari.
4. Mantiqiy o‘yinlar.
5. Imitator o‘yinlar.
6. Onlayn o‘yinlar.

Yaqin kunlargacha video o‘yin o‘ynaydiganlarga vaqtni behuda sarflaydigan, bemaqsad odamlar deya qaralardi. Vaqt o‘tib, bunday qarashlar ham o‘zgarib borayotgani kuzatiladi. X-Box, Pleysteyshn yoki ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan kompyuter o‘yinlari vaqti kelib foyda keltirishi ham mumkin ekan. AQSh universitetlari kompyuter o‘yinlariga ko‘proq odamni jalb qilish uchun maxsus stipendiyalar ajratishni boshlagan.

Ma’lumki, kompyuter o‘yinlarining foydali yoki zararli jihatlari haqida ko‘plab fikrlar mavjud. Shunisi qiziqki, har qanday o‘yinchoq kabi bolalar kompyuter o‘yinlari o‘z-o‘zidan alohida foydali yoki zararli xususiyatlarga ega bo‘ladi. Biroq bola o‘yinlardan foydali va bilimini oshiruvchi ta’limiy yoki ko‘ngilochar o‘yinlarni to‘g‘ri tanlashi uchun unda foydali axborotga yondashuv salohiyatini shakllantirish zarur. Axir hammaning ham uyida pichoq, qaychi kabi ro‘zg‘or buyumlari mavjud. Bola behosdan o‘ziga zarar keltiruvchi harakat qilmasligi uchun go‘daklik chog‘idanoq mazkur predmetlardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatib boradilar. Demak, ota-onalardan farzandlarida kompyuterdan to‘g‘ri foydalanish malakalarini shakllantirish talab etiladi.

Hamma narsaning me’yori bo‘lgani kabi kompyuterdan foydalanishda ham, avvalo, to‘g‘ri o‘tirish, undan foydalanish qoidalariga amal qilish, ayniqsa, ko‘zga, asab tizimiga zarar yetkazmaslik uchun gimnastik mashqlar bilan shug‘ullanish zarur. Shunda bolalar kompyuter o‘yinlari: dam olish, bolalar reaksiyasi tezligini rivojlantirish hamda mantiqiy tafakkurlarining shakllanishi uchun foydali va samarali omil bo‘lishi mumkin. Internet yoki lokal tarmoqdagi muloqotlari esa ularda muloqotchanlikni rivojlantirishga sabab bo‘ladi. Bolalarning kompyuter o‘yinlari bo‘yicha musobaqalarda g‘alaba qozonishlari esa ularda faxr-iftixor tuyg‘usini rivojlantiradi. Shunday ekan, kompyuter o‘yinlarining bola tarbiyasiga foydali yoki zararli ta’sir etishi ko‘proq kattalarga bog‘liq ekan.

Ma’lumki, 7–8 yoshli bolalar kompyuterga ongli munosabatda bo‘ladilar. Psixologlarning fikriga qaraganda, kompyuter bolalarda diqqatni, mantiqiy va abstrakt tafakkurlarini rivojlantiradi. Kompyuter o‘yinlari ularga mustaqil qaror qabul qilishga, bir vaziyat, harakatdan boshqasiga tezda o‘tishga yordam beradi. Bolalar ijodiy qobiliyatlariga, bolaning individual shaxsiy xususiyatlariga ham yaxshi ta’sir etadi. Ayniqsa, rivojlantiruvchi kompyuter o‘yinlari — bu mustaqil ta’limni rivojlantirish, Internetdan foydalanishni bilish esa axborotni izlash va to‘g‘ri tanlashlarida hayotiy maktab bo‘ladi.

Biroq shuni ham unutmaslik kerakki, kompyuterdan me’yoridan ortiq foydalanish bolalar so‘g‘lig‘iga zarar keltiradi. Shu sababdan ham kompyuter yoki televizor ro‘parasida qiziqib o‘tirgan farzandlarining sog‘lig‘iga ota-onalari mas’ul deb hisoblayman. 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar iloji boricha, kompyuterdan uzoq o‘tirishlari va qisqa muddat foydalanishlari mumkin.

9–11 yoshdagilar uzog‘i bilan 20 daqiqa foydalanib, so‘ngra dam olishlari shart. Eng asosiysi ko‘zlariga alohida e’tiborli bo‘lish zarur. Shuningdek, bolaning jismoniy va psixologik holatiga salbiy ta’sir etishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur.

Kompyuterdan samarali foydalanish uchun uning o‘rnatilish joyini to‘g‘ri tanlash muhimdir:

• Birinchidan, monitor bilan yorug‘lik nisbatini to‘g‘ri tanlash, bolaning o‘rindig‘i o‘ziga mos bo‘lishi, qaddini rostlab o‘tirishiga alohida e’tibor qaratish lozim.

• Ikkinchidan, bola nigohidan ekran 70 santimetr masofada bo‘lishi shart. Shifokorlar kompyuter oldida kaktus o‘simligi bo‘lishi, iloji bo‘lsa, shu xonada akvarium turishi va nam latta bilan changni arttib turishni tavsiya etadilar.

Bola kompyuter o‘yiniga berilib ketmasligi va bu holatning oldini olish uchun birinchi kunlardanoq kattalar tartibga rioya etishni talab etishlari zarur. Agar kattalar gapini o‘tkaza olmasa, kompyuterga bog‘lanib qolish oilaviy muammoga aylanishi mumkin. Shunday vaziyatda bolani ko‘proq kitobga qiziqtirish zarur. Bola bilan qandaydir

ijodiy ishlar, qo‘l mehnati bilan shug‘ullanish ham samara beradi. Masalan, biror foydali ish kelajakda kasbga aylanishi mumkin bo‘lgan mashg‘ulot bilan chalg‘itish lozim.

Bolaning shaxsiy kompyuteri — uning xususiy olamiga aylanishi, biroq shaxsiy shakllanishiga salbiy ta’sir etmaydigan bilimlar va malakalar makoni bo‘lishi zarur. Bolalar kelajagimiz — shu sababdan ham ularning qiziqishlari, yutuq va kamchiliklari borasida qayg‘urish biz kattalarning vazifamizdir.

Shu o‘rinda yoshlarni kibersport sohasida o‘z qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida “Multimedia markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati Janubiy Koreyalik investorlarning “Barsajdar Technologles” kompaniyasi yordamida Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” va “Layli va Majnun” dostonlari syujeti asosida kompyuter o‘yinlari ishlab chiqilgan.

Mazkur o‘yinlar O‘zbekistondagi ilk milliy kompyuter o‘yilaridir. Ular o‘quvchining dars jarayonida olgan bilimini hayotda qo‘llay olish malakasini shakllantiradi.Badiiy asarlarni tahlil qilish va ulardan ma’naviy ozuqa olishda mazkur kompyuter o ‘yinlarining ahamiyati kattadir.

Umuman olganda, shiddatli axborot oqimi qurshovida yashayotgan o‘quvchini uncha-muncha narsa bilan hayron qoldirib bo‘lmaydi. O‘qituvchila roldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o‘quvchilarning ilm olishga bo‘lgan qiziqishlarlarini kengaytirihdan iborat. O‘quvchini qiziqtira olgan o‘qituvchigina o‘z oldiga qoygan vazifani to‘laqonli ado eta oladi.

Foydalanilganadabiyotlarro‘yxati:

1. Sayidahmedov N.S., Indiaminov N.N. Pedagogik mahorat va pedagogic texnologiya. –T.: Fan va texnologiya. 2014.
2. Simonovich S.V., Evseev G.A. Ko‘ngil ochar kompyuter: Bolalar, o‘qituvchilar va ota-onalar uchun kitob. - M., 1998.
3. www.multimedia.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI INGLIZ TILI O‘QITISH USULLARI

Kurbanova Gulnoz Negmatovna,
Buxoro davlat tibbiyot instituti DSc, professor
Nematova Zebo Tursunboyevna
Buxoro davlat tibbiyot instituti o‘qituvchisi , O‘zbekiston

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun ingliz tili o‘qitishning samarali, zamonaviy va innovatsion metodlari hamda autentik materiallardan foydalanish metolari haqida to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: autentik materiallar, aralash texnika, qiziqarli o‘yinlar, boshlang‘ich sinflar, zamonaviy innovatsion metodlar, pantomima.

METHODS OF TEACHING ENGLISH THROUGH AUTHENTIC MATERIALS IN PRIMARY CLASSES

ABSTRACT. This article focuses on effective, modern and innovative methods of English language teaching and the use of authentic materials to increase students' interest in language learning in elementary grades.

Keywords: authentic materials, mixed technique, interesting games, primary classes, modern and innovative methods, pantomime.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ЧЕРЕЗ АУТЕНТИЧНЫЕ МАТЕРИАЛЫ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

АБСТРАКТ.В этой статье основное внимание уделяется эффективным, современным и инновационным методам преподавания английского языка и использованию аутентичных материалов для повышения интереса учащихся к изучению языка в начальных классах.

Ключевые слова: аутентичный материал, смешанная техника, интересные игры, начальные классы, современные и инновационные методы, пантомима.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, yoshlarning chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi oshdi va davlatimiz tomonidan til o‘rganishga ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugun jahon hamjamiyati o‘ziga munosib o‘rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir". Ayniqsa, boshlang‘ich ta'limda ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan qarorlardan biri bu O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tog‘risida" PQ-1875-soni Qaroridir. Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini, asosan, ingliz tilini boshlang‘ich sinfdan boshlab o‘rgatish, ularni chet tillarini o‘rgatishga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini turli xil qiziqarli o‘yinlar tarzida o‘qitish va shu bilan birga o‘quvchilarning og‘zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o‘qish va grammatikani o‘qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali o‘tish bosqichma-bosqich boshlandi.[1.]

So‘nggi paytlarda ingliz tilini o‘rganadigan har qanday yoshdagi odamlar soni juda ko‘paymoqda. Buning sababi, hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Ammo til o‘rganish ham yosh davrlariga bog‘liq. Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o‘zlashtirishni isbotlashgan. Bolalarda

til o‘rganishga bo‘lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko‘pligi va o‘rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridandir.

Xitoy ixtirochilaridan biri Masaru Ibuka mashhur "Ushdan keyin juda kech" kitobida yozganidek: "...bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga ega bo‘lishi mumkin...". [2:18.] Yana shunga e'tibor qaratish kerakki, 6-7 yoshdagi bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushinib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning unchun ham ingliz tilini o‘rganayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tilni o‘rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o‘rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani charchatishi va til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini susaytirip qo‘yishi mumkin. Chunki boshlang‘ich sinfdagi o‘quvchilarga chet tilini o‘rgatish qiyin shu bilan birga mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi.

Autentik materiallar - bu sinflarda ishlatiladigan odatiy materiallardan farq qiladigan materiallar. Ular ko‘proq rag‘batlantiruvchi, qiziqarli va o‘quvchilar uchun turli xil o‘rganish uslublariga qaratilgan bo‘lib, barcha til ko‘nikmalarini va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ishlatiladi. Ular pedagogik maqsadlarda yaratilmagan tasvirlar, yozma yoki og‘zaki tillar hisoblanadi. Autentik materiallar gazetalar, jurnallar, davriy nashrlar, broshyuralar, filmlar, televizorlar bo‘lib o‘quv materiallari va boshqalardan farq qilishi mumkin. Agar biz sinflarda autentik materiallardan foydalansak, biz o‘quvchilarimizni haqiqiy til bilan tanishtiramiz va ular turli xorijiy tillarda so‘zlashuvchilarni tushunishlari mumkin. [15.]

1. Autentik tinglash/tomosha qilish materiallari - teleko‘rsatuvlar, viktorina shoulari, multfilmlar, yangiliklar roliklari, filmlar, seriallar, professional audio va lentalangan qisqa hikoyalar va romanlar, radio reklamalar, qo‘shiqlar, hujjatli filmlar va savdo maydonchalari.

2. Autentik vizual materiallar - Slaydlar, fotosuratlar, rasmlar, bolalar rasmlari, tayoqchalar rasmlari, so‘zsiz ko‘cha belgilari, siluyetlar, jurnallar rasmlari, pochta markalari rasmlari, so‘zsiz rasmli kitoblar, shtamplar va rentgen nurlari.

3. Autentik bosma materiallar - gazeta maqolalari, kino reklamalari, munajjimlar haqidagi ruknlar, sport reportajlari, nekroloqlar ruknlari, maslahatlar ustunlari, qo‘shiqlar matni, restoran menyulari, ko‘cha belgilari, donli qutilar, konfetlar, turistik ma'lumotlar risolalari, universitet kataloglari, telefon kitoblari, xaritalar, televizor, yo‘riqnomalar, komikslar, tabriknomalar, oziq-ovqat kuponlari, xabarlar va avtobus jadvallari bilan pinlar.

4. Boshlang‘ich sinflarida ishlatiladigan Realia (Real dunyo ob'ektlari) - tangalar va valyutalar, buklangan qog‘ozlar, devor soatlari, telefonlar, maskalari, o‘yinchoqlar va qo‘g‘irchoqlar, bir nechtasini nomlash mumkin. Realia ko‘pincha fikrlarni juda vizual tasvirlash yoki rolli vaziyatlar uchun ishlatiladi.

Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o‘rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin:

- Ko‘rish orqali eslab qolish. Ma'lumki, yosh bolalar eshitgan ma'lumotlaridan ko‘ra, ko‘proq ko‘rgan predmetlarini eslab qoladi. Shunday ekan, darsni turli xil ko‘rgazmali qurollar, plakatlar orqali, ko‘zga ko‘rinadigan va kundalik hayotda ko‘p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish orqali yangi so‘zlarni o‘rgatish va o‘rgangan yangi so‘zlari ishtirokida gaplar tuzish. Masalan, kitob (book), stol (table), doska (blackboard), ruchka (pen), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Kundalik hayotda ko‘p ishlatiladigan bunday narsa-buyumlar ko‘zga doimo tushib turishi va doimo qo‘llanishi bois, bola bu so‘zlarni ixtiyorsiz tarzda o‘rganadi. Qo‘shiq va she'rlar orqali tushinish yoki eslab qolish qiyin bo‘lgan so‘zlarni musiqaga solib kuylash. Bunda yangi so‘zlarni eslab qolish bilan birga, bolaning og‘zaki nutqi ham rivojlanadi. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo‘shiq qilib o‘rganishlari shunchaki yodlashdan ko‘ra samarali ekanligini ko‘rsatish mumkin.

- TO raqobatdosh grammatika va so‘z boyligini o‘zlashtirishga yordam beradigan o‘yinlarning aksariyatini o‘z ichiga oladi. Bunda bolalar o‘qituvchi bergan turli xil topshiriqlarni bajaradi. Natijada o‘quvchilar orasida raqobat vujudga kelib, til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi yanada oshadi. Zero, Xitoy mutafakkirlari aytganidek:

" Insonning barcha qiziqishlari raqobat orqali vujudga keladi".

- Aralash texnika bu yerda biz ixtiyoriy ravishda turli xil texnikalarni birlashtira olamiz. Masalan, bunda bolalar o‘yin o‘ynashi, qo‘shiqlar aytishi, rasm chizishi, turli xil harakatlar orqali yangi so‘zlarni ko‘rsatib berishi mumkin. Texnikaning afzalligi xilma-xillikda. Bunda o‘quvchi faqat bitta narsa orqali cheklanib qolmaydi.

- Multfilmlar orqali o‘rgatish. Ma'lumki, bolalar turli xil multfilmlarni ko‘rishga qiziqadi. Ingliz tilidagi multfilmlarni ko‘rish jarayonida esa, multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilim qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so‘zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o‘rganishlari uchun samarali yo‘l.

- Qiziqarli o‘yinlar orqali o‘rganish; Ingliz tili fanini o‘qitishda turli xil o‘yinlar orqali o‘rgatishning o‘rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o‘yinlar o‘ynatib turish sinfda fanni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, faol bo‘lmagan o‘quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi. Quyidagi o‘yinlar so‘zimizga misol bo‘la oladi.

- "Quvnoq topishmoqlar"(Merry Riddles) o‘quvchilarga topishmoqlar o‘rgatish ingliz tilini o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o‘zlariga notanish bo‘lgan so‘zlarni o‘rganadilar va o‘ylab topishmoq javobini topadilar.

- "Pantomima" (pantomime) . Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga biron bir so‘zni aytadi va o‘quvchi uni ko‘rsatadi. Qolgan o‘quvchilar esa so‘zni topib, inglizcha nomini aytishi kerak bo‘ladi. [14.]

Sezgi a'zolar orqali o‘rganish (sabzavot, mevalar , oziq-ovqatlarni tatib ko‘rish, turli xil buyumlarni ushlab ko‘rish, gullarni hidlab ko‘rish). Ushbu yangi metodni o‘rganishdan oldin bir amaliyotchi psixologning fikrlarini keltirish kerak: "Bolalarning esida biror narsaning mahkam o‘rnashib qolishini xohlovchi pedagok bola sezgi organlarining mumkin qadar ko‘prog‘ini ko‘zi, qulog‘i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak".

Darhaqiqat, sezgi a'zolar orqali til o‘rganish boshqa usullarga qaraganda foydali va samarali hisoblanadi . Masalan, o‘quvchi birgina olmani tatib ko‘rish jarayonida uning rangi, ta'mi, hajmi, hidi qanday ekanligini biladi va uning inglizcha nomini ham aytadi. Natijada esa, o‘qituvchi bolalardan ranglarning inglizcha nomini so‘rab qolsa, bolalar darrov meva yegan paytini eslaydi. Demak, bunday usullardan foydalanish o‘quvchining ma'lumotlarni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga til o‘rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o‘yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi, ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, ta'lim tizimi ham o‘z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shahsni tarbiyalashni vazifa qilib qo‘yar ekan, kelgusida biz bo‘lajak o‘qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llarini yanada mukammalroq ishlab chiqish bilan o‘z hissamizni qo‘shishimiz mumkin .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Turdaliyeva G.N "Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar"// 2020 .
3. Нематова, З. Т., & Хакимова, М. А. (2021). Идеи об идеальном человеке, языке, процветании в эволюции общественно-политических взглядов узбекских джадидов начала XX века. Central Asian journal of theoretical & applied sciences, 2(5), 219-224.
4. Нематова, З. Т., & Хакимова, М. А. (2020). Songs in teaching English to young second language learners. Молодой ученый, (50), 497-499.
5. Tursunboevna, N. Z. (2022). Various types of assessment in language teaching and learning. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture, 2(3), 140-145.
6. Tursunboevna, N. Z., & Asomiddinovich, A. S. (2022). Formative assessment in language teaching and learning.
7. Nematova, Z. T. (2019). The usage of suggestopedia for teaching foreign languages and increase speech activity. Новый день в медицине, (3), 21-24.
8. Nematova, Z. (2022). Advantages of using videos in English lessons. International Bulletin of Applied Science and Technology, 2(9), 8-12.
9. Mukhabbat, K. Nematova Zebo Lexical innovations of the early English language period (XYI century). International Engineering for Research and Development.-2020.-№, 5(9).
10. Хакимова, М., & Нематова, З. (2021). Лексические инновации периода ранненовоанглийского языка (XYI век). Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 2(5), 202-207.
11. Tursunbaevna, N. Z. (2022). Types of Interactive Methods of Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 151-155.
12. Nematova , Z. . (2022). The types of error in second language learning. Евразийский журнал академических исследований, 2(12), 310–314. извлечено от https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/7227
13. Nematova , Z. . (2022). Various examples of differentiated instruction in the classroom, advantages and disadvantages of differentiated instruction. Евразийский журнал академических исследований, 2(12), 315–318. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/7228
14. Nematova , Z. (2023). The methods of developing logical thinking using authentic materials in the classroom. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(3), 183–188. Retrieved from https://www.researchcitations.com/index.php/ibast/article/view/749
15. Nematova Zebo Tursunboevna. (2023). The usage of authentic materials in the language classroom. International Journal of Literature And Languages, 3(02), 68–73. https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue02-13
16. Ravshanovna, K. K., & Alimovna, H. M. (2021). Ne’matova Zebo Tursunbayevna.“. The Exemplary Life Of Babur Mirza In The Interpretation Of Stephen Meredith”. Journalnx-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 7(06), 295-00.
17. Tursunboevna, N. Z. Tursunboeva Munisa To‘lqin qizi.(2022). Differentiated lesson plans for students at different learning levels. Eurasian journal of academic research, 2 (11), 1055–1059.

ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИИ СЕМЬИ И ОБРАЗА ЖИЗНИ НА СОСТОЯНИЕ ЗДОРОВЬЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Абдимомунова Апал Оморбаевна
Кыргызский национальный университет имени Жусупа Баласагына Кыргызстан
Алимджанова Дилбар Негматовна
Самаркандский медицинский университет Самарканд, Узбекистан
Умида Бургутова
Самаркандский медицинский университет Самарканд, Узбекистан
Амридинова Шахризода
Филиал Казанского (Приволжского) федерального университета в городе Джизаке

Актуальность: Здоровый образ жизни человека – это большой комплекс биологически и социально целеустремленных и целесообразных методов и средств жизнедеятельности, соответствующих потребностям и возможностям человека, которых она сознательно придерживается с целью обеспечения формирования, сохранения и укрепления здоровья, способности к продолжению рода и достижению активного долголетия.

Здоровый образ жизни населения – такой образ его жизни, который обеспечивает сочетание полноценной биологической и социальной адаптации каждого человека с возможностью максимального самовыражения народа, нации, класса, социальной группы в конкретных условиях жизни и который предопределяет и обеспечивает последующее развитие общества. Методы и средства здорового образа жизни включают целый комплекс субъективных и объективных условий и факторов, от которых зависит здоровье отдельного человека и общества в целом.

Здоровье населения на 8-10% зависит от медицинского обслуживания и состояния здравоохранения; в основном же его формирует социально-экономические условия и образ жизни (55-65%), наследственность (12-13%), климатогеографические условия (11-12%). Поэтому невозможно решить проблему здоровья и болезней без изучения и учёта влияния всех этих факторов, подчеркивается особо тревожная ситуация в отношении состояния здоровья школьников. В происхождении психосоматических расстройств играют роль многие факторы: острый или хронический стресс, социальная дезадаптации, психическое напряжение. Образ жизни дошкольников, по утверждению может значительно влиять на состояние здоровья обучающихся, и доля этого влияния варьирует от 12 до 50%. Изучение этого аспекта у современных дошкольников указывает на частое нарушение режима дня в виде снижения продолжительности сна более чем у одной трети, длительное пребывание перед телевизором у 80% или компьютером у пятой части детей (более 4-хчасов в сутки), более половины не бывают на свежем воздухе или бывают крайне мало.

Цель работы: оценить влияние экологии семьи и образа жизни на состояние здоровья детей дошкольного возраста.

Материал и методы исследования: в ходе исследования были составлены социальные портреты семей 113 дошкольников подготовительной группы и оценены сформированность понятия здорового образа жизни у их родителей по данным опроса. Была изучена готовность родителей к формированию у детей приверженности к здоровому образу жизни и изучены аспекты семейных взаимоотношений с тестированием родителей с помощью методики анализа семейного воспитания. Изучены психологические аспекты готовности детей к обучению и психологические особенности детей начальных классов.

Результаты исследования: По данным нашего исследования 82,6% воспитывались в полных, а 17,4% – в неполных семьях. 46,6% семей имели только одного ребёнка, 41,9% имели двоих детей. Многодетных семей (трое и четверо детей) было 11,5%. Данные анкетирования позволили уточнить уровень образования матерей и отцов и их социальный статус. Образовательный уровень был выше среди отцов: высшее образование имели 44,5%, среднее специальное
– 37,8% и среднее только18%. Среди матерей учащихся около 43% имели средне-специальной и 33% высшее образование, остальные получили только среднее образование (22%). По социальному положению большинство отцов (43%) отнесено к рабочим, государственным служащим и служащим 21% и 4% соответственно, работникам бюджетной сферы – 5%. Только 13,7% среди отцов занимались предпринимательством, а 10,3% временно не работали. Среди матерей одна треть имели рабочие специальности, государственных служащих и работников бюджетной было 19,6% и 6% соответственно. Около 20% матерей занимались только введением домашнего хозяйства, а 4,2% – индивидуальным предпринимательством.

В программу нашего исследования входило изучение аспектов заинтересованности в формировании здорового образа жизни, и родители смогли достаточно открыто ответить на вопрос о наличии вредных привычек в семьях. Выяснилось, что одна треть из них указала на курение отца, около 8% – к вредным привычкам у себя нерациональное питание и почти 5% – малоподвижный образ жизни. Остальные 44% родителей считают, что не имеют вредных привычек. Несомненно, что культура здоровья и приверженность к здоровому образу жизни у детей формируются под влиянием родителей. Однакоиз числа

опрошенных нами взрослых 30% затруднились указать составляющие здорового образа жизни. Около 40% родителей выделили спорт и физическую культуру, как важную часть здорового образа жизни, остальные 35%– правильную организацию питания в семье Важной составляющей социального портрета семьи является характеристика родителей своих взаимоотношений с детьми, а также используемые методы воспитания. С точки зрения самих родителей в большинстве семьей преобладают спокойные взаимоотношения 78%, в остальных случаях преобладает эмоциональное общение 17% и неустойчивые отношения 5%. В большинстве своём родители убеждены, что при воспитании чаще других используют метод убеждения 70% словом и собственным примером, и лишь в 32 семьях преобладают авторитарные.

В нашем исследовании были получены данные, говорящие о высоком уровне интеллекта его вербальной и невербальной составляющей у половины дошкольников подготовительной группы (51,6%). Средний уровень имел место у 40,8% детей и низкий только у 27 детей (7,4%). Однако полное психологическое тестирование выявило, что не все дети готовы к периоду обучения в школе. У одной пятой (18%) дошкольников не развито свободное речевое развитие, у 38% – зрительное восприятие, у 40% не сформирована учебная мотивация – недостаточный интерес к обучению и формальное и беспечное отношение к школе. Больше, чем у трети дошкольников подготовительной группы (36%) был недостаточный позиционный мотив, что выражалось в низкой самооценке своей личности. Особенно у мальчиков при этом велик риск появления высокой дошкольной тревожности и агрессии в поведении. Таким образом, неготовность некоторой части детей к обучению повышает риск тревожности и снижает вероятность приспособления и адаптации ребёнка к стрессовым ситуациям, а при низкой дошкольной мотивации не приходиться ожидать высокой результативности в целом образовательной деятельности.

Выводы: 1. На основании проведённого исследования можно утверждать, что среди групп факторов, оказывающих негативное влияние на состояние здоровья детей дошкольного возраста, в дополнение к дошкольным факторам наиболее значимыми являются: условия жизнедеятельности (семья) и факторы медикосоциального риска (неполные семьи), увеличение стрессовых ситуаций в повседневной жизни (в семье и в процессе обучения) и негармоничный стиль семейного воспитания.2. Выявлена несформированность понятия здорового образа жизни, высокая частота рискованных форм поведения среди родителей (курение, нерациональное питание, малоподвижный образ жизни) и низкий уровень медицинской грамотности педагогов, что предопределяет не возможность сформировать у детей ценностного отношения к своему здоровью.Приведенные данные подчеркивают необходимость внимания со стороны государственных структур и общественных организаций к проблемам семьи, так атмосфере любви, уважения и взаимопонимания.

Литература:

1. Alimdjanova, Dilbar Negmatovna. "TEACHING TOOLS WITH THE USE OF PROPRIETARY TECHNOLOGIES IN PSYCHOLOGY CLASSES." Open Access Repository 4.3 (2023): 536-541.
2. Alimdjanova, Dilbar Negmatovna, and Sardorbek Utayev Toshpulatovich. "TEACHING TOOLS WITH THE USE OF PROPRIETARY TECHNOLOGIES IN PEDAGOGY CLASSES." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.05 (2023): 92-96.
3. Alimdjanova, Dilbar Negmatovna. "Psychological and pedagogical problems of improving the learning process." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.02 (2023): 49-51.
4. Alimdjanova, Dilbar Negmatovna, Umida Muxammadjonovna Burgutova, and Gulirano Vahobjonovna Berdieva. "PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEMS OF ACTIVATING THE LEARNING PROCESS." Involta Scientific Journal 2.1 (2023): 158-160.
5. Vakhobjonovich, Berdiev Doniyor. "LITERATURE ANALYSIS ON THE IMPACT OF ELECTROMAGNETIC INFLUENCE ON THE PHYSICOCHEMICAL PROPERTIES OF MILK." AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI (2023): 130-135.
6. Naimova Z. S. Xenobiotics as a Risk Factor for Kidney and Urinary Diseases in Children and Adolescents in Modern Conditions //Eurasian Research Bulletin. – 2023. – T. 17. – C. 215-219.
7. Negmatovna, ALIMDJANOVA Dilbar, and AZMIEVA Elzara Ernestovna. "Use of Modern Digital Technologies in the Education System." ECLSS Online 2020a 181 (2020).
8. Negmatovna, Alimdjanova Dilbar. "Formation of Ideas About a Healthy Lifestyle in Teaching Children of Senior Preschool Age." psychologist 7.5 (2020).
9. Negmatovna, Alimdjanova Dilbar. "Improving the pedagogical conditions for the introduction of copyright technologies (on the example of the subject of pedagogy)." World Bulletin of Social Sciences 4.11 (2021): 17-22.

ADABIY TA’LIMINI MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHDA O‘QUV TOPSHIRIQLARINING O‘RNI

Rasulova Gulbahor Kerimbaevna,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti dosenti
e-mail: grasulova@gmail.com

Annotasiya: maqolada adabiy ta'limni rivojlantirish masalasi, xususan, o‘quv topshiriqlarini takomillashtirish, adabiyot o‘qitishda savol va topshiriqlari mazmunini tahliliy o‘rganish, asar mohiyatini ochib beruvchi o‘quv topshiriqlar ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslarini yaratish, o‘quvchilar bilimini baholash mezonlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha muhim tavsiyalar, xulosalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: adabiy ta'lim, ta'lim mazmuni, asar mohiyati, badiiy asar tahlili, o‘quv topshiriqlari, savol, topshiriq, uy vazifasi, bilim, ko‘nikma va malakalar

РОЛЬ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СОДЕРЖАНИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В статье изложены важные рекомендации, выводы по вопросу развития литературного образования, в частности по совершенствованию учебных заданий, аналитическому изучению содержания вопросов и заданий при обучении литературе, созданию научно-методических основ разработки учебных заданий, раскрывающих сущность произведения, рассмотрению критериев оценки знаний учащихся.

Ключевые слова: литературное образование, содержание образования, характер произведения, анализ художественного произведения, учебные задания, вопрос, задание, домашнее задание, знания, умения и навыки

THE ROLE OF EDUCATIONAL TASKS IN IMPROVING THE CONTENT OF LITERARY EDUCATION

Abstract: The article presents important recommendations and conclusions on the development of literary education, in particular on improving educational tasks, analytical study of the content of questions and tasks in teaching literature, creation of scientific and methodological foundations for the development of educational tasks that reveal the essence of the work, consideration of criteria for assessing students' knowledge.

Keywords: literary education, the content of education, the nature of the work, the analysis of the work of art, educational tasks, question, assignment, homework, knowledge, skills and abilities

Dunyoda rivojlangan davlatlarni adabiyot o‘qitishga doir ilmiy-metodik adabiyotlarda adabiy ta’lim, asosan, matn ustida ishlash, turli uslubda taqdim qilingan ma’lumot o‘qib tushunish va munosabat bildirish uchun tayyorlashga yo‘naltiriladi. Har bir mashg‘ulotda taqdim qilingan ma’lumotning o‘quvchi uchun kundalik hayotdagi foydalilik darajasiga alohida e’tibor beriladi va ta’lim jarayonida savol, topshiriq va mashqlardan unumli foydalaniladi. Xalqaro til ta’limi tajribasida o‘quv topshiriqlari o‘zaro muloqotning samarali bo‘lishiga qaratiladi. O‘quv topshiriqlari belgilangan muayyan mezonlar asosida shakllantiriladi, shuningdek, bugungi globallashuv sharoitida adabiyotni boshqa fanlar bilan integratsiya qilingan holda yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitilmoqda. Fanlararo integratsiyani, albatta, savol va topshiriqlar ta’minlab beradi, shu nuqtayi nazardan o‘qitish metodikasining asosiy muammosi sifatida pragmatik o‘quv topshiriqlari tizimini ishlab chiqish qayd qilinishi lozim.

Jahonda adabiyot o‘qitish metodikasi pedagogika va adabiyotshunoslik erishgan yutuqlardan foydalanadi. Adabiyot inson uchun borliqni anglash vositasi hisoblanadi, o‘quvchi tafakkurida olamning lisoniy manzarasi badiiy adabiyot orqali ham shakllanadi. Barcha xalqlar milliylikni asrashning bosh mezoni sifatida adabiyotni anglaydi va buni ta’lim orqali amalga oshirayotganda badiiy adabiyotni mutolaasini milliy qadriyatga aylantirish, ulug‘lash ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e’tibor beradi. Bugungi kunda adabiyot o‘qitishning yangi usullarini kashf qilish, amaliyotga uzluksiz joriy qilib borish muhim masalalardan. Xalqaro o‘qitish metodikasida andoza sifatida qabul qilinayotgan yutuqlardan aksar mamlakat samarali foydalanib kelmoqda. Kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, xalqaro adabiy ta’lim metodikasida anglash va mushohada qilish ko‘nikmani rivojlantirish, o‘quvchini turli nutqiy vaziyatga tayyorlash asosiy masalalardan, uni amalga oshirish, asosan, o‘quv topshiriqlarining sifati va mazmuniga bog‘liq. Ta’lim mazmuni o‘quv topshiriqlari orqali yuzaga chiqariladi. Shu bois adabiyot o‘qitish metodikasida o‘quvchi uchun o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish dolzarb.

O‘zbekistonda ham o‘zbek tili va adabiyotning nufuzi va mavqeini oshirish, zamonaviy o‘qitish metodikasini joriy etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda shakllangan yangi ta’lim tizimi uning ta’limiga ham zarur talablarni qo‘ymoqda. “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak”[1] ligi ona tili ta’limi oldiga, xususan, o‘quv topshiriqlari ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishni dolzarb vazifa sifatida qo‘yadi.

Adabiyot o‘qitishga doir mahalliy va xorijiy tajribalarni o‘rganish, ilmiy-metodik qarashlarni tahlil qilish va umumlashtirish; darsliklardagi o‘quv materiallarining DTS hamda dastur talablariga mosligini qiyosiy o‘rganish, adabiy ta’limdagi muammolarning sabablarini aniqlash va yechimlar taklif qilish; umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quv topshiriqlaridan foydalanishning bugungi holatini o‘rganish va pragmatik mazmundagi o‘quv topshiriqlarining adabiy ta’limdagi o‘rnini belgilash; o‘quv topshiriqlari orqali nutqiy malaka va fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishning mazmun, usul va vositalarini ishlab chiqishni takomillashtirish;adabiy ta’limni modernizatsiya qilish, savol, mashq va topshiriq tushunchalari hamda ularning vazifalarini tasniflash, ularni tubdan yangilash, topshiriq namunalarini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni tajriba orqali darsliklar mazmuni, adabiyot darslarida sinab koʻrish va olingan xulosalarni umumlashtirish.

Oʻquv topshiriqlarining didaktik asosi ilmiy-nazariy tomondan takomillashtiriladi, ya'ni "mashq", "savol" va "topshiriq" tushunchalariga pedagogik, psixologik va adabiy jihatdan yangicha ta'rif berilib, ularning oʻzaro farqi, qoʻllanilish oʻrinlari, adabiy ta'limda tutgan oʻrni va vazifalari aniqlanadi; adabiy ta'limda mashqlardan, asosan, koʻnikma va malaka hosil qilishda, savol va topshiriqlardan biror amalni bajarishga yoʻnaltirish, fikrlashga undash hamda oʻzlashtirilgan bilim, koʻnikma va malakani baholash maqsadlarida foydalanish nutqiy kompetensiyaning tizimli hosil boʻlishi va rivojlanishiga erishish mumkinligi isbotlangan; matn bilan ishlash uchun savol va topshiriqlar tuzish, nutqiy koʻnikmalarni rivojlantirishda suhbatdoshga nutq vaziyatidan kelib chiqib savol berishning adabiy ta'lim uchun badiiy-uslubiy darajalari aniqlanib, didaktikada savol tuzishga pragmatik usulda yondashishning ilmiy-metodik afzalliklari dalillangan; badiiy matn asosida oʻqib tushunish koʻnikmasi bilan birga oʻquvchida muloqot vaziyatiga koʻra murojaat qilish, nutq soʻzlash malakasini ham baravar rivojlantirish lozimligini nazarda tutib, oʻquvchini toʻgʻri va mantiqli savol berishga oʻrgatish yoʻllari, turlari va qoʻllanadigan innovatsion metodlar boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqilgan; baholash tizimi uchun matn ustida ishlash orqali eshitganlarini toʻgʻri tushuna olish, badiiy matn asosida ravon va mantiqan izchil soʻzlash olish, badiiy matnni oʻqib tushuna olish hamda badiiy matnni toʻgʻri va mazmunli yoza olish (esse) koʻnikmalari adabiy ta'limning oʻziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda takomillashtiriladi. adabiy ta'lim jarayonida oʻquv topshiriqlarini tuzish va undan foydalanishning hozirgi holati tahlil qilinib, darslik va qoʻllanmalardagi tipik xato va kamchiliklar ta'lim amaliyotida oʻquv topshiriqlari tuzishga pragmatik usulda yondashish bilan bogʻliq murakkabliklarga tavsif berilgan, ularni bartaraf etish yoʻllari koʻrsatilgan; adabiy ta'limda ilmiy-nazariy tomondan takomillashtirilgan mashq, savol va topshiriq tushunchalariga pedagogik, psixologik va lingvodidaktik jihatdan yangicha adabiy ta'rif berilib, ularning oʻzaro farqi, qoʻllanish oʻrinlari, adabiy ta'limda tutgan oʻrni va vazifalarini aniqlashga doir yondashuvlardan "Adabiyot" darsliklari yaratishda foydalanish tizimi ishlab chiqilgan; oʻquv topshiriqlarini tasnif va tavsif etish asosida yaratilgan savol, mashq va topshiriq namunalari asosida oʻquvchilarni matn ustida ishlash, oʻqib tushunish, nutq soʻzlash koʻnikmalarini shakllantirish hamda mustaqil ishlash yoʻllari bayon etilgan.

Maqolaning ilmiy ahamiyati adabiyot oʻqitish metodikasini takomillashtirishda oʻquv topshiriqlarining adabiy ta'limda tutgan oʻrnini belgilash, ta'lim mazmunini isloh qilish nuqtai nazaridan monografik tarzda tadqiq etilgani bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "Adabiyot" darsliklari, oʻquv qoʻllanmalar, ta'limiy korpusini yaratishda, oliy oʻquv yurtlarining Oʻzbek tili va adabiyoti ta'limi, filologiya fakultetlarida "Adabiyot oʻqitish metodikasi"dan fan dasturlarini tuzishda, ma'ruza matnlarini tayyorlashda material, oʻzbek tili va adabiyotini oʻqitish boʻyicha magistratura yoʻnalishlari uchun "Oʻquv topshiriqlari tuzish metodikasi" fanidan qoʻllanmalar yaratish, umumiy oʻrta ta'lim maktablarining 5–11-sinflarda adabiyot oʻqitishni yanada takomillashtirishda muhim manba boʻlib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish nmumkinki, adabiy ta'lim tizimida oʻquv topshiriqlarini tubdan yangilash "Adabiyot" darsliklarini modernizatsiya qilish asosi ekanligi dalillangan; adabiy ta'limda matn bilan ishlash uchun savol va topshiriqlar tuzish, nutqiy koʻnikmalarni rivojlantirishda suhbatdoshga nutq vaziyatidan kelib chiqib savol berishning adabiy-uslubiy darajalarini aniqlashga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan; oʻtkazilgan tajriba-sinov ishlari yakuniga koʻra badiiy matn ustida ishlash orqali – eshitganlarini toʻgʻri tushuna olish – anglash, badiiy matn asosida ravon va mantiqan izchil soʻzlab bera olish, badiiy matnni oʻqib tushuna olish – fahmlash hamda badiiy matnni toʻgʻri va mazmunli yoza olish – insho koʻnikmalari adabiyot ta'limida natijalarni qulay baholash mezonlarini ishlab chiqishga yordam beradi; Qoʻllangan tadqiqot usullari va ilmiy-nazariy ma'lumotning rasmiy manbalarga aloqadorligi, keltirilgan tahlil hamda tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistika metodlari orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. uza.uz. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilganining oʻttiz yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2019, 21-oktyabr.

2.Axmedova M.E. Rasulova G.K. Kredit-modul tizimida oʻzbek tili ta'limda mustaqil oʻquv topshiriqlari tuzish va ulardan foydalanish metodikasi. *Uslubiy koʻrsatma,* "Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi", MCHJ. Тошкент – 2022. 83 bet.

3. Ахмедова М.Э. Олий филологик таълимда ўқув топшириқларидан фойдаланишнинг лингвометодик ва дидактик хусусиятлари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. Илмий журнал. - Урганч, 2022. - №2 (86). – Б. 470-472. *2016.29.12/4*

4.Dolimov S., Ubaydullaev H., Ahmedov Q. Adabiyot oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1967. – 448 b.;

5.Ahmedov Q. Hamza Hakimzodaning "Boy ila xizmatchi" dramasini oʻrganish. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1968.;

6.Mallaev N.M., Ismatov S.I. Oʻzbek adabiyoti tarixi. Oʻrta maktabning 9-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1965; Boboev T. She'r ilmi ta'limi. – Toshkent, Oʻqituvchi, 1996;

7. Zunnunov A., Hotamov N. Adabiyot nazariyasidan qoʻllanma. Oʻrta maktablarning yuqori sinflari uchun. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1978.;

BOSHLANG‘ICH ADABIY TA’LIMDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINING ROLI

Kobulova Nodira Bahodirovna
Navoiy innovatsiyalar instituti o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada topishmoqlarni o‘qitishga doir yangicha yondashuvlar o‘rin olgan. Maqoladan ko‘zlangan maqsad maktab o‘quvchilarini topishmoqlar mavzusini qiziqish bilan o‘rganishga undash, mustaqil fikrlashga, tafakkurini mustahkamlashga, fikrlarini ravon bayon qila olishga o‘rgatishdir.
Kalit so‘zlar: topishmoq, ertakli topishmoq, yangicha yondashuv, adabiy ta’lim

РОЛЬ ОБРАЗЦОВ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА В НАЧАЛЬНОМ ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В статье представлены новые подходы к обучению загадкам. Цель статьи – побудить школьников с интересом изучать тему загадок, научить их мыслить самостоятельно, укрепить их мышление, уметь бегло излагать свои мысли**.**
Ключевые слова: загадка, сказочная загадка, новый подход, литературное образование

THE ROLE OF SAMPLES OF FOLK ORAL CREATION IN PRIMARY LITERARY EDUCATION

Abstract: The article presents new approaches to teaching riddles. The purpose of the article is to encourage schoolchildren to study the topic of riddles with interest, teach them to think independently, strengthen their thinking, and be able to express their thoughts fluently.
Key words: riddle, fairy tale riddle, new approach, literary education

Uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich sinflarida adabiy ta’limni to‘g‘ri tashkil etish, tarbiyalanuvchilarga tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini, ta’lim oluvchining fanni va berilayotgan bilimni o‘zlashtirish darajasi, egallanayotgan bilim, mustaqil va tanqidiy fikrlashi, bilim, ko‘nikma, malakani, yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo‘llay olishi uchun ta’lim beruvchiga, albatta, katta mas’uliyat yuklatiladi. Bugungi kun adabiyotning maqsadi barkamol, mustaqil fikrga ega, o‘z qarashlarini mustaqil bayon eta oladigan, har tomonlama zehn va iqtidorga ega bo‘lgan insonni tarbiyalashdir. Bilamizki, insonni har tomonlama barkamol, ma’naviy yuksak qilib tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘rni katta. Xalq og‘zaki ijodi janrlari, asosan, axloq-odob, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik va tarbiyaning turli yo‘nalishlarini amalga oshirishga qaratilgan bo‘lsa, bu janrlar orasida topishmoqlar ko‘proq bolalarning aqliy kamolotiga ta’sir etish vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Topishmoqlarning ayni xususiyati muammoli ta’limga yaqin turadi. O‘quvchining oldiga muammoli savol, vazifa, topshiriq qo‘yadi, hatto ayrim topishmoqlar muammoli vaziyat yaratishi mumkin. Topishmoqlar narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she’riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlar sanaladi. Topishmoqlar ko‘p asrlik xalq donishmandligi durdonasi sifatida inson idroki, kuzatuvchanligi, poetik tasavvur qobiliyatini o‘stiruvchi badiiy yaratiqlardir. [1:238-b.] Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog‘liq holda yaratiladi. Ularning zaminida kishilarning qadimiy e’tiqod va tasavvurlari, olamni bilish va idrok etishga bo‘lgan intilishlari yotadi. Topishmoq juda qadim zamonlarda vujudga kelgan. Ba’zi topishmoqlarning obyekti, shakli hamda mazmuni qadimiyligini ozmi-ko‘pmi aniqlashga imkon beradi. Ota-bobolarimiz davridan topishmoq tabiat hodisalari va narsalarni bir-biriga taqqoslash, o‘xshatish orqali borliqni, undagi mavjud narsalarning mohiyatini ko‘proq belgilashga katta yordam bergan. Kishilar qadim zamonlardan boshlab hozirgacha asta-sekin tabiat va jamiyatdagi inson uchun foydali va zararli bo‘lgan hodisalar, jonli, jonsiz predmetlar, umuman har xil obyektlarni o‘z zamoni va tushunchasi doirasida anglagan holda topishmoq yaratib kelganlar. Topishmoq bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas, yangi-yangi topishmoqlar yaratilib, ommalashib bormoqda. Shoirlarimiz, adiblarimiz ijodlarida ham bu janr o‘z ifodasini topmoqda. Topishmoqlar adabiyot va san’at taraqqiyotiga samarali ta’sir etgan. Ular adabiyotimiz tarixida chiston, muammo, muvashshax kabi lirik janrlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bugungi kunda topishmoqlar juda katta ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular bolalar va o‘quvchilarimizning fikr doirasini kengaytirish, topqirligini oshirish, aqlini charxlash va muhokama qilish qobiliyatini shakllantirishning muhim vositasidir. Hayot va undagi mavjudot haqidagi bilim-tushunchalarini, idrok va tasavvurni, fikr-mulohazalarni kengaytirish uchun zarur ta’lim vositalaridan biri bo‘lgani tufayli topishmoqlar soddadan murakkabga, osondan qiyinga, aniqdan noaniqqa, ma’lumdan noma’lumga borish usulida yaratiladi.

Topishmoqlar idrok, zehnni o‘stirishda o‘ziga xos tarbiya maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Bu janrning tarbiyaviy-didaktik xususiyati shundan iboratki, og‘zaki ijod namunasi bo‘lgan bu janr tarbiyalanuvchilarda xalq og‘zaki ijodiga, obrazli so‘zga muhabbat uyg‘otadi, ularga estetik zavq bag‘ishlaydi va og‘zaki she’riyat dunyosiga olib kiradi. [1:240]

Boshlang‘ich sinflar adabiy ta’limida tez aytishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tez aytishlar xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida ko‘p asrlar davomida yaratilgan manbalarimizda keng uchraydi. Tez aytishlar shakllanishida ayrim nutq tovushlarining ko‘p qaytarilishi yoki tovushlarning so‘z va iboralar tarkibidagi talaffuzni qiyinlashtiradigan darajada murakkab joylashishi asos bo‘ladi. O‘quvchilarning og‘zaki nutq imkoniyatlarini oshirishda, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatishda bu janrning o‘rni kattadir. Topishmoqlar xalq orasida “tutal”, “chalg‘ituv”, “chalish” deb ham yuritiladi.

Tez aytishlarda ma’lum fonemalar (ko‘pincha jarangli undoshlar) takrorlanadi. Jumladan, bolalar “sh”, “r” undoshlarini ayta olmay “s”, “l”, “y” shaklida talaffuz qiladilar, topishmoqlar tarkibida muammoli bo‘lgan nutq

tovushlarni talaffuz qilish va mashqlar orqali to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalari shakllana boradi. Masalan, “Bir tup turp, bir tup tutning tagida turp. Tutning tomirini turp tutib turibdimi, turpning tomirini tut tutib turibdimi?”

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining til imkoniyatlarini mukammal egallashlarida, tovushlani to‘g‘ri talaffuz qila olish ko‘nikmalarinng shakllanishida tez aytishlar muhim rol o‘ynaydi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari qo‘llash orqali bolalar nutqida urg‘uli va urg‘usiz, uzun va qisqa bo‘g‘inlarni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalari rivojlanadi, so‘z boyligi oshadi, sinonimlar imkoniyatidan keng foydalana boshlaydi, ifodali nutq shakllanadi, eshitib tushunish ko‘nikmalari rivojlanadi, fikrlash, ziyraklik qobiliyatlari o‘sib boradi.

Xulosa qilib aytganda, xalq og‘zaki ijodiga mansub bo‘lgan topishmoqlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga, mantiqiy mulohaza yuritishga, izlanishga, borliq hodisalarini taqqoslashda, muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy kamolotga erishuvida topishmoqlarning o‘rni nihoyatda katta va xalqimizning boqiy merosi bo‘lgan topishmoqlardan unumli foydalanish orqali biz o‘quvchi yoshlarimizning bilim salohiyati va nutq boyligini oshirishga erishishimiz mumkin.

Tez aytishlar nutq tovushlarining talaffuzida adabiy talaffuz normalarini mustahkamlashga jumlalar tarkibidagi mantiqiy urg‘uni topib so‘zlashga xizmat qiladi. Shuningdek, tez aytishlar bolalarning aql va so‘zamollik, notiqlik sifatlarini shakllantirishga ham yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Q. Husnaboyeva, M.Hazratqulov, Sh.Jamoldinova. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.
2. S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev.5-sinf. Adabiyot darsligi. T.:2020.
3. To‘xliyev B., Niyozmetova R.va b. Til va adabiyot ta’limining zamonaviy texnologiyalari. – T.: Toshkent, 2011.
4. Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Ma’nolar maxzani. – T., 2001. 5. Z. Husainova. O‘zbek topishmoqlari. – T., 1966.

ОИЛАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИ ЎРГАНИШ ИЖТИМОЙИ ПСИХОЛОГИК МУАММОЛАРИ

Рузикулова А.Т.
Психологияда фалсафа доктори (PhD), НДПИ “Умумий педагогика ва психология” кафедраси катта ўқитувчиси, Навоий Ўзбекистон

Аннотация: Мақолада акс этилган мавзу эр хотин муносабатларига бағишланган булиб эр хотинлар муносабатларига оид масала ва уларни ечими мавжуд. Мақола тадқиқотчи психологлар, маънвият ва маърифат йўналишида иш олиб борадиган ходимлар учун мулжаланган.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация: Тема, отраженная в статье, посвящена взаимоотношениям мужа и жены и представленқ решения данной проблемқ.. Статья предназначена для психологов-исследователей, сотрудников, работающих в сфере духовности и просветительства.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF STUDYING FAMILY VALUES

ABSTRACT: The topic reflected in the article is devoted to the relationship between husband and wife The topic reflected in the article is devoted to the relationship between husband and wife.. The article is intended for psychologists-researchers, employees working in the field of spirituality and enlightenment.

Никоҳ ва оила муносабатлари ижтимоий фанларнинг турли соҳалари: социология, фалсафа, педагогика, ҳуқуқшунослик, тиббиёт, сиёсатшунослик ва психологиянинг ўрганиш объекти ҳисобланади. Бу бежиз эмас, чунки оила давлатдан кўра анча илгари ташкил топган, инсонларнинг ижтимоий бирлашмасининг энг қадимги шаклларидан бири бўлганлиги тарихдан маълум.

Никоҳ-оила муаммоларини илмий тадқиқ этиш борасида ўзига хос анъаналар шаклланган. Жумладан, ўрганилаётган масалага оид илмий атамалар, тушунчалар таҳлил қилинган. Турли ўрганиш предметлари мавжуд: замонавий оила тушунчаси, никоҳ ва оилавий муносабатлар тушунчаси ва миллий қадриятлар алоҳида ўрганилган. Психологларнинг ишларида никоҳ-оила муносабатларни ўрганиш XX аср бошларида жадал йўлга қўйилганлиги қайд этилади.

Ижтимоийлаштиришнинг асосий институти сифатида оила тарихи турли хил тадқиқотларда очиб берилган. Ушбу тадкикотларда қуйидаги соҳалар таъкидланган ва тавсифланган: оиладаги ва никоҳдаги тарихий ўзгаришлар; оилани ижтимоий тизим сифатида ўрганишнинг ижтимоий-психологик жиҳати. Шу билан бирга оила ва никоҳнинг ҳозирги ҳолати назарий жиҳатдан ҳам, ижтимоий психологиянинг тадқиқот амалиётида ҳам ўрганилди. Оилада амалий ишнинг асосий шакллари - маслаҳат ва тренинглар турли шакллари аниқланди ва намойиш этилди. Ўзбек психолог олимлари томонидан ўзбек оиласининг этник, ҳудудий, ижтимоий-психологик жиҳатлари ҳам махсус илмий тадқиқот предмети сифатида ўрганилган (Шоумаров Ғ.Б., Каримова В.М. Соғинов Н.А., Утепбергенов М.А. Салаева Н., Расулова З.А.).

Никоҳ-оила масалалари илмий тадқиқот предмети бўлганлиги тарихига назар солсак, бу борада етарлича илмий анъаналари мавжудлигини кўрамиз. Масалар, социологлар, ижтимоий психологлар оиласи муаммоларига (Бахофен И.Ж. 1861), адвокатлар Ж. Ф. Макленнан (Шотландия), “Примевал Никоҳ” (1865) ва

Л. Г. Морганнинг асарлари. (1871) (Америка). Уларнинг фикрлари оиланинг пайдо бўлишидан олдин, никоҳ мавжуд бўлмаган давр бўлган ва унда эркак уриғи бўйича қариндошлик тўғрисидаги ҳисобланган ёки хотин-қизларнинг қариндошлик даражаси ҳисобга олинган оила институти сифатида жуда кеч пайдо бўлган деган хулосалар илгари сурилган.

Тадқиқотчиларнинг асосий ғояси шундан иборатки, тарих давомида никоҳ ва оила шакллари шаклланиши матриархиядан патриархияга ўтди. (Д. Леббок, Г. Спенсер, У. Вилкен, Ф. Гелвалд, С. Летурно, М. М. Ковалевский, И. Н. Смирнов, Э. И. Якушкина (“Оддий ҳукуқ”)) ва бошқалар томонидан олиб борилган. Н.Н. Харузиннинг фикрига кўра [2, п.12], “оила инсон ривожланишининг эмбриони сифатида тан олиниши керак”. Ф. Энгелс тушунчасидаги оила бу эр-хотинларни бирлаштирадиган иш бирлиги, шахсларнинг ҳиссий ва жинсий қониқиш жойидир. Уни фикрига кўра эр ва хотин ўртасидаги муносабатлар жамиятнинг иқтисодий тузилиши билан белгиланади. Жамиятнинг иқтисодий асослари оилавий муносабатларнинг асосини аниқлади. Шунга қараб, жамият ривожланишидаги ҳар бир янги босқичда роллар оила аъзолари ўртасида тақсимланади.

Бизнинг фикримизча, бундай ёндашув шахснинг психологияси ривожланишидаги омил сифатида оиланинг ролини бир томонлама таҳлил қилиш билан намоён бўлади.

Эр-хотин орасидаги оилавий қадриятларни ва ролли установкалар орасидаги боғлиқликни аниқлашда А.Н.Волкова томонидан ишлаб чиқилган методикадан фойдаланилди. Эмпирик маълумотлар йиғишда фойдаланилган психодиагностик воситалар имкониятидан келиб чиқиб, синалувчилар шартли равишда “А” (ҳаётдан мамнун бўлганлар) ва “Б” (ҳаётдан мамнун бўлмаганлар) гуруҳларига фарқлаб олинди.

“А” гуруҳидаги эр-хотин орасидаги оилавий қадриятларнинг мувофиқлиги3 балдан ошмаганлиги 1-жадвалда кўриниб турибди.

1 - жадвал

“А” гуруҳидаги эр-хотин орасидаги оилавий қадриятларнинг мувофиқлиги

Оилавий қадриятлар	Жинсий	Шахсий идентификация	Уй - рўзғор	Ота-она тарбияси	Ижтимоий фаоллиги	Эмоционал психотерапевтик	Ташқи жозибадорлик
ОҚШэр	9	9	6	7	8	4	5
ОҚШаёл	6	6	8	9	7	7	8
ОҚМ	3	3	2	2	1	3	3

Изоҳ: ОҚШэр ва ОҚШаёл - эркак ва аёлларнинг оилавий қадриятлари миқёсидаги шкалалар, навбати билан, ОҚМ - турмуш ўртоқларда оилавий қадриятларнинг мувофиқлиги.

Умумий ҳолда бу гуруҳда эркак(эр)ларга биринчи ўринда шахс сифатида лидерлик, оилада обрўли бўлиш, жинсий соҳада қониқиш, ижтимоий ҳаётга интилиш ва оилани моддий томонланма таъминлаш ва бола парвариши ҳамда унинг тарбиясида иштирок этиш вазифаси юклатилади. Аёлларнинг кўпчилиги биринчи ўринда ўз ролини боланинг парвариши ва тарбиясида, ўзининг ташқи кўринишига эътибор беришда, уй-рўзғор юмушлари билан банд бўлишда, шу билан бирга, эр ва оила аъзоларига эмоционал психотерапевтик ёрдам кўрсатишга интилишда ҳамда маълум бир касб эгаси бўлишга ҳаракат қилишида намоён қилишади. “А” гуруҳидаги эр- хотинларнинг ролли адекватлигини аниқлаш қуйидаги 2-жадвалда келтирилган. 1. Эр ва хотин қадриятлар тизимида ўзига хослик мавжуд. Эр-хотиннинг ўз жуфт ҳалоли фаол ролли ҳаракатига бўлган муносабати қадриятлар тизимига таянади. Қадриятлар тизими миллий қадриятларнинг асоси бўлган оилаларда ҳаётидан мамнун бўлиши аниқланган. Бу борада замонавий ўзбекларга хос бўлган ролли фаолликнинг устун туриши турмуш тарзи билан ифодаланади ва муҳитга асосланган ҳолда ўзгариб боради. (Тошкент, Навоий, чет эл ўзбек респондентлари натижаларига асосланган ҳолда ўрганилди).

2. Ҳаётий мамнунлик, миллий қадриятлар, оилавий қадриятларнинг намоён бўлиши, ҳамда эр-хотинларнинг ролли адекватлиги эркак ва аёллар гендер сезувчанлигини ривожлантиради ва ижтимоий хулқда ўз аксини топади.

3. Тадқиқотда келтирилган “Замонавий оилаларни мустаҳкамлашда миллий қадриятларнинг имкониятлари мавжуд. Бу имкониятларни ўрганиш ва улардан фойдаланиш” модели оилалар билан иш олиб борадиган психологлар фаолиятида олиб борилса, мақсадга мувофиқ бўлар эди.

2 - жадвал

“А” гуруҳидаги эр-хотинларнинг ролли адекватлиги

Оилавий қадриятлар	**Ролли даъво**		**Ролли адекватлик(эр)**	**Ролли даъво**		**Ролли адекватлик (аёл)**
	РДШаёл	**РКШэр**	**РДШаёл-РКШэр**	**РДШэр**	**РКШаёл**	**РДШэр-РКШаёл**
Уй рўзғори	0	0	0	4	3	1

Ота-онанинг тарбияси	3	2	1	3	3	0
Ижтимоий фаоллиги	2	3	-1	2	1	1
Эмоционал психотерапевтик	3	4	-1	1	2	-1
Ташқи жозибадорлик (Ҳусн ва ташқи кўриниш)	4	3	1	3	4	-1
			РАэр= 0			РАаёл= 0

Изоҳ. РАэр- эркакнинг ролли адекватлиги, РАаёл- аёлнинг ролли адекватлиги. РДШэр ва РДШаёл - ролли даъво шкаласи. РКШэр ва РКШаёл – ролли кутиш шкаласи.

Қанчалик фарқ кам бўлса шунчалик адекватлик юқори.

“Б” гуруҳида олинган 8-жадвалдаги натижаларнинг умумлаштирилган ҳолда ўтказилган таҳлили. Бу гуруҳни ҳаётидан мамнун бўлмаган респондентлар ташкил қилишди. Ушбу ҳолатнинг аниқлаш бевосита суҳбат усули ёрдамида олиб борилди. Гуруҳдан ажрим олдида турган оилалар, ёки эр- отин орасида низоли вазиятлар ва зўравонликлар мавжуд бўлган 30 та оила сараланди.

3 - ЖАДВАЛ

”Б” ГУРУҲДА ЭР-ХОТИН ОРАСИДАГИ ОИЛАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ МУВОФИҚЛИГИ

ОИЛАВИЙ ҚАДРИЯТЛАР	ЖИНСИЙ	ШАХСИЙ ИДЕНТИФИКАЦИЯ	УЙ-РЎЗҒОР	ОТА-ОНА ТАРБИЯВИЙ	ИЖТИМОИЙ ФАОЛЛИГИ	ЭМОЦИОНАЛ ПСИХОТЕРАПЕВТИК	ТАШҚИ КЎРИНИШ
ЭР. ОҚШ	9	5	8	3	4	7	9
ХОТИН ОҚШ	8	9	6	8	7	4	9
ОҚШИ	1	4	2	5	3	3	0

Гуруҳда низоли вазият фарзанд тарбиясида муаммоли вазиятларнинг юзага келишида дея таъкидланди. Яъни аёлларнинг асосий эътирози бола парваришида иштирок этмаганлигидадир. Бундан ташқари, шахсий идентификациясида шкала бўйича фарқлар аниқланди. Фарқларнинг асосий сабаби эркак респондентлар “аёллар эмансипацияси” деб биладилар. Респондент–аёллар эса ўз устида ишлаш бу замон талаби деб ҳисоблашади.

“Б” гуруҳидаги эр-хотинларни ролли адекватлиги 4-жадвалдаэркакларнинг ролли адекватлиги 7,5 га, хотинларнинг ролли адекватлиги 3 га тенг бўлиб бу ҳам паст даража. Суҳбат давомида бир-бирига айб қўйиш ҳамда ўзинингҳаёт тарзидан норози бўлганликларини айтиб ўтишди.

4 - жадвал

“Б” гуруҳидаги эр-хотинларнинг ролли адекватлиги

Оилавий қадриятлар	**Ролли даъво**		**Ролли адекватлик(эр)**	**Ролли даъво**		**Ролли адекватлик (аёл)**
	РДШаёл	**РКШэр**	**РДШаёл-РКШэр**	**РДШэр**	**РДШаёл**	**РКШэр РДШаёл**
Уй-рўзғори	4,5	3	1,5	4	2	2
Ота-онанинг тарбияси	4,5	2	2,5	4,5	4,5	0
Ижтимоий фаоллик	4,5	3	1,5	3	3	0
Эмоционал психотерапевтик	4	2	2	4,5	4	0,5
Ташқи жозибадорлик (Ҳусн ва ташқи кўриниш)	4	3	1	4.5	4	0,5
			РАаёл= 7,5 (РАа)			**РАаёл= 3 (РАа)**

Изоҳ. **РАэр**- эркакнинг ролли адекватлиги, **РАаёл**- аёлнинг ролли адекватлиги. **РДШэр** ва **РДШаёл** - ролли даъво шкаласи. **РКШэр** ва **РКШаёл** – ролли кутиш шкаласи.

Барча ҳолатда аниқлик мавжуд деб билган респондентлар ўзгалар тажрибасига таянмайдилар ва жуда тез қарор қабул қиладилар. Бу ҳолат жиддий қийинчиликларни туғдиради. Қийинчиликлар, уларни бартараф

этишда миллий қадриятлар ҳақида суҳбатлашсак, қадриятлар инкор этилди, улар олдинги замон талабидан қолиб кетган деб фикрюритишди.

Натижалар асосида шуни тасдиқлаш мумкинки,миллий қадриятлар тизимига асосланмаган ҳамда ҳаётидамамнунлик бўлмаган респондентлар ўз оиласининг қадрини билмай ажралишгача боришлари кузатилди.

Мақолада баён этилган тадқиқотимиз натижаларини таҳлил қилиш қуйидаги хулосаларга келишга имкон берди:

1. Ҳаёт сифати индекси кўрсаткичи юқори даражада бўлса ҳам унда фарқлар аниқланган.

2. Фарқларнинг мавжудлиги айнан ҳаётни ташкил этадиган ва жамоа томонидан ижтимоий муҳитдан келиб чиққан хусусиятлари инобатга олинади.

АДАБИЁТЛАР РУЙХАТИ

1. Рўзиқулова А.Т. Ҳозирги замон ўзбек оилаларида никоҳ-оила муносабатларининг мустаҳкамлигини таъминланишида миллий қадриятларнинг аҳамияти // Bola va zamon. – Тошкент. 2020 № 3.– Б. 20–21. (19.00.00;№1)

2. Рўзиқулова А.Т. Ўзбек оилаларида никоҳ-оила муносабатлари мустаҳкамлигини таъминланишида миллий қадриятларининг аҳамияти. // Педогогик маҳорат. – Бухоро, 2019. – № 3. – Б. 43–45. (19.00.00;№11)

PEDAGOGIK DASTUR VOSITALARIDAN BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA FOYDALANISH

Sabirov Baxtiyar Eshbayevich

Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchisi, ped.f.n.

Kuranboyeva Muxlisa Zafar qizi, Parpieva Fotima Nuriddin qizi

Nizomiy nomidagi TDPU *talabalari*

Annotatsiya. Maqolada pedagogik dastur vositalaridan boshlang‘ich sinf matematika darslarida foydalanishnig usullari va o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish hamda ularning bilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’kidlangan.

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich sinf, matematika, kompyuter, axborot texnologiyasi, pedagogik dastur vositasi.

ПРИМЕНЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В статье акцентируется внимание на использовании педагогических программных средств на уроках математики в начальной школе, а также на методах повышения интереса учащихся к науке и развития их когнитивных навыков.

Ключевые слова: начальный класс, математика, компьютер, информационные технологии, педагогический программный инструмент.

APPLICATION OF PEDAGOGICAL SOFTWARE TOOLS IN MATHEMATICS LESSONS IN PRIMARY CLASSES

Annotation. The article focuses on the use of pedagogical software in mathematics lessons in elementary school, as well as on methods to increase students' interest in science and develop their cognitive skills.

Key words: elementary grade, mathematics, computer, information technology, pedagogical software tool.

Boshlang‘ich sinflardagi matematika darslari umumiy o‘rta ta’lim maktablarida olib boriluvchi matematika o‘quv fani uchun asos, poydevor vazifasini o‘taydi, shunday ekan, bu sinflarda matematika o‘qitilishini talab darajasiga ko‘tarmoq muhim masaladir. Chunki, o‘quvchilarga keyinchalik matematika va boshqa fanlar uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalar shu sinflarda singdiriladi. Bu jarayonlarda o‘qituvchining asosiy vazifasi ta’lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanishini yo‘naltirish, ijodiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilarning jamoaviy va hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishdir [1].

Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarning universal faoliyat turlari sanalgan hisob, yozuv, rasm chizish, axborot to‘plash, qidirish va saqlash kabi ishlarini bevosita qo‘llab-quvvatlash uchun olib boriladigan darslar doirasida pedagogik dastur vositalaridan (keyinchalik – PDV) keng foydalanish o‘z samarasini beradi.

PDV kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi.

Ular ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi. PDVlar tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot, qo‘shimcha va yordamchi vositalar kiradi.

Yaratilgan va yaratiladigan har qanday PDV o‘quv jarayonining uchinchi hamkoriga aylanmog‘i lozim. U ta’limdagi ikki hamkor – o‘qituvchi va o‘quvchi uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ular orasida shakllangan munosabatlarni o‘zgartirishga majbur etadi.

Ta’limning ushbu bo‘g‘inida PDVlar bexato yozuv, hisoblash va rasm chizish malakasi, fikrlar almashinuviga imkon bersagina, o‘quv jarayonini har tomonlama qanoatlantiradi va ta’limning keyingi bo‘g‘inlarida axborot texnologiyalardan foydalanishga chuqurroq kirishga imkon yaratadi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonlarida foydalanilib kelinayotgan PDVlarni quyidagilarga ajratish mumkin:

o‘rgatuvchi dasturlar – o‘quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi;

test dasturlar – egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo‘llaniladi;

mashq qildiruvchi – avval o‘zlashtirilgan o‘quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

o‘qituvchi ishtirokidagi **virtual o‘quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar** (Virtual borliq tizimlari).

Fanlardan yaratiladigan har qanday PDVlar quyidagi **metodik talablarga** javob berishi kerak:

- PDVlar o‘quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o‘zaro bog‘liqligiga tayangan holda qurilishi.

- PDVlar o‘quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko‘rinishida ta’minlashi. Fanlararo o‘zaro bog‘liqlikning hisobga olinishi.

- PDVlarda ta’lim oluvchiga o‘quv materialini bosqichma-bosqich o‘zlashtirganligini turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish asosida aniqlash imkoniyatlarining yaratilishi.

PDVlarni yaratishga qo‘yiladigan talablar uch guruhga – **didaktik, psixofiziologik va texnik talablarga** ajaratilgan [2].

Ushbu umumiy talablardan kelib chiqib, **boshlang‘ich sinflar bo‘g‘ini uchun yaratiladigan PDVda inobatga olinishi zarur bo‘lgan quyidagi talablar ishlab chiqildi:**

1. Dasturga oid belgilarning ekrandagi o‘lcham jihatdan kattaligi oddiy holdagi yozuv belgilaridan uch marta ortiq bo‘lishi lozim.
2. Har bir dastur bilan uzluksiz ishlash vaqti 10-15 daqiqadan oshmasligi kerak.
3. Dastuiy vositasida ishlatiladigan ranglar xilma-xilliligiga alohida e’tibor qaratish lozim.
4. Dasturiy vositasi ishlash jarayonida tovush effektlaridan foydalanish va uning ishtirokini ta’minlash.
5. Dasturiy vositasi muhitida ishlatiladigan zarur tugmalar soni o‘ntadan oshmasligini ta’minlash.
6. Ekranda hosil bo‘ladigan ma’lumotlardagi belgilar sonini yuztadan oshirmaslik.
7. Dasturiy vositasi yordamida berilayotgan o‘quv materialining sodda va aniqligi.
8. O‘quv materialini dasturiy vositasi asosida o‘zlashtirishda uning individualligini ta’minlash.
9. Dasturiy vositasi doirasida uzatilayotgan o‘quv materialining moslashuvchanligini (ya’ni o‘quvchi o‘z bilim va ko‘nikmalari darajasiga muvofiq, o‘quv materialini tez o‘zlashtirishini) ta’minlash.
10. Dasturiy vositasi orqali uzatiladigan o‘quv materiali va nazorat topshiriqlari o‘quvchilarda salbiy hislarni uyg‘otmasligi hamda ularning fanga nisbatan qiziqishlarini susaytirmasligi lozim.

Bularga qo‘shimcha ravishda ishlab chiqilgan dasturiy vositalarni bevosita dars jarayonlariga joriy etishda yana bir muhim talab qo‘yiladiki, bu sanitar-gigienik talablardir [3].

Mazkur talablarga to‘la qonli javob beradigan, boshlang‘ich sinf matematika darslarida 1 dan 10 gacha va 10 dan 100 gacha bo‘lgan sonlar ustida turli arifmetik amallar bajarish hamda ifodaning ma’lum elementlariga ko‘ra noma’lum elementlarini topishga qaratilgan “Yosh matematik” nomli mashq qildiruvchi PDV ishlab chiqildi. Dastur turli 10 tadan sinov va nazorat topshiriqlarni o‘z ichiga olgan. Dastur muhitining umumiy ko‘rinishi 1-rasmda o‘z ifodasini topgan.



1-rasm. Dastur muhitining umumiy oynasi.

Dasturni yaratish jarayonida misollar echishga axborot shaklida yondashuv g‘oyasini mujassamlashtirishga harakat qildik, boshlang‘ich axborot (qayta ishlanishi lozim bo‘lgan axborot) va yakuniy (qayta ishlanish natijasida hosil bo‘ladigan) axborot farqlanishi kerak. Bu bilan biz misol echishning asosiy bosqichlarini: barcha ma’lum va noma’lum kattaliklarlar uchun nom (identifikator) tanlash, qiymatlar berish, echish (algoritmni) tanlash, kompyuterda hisoblashlar bajarishni modellashtirdik. Shunday qilib, yaratilgan PDV yordamida 1-sinfda “noma’lum”, “noma’lumning qiymati” kabi tushunchalarni shakllantirishni boshlash mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda PDVlarni foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim masala o‘quvchilarga ta’limning har bir bosqichida nimani qay darajada taklif qilishni aniqlashtirish hisoblanadi. Fikrimizcha, ushbu masalani hal qilish o‘quvchilarga taklif qilinadigan masalalarning murakkablik darajalariga bog‘liq bo‘lishi kerak. Ba’zan shunday bo‘ladiki, o‘quvchi boshlang‘ich sinfda 4 yil davomida faqat birgina dasturiy vosita bilan ishlaydi, lekin bajariladigan masalalarning murakkablik darajasi doimiy ortib boradi.

Kompyuter keng imkoniyatlarga ega qurilma bo‘lishiga qaramay, agar mukammal ishlangan dasturlar bo‘lmasa yoki ulardan foydalanilmasa, kutilgan pedagogik samaradorlikka olib kelmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaev M.E. Matematika o‘qitish metodikasi (Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik), Toshkent, “Turon-Iqbol”, 2016. – 426 b.
2. Pozilova Sh.X. Pedagogik dasturiy vositalar. (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent, “Nihol print”, 2021. – 148 b.

TIL TA’LIMI VA LINGVOKUKTUROLOGIYA

B.P. Zaripov, Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri dotsenti, f.f.n.
S.B.Po‘latova O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi,
O‘zbek tili va xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD), O‘zbekiston

Annoatsiya: Har qanday tilning avloddan avlodga va o‘tishi rivojlanishi uchun shu til egalarining tilga bo‘lgan hurmati va munosabati ham muhim rol o‘ynaydi. Yosh avlodga tilimizning o‘ziga xos milliy-madaniy jihatlarini ham til ta’limi jarayonida singdirib borish lozim. Chunki tilda millat ruhi yashaydi. Tilning barhayotligi-millatning bardavomligidir.

Kalit so‘zlar: til ta’limi, milliy-madaniy jihatlar, lingvokuturologiya, integratsiya.

Annotation: The language plays an important role for the development of any language. It is necessary to instill in the young generation the unique national and cultural aspects of our language in the process of language education. Because the spirit of the nation lives in the language. The survival of the language is the life of the nation.

Key words: language education, national-cultural aspects, linguo-culturalism, integration.

Аннотация: Язык играет важную роль в развитии любого языка. В процессе языкового образования необходимо прививать молодому поколению уникальные национально-культурные аспекты нашего языка. Потому что дух нации живет в языке. Сохранение языка – это жизнь нации.

Ключевые слова: языковое образование, национально-культурные аспекты, лингвокультурализм, интеграция.

O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni e’lon qilindi.[1.] Mazkur Farmonda: “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”,–deyiladi. Darhaqiqat, har qanday xalqning madaniyati, qadriyatlari o‘sha xalqning tilida ham aks etadi. Bu o‘z navbatida ta’limga, ayniqsa, til ta’limiga bo‘lgan talabni kuchaytiradi. Har bir millat o‘zida ma‘lum bir milliy an’analarni aks ettiradi. Ya’ni har bir xalqning, millatning o‘z milliy an’analari, urf-odatlari mavjud. Bu ma‘noda har bir inson ana shu milliylikni o‘zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo‘ladi. Ma’lumki, til ijtimoiy hodisa bo‘lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi kabi qator yo‘nalishlar va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi alohida soha - lingvokulturologiya yuzaga kelgan. Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta‘siri va bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida

aks etishi kabi hodisalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bir tomondan lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o‘rni, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o‘rnini o‘rganadi.[2:8.]

Til ijtimoiy hodisa bo‘lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi alohida spetsifik yo‘nalishi va predmetiga ega bo‘lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Til – madaniyatning quroli, vositasidir. U xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi. Shuning uchun ona tili o‘qituvchisi “Lingvokulturologiya” fanini mukammal bilishi va o‘zbek tilining milliy-madaniy xususiyatlarini ona tili va adabiyot darslarida singdirishi lozim. “Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi”ning “Til va adabiyot fanlari tavsifi va integratsiyasi” maqolasida shunday deyilgan: Yosh avlod ma’naviyatini rivojlantirish o‘zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari va ularni o‘zida aks ettirgan adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishtirish, milliy an’ana, bayram, urf-odatlar asosida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishni taqozo etadi. Bunda, jumladan, o‘zbek adabiyotining ixcham va go‘zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo‘shgan o‘zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o‘rganish ham ko‘zda tutiladi. Ona tili darslarida ham o‘qituvchi tilning milliy-madaniy jihatlari bilan ham tanishtirib, uqtirib borishi lozim.

Xalqlarning kelib chiqishi, tarkibi, joylashishi, turmushi, rasm-rusumlari, moddiy, ma’naviy va ijtimoiy madaniyati har xil. Shuningdek, yashash tarzi, taomlar, kiyimlar, turli xil buyumlar, urf-odatlar va hk.da o‘ziga xoslik, milliylik mavjud. Ma’lum biri xalqning geogarfik o‘rni, iqlimi, tabiatidan kelib chiqib o‘simlik dunyosi, hayvonot dunyosi bilan bog‘liq va ularga bo‘lgan munosabat bilan bog‘liq xilma-xil qarashlar mavjud ona tili darsliklaridagi matnlar ham dunyo xalqlari hayotiga oid matnlar berilgan yoki o‘zlashma so‘zlar, terminlar qaysi tildan o‘zlashgani va ularning o‘sha tildagi asl, kelib chiqish ma’nolari ustida ishlaganda milliy tilning o‘ziga xos xususiyati shu so‘z semantikasida mavjud ekanligini va ualrning ham o‘ziga xos jihatlari haqida ko‘nikma va malakalarni shakllantirish lozim.

Ona tili darsliklarida berilgan matnlar tarkibidagi milliy-madaniy jihatlar aks etgan birliklarga e’tibor qaratish bilan tilning milliy-madaniy jihatlari singdirish barobarida yosh avlodga o‘z tilini keyingi avlodlarga bus-butun yetkazishga xizmat qiladi. Bu tilning barhayotligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni.
2. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. T. 2013. 8-b.

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA BOSHLABG‘ICH SINF O‘QUVCHILAR SHAXSIDA O‘ZLIGINI ANGLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Xalilova Muxabbat Ruzmurodovna

NavDPI pedagogika-psixologiya kafedrasi pedagogika fanlari nomzodi,dotsent.Navoiy,O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson kapitalini rivojlantirishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilar shaxsida o‘zligini anglashning psixologik jihatlari ilmiy nazariy jihatdan batafsil yoritilgan. Darhaqiqat boshlang‘ich sinfdan boshlab o‘quvchi shaxsida ilk bilishga bo‘lgan intilish o‘zlikni anglash,individ, shaxs va sub’yekt taraqqiyotining ma’zmuni, shakli va metodlarining psixologik jihatdan yoritilishi tadqiqotni yanada boyitganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiylashuv jarayonlari ham o‘zlikni anglashdagi asosiy shart-sharoitlardan ekanligi maqola ma’zmunida o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: Inson kapitali, shaxs, o‘zlikni anglash,ijtimoiy muhit, bilish, rivojlanish, taraqqiyot,munosabat, muloqat

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЛИЧНОСТНОЙ КОНЦЕПЦИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения подробно объяснены психологические аспекты самосознания учащихся начальных классов в развитии человеческого капитала. В действительности стремление к познанию прежде всего личности ученика начальной школы становится важным, поскольку психологическое освещение содержания, формы и способов самосознания, развития личности, личности и субъекта обогащает исследование. Содержание статьи о том, что процессы социализации учащихся также являются одним из основных условий самосознания.

Ключевые слова: Человеческий капитал, личность, самосознание, социальная среда, знания, развитие, прогресс, отношение, общение.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PERSONAL CONCEPT OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITAL

Annotation: In this article, the psychological aspects of the self-awareness of primary school students in the development of human capital are explained in detail from a scientific and theoretical point of view. In fact, the desire to know first in the personality of the student from the elementary school becomes important because the psychological illumination of the content, form and methods of self-awareness, individual, personality and subject

development enriches the research. It is reflected in the content of the article that the socialization processes of the students are also one of the main conditions for self-awareness.

Keywords: Human capital, personality, self-awareness, social environment, knowledge, development, progress, attitude, communication.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiyaning tayanch sifatini belgilab beruvchi boshlang'ich ta'limda inson kapitalini rivojlantirish uning mazmun mohiyatini muommolarni hal etishga qaratish dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar sarasiga kiradi. Ushbu ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishda inson kapitalini rivojlantirishda boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxsida o'zlikni bilishni psixologik jihatlari deb nomlangan mazkur maqola ma'zmuniga singdirilgan jihatlar alohida amaliy ahamiyatliligi bilan ajralib turadi.

Global miqyosda boshlang'ich ta'limda inson kapitalini rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirishga, inson va uning ijodiy fazilatlari, kuchlari va qobiliyatlari, ular yordamida individda hosil bo'ladigan o'z-o'zini anglash, o'zining ichki inkoniyatlarini yuzaga chiqarishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shaxda rivojlantiriladigan o'zlikni anglash sifatlarining shakllanishi E.G'oziye ta'biri bilan aytganda qo'yidagilarni tashkil etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsining ontogenezidagi taraqqiyot bosqichlarining asosiy faoliyat munosabatlarining shakllanishi, ushbu ilmiy tarzda ifodalangan mezonlarning tarkib topishiga olib kelad.

1.Shaxsning fazilatlari, xarakterologik xislatlari.
2. Hissiy jabshalari va irodaviy sifatlari.
3. Insonning kognitiv va regulyativ imkoniyatlari.
4. Eshtiyoji, motivi, motivasiyasi, motivirovkasi.
5. Kasbiy mayli, qiziqishi, layoqati.
6. Professiogramma talablariga mosligi, kasbiy yarog'ligi.
7. Iqtidori (iste'dodi), qobiliyati, saloshiyati.
8. Kasbiy bilimlari, ko'nikmalari, malakalari, mahorati.
9. Umumiy saviyasi, dunyoqarashi, maslagi (e'tiqodi).
10. Salomatligi, jinsiy xususiyatlari, yoshi.
11. Izlanuvchanligi, ijodiy imkoniyatlari, innovasiyaga nisbatan munosabati.
12. Ijtimoiy yetukligi, tashkilotchilik qobiliyati.
13. Ekstravertligi va introvertligi.
14. Yuksak insoniy tuyg'ularga (axloqiy, aqliy, nafosat, praksik) egaligi.
15. Fidoiylik, altruistik, vatanparvarlik fazilatlari ustuvorligi va boshqalar[6..61-62].

Inson o'z-o'zini anglab yetishi, o'zini hayoti, do'stlari, jamiyat, xalqi, madaniyati, tarixini anglab yetishi, tushunishi va qadrlashi demakdir. Mana shu o'z-o'zini anglab yetish tuyg'ulari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy g'urur, milliy iftixor, milliy faxr tuyg'ulari shakllanadi.

Chunki faoliyatda yashash muhiti tarixiy tajribani egallashning intereorezasiya va ekstyeriorezasiya davrlari amalga oshadi. Va shaxs ushbu muhitda har xil rollarni bajaradi. Albatta rollarni bajarish jarayonida shaxsni shakllanganlik-moslashuvchanlik, ob'yektni to'g'ri idrok qilishi, muhim o'rin egallaydi.

Bu o'rinda inson ruhiyati qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya fanining o'rni va roli benihoya kattadir. Shu jihatdan «psixologiya» fani tarmoqlarini o'qitish o'rni va roli bugungi kunda shaxsni tadqiq etish masalasida dolzarb zamonaviy nuqtai-nazardan qaralmoqda.

Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxsiy o'z ichki ruhiy olamini bilish, o'z atrofida ro'y berayotgan islohotlarda faol qatnashish, o'zgalar ruhiyati, sir-asrorlariga befarq bo'lmaslik, o'z layoqatlarini o'stirishning elemintar vositalaridan bohabar bo'lishga yordam beradi.

Har bir kishi butun bir kitobdir, hamma gap uni tanlay olish va o'qib, tushuna bilishdadir. Individ dunyoga kelgan paytdan boshlab, tarixiy rivojlanish davrida, tashqi muhit va o'z-o'zini anglay olish qobiliyati yuzaga kelganda uning diqqatini sirli, notanish holatlar, hodisalar jalb eta boshlaydi.

Darhaqiqat buyuk Suqrot o'z zamonasida qo'yidagi haqiqatomuz g'oyalarni o'rtaga tashlagan ekan "O'z-o'zingni bil!", bugungi kunda esa ushbu hayratomuz g'oyani yoshlar ongiga singdirgan holda qo'yidagicha ifodalanishi o'rinli deb bilamiz.

"O'zingni bilish uchun avvolo o'rgan, o'rganganda ham o'qqan holatda o'rgan, o'zgalarni esa o'zligingni bilgan holatda tushun, har ikkisiga rioya qilgan holda ular mehnatini qadarla, ular qiladigan ishlarni ham bil".

Haqiqatdan ham birovni yomon ko'rishdan ko'ra uni sevish, badbaxt bo'lishdan ko'ra baxtli bo'lish, omadsiz bo'lishdan ko'ra omadli bo'lish osondir.

Zikr etilgan ushbu jihatlar inson kapitalini asosiy faktorlaridan bo'lib sanaladi. Darhaqiqat inson kapitali har bir individning yashash tarzi va imkoniyatlarini taraqqiy ettirishga olib kelib oz`-o'zini ongli va intelliktual sensor jihatdan motivatsiyani shakllantiradi.

Motivlar esa ichki imkoniyatlarini yuzaga chqarib boshlan`ich sinf o'quvchilarida yaratuvchanlik, ijodkorlik, o'z ustida ishlash va tinimiz mashq qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shu nuqtai nazardan bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilar shaxsiga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, ularda o'zini erkin namoyon qilishga undash hayotga va ertangi kunga qiziqishni shakllantirib, jamiyatimiz tomonidan berilayotgan har-bir savolga labbay deb javob berishi uchun imkon yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori.
2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli farmoni

NAMUNALI O‘QITUVCHI MEZONLARINI ISHLAB CHIQISH GLOBAL MUAMMO SIFATIDA

Jabborova Onaxon Mannapovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Saparbayeva Dinoraxon Muxtor qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang ‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: globallashuv sharoitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kompetensiyalarini chuqurlashtirish va ularni namunali o‘qituvchi sifatida tanlash muhim o‘rin tutadi. Maqolada mazkur masalalar to‘g‘risida fikr yuritilgan va namunali o‘qituvchi mezonlariningsh indiviuad yondashuvi taqdim etilgan.
Kalit so‘zlar: namunali o‘qituvchi, mezon va yondashuv, globallashuv va taraqqiyot, boshlang‘ich sinf, malaka va ko‘nikma.

РАЗРАБОТКА КРИТЕРИЕВ ПРИМЕРНОГО УЧИТЕЛЯ КАК ГЛОБАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: В условиях глобализации важно углубить компетенции учителей начальных классов и выбрать их в качестве образцовых учителей. В статье рассматриваются эти вопросы и представлен индивидуальный подход к критериям примерного учителя.
Ключевые слова: образцовый учитель, критерии и подход, глобализация и развитие, начальная школа, компетенции и навыки.

DEVELOPMENT OF CRITERIA FOR AN EXEMPLARY TEACHER AS A GLOBAL PROBLEM

Annotation: in the conditions of globalization, it is important to deepen the competencies of primary school teachers and select them as exemplary teachers. The article discusses these issues and presents an individual approach to the criteria of an exemplary teacher.
Key words: exemplary teacher, criteria and approach, globalization and development, elementary school, competence and skills.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida ta’limga oid belgilangan vazifalarni amalga oshirish mamlakatimizda muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-158-son “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish Milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qarorida *namunali o‘qituvchi mezonlarini* ishlab chiqish alohida ta’kidlangan[1]. Shu sababli bu o‘rinda e’tiboringizni namunali o‘qituvchining biz tomonimizdan tarkib toptirilgan individual mezonlari tahliliga tortamiz.

Namunali o‘qituvchining kompetentligi. Mamlakatimizda oliy ma’lumotli pedagog kadrlar faoliyat yuritmoqda. Ularning 40 foizini boshlang‘ich sinf oliy ma’lumotli o‘qituvchilari tashkil qiladi[2]. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun namuna mezonlarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi.

Namunali o‘qituvchi ijtimoiy faol, o‘z kasbining ustasi va o‘zgalarni ibrat shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Shu ma’noda bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining namunali pedagog mezonlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

1) bilimdonlik;
2) mahoratlik;
3) faollik.

Namunali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi mezonida bilimdonlik eng muhim masala hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bo‘yicha nazariy hamda metodik bilimga ega bo‘lishi kerak. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilimdonlik kompetensiyasini tarkib toptirishda ularga barcha fanlarning asoslari chuqurlashtirib o‘qitilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari Matematika fanining asoslarini chuqur o‘zlashtirishi lozim va o‘zquvchilarni dunyo miqyosida amal qilayotgan matematik tafakkur bilan qurollantirishni bilishi kerak. Shu sababli Oliy matematika kursini chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitish va bunda Matematika fani to‘garaklarining imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Namunali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining bilimdonlik mezonida o‘z bilimlaridan foydalana olish ko‘nikmasining mavjud bo‘lishi ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oliy pedagogik ta’lim jarayonida majburiy va tanlov fanlari asosida kasbiy bilimlarni egallashi taqozo etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining navbatdagi namunali mezoni bu kasbiy mahoratdir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ta’lim va tarbiya berish hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi bosqichi va turlariga tayyorlash metodikasini va texnologiyasini bilishi lozim[3]. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarga ta’lim berishda ularni bilim olamiga olib kiradi, tarbiya jarayonida esa o‘quvchilarning ijtimoiylashuvini amalga oshiradi va o‘quvchilarni faoliyatga tayyorlashda indiviudal yondashuv vositasida turli tadbirlarni o‘tkazadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchis ta’lim, tarbiya va faoliyat jihatidan mahorat egasi bo‘lishi kerak. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda mahoratli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mavjud. Ayni paytda, ularni Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish markazi orqali mahoratini chuqurlashtirish hamda eng namunali o‘qituvchilarning tajribalarini ommalashtirish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz. Shu sababli bu masalada O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Respublika ta’lim markazi maqsadli faoliyatni amalga oshirishi dolzarb bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining namunaviy mezonida ularning faol bo‘lishi ham muhim o‘rin tutadi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi jamiyatning ezgu g‘oyalarini targ‘ibot qiluvchi, ijtimoiy ishlarda namuna

bo‘luvchi va o‘quvchilarni ijtimoiy faollashtirish vazifalarini bajaradi. Jamiyatimizning innovasion rivojlanish sharoitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faol bo‘lishi o‘quvchilarni keyingi faoliyatga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy ongi, ijtimoiy bilimi va ijtimoiy faolligini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Chunki ijtimoiy faol o‘qituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun namuna vazifasini bajaradi. Bugungi kunda ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni ijtimoiy faollashtirishdan iborat ekanligini eslatib o‘tish joiz. Bunda o‘quvchilar bilan individual ishlash, ularni ijtimoiy to‘g‘ri yo‘naltirish va ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish vositasida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faollik mezoniga javob berishini ta’kidlab o‘tish lozim.

E’tibor berilsa, namunali o‘qituvchi kompetensiyasida kasbiy bildimdonlik, mahoratlik ijtimoiy faollik muhim o‘rin tutadi. Mazkur mezonlarga asosan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi baholanadi.

Namunali o‘qituvchining ko‘nikmalari. Hozirgi zamon boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, umuman o‘qituvchilar uchun xalqaro ta’lim dasturlariga asoslangan ko‘nikmalarga ega bo‘lish talabi qo‘yilmoqda. Shu sababli namunali o‘qituvchining quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi taqozo etaladi:

1) kollabaratsiya ko‘nikmasi;
2) kreativlik ko‘nikmasi;
3) kritisizm ko‘nikmasi.

Angliyaning Kembrij kollejida ishlab chiqilgan mazkur ko‘nikmalar dunyo mamlakatlari ta’lim muassasalarida qabul qilingan. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kollabaratsiya, ya’ni jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga bilim berish, ularni tarbiyalash va faoliyatga yo‘naltirish ishlarida maktab jamoasi, Pedagogik kengashi hamda mutaxassislar bilan hamkorlik qilishi muhim o‘rin tutadi. Misol uchun, Chirchiq davlat pedagogika universitetida “Maktab-laboratoriya” tajriba-sinov maydonchalari tashkil etilgan bo‘lib, unda universitetning professor-o‘qituvchilari Toshkent viloyati umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari bilan jamoaviylikda ishlash amalga oshirilmoqda. Bunday hamkorlik pedagogik ta’lim innovasion klasteri deb nomlangan bo‘lib, aynan klaster vositasida o‘qituvchilarning jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish amalga oshirilmoqda. Bunday tajribalarni ommmalashtirish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz.

Namunali o‘qituvchining navbatdagi muhim mezonlaridan biri kreativlik ko‘nikmasiga ega bo‘lishdir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi dars mashg‘ulotlari, tarbiyaviy tadbirlar va to‘garak ishlarida mutlaqo yangi yondashuvlarga hamda ijodiylikka asoslanishi lozim. Chunki ijodkor o‘qituvchi mashg‘ulotlar va tadbirlarning qizimqarli, samarali hamda jalb etuvchanligini ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu borada ayniqsa, dars jarayonini ijodiylik tamoyillari asosida tashkil qilish va o‘tish bilan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kreativlik ko‘nikmasi namoyon bo‘ladi. Aslida har bir o‘qituvchi ijodiy ko‘nikmasiga ega, lekin ularning ijodiy mahorratini muntazam oshirib borish muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining namunaviy mezonida kretisizm, ya’ni tanqidiy ko‘nikmasiga ega bo‘lish ham muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi darslik, o‘quv qo‘llanmalari va O‘qituvchi kitobida taqdim etilgan materiallarga tanqidiy munosabatda bo‘lishi kerak. Tanqidiy munosabat – bu ma’lumotlarni tahlil qilish, o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lish va ta’lim-tarbiya jarayonida indiviudal metodikani qo‘llash majmuidir. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining tanqidiy fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi asosiy mezon sifatida qabul qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday ko‘nikma Pedagoglarni kabiy rivojlantirish va yangi metodikaga o‘rgatish markazlari vositasida kuchaytirib borilishi kutilgan samarani beradi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash tajribasiga ega boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining myetodikasi va texnologiyalarini ommmalashtirish ham dolzarb bo‘lib turibdi. Mazkur masala bo‘yicha alohida yondashuv taqozo qilinadi.

Diqqat qilinsa, namunali o‘qituvchining ko‘nikmalarida jamoa bo‘lib ishlash, ijodiy yondashuv va tanqidiy fikrlash muhim o‘rin tutadi. Aynan bu ko‘nikmalar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini namoyon qiladi.

Namunali o‘qituvchi faoliyati monitoringi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-158-son “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturi to‘g‘risida”gi Farmonida o‘qituvchilar faoliyatini monitoring qilib borish vazifasi belgilangan. Shu ma’noda namunali o‘qituvchi faoliyati monitoringida quyidagi darajalarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1) qizil daraja;
2) sariq daraja;
3) yashil daraja.

Namunali o‘qituvchining faoliyati monitoringida mazkur darajaga asoslanish kutilgan samarani beradi. Unga ko‘ra, har chorakda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyat samaradorligi o‘rganib boriladi.Bunda qizil daraja namunali o‘qituvchining ta’lim va tarbiya jarayonida nisbatan samaradorlikka jrishayotganligini ko‘rsatadi. Mazkur daraja bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining namunali faoliyatini monitoring qilish tanqidiy ruhda amalga oshirilishini eslatib o‘tish joiz. Chunki qizil darajadagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining faoliyati o‘rta hisoblanadi.

Namunali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining sariq darajaga ega bo‘lishi bu ta’lim tarbiya jarayonini qoniqarli amalga oshirilayotganligini bildiradi. Unga ko‘ra, namunali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z faoliyatida Davlat ta’lim standartlari va talablariga qat’iy amal qiladi hamda ta’lim-tarbiya jarayonida texnologiyalardan oqilona foydalanadi. Bizning kuzatishimizga ko‘ra, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan boshlang‘ich sinf

o‘qituvchilarining nisbatan ko‘pchiligi sariq darajaga mansub ekanligi namoyon bo‘ldi. Shu sababli Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikaga o‘rgatish markazlari orqali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy mahoratlarini muntazam takomillashtirib borish taqozo etiladi.

Namunali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining faoliyat samaradorligi yashil darajada bo‘lsa, bu hol oliy ma’lumotli va oliy kategoriyali mutaxassis ekanligini ifodalaydi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ta’lim, tarbiya va ijtimoiy faoliyat jarayonida indiviudal texnologiyalarga asoslanadi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirganlik darajasi hamda tarbiya ko‘nikmalari izchil rivojlanib boradi. Shuni eslatib o‘tish joizki, muntazam o‘zi ustida ishlash boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining faoliyatida yashil darajaga erishish imkonini beradi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yashil darajaga ega bo‘lishi boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri ekanligini eslatib o‘tish joiz. Bu borada oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarga yetarli darajada bilim va tushuncha berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi[4].

E’tibor berilsa, namunali o‘qitvchining faoliyat monitoringi qizil, sariq va yashil darajalar asosida baholanib borilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan mamlakatimiz tuman va shaharlari rivojlanish nuqtai nazaridan ana shu darajalarga asosan baholanib bormoqda.

Shundas qilib namunali o‘qituvchi mezonlarini ishlab chiqishda mazkur masalalarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Unda o‘qituvchilarning kasbiy bilimi, mahorat ko‘nikmasi va faoliyat samaradorligiga e’tibor berish kutilgan samarani beradi. Shu sababli namunali o‘qituvchi mezonlari bo‘yicha ilmiy va metodik ishlanmalarni yaratish dolzarb bo‘lib turibdi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziyonet.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-158-son “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish Milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qarori. // www.ziyonet.uz
3. Nosirov A. Ta’lim mazmuniga qaratilgan o‘zgarishlar. // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. 2023 yil 13 iyul soni.
4. Jabborova O. Boshlang‘ich ta’limda me’yoriy hujjatlarni yuritish. – Toshkent, 2023

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLAR TIPOLOGIYASI

Umarova Zuxra Abduraxmanovna

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta ‘lim metodikasi” kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya: maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlar tipologiyasini tadqiq etish zaruriyati, asoslari va ahamiyati masalalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: umumiy o‘rta ta’lim, maktab va tarbiya, pedagogik konfliktlar, tipologiya va yondashuv, tahlil va xulosa.

ТИПОЛОГИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНФЛИКТОВ В ОБЩЕЙ СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ

Аннотация: в статей пронализировано вопросы необходимост, основы и значение изучение педагогические типологии в общей средней школах.

Ключевые слова: общеобразования, школа и воспитания, педагогические конфликты, типология и подходы, анализ и заключения.

TYPOLOGY OF PEDAGOGICAL CONFLICTS IN GENERAL SECONDARY SCHOOL

Annotation: the article analyzes the need, foundations and significance of studying pedagogical typologies in general secondary schools.

Key words: general education, school and education, pedagogical conflicts, typology and approaches, analysis and conclusions.

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” va O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish strategiyasi negizi asosida ishlab chiqilgan *“O‘zbekiston-2030” strategiyasida* 2030- yilga qadar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini butunlay yuksaltirish va bu borada muhim tadqiqot ishlarini amalga oshirish vazifalari qo‘yilgan [1]. Shu jihatdan umumiy o‘rta ta’lim maktablari ta’lim va tarbiya jarayonida uchraydigan pedagogik konfliktlarni aniqlash, ularni oldini olish hamda muntazam bartaraf etib borish ham mazkur vazifalarning ijrosida muhim o‘rin tutadi. Chunki pedagogik konfliktlar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirish jarayonida muayyan motivatsiya vazifasini bajaradi [2]. Shu sababli bu o‘rinda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlar *tipologiyasi* muammosini o‘rganish va uning muhim tarkibiy qismlarini belgilash masalasi tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

“Tipologiya” tushunchasi muayyan muammoning o‘ziga xos xususiyatlari, omillari va ularning ta’sir ko‘lamini yaxlit holda o‘rganish ma’nosini anglatadi[3]. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlar tipologiyasi deganda *ularning tarkibi, turlari va tabiati majmuini* nazarda tutish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur o‘rinda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlarni *tadqiq etishning* eng muhim yo‘nalishlari tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlar tipologiyasining nazariy masalalarini tadqiq etish. Bugungi kunda mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning

nazariy masalalarini tahlil qilish va bu masala bo‘yicha xulosalarga kelish dolzarb bo‘lib turibdi. Bunda quyidagi masalalarga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) pedagogik konfliktlar tipologiyasi xususiyatlarini o‘rganish;

b) pedagogik konfliktlar tipologiyasini o‘rganish tajribasini tahlil qilish;

v) pedagogik konfliktlar tipologiyasini o‘rganish zaruriyatini asoslash.

Bu masalalar tahlili pedagogik konfliktlarning umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uchraydigan tiplarini aniqlab olish imkonini beradi. Bunda muammoning qo‘yilishi, ularning ahamiyati va pedagogik konfliktlarni o‘rganish tajribasining xususiyatlari belgilab olinadi. Natijada tadqiq uchun tanlangan muammoning nazariy masalalarini belgilab olish imkoniyatiga ega bo‘linadi. Mazkur masalalar bo‘yicha bizning individual yondashuvlarimiz mavjudligini eslatib o‘tish joiz.

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlar tipologiyasini tadqiq etish. Bu masala bo‘yicha asosiy tadqiqot amalga oshirilishi dolzarb bo‘lib turibdi. Chunki bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlar tiplari bo‘yicha yaxlit tadqiqot mamlakatimizda mavjud emas [4]. Shu ma’noda mazkur muammoni tadqiq etishda quyidagilarga e’tiborni qaratish kutilgan samarani beradi:

a) umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning tarkibini aniqlash va tahlil qilish;

b) umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning turlarini tizimlashtirish va tadqiq etish;

v) umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning tabiatini (muddati va holati, ijobiyligi va salbiyligi, ichki yoki tashqi ta’sirga asoslanishi kabilarni) tadqiq etish va xulosalarga kelish.

Bunday yondashuv umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning tipologiyasini aniqlash, tarkiblarini o‘rganish, ularning turlarini tizimlashtirish hamda tabiatini tadqiq etish imkoniyatlarini beradi. Shuni ta’kidlash lozimki, mazkur muammoni tadqiq etishda quyidagi ikki tajribaga tayanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi:

pedagogik konfliktlar bo‘yicha o‘zbek pedagog olimlarining tadqiqotlarida ilgari surilgan qarashlar va tavsiyalarni hisobga olish;

pedagogik konfliktlar tipologiyasi bo‘yicha xorijiy pedagog olimlarning yondashuvlari va tajribalarini hisobga olish.

Bu ikki metodologik asos mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning tipologiyasi muammosini ilmiy, nazariy va metodik jihatdan tadqiq etish imkonini beradi. Shu sababli bu borada biz ana shunday aniq metodologik tayanchlarga tayanish tadqiqotning negizini tashkil etadi, degan yondashuvdamiz.

3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlar tipologiyasini bartaraf etish tizimi. Bu muammo ham bugungi kunda muhim ahamiyatga ega va u yangicha yondashuvlar asosida tadqiq etilishi lozim. Shu jihatdan mazkur muammoni tadqiq etishda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlarni ta’lim jarayonida bartaraf etish muammosini tadqiq etish va tegishli metodik tavsiyalarni ishlab chiqish;

b) umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlarni tarbiya vositasida bartaraf etish muammosini tadqiq etish va tegishli texnologik tavsiyalarni ishlab chiqish;

v) umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlarni maxsus bartaraf etish muammosini tadqiq etish va tegishli mexanizmlarni ishlab chiqish.

Bunday yondashuv umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlar tipologiyasini bartaraf etishning o‘ziga xos ilmiy, metodik va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Shu sababli mazkur masala bo‘yicha individual yondashuv asosida tadqiqot ishini amalga oshirish kutilgan samarani beradi.

E’tibor berilsa, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlar tipologiyasi muammosini tadqiq etishda uning nazariyasi, tipologik ko‘rinishlari va ularni bartaraf etish tizimi muammolarining o‘rganilishi muhim ahamiyatga egadir. Buning natijasida pedagogik konfliktlar tipologiyasi bo‘yicha yaxlit tadqiqotga ega bo‘lish mumkin bo‘ladi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, mazkur muammoni tadqiq etish quyidagi jihatlari bilan dolzarbdir:

1) mamlakatimizda pedagogik konfliktlar muammosi bo‘yicha maxsus va yaxlit tadqiqot amalga oshirilgan emas;

2) umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uchraydigan pedagogik konfliktlar tipologiyasini o‘rganish bilan ta’lim va tarbiya jarayonida uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning nazariy, amaliy va metodik jihatdan yaxlit yondashuvlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘linadi;

3) umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlarni aniqlash, konfliktogenlarning manbaalarini belgilash, uni monitoring qilib borish va salbiy xususiyatlarini yumshatish mexanizmlari tarkib toptiriladi.

Bularning barchasi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlar tipologiyasi muammosini o‘rganishning dolzarbligini belgilaydi.

Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik konfliktlar tipologiyasi bo‘yicha kompetensiyalarini shakllantirish masalalari ham tadqiq etilishini taqoza etadi. Shu jihatdan bu masalala quyidagi metodologik jihatdan yondashish bizningcha, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1) o‘qituvchilarning pedagogik konfliktlar tipologiyasi bo‘yicha vazifalarini ishlab chiqish;

2) sinf rahbarlarining pedagogik konfliktlar tipologiyasi bo‘yicha vazifalarini ishlab chiqish;

3) maktab Pedagogik kengashining pedagogik konfliktlar tipologiyasi bo‘yicha vazifalarini ishlab chiqish.

Bu masalalarni ilmiy va metodik jihatdan hal etish qo‘yilayotgan muammo tadqiqotida muhim ahamiyatga egadir.

Shunday qilib umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik konfliktlar tipologiyasi muammosini keng ko‘lamli o‘rganish ta’lim sifatini yuksaltirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishishdagi muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli mazkur muammo bo‘yicha yaxlit tadqiqotga ehtiyoj mavjudligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziyonet.uz.
2. Umarova Z. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish. – Toshkent, 2022
3. Djurayev R. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. –Toshkent, 2008
4. Axmedova M. Pedagogik konfliktologiya. –Toshkent, 2020

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SO‘Z MA’NOSI USTIDA ISHLASH ORQALI O‘QUVCHILARNI AQLIY FAOLIYAT USULLARIGA O‘RGATISH

Ravshanova Ra’no Xandamovna

f.f.f.d.(PhD), Navoiy davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida so‘z ma’nosi ustida ishlash orqali o‘quvchilarni kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullaridan unumli foydalanish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘z: aqliy faoliyat, so‘z ma’nosi, mustaqil fikr, kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish.

ОБУЧЕНИЕ МЕТОДАМ УМСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ РАБОТУ НАД ЗНАЧЕНИЕМ СЛОВ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективное использование таких методов умственной деятельности, как наблюдение, сравнение, группировка и обобщение учащихся, при работе над значением слов на уроках родного языка в начальных классах.

Ключевые слова: мыслительная деятельность, значение слова, самостоятельное мышление, наблюдение, сравнение, группировка, обобщение.

TEACHING METHODS OF MENTAL ACTIVITY TO STUDENTS THROUGH WORK WITH THE MEANING OF WORDS IN NATIVE LANGUAGE LESSONS IN THE PRIMARY CLASS

Annotation: This article discusses the effective use of such methods of mental activity as observation, comparison, grouping and generalization of students when working on the meaning of words in native language lessons in primary school.

Key words: mental activity, word meaning, independent thinking, observation, comparison, grouping, generalization.

Ma’lumki, ona tili ta’limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ona tili ta’limiga o‘quv fani emas, balki, butun ta’lim tizimini uyushtiruvchi ta’lim jarayoni sifatida qaraladi.[1]

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit maktab ta’limi oldiga mustaqil fikrlay oladigan, har qanday o‘quv qiyinchiliklarini mustaqil yenga oladigan shaxsni tarbiyalashni bosh vazifalardan biri qilib qo‘ydi. Ona tili ta’limi oldida turgan bu asosiy vazifa o‘quvchilarda aqliy faoliyat ko‘rsatishni, *kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish* kabi aqliy faoliyat usullaridan unumli foydalana olishni talab etadi. Aqliy faoliyat usullariga o‘rgatish, avvalo, o‘quvchini ta’lim jarayonining subyekti (faol ishlovchisi)ga aylantirishni taqozo etadi. O‘quvchi ta’lim jarayonining faol ishlovchisiga aylansagina, u til hodisalarini kuzatib, taqqoslab, ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlarni aniqlaydi, muayyan belgilariga qarab guruhlarga ajratadi. Har bir guruhni qanday qilib mustaqil davom ettirish mumkinligini anglab etadi, shaxsiy kuzatishlarga asoslanib, hukm va xulosalar chiqara oladi. O‘quvchini ta’lim jarayonining subyektiga aylanishi, o‘qituvchini bu jarayondan chetda qoldirmaydi, aksincha, uning ta’sirini kuchaytiradi. Bu murakkab jarayonda o‘qituvchi nafaqat nazoratchi, balki tashki-lotchiga, bevosita o‘quvchi faoliyatining boshqaruvchisiga aylanadi.

Kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish o‘zaro chambarchas bog‘langan shunday aqliy faoliyat usullariki, ta’lim jarayoni ularning barchasini zaruriyatga aylantiradi. Ayni vaqtda bu faoliyat usullarining birortasi e’tibordan chetda qolsa, ikkinchisi ko‘zlangan natijani bermaydi. Til hodisalarini taqqoslash uchun ularni diqqat bilan kuzata olmoq, guruhlash uchun qiyoslay olmoq, xulosa va hukmlar chiqarmoq uchun kuzatilgan, qiyoslangan va guruhlanganlarni umumlashtira olmoq talab etiladi[2].

Suz ma’nosini tushunishda berilgan so‘zlarni (masalan, *ko‘k, daftar, ko‘p, chiroyli, yozmoq, baland, bino, ko‘tarilmoq, o‘nta, qush uchmoq* va h.k.) ifodalab kelgan ma’nosiga qarab: narsa-buyum, belgi-xususiyat. miqdor va harakatni anglatgan so‘zlar guruhiga ajratish, bu guruhlarni mustaqil davom ettirib, so‘zlarning ma’nolarini sharhlash ijobiy natija ko‘rsatadi. “So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari” o‘rganishda ham o‘qituvchi o‘quvchilarning aqliy faoliyat usullariga tayanib ish ko‘radi. O‘quvchilar oltin, temir, kumush singari modda- ma’dan nomlarining asl ma’nosini yaxshi bilishadi. Ulardan bu so‘zlarni o‘z ma’nosida va ko‘chma ma’noda qo‘llab, so‘z birikmalari hosil

qilish (masalan, *oltin bosh, oltin kuz* va h.k.) talab etiladi. Shundan so‘ng qiyoslash usulidan foydalanib, ular o‘z va ko‘chma ma’noli so‘zlar singari guruhlarga ajratiladi va “so‘zning o‘z ma’nosi” hamda “so‘zning ko‘chma ma’nosi” singari tushunchalarga o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda ta’rif chiqariladi.

Berilgan so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llab gaplar tuzish, o‘qilgan badiiy asarlardan parchalar tanlab, ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlarni aniqlash, hayvon nomlari, o‘simlik nomlari yoki qarindosh-urug‘chilikni ifodalovchi nomlarni ko‘chma ma’noda qo‘llab gaplar qurish va matnlar yaratish singari ijodiy-amaliy ishlar ham o‘quvchilarning fikrlash faoliyatiga tayanib bajariladi. Ona tilidan har bir mashg‘ulot til hodisalarining tahlili bilan boshlanib, matn yaratish bilan yakunlanishi kerak. Bu imkoniyat, ayniqsa, leksikologiyani o‘rganishda benihoya katta. O‘quvchilar “so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari” xususida umumlashma hosil qilishgach, ulardan “Bozorda”, “Avtobusda” singari mavzularda matnlar tuzish, qarindosh-urug‘chilikka oid nomlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash talab etiladi.

“Ma’nodosh so‘zlar” ni o‘rganish ham o‘quvchilarni fikrlashga undash orqali boshlanadi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun berilgan gaplardagi ajratilgan so‘zlarni shu ma’noni ifodalovchi boshqa so‘zlar bilan almashtirish(masalan, Toshkentimiz ***chiroyli*** shahar – Toshkentimiz ***go‘zal*** shahar – Toshkentimiz ***ko‘r-kam*** shahar va h.k.), so‘zlarni ma’no yaqinligiga ko‘ra guruhlash (masalan, *abadiy–mangu–toabad–umrbod*), berilgan gaplardagi har bir so‘zni birin-ketin uning ma’nodoshi bilan almashtirib, mazmunan yaqin, shaklan boshqa xil gaplar hosil qilish hamda ma’no farqlarini tushuntirish singari fikrlash faoliyatiga asoslangan mustaqil ish turlaridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Ayniqsa, so‘zning ijobiy va salbiy bo‘yog‘i gap ma’nosiga qay darajada ta’sir etishini o‘quvchiga anglatish uchun avval kuzatish va so‘ngra qiyoslash usulidan foydalaniladi. Masalan, “Bola bu gapga kulib qo‘ydi” jumlasidagi ***“kulib qo‘ydi”*** birikmasi ***“tabassum qilib qo‘ydi”, “tirjayib qo‘ydi”*** birikmalari bilan almashtirilsa, gap mazmunida ma’lum darajada yoki keskin o‘zgarish yuz beradi. Gapning hosil bo‘lgan bu shakllari o‘zaro qiyoslanib, ma’nodagi farq aniqlanadi.

Berilgan murojaat so‘z birikmalari qatorini davom ettirish ham o‘quvchilar so‘z boyligini oshirishda o‘ta muhimdir. Agar ularga ***“Mehribon onajonim”*** yoki ***“Aziz otajonim”*** singari murojaat so‘z birikmalari berilgan bo‘lsa, bu birikmalarning har biri *“mushfiq volidam, mehribon onaizorim, uyqusiz tunlar hamdamim, oq sut bergan azizim, hayot bergan farishtam”* yoki *“tabarruk qiblagohim, ka’bai maqsudim, egilmas pushtipanohim, padari buzrukvorim, toji sarvarim”* singarilar bilan davom ettiriladi. Bu o‘rinda sinf zukkolariga qatorlarni mustaqil ravishda davom ettirish, qolganlariga esa aralash holda berilgan murojaat so‘z birikmalarini ma’no yaqinligiga ko‘ra guruhlash topshiriladi.

O‘quvchilar nutqining sinonim so‘zlarga qashshoqligi sababli, ular uchun mo‘ljallangan maxsus “Sinonim so‘zlarning izohli lug‘ati” daftarini tashkil etish hamda doimiy ravishda bu lug‘atni to‘ldirib borishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

So‘zlarda ma’no darajalanishi(gradonomiya) har jihatdan ma’nodosh so‘zlarga yaqin turadi. Chunki har bir gradonomik qatorda muayyan so‘z o‘zidan keyingi so‘zlar bilan sinonimik munosabatga kirishishi mumkin. Masalan, *uy, xona, oddiy darajadagi so‘z sanalsa, kapa, katalak, kulba, hujra* singari so‘zlarda ma’no yuqoridan pastga qarab darajalangan. Aksincha, *qasr, saroy, koshona* singari so‘zlarda esa ma’no pastdan yuqoriga qarab darajalanib borgan. Bu so‘zlarning barchasi bir gradonomik qatorni tashkil etadi. Shuni nazarda tutib, so‘zlarning bu xususiyati haqida mazkur mavzuni o‘rganishda ma’lumot beriladi.

“Uyadosh so‘zlar” ni o‘rganish qatorlarga ajratib berilgan so‘zlarni o‘qib, bu qatorlar nima asosida birlashayotgani haqida hukm chiqarish bilan boshlanadi. O‘quvchilar umumiy ma’noli so‘zlarning xususiy ma’nolari berilgan qatorlarni (masalan, *daraxt: archa – qayin – qayrag‘och – tol – terak – majnuntol – mirzaterak – chinor – qarag‘ay – gujum; yurmoq: yugurmoq – chopmoq – yelmoq – emaklamoq – siljimoq – sudralmoq*...) kuzatib, bu so‘zlar bir uyaga yoki bir umumiy ma’no ostida birlashayotganligini aniqlaydilar.

Keyingi bosqichda bu ish o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda bajarilishi mumkin. Chunonchi, mevali daraxtlar, ko‘katlar, uy hayvonlari, poliz ekinlari, bosh kiyimlari, yashash joylari, bilmoq, bermoq, olmoq singari umumiy ma’noli so‘zlarning uyadoshlarini aniqlash shular jumlasidandir. O‘quvchilarning o‘zi yashab turgan joydagi keng tarqalgan uzum, qovun, olmalarning turlarini atovchi uyadoshlarini topishlari ham yuqoridagi ishlar sirasiga kiradi.

Har bir o‘quvchi uyadosh so‘zlarni bilishi, ayniqsa, matn yaratish uchun o‘ta muhimligini tushunib etmog‘i kerak. Chunki gullarning turlarini atovchi so‘zlarni bilmay turib, “Gulzorda” mavzusida yoki qovunning uyadoshlarini bilmay “Polizda” mavzuida matn yaratish mumkin emas.

Uyadosh so‘zlar nutq uchun nodir ma’no va ifodalar xazinasi sanaladi. Har bir o‘quvchi bu boylikni to‘ldirishi uchun muttasil o‘qib - o‘rganmog‘i kerak.

Xullas, so‘z ma’nosiga oid har bir mashg‘ulot o‘quvchilarning aqliy faoliyatini ishga solishga undashi lozim. Shunday qilingandagina o‘quvchi ta’lim jarayonining subyekti (faol ishlovchisi) bo‘la oladi. Bu yo‘l bilan egallangan bilimlar, shubhasiz, o‘quvchining “shaxsiy mulkiga” aylanadi.

Adabiyotlar

1.M.Y.Ro‘ziyeva. Ona tili va o‘qish darslarida innovtsion texnologiyalardan foydalanish. Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2018, 4-b.

2.A.G‘ulomov, M.Qodirov va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, Fan va texnologiya, 2012, – B. 380.

БАСТАУЫШ СЫНЫП ОҚУШЫЛАРЫНЫҢ ШЫҒАРМАШЫЛЫҒЫНДАҒЫ ҚАБІЛЕТТІЛІКТЕРДІҢ ДАМУ ЖОЛДАРЫ

Бектаева Нурила Турсыналықызы
Шымкент университеті, магистр, аға оқытушы
Керимбекова Акбаян Айткуловна
Авимед көпсалалы колледжі, магистр, аға оқытушы

Түйіндеме: Мақалада әр баланың жеке ерекшеліктерін ескеру, әр баланың қабілетінің ерекшеліктерін анықтау, оны жетілдіру, болашақ ұрпақ бойына қалыптастыру және одан әрі дамытудың жолдарын қарастыру мәселелері қарастырылған.
Тірек сөздер: шығармашылық, оқу, әрекет, критерий, белсенділік, жаңғырту әдісі, қабілет.

ПУТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В статье рассматриваются учитывать индивидуальные особенности каждого ребенка, определять особенности способностей каждого ребенка, находить пути их совершенствования, формирования и дальнейшего развития у будущих подрастающих поколений.
Ключевые слова: творчество, обучение, действие, критерий, деятельность, метод репродуктивности, способность.

DEVELOPMENT WAYS OF CREATIVE ABILITIES OF PRIMARY GRADE STUDENTS

Annotation: The article considers taking into account the individual characteristics of each child, determining the characteristics of each child's abilities, finding ways to improve them, form and further develop future younger generations.
Keywords: creativity, learning, action, criterion, activity, method of reproduction, ability.

Қазіргі таңдағы ұстаздың міндеті – оқушыны зерттеу, икемділігін анықтау, бағыт – бағдар беру, үйрету, қызықтыру және нәтижеге қол жеткізу, ынталандыру. Қажет кезінде ата –анамен тығыз байланыс орнатып, оқушының жұмыстарын көрсетіп, бағыт – бағдар беріп, ақылдасуға болады.

Оқушылардың шығармашылық қабілеттерін дамыту мәселесін қарастырмас бұрын, "шығармашылық", "қабілеттер" және "шығармашылық қабілеттер"сияқты ұғымдарға тоқталу керек.

Шығармашылық дегеніміз не? Бұл әрқашан даралықтың көрінісі, бұл жеке тұлғаның өзін-өзі жүзеге асырудың бір түрі, бұл әлемге деген ерекше, ерекше көзқарасын білдіру мүмкіндігі. Алайда, адамның табиғатына тән шығармашылыққа деген қажеттілік, әдетте, өмір бойы толығымен жүзеге асырылмайды[1].

Бала, ересек адам сияқты, өзінің "менін" білдіруге тырысады. Көбінесе ересектер әр баланың шығармашылықпен туылатынына сенеді, егер оған кедергі болмаса, ерте ме, кеш пе олар міндетті түрде пайда болады. Бірақ тәжірибе көрсеткендей, мұндай араласпау аз: барлық балалар жасампаздыққа жол аша алмайды. Шығармашылық қабілеттерін әркім ұзақ сақтай алмайды.

Дәл осы мектеп жылдарында балалардың шығармашылық қабілеттерінің маңызды сәті келеді. Демек, бұл дағдарысты жеңу, өзін-өзі жүзеге асыру мүмкіндігін жоғалту емес, табу үшін мұғалімнің көмегі бұрынғыдан да қажет мектеп кезеңінде.

Шығармашылық-бұл жаңа идеялардың пайда болуы, көп нәрсені үйренуге, басқаша ойлауға және оны жақсартуға деген ұмтылыс.

Шығармашылық-бұл адамның қажеттілігі. Шығармашылық адамдар қартайғанға дейін үлкен өмірлік энергияға ие екендігі байқалады, ал адамдар бәріне немқұрайлы қарайды, ештеңеге құмар емес, жиі ауырады және тез қартаяды.

Шығармашылық өмір салты жалғыздықтың артықшылығы емес, бұл қоғамның қалыпты өмір сүруі мен дамуының жалғыз жолы. Бірақ бұл, өкінішке орай, бәрі бірдей біле бермейді. Бізге үлкен жауапкершілік жүктеледі – баланың бойында адам, тұлға болуы үшін шығармашылық принципті дамыту[2].

Педагогика тарихында шығармашылық мәселесі әрқашан ең өзекті мәселелердің бірі болды. Алайда, осы уақытқа дейін мәселе теорияда аз зерттелген және ата-ана тәрбиесінде аз ұсынылған. Бұл осы құбылыстың күрделілігіне, шығармашылық механизмдерінің жасырындығына байланысты. Әдетте, шығармашылықтың барлық анықтамаларында Шығармашылық-бұл ғылым, өнер, техника, өндіріс және ұйымдастыру саласында жаңа, ерекше өнім жасауға бағытталған адамның қызметі. Шығармашылық өзінің табиғаты бойынша Сізден бұрын ешкім жасамаған немесе жаңа тәсілдермен жақсы нәрсе жасауға деген ұмтылысқа негізделген[3].

Психологтар шығармашылықты бұрыннан бар білімнен тыс шығу, шекараны еңсеру, аудару деп анықтайды. Бұл адамның белсенді және тәуелсіз іс-әрекетінің ең жоғарғы түрі. Шығармашылықта өзін-өзі көрсету, баланың жеке басын ашу жүзеге асырылады.

Психологтар барлық балалардың әр түрлі шығармашылық қабілеттері бар деген пікірге бұрыннан келді. Шығармашылық әлеует әр адамға тән және бар. Қолайлы жағдайларда әр бала өзін көрсете алады. Баласыз балалар жоқ. Мектептің міндеті-бұл қабілеттерді қол жетімді және қызықты іс-шараларда анықтау және дамыту. Белгілі педагог И. П. Волков бір кездері "қабілеттерді дамыту дегеніміз – баланы іс-әрекет тәсілімен қаруландыру, оған кілт, жұмысты орындау принципін беру, оның дарындылығын анықтау және гүлдену үшін жағдай жасау"деген пікірін білдірді.

Психологтар "біреу" болу, "бір нәрсеге" қол жеткізу үшін балалық шақта көп нәрсені байқап көру керек деп санайтындықтан, осыған сәйкес мұғалімдердің міндеті белгіленеді: баланы мүмкіндігінше ерте жастан бастап әртүрлі іс-әрекеттермен айналысу үшін қолайлы жағдайлар жасау, осылайша бала қолдарымен өзін қалыптастырады әр түрлі әрекеттерге деген сезім мен көзқарас.

Шығармашылық қызметтің белгілері мен критерийлері-өнімділік, стандартты емес, өзіндік ерекшелік, жаңа идеяларды қалыптастыру қабілеті, "жағдайдан шығу" мүмкіндігі, нормативтен тыс белсенділік. Бірақ, өкінішке орай, әлі күнге дейін алғашқы еңбек оқытуында репродуктивті әдістер басым және көбінесе баланың шығармашылық мүмкіндіктері, оның өз бетінше, бастамашыл жұмыс істеу қабілеті мен тілегі бағаланбайды. Сондықтан мен оқушының шығармашылығы деп оның өзіндік өнімін жасауды түсінетінімді түсіндіруім керек, оның жұмыс барысында үйренген білімі, дағдылары, дағдылары дербес қолданылады. Өйткені, шығармашылық, даралық, өнер оқушының берілген үлгіден ең аз шегінуінде де көрінеді.

Шығармашылық-баланың дамуындағы өте маңызды сәт. Бала қоршаған әлемнің сұлулығы мен алуан түрлілігін көргенде жақсы. Бірақ егер ол бұл сұлулықты байқап қана қоймай, оны жасаса, одан да жақсы. Нәтиже бала үшін эстетикалық эмоционалды тартымды, өйткені ол бір немесе басқа сүйікімді нәрсені өзі жасады. Бала өз қолымен Сұлулық жасай бастағаннан кейін, ол біздің әлемге деген сүйіспеншілік пен қамқорлықпен қарай бастайды. Махаббат пен үйлесімділік оның өміріне енеді.

Шығармашылық-бұл сіздің жеке басыңызды, ойлауыңызды, санаңызды, интеллектіңізді үнемі жетілдіріп отыру және жаңа нәрсе жасауға, бұрынғыдан да көп және жақсырақ жасауға ұмтылу. Шығармашылық қызметте адам дамиды, әлеуметтік тәжірибе жинақтайды, өзінің табиғи дарындары мен қабілеттерін ашады, мүдделер мен қажеттіліктерді қанағаттандырады.

Шығармашылық тұлға-бұл елдің ұлттық қазынасы және шынайы байлығы. Шығармашылық тұлға басқалардан нормалардан асып кетуге деген ұмтылысымен ерекшеленеді.

Шығармашылық даралықты жобалау, дамыту және қалыптастыру бұл үшін арнайы мүмкіндіктер жасауды ұсынады. Адамның ең жақсы қасиеттерінің барлығы өмірге шығармашылық көзқарас пен өзін-өзі қозғау үшін барабар әлеуметтік жағдайлар болған жағдайда ғана дамиды. Балалармен жұмыс жасай отырып, біз олардың табиғи әлеуетін ашып, өнімді еңбекке дайындауымыз керек[4].

Балалардың шығармашылық ойлау қабілетін дамыту үшін табиғи шығармашылық дарындарды ашуға және дамытуға ықпал ететін шығармашылық, оқу іс-әрекетінің жағдайын үнемі жасау қажет.

Біз шамамен бірдей жағдайларға ұшыраған әртүрлі адамдардың әртүрлі жетістіктерге жететінін түсінуге және түсіндіруге тырысқанда, біз "қабілет" ұғымына жүгінеміз.

Оқушыларды шығармашылыққа баулу үшін тағы бір қажеттілік – оларды психологиялық дайындықтан өткізу, яғни шабытын оятып, құлшындырып, еліктіріп отырып, «сенің қолыңнан бәрі келеді екен ғой», «өзің де бәрін біліп, үйреніп аласың» деп олардың кішкентай жетістіктерін мадақтап, көтермелеп отыру керек.

Бастауыш мектепте шығармашылық қабілеттіліктері оқу әрекетінде көрінеді. Оқу әрекетінде мұғалім мен оқушы тығыз байланыста болуы керек. Ол үшін мұғалім бар күш – жігерін, педагогикалық шеберлігін оқушы бойындағы табиғи мүмкіндіктерді ашуға, үйлесімді дамытуға бағыттауы, шығармашылық жағдай жасауы қажет. Менің байқағаным, бастауыш сыныптарда шығармашылықпен жұмыс істеуге үйренген оқушы жоғарғы сыныптарда шығармашылық жұмыстың қай түріне болсын бейім болады және дұрыс жол табу үшін дұрыс ой түйіп, өздігінен сапалы, дәлелді шешімдер қабылдай білуге тырысады. Оқушы не нәрсені болса да білуге құмар, қызыққыш, қолымен ұстап, көзбен көргенді жақсы көреді. Оқушылардың қызығуын арттыру жақсы ұйымдастырылған сабаққа байланысты. Сонымен оқушылардың шығармашылық қабілеттерін дамытуда қажетті жағдайлардың мазмұнына тоқталмақпыз:

- Мұғалім ең алдымен, сыныпта шығармашылық көңіл – күй тудыру арқылы оқушылардың назарын бір нәрсеге бағыттау керек, яғни, оқушылардың назарын шығармашылық арнаға бұру үшін, үнемі шығармашылық тапсырма – міндеттер, жаттығу, ойын түрінде ұсынған жөн.
- Шығармашылық жаттығу, ойын – тапсырмалардың мазмұны жеткіншектердің жас ерекшелігіне, қызығушылығына үйлесуі керек.

Шығармашылықты тежейтін үш нәрсе бар: бірінші – «сәтсіздікке ұшыраймын, қолымнан еш нәрсе келмейді» деген қорқыныш сезімі, екінші - өзіне - өзі тым риза болмаушылық сезімі, үшінші – жалқаулық. Ондай жағдайда баланы құтқарудың жолдары:

- Оқушылардың шығармашылықпен айналысуына мектепте, сабақ үстінде, үйде қолайлы жағдай жасау;
- Шығармашылық бағытқа баланы жүйелі, саналы түрде қалыптастырып отыру.

Оқушыларды шығармашылық жұмысқа баулып, олардың белсенділіктерін, қызығушылықтарын арттыра түсіру үшін шығармашылық қабілеттерін сабақта және сабақтан тыс уақытта дамытуда әртүрлі әдіс – тәсілдерді қолдау болып табылады.

Баланың шығармашылық әрекетін ұйымдастыру барысында бала өзінің бұған дейінгі білетін амал-тәсілдерінің жаңа мәселені шешуге жеткіліксіз екенін сезетіндей жағдайға түсуі керек. Содан барып оның білім алуға деген ынта-ықыласы артады, білім алуға әрекеттенеді.

Әрбір мұғалімнің басты міндеті - оқушының жеке басының қасиеттерін, қабілеттерін дамытып, талантын, шығармашылығын ашу. Ұлы ғалым Д.И.Менделеев мұғалімдердің ғылымның сарқылмас көзін ашудағы еңбектерін жоғары бағалаған. **«Ғылымды сүйген және жақсы меңгере білген мұғалім ғана оқушыларына терең де мағыналы білім бере алады»** деген. Болашақта өркениетті елдердің жоғары технологиясын меңгерту, дүниежүзілік білім кеңістігіне шығу – бүгінгі күннің мақсаты.

Пайдаланылған әдебиеттер:

1. Қисымова А.Қ., Нұрланов Е.Б. Біртұтас педагогикалық процесте сабақтың технологиялық картасын құрудың үлгісі. // Әлеуметтік жаңғырту жағдайында білім беру жүйесін жетілдіру. Халықаралық ғылыми практикалық конференциясының материалдар жинағы.(Астана, 6-7 желтоқсан, 2013). Б.341-346
2. «Қазақстан мектебі» журналы. № 9 2019 жыл.28 бет
3. « Қазақстан мектебі»журналы №11-12 2017 жыл
4. С. Қарапаев. Оқушылардың шығармашылық қабілеттерін тәрбиелеу маңызы. /Бастауыш мектеп. 2016, №1.

TA’LIM DADIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

p.f.n., dotsent Suyunov M.
Navoiy davlat pedagogika instituti,O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida didaktik vositalardan foydalanishning ahamiyati xususida so‘z yurilgan. Ona tilini o‘qitishdan asosiy vazifa o‘quvchilarni erkin, ijodiy, mustaqil fikrlarini og‘zaki va yozma shaklda, adabiy til me’yorlari asosida to‘g‘ri ifodalay oladigan, adabiy nutq me’yorlarini egallagan yetuk kadrlarni tarbiyalab yetkazishdir degan g‘oyalar ilgari surilgan. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarni qiziqtiradigan borliq, tabiat hodisalari, hayvonot va o‘simliklar dunyosi, vatanimiz o‘tmishi, buyuk ajdodlari haqida, tengqurlari haqida ma’lumot beruvchi matnlar, gaplar, mazmunli rasmlar asosida tashkil etish ijobiy natijalarga erishtishi ta’kidlangan

THE IMPORTANCE OF USING DIDACTIC MATERIALS IN THE LESSONS OF MOTHER TONGUE.

Absract: This article talks about the importance of using didactic tools in mother tongue classes. The main task of teaching the mother tongue is to enable students to freely, creatively and independently express their thoughts in oral and written form, based on the norms of the literary language, to have the ability to express what they think in different situations, to be literary. the idea that it is to bring up mature personnel who have mastered the standards of speech has been put forward. It has been noted that in the mother tongue classes, organization based on texts, sentences, and meaningful pictures that inform about the existence, natural phenomena, animal and plant world, the past of our country, great ancestors, and contemporaries will achieve positive results.

Key words: Knowledge, skills and abilities, free, creative, texts, sentences, meaningful pictures, patriotic, creative.

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКОГО МАТЕРИАЛА НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В данной статье говорится о важности использования дидактических средств на занятиях родным языком. Основная задача обучения родному языку – дать возможность учащимся свободно, творчески и самостоятельно выражать свои мысли в устной и письменной форме, исходя из норм литературного языка, иметь возможность выражать то, что они думают в различных ситуациях, быть литературным. выдвинута идея о воспитании зрелых кадров, владеющих нормами речи. Отмечено, что на занятиях родным языком организация на основе текстов, предложений и смысловых картинок, сообщающих о существовании, явлениях природы, животном и растительном мире, прошлом нашей страны, великих предках, современниках, позволит достичь положительных результатов.

Ключевые слова: Знания, умения и навыки, свободное, творческое, тексты, предложения, содержательные картинки, патриотическое, креативное.

Bugungi raqamli texnologiyalar asrida axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalari rivojlanishda davom etar ekan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida raqamli texnologiyalarni o‘z kasbiy faoliyati jarayoniga samarali joriy qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Raqamli vositalardan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshirishi, mustaqil o‘rganishni osonlashtirishi va o‘quvchilarni kelajak uchun muhim ko‘nikmalar bilan ta’minlashiga xizmat qiladi. O‘qituvchilarning zamonaviy raqamli texnologiyalardan yetarli darajada foydala olishlari, shuningdek, bu texnologiyalarni o‘qitish amaliyotiga samarali integratsiya qilishlari hozirgi zamon pedagogikasining dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Ushbu muammoning yechimlaridan biri bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kompetentligini rivojlantirishdir.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonida “raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish; ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish; ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o‘zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi “E-MINBAR” platformasini amaliyotga joriy etish, ta’lim jarayonlarida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish; ta’lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish” kabi ustuvor vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Farmonda keltirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun ta’lim-tarbiya jarayoniga raqamli texnologiyalarni, masofaviy o‘qitish tizimlarini joriy etish hamda oliy ta’lim muassasalarida informatika turkumiga kiruvchi fanlarning o‘qitish metodikasini takomillashtirish, shuningdek, talabalarning raqamli texnologiyalarga, jumladan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalanish kompetentligini shakllantirishni taqozo etadi [1].

Ushbu masala yuzasidan, ya’ni ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish metodikasi va masofaviy o‘qitishning muammolari, fanlarda elektron ta’lim resurslarini yaratish texnologiyalariga oid ilmiy izlanishlar mamlakatimizda A.A.Abduqodirov, M.Aripov, U.SH.Begimqulov, M.H.Lutfillayev, G.S.Ergasheva, Sh.A.Abduraxmanova, shuningdek, MDH mamlakatlarida M.D.Kitaygorodskiy, K.L.Polupan, L.N.Bobrovskaya, Y.K.Vasin, V.V.Gura, O.V.Danilova, S.S.Mironseva, I.V.Morozova, N.N.Poyarkova va xorijda A.B.Saleh, M.Armoni, S.T.Narle, Meyerbaum-Salant, Henderson Steven kabi olimlar tomonidan olib borilgan [2-3].

Xususan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘qitish metodikasini, kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish, o‘qituvchilarning ta’limiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid tadqiqotlar mamlakatimizda Sh.U.Nurullayeva, M.X.Xaydarova, V.I.Toshpulatova, V.J.Shodiyeva, S.R.Zohidova, J.M.Otajonov, Sh.T.Qayumova, M.B.Ergasheva, N.T.Misirova, G.O.Abduraimova, N.D.Botirova, N.K.Rajabova, A.T.Toshxonov, A.K.Kudaynazarovlar, MDH mamlakatlarida T.S.Buryakova, A.A.Xafizova, M.A.Dementyeva, L.V.Panova, S.V.Voronin, S.N.Manjeyeva, S.G.Grigoryeva, N.V.Fedyainovalar va xorijda Jerneja Herzog, Alison M. Godfrey, Donatas Gužauskas, Manuel López Pereyralar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan, Sh.U.Nurullayevaning tadqiqotida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik tayyorlash modeli nazariy, amaliy va metodik bilimlar, akademik, didaktik, suggestiv, kommunikativ, konstruktiv va perseptiv kabi pedagogik qobiliyat turlari hamda pedagogik texnikani shakllantirishga qaratilgan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, treninglar, vaziyatli masalalar, innovatsion mikrodarslar, tadqiqiy, refleksiv, integratsion va kreativ yondashuvga ustuvorlik berish asosida ishlab chiqilgan [4-7].

Ushbu ma’ruzada biz bo‘lajak boshlang`ich sinf o‘qituvchilarining raqamli kompetentligini shakllantirish muammolarini pedagogik tamoyillar asosida hal qilish usullarini taklif qilamiz. Xususan, raqamli kompetentlikni shakllantirishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni tadbiq etish natijasida qo‘yilgan didaktik maqsadlarga erishish metodlari o‘rganilgan. Bunda asosiy e’tibor talabaning elektron ta’lim resurslaridan samarali foydalana olish usullari

tahlil qilinadi. O`z navbatida elektron ta’lim resurslarini yaratishda an’anaviy ta’lim resurslari o‘rniga elektron darslik (elektron o‘quv qo‘llnmalarini) ishlab chiqish texnologiyasi eng so‘nggi dasturiy mahsulatlar misolida ko‘rib chiqiladi. Bunday resurslarning samaralilik darajasi - an’anaviy ta’lim resusrslaridan ancha ustun ekanligi asoslangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Роберт И.В. Развитие понятийного аппарата педагогики: цифровые информационные технологии образования // Педагогическая информатика. 2019.№ 1. С. 108–121.
2. Aripov M., Fayziyeva M. Webga asoslangan moslashuvchi ta’lim tizimlari // Amaliy mamavzutika va informatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari – Al-Xorazmiy 2016: Halqaro ilmiy konferensiya tezislari to‘plami. – Toshkent, 2016. –B. 73-74.
3. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped.fan.dok. ...diss. – T., 2007. – 305 b.

БАСТАУЫШ СЫНЫПТА ОҚЫТУДЫҢ МАЗМҰНДЫҚ ЕРЕКШЕЛІКТЕРІ

Раимкулова Аякоз Боранбаевна

Шымкент университеті, магистр оқытушы

Аннотация.Мақалада инновация өзгерістер қажет болған кезде және оларды жүзеге асыру мүмкіндігі болған кезде пайда болады. Инновациялық процестің кеңістік-уақыт континуумы білім беруді дамытудағы жинақталған әлеуетті және оның тұрақты жұмыс істеуіне кейбір кедергілерді (немесе қауіптерді) қамтиды.

Тірек сөздер: технология, конфигурация, процесс, реформа, инновация, оқыту, төзімділік.

ОСОБЕННОСТИ СОДЕРЖАНИЯ ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация.В статье инновации возникают, когда необходимы изменения и есть возможность их реализовать. Пространственно-временной континуум инновационного процесса включает в себя накопленный потенциал в развитии образования и некоторые препятствия (или угрозы) его устойчивому функционированию.

Ключевые слова: технология, конфигурация, процесс, реформа, инновация, обучение, толерантность.

DEVELOPMENT WAYS OF CREATIVE ABILITIES OF PRIMARY GRADE STUDENTS

Annotation.In the article, innovation occurs when changes are needed and it is possible to implement them. The space-time continuum of the innovation process includes the accumulated potential in the development of education and some obstacles (or threats) to its sustainable functioning.

Key words: technology, configuration, process, reform, innovation, training, tolerance.

Білім беру сапасы саласындағы халықаралық зерттеушілердің назарындағы мәселе – уақыт сұранысына сәйкес білім беру мазмұнын, оқыту әдістері мен нысандарын, білім беру нәтижелерін бағалауды жүйелі түрде жаңарту. Әр түрлі елдердің әзірлеушілерінде бұл модельге деген көзқарастардың сәйкеспейтіндігіне қарамастан, бүгінде XXI ғасырдағы білім беру жүйесін жаңартудың басым бағыттары айқындалған және олар мектептегі оқытудың бүкіл кезеңін қамтиды. Осындағы білім сапалы түрде уақытында игерілмесе, кейінгі берілер жаңа білімге кері әсерін тигізеді. Оқушылар терең білім алуы үшін сабаққа белсенді қатысуы керек. Алған білімдерін одан әрі үздіксіз дамытып отыруы болашағының жарқын болуына кепіл болады. Сонымен қатар, осы мақалада талқыланатын дағдылар ерте балалық шақта қалыптасады және оқушы олардың дамуына қолайлы ортаға неғұрлым ертерек түссе, соғұрлым жақсы болады[1].

Барлық елдердің арасында адамдардың бойында бәсекеге қабілеттілігін ұзақ уақытқа әрі тиімді қалыптастыратын стратегия – білім беру болып есептеледі. Ол XXI ғасырда негізгі дағдыларды дамыту үшін жағдай жасауға бағытталған. Белгілі бір бағыттағы осы дағдылардың әр түрлі конфигурациясына, ғылым, технология және тағы басқа салаларда орын алған өзгерістерге қарамастан, адамзат табысты болу үшін негізгі құзіреттер жиынтығы тұрақты болып қалыптасқан. Осыған орай, кез-келген білім дағдысына аса көңіл бөлу – қазіргі күнгі міндеттер қатарын толықтыратыны анық[2].

Қазіргі жаһанданған және цифрлық әлемде қандай экономикалық апаттар мен қайта құрулар байқалады және олар ертеңгі білімді қалай өзгертеді? Қазіргі оқушылар заманауи жағдайда жұмыс істеуге және табысты болуға дайын ба? Күрделі және қиын заманда олардан қандай жеке қасиеттер талап етіледі? XXI ғасырдағы адамның қандай дағдыларын мектеп қабырғасынан қалыптастыру керек? Осы сұрақтарға кеңінен тоқталсақ.

Оқушыларды оқыту тек арнайы ұйымдастырылған сабақтарда ғана емес, сонымен қатар күнделікті өмірде, оқу процесін ұйымдастыру формаларын қолдана отырып, оқушылардың әртүрлі іс-әрекеттерінде жүзеге асырылады.

Оқытуды ұйымдастыру нысаны-педагог пен оқушылардың бірлескен оқу іс-әрекеті белгілі бір лайықты және белгіленген режимде жүзеге асырылады. Бұл көбінесе тәрбиеші мен оқушы арасындағы қарым-қатынастың сипатын, олардың қызметін, жұмыс орны мен оны өткізу режимін білдіреді. Оқушы бақшада оқытуды ұйымдастырудың фронтальды, топтық, жеке-топтық және жеке формалары қолданылады, оқытуды ұйымдастыру формасын таңдаудағы басты талап-мектеп жасына дейінгі оқушының оқуға деген

ықыласына ықпал ету қажеттілігі. Өздеріңіз білетіндей, оқушы оқу іс-әрекеті процесінің, нәтиженің қуанышын сезінген кезде дамиды[3].

Бүгінгі таңда жаңа мыңжылдықтағы экономикалық және саяси көшбасшылықты ғана емес, сонымен бірге өзінің мақсаттарына сәйкес кәсіби білім беру жүйесін тиімді реформалауды жүзеге асырмайтын экономикалық және саяси тәуелсіздікті талап ететін бірде-бір ел бола алмайды.

Жоғары кәсіби білім өркениетке, әлеуметтік, әлеуметтік-экономикалық, технологиялық даму деңгейіне ауқымды әсер етеді және өзін-өзі ұйымдастырудың және өзін-өзі түзетудің қуатты әлеуетіне ие.

Сонымен, білім беру жүйесінің иерархиялық құрылымында жоғары орын алып, оның басқа деңгейлеріне қойылатын талаптарды анықтайды, олардың стандарттарын белгілейді және жоғары білікті кадрлар корпусымен қамтамасыз етеді.

Дәл осы ұстанымдардан жоғары білім беру жүйесі өзінің жаңару әлеуетін қалыптастыруы керек. Ең алдымен, бұл жоғары оқу орындары білім беру жүйесінің үздік отандық және шетелдік жетістіктерін ескере отырып, жоғары кәсіптік білім берудің коцептуалды-әдіснамалық негіздерін жаңартуға қатысты[4].

Құрылымдық тұтастығын, жүйе құраушы байланыстарды және құрамдас бөліктердің иерархиялық өзара тәуелділігін ескере отырып, отандық және шетелдік білім беру жүйелерінің барлық деңгейлерінің мазмұндық компоненттеріне жүйелі салыстырмалы талдау қажет.

Жоғары кәсіптік білім беру жүйесін дамытудың негізгі мақсаты қоғамның, мемлекеттің және жеке тұлғаның ұзақ мерзімді стратегиялық мүдделерін қанағаттандыру, жоғары оқу орындары жүйесін жүйелі және мақсатты реформалау жолымен мамандар даярлау сапасын арттыру.

Жоғары кәсіптік білім беруді дамытудың маңызды бағыттары:

- Қазақстанның білім беруіндегі университеттердің жетекші ұстанымдарын нығайту, республиканың жоғары оқу орындарының әлемдік білім беру кеңістігіне қатысуын кеңейту; Қазақстанның жоғары білім беру жүйесінің әлемдік білім беру кеңістігіне кірігуін қолдау және дамыту; мемлекеттік білім беру стандарттарына тәсілдерді келісу; бірыңғай білім беру кеңістігі шеңберінде студенттердің, Оқытушылардың, тағылымдамадан өтушілердің, аспиранттар мен докторлардың, ғылыми қызметкерлер мен мамандардың ұтқырлығын кеңейту; білім беру мәселелері бойынша мемлекетаралық ақпарат алмасуды кеңейту;; білім берудің жай-күйі мен сапасын, қатысушы мемлекеттердегі оның даму үрдістерін мониторингтеудің келісілген критерийлері мен технологияларын әзірлеу.

XX*I* ғасыр оқушысы – оқушы. Ал қазіргі заман оқушысы – кішігірім мұғалім. Алдындары тек мұғалім ие болған, атап айтсақ, өзіндік пікірі бар, сыни ойлайтын, әрқашан жоспармен жүру, кез-келген істе білімімен бөлісетін мұғалім ғана болса, қазір осы атаудың жанында оқушы ұғымы да қатар жүре алады. Бұрынғы оқушы – тек тыңдаушы, орындаушы, ал қазіргі оқушы – өздігінен білім іздейтін жеке тұлға ретінде өзіндік көзқарасы бар, сыни ойлай білетін, өз білімін жетілдіруге мүдделі, өзінің алдына нақты мақсаттар қоя білетін, өз білімін кез-келген ортада іске асыра отырып, пікірін еркін жеткізе алатын болуы керек.

Ресейлік ғалым-педагог А.М.Кондаков оқушының негізгі құзіреттіліктерін ғана емес, сонымен бірге шындықтың өзгеру қарқынының өсуіне байланысты өзекті болатын жеке қасиеттерін де бірінші орынға қояды. Ғалымның пікірінше, 2030 жылғы мектеп түлектері инновациялық мінез-құлыққа, сондай-ақ XXI ғасырда еңбек нарығында сұранысқа ие негізгі құзыреттердің жиынтығына ие болу қажеттігін айтады. Олар нені білуі қажет:

- өмір бойы білім алуды;
- ауызша және ауызша емес қарым-қатынастың әртүрлі түрлерін, математикалық сауаттылықты;
- шығармашылық, сыни ойлауды;
- басқа адамдармен тиімді қарым-қатынас жасауды;
- саналы түрде тәуекелге баруды;
- тез өзгеретін жағдайларға бейімделе білуді;
- басқа адамдарға, мәдениеттерге, пікірлерге толерантты және құрметпен қарауды;
- өздерінің бойындағы күшті және әлсіз жақтарды дұрыс бағалауды;
- күрделі мәселелерді шешуді, көшбасшылыққа ынталандыруды атап айтуға болады.

Қорытындылай келе, XXI ғасыр дағдысын меңгерген оқушыны жеке тұлға ретінде қалыптастыру – бүгінгі педагогтардың басты мақсаты. Оқушылардың ауызша, жазбаша мәтіндерді сын тұрғысынан қолдана білуі, мазмұнды мәтін құрай алуы тәрізді іс-әрекетінен пән мазмұнын қаншалықты игергенін байқауға болады. Бәсекеге қабілетті, шығармашылық тұрғыда өз ойын еркін жеткізе алатын, тұлғаға бағдарланған құндылықтарды бойына сіңірген, кәсіби тұрғыда құзіреттілігін мектеп жасынан ала білген функционалды сауатты жеке тұлға – қоғам дамуының қозғаушы күші болып қала бермек.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР

1. Мұғалімге арналған нұсқаулық. ҚР орта білім мазмұнын жаңарту аясында қазақ тілінде оқытатын мектептердің қазақ тілі мұғалімдерінің біліктілігін арттыру бағдарламасы, Назарбаев Зияткерлік мектептері ДББ, 2015.-24 б.

2. Мұғалімге арналған нұсқаулық. Үшінші (негізгі) деңгей «Назарбаев Зияткерлік мектебі» ДББҰ, 2012. - 306 б.

3. Бағалау саясаты. Астана қаласындағы Назарбаев зияткерлік мектебі. – 2014.

БАСТАУЫШ СЫНЫП ОҚУШЫЛАРЫНЫҢ ОҚУ МОТИВАЦИЯСЫН АРТТЫРУДА ТИІМДІ ӘДІСТЕРДІ ПАЙДАЛАНУ ЖОЛДАРЫ

Айткулова Гульмира Абдималиковна
Шымкент университеті, магистр-аға оқытушы

Аннотация: Бұл мақалада кіші мектеп оқушыларының оқу мотивациясын дамыту мәселелері қарастырылады. Кез келген оқу-тәрбие үрдісін нәтижелі ұйымдастыруға ұмтылатын мұғалім, ең алдымен, оқушылардың ынтасын арттыру үшін әртүрлі әдіс-тәсілдерді қолдануға тырысады, яғни оның негізін, тамырын табуға ұмтылады.
Негізгі сөздер: мотив, мотивация, оқу мотивациясы, әрекет, мотивацияның белсенділікпен байланысы, жетістік мотиві.

ПУТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭФФЕКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПОВЫШЕНИЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В данной статье рассматривается вопросы развития учебной мотивации младших школьников. Учитель, стремящийся продуктивно организовать любой учебно-воспитательный процесс, в первую очередь пытается использовать различные методы и приемы с целью повышения мотивации учащихся к нему, т. е. стремится найти его основу, корни.
Ключевые слова: мотив, мотивация, мотивация обучения, действие, связь мотивации с деятельностью, мотив достижения.

WAYS TO USE EFFECTIVE METHODS TO INCREASE LEARNING MOTIVATION IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation: This article discusses the development of educational motivation of younger schoolchildren. A teacher who strives to organize any educational process productively, first of all tries to use various methods and techniques in order to increase the motivation of students for it, i.e. seeks to find its basis, roots.

Keywords: motive, motivation, learning motivation, action, connection of motivation with activity, achievement motive.

«Адамның алдында ақылға апаратын үш жол бар: ойлау жолы, бұл ең жақсысы; ұқсау жолы, бұл – ең жеңілі; тәжірибе жолы, бұл-өте жауаптысы» Конфуций

Кез-келген елдің басты капиталы ол - үздік технология және қазіргі заманға сай білімді адамдар, инновациялық жаңалықтарға ашық, өзін –өзі дамыта алатын және шығармашылықты жүзеге асыра алатын тұлғалар. Жиырма бірінші ғасырдың маңызды міндеттерінің бірі-өмір сапасын жоғарылату, оның ішінде тұлғаның даму шарттарын анықтайтын білім беру сапасын жақсарту болып табылады.

Бастауыш сынып оқушылардың оқу мотивациясын қалыптастыру оқу процесінің негізі, іргетасы, уақыт өте өзектілігін жоғалтпайтын «мәңгілік» педагогикалық мәселе болып табылады.

Қазіргі қоғамда оқушылардың табысты болуына ықпал ететін балалардың коммуникативтік құзыреттіліктерін қалыптастыруға ықпал ететін инновациялық технологияларды тәжірибеге енгізу алғашқы қадам боп есептелінеді. Жетекші педагогикалық идея – білім беру үдерісіне инновациялық формалар мен әдістерді енгізу арқылы кіші жастағы оқушылардың оқу мотивациясын қалыптастыру деңгейін арттыру үшін оңтайлы жағдай жасау.

Оқушылардың оқу үлгеріміне ең көп әсер ететіні оқу мотивациясы. Оқу мотивациясы – (латын тілінен «movere» -қозғалтамын) – білім алушылардың білім мазмұнын белсенді меңгеруге, өнімді танымдық әрекеттерді оятатын процесс. Білім игеру процесі –белсенді процесс. Ол тек әрекет арқылы ғана жүзеге асырылады. Бұған қоса іс-әрекеттердің түрлері мен өзіндік дәрежесі неғырлым көп және жоғары болса, білім игерудің тиімділігі де арта түседі. (Жұманбаева А.О.)

Оқу мотивациясын қалыптастыруға ықпал ететін көптеген заманауи технологиялар бар. Бастауыш сынып мұғалімдері тестілеу әдісін, жоба әдісін, проблемалық элементтері бар ойын әдісін, интерактивті оқыту әдісін қолданғаны дұрыс. Сонымен қатар, дидактикалық ойындар мен жаттығулар: тақпақтардағы тапсырмалар, тапсырмалар – тапқырлар, тапсырмалар – әзілдер, белсенді әдістер, қызықты деректер, ребустар, ребустар, сөзжұмбақ және т.б.

Оқу тапсырмасын түсіну тұрғысынан жұмыстың ең тиімді әдістері болып табылады.«Логикалық тапсырмалар» және «Таңдау мүмкіндігі бар логикалық тапсырмалар» тапқырлыққа арналған жаттығулар, стандартты емес жағдайда бұрыннан бар білімді пайдалана білуді тексеру.

Салыстырыңыздар:

Дәстүрлі сұрақ: Көктемде бірінші гүлдейтін ағаш қалай аталады?

Логикалық тапсырма

Қандай ағашты былай деуге болады: ол бал арасының иісіне еліктіріліп, қылшықтарын бірінші болып жайған?

Әрине, бұл жастағы бала қарапайым сұраққа жауап беруден гөрі мұндай мәселені шешуге көбірек қызығушылық танытады.Мұғалімдердің қарапайым мысалдар мен есептердің шешімін ойынға қызықты формада берсе немесе оларды ойынның ажырамас элементі ретінде енгізсе және оларды шешудің тиімділігі айтарлықтай артады.

Оқыту тәжірибесінде интерактивті оқыту әдісін қолданамын. Бұл әдіс оқушылардың тек мұғаліммен ғана емес, бір-бірімен кеңірек қарым-қатынасына, сонымен қатар оқу процесінде оқушылардың белсенділігінің басым болуына бағытталған. Интерактивті сабақтарда мұғалімнің орны сабақ мақсатына жету үшін оқушылардың іс-әрекетінің бағытына қарай төмендейді. Интерактивті сабақтың құрылымы мынадай кезеңдерді қамтиды: мотивация, мақсат қою, жаңа ақпаратты таныстыру, интерактивті жаттығулар, жаңа өнім, рефлексия, бағалау, үй тапсырмасы. Интерактивті оқытудың мәні оқыту үрдісінде мысалы: - «Өрмекшінің торы», «Аквариум», «Дебат», «Ыстық орындық», «Миға шабуыл», «Пікірталас жүргізу әдістемесі», «Рольдік пікірталас», «Уақыт шеңбері», «Алтын балыққа арналған аквариум», «Психологиялық-педагогикалық консилиум», «Мозайка», «Ақылдың алты қалпағы» және т.б. топтық, жұптық және т.б. әдіст ерді қолдану арқылы оқушыларды таным үрдісіне тартып, өздері білетін және ойлайтын нәрселерін қайта қарауға, түсінуге мүмкіндік беретіндей ұйымдастыру.

Оқушылардың оқу мотивациясын көтеру мәселесі бойынша мынадай ұсыныстар беруге болады:

- Тұрақты танымдық қызығушылықты қалыптастыру: қызықтырып оқыту, оқу материалының жаңалығы, жаңа және дәстүрлі емес оқыту формаларын қолдану, компьютердің көмегімен оқыту, интерактивті компьютерлік, мультимедиялық құралдарды пайдалану, өзара оқыту, эвристикалық оқыту, жарыс, проблемалық оқыту.
- Сабақ барысында оқушының жеке ерекшелігін есепке алу – бұл әрбір оқушының қызығушылығын, сапасын, талабын, мүмкіндіктерін ескере отырып, білім беруде педагогикалық әдіс, құрал, әдістемелердің барлығын пайдалану.
- Оқушыларға жеке тапсырмалар беру: реферат, өзіндік жұмыстар, жоба жасауға дағдыландыру.
- Қарапайымнан күрделіге көшу принципін ұстану: күрделілігі жоғары тапсырмаларды орындауға ынталандыру.
- Оқушыларды ғылыми жұмыстарға араластыру: ғылыми жобалар, олимпиадалар.
- Логикалық ойлауын дамытып, сенімдерін қалыптастыру: аргументацияға, дәлелдерге және өз көзқарасын негіздеуге үйрету.

Сонымен қорытындылай айтсақ, әртүрлі авторлардың мотивация түсінігіне берген анықтамаларына сүйене отырып, оқу мотивациясы дегеніміз – адамды білім алуға итермелейтін, жалпы бағыт-бағдар беретін, адам мінезіне энергетикалық импульстар беретін, психикалық үрдістер жиынтығы екенін анықтадық. Бүгінгі мұғалім, жаңа заман қойып отырған талаптарға, керемет қарқынмен өзгеріп жатқан заман ағымына ілесетін, мұғалімге тән барлық мүмкіндіктерді игерген ұстаз. Ол тек кәсіби шеберлігі жоғары адам ғана емес, рухани дамыған, шығармашыл, мәдениетті, білім құндылығын, оқушының жан дүниесін түсінетін, олардың биік жетістіктерге жетуіне көмектесетін қолдаушысы, көмекшісі досы болуы керек. Ж.Аймауытов айтқандай баланың ақылы, сезімі, қайраты мұғалімнің жігерлі ықпалы арқасында жетіледі.

Ұсынылатын әдебиеттер:

1.Т.Бауэр. Психическое развитие младенца. М.,1985.
2.В.С.Мухина. Психология дошкольника.М.,1975.
3.М.М.Мұқанов. Жас және педагогикалық психология. Алматы,1981.
4.Қуанғалиева А.З.Оқушының мотивациясын көтерудің тиімді әдістері.Инфоурок.

O‘QUVCHILARNI BAYON YOZISHGA O‘RGATISH ORQALI IJODIY FIKRLASH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Holikulova Feruza Xasanovna
Navoiy davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi
p.f.f.d.(PhD).Navoiy,O‘zbekiston.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda bayonning o‘rni xususida ilmiy fikr mulohazalar yuritilgan chunki, bayon matni ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar e’tibori asosiy fikrni bilishga qaratilishi ularning bilishga bo‘lgan intilishlariga turtki beradi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, o‘quvchi, bayon, matn, tafakkur, ijodiy fikr, ko‘nikma, bilish.

ФОРМАРОВАНИЕ НАВЫКОВ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПУТЕМ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ НАПИСАНИЮ ВЫСКАЗЫВАНИЙ

Аннотация. В данной статье приводятся научные мнения о роли повествования в развитии навыков письменной речи и творческого мышления учащихся. Потому что в процессе работы над основной идеей внимание учащихся концентрируется на познании основной идеиб что и мотивирует их стремление к познанию.

Ключивие слова образование, студент, повествование, текст, мышление, творческая мысль, умение, знаниею

FORMATION OF CREATIVE THINKING SKILLS BY TEACHING STUDENTS TO WRITE STATEMENTS

Annotation. In this article there are scientific opinions about the role of narration in developing students' written speech and creative thinking skills, because in the process of working on the main idea, students' attention is focused on knowing the main idea, which motivates their desire to know.

Keywords: education, student, narrative, text, thinking, creative thought, skill, knowledge.

Yozma nutq – bu matn bilan muloqot o‘rnatishning bir shakli bo‘lib, og‘zaki nutqdan grammatik va uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yozma nutqni rivojlantirishning bir qancha shakllari mavjud bo‘lib, shulardan bayon o‘quvchilarning, asosan, o‘rganilgan matn (asar, parcha)dagi syujet rivojini o‘z tafakkuri doirasida qayta yaratish, ong prizmasidan o‘tkazish orqali ijodiy to‘ldirish va buni ma’lum ifodalar bilan tasvirlashga qaratilgan ijodiy ishdir.

Boshlang‘ich sinflardan boshlab bayon yozishga o‘rgatish orqali ijodiy fikrlash ko‘nikma-malakalarini tarkib toptirish o‘quvchilar nutqini, so‘z boyligini va ona tilining sintaktik tuzilishiga doir bilimlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu borada ona tilini o‘qitish metodikasida ham, o‘quv dasturlarida ham qat’iy fikr o‘rnatilgan. Bayon matn doirasida o‘quvchining tasavvurlarini bilimlariga tayanib jamlash, matnga mos reja tuzish, fikrini izchillikda savodli hamda chiroyli xat bilan ifodalashdir. Bularning barchasi, o‘z navbatida, o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirish omili sanaladi. Shuning uchun ham boshlang‘ich ona tili ta’limida ilmiy-metodik jihatdan asoslangan amaliy mashqlar tizimini ishlab chiqish o‘quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish omilidir. Zero, “O‘quvchilar ta’lim jarayonida egallagan bilimlarini bayon etishda, asosan, og‘zaki nutqdan foydalanadilar, aksariyat darsliklardagi materiallarni takrorlash bilan chegaralanadilar – ijodiy munosabat deyarli sezilmaydi. Boshlang‘ich sinflarda ijodiy ish sifatida bayon, insho va ijodiy diktant yozish an’anaga aylangan. Ijodiy ish deganda ona tili darslarida o‘quvchi o‘z fikrini og‘zaki va yozma bayon etishdagi faoliyatini tushunamiz”[1: 71-72].

Bayon boshlang‘ich sinflarda ham, yuqori sinflarda ham keng qo‘llaniladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida keltirilishicha, “bayon [arabcha – aniqlik, ravshanlik, tavsiflash, ifodalash] tabiat va jamiyat haqidagi tushuncha hamda tasavvur yuzasidan inson fikri va mulohazalarining og‘zaki va yozma ifodasi; adabiy asarning sodir bo‘lgan yoki bo‘layotgan voqealar hamda voqealarining borishi haqida hikoya qilinadigan qismi; tavsif, izoh berish; o‘qib yoki aytib berilgan biror matn asosida yozib chiqilgan ish; yozma ish (o‘quvchilar bilimini baholashning yozma shakllaridan biri)”[2: 9] dir.

“Bayon o‘rta maktab ta’lim-tarbiya tizmida nutq o‘stirish vositasi sifatida g‘oyat muhim o‘rin tutadi, – deb ta’kidlaydi bu haqda A.Zunnunov. – U yozma ishning asosiy turlaridan biri bo‘lib, asar yoki undan olingan parcha mazmunini o‘quvchi tomonidan “o‘z so‘zi” – o‘ziga xos uslubi asosida izchil, savodli qayta bayon etishni taqozo etadi”[3: 4].

Professor K.Qosimovaning fikricha, bayon “O‘qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma’lum bir tayyorgarlikdan so‘ng yozma qayta hikoyalashdir”[4:324.].

M.Ishoqova tomonidan berilgan ta’rifda uning “mavjud matnga taqlid qilish, matn ustida ongli va ijodiy yondashgan holda ishlashni ta’minlovchi ish turlaridan biri”[5:4.] ekanligi qayd qilinadi. Fikrimizcha, bu o‘rinda “matnga taqlid qilish” nisbati zamirida ko‘proq o‘quvchining tayyor matn mazmunini fikrlashsiz qayta hikoyalash ma’nosi seziladi.

Bizningcha, bayon bu – ta’lim oluvchining o‘quv materialiga mnemik yondashuvi orqali matn mazmunini tushunish, anglash, o‘zlashtirish, syujet rivojini idrok etish hamda uni qayta tiklashga doir ijodiy va konstruktorlik faoliyatidir.

Ona tili va o‘qish darslarida mazkur ish shakli mazmuni matn ustida ishlashga doir izchil yondashuvlarni: savol-javob, reja tuzish va shu asosda og‘zaki qayta hikoyalash orqali fikrni yozma va og‘zaki ifodalashni taqozo etadi. O‘quvchilar ko‘pincha o‘qiganlarini bayon etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ko‘pchilik o‘quvchilarning nutqi nafaqat mazmunsiz, balki ayni paytda qashshoq, uzuq-yuluq va tushunarsizdir. Aslida matn mazmunini so‘zlab berish, ijodiy fikrlashga o‘rgatish nafaqat o‘quvchilar bilimlarini tekshirish, balki ularning nutqini boyitish vositasi bo‘lishi, bunga erishish uchun ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilarni matn ustida ishlashga tizimli tarzda o‘rgatish taqozo qilinadi. Shuningdek, boshqa fanlar kesimida ham nutq o‘stirishga e’tibor qaratish alohida yondashuvlarni talab etadi. Masalan, matematika darslarini o‘tishda matematik bayon, musiqa dasrlarida musiqiy bayon yozishni tashkil etish shular jumlasidandir. Bunday usullar fanlar orasidagi integratsiya to‘g‘ri belgilansagina, ma’lum samarani beradi.

Nutqni rivojlantirish metodikasida bayon matni sintaktik qurilishining o‘quvchilar tiliga ta’siri masalasini o‘rganish alohida o‘rin tutadi. Faqat shu asosda matn tanlash va uning tuzilishi, maqsad va vazifasi ijrosi, matn mazmunini qayta so‘zlab berish bilan bog‘liq ilmiy-metodik masalalar hal qilinishi mumkin. Ta’lim jarayonida biror matnni hikoya qilish uchun uni semantik tahlil qila olish, eslash qobiliyati va nutqni rivojlantirishning ma’lum darajasiga ega bo‘lish talab etiladi. O‘quvchining matnni qay tarzda qayta so‘zlab berishiga qarab o‘qiganlarini tushunishi, xotira va nutqining rivojlanish darajasini baholash mumkin. Shuning uchun pedagogika va psixologiyaga doir tadqiqotlarda tushunish, idrok etish, tasavvur qilish, diqqat va eslash kabi jarayonlarni tahlilga tortishda matn ustida ishlash hamda hikoyalashni o‘rgatishga katta ahamiyat beriladi.

Matnni tushunish murakkab analitik-sintetik jarayon mahsuli bo‘lib, natijada inson unda aks ettirilgan ob’yektiv voqelikni anglaydi, kishilar tomonidan allaqachon ma’lum bo‘lgan va til yordamida belgilangan jihatlarini o‘rganadi. Bu o‘rinda oldindan to‘plangan bilim va tajriba, tushunchalar va tasavvurlar o‘rtasidagi aloqadorlik muhim

o‘rin tutadi. O‘qish jarayonida semantik tahlilning amalga oshirilishi matnning asosiy g‘oyasini o‘z ichiga oladi. Shunga ko‘ra, matnni tushunishning muvaffaqiyati nafaqat uning tashqi jihatlariga, tarkibi va mazmunining tushunarliligiga, balki analitik ish usullarini qay darajada bilishiga bog‘liqligi muqarrar ravishda xulosa qilishga olib keladi. Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matn ustida ishlash orqali ijodiy fikrlash bilan bog‘liq ko‘nikmalar yetarli darajada shakllanmaganligi tufayli tayyor reja ustida ishlashda ham, mustaqil reja tuzishda ham talay qiyinchiliklarga uchraydi.

Matnni o‘qish jarayonida undagi tarkibiy qismlar qisqartirilgan ichki nutq shaklida mavjud bo‘ladi. Qayta so‘zlab berish paytida uning tashqi nutq rejasiga o‘tishi amalga oshadi. O‘qilgan matnni uchta usulda: fikran ovoz chiqarmasdan, ovoz chiqarib va yozma ravishda qayta bayon qilish mumkin.

Fikran ovoz chiqarmasdan qayta bayon qilish sxematik ravishda, ya’ni bo‘linib amalga oshiriladi. Ovoz chiqarib yoki yozma ravishda qayta bayon qilish paytida fikrlar ravshanlashadi. Shuningdek, og‘zaki hikoyalashda nutq apparati intensivroq harakatda bo‘ladi. Shunisi aniqki, ovoz chiqarib yoki yozma ravishda qayta bayon qilish – matnni fikran ovoz chiqarmasdan bayon qilish yoki qaytadan o‘qishdan ko‘ra eslab qolishning samaraliroq usullaridandir. Qayta bayon qilishning o‘zi matnni o‘qish va uni idrok etish jarayonini faollashtiradi. Bundan tashqari, qayta bayon qilish paytida o‘quvchi o‘zini o‘zi nazorat qiladi, matn mohiyatiga e’tibor beradi, tahlil qiladi va shu bilan o‘qiganlarini idrok qilib, eslab qoladi. Binobarin, professor R.Niyozmetovaning ta’kidiga ko‘ra, “Badiiy matnni idrok etish matn mazmunini tushunish asosida namoyon bo‘ladi”[6: 3].

Matnni hikoya qilish darajasi ko‘pgina sabablarga, xususan, matn mazmunining sodda-murakkabligiga, tanish-notanishliligiga hamda hajmining salmog‘i (katta yoki qisqaligi)ga ham bog‘liq. O‘quvchilar matnni birinchi marta hikoya qilish paytida ko‘proq o‘zgartirishlar kiritadilar – bu holda qayta so‘zlab berilayotgan matnga ular ko‘pincha o‘z tajribalaridan bilganlarini kiritishadi. Qayta-qayta o‘qish natijasida matnni hikoya qilish yaxshilanadi. Birinchi bor so‘zlab berishda qisqalik va qurilishida tarqoqlik ko‘zga tashlanadi, keyingi urinishlarda kompozision jihatdan yaxlitlik va uyg‘unlikka erishish kuzatiladi.

Yozma ishning bayon turida uslubi va mazmuni bo‘yicha eng mukammali matnni yozma ravishda ifoda etishdir. Shunisi ham borki, matnni har safar o‘qishdan keyin bayon qilishda yangi ta’riflar qo‘shiladi. O‘qiganlarini yaxshiroq tushungan o‘quvchi kerakli so‘zlarni ixtiyoriy tanlay oladi, so‘zlar o‘rnini o‘zgartiradi, mos so‘zlarni qo‘llay biladi.

Professor S.Matchonovning ta’kidlashicha, “Kichik va o‘rta yoshdagi o‘quvchilarning lug‘at boyligi kam, ammo yodlash qobiliyati ustunligi tufayli ular ko‘p hollarda uyga berilgan vazifalarni deyarli aynan matndagi kabi yoki unga yaqinlashtirib gapiradilar. Ularning ayrimlari o‘z nutqida ishlatgan notanish so‘zlarni matnning umumiy mazmunidan kelib chiqib tushuntirsalar, ayrimlari umuman bilmaydilar. Har ikki holatda ham matn mazmuni o‘zlashtirilgan deb bo‘lmaydi”[7: 67].

O‘qituvchi bunday hollarga barham berishi uchun imkon qadar o‘quvchilarning matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta ijodiy hikoyalashga o‘rgatadigan yondashuvlarni qo‘llashi muhim sanaladi. Natijada o‘quvchi matnda qo‘llagan so‘zlarining ma’nodoshlarini o‘ylab topishga majbur bo‘ladi, izlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning lug‘at zaxirasi boyishiga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi. Demak, so‘zlar ma’nosini tushunish va anglash matn mazmunini o‘zlashtirish va nutq o‘stirishining muhim shartlaridan biridir.

Bayon matni ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar e’tibori asosiy fikrni bilishga qaratilishi ularning bilishga bo‘lgan intilishlariga turtki beradi. O‘quvchilarda qiyinchilik tug‘diradigan matn g‘oyasini aniqlashda bu yoshdagi bolalarning individual xususiyatlari, hayotiy tajribasi va qiziqishlari ham alohida o‘rin tutadi. Shu bois boshlang‘ich ta’limdanoq o‘quvchilarni har qanday matnni o‘qish vaqtida undagi asosiy fikr nima haqida ekanligi, eng muhim jihati nimaligini bilishga yo‘naltiradigan savollarga javob topa olishga o‘rgatish maqsadga muvofiq. Har bir so‘z, birikma va iboralar asosiy fikrni ifodalashga xizmat qilishiga doir yondashuvlarni qo‘llash o‘quvchilar nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu borada ona tili va o‘qish darslarida matn ustida ishlashga doir savollar-topshiriqlar, reja tuzish, sarlavhalar va epigraflar tanlash, ularni bajarish namunalari taqdim etilsa, o‘quvchi matn mohiyatini o‘z izlanishlari bilan mustaqil o‘zlashtirish yo‘lini tutadi. Bu esa ularning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishi barobarida ijodiy tafakkurini ham o‘stirishga yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Ҳакимова М. Тўртинчи синфда ижодий иш жараёнида ўқувчилар нутқ маданиятини шакллантириш йўллари // “Таълим жараёнида нутқ маданиятини такомиллаштириш масалалари” номли “Ўзбек тили” доимий анжумани бешинчи йиғинининг тезислари тўплами. – Тошкент: Шарқ, 1999.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 жилд. Тошкент: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.
3. Зуннунов А., Турдиев Б. Баёнлар тўплами. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
4. Qosimova K. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b
5. Is’hoqova M., Azizova N. Boshlang‘ich sinflar uchun bayonlar to‘plami. – Toshkent: Bayoz, 2017.
6. Ниёзметова Р.Ҳ. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. Монография. – Тошкент: Фан, 2006.
7. Сафо Матжон. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

СОВРЕМЕННЫЕ СРЕДСТВА ОБУЧЕНИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ АКТИВИЗАЦИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Алимова Шахноза Шукуровна- и.о.доцента Навоийского государственного педагогического института Узбекистан

Аннотация: В статье идет речь о проблеме активизации познавательной деятельности учащихся которая была и остаётся одной из актуальных в теории и практике обучения русскому языку

Ключевые слова: современное оборудование, познавательная деятельность, информационные технологии, ИКТ- компетентность, санитарные правила и нормы

Annotatsiya: Maqolada rus tilini o‘qitish nazariyasi va amaliyotida eng dolzarb masalalardan biri bo‘lgan va shunday bo‘lib kelgan o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirish muammosi haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy jihozlar, kognitiv faoliyat, axborot texnologiyalari, AKT kompetensiyasi, sanitariya qoidalari

MODERN TEACHING TOOLS AS A TOOL FOR ACTIVATING COGNITIVE ACTIVITY IN RUSSIAN LANGUAGE LESSONS

Abstract: The article deals with the problem of enhancing the cognitive activity of students, which has been and remains one of the most pressing in the theory and practice of teaching the Russian language.

Key words: modern equipment, cognitive activity, information technology, ICT competence, sanitary rules and regulations

Средства обучения – обязательный элемент оснащения образовательного процесса. Наряду с целями, содержанием, формами и методами обучения средства обучения являются одним из главных компонентов дидактической системы. Главная задача учителя заключается в том, чтобы сделать предмет интересным для ребенка. Использование современных обучающих мультимедийных технологий требует использования в школах современных технических средств обучения, которые позволяют: обогатить педагогический, технологический инструментарий учителей; автоматизировать процессы администрирования, избавляет от рутинной работы. Способствуют повышению методического мастерства учителей, появлению нового электронного педагогического инструментария, использованию электронных учебных программ, тестов, упражнений. Каждая школа мечтает о том, чтобы в ее кабинетах были современные технические средства обучения, практичные учебные пособия.

Современное оборудование – это широкий спектр высокоэффективных технических средств обучения. Кроме компьютеров, которые дают возможность смоделировать многие процессы и тем самым позволяет на практике реализовать знания учащихся, это: цифровые проекторы - для отображения компьютерной информации и видео; проекционные экраны - разнообразных моделей; оверхед-проекторы; слайд-проекторы; копи-доски - для тиражирования записанного на доске; интерактивные доски - возможность прямо на доске изменять демонстрационные электронные материалы; документ-камеры - настольные видеокамеры для демонстрации объектов и слайдов с помощью цифрового проектора; видеоконференционные системы - для эффективного общения на расстоянии; маркерные и текстильные доски; проекционные столики и т.д.

Проблема активизации познавательной деятельности учащихся была и остаётся одной из актуальных в теории и практике обучения. А в русле деятельностного подхода познавательная активность является психологической основой обучения.

«Современная ориентация образования - формирование компетенции как готовности и способности человека к деятельности и общению. Предполагает создание дидактических и психологических условий, в которых ученик может проявить интеллектуальную и познавательную активность, личностную социальную позицию, свою индивидуальность, выразить себя как субъект учения».

Принцип познавательной активности рассматривался многими учеными. Исследователями Г. И. Щукиной, Татьяной Ивановной Шамовой, Леонидом Владимировичем Занковым, Львом Семеновичем Выготским, Пидкасистым и д.р описаны источники, уровни, признаки познавательной активности, средства активизации. Наряду с основными средствами обозначены так называемые другие условия активизации, среди которых – средства обучения.

К средствам бучения русскому языку относятся: школьные учебники, учебные материалы (сборники упражнений, словари, справочники); средства (зрительной, слуховой, зрительно-слуховой) наглядности, компьютерная техника. Широкое применение последней требует от учителя и детей умения работать с цифровыми образовательными ресурсами, обеспечивать компьютерную поддержку уроков, вести поиск информации, т.е. овладения ИКТ- компетентностью.

Однако в теории развитие познавательной активности связывается, прежде всего с такими средствами активизации, как учебное содержание, методы, приемы, формы обучения. А средства обучения рассматриваются лишь как дополнительный фактор мотивации.[21] Практико-ориентированный анализ показывает, что иногда учителя могут недооценивать роль средств обучения, не связывать выбор средств с целями обучения, преувеличивать роль средств обучения или использовать их не в системе.

Современная школа призвана воспитывать гармонически развитую личность, способную к активной трудовой и умственной деятельности в различных областях общественной и государственной жизни.

Формирование нового человека, гармонически сочетающего в себе духовное богатство, моральную чистоту и физическое совершенство, - необходимое условие здорового современного общества.

Современные условия развития общества предполагают обращение к личности ученика, направление на развитие его лучших качеств и формирование разносторонней личности. В связи с этим особое значение в начальной школе приобретает обучение с использованием на уроках русского языка современных средств обучения. Они дают возможность учителю в процессе учебной деятельности развивать у младших школьников произвольность психических процессов. Положительно влияют на развитие творческих способностей, смекалки, находчивости, сообразительности.

Современные средства обучения на уроках русского языка в начальной школе являются средством воспитания умственной активности учащегося, они активизируют психические процессы, вызывают живой интерес к процессу познания, сопровождаются эмоциями радости, удивления, а иногда и непосредственного, веселого смеха.

Помочь учащимся проявить свои способности, самостоятельность, развивать творческий потенциал, инициативу – одна из основных задач современной школы, а успешная реализация этой задачи во многом зависит от сформированности у учащихся познавательного интереса. Электронные образовательные ресурсы приобретают немаловажное значение для формирования познавательного интереса младших школьников, развития образного восприятия, эмоциональных переживаний: удовлетворенности, радости, а может быть даже и огорчения. Работа учителя в этом направлении создает объективные предпосылки для успешного усвоения программного материала.

К современным средствам обучения относятся:

• традиционные средства обучения (на печатной и непечатной основах, а также оборудование, приборы и инструменты для проведения натурных экспериментов и практических действий);

• инновационные средства обучения (функционирующие на базе цифровых технологий).

Использование в образовательном процессе интерактивных средств обучения позволяет учащимся проявить самостоятельность при изучении нового материала, в работе с текстом, раскрывающим основное содержание предмета, оценить уровень своей подготовки по конкретной проблеме на данный момент времени.

Использование информационных технологий на уроках русского языка, например, интерактивной доски, позволяет активизировать мышление, воображение, память, внимание, развивать познавательные интересы, речь, творческие способности. Опыт практической работы показывает, что урок, проведенный с использованием мультимедиа, дает более качественные знания, чем обычный урок. На таком уроке дети проявляют большую активность, стремление к познанию нового, желание учиться. Информационные технологии позволяют учителю активизировать умственную работу учащихся, а школьник проявить свои творческие возможности

Компьютер, интерактивная доска помогает учителю на начальной ступени образования в реализации очень важного принципа дидактики – принципа наглядности. К.Д.Ушинский писал: «Детская природа ясно требует наглядности. Учите ребенка каким-нибудь пяти неизвестным ему словам, и он будет долго и напрасно мучиться над ними; но свяжите с картинками двадцать таких слов - и ребенок усвоит их на лету…».[22] В этом случае будет обеспечен высокий уровень усвоения предоставленного на уроке материала по сравнению с использованием традиционных наглядных пособий, в частности, схем, таблиц. Благодаря достижениям новых информационных и компьютерных технологий, новое звучание приобретают направления дидактики, связанные с развитием новых педагогических технологий, в том числе дидактических средств обучения, компьютеризированного обучения, которые фундаментально подлежат исследованию. Для начальной школы это означает смену приоритетов в расстановке целей образования: одним из результатов учебно-воспитательного процесса в школе должна стать готовность детей к овладению современными компьютерными технологиями и способность использовать полученную с их помощью информацию для дальнейшего самообразования.

Использование компьютерных технологий позволяют сделать уроки русского языка более мобильными, продуманными, интересными. Учитель использует учебный и занимательный материал, отсутствует необходимость готовить к уроку массу дополнительных пособий – иллюстраций, репродукций, схем, таблиц. Ученики начальных классов имеют наглядно-образное мышление, поэтому важно строить учебный процесс, применяя как можно больше качественного иллюстративного материала, вовлекая в восприятие нового не только зрение, но и слух, эмоции, воображение. Большую роль играет яркость и занимательность компьютерных слайдов.

Учитель, применяя информационные компьютерные технологии, может перейти от объяснительно-иллюстрированного способа обучения к деятельностному, при котором младший школьник становится активным участником учебной деятельности.Это формирует более качественное, осознанное усвоение знаний.

Сочетание различных средств обучения на уроках русского языка способствует тому, что учитель лучше доносит до учащихся сущность изучаемых явлений, помогает выделить основные понятия и показать взаимосвязь между ними. Обладая высокой степенью наглядности, средства обучения дают возможность организовывать передачу информации на таком уровне, который был бы доступен для данной категории

учащихся, а постоянный оперативный контроль в процессе изложения позволяет более объективно судить о ее доступности. Таким образом, применение средств обучения на уроке позволяет решить следующие задачи:

- более полно и глубоко раскрыть сущность изучаемых объектов, явлений и процессов;
- лучше организовать учебно-познавательную деятельность учащихся на этапах урока по усвоению знаний, умений и навыков;
- установить внешнюю и внутреннюю обратные связи, на основании которых можно осуществлять корректировку процесса обучения.

Современный учитель понимает: невозможно интересно, результативно провести урок с опорой лишь на мел и доску. Сегодня педагог просто обязан овладеть интерактивными средствами обучения, чтобы обеспечить одно из главнейших прав ребёнка – право на качественное образование.

Необходимость и эффективность применения информационных технологий на уроках русского языка обосновывается не только целью повышения уровня мотивации ученья, совершенствованием навыков грамотного письма учащихся, но и психологической подготовкой подростка к полноценному существованию в современном «информационном» обществе.

Электронная техника на уроке русского языка ориентирована на поддержку традиционного курса обучения, и в этом случае она не только не отвлекает детей от школьного предмета, а скорее, служит развитию у ребёнка повышенного интереса к нему.

При тщательном продумывании плана урока учитель сталкивается с объективными трудностями: как построить урок, чтобы интерактивные средства ни в коем случае не выступали механической заменой классической доски.

Преимущества новых технических средств очевидны, и рано или поздно любой учитель встанет перед проблемой внедрения в учебный процесс компьютерной системы обучения.

Применение электронной техники на уроке русского языка – это не только ответная реакция на сдвиги, происходящие в мире, но и существенное изменение в содержании обучения, новое средство самовыражения. Совместное творчество учителей школы, межпредметные связи выступают не как дежурный «показушный» приём для открытого урока, а как совершенно естественный элемент интеграции знаний предмета.

Положительные аргументы:

- Доступность сложного материала
- Визуальный ресурс урока с минимальными затратами времени;
- Представление информации с помощью различных мультимедийных ресурсов;
- Классификация и систематизация учебного материала, изучение его на повышенном уровне;
- Упрощение объяснения схем, графиков и их наглядность;
- Наглядное иллюстрирование при объяснении материала;
- Высокая плотность, динамичность и мобильность урока;
- Возможность выхода за рамки школьной программы;
- Повышение мотивации учащихся к учению;
- Строгое соблюдение САНПИНА.
- Пополнение методической копилки учителя.

Отрицательные аргументы:

- Большая затрата времени учителя при подготовке к проведению мультимедийного урока.

Следует отметить, что, согласно требованиям САНПИНа, необходимо помнить об ограничении в использовании электронной техники. В связи с этим на этапах закрепления нового теоретического материала нецелесообразно привлекать компьютер. Русский язык – письменный предмет, предполагающий совершенствование грамотного письма. И это правило остается доминирующим даже при активном использовании интерактивных средств обучения на уроках.

Список использованной литературы.

Васильев В. В. Проектно-исследовательская технология: развитие мотивации // Народное образование. М., 2000. - № 9.

Зенкина С.В. Информационно-образовательная среда как фактор повышения качества образования // Педагогика. — 2008. — № 6. — С. 22—28.

Крылова Н. Проектная деятельность школьника и педагога. Диалог с воображаемым оппонентом // Народное образование. 2005. - № 7.

Челышкова М. Б. Теория и практика конструирования педагогических тестов. Уч. пособие. — М.: Логос, 2002. Принципы проектирования // Педагогика. 2002. - № 5.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Sayliyeva Mashkura Muxtor qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim metodikasi o‘qituvchisi. Chirchiq,O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy ko‘nikmasini rivojlantirish, bolaning psixologik rivojlanishi, shaxsning fe'l-atvori, qiziqishlari, qobiliyatlari, faoliyatning murakkab turlarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarning poydevorini yaratish, motivlar va ehtiyojlar tuzilishini shakllantirish, axloqiy me'yorlar, o‘zini o‘zi qadrlash, xulq-atvorni ixtiyoriy tartibga solish haqida ma’lumotlar berilgan.
Kalit so‘zlar: Ijodkor, Tasavvur, fantaziya, axloqiy me'yorlar,kashfiyot, sub'ektiv.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие творческих способностей учащихся младших классов, психологическое развитие ребёнка, его личности, интересов, способностей, формирование сложных видов деятельности, создание фундамента творческих способностей, формирование структуры мотивов и потребностей, моральная информация о самооценке, волевая регуляция поведения.
Ключевые слова: Творчество, Воображение, фантазия, этические нормы, открытие, субъективное.

DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Abstract: In this article, the development of creative skills of elementary school students, psychological development of the child, personality, interests, abilities, formation of complex types of activities, creation of the foundation of creative abilities, formation of the structure of motives and needs, moral information about self-esteem, voluntary regulation of behavior.
Keywords: Creator, Imagination, fantasy, ethical standards, discovery, subjective.

Bolalikda ma'lum bo‘lganidek, bolaning hayollari va hayollari juda muhim rol o‘ynaydi. Ammo qancha odam bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish kerakligini o‘ylaydi. Afsuski, ko‘pchilik kattalar bolaning hayollarini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor bermaydi, bu esa kelajakda bolalarning imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi. Ijodkorlik har bir inson hayotida juda muhim rol o‘ynaydi. Tasavvur va fantaziya har ikki munosabatlarda ham, ishda ham odamlarga yordam beradi, lekin eng muhimi, ijodiy insonlar har qanday biznesda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan o‘zligini namoyon eta oladi. Shunday qilib, agar bola tasavvurning yetishmasligidan aziyat chekmasa ham, ota-onalar o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor berishlari kerak.

Kichik maktab yoshi - bu bolaning psixologik rivojlanishining barcha hal qiluvchi davri, barcha aqliy funktsiyalarning jadal rivojlanishi, faoliyatning murakkab turlarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarning poydevorini yaratish, motivlar va ehtiyojlar tuzilishini shakllantirish, axloqiy me'yorlar, o‘zini o‘zi qadrlash, xulq-atvorni ixtiyoriy tartibga solish elementlari.

Ijod - bu shaxsning fe'l-atvori, qiziqishlari, qobiliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab aqliy jarayon. Xayol uning diqqat markazida. Ijodda shaxs tomonidan qabul qilingan yangi mahsulot ob'ektiv ravishda yangi (ijtimoiy ahamiyatga ega kashfiyot) va sub'ektiv ravishda yangi (o‘zi uchun kashfiyot) bo‘lishi mumkin. Ijodiy jarayonning rivojlanishi, o‘z navbatida, tasavvurni boyitadi, bolaning bilimlari, tajribasi va qiziqishlarini kengaytiradi. Ijodiy faoliyat bolalarning hissiyotlarini rivojlantiradi, xotira, fikrlash kabi yuqori aqliy funktsiyalarni yanada maqbul va intensiv rivojlanishiga yordam beradi. idrok, e'tibor. Ikkinchisi, o‘z navbatida, bolaning o‘qish muvaffaqiyatini belgilaydi. Ijodiy faoliyat bolaning shaxsini rivojlantiradi, axloqiy va axloqiy me'yorlarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Ijodkorlik asarini yaratishda bola ularda hayotiy qadriyatlarni, uning shaxsiy xususiyatlarini tushunishini aks ettiradi.

Boshlang‘ich maktab o‘quvchilari san'at qilishni yaxshi ko‘radilar. Ular jo‘shqinlik bilan qo‘shiq kuylashadi va raqsga tushishadi, haykaltaroshlik va rasm chizishadi, ertaklar yozadilar va xalq hunarmandchiligi bilan shug‘ullanadilar. Ijodkorlik bolaning hayotini yanada boy, to‘laroq, quvnoq qiladi. Bolalar shaxsiy komplekslaridan qat'i nazar, ijodkorlik bilan shug‘ullanishlari mumkin. Voyaga yetgan kishi, ko‘pincha o‘zining ijodiy qobiliyatlarini tanqidiy baholaydi, ularni namoyish etishdan tortinadi. Har bir bolaning o‘ziga xos xususiyati bor, uni yetarlicha erta tanib olish mumkin. Maktabda har bir predmet o‘qituvchisi dars jarayonida o‘quvchining o‘zlashtirish qobiliyatini e'tiborga olishi lozim. Bu esa o‘quvchining psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishni talab etadi.

O‘quvchilarni o‘quv mashg‘ulotlariga munosabatlarida namoyon bo‘ladigan individual ruhiy xususiyatlari — diqqati, yaxshi yoki noxush kayfiyatlari, irodaviy faolligi, hamda qiziqishi va havaslari fizikani o‘rganish jarayonida amal qiladigan muhim omillardandir.

Ma'lumki, diqqat — aqliy faoliyatda g‘oyat muhim rol o‘ynaydi. Diqqatning ahamiyatini ta'kidlab, K.D. Ushinskiy «Diqqat — ruhimizga o‘tib turadigan hamma narsaning eshigidir», — deb ta'lim beradi. Demak, bilimlarni puxta egallash jumladan fizikani o‘zlashtirishning zarur shartlaridan biri o‘quvchilar diqqatining fizik jarayonlarni puxta bilib, o‘zlashtirib olishga yo‘naltirilishi, unda kuchli va barqaror to‘planishidir.

Diqqatning o‘rganilayotgan materialdan chalg‘ib ketishi, parishonlik, zarur obyektga to‘planmasligi yoki to‘planishining qiyinligi ta’limning sifatiga, jumladan o‘zlashtirish tezligiga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar kechiradigan xilma-xil ta'sirchanlik holatlar, yaxshi yoki noxush kayfiyatlar, his va tuyg‘ular katta rol o‘ynaydi. Bu hissiyotlar diqqatning kuchli va barqarorligiga ham ta'sir qiladi.

Ma'lumki, biron maqsadga erishmoq uchun, ruhiy zo‘r berish, irodaviy faollik ko‘rsatish, kuch sarflash lozim bo‘ladi. Ta'lim jarayonida aqliy faoliyatning faolligi, asosan iroda kuchi yordami bilan ta’min etiladi. Ta'lim jarayonida sarflanadigan kuch va harakatdan kuzatilgan maqsadning aniqligi, unga erishish vositalarining ravshanligi,

o‘quvchilarda faollik tug‘diradi, o‘quv materialini to‘la va chuqur idrok qilish ham anglab olishga intilishni kuchaytiradi. Bilim va malakalar hosil qilishda diqqat, hissiyot va irodaning ijobiy yo‘li o‘quvchilardagi qiziqishga ham bog‘liqdir. Chunki, «qiziqish kishining o‘z hayotida eng ahamiyatli eng qimmatbaho deb bilgan narsalarga yo‘nalganligidir.

Qiziqish kishining qiziqqan narsasiga doimiy intilishida, uni o‘ziga yaqinlashtirishida, o‘rganib olishga intilishida namoyon bo‘ladi»'.

O‘qituvchining pedagogik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan omillar haqida ham to‘xtalib o‘tmoq kerak. O‘qituvchining fanni, uni o‘qitish uslubini qanchalik egallaganligi, darsni tashkil qilish va o‘tkazish mahorati, umuman o‘qituvchining fan o‘qituvchisiga xos individual sifatlari o‘quvchilarda bilimlarning shakllanishida amal qiladigan omillar jumlasidandir.

ADABIYOTLAR

1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot stategiyasi.-Toshkent, 2022.
2. Xasanboyev J.va boshq.Pedagogika fanidan izohli lug‘at.-Toshkent, 2009.
3. Jabborova O.,Umarova Z. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi.-Toshkent,2023.
4.O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to‘g`risidagi qonun” // Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent.: Sharq, 1997, 20-29 bet.
5.O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g`risida” gi qonun // Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent.: Sharq, 1997, 31-61 bet.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA LINGVISTIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA LINGVISTIK VAZIFALARNING O‘RNI

Mo‘minova Go‘zalxon G‘ulamjanovna
NamDU Boshlang‘ich ta’limda ijtimoiy-gumanitar
fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqola lingvodidaktikadagi munozarali masalalardan biri lingvistik vazifalar hamda boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarda lingvistik kompetentlikni shakllantirish haqida yozilgan. Lingvistik vazifalarni lingvistik kompetentlikni shakllantirish bilan bir qator malakalarni rivojlantirishni ta’minlashi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: lingvistik kompetentlik, lingvistik vazifalar, lingvodidaktika, lingvistik fakt, lingvistik fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, qidirish, o‘zgartirish, modellashtirish, algoritmik harakatlar zanjiri.

РОЛЬ ЯЗЫКОВЫХ ЗАДАЧ В ФОРМИРОВАНИИ ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РОДИНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ

Абстрактный: Данная статья написана об одном из дискуссионных вопросов языковой дидактики, лингвистических задачах и формировании языковой компетентности учащихся на уроках родного языка в начальной школе. Рассматриваются лингвистические задачи, обеспечивающие развитие ряда умений с формированием языковой компетенции.

Ключевые слова: языковая компетентность, лингвистические задачи, лингводидактика, лингвистический факт, языковое мышление, анализ, сравнение, поиск, преобразование, моделирование, цепочка алгоритмических действий.

THE ROLE OF LINGUISTIC TASKS IN THE FORMATION OF LINGUISTIC COMPETENCY OF STUDENTS IN PRIMARY CLASS MOTHER LANGUAGE LESSONS

Abstract: This article is written about one of the controversial issues in language didactics, linguistic tasks and the formation of linguistic competence of students in primary school mother tongue classes. Linguistic tasks are considered to ensure the development of a number of skills with the formation of linguistic competence.

Key words: linguistic competence, linguistic tasks, linguodidactics, linguistic fact, linguistic thinking, analysis, comparison, search, transformation, modeling, chain of algorithmic actions.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur’atlarda jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Ta’lim-tarbiya jarayoniga umumta’lim fanlarini o‘qitishning prinsipial yangi metodologiyasi sifatida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limni joriy etish siyosiy, umumdavlat va didaktik ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa hisoblanadi.

Jahonda lingvodidaktika va nutqiy faoliyatni rivojlantirish, kommunikativ kompetentsiya, nutqiy ko‘nikma hosil qilish texnologiyalari, o‘quv hamda kommunikativ harakatlarni rivojlantirish, turli tillardagi differensial belgilarni tadqiq etish, lakunalarning sema (komponent) tahliliga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda[3].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetentlikni shakllantirishda maxsus o‘yin tipidagi vazifalar - lingvistik vazifalar- muhim omil va vosita hisoblanadi.

Ehtimol, ko‘pchilik uchun “vazifa” tushunchasi birinchi navbatda matematika, fizika kabi aniq fanlar bilan bog‘liq tasavvur shakllantiradi. Biroq, XX asrning boshlaridayoq rus tilshunosi I. A. Boduen de Kurtene bu tushunchani lingvistikada qo‘llagan. Bunday yondashuv, uning fikricha, faqat turli ma’lumotlarni yodlash va o‘qilgan kitoblar va darsliklar mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta aytib berishga asoslangan.

Pedagogik amaliyotda biz ko‘pincha o‘quvchilar tomonidan til materialini o‘zlashtirishni osonlashtirish maqsadida o‘quv materialining taqdimotini “yangilash”, darsga o‘yin-kulgi elementlarini kiritish, bolalarning fikrlash

qobiliyatini faollashtirish, ularning kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni rag‘batlantirishga e’tibor qaratamiz. Ushbu maqsadlar uchun har xil turdagi lingvistik vazifalardan foydalanish mumkin.

Lingvistik vazifa - bu axborot tizimi bo‘lib, uning elementlari obyekt (lingvistik fakt), shart (til faktida mujassamlangan muammo) va axborot tizimini ikki yoki undan ortiq harakatlarga aylantirish orqali lingvistik muammoni hal qilish talabidir.

Lingvistik vazifa tushunchasi lingvodidaktikadagi munozarali masalalardan biridir. Birinchidan, bu lingvistik vazifa tushunchasining mazmun-mohiyati bilan, ikkinchidan, lingvistik vazifalarning tasnifi bilan bog‘liq. Shunday bo‘lsa ham lingvistik vazifaning o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egaligi barcha tadqiqotchilar tomonidan aniq e’tirof etilgan.

Lingvistik vazifa matematik, fizik va boshqa vazifalarga qarama-qarshi bo‘lib, bu lingvistik topshiriqning maxsus turini tashkil etadi. Lingvistika matematika yoki fizikaga, gumanitar fanlar aniq yoki tabiiy fanlarga o‘xshamaganidek, lingvistik vazifa matematik yoki fizik masalaga o‘xshamaydi. Matematik masalalarning obyekti - miqdorlar, miqdoriy munosabatlar, fazoviy shakllar, fizik masalalarning obyekti - materiyaning xossalari va tuzilishi, uning harakat shakllari, o‘zgarishlari bo‘lsa, lingvistik vazifalar, eng avvalo, til vositalarinig aloqalari, munosabatlari, bog‘liqliklarini aniqlashga yo‘naltirilgan. Ko‘rib turganimizdek, sanab o‘tilgan vazifalar turlari predmet sohasiga ko‘ra farqlanadi, ularning mazmuni vazifaga o‘ziga xos xususiyatlarni beradi va uni tur sifatida ajratib turadi.

Lingvistik vazifa odatda har qanday vazifaga xos bo‘lgan elementlarni o‘z ichiga oladi: mavzu, shart, topshiriq talabi. Xuddi matematik vazifa kabi u bir yoki bir nechta yechimga ega bo‘lishi mumkin, uni kichik vazifalarga bo‘lish mumkin, chunki yechim ikki yoki undan ortiq amallarni o‘z ichiga oladi. Muammoni hal qilishda ikki yoki undan ortiq harakatlarning mavjudligi muammoning tabiati, uni hal qilish uchun zarur bo‘lgan murakkab aqliy faoliyat (tanlash, taqqoslash, til hodisalarini tahlil qilish va boshqalar) bilan bog‘liq.

Lingvistik vazifa doirasida muammoni hal qilish - bu lingvistik fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, qidirish, o‘zgartirish, modellashtirish, algoritmik harakatlar zanjiri va boshqalar bo‘lgan bir qator harakatlarni (odatda ikkidan yettigacha) bosqichma-bosqich bajarish.

Muammo doirasidagi ilmiy-metodik manbalar tahlili asosida lingvistik vazifa tushunchasining keng va tor ma’nodagi talqinlarini ko‘rsatishimiz mumkin. Keng ma’nodagi talqinga ko‘ra, lingvistik vazifa deganda lingvistik material bilan ishlashga asoslangan har qanday mashq yoki vazifa tushuniladi. Tor ma’nodagi talqinga ko‘ra, lingvistik vazifa tushunchasi tinglovchi tomonidan lingvistik muammoni o‘ziga xos tarzda hal qilinadigan muammoli vaziyat bilan bog‘liq.

Fikrimizcha, lingvistik vazifaning muhim belgisini muammoli vaziyatning mavjudligi tashkil etadi. Vazifa bu hal qiluvchining yo‘lidagi to‘siqdir, ana shu to‘siqni bartaraf etish esa vazifaning, bu yerda lingvistik vazifaning hal qilinishidir, bajarilgan vazifa – vazifa emas, balki vazifalardan foydalanishdir, chunki u subyektdan (o‘quvchidan) aqliy faoliyatni talab qilmaydi. Demak, vazifa tushunchasining mohiyati uning bajaruvchisining, ya’ni o‘quvchining faolligini ta’minlovchi ichki manbalarga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, biz tadqiqotimizda lingvistik vazifa tushunchasining tor ma’nodagi talqiniga amal qilamiz.

Lingvistik vazifa komponentlarining o‘zaro aloqasi va bog‘liqligi bajaruvchining faoliyati yaxlit holatda bajaruvchining, ya’ni o‘quvchini faoliyati davomida informatsion jihatdan boyituvchi tizimni tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, lingvistik vazifa til vositalari (faktlari), ularda ifodalangan muammo hamda uni hal etish talabidan iborat informatsion tizimni tashkil etadi.

Lingvistik vazifalar bu sohadagi kompetentlikni shakllantirish bilan bir qatorda quyidagi malakalarni rivojlantirishni ta’minlaydi:

-ona tilining qonun va qoidalarini “kashf qilish”;

-o‘rganilayotgan lingvistik fakt yoki hodisa yuzasidan mustaqil xulosalar chiqarish;

-yangi lingvistik mavzuni mustaqil shakllantirish;

- boshqa fanlardan egallagan bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash.

Lingvodidaktikada vazifa so‘zi bilan bir qatorda “topshiriq”, “mashq” atamalari ham sinonimik tushuncha sifatida ishlatiladi. Fikrimizcha, ularning ma’no jihatdan nisbiy yaqinligiga qaramay, semantik qobig‘ida sezilarli farq mavjud.

“Lingvistik vazifa” atamasida uning ikkala komponenti muhim ahamiyatga ega. Bu vazifa, chunki har xil turdagi mashqlar va topshiriqlardan farqli o‘laroq, javob sirtda yotmaydi, balki ma’lum mantiqiy operatsiyalar yordamida topiladi. Vazifa va mashqlar o‘rtasidagi farq hamda uning uslubiy afzalligi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

1). Lingvistik vazifaning zamirida muammoli vaziyat turadi, uni hal qilish bir qator mantiqiy amallardan foydalanishni talab qiladi.

2). Javob sirtda yotmaydi, vazifa hal qilishni, haqiqatni topishni talab qiladi.

3). Qaror bir nechta harakatlarning bosqichma-bosqich bajarilishi fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, xususiyatlarni tanlash natijasida qabul qilinadi.

4). Nostandart shakllantirish e’tiborni tortadi, fikrlashni faollashtiradi va ijodkorlikni rag‘batlantiradi.

5). Lingvistik vazifa o‘quvchining tajribasi, dunyo haqidagi bilimlari bilan bog‘liq bo‘lgan ichki ma’noni o‘z ichiga oladi.

6). Lingvistik vazifa o‘rganilayotgan lingvistik fakt yoki hodisa yuzasidan mustaqil xulosalar chiqarish, yangi lingvistik mavzuni shakllantirish, boshqa fanlardan bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash imkonini beradi.

Lingvistik vazifaning taxminiy tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Muammoning sharti (u vaziyatni va ma’lumotlarni tavsiflaydi, noma’lum ko‘rsatkichni o‘z ichiga oladi).
2. Reproduktiv xarakterdagi misollar yoki vazifalar.
3. Maslahat, bajarishga tavsiya.
4. Vazifa yoki muammoli topshiriqning muammoli savoli (ular ushbu lingvistik faktlarni o‘rganishga qaratilgan).

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetentlikni shakllantirishda lingvistik vazifalarni qo‘llashning ahamiyati katta va til ta’limini o‘zlashtirishda yuqori samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алавуддинова Н. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси: пед. фан. номзоди дисс. автореф.ТДПУ. - Т., 2008.24 б.
2. Асадов Й. Таълимда компетенциявий ёндашув // Мактаб ва ҳаёт, 2014. – №1. – Б.8.
3. Булекбаева Ш. Б. Она тилини давлат тили билан коммуникатив когнитив асосда қиёсий ўргатиш (Таълим қозоқ тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида) 13.00.02 – Таълим ва тарбия назарияси ва методикаси (қозоқ тили) Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PHD) диссертацияси автореферати, Самарканд, 2019.
4. Буланова С.Ю. Особенности формирования лингвистической и языковой компетенции младших школьников при изучении синтаксиса // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки. - 2008. - № 2. - С. 74-81.
5. Казаева Л.И. Лингвистическая компетентность и принципы ее формирования на основе повторов при изучении иностранного языка // Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова. - 2010. - № 1. - С. 15-21.
6. Казиева Т.Г. Фонетик услубиятни ўрганишда ўқувчиларнинг креатив компетенциясини ривожлантиришнинг илмий-методик асослари/Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.- Наманган, 2020.-12 с.
7. Киселёва Н.А. «Лингвистические задачи и их классификация» , журнал «Языкознание» № 8, 2008 год.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI AXLOQIY MADANIYATI TIZIMIDA GLOBAL FAZILATLAR

Mamatova Aziza Maxamatdjonovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari axloqiy madaniyat tizimida global fazilatlar masalasi to‘g‘risida fikr yuritilgan va mualliflik yondashuvi taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘quvchi va bilim, axloq va madaniyat, tizim va ta’lim, global fazilatlar, o‘rganish va o‘zlashtirish.

ГЛОБАЛЬНЫЕ КАЧЕСТВА В СИСТЕМЕ НРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В статье приведены размышления о глобальном качестве в этико-культурологический системе учителей начальных класс и дана поданному вопросу подходы автора.

Ключевые слова: начальное класс, ученик и знание, нравственность и культура, система и образование, глобальное качество, обучение и освоение.

GLOBAL QUALITIES IN THE SYSTEM OF MORAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation: the article discusses the issue of global virtues in the system of moral culture of primary school students and presents the author's approach.

Key words: elementary school, student and knowledge, ethics and culture, system and education, global virtues, learning and mastering.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan boshlang‘ich ta’limga oid vazifalar tarkibida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida innovasion jamiyat talablariga mos tarbiyalash va voyaga yetkazish masalalari ham belgilangan[1]. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyalanganlik ko‘rsatkichlari boshlang‘ich ta’lim jarayonini rivojlantirishning o‘quv-biluv yo‘nalishidan keyingi tayanch yo‘nalishdir. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyalanganlik darajasi ko‘rsatkichlarida ularning axloqiy madaniyatga ega bo‘lishi ham muhim o‘rin tutadi. Bu o‘rinda ana shu vazifalar ijrosi doirasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy madaniyat tizimida *global fazilatlar* masalasi tahliliga e’tiboringizni tortamiz.

Global fazilatlar mazmuni. “Global” atamasi umumbashariy, umuinsoniy va umuman insoniyatga dahldor masalalar ma’nosini anglatadi[2]. Shu ma’noda bugungi kunda global fazilatlarni belgilab olish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz. Mazkur masalada bizning yondashuvimizga ko‘ra, quyidagi manbalarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1) ta’limga oid xalqaro me’yoriy hujjatlarda belgilangan fazilatlar;
2) umuminsoniy qadriyatlar tarkibida tayanch vazifasini bajaruvchi fazilatlar;
3) milliy qadriyatlar asosida global sifatlarga aylanib borayotgan axloqiy fazilatlar.

Mazkur manbalar asosida global axloqiy fazilatlarni belgilab olish bizningcha, nazariy va metodik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi. Shu ma’noda masalan, dunyo mamlakatlari ta’lim muassasalari tomonidan keyingi paytlarda e’tirof etilgan va Angliyaning Kembrij kolleji pedagog olimlari tomonidan ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan ko‘nikmalarga asosan global fazilatlarning muayyan tarkibini belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur ko‘nikmalar to‘rtta bo‘lib, ulardan *jamoa bo‘lib ishlash va ijodiylik* fazilatlari bevosita global axloqiy fazilatlar sifatida qabul qilinishi mumkin.

Ushbu muhim xalqaro ta’limiy hujjatda jamoa bo‘lib ishlash (“kollabaratsiya”) axloqiy fazilatiga alohida urg‘u berilgan. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, mazkur global ahloqiy fazilatning mazmuni individual va demokratik sifatlar uyg‘unligiga asoslangan jamoa bo‘lib ishlash ma’nosini tarkib toptiradi. Shu ma’noda shaxs individual fazilatlarini demokratik fazilatlarga uyg‘unlashtirishi natijasida jamoa bo‘lib ishlash fazilatiga ega bo‘ladi. Chunki individual fazilatlar oila va ta’lim jarayonida shaxsda tarkib topadi, demokratik fazilatlar esa ta’lim va tarbiyaviy tadbirlar vositasida shaxsda shakllantiriladi. Aynan mana shu tayanchlar asosida jamoa bo‘lib ishlash fazilatini global fazilat sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, ijodiylik (“kreativlik”) fazilatida ham individual va demokratik g‘oyalar mavjud bo‘lganligi uchun uni ham global axloqiy fazilat sifatida qabul qilish muhim ahamiyatga egadir. Chunki ijodiylik shaxsning o‘zlagini namoyon qiluvchi fazilatlar negizidir.

Aynan mana shu yondashuv asosida jamoa bo‘lib ishlash va ijodiylik global axloqiy fazilatlarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ahlorqiy madaniyati tizimida tarkib toptirish nazariy, metodik va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Global axloqiy fazilatlarni shakllantirish metodikasi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jamoa bo‘lib ishlash va ijodiylik global ahloqiy fazilatlarini shakllantirish ularning axloqiy madaniyati tizimida muhim o‘rin tutadi. Buning uchun o‘ziga xos metodikani ishlab chiqish va tanlab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur masalada bizningcha, quyidagi metodikaga tayanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1) tarbiyaviy tadbirlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jamoa bo‘lib ishlash fazilatini tarkib toptirish va ularni tarbiyaviy tadbirlarni jamoa bo‘lib tayyorlashga o‘rgatish;

2) o‘quv-biluv va sinfdan hamda maktabdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiylik fazilatini shakllantirish va ularning ishlanmalari asosida ushbu fazilatini talab darajasida rivojlantirib borish;

3) jamoa bo‘lib ishlash va ijodiylik global axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini amaliy faoliyatga yo‘naltirish.

Bu metodikaga asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida global axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish uchun boshlang‘ich ta’lim gumanitar fanlar o‘qituvchilarining faolligiga ehtiyoj seziladi. Ayniqsa, bu borada “Tarbiya” o‘quv fani o‘qituvchilarining maxsus yondashuvga ega bo‘lishi kutilgan samarani beradi[3].

Global axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayoni monitoringi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari axloqiy madaniyatida jamoa bo‘lib ishlash va ijodiylik global axloqiy fazilatlarining shakllanish darajasi monitoring qilib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun quyidagicha yo‘l tutish kutilgan samarani berishini eslatib o‘tish joiz:

1) “Tarbiya” o‘quv fani o‘qituvchilarining maxsus kuzatuv darslariga ega bo‘lishi va ularda har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisida jamoa bo‘lib ishlash hamda ijodiylik global axloqiy fazilatlarining shallanish jarayoni to‘g‘risida qaydlarni belgshilab borish;

2) boshlang‘ich sinflar kesimida o‘quvchilarda ushbu global fazilatlarning shakllanishi ko‘rsatkichlarini qayd etib borish;

3) jamoa bo‘lib ishlash va ijodiylik global ahloqiy fazilatlarga ko‘nikkan o‘quvchilarning axloqiy madaniyat jihatidan rivojlanishi bo‘yicha ma’lumotlarni tarkib toptirib borish.

Bunday monitoringni amalga oshirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari axloqiy madaniyatida global axloqiy fazilatlarning tarkib topish jarayoni to‘g‘risida aniq ma’lumotlarni beradi va bunday ma’lumotlar asosida o‘quv-biluv hamda tarbiyaviy tadbirlar jarayonining asoslari belgilab olinadi. Natijada xalqimiz milliy qadriyatlariga xos bo‘lgan va global axloqiy fazilatlar sifatida belgilanayotgan jamoa bo‘lib ishlash hamda ijodiylik fazilatlarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirilishi tizimli kechadi.

Shunday qilib boshlang‘ich sinf o‘quvchilari axloqiy madaniyati tizimida ularda jamoa bo‘lib ishlash va ijodiylik global axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish ishi nazariy, metodik va amaliy jihatdan maxsus yondashishni taqozo etishini eslatib o‘tish joiz.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziyonet.uz
2. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent, 2009
3. Mamatova A.M. Apporoaches to forming ethical culture of primary class students. // Web of teachers inderscience research. Volume 1, Issue 7, October 2023. Pp.5-6

PEDAGOGNING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA AMALIYOTGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV

Ergasheva F.T.
NavDPI “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogning raqamli kompetentligini shaklantirishda muhim bo‘lgan umumiy komponentlar taklif etilgan. Ushbu komponentlar pedagoglarning bilim, ko‘nikma va malakalari tizimidan kompetentlik tizimini shakklantirishga o‘tish orasidagi bog‘liqlikni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: raqamli kompetensiya, raqamli texnologiyalar, raqamli kompetentlik komponentlari.

ПРАКТИКО-ОРИЕНТИРОВАННЫЙ ПОДХОД К ФОРМИРОВАНИЮ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА

Аннотация. В данном докладе предложены общие компоненты, имеющие важное значение в формировании цифровой компетентности педагога. Эти компоненты обеспечивают связь перехода от системы знаний, умений и квалификации педагогов к формированию компетентностной системы.

Ключевые слова: цифровая компетенция, цифровые технологии, компоненты цифровой компетентности.

A PRACTICE-ORIENTED APPROACH TO DEVELOPING DIGITAL COMPETENCE OF A TEACHER

Abstract. This report proposes common components that are important in developing the digital competence of a teacher. These components provide the connection between the transition from the system of knowledge, skills and qualifications of teachers to the formation of a competency system.

Keywords: digital competence, digital technologies, components of digital competence.

Axborot texnologiyalari bizning turmush tarzimizni tubdan o‘zgartirdi: raqamli texnologiyalarni hayotimizning turli jabhalariga qo‘llash jadallashmoqda, kompyuter tarmoq texnologiyalari rivojlanmoqda, multimedia texnologiyalari, virtual va to‘ldirilgan voqelik paydo bo‘lmoqda. Ta’limni raqamlashtirish sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish bosqichi ta’limni kompyuterlashtirishdan keyingi bosqichda turadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosati ham ta’lim muassasalarining moddiy texnik bazasiga mos holda bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Buning isboti sifatida mamlakatimizni turli sohalarda 2030 yilgacha rivojlantirish bo‘yicha konsepsiyalarining ishlab chiqilganligi, tasdiqlanganligi va amalga oshirilayotganligini keltirishimiz mumkin [1-3]. Xususan, oliy ta’lim, xalq ta’limi, maktabgacha ta’lim tizimlarini va ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyalarida xodimlarning raqamli kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Ta’lim jarayonida o‘quv va boshqa ma'lumotlarni raqamli shaklga o‘tkazish pedagogdan mahorat va malakalarni o‘zgartirish zaruratini keltirib chiqaradi: o‘quvchi va talabalarning ta'lim natijalariga qo‘yiladigan talablar o‘zgarmoqda, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘qitishning mazmuni, shakllari va usullari o‘zgartirilmoqda. Bu ko‘plab o‘qituvchilar va o‘qituvchilarning raqamli ta'lim texnologiyalariga moslashish kabi yangi muammolarga duch kelishiga olib keladi.

Ko‘pgina tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, raqamli savodxonlik maktabgacha yoshdagi bolalar davrida rivojlana boshlaydi. Zamonaviy bola (o‘quvchi) hayotida juda erta raqamli qurilmalardan foydalanishni boshlaydi. Raqamli dunyoga adekvat bo‘lish uchun esa, o‘qituvchi raqamli texnologiyalarni egallashi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. O‘qituvchining raqamli savodxonligi raqamli kompetentsiyaning asosi bo‘lib, raqamli qurilmalardan, bulutli texnologiyalardan foydalanish va ta'lim sohasida raqamli ta'lim muhitini yaratish qobiliyati sifatida tushuniladi. Demak, ta’limni raqamlashtirish pedagogika oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari oldiga bir tomondan bo‘lajak o‘qituvchilarning sifatli tayyorlanishini ta’minlash, ikkinchi tomondan, ishlaydigan o‘qituvchilar malakasini oshirish uchun yangi mas’uliyat va vazifalarni qo‘ymoqda.

Keyingi vaqtlarda raqamli kompetensiya va raqamli kompetentlik atamasi, ayniqsa pedagogika sohasida ta’lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayonida juda ko‘p qo‘llanilmoqda. O‘z navbatida bu tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglashda aniqlik kiritish zarurati yuzaga keladi, chunki ba'zi atamalar deyarli sinonim sifatida ishlatiladi, masalan, “raqamli savodxonlik”, “raqamli kompetensiya”, “axborot kompetensiyasi”, “axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi” va boshqalar. Bu tushunchalar turli manbalarda turlicha talqin qilinadi, ya’ni axborot tushunchasiga o‘xshab, umum qabul qilingan ta’rifi mavjud emas.

Biz “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalaridan quyidagi ma’noda foydalanamiz. *Kompetensiya* - bu qandaydir umumlashtirilgan, shaxsni tayyorlash uchun oldindan belgilangan, ya’ni shaxs qanday bo‘lishi kerakligiga qo‘yilgan talabdir. *Kompetentlik* - esa allaqachon shakllangan shaxsiy sifat (xususiyat), ya'ni shaxsning mutaxassis sifatida o‘z sohasiga qanchalik mos ekanligini aniqlaydigan darajadir.

Raqamli kompetensiya sohasiga muhim hissa qo‘shgan olim R.J. Krumsvik, hozirda “raqamli kompetentsiyaning nazariy modelini empirik sinovdan o‘tkazish” bilan shug‘ullanadi. U ishlab chiqqan kontsepsiya bu ko‘nikmaning ta'lim tizimidagi asosiy maqomidir [4]. Uning ta'kidlashicha, “raqamli kompetensiya” atamasi xalqaro miqyosda keng qo‘llanilsa-da, u hali ham dolzarb atama bo‘lib qolmoqda, chunki u kengroq va yaxlit ma'noga ega. Bu yerda “asosiy e'tibor o‘qituvchi va fanning o‘ziga qaratiladi, ammo texnik qurilmalardan foydalanish bo‘yicha raqamli kompetentlik ushbu murakkab konsepsiyaning faqat bir bo‘lagidir”. Shuningdek, u “raqamli kompetentlik” - bu o‘qituvchilarning professional sharoitda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT)

foydalanish qobiliyati, yaxshi pedagogik (didaktik) tushuncha va uning o‘qitish strategiyalari hamda talabalarning raqamli bazasi uchun ahamiyatini anglash bilan uyg‘unlasha olishi” - deb hisoblaydi.

Ta’lim oluvchilarning raqamli kompetentligini ta'lim natijasi sifatida rivojlantirish uchun raqamli ta'lim muhiti zarur [5-8].

Raqamli ta'lim muhiti (RTM) - bu axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi mavjudligini nazarda tutuvchi shart-sharoitlar va imkoniyatlar tizimi bo‘lib, shaxsni o‘rganish, rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va tarbiyalash uchun raqamli texnologiyalar va resurslar to‘plamini ta'minlaydi.

Biz ushbu ishda pedagog xodimlarning raqamli kompetentligini aniqlashda amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvni taklif qilgan holda, raqamli kompetentlikning bir nechta komponentlarini ajralib ko‘rsatamiz: kognitiv, faollik va qiymat (Jadval).

Jadval. Raqamli kompetentlikning umumiy komponentlari.

Umumiy komponentlar	**Bilim**	**Ko‘nikma**	**Malaka**
Axborot kompetentligi	axborotning inson hayotidagi roli va ta'sir darajasini bilishi	turli manbalarda ma'lumotlarni qidirish va topish ko‘nikmasi	axborotning foyda va zararini anglay olishi
Kompyuter kompetentligi	kompyuterning texnik komponentlarini va ularning o‘zaro ta'siri tamoyillarini bilishi	platforma / interfeysdan qat’iy nazar raqamli qurilmalardan foydala olish ko‘nikmasi	kompyuter texnologiyalarini qo‘llash vazifalari va maqsadlaridan kelib chiqib foydalana olishi
Media kompetentligi	axborot manbalarining xilma-xilligini, uni tarqatish shakllari va usullarini bilishi	turli manbalarda yangiliklarni qidirish, ularning to‘liqligi va ishonchliligini tekshirish ko‘nikmasi	axborotlarga, yangiliklarga tanqidiy munosabat qila olishi
Kommunikatsiya kompetentligi	raqamli aloqa va yuzma-yuz muloqot o‘rtasidagi farqni bilishi	zamonaviy aloqa vositalaridan (ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar) foydalanisha olish ko‘nikmasi	raqamli muhitda muloqotning maxsus etikasi va normalariga amal qila olishi
Texnologik innovatsiyalarga munosabat kompetentligi	texnologiya tendentsiyalarini tushunishi	yangi va zamonaviy texnologiyalar (ilovalar, gadjetlar) bilan ishlashga tayyorligi	texnologik innovatsiyalarning jamiyat taraqqiyoti uchun ham, shaxsan o‘zi uchun ham afzalliklarini anglay olishi

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, raqamli kompetentsiyaning tuzilishi juda xilma-xil va murakkab. Yuqorida taklif qilingan barcha ta'riflarda umumiy komponent qayd etilgan - bu raqamli muhitdagi aloqa xususiyatlari va ma'lumotlarni qidirish, tanlash va qayta ishlash bilan bog‘liq texnik ko‘nikmalardir.

Shunday qilib, o‘qituvchilarning innovatsiyalardan xabardorlik darajasini oshirish, yangi raqamli texnologiyalar va vositalardan foydalanish bo‘yicha tajriba orttirish, maktab o‘quvchilarini o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotiga jalb etish va hamkasblari bilan tajriba almashish har bir o‘qituvchining raqamli kompetensiyasining shaxsiy darajasini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoniga 1-ilova).
2. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son Qaroriga 1-ilova).
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga 1-ilova).
4. Krumsvik R.J. Teacher educators' digital competence // Scandinavian Journal of Educational Research, Vol. 58, No. 3, 2014. https://doi.org/10.1080/00313831.2012.726273
5. Ergasheva, F. T. Formation of ict competence of future primary school teachers in the process of studying the discipline ‘information technologies in primary school’ // Academic Research in Educat. Sci., 2022. 3(10), P.221–229.
6. Ergasheva, F. T. General issues of forming the digital competence of university students // European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA) Vol. 4 No.7, July 2023, https://www.scholarzest.com
7. Ergasheva F.T. Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolari // O‘zMU xabarlari, 2023, [1/7.1]. 155–157.
8.

КАЧЕСТВО МАТЕМАТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Музаффарова Л.Н.,
старший преподаватель кафедры математики НавГПИ, Узбекистан

Аннотация: в статье освещается такая проблема современного образования как качество и состояние математического образования, которое является одним из важнейших факторов, формирующих будущее. Также ставятся задачи повышения качества математического образования с позиции «потребностей будущего» и актуального состояния математического образования в школе.
Ключевы слова: математика, математическое образование, реформы, стратегия, качество, модернизация.

MATEMATIKA TA'LIM SIFATI

Annotatsiya: maqolada zamonaviy ta'limning matematik ta'lim sifati, kelajakni shakllantirishning eng muhim omillaridan biri bo‘lgan matematik ta'limning holati kabi muammosi yoritilgan. “Kelajak ehtiyojlari” va maktabda matematika ta’limining hozirgi holati nuqtai nazaridan ham matematika ta’limi sifatini oshirish vazifalari belgilangan.
Kalit so‘zlar: matematika, matematika ta'limi, islohotlar, strategiya, sifat, modernizatsiya.

QUALITY OF MATHEMATICS EDUCATION

Annotation: the article highlights such a problem of modern education as the quality of mathematical education, the state of mathematical education which is one of the most important factors shaping the future. The tasks of improving the quality of mathematics education are also set from the perspective of “the needs of the future” and the current state of mathematics education in school.
Key words: mathematics, mathematics education, reforms, strategy, quality, modernization.

Математика определена одним из приоритетных направлений развития науки в нашей стране… За прошедший период проведен ряд системных работ, направленных на поднятие математической науки на качественно новый уровень…

Ш. МИРЗИЁЕВ

В Республике Узбекистан за годы Независимости осуществлены коренные структурные и содержательные реформы, затронувшие все уровни и компоненты системы образования, которые были нацелены на обеспечение ее соответствия долгосрочным задачам и интересам страны, требованиям времени, а также мировым стандартам. Создана соответствующая правовая база реформирования данной сферы, определившая в качестве приоритета рост инвестиций и вложений в человеческий капитал, подготовку образованного и интеллектуально развитого поколения, являющегося важнейшей ценностью и решающей силой в достижении целей демократического развития, модернизации и обновления, стабильного и устойчивого роста экономики.

Основной задачей реформирования школьного образования является подготовка обладающих инновационным мышлением учителей, обучающих учеников на основе новых педагогических технологий. С учетом задач нового этапа развития, современный учитель должен быть универсальным специалистом, не только учить, но и одновременно повышать свою квалификацию, то есть постоянно работать над собой, совершенствовать свои профессиональные знания, методический уровень, педагогическую квалификацию.

В условиях формирования гражданского общества принимаются практические решения, чтобы профессия учителя стала самой престижной и почитаемой в стране. На достижение этой благородной цели государственные органы направляют необходимые средства и ресурсы. Инновационный подход к процессу реформирования школьного образования показало, что важнейшей формой расширения приема креативных детей на учебу в президентские и специализированные, частные школы стало осознание необходимости реформирование школьного образования. Это еще связано, тем, что вхождением страны в мировые сообщества показало недостатки школьного образования и еще больше предъявляют новые требования к качеству образовательного процесса в школах. Однако, в период институциональных преобразований в условиях рыночной экономики стало ясно, что большая часть выпускников средних школ не готова к изменениям, их теоретические знания не отвечают современным требованиям. Научный анализ учебного процесса в системе народного образования свидетельствует, что многие выпускники средних школ не ориентированы на самостоятельную работу в период нового этапа развития, они слабо знают социально-экономические проблемы происходящих глубоких перемен в недрах общества, особенно в условиях углубления рыночных экономических отношений.

Качество математического образования является одной из основных проблем современного образования. Состояние математического образования является одним из важнейших факторов, формирующих будущее. Задача повышения качества математического образования актуальна не только с позиции «потребностей будущего», но и с позиции актуального состояния математического образования в школе. В современном мире качественное освоение любой области человеческой деятельности неэффективно без владения конкретными математическими знаниями и методами, без интеллектуальных и личностных качеств, развивающихся в ходе овладения этим учебным предметом. Математика лежит в основе всех

современных технологий и научных исследований, является необходимым компонентом экономики, построенной на знании. Занятия математикой имеют большой общекультурный образовательный потенциал.

Анализ ситуации с математическим образованием выявил следующие проблемы. В начальной школе очень важной является наглядная, инновационная среда объектов математики. Именно начальная школа закладывает основу для формирования базовой грамотности и основных жизненных навыков человека – компетенций, которые становятся ключевыми в будущей жизни. Поэтому принципиально важно увидеть в основной школе итоги обучения начальной школы на основе стартовой диагностики в пятом классе. Проводимый ежегодный мониторинг показывает, что при проведении диагностических контрольных работ в пятом классе процент пятиклассников, успешно выполнивших задания, подобные заданиям итоговой работы за четвертый класс, при переходе из начальной школы в среднюю, снижается. Таким образом, одной из основных проблем является отсутствие преемственности при переходе из начальной школы в среднюю, а так же проблемы с контрольно-оценочной деятельностью учащихся.

В целях дальнейшего совершенствования системы преподавания математической науки на всех уровнях образования, поддержки эффективного труда педагогов, расширения масштаба и повышения практической значимости научно-исследовательских работ, укрепления связей с международным сообществом, а также исполнения задач, определенных в Государственной программе по реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017–2021 годах
в «Год развития науки, просвещения и цифровой экономики».

Математическая деятельность – это исследовательская деятельность, результатом которой является получение математического знания и способов его применения. О содержании математической деятельности писали известные математики и методисты Д. Пойа, А. Пуанкаре, Л. Эйлер. Занятия математикой в форме осуществления учебно-исследовательской деятельности позволяют развивать мышление, необходимое для понимания и совершенствования окружающего нас мира, развивают волевые качества, вырабатывают привычку к методичной работе, без которой немыслим ни один творческий процесс, а также способствуют воспитанию интеллектуальной честности, объективности, стремлению постичь истину, способности к эстетическому восприятию мира (постижению красоты интеллектуальных достижений, идей и концепций, познанию радости творческого труда), воображения и интуиции.

Таким образом, при деятельностном подходе к организации учебного процесса школьное математическое образование может давать серьезный вклад в интеллектуальное и эмоционально-волевое развитие всех учащихся, способствовать освоению ими исследовательской культуры, без которой в современном мире невозможно успешное осуществление любой профессиональной деятельности.

Список использованной литературы:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математикиш». г. Ташкент, 7 мая 2020 года.
2. Кохужева Р.Б. Основные направления модернизации школьного математического образования//Международный журнал экспериментального образования. – 2010. – № 5. – С. 115-119;
3. Юнина Е.А. «Технологии качественного обучения в школе// Москва, 2007

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING BILIMIGA BO‘LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH

Sayliyeva Mashkura Muxtor qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim metodikasi o‘qituvchisi. Chirchiq,O‘zbekiston
Alimova Guljahon Otaniyoz qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi. Chirchiq,O‘zbekiston

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirish to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich,o‘quvchi ,bilim ,ko‘nikma,sinf,sifat.

ПОВЫШЕНИЕ ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К УЧЁБЕ

Аннотация: В статье высказывается мнение о повышении интереса учащихся начальных классов к знаниям.

Ключевая слова: начальное, ученик, знание, навык, класс, качество.

INCREASIN THE INTEREST OF PRIMARY SCOOL STUDENTS IN LEARNING

Annotation: In the article, there is an opinion on increasing the interest of primary school students in knowledge.

Key words: primary, student, knowledge, skill, class, quality.

O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmonida maktab o‘quvchilarning bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlari sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzi va pedagoglarning sifat tarkibini oshirishi , darsliklari va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish ,bilim sifatini oshirish, maktab ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida shuningdek,2022-2026-yillarga

mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini ,,Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili ‘’da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq .Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim sifatini oshirish masalasini ilmiy tadqiq etib boorish va bu borada yangicha yondashuvni ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi.

Bilim kishilarning tabiat,jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan voqelik ma’lumotlar ,voqelikning inson tafakkurida aks etishi .

1.Bilimga qiziqishi va muhabbat uyg‘otish, bola bilimga qiziqmasdan turib,o‘qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o‘qiy olmaydi. Bolada o‘z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o‘qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag‘batlantirish, ayniqsa ahamiyatlidir. Bilim-takrorlash mevasidir”,-degan Abu Rayhon Beruniy Sinfda va uyda ko‘p va jiddiy ishlaydigan bolalar, odatda o‘qishda mehnatga katta muvaffaqiyatlarga erishadilar.Har qanday muvaffaqiyatning zamirida tinimsiz mehnat yotadi.

Bolalarni o‘qishga mas’uliyat bilan qarash ruhida, ko‘chirib olishga qarshi nafrat ruhida tarbiyalash kerak. Sinf majlislarida vaqti-vaqti bilan mazkur masalalarda butun mazmun -mohiyati bilan muhokama qilinishi, shu orqali o‘quv mashg‘ulotlariga loqaydlik bilan qaraydigan o‘quvchilarga sezilarli ta’sir o‘tkazish kerak. Sinfning o‘zlashtirish masalasi atrofida jamoatchilik fikrining shakllanishi , bu borada sinf devoriy gazetasi va axborot kommunikatsiyalari imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi natija beradi.

2.O‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda qo‘llay olishlarini hisobga olish ayniqsa muhimdir.Bu tajriba juda ko‘p maktablarda muvaffaqiyatli qo‘llanib kelinmoqda. O‘quvchilarga biror bir fan bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar yoki biror bir jihoz yasab kelish buyuriladi. Bunda ,, Agar tirishsang, bu seni qo‘lingdan keladi’’ degan gapni uning qulog‘iga quyish kerak. Bu o‘quvchi nafaqat oddiy topshiriq , balki o‘qituvchining ishonchi komili sifatida qabul qiladi.To‘g‘risini aytganda , bunday narsalarni yasash uchun o‘quvchi yetarli nazariy bilimga ega bo‘lishi kerak. O‘quvchi topshiriqni puxta qilib bajarilishi uchun u yoki bu fan asoslarini o‘rganishga, o‘z bilimlarini chuqurlashtirishga harakat qiladi,o‘zi yasayotgan o‘quv quroliga, ushbu fanga nihoyatda qiziqib qoladi. Shu bilan birgalikda har bir yasalgan narsa zamirida mehnat yotganligini his qiladi, sinf va maktab jihozlarini avaylashga o‘rganadi. O‘quvchilarni bilish faolligini takomillashtirish uchun to‘garak fakultativ mashg‘ulotlari jarayonida kengroq foydalanishi lozim.Sinf rahbari o‘z o‘quvchilarining qiziqish,moyilligi uy sharoiti haqida ma’lumotlar bilan fan o‘qituvchilarni haqida ma’lumotlar bilan fan o‘qituvchilarini tanishtiradi, bolaga qanday munosabatda bo‘lish kerakligi haqida maslahatlar beradi. Hatto, shunday ham bo‘ladiki,biror fandan o‘zlashtirmayotgan o‘quvchi bilan sinf rahbarining o‘zi bevosita ish olib boradi. ,,Ikkalamiz bu topshiriqni bajarmasdan qo‘ymaymiz’’,-deb dalda beradi shogirdiga. Kerak bo‘lganda, a’lochi o‘quvchilarni yoki ushbu fan o‘qituvchisini ham ko‘makka chaqiradi. Bundan o‘quvchini ko‘ngli tog‘dek ko‘tariladi,yolg‘iz emas ekanligini tushunadi,topshiriqlarni o‘zlashtirishga harakat,havas uyg‘onadi. Bilimga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish va o‘stirishda sinflarni, o‘quv xonalarni va maktab binosini jihozlash ham katta ahamiyat kasb etadi, o‘quvchilarda turli qarashlar ,did, dunyoqarashni shakllantiradi. Estetik zavq uyg‘otadi, tegishli ma’lum sohalarga havas uyg‘otadi. Bugungi kunda o‘quvchilarni bilim darajasini oshirish va qiziqishini orttirish uchun turli xildagi kitoblar, video rolliklar, slaydlar,prizintatsiyalar chiqarilayabdi.O‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishni oshirishga qaratilgan adabiyotlar nashr qilinmoqda ,,Qiziqarli matematika “, ,,Bilimdon bolajon”, ,,Qiziqarli ona tili” hokaza. Ilmiy – ommabop turkumdagi bu kitoblar o‘quvchilar qo‘liga berilsa, ular hayotida albatta burilish yasashi turgan gap.Kitobdan ham yaqinroq do‘st, undan ham qudratliroq tarbiya vositasi yo‘qdir.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib,u o‘quvchi va o‘qituvchining munosabatlari va o‘qituvchining pedagogik mahoratiga tayanadi. Ta’lim beruvchi o‘quvchilarni bilimga, fanga bo‘lgan qiziqishni oshirish uchun zamonaviy metodlardan, o‘zgacha dars o‘tish jarayonlaridan, xorijiy tajribalardan ,ilmiy-metodik kitoblardan foydalanishi tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot stategiyasi.-Toshkent, 2022.
2. Xasanboyev J.va boshq.Pedagogika fanidan izohli lug‘at.-Toshkent, 2009.
3. Jabborova O.,Umarova Z. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi.-Toshkent,2023.
4. Mirziyoyev Sh.M. Ezgulik, insonparvarlik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning asosiy poydevoridir. – Toshkent, 2021
5. Jabborova O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

Xudjamuratov Karimjon Allamuratovich, TATU

Annotatsiya: maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish zaruriyati masalasi to‘g‘risida fikr yuritilgan va muallifning individual yondashuvi taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, pedagogika, o‘qituvchilar, kompetensiya, yondashuv, ko‘nikma, zaruriyat, malaka.

НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: в статей размышлено о развитие компетенсии бизнеса будущих учителей и дано по данному вопросу индивидуалного подхода автора.
Ключевые слова: бизнес, педагогика, учителей, компетенсия, подход, навыка, необходимост, умение.

THE NEED FOR DEVELOPING ENTREPRENEURIAL COMPETENCIES OF FUTURE TEACHERS

Annotation: the articles reflect on the development of business competence of future teachers and provide the author's individual approach to this issue.
Key words: business, pedagogy, teachers, competence, approach, skill, need, ability.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston-2030 strategiyasi”ning asosiy vazifalaridan birini ta’lim sifatiga erishish va bunda malakali pedagog kadrlar imkoniyatlaridan foydalanish tashkil qiladi [1]. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish va u asosda ta’lim sifatini tarkib toptirish muammosi ham dolzarb bo‘lib turibdi. Chunki ta’lim sifati asosida muayyan jihatdan iqtisodliy va pedagogik tadbirkorlik mexanizmlari turadi. Bu o‘rinda e’tiboringizni oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning *tadbirkorlik kompetensiyalarini* rivojlantirish zaruriyati masalasiga tortamiz.

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarning tadbirkorlik kompetensiyasi mazmuni. Iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotida tadbirkorlik keng ko‘lamli tushuncha bo‘lib, uning asosini qonunchilik asosida iqtisodiy, ijtimoiy va moliyaviy manfaat ko‘rish tashkil qiladi [2]. Shu jihatdan *bo‘lajak o‘qituvchilarning tadbirkorlik kompetensiyasi – bu ularning bozor iqtisodiyoti va innovasion jamiyat sharoitida moliyaviy farovonlikka erishish bo‘yicha individual faoliyati majmuidir*. Biz mazkur masalaga shu nuqtai nazardan yondashamiz. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarning tadbirkorlik kompetensiyasi mazmunini quyidagilar tashkil qiladi:

1) bo‘lajak o‘qituvchilarning yetarli darajada iqtisodiyot asoslari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;

2) bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z kasbiy faoliyatiga qonunchilik asosda tadbirkorlik bilan shug‘ullanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;

3) bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim oluvchilarda qonuniy va madaniy asoslarga ega tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasini bilishi;

4) bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim oluvchilarni tadbirkorlik sohalariga oqilona yo‘naltirishni bilishi.

E’tibor berilsa, o‘qituvchining tadbirkorlik kompetensiyasi negizini pedagogik, psixologik va iqtisodiyot qonuniyatlariga asoslangan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va individual metodika majmui tashkil qiladi. Buning natijasida bozor iqtisodiyoti sharoitida va innovasion jamiyatda o‘qituvchilarning moliyaviy farovonligiga erishish hamda ular vositasida ta’lim oluvchilarni moddiy-iqtisodiy manfaatdorlik ko‘nikmalarini to‘g‘ri shakllantirish imkoniyatlariga ega bo‘linadi [3]. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarning tadbirkorlik kompetensiyasi deganda eng avvalo pedagogik qonuniyatlarga asoslangan biznes yondashuvini tushunish to‘g‘ri hisoblanadi.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarning tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik zaruriyati. Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalari muayyan darajada shakllangan hisoblanadi. Chunki ular umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yoki o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida iqtisodiyot asoslari bo‘yicha nazariy bilim va ko‘nikmalarni egallamoqda. Shu jihatdan oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini *rivojlantirish* masalasiga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu masala quyidagi pedagogik zaruriyatlar bilan belgilanadi:

1) bo‘lajak o‘qituvchilarning tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirishda ularning kasbiy ehtiyojlarini hisobga olish;

2) bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim oluvchilarga “Iqtisodiyot nazariyasi” va “Tadbirkorlik asoslari” bo‘yicha nazariy va metodik bilim berish masalalarini tarkib toptirish;

3) bo‘lajak o‘qituvchilarda tadbirkorlikni tashkil etish, uning faoliyatini boshqarish, iqtisodiy manfaat olish va ular bo‘yicha ta’lim oluvchilarga bilim berish asoslarini pedagogik malaka sifatida rivojlantirish;

4) bo‘lajak o‘qituvchilarni iqtisodiyotchi-pedagog sifatida kasbiy faoliyatga tayyorlash.

Bu pedagogik zaruriyatlar bevosita ta’lim sifati va jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog‘liq holda mavjud ekanligini idrok etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning iqtisodiy zaruriyati. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning iqtisodiy zaruriyatini belgilab olish ham muhim ahamiyatga ega. Bu zaruriyat quyidagilar bilan belgilanadi:

1) bo‘lajak o‘qituvchilarni iqtisodiy faollashtirish (misol uchun, ular bundan keyin davlat byudjeti kabi masalalar bo‘yicha jamoatchilik muhokamalarida yetakchi shaxslar sifatida ishtirok etishi taqoza etiladi);

2) bo‘lajak o‘qituvchilarni xususiy pedagogik–iqtisodiy tadbirkorlikka tayyorlash (masalan, ular kelgusida nodavlat ta’lim muassasalari kabi iqtisodiy tuzilmalarni tashkil qilish ishlari bilan shug‘ullanishi kutilmoqda);

3) bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagog-iqtisodchi kompetensiyali shaxslar sifatida tayyorlash bilan jamiyatda bandlikni rivojlantirish va ishsizlikni bartaraf etish samaradorligiga erishish (misol uchun, ta’lim oluvchilarda tadbirkorlik asoslari bo‘yicha tushuncha, bilim va ko‘nikmalarni kutilgan darajada tarkib toptirish bilan o‘qituvchilar jamiyatda bandlik muammosi bo‘yicha muhim faoliyatni amalga oshiradi);

4) bo‘lajak o‘qituvchilarni iqtisodiy madaniyatli shaxslar ssifatida tayyorlash bilan ularning indiqidual faoliyat asosida moddiy faroqaonlikka erishish mikkoniyatlariga ega bo‘lish (misol uchun, o‘qituvchilar o‘zlarining

turli nano, roboto va texnologik ishlanmalarini patentlashtirish kabi faoliyati asosida individual farovonlik manbaiga ega bo‘lishi kelgusida birlamchi iqtisodiy yondashuvlardan biri sifatida tarkib topadi).

Mazkur iqtisodiy zaruriyatlar bo‘lajak o‘qituvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyot, ta’limiy samaradorlik va kasbiy farovonlik bilan bog‘liq ekanligini namoyon qiladi.

E’tibor berilsa, oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni, uning pedagogik va iqtisodiy zaruriyatlari jamiyat taraqqiyoti bilan hamda pedagog kadrlarning ijtimoiy –kasbiy farovonligiga bog‘liq muhim masala ekanligi namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish zaruriyatini asoslash, mazkur masala bo‘yicha nazariy va metodik tadqiqotlarni yaratish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziyonet.uz.
2. Qalandarov A. va boshq. Iqtisodiyot asoslari. – Toshkent, 2021
3. Skolkova R. Pedagogika: ekonomicheskiye otnosheniye i pedagogicheskiye zakonnost (razmышleniye). – Sankt-Peterburg, 2020

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI NUTQINI O‘STIRISHDA LUG‘AT ISHINING O‘RNI

S. Raxmonov -
SMDU Urgut filiali o‘qituvchisi.O‘zbekiston

Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy sohada amalga oshirilayotgan keng islohotlar yurt taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelajakdagi boshqaruvchilari-yangi avlod tarbiyasiga qaratilmoqda. Mustaqillikka erishgan birinchi kunimizdanoq, umuminsoniy va o‘zbekona qadriyatlarni har tomonlama tiklash, ularga chuqurroq nazar tashlash uchun zamin yaratildi. Mustaqil Vatanimizga har tomonlama yetuk, mukammal, axloqiy pok, yuksak ma’naviy xislatlarga ega, iymon-e’tiqodi butun, o‘z xalqi, o‘z ona-Vataniga fidoiy, barkamol insonlarni tarbiyalash davlat siyosatida ustuvor masalalardan biri sifatida qarala boshladi. Yuqori sinflarda bolalar shaxs bo‘lib, jamoa bo‘lib shakllanadi. Ayni o‘sha paytda ularni o‘zlari o‘rgangan muhitdan ajratib qo‘ymaslik kerak. Bu yoshlarning ruhiyatiga, davomatiga, oxir-oqibatda ta’lim-tarbiyasiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu bois ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish zarur,- deydi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev5. Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O‘zining qadr-qimmatini anglaydigan irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda inson o‘z aqli, o‘z tafkkuri, o‘z mehnati, o‘z mas’uliyati bilan ongli tarzda ozod va hur fikrli inson bo‘lib yashaydi. Hur fikrli insonda tabiiyki, so‘z boyligi ko‘p, nutq madaniyati shakllangan bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili va o‘qish savodxonligi darslari tub mazmunida egallanadigan ko‘nikmalar doirasida eng muhim masalalaridan biri bu nutq o‘stirish masalasidir. O‘z navbatida bu masala bosqichma- bosqich amalga oshiriladigan murakkab jarayon ekanligi yetuk mutaxassislar tomonidan metodik adabiyotlarda qayd teilgan. Maktabgacha ta’lim sog‘lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoit yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta’lim olishga tayyorlash ota-onalarga yordam beradi. Bola nutqining rivojlanishida uni ijodiy erkinligini ta’minlashga qaratilgan metodik ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Go‘daklik yoshida bolaning ayniqsa kattalar bilan muloqoti jadal rivojlanadi, dastlabki mehr qo‘yish shakllanadi, ijtimoiy kutishlar vujudga keladi (bola kattalardan muayyan hayotiy vaziyatlarga mos keluvchi harakatlarni kutadi), bola bilan kattalar o‘rtasidagi sherikchilikning ilk ko‘rinishlari shakllana boshlaydi. Bola o‘zining qo‘lidan hali hech narsa kelmasa-da, biroq kattalarning harakatlarini boshqarishni o‘rganadi. Bu hol unda nutqning hali mavjud emasligidan qat’i nazar, ro‘y beradi.

Kichik yoshdagi o‘quvchining nutqining rivojlanishida uning erkinligini taminlash muhim ahamiyaat kasb etadi. Ko‘pgina metodik adabiyotlarda ta’kidlanganidek, pisixologik yondashuvlar asosida chiqarilgan xulosalarga ko‘ra boladagi yangi kashfiyoti (muloqat jarayoning boshlanishi) ya’ni nutqi chiqib, muloqatga qiziqish paydo bo‘lgandan boshlab uning nutq erkinligini ta’minlab borish kerak. Bu jarayonning amalga oshirilishi oiladan boshlanadi va bu jarayonni yuzaga kelishiga to‘siq bo‘ladigan ba’zi omillar bor. Shulardan biri oilada milliy tarbiyamizga singib ketgan kichiklar ko‘p gapirmaslik kerak, jim o‘tirish kerak kabi kattalarning tanbehlari natijasida ijobiy tomonga yo‘naltirilgan tarbiya jarayoni tarbiyaning ikkinchi tomondan kelgusida ta’lim olishda oqsoqlikni yuzaga keltiruvchi salbiy sabablardan biri bo‘lib qoladi

Boshlang‘ich sinf ona tili o‘qish darslarining asosiy maqsadlaridan biri kichik yoshdagi o‘quvchilarning nutqini o‘stirish va nuq o‘stirish mashg‘ulotlari davomida ularning bog‘lanishli nutqini shakllantirishga qaratilgan. Buning izchiligida olib borilishi nutqning erkinligi unga bog‘liq o‘qish va yozishni shakllantirish va nutq o‘stirishda og‘zaki va yozma nutqni rivojlantiruvchi mashqlarga bog‘lanadi.

1. Мирзиёев Шавкат Миромонович Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. 2-5 б.

Nutq o‘stirish jarayonida lug‘at ishi alohida o‘ringa ega. Lug‘at ishi nutqning ikki turini qamrab oaldi: o‘g‘zaki nuqqa oid lug‘at ishi, yozma nutqqa oid lug‘at ishi. Maktaab ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarida berilgan badiiy va ilmiy-ommabop materiallarda metodik ko‘rsatma sifatida o‘quvchilarga so‘zning izohi sifatida tushunilishi qiyin bo‘lgaan so‘zlarning izohi berilib ketgan. Yozma nutqqa oid lug‘at ishining ko‘rsatmalari nisbatan kamroq, tegishli grammatik mashqlarda aks etgan. Buning natijasida o‘qituvchiga metodik ko‘rsatma berilib ketilgan. Aslida imloga oid mashqlarni e’tibordan chetda qoldirmaslik va ona tili darslarida muntazam bajarilib boriladigan ish hisoblanadi. Yuklamada bu ishlarning bajarilib borilishida faqat darslikdagi grammatik tushunchalar asosidagi ishlardan tashqari diktant olish ishlari ham mavjudligini inobatga olish kerak. Diktant natijasi bevosita hunixat va imloga oid savodxonlikni takomillashtirib borishdan iborat.

Lug‘at ishlarida berilgan namunalar boshlang‘ich sinf o‘quvchisidan tilshunoslik sohasida yuksak bilimni talab qilish bilan birga boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga berilgan namunalarni ullarning saviyasiga mos holda, me’yor asosida tushuntirib o‘rgatib borishni talab qilinadi. Darslikdagi materiallardagi lug‘at ishi bilan bog‘liq manbalar lug‘at tarkibidagi turli: tarixiy so‘zlar, qo‘llanishiga ko‘ra bola nutqida nofaol so‘zlar, yangi paydo bo‘lgan so‘zlar, shevaga oid so‘zlar, iboralar, ko‘chma ma’noli birikmalar va boshqa leksik qatlamga bolalar uchun lug‘at talab so‘zlar uchrab turadi.

Xususan, 2017- yilgi nashrdagi 4-sinf (S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G‘ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov) “O‘qish ” darsligidan ba’zi asarlardagi lug‘at ishi berilgan namunalarga e’tibor qaratamiz. Birinchi bo‘limdan o‘rin olgan Safar Barnoyevning Ilmiy -ommabop maqola janriga mansub “Mangulikka tatigulik kun” asarida: **tilimiz qulfi ochildi**-mustaqillik tufayli erkin fikrlab, fikrimizni erkin ayta oldik, **ko‘zimiz ochildi**- haqiqatni tushundik, **Sohibqiron**- shoh, podshoh, **Alayhissalom**- payg‘ambar, **bug‘doy zahirasi**- g‘amlab qo‘yilgan bug‘doy, **abadiy**-mangu, doimiy, **dunyo darvozasi**- dunyoga chiqiladigan joy, **abadiy mulk**- doimiy saqllanadigan mulk; **A.Oripov “Iqboli buyuksan”** she’ri: **dilband**- dilni o‘ziga tortuvchi, maftun eruvchi, suyukli bola, aziz farzand, **suyuk**- eng yaxshi ko‘rilgan, sevikli, **iqbol**- baxtli taqdir, parloq kelajak, baxt, omad. Bu so‘zlar shoirona adabiy nutqda qo‘llanishi bois bola hatto katta yoshdagi kishi nutqida ham faol qo‘lanavermaydi.

“Qodir boboning orzusi” (To‘lqin Hayit): **shukronalik**- shukur qilish, qanoatli va mamnun holat, **shirin o‘y**- shirin hayol, **qanot bag‘ishlab**- madad berib, “ uchish” “parvoz”ga imkon yaratmoq, shunday imkon bilan ta’minlamoq, **turna qator**- qator bo‘lib tizilib, birining ketidan biri. Bu so‘z shevadan, o‘tgan va ijodkorning so‘z tanlashi asosida o‘rin egallagan, **ilinjida**- yetishish umidida, ko‘zlangan dard-maqsad, umidvorlikda, **yuragi go‘yoki o‘z qolipiga tushgandek**- xotirjam bo‘ldi.

“Serquyosh o‘lka” (Zafar Diyor): **dong‘i**- nomi, **shodon**- xursand, **dimog‘**-burun bo‘shligi bilan og‘iz bo‘shlig‘ining tutashadigan yeri, halqumning yuqori bo‘limi. Tilimizda qo‘llanib tursada izoh talab so‘z;

“Xarita” hikoyasi (Normurod Norqobil): **xiyla**- ma’lum darajada, birmuncha, **qiyratmoq**- bir tekis yo‘q qilmoq, qirmoq (shevadan o‘tgan so‘z ba’zi shevalarda faol qo‘llanadi), **tumshaymoq**- biror narsadan xafa bo‘lib, ranjib yoki jahli chiqib, qovoq solib o‘tirmoq, **ayil**- egarning usti bilan otning qornidan aylantirib bog‘lanadigan to‘qali qayish (bu so‘z tilimizda mavjud bo‘lsa ham kichik yoshdagi o‘quvchiga hududiy jihatdan notanish so‘z), **ayilday botdi**-qattiq tegdi, og‘ir botdi, ranjitdi, **qolip**- andaza, quyma shakl, **loqayd**- befarq, beparvo, sovuqqon, **kashfiyot**-ixtiro, topilma **jimitdek**- juda kichkina, jajji, mitti, **zig‘ircha**- ozgina, jindek; **“Kichik Vatan”** (Ashurali Jo‘rayev): **Bostirma**- usti yengilgina yopilgan yo‘lak, **chorpoya**- to‘rt oyoqli va paranjili katta keng yog‘och karavot, so‘ri, **hamon –** haligacha, hanuzgacha, **hamroh**- yo‘li bir, yo‘ldosh; **“Gulg‘unchalarmiz” Muhiddin Omon Jo‘shar**-to‘lib toshar, mavj urar, **lol qolgan**- hayron holda qolgan, **zurriyot**- bola, farzand **beg‘ubor**- ko‘nglida yomonligi yo‘q; **Shukur Sa’dulla “Kuz” she’ridan: Aftidan**- yuzidan, **palladan –** paytdan, **zamin solinar**- tayyorlanar; “**Qovun sayli” Shukur Sa’dulla: Bejirim –** shinam va chiroyli, xushbichim **yoqallab o‘tib**- chekkasi bo‘ylab yurib, **pushtalarida- yonma**- yon jo‘yaklar orassidagi, odatda qator qilib ekin ekiladigan uzun yer bo‘lagi, ekin palak otishi uchun qoldirilgan bo‘sh joy, **choydish**- suv, choy qaynatiladigan metal idish, qumg‘on, **karji**- qovun tilimidan ko‘ndalangiga kesilgan bo‘lak, **zaptiga olmoq**- tobora kuchaymoq, **garov o‘ynamoq** - bahs bog‘lashmoq, **ilova qilmoq**- qo‘shimcha fikr bildirmoq, **inqilab**- arang, zo‘rg‘a va boshqa ko‘plab berilgan materiallarda lug‘atlar o‘rin egallagan

Xulosa qiladigan bo‘lsak, berilgan so‘zlar turli leksik qatlamdagi mavzularni qamrab olgan. Garchi bu lugatlar darslikda aks etgan bo‘lsada faqat lug‘at ishini bajarish masalasini inobatga olmagan bundan o‘qituvchi o‘qitish metodi asosida turli usullarda tarbiyaviy jarayoni tashkil qilishda foydalanish mumkin. Jumladan yuqoridagi materiallarning ba’zilariga shu so‘zlar asosida qo‘shimcha savollar kiritish vas hu savollaar asosida qayta hikoya qilishni tashkil qilish kabi turli usullardan foydalanilsa adabiy ta’lim bajaradigan vazifa va o‘quvchining nutqi o‘sib borishida o‘z samarasini beradi.

Adabiyotlar

1.Мирзиёев Шавкат Миромонович Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. 2-5 б.

2. Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X., Sariyev Sh. Dolimov Z. “O‘qish kitobi”: 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Yangiyo‘l poligraf servis” 2013.

3. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik). – T.: Noshir, 2009

BOSHLANG‘ISH SINFLARDA RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Daniyarova Sarbinaz Maxsetovna
Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda raqamli ta’lim resurslarini qo‘llashning asosiy maqsadlari, o‘quv jarayonida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari, raqamli ta’lim resurslarini ta’lim jarayoniga joriy etishning asosiy afzalliklari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘quv jarayoni, o‘quvchi, ta’lim, raqamli ta’lim resursi, axborot texnologiya, dars.

КЛЮЧЕВЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕСУРСОВ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: В статье говорится об основных целях использования цифровых образовательных ресурсов в начальных классах, основных направлениях использования цифровых образовательных ресурсов в образовательном процессе, основных преимуществах внедрения цифровых образовательных ресурсов в учебный процесс.

Ключевые слова: учебный процесс, обучающийся, образование, цифровой образовательный ресурс, информационные технологии, урок.

KEYDIRECTIONS FOR USING DIGITAL LEARNING RESOURCES IN PRIMARY CLASSES

Abstract: The article talks about the main goals of using digital educational resources in primary classes, the main directions of using digital educational resources in the educational process, the main advantages of introducing digital educational resources into the educational process goes

Keywords: educational process, student, education, digital educational resource, information technology, lesson.

Respublikamizda oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz tomonidan 2019 yilning 8 oktyabrida “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni imzolandi [1]. Ushbu farmonda “Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (“Quasquarelli Symonds World University Rankings”, “Times Nigher Edusation” yoki “Asademis Ranking of World Universities”) reytingining birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish va oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish” vazifasi berildi. Shu bilan birga , 2030 yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta’lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020–2021 o‘quv yilining o‘zida 33 ta oliy ta’lim dargohini kredit-modul tizimiga o‘tkazish ko‘rsatib o‘tildi. Konsepsiyada ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo‘yicha raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flirred slassroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish, ta’lim jarayonlarida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish, masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimini keng joriy etish, talabalarning oliy ta’lim muassasasida o‘qishni tamomlaganlaridan so‘ng kutubxona fondi, axborot bazalaridan foydalanishini yo‘lga qo‘yish orqali ularning kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish imkoniyatlarini kengaytirish, milliy elektron ta’lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta’lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog‘ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o‘quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish kabi muhim vazifalar belgilab olindi [2,12].

Bugungi kunda yuqori sifatli zamonaviy ta’limning zaruriy sharti ilg‘or texnologiyalardan foydalangan holda an’anaviy ta’limning uyg‘un kombinatsiyasi hisoblanadi. Zamonaviy boshlang‘ich sinflarda raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish o‘quv jarayonini takomillashtirish va optimallashtirishning muhim jihatlaridan biri bo‘lib, ish shakllarini diversifikatsiya qilish va darsni o‘quvchilar uchun qiziqarli va esda qolarli qilish imkonini beradigan uslubiy vositalar va texnikalar arsenalini boyitadi. O‘quv jarayonida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish talabalarning mustaqil ijodiy va tadqiqot faoliyati uchun katta imkoniyatlar va istiqbollarni taqdim etadi.

Boshlang‘ich sinflarda raqamli ta’lim resurslarini qo‘llashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarning boshlang‘ich sinf kursining asosiy masalalarini chuqurroq, sifatli samarali o‘zlashtirishi, intellektual va kognitiv faolligini rivojlantirish uchun sharoit yaratish;

- talabalarning tegishli ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv va amaliy faoliyatini rivojlantirishni ta’minlash:

- mantiqiy fikrlashni, xotirani, vazifalarni bajarishga e’tiborni bo‘ysundirish qobiliyatini shakllantirish;

- mavjud bilimlardan foydalangan holda umumlashtirish, tinglash, fikrlash, javob topish qobiliyatini rivojlantirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quv jarayonida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning uchta asosiy yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish kerak:

1. axborot texnologiyalari va informatika fani doirasida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish;
2. boshlang‘ich sinf fanlari doirasida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish;
3. raqamli ta’lim resurslaridan rivojlantiruvchi va tarbiya vositasi sifatida foydalanish.

Deyarli har bir maktabda multimedia darslari, ensiklopediyalar, lug‘atlar, interaktiv repetitorlar, o‘quv o‘yinlari va ta’lim dasturlari to‘plamini o‘z ichiga olgan media kutubxona mavjud.

Raqamli ta’lim vositalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri yangi materialni tushuntirishda yoki o‘tilgan mavzuni mustahkamlashda qo‘llaniladi. Raqamli ta’lim resurslaridan, ayniqsa boshlang‘ich sinflarda foydalanish, minimal vaqt sarflaydigan ko‘rgazmali qurollarni yaratishga imkon beradi va buning natijasida darsning ravshanligi va jozibadorligini oshiradi, multimedia elementlari yordamida darsni vizualizatsiya qiladi, ular plakatlardan farqli o‘laroq, zaruratga qarab o‘zgartiriladi.

Shuningdek, raqamli ta’lim resurslari tarqatma materiallarni tayyorlashda foydali bo‘lishi mumkin, ularni tayyorlash deyarli har doim o‘qituvchi uchun juda ko‘p mehnat talab qiladigan jarayondir. Ushbu ish rejimida raqamli o‘quv resurslari sifatida animatsiya va video fragmentlardan foydalanish va ovozli fayllar foydalidir.

Loyiha usulidan foydalangan holda topshiriqlarni bajarishda raqamli ta’lim resurslari talab katta bo‘lishi mumkin. Bu erda o‘quv majmuasining barcha materiallari foydali bo‘lishi mumkin: animatsiya, video, ovoz, interfaol komponentlar, chizmalar, jadvallar, grafiklar, diagrammalar va hatto oddiy matnlar. Shuni ta’kidlash kerakki, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning ushbu usuli bilan o‘quvchilarda fanga va tanlagan mavzuga katta qiziqish uyg‘onadi, ular o‘zlarini ushbu sohaning tadqiqotchisi sifatida his qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar va bu o‘qituvchiga fanlararo aloqalarni maksimal darajada amalga oshirish imkonini beradi.

Raqamli ta’lim resurslari innovatsion o‘qitish vositasi bo‘lib, turli yoshdagi bolalarni o‘qitish, rivojlantirish va tarbiyalashda yangi yordamchi ro‘lini o‘ynaydi. Raqamli ta’lim resurslarini ta’lim jarayoniga joriy etishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ta’lim shakllarini kengaytirish bilan uning qulayligini oshirish;
- shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish;
- yagona axborot-ta’lim muhitini yaratish;
- o‘quv jarayonining o‘quv joyi va vaqtidan mustaqilligi;
- individual ta’lim yo‘lini tanlash imkoniyatini ta’minlash;
- mustaqil izlanishni, shu jumladan talabaning ijodiy faoliyatini rivojlantirish;
- ta’limning motivatsion tomonini oshirish;
- talaba shaxsini rivojlantirish, uni axborot jamiyatida hayotga tayyorlash;
- mashg‘ulotlarning ko‘rgazmaligini oshirish;
- tekshiruv jarayonlarini avtomatlashtirish;
- psixodiagnostika va boshqalarni avtomatlashtirish.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmoni. 8 oktyabr 2019 yil.
2. Eshov Mansur Po‘latovich Ta’limning kredit-modul tizimini axborot tizimlari orqali samarali yo‘lga qo‘yishning innovatsion mexanizmlari. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’limning transformatsiyasi” Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma’ruza tezislari to‘plami 2022 yil 18 noyabr Toshkent. 12-13 b.

LISONIY VA NOLISINIY MULOQOT ORQALI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH

R.X.Ravshanova-
Navoiy davlat pedagogika instituti , Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi,f.f.f.d.(PhD).
Navoiy,O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada lisoniy va nolisiniy muloqot orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirish hamda unli tovushlarni verbal, ya’ni so‘z, lisoniy vositalar orqali hamda noverbal, so‘zsiz, nolisoniy vositalar yuz, qiyofa imo-ishoralari (mimika), tana harakatlari, yuz ifodalari, turli tana a’zolari, ko‘zlarning harakati yordamida tushuntirish bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘z: og‘zaki nutq, lisoniy muloqot, nolisiniy muloqot, kommunikativ, fonetika, unli tovushlar.

РАЗВИТИЕ УСТНОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ЧЕРЕЗ ВЕРБАЛЬНОЕ И НЕВЕРБАЛЬНОЕ ОБЩЕНИЕ

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие устной речи учащихся младших классов посредством вербального и невербального общения и развитие гласных звуков вербально, то есть посредством слов, языковыми средствами, а также невербальными средствами. , мимика, движения тела и глаз.

Ключевые слова: устная речь, языковое общение, невербальное общение, коммуникативность, фонетика, гласные звуки.

DEVELOPING ORAL SPEECH OF PRIMARY CLASS STUDENTS THROUGH VERBAL AND NON-VERBAL COMMUNICATION

Abstract: This article examines the development of oral speech of primary school students through verbal and non-verbal communication and the development of vowel sounds verbally, that is, through words, linguistic means, as well as non-verbal means. , facial expressions, body and eye movements.

Key words: oral speech, linguistic communication, non-verbal communication, communication, phonetics, vocal sounds.

Yosh avlodni tarbiyalashda o‘z ona tilida aniq, tushunarli, ta’sirchan, chiroyli so‘zlashga o‘rgatish masalasi asosiy o‘rinda turadi. O‘quvchilarni savodli, o‘z fikrini to‘g‘ri va erkin bayon qila oladigan, nutq madaniyatiga ega kishilar qilib tarbiyalash vazifasi dastlab boshlang‘ich ta’lim bosqichida amalga oshiriladi.

Nutqni yaxshi egallagan, o‘z tilining imkoniyatlaridan keragicha foydalana oladigan o‘quvchi, albatta, boshqa o‘quv predmetlarini ham ancha oson va to‘liq o‘zlashtiradi, ularda bilim va madaniyatga bo‘lgan intilish kuchayadi.

Nutq, muloqot masalalari Aristoteldan tortib Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar asarlarida ham muhokama qilingan, tasnif va tavsif etilgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy “...yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz, mantiq fanlari hamkorligidan foydalanish zarur bo‘ladi. Ularning birortasiga ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasining buzilishi, qolgan ikkitasiga ta’sir qilmay iloji yo‘q” [1], - deb ta’kidlaydi.

“Muloqot – murakkab ko‘rinishdagi lisoniy (nutqiy) tafakkur faoliyatidir. Bu faoliyat natijasida nutqiy tuzilmalar hosil bo‘ladi va ushbu tuzilmalar strukturasida lisoniy tafakkur faoliyatining “iz”lari saqlanadi. Ammo ushbu “iz”larni topish va ularni qismlarga ajratish oson emas, zero, muloqot birligi – matnning tarkib topishida til tizimining barcha elementlari inson ongida tug‘iladigan nutqiy qolipni voqelantiruvchi vositalarga aylanadilar. Bundan tashqari, muloqot matnining shakllantirilishida nolisoniy birliklarning ham ishtirok etishini unutmaslik lozim” - deb ta’kidlaydi. [2].

Nolisoniy muloqotning tadqiq qilinishida quyidagi asosiy muammolar: yuz, qiyofa imo-ishoralari (mimika), tana harakatlari, ishoralari va tana tili tarixini o‘rganish, yuz ifodalari, turli tana a’zolari, ko‘zlarning harakati yordamida insonning turli ruhiy holatlarini ifodalash hamda uni nazorat qilish imkoniyatlari o‘ta qiziqarlidir.

“Kommunikativ jarayon uchun xizmat qiluvchi ma’lum axborotni uzatish vositalaridan bo‘lgan ramzlar, shartli belgilar, morze tili, ishoralar va boshqa bir qancha vositalar borki, ular ichida til tabiiy, shu til sohiblari uchun tushunarli, tayyor holdagi aloqa vositasi sanalishini aytib, ishoralar, mimika, ovozdagi turli holatlar va gavda harakatlari aloqa-aralashuv vazifasini bajarishdan qat’i nazar kommunikatsiyada ikkilamchi vosita vazifasini o‘tashini ta’kidlagan edi [3].

Sotsiolingvistik tadqiqotlar lisoniy birliklarni qo‘llash nafaqat nutq sharoiti, vositasi va hokazo kabi ijtimoiy hodisalar bilan, har bir xalq, millat, hatto, ijtimoiy guruh yoki toifa uchun odat tusiga kirgan qator urf-odatlar, rasm-rusumlar, ya’ni etnografik tomonlar bilan aloqador ekanligini ko‘rsatdi. Chunonchi, biz birovga salom berar ekanmiz odob nuqtai nazaridan qo‘lni ko‘ksimizga qo‘yib, boshni sal egib, ta’zimga yaqin harakat qilib salomlashamiz. Bu-o‘zbek urf-odati. Shunda bu nolisoniy, mohiyatan etnik-etnografik tamoyillar bilan birga, albatta, “Assalomu alaykum!” lisoniy iborasi ham ishlatilishi zarur. Bosh kiyimini yechib salomlashish rus xalqiga xos, hind xalqi esa qo‘l kaftlarini bir-biriga jipslashtirgan holda salomlashadi. Hatto, o‘zbeklarning o‘zining ichida turli toifa va guruhlarning bir-biri bilan salomlashishi jarayonida lisoniy va nolisoniy vositalar, nutqiy shtamplar, harakat va holatlar bir xil emas. Bularni hisobga olish esa, nutq odobi uchun juda zarurdir [4].

Masalan: Mehmonlar o‘tirgan xonaga madaniyatli kishining kirib, salom berish holatini kuzatadigan bo‘lsak, eshikdan qaddini sal eggan, qadamlarini maydalagan holda, o‘ng qo‘lini chap ko‘ksi ustiga qo‘yib, boshini egib, yengilgina ta’zim bilan “Assalomu alaykum” deydi. Bu yerda tasvirlangan har bir holat muloqot uchun ahamiyatli, qo‘lni qorin ustiga qo‘yish bilan qo‘lni chap ko‘krak usti va o‘ng ko‘krak ustiga qo‘yish yoki ikki qo‘lni ko‘ksiga qo‘yishning har biri muloqot jarayoni bilan bogliqdir. Tilshunos muloqot jarayonining mana shunday murakkab serqirra birligidan o‘zining tadqiq manbai sifatida talaffuz etishi, yozishi mumkin bo‘lgan “Assalomu alaykum”ni ajratib oldi va uni asrlar davomida o‘nlab jihatlardan tadqiqu tahlil qilib kelmoqda.

Tilni o‘rganish tovushdan boshlanadi. Har qanday tilda unli tovushlar muhim ahamiyatga ega, ayniqsa, turkiy tillarda. Unli tovushlar bo‘g‘in hosil qiladi, urg‘u oladi, musiqiylik kasb etadi. Eng asosiysi, muloqotning jozibali bo‘lishiga xizmat qiladi, agar so‘zlovchi uni to‘g‘ri talaffuz qila olsa. O‘zbek tilini ona tili sifatida o‘qitishda eng katta muammolardan bir bu adabiy talaffuzga o‘rgatish, to‘g‘ri talaffuz va to‘g‘ri yozishga o‘rgatish bo‘lib, bu, albatta, unli tovushlar bilan bevosita bog‘liq.

O‘qituvchi boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan barcha fanlarga oid darslarda so‘zni aniq va to‘g‘ri talaffuz qilish ustida doimiy ishlab boradi, shu maqsadda ko‘pincha so‘zni tovush tomondan tahlil qilishdan foydalanadi.

Maktab dasturiga muvofiq, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari fonetik-grafik ko‘nikmalar tizimini hosil qiladilar: tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar, jufti yo‘q jarangli va jufti yo‘q jarangsiz undoshlar; so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish, urg‘uli bo‘g‘inni ajratish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar [5].

Boshlang‘ sinf savod o‘rgatish davrida tovush-harf bilan tanishtirish unlilardan boshlanadi. Unli fonema yaxlit tizimni tashkil etib, bu tizim ham o‘z navbatida tizimchalarga bo‘linadi. *I* va *u* fonemalari yuqori “tor” belgisi ostida birlashib, bunday belgiga ega bo‘lmagan fonemalardan ajraladi. Biroq *i* va *u* kichik paradigmasi a’zolari farqlovchi

belgilari (*i*– lablanmaganlik va *u*– lablanganlik belgilari) asosida o‘z mustaqilliklarini saqlab qoladi va ziddiyatda turadi. *e – o‘* tizimchasi “o‘rta keng” belgisiga ko‘ra *i –u* tizimchasidan ham, *e– o* tizimchasidan ham farqlanadi.

Unli fonemalarning asosiy belgilariga ko‘ra tasnifi quyidagicha

Unli fonemalar	Asosiy belgilari				
	Tilning ko‘tarilish darajasi			Lablanish belgisi bor-yo‘qligi	
	Yuqori	O‘rta	Quyi	Lablangan	Lablanmagan
I	+				+
U	+			+	
O‘		+		+	
O			+	+	
E		+			+
A			+		+

Jadvaldan ko‘rinadiki, tilning ko‘tarilish darajasiga ko‘ra unli fonemalar uch pog‘onali, lablanish belgisiga ko‘ra ikki pog‘onali sistemani hosil qiladi [6].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga unli tovushlarni o‘rgatishda alifbe darsligida berilgan unli tovushlarni lisoniy va nolisoniy vositalar o‘rgatish orqali o‘quvchilarni og‘zaki nutqini rivojlanirish .

Boshlang‘ich sinf darsligida berilgan unli tovushlarga doir mavzularni verbal, ya’ni so‘z, lisoniy vositalar orqali o‘quvchilarga tushuntiramiz.



Boshlang‘ich sinf darsligida berilgan unli tovushlarga doir mavzularni noverbal, so‘zsiz, nolisoniy vositalar (imo-ishora, har-xil belgi, ramz, simvollar) orqali o‘quvchilarga tushuntiramiz.

Xulosa: Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida lisoniy va nolisoniy muloqot shakllari, o‘quvchilarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar, 1-tom – Toshkent: Fan, 1968 – B. 64.
2. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – B. 279.
3. Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 3. Safarov Sh., Toirova G., Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, SamDChTI nashri, 2007. – 39 bet.
4. K.Qosimova, S.Matchonov va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi darslik. Toshkent – 2009. – B. 350.
5.Sayfullayeva R., Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, Fan va texnologiya, 2010, – B. 403.

BO‘LAJAK SINF RAHBARI QANDAY BO‘LISHI KERAK?

Ochilov Fariddun Izatulloyevich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta ‘lim metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).Chirchiq,O‘zbekiston
Nazarova Nilufar Sherzod qizi
CHDPU Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim kunduzgi shakli 2- kurs talabasi. Chirchiq,O‘zbekiston

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak sinf rahbari qanday bo‘lishi kerakligi, qanday sifatlarga ega bolishi kerakligi, qanday vazifalarni bajarishi va o‘quvchilar bilan qanday ishlashi lozimligi keltirib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: Sinf rahbari, nazariy bilimdonlik, kasbiy ko‘nikmalilik, kasbiy malakalilik, kasbiy kompetensiyalik, o‘quvchi.

КАКИМ ДОЛЖЕН БЫТЬ КЛАСС БУДУЩЕГО?

Аннотатции: В статье описано, каким должен быть будущий классный руководитель, какими качествами он должен обладать, какие задачи ему следует выполнять и как ему следует работать с учениками.
Ключевые слова: Руководитель класса, теоретические знания, профессиональные навыки, профессиональная компетентность, профессиональная компетентность, ученики.

WHAT SHOULD THE FUTURE CLASSROOM BE LIKE?

Annotation: The article describes what the future class leader should be, what qualities he should have, what tasks he should perform and how he should work with students.
Keywords: Head of the class, theoretical knowledge, professional skills, professional competence, professional competence, student

Bo‘lajak sinf rahbari qanday bo‘lishi kerakligini aytishdan avval “Sinf rahbari o‘zi kim?” degan savolga javob topaylik. Sinf rahbari deganda bir xil saviyada, bir xil yoshda, bilimi jhatidan ham teng bo‘lgan o‘quvchilar jamoasini boshqarib turuvchi pedagog tushuniladi. Sinf rahbarining asosiy maqsadi o‘quvchilarni to‘g‘ri tarbiyalash jarayonida o‘quvchi va sinf rahbari bir-birini tushuna olishini ta’minlash va sinf rahbari tomonidan o‘quvchilarga e'tiborliroq bo‘lishdir. Sinf rahbari maktab ma'muriyati bilan birgalikda va mahalla jamoasi, ota-onalar bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni olib boradi. Maktab ma'muriyati sinf rahbari va uning olib borayotgan ishlarini doimo qo‘llab-quvvatlashlari lozim. Chunki sinf rahbari o‘z o‘quvchliarini yaxshi biladi va ularni tarbiyalash uchun nimalar kerakligini hisobga olib ish yuritadi.

Yaxshi sinf rahbari, avvalo, o‘z vazifalarini bilishi va anglab yetishi lozim. Sinf rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O‘ziga yuklatilgan sinfdagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarayotganda u yolg‘iz emas, shu sinfda dars berayotgan turli fan o‘qituvchilari bilan hamkorlikda va ularga suyangan holda o‘quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi. O‘quvchilarning darsdan tashqari tadbirlarini tashkil etadi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.
2. O‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqish va qobiliyatini hisobga olgan holda kasbga yo‘naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllaitirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda, har bir o‘quvchining sog‘lig‘ini mustahkamlashga ham e'tibor beradi.
3. Sinf rahbarining diqqat markazida o‘quvchilarning yuqori darajali o‘zlashtirishini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o‘quvchining kundalik o‘zlashtirishidan voqif bo‘lib turadi. Orqada qolayotganlarga o‘z vaqtida, kechiktirmay yordam beradi.
4. Sinfdagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish ishlarini yo‘naltiradi, ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta'minlaydi, maktab miqyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlarda o‘z sinfining faol qatnashishini ta'minlaydi.
5. Sinf o‘quvchilarining ota-onalari, o‘quv kuni uzaytirilgan guruhlarning tarbiyachilari, korxona va muassasalardagi, turar joylardagi otaliqqa oluvchilar bilan yaqin aloqa o‘rnatadi.
6. Sinf rahbari shu sinfda dars berayotgan barcha fan o‘qituvchilari o‘rtasida o‘quvchilarga nisbatan yagona talablar o‘rnatishga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan maktab o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.
7. Sinf rahbari o‘z sinfidagi turli hujjatlarni: sinf jurnali, o‘quvchining kundaliklari, tabellar, shaxsiy ma'lumotlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Bo‘lajak sinf rahbari o‘z ishiga ma’suliyat bilan yondashishi kerak. Pedagog olimlarning yondashuvlariga ko‘ra, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining qiyofasida quyidagilar muhim hisoblanadi:

-nazariy bilimdonlik;
-kasbiy ko‘nikmalilik;
-kasbiy malakalilik;
-kasbiy kompetensiyalik.

O‘quvchilarga har tomonlama tarbiya berishning negizida sinf rahbarining olib boradigan tarbiyaviy ishlari markaziy o‘rinni egallaydi. Sinfda tarbiyaviy ishlarni yo‘lga qo‘yuvchi, o‘quvchilarning asosiy tarbiyachisi va murabbiysi sinf rahbaridir. Unga bolalar hayotini yo‘lga qo‘yish, jamoani uyushtirish va tarbiyalash mas’uliyati, sinfdagi o‘quv-tarbiyaviy ishlariga javobgarlik yuklanadi.U tarbiyachi sifatida o‘quvchilarni barkamol shaxs bo‘lib kamol topishi to‘g‘risida, ularda aqliy teranlik, jismoniy baquvvatlilik, ruhiy tetiklikni tarkib toptirish, ilmga e’tiqod, bilimdonlik hislatlarini tarbiyalash to‘g‘risida va sinfda tartib intizomni mustahkamlash borasida g‘amxo‘rlik qiladi.

Sinf rahbari bu ishlarning barchasini kuzatuvchi sifatida emas, balki rasmiy, ma’sul shaxs sifatida bajaradi, chunki u maktab pedagogik jamoasi oldida o‘ziga topshirilgan sinfda g‘oyaviy-siyosiy, ma’naviy – axloqiy ishlarning ahvoli uchun, tarbiyaviy ishlarning mazmuni va yo‘lga qo‘yilishi uchun javobgardir.

Sinf rahbari har bir o‘quvchining psixologiyasidan, xarakteridan xabardor bo‘lishi kerak va shunga qarab ish olib borishi kerak. Har bir o‘quvchi o‘ziga xos psixologiyaga, xarakterga ega. Ba’zi o‘quvchilar juda ham kirishimli, hamma bilan tez til topishib ketadigan bo‘lsa, ba’zilari juda ham og‘ir xarakterga ega bo‘ladi. Bunday o‘quvchilar bilgan narsalarini aytishga, o‘z fikrini erkin bayon qilishga qo‘rqishadi. Bunday o‘quvchilar bilan ko‘proq shug‘ullanish talab etiladi. Ularga fikrini qo‘rqmasdan bayon qilishni, sinf jamoasini esa o‘z oilasidek qabul qilishni o‘rgatish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” ma’ruza matni
2. “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” O.M.Jabborova, Z.A.Umarova, L.G.Babaxodjayeva
3. https://fayllar.org/sinf-rahbari-faoliyati-haqida-malumot-bering.html
4. Ochilov Fariddun Izatulloyevich, Methods of teaching natural sciences to primary school pupils on the basis of a competent. Palarch’s Journal Of Archaeology Of Egypt / Egyptology 17(6) (2020), ISSN 1567-214x. 14520-14539 бетлар.
5. Fariddun Izatulloyevich Ochilov. Formation Of A Conscious Attitude To The Environment In Primary School Students On The Basis Of Competency Approach. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(04) (2021), ISSN 2642-7478. 152-156. | Impact Factor: 5.676
6. Ochilov Fariddun Izatulloyevich. Analysis of Approaches Needed in Practical Teaching of Natural Science to Primary School Students. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology (IJIRSET)| e-ISSN: 2319-8753, p-ISSN: 2347-6710| www.ijirset.com | Impact Factor: 7.569||| Volume 11, Issue 3, March 2022 || DOI:10.15680/IJIRSET.2022.1102037.
7. Ochilov Fariddun Izatulloyevich. Features Of Teaching The Subject “Natural Sciences” To Primary School Students On The Basis Of The Competence-Based Approach. Евразийский журнал академических исследований, 2023. 4 Part 3. – P. 113-117.

TA’LIM QORAQALPOQ TILIDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARNING BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA O‘QUVCHILARNING O‘QISH VA MATN YARATISH MALAKALARI USTIDA ISHLASH

Mengliyeva S.T.

Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning boshlang‘ich sinflarida o‘quvchilarning o‘qish, uqish va matn yaratish malakalari ustida ishlash yo‘llari tahlil qilingan. Bunday malakalar ta’lim sifatini oshirishning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri ekanligi qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish, uqish va matn yaratish malakalari, og‘zaki va yozma matnlar, rivoya, tasvir va muhokama matnlari.

РАБОТА ПО НАВЫКУ ЧТЕНИЯ И ПИСЬМА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ШКОЛАХ КОРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКЕ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация: В статье анализируются способы работы над беглостью речи, навыками чтения и письма у учащихся начальных классов школ, где обучение ведется на каракалпакском языке. Отмечается, что такие навыки являются одним из основных показателей повышения качества образования.

Ключевые слова: чтение, навыки чтения и письма, устные и письменные тексты, повествование, визуальные и дискуссионные тексты.

WORK ON READING, READING AND WRITING SKILLS OF STUDENTS IN THE 5TH CLASSES OF SCHOOLS WHICH EDUCATION IS CONDUCTED IN THE KORAKALPAK LANGUAGE

Annotation: The article analyzes ways of working on speech fluency, reading and writing skills among primary school students in schools where education is conducted in the Karakalpak language. It is noted that such skills are one of the main indicators of improving the quality of education.

Keywords: reading, reading and writing skills, oral and written texts, narrative, visual and discussion texts**.**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonunida ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda ham o‘zbek tilini o‘qitishga e’tiborini kuchaytirish, ularning o‘z fikrini adabiy til talablariga mos ravishda ifoda eta olishga erishish nazarda tutiladi. O‘zbek tili Davlat tili sifatida nafaqat rusiyzabon maktablarda, balki shu hududda joylashgan qardosh, qoraqalpoq, turkman, qirg‘iz va qozoq maktablarida ham o‘qitiladi.

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitishni butun choralar bilan yaxshilash, o‘quvchilarning o‘zbek tilida o‘z fikrini bayon qila olishiga erishish davlat ahamiyatiga molik juda katta ijtimoiy-iqtisodiy, tarbiyaviy va ma’rifiy zaruriyatdir.6 [1:3].

6 Эрназарова М.С. Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларнинг 2-синфларида ўзбек тилини ўқитиш методикаси. пед.фан.номз.автореф. Тошкент, 1999, - Б. 3.

Qoraqalpoq maktablarida o‘zbek tilining o‘qitilishi juda katta ijtimoiy-iqtisodiy, tarbiyaviy va ma’rifiy ahamiyat kasb etadi. Uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati shundaki, qoraqalpoq bolalari o‘zbek adabiy tilida o‘z fikrini to‘g‘ri, ravon, ixcham va savodli bayon qila olsalar ertaga ishlab chiqarish jarayonida bu egallagan bilim, ko‘nikma va malakalar ularga qo‘l keladi. Qoraqalpoq tili bilan bir qatorda o‘zbek tilida ham o‘z fikrini boshqalarga yetkazish va boshqalarning fikrini tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Qoraqalpoq o‘quvchilariga o‘zbek tilini o‘qitish o‘z tilini ham puxtaroq o‘rganishga, bu ikki til o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqli tomonlari bilib olishga keng sharoit yaratadi.

Qoraqalpoq maktablarida ham o‘zbek tilini o‘qitishga qo‘yiladigan asosiy talab o‘quvchilarning o‘qish, uqish va matn yaratish malakalarini takomillashtirishdir. Zero, o‘qish, uqish va matn yaratish ona tili ta’limidan ko‘zlangan natija sifatida baholanadi.

Matnlar o‘zbek tilida berilgan ma’lumotlarni shu tilda o‘qib - o‘rganish vositasi b o‘lishdan tashqari ma’lum darajada o‘quvchilarning nutqini o‘stirish manbayi vazifasini o‘tab keladi [2:4].

Qoraqalpoq maktablarida o‘zbek tilidan o‘qish madaniyati ko‘nikmasi ularning o‘zbekcha so‘zlarni tez, to‘g‘ri va talaffuz me’yorlariga muvofiq ravishda o‘qishni, yozma nutqda qo‘llanilgan tinish belgilarni matnni o‘qish jarayonida hisobga olish imkoniyatini yaratadi.

O‘quvchilarning o‘zbekcha matnlarni o‘qish malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

-harflarni to‘g‘ri talaffuz eta olish;

-so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish;

- gap ohanggiga rioya qilib ravon o‘qish;

- sanash va ajratish ohanglaridan to‘g‘ri foydalanish;

-so‘z va gap urg‘ulariga rioya qilib o‘qish.

O‘quvchilarning yoshi ulg‘aygan sari o‘qishga qo‘yiladigan talablar ham asta sekinlik bilan murakkablashib boradi. Agar boshlang‘ich sinflarda soddalshtirilgan bolalar adabiyoti namunalarini to‘g‘ri o‘qish talab etilsa, 5-sinfda ilmiy atama va ramzlarni to‘g‘ri talaffuz etish nazmiy bolalar adabiyoti namunalarini to‘g‘ri o‘qish, she’riy misralarni to‘g‘ri bog‘lash va ajrata olish singari talablar qo‘yiladi. O‘qishning keyingi bosqichlarida bu talablar yana ham murakkablashadi. 5-sinfda o‘quvchilardan kichik ilmiy matnlarni tez va to‘g‘ri o‘qish talab etilsa, 7-8 sinflarda murakkabroq ilmiy matnlar tanlanadi. Madomiki, o‘qish malakasi ta’lim sifatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri ekan, o‘qituvchi “O‘zbek tili” mashg‘ulotlarida bu malakaning shakllanish va rivojlanishga alohida e’tibor qaratmog‘i lozim.

Ko‘p hollarda qoraqalpoq o‘quvchilari o‘zbek tilidagi matnni qoraqalpoqcha talaffuz ta’sirida o‘qiydilar. Bu holga barham berishning asosiy chorasi o‘zbekcha talaffuz me’yorlari ustida muttasil ish olib borishdir. O‘quvchining o‘qishini, tahlil qilish, yozib olingan nutqni qayta tinglash va o‘qish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xato hamda kamchiliklarni o‘quvchilar kuchi bilan aniqlash, talaffuzi qiyin bo‘lgan o‘zbekcha so‘zlarning urg‘uli bo‘g‘ini ustiga belgi qo‘yish, ana shunday xatolarni bartaraf etishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Xatoni bartaraf etishning eng muhim yo‘li o‘quvchilarning o‘qiganini qayta tinglab, yo‘l qo‘yilgan xatolarni o‘zi bartaraf etishidir. Shu bois lingafon imkoniyatlaridan unumli foydalanish o‘zbek tilidan o‘quv xonalarini zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlash davr talabi sanaladi.

Uqish bu tushunib o‘qishdir. O‘qituvchi bu malaka orqali zarurni nozarurdan ajarata olish san’atini, yozma matnni harfma harf emas, mohiyat nuqtayi nazardan ichda o‘qiy olishni, o‘qilganning ahamiyatli qismini to‘g‘ri ajrata olish malakasini nomoyon qiladi.

O‘qish ikki xolatda namoyon bo‘ladi.

1.O‘qilganning mazmunini to‘liq so‘zlab berish.

2.O‘qilgan parchadagi asosiy fikrni ilg‘ab olish.

Shubhasiz ikkinchi holat ancha murakkab bo‘lib, o‘quvchidan zarurni nozarurdan ajrata olishni, o‘qilgan butun boshli matnning mazmunini ikki, uch jumlada bayon qilishni talab etadi. Matn mazmunini uqiy olish malakalarini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Bizningcha, bu mezon ko‘rsatkichlarini bet-daqiqa birligida aniqlash ma’qul ko‘rinadi. Miqdoriy ko‘rsatkichlar har bir sinfda har xil bo‘lib, baholash jarayonida o‘quvchining matn mazmunini uqqanlik darajasi, og‘zaki nutqning to‘g‘ri va ravonligi hisobga olinadi. Boshlang‘ich sinfni bitirish arafasida o‘quvchilar soddalashtirilgan nasriy bolalar adabiyoti namunalaridan 1-1,5 betlik materialni ikki daqiqada uqib olishga erishsalar, 4-sinfning oxiriga kelib, bu ko‘rsatkich shu belgilangan vaqt ichida 2-2,5 betni tashkil etadi.

Matn mazmunini o‘qish matnning xarakteriga ham bog‘liq. Boshlang‘ich sinflarda soddalashtirilgan nasriy bolalar adabiyoti namunalari tanlansa, 5-sinfda shu sinflar uchun sinfdan tashqari o‘qish uchun tavsiya etilgan nasriy asar namunalridan foydalaniladi. Shubhasiz, ilmiy matnlar mazmunini o‘qish ancha murakkab bo‘lganligi uchun ham bu sinfda miqdoriy ko‘rsatkichlarning yarmiga teng bo‘ladi.

Keltirilgan ko‘rsatkichlar matnni ichda o‘qishga mo‘ljallangan bo‘lib, ovoz chiqarib o‘qishda bu ko‘rsatkichlar qisman kamayishi mumkin. Og‘zaki va yozma matnlar tuzish malakasi o‘zbek tili mashg‘ulotlaridan ko‘zlangan so‘nggi natijadir. Barcha tillarni o‘rganishda bo‘lgani kabi qoraqalpoq maktablarida o‘zbek tili o‘qitishda ham yaratilgan matnning ixchamligi, to‘g‘riligi va maqsadni ilg‘ab olib, uni matnda yorita olganligi bilan baholanishi maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Chunki o‘quvchining o‘zbek tilidan o‘rganilgan materiallarini o‘zlashtiriganlik darajasi matnda namoyon bo‘ladi. Zero, qoraqalpoq maktablarida o‘zbek tilini o‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad ham shu mezonda mujassamlashadi. O‘zbek tilining o‘zlashtirlganligi berilgan mavzuda o‘quvchi tomondan yaratilgan ijodiy matnda voqealanadi.

Shubhasiz, fikrni yozma shaklda bayon etishda mavzuning murakablik darajasi tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanilganligi, tasvirning mavzuga muvofiqligi yaratilgan matnning xabar berish qimmati, imloviy savodxonligi hisobga olinadi. Qoraqalpoq maktablarida o‘zbek tilining yaratiladigan matnlar, rivoya, tasvir va muhokama xarakterida bo‘lishi mumkin.

Rivoya matn - eng ko‘p qo‘llaniladigan ish turlaridandir. Matnning bu turi ma’lum bir voqea hodisaning bayoniga oid bo‘ladi. Rivoya xarakteridagi matnni o‘quvchi tomonidan yaratilgan kichik hikoya tarzida xam baholash mumkin. Ma’lumki har qanday hikoyada voqeaning tuguni rivojlangan nuqtasi va yechimi bo‘lgani kabi, o‘quvchilar tmonidan yaratilgan matnlarda ham bu unsurlar o‘z ifodasini topadi. Rivoya tarzidagi matnlar “Qiziqarli kitob o‘qigan kunim”, “Maktab hovlisiga daraxtlar ekildi”, “Men ko‘rgan qiziqarli voqea”singari mazularda bo‘lishi mumkin.

“O‘zbek tili” mashg‘ulotlarida, ayniqsa, tasviriy matnlardan keng foydalaniladi. Sinf xonasi o‘quvchining dars xonasi, qishloq, shahar, ko‘cha tasviri, odamlar, hayvonlar, qushlar tasviri manzara bog‘, dengiz bo‘yi, sahro, ko‘l, tog‘ h.k. tasviriga oid matnlar shular jumlasidandir.

Tasviriy insholar rasmlar asosida bo‘lishi ham mumkin. O‘quvchi rasmda kuzatayotgan narsa, buyum, manzara singarilarning tasvirini yaratadi.

Shubhasiz, tasviriy matnlar rivoya matnlariga qaraganda ancha murakkabroq. Chunki, rivoya matnida o‘quvchi eshitgan, ko‘rgan yoki boshidan kechirgan muayyan voqeani bayon etadi; tasviriy matnda esa o‘quvchi tasvirlanayotgan obyektning barcha tomonlarini yaqqol tasavvur eta olishi yoki ko‘ra olishi lozim.

Muhokama tarzidagi matn o‘quvchilardan muayyan voqea-hodisaga munosabat bildirishni talab etadi. Bunday matnlar o‘quvchilarda o‘zlikni anglash voqea hodisaga shaxsiy munosabat bildirish o‘z nuqtayi nazarini bayon qilish imkoniyatini yaratadi.

Biz “O‘zbek tili” mashg‘ulotlarida matn yaratishga e’tiborini qancha kuchaytirsak, o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish imokoniyatlari shuncha keng bo‘ladi.

O‘quvchilarning ona tilidan olgan bilimlariga tayanish nazariy ma’lumotlarni tushuntirish uchun ketadigan vaqtni tejaydi, amaliy mashqlarning ko‘proq bajarilishi uchun imkon yaratadi [3:11].

Xullas, qoraqalpoq maktablarida “O‘zbek tili” mashg‘ulotlari ko‘p hollarda og‘zaki, yozma matnlar tuzish bilan yakunlansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Эрназарова М.С. Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларнинг 2-синфларида ўзбек тилини ўқитиш методикаси. пед.фан.номз.автореф. Тошкент, 1999. 23 б.
2. Тошхўжаева Д.Р. Матн мазмунини ўз сўзлари билан қайта ҳикоя қилишга ўргатишнинг методик асослари. пед.фан.номз.автореф. Тошкент, 2000. 20 б.
3. Юлдашева Ш.Ш. Давлат тили таълимида ўқувчилар нутқий малакаларини ўстиришнинг илмий-методик асослари. пед.фан.номз.автореф. Тошкент, 2008. 23 б.

BOSHLANG‘ICH ADABIY TA’LIMDA UY VAZIFALARINI BILAN ISHLASH USULLARI

Polvanova Nargiza Abdumuratovna,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich ta’limning adabiyot o‘qitish metodikasidagi asosiy muammolardan biri bo‘lgan uy vazifalari ustida ishlash metodikasini takomillashtirish masalasi tadqiq etiladi. Xususan, uy vazifalari berish, darsliklarda uy vazifasini tashkil etish, bu borada o‘quvchining yosh xususiyati, psixofiziologiyasini inobatga olish, uy vaziafalarini o‘quvchi qobiliyati, o‘zlashtirish imkoniyatini hisobga olgan holada darajalab berish haqida fikr yuritiladi. Mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitishda, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini o‘qitishda qanday topshiriqlar berish muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: uy vazifasi, topshiriqlar, mumtoz matnlar, yosh xususiyati, darajalanish, vazifalar tasnifi, bilim, ko‘nikma, malaka

МЕТОДЫ РАБОТЫ С ДОМАШНИМ ЗАДАНИЕМ В НАЧАЛЬНОМ ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В статье рассматривается вопрос совершенствования методики работы над домашним заданием, что является одной из основных проблем в методике преподавания литературы. В частности, речь идет о предоставлении домашних заданий, организации домашних заданий в учебниках, учете возрастных особенностей ученика, его психофизиологии, ранжировании домашних заданий с учетом способностей ученика, его способности к освоению. Обсуждалось, какие задания давать при обучении образцам классической литературы, особенно при обучении творчеству Алишера Навои.

Ключевые слова: домашнее задание, задания, классические тексты, возрастная характеристика, ранг, классификация заданий, знания, умения, навыки

METHODS OF WORKING WITH HOMEWORK IN PRIMARY LITERARY EDUCATION

Abstract: The article discusses the issue of improving the methodology of work on homework, which is one of the main problems in the methodology of teaching literature. In particular, we are talking about the provision of homework, the organization of homework in textbooks, taking into account the age characteristics of the student, his psychophysiology, ranking homework taking into account the student's abilities, his ability to master. It was

discussed what tasks to give when teaching samples of classical literature, especially when teaching the work of Alisher Navoi.

Keywords: homework, assignments, classical texts, age characteristics, rank, classification of tasks, knowledge, skills, skills

Ta’lim har bir mamlakat taraqqiyotida, jamiyatning moddiy-ma’naviy yuksalishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Keyingi yillarda Respublikamiz ta’lim tizimida sezilari o‘zgarishlar, islohotlar yuz bermoqda. Maktabgacha ta’lim vazirligining tashkil etilishi, bog‘chalardan boshlab bolalarni til bilish, savod chiqarish, ijodiy yondashishga o‘rgatish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Shunga qaramasdan, shu kungacha hech kim boshlang‘ich sinflarda va undan keyingi bosqichlarda o‘qitilayotgan o‘quvchilarga qaysi sinfda nimani o‘qitish maqsadga muvofiqligini ilmiy nuqtayi nazardan to‘la asoslab bergan emas [1;13-b.].

Q.Husanboyeva uy vazifalari borsidagi muammolarga qiyidagicha munosabat bildiradi: “O‘quvchi ma’naviy kamolotining asosi bo‘lgan tafakkur va faoliyatdagi mustaqilligining darajasi uy vazifalarini bajarishda ham namoyon bo‘ladi. Uy vazifalari bajarilishidagi eng muhim shart unda dars va darslikdagi haqiqatlarning takrorlanmaslik kerakligidir. Aks holda, o‘quv materialini ko‘r-ko‘rona eslab qolish holati yuz beradi. Uy vazifalari o‘quvchining sinfdagi faoliyatidan shunisi bilan farq qiladiki, unda barcha topshiriqlar o‘quvchining o‘zi tomonidan mustaqil ravishda bajariladi. Ta’limning bu turidan darsda shakllangan mustaqil fikrlash faoliyatini yana-da mustahkamlash va rivojlantirish uchun foydalanish juda muhim. Afsuski, ta’lim amaliyotida o‘quvchilarning uy vazifalarini pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish bilan yetarli darajada shug‘ullanilmaydi. Har darsda o‘quvchilarga uy vazifalari topshiriladi, lekin ularni qanday bajarish mumkinligi nisbatan kengroq o‘rgatilmaydi”[4:240-b.].

Darhaqiqat, uzluksiz ta’lim tizimida uyga vazifa berishning amalda quyidagi shakllarnini kuztish mumkin:

T/r	Boshlang‘ich sinflarda	Yuqori sinflarda
1.	She’rni yod olib keling.	Hikoyani o‘qib keling.
2.	Rasmga qarab matn tuzib keeling.	Uyga vazifani bajarib keeling.
3.	Matn tuzib keling.	She’rni yod oling.
4.	Savol va topshiriqlarga javob yozib keling.	Ijodkorning hayoti va ijodini o‘qib keling.
5.	Ertakni o‘qib keling.	Savollarga javob yozib keeling.
6.	Audioni tinglang.	

Aslida uy vazifalari bunday maqsadsiz berilmasligi lozim, har bir yuga beriladigan topshiriq oldindan o‘ylangan, oson baholash imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.

Metodikaga doir manbalarda ta’lim mazmuni tushunchasi har xil talqin etiladi. Xususan, nufuzli pedagog oliy ta’lim mazmuni deganda o‘rganish uchun tanlangan va o‘quvchilarning o‘zlashtirishlariga mo‘ljallangan, metodik jihatdan puxta ishlangan muayyan ijtimoiy tajribaning bir qismini tushunadi [2; 17-b.].

Pedagogika fanlari doktori Q.Husanboyeva esa ta’lim mazmuniga o‘qituvchini ham kiritadi [3; 37-b.]. 314

Darhaqiqat, o‘qituvchi ta’lim tizimida muhim o‘rin tutib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘ladi, lekin yondashuv biroz o‘zgargan: ilgari o‘qituvchi darsning subyekti edi, endi bu o‘rinni u o‘quvchilarga bo‘shatib bermoqda va bu ayni paytda nihoyatda to‘g‘ri yo‘ldir.

Darsning markazida o‘quvchi turishining hayotiy zarurati tufayli o‘qituvchi o‘z o‘quvchilariga fanga doir kompetensiyalarni namoyon qilish uchun imkoniyat yaratib berishi kerak, shunda o‘quvchi faollashadi, aks holda o‘qituvchining harakatlariga bog‘lanib qolishi mumkin. Bugungi o‘qituvchi yaxshi tashkilotchi bo‘lsa yetarli, hatto u juda katta hajmdagi bilimga ega bo‘lishi shart emas. Bugungi o‘quvchi uchun ma'lumotlar bazasi muammo emas, unga bilimni qanday egallashni o‘rgatish, yo‘naltirish, muammo qo‘yish, yechimini topishga undash kabi tashkiliy jarayonlar bilan ta’sir ko‘rsatish kerak.

Adabiyot o‘qituvchisining asosiy vazifasi ham yuqorida ta’kidlangan mezonlardan kelib chiqib, adabiyot darsini qiziqarli tashkil qilishi kerak, o‘quv materialini to‘g‘ri taqsimlashi kerak. Bu – hozirgi kunning eng dolzarb masalasidir. Darsni samarali tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari har tomonlama o‘rganilgan. O‘zbek pedagogikasida hali alohida tadqiqot sifatida o‘rganilmagan muhim masalalar qatorida o‘quvchining shakllanishida, fanning amaliy ahamiyatini oshirishda hal qiluvchi hisoblangan uy vazifalari muammosi o‘z yechimini kutib yotibdi. Uy vazifalari kerakmi? Kerak bo‘lsa, o‘quvchiga qaysi sinfda qancha uy ishi berish maqsadga muvofiq? U qanday shaklda bo‘ladi? – kabi zalvorli savollar O‘zbekiston ta’lim tizimi doirasida o‘zing aniq javobiga ega emas.

Mazkur savollar dunyo pedagoglari tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Bizga tanish bo‘lgan Rossiya ta'lim tizimida o‘quvchiga beriladigan uy vazifalari uning yoshi, psixofiziologiyasiga mos tarzda ishlab chiqilgan.

Jahon tajribasida ayrim pedagoglar o‘quvchiga uyga vazifa bermaslikning tarafdori. Ayrimlar esa, kam miqdorda berish kerak deb hisoblaydi, ba’zilari o‘quvchiga zavq beradigan, ishtiyoqini oshiradigan vazifalar berish kerakligini ta’kidlaydi. Jumladan, milliy maktablarimizning adabiyot darslarida o‘qituvchilar o‘tilgan mavzu bo‘yicha qaysi va qancha o‘quv materialini uyga vazifa sifatida berish kerakligini aniq bilmaydi.

Hamma o‘zi bilganicha uy vazifalarini beradi, keyin uni o‘quvchidan talab qilaveradi. Buning ustiga hamma o‘quvchiga bir xil uy vazifasi beriladi, garchi o‘quvchilar qobiliyati biri ikkinchisini takrorlamasligi ma'lum bo‘lsa ham. Keyingi darsda shu berilgan bir xil topshiriqni hammadan bir xilda so‘rab, bir xil mezonda baholanadi. Jahon tajribasida sinfdagi o‘quvchilarning har biriga 315 o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, imkoniyatiga qarab

vazifalar taqsimot qilinadi. Keyingi darsda uy ishlari so‘ralganda ham qoniqarsiz baholar soni oshib ketmaydi, chunki avvalgi darsda o‘quvchining intellektual imkoniyati yetadigan topshiriqlar berilgan bo‘ladi. Natijada o‘quvchida qiziqish susaymaydi, topshiriqni bajara olgandan so‘ng aksincha, unda yana ishtiyoq paydo bo‘ladi, bu esa ta'limda nihoyatda muhim hisoblanadi.

Sinfdagi jarayonda topshiriqlar imkoniyatga ko‘ra aynan taqsimlanishiga hojat bo‘lmasligi mumkin, zero, darsda o‘qituvchi zarur o‘rinlarda yordam bera oladi. Uyga vazifa berilganda o‘quvchining ota-onasi unga yordam qila olmasligi mumkin, shu sababli ham uy vazifalari o‘quvchilarning har biriga imkoniyati doirasida berilishi lozim.

Amaldagi adabiyot darslarida o‘qituvchilar o‘quv materiallari bilan ishlashda chalkashlikka yo‘l qo‘yishmoqda. Ijodkor yozgan asari uchun o‘quv dasturiga kiritilgan, dars jarayonida uning asari o‘rganilishi kerak, yozuvchi yoki shoirning tarjimayi holiga doir ma'lumotlar sinfda emas, aksincha, uyga vazifa sifatida berilsa, hamma o‘quvchi bajara oladi. Asar matni bilan bir o‘zi ishlay olmasligi mumkin, ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalari bo‘lsa.

O‘qituvchilari o‘quvchiga uyda bajarish uchun nisbatan yengil, qiziqarli va qobilyatiga mos topshiriq berishi lozim. Asar matni ustida ishlash bir muncha qiyinchilik tug‘diradi shuning uchun o‘qituvchilar ham, kirish imtihonlari uchun test tuzadigan ekspertlar ham ko‘proq tarjimayi holga doir ma’lumotlar bilan chegaralanib qolmoqda.

Muayyan bolalar shoiri hayoti va ijodi umumta'lim maktablarining deyarli hamma sinflarida o‘qitiladi. O‘qituvchilar sinfda ko‘pincha shoirning biografik ma'lumotlari bilan o‘ralashib qolmoqda. Uyga berilayotgan vazifalar esa, asosan, asar mazmuniga aloqador bo‘layotgani kuzatishlar davomida ma'lum bo‘lib qoldi. Uy vazifalari uchun shakllantirilgan topshiriqlar umumiy xarakterdaligi o‘quvchi uni talab darajasida bajara olmasligiga olib kelmoqda.

Bolalar shoiri ijodi bo‘yicha uy vazifalari quyidagicha berilsa, o‘quvchilarda shoir asarlariga, shaxsiyatiga nisbatan qiziqishi, ishtiyoqi yanada ortadi:

1. Ijodkor haqida qiziqarli ma'lumotlar topib keling. Ko‘proq topib kelgan o‘quvchining bali yuqori bo‘ladi.
2. Shoir haqida haqida qiziqarli, muhim ma'lumotlar topib keling.
3. She’rini ifodali o‘qish va yod aytishga tayyorlanib keling. Kim ifodali va bexato yodlab aytib bersa, bali yuqori bo‘ladi.
4. Kim she’r yozib ko‘rgan?
5. O‘zingiz sevgan ertak qahramoniga maktub yozib keling. Kim ta’sirli va ishonarli yozib kelsa, uning bali yuqori bo‘ladi, kabi.

Xullas, boshlang‘ich ta'lim tizimida o‘quvchilarga beriladigan uy vazifalari ixtiyoriy, duch kelgan emas, maqsadli, rejali va puxta o‘ylangan bo‘lishi lozim. Berilayotgan uy vazifalari o‘quvchining intellektual imkoniyatlarini inobatga olgan holda darajalangan holatda tayyorlanishi, asar matni sinfda tahlil qilinib, ijodkor tarjimayi holiga doir ma'lumotlar o‘quvchiga uy vazifasi siftida berilishi, berilgan topshiriq o‘quvchini zeriktirmasligi, aksincha, uni izlanishga undaydigan, zavq bag‘ishlaydigan, ishtiyoqini oshiradigan bo‘lishi kerak. Barcha fanlarda ham mazkur masala bilan bog‘liq muammolar borligi aniq, ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda. Uy vazifalarini samarali tashkil etish o‘qituvchigagina bog‘liq. Kelajakda uy vazifalari bo‘yicha sinflar va fanlar kesimida metodik tavsiyalar, topshiriqlar to‘plamlari yaratish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga badiiy asarlarni tushunishni o‘rgatuvchi, mutolaaga qiziqtiruvchi uyga vazifalar tizimini yaratish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори // И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 9- сессиясида сўзлаган нутқи, 1997 йил 29 август. –Т.: Маърифат – мададкор, 2002. – 62 б. 2.
2. Лернер Я. Дидактические основы методов обучения Текст / И.Я.Лернер. – М. : Педагогика, 1981. – 186 с.
3. Ҳусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. докт. дисс. автореф. –Т.: ТДПУ, 2006. – 262 б.
4. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan. –Toshkent, 2018. 240-b.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI ADABIY TALAFFUZGA O‘RGATISH USULLARI

Do‘stmurodov G‘iyos Husan o‘g‘li,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi. O‘zbekiston.

Annotasiya: maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida adabiy talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida o‘quv topshiriqlari va ularning ta'lim jarayonida tutgan o‘rni, ko‘nikma va malaka hosil qilishdagi ahamiyati, shuningdek, talaffuz ko‘nikmasini intensiv rivojlantirish uchun an'anaviy mashq namunalaridan ko‘ra animasion, audio va video matnlardan foydalanish afzalliklari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: adabiy til, adabiy talaffuz, mashq, mashq turlari, zamonaviy mashqlar, animasion, audio va video materiallar, innovasion ta'lim, kreativlik

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРНОМУ ПРОИЗНОШЕНИЮ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: в статье рассматриваются образовательные задачи, формирующие навыки литературного произношения у будущих учителей родного языка, и их роль в образовательном процессе, их значение в формировании навыков и умений, а также преимущества использования анимации, аудио- и видеотекстов вместо традиционных примеров упражнений для интенсивного развитие навыков произношения.

Ключевые слова: *литературный язык, литературное произношение, упражнение, виды упражнений, современные упражнения, анимация, аудио- и видеоматериалы, инновационное образование, креативность*

TEACHING LITERARY PRONUNCIATION TO FUTURE TEACHERS OF THE NATIVE LANGUAGE AND LITERATURE AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract: the article discusses educational tasks that form the skills of literary pronunciation in future native language teachers, and their role in the educational process, their importance in the formation of skills and abilities, as well as the advantages of using animation, audio and video texts instead of traditional examples of exercises for intensive development of pronunciation skills.

Keywords: *literary language, literary pronunciation, exercise, types of exercises, modern exercises, animation, audio and video materials, innovative education, creativity*

Orfoepiyani o‘qitish bugungi kunda ona tilini o‘qitish metodologiyasining eng kam rivojlangan bo‘limlari qatoriga kiradi. Bu holat bir qator obyektiv va subyektiv omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ularsiz orfoepik madaniyatni o‘qitishning samarali tizimini yaratib bo‘lmaydi. Ijtimoiy-madaniy omil ushbu ketma-ketlikda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Hozirgi ijtimoiy-madaniy vaziyat yigirma – o‘ttiz yil oldingi vaziyatdan tubdan farq qiladi, bu asosan boshlang‘ich va o‘rta maktablarda orfoepiyani o‘qitish metodikasi bo‘yicha mavjud ishlanmalar va tavsiyalarga qaratilgan.

Maqsadli davlat siyosatining yo‘qligi, ona tilini kodlashtirish bo‘yicha faoliyatni qisqartirish, adabiy me’yorga nigilistik munosabatning tarqalishi, ommaviy axborot vositalari tilining buzg‘unchi ta’siri – zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatning barcha bu xususiyatlari nutqni o‘qitish vazifalarini hal qilishni sezilarli darajada murakkablashtiradi, umuman madaniyat, xususan, orfoepik madaniyat, bugungi kunda adabiy talaffuz sohasining kengayishiga moyildir.

Har bir adabiy til tovush tarkibining me’yorlashuv darajasi, uning alifbosi, orfografik va orfoepik me’yorlarning amaliy jihatdan puxta ishlanganligiga bog‘liq.

Odatda, adabiy talaffuz me’yoridan chetga chiqish ko‘proq jonli so‘zlashuv va mahalliy sheva ta’sirida voqe bo‘ladi: gapni o‘rniga *gappi* yoki *gapti, kelyapman* o‘rniga *kelyappan*, deb talaffuz qilish adabiy me’yorlar nuqtayi nazaridan noto‘g‘ri hisoblanadi. Shu ma’noda, bunday sheva shakllari adabiy talaffuz doirasiga kiritilmaydi. Talaffuzda sheva xususiyatlaridan qutulish va uning o‘rniga erkin ravishda shunga mos adabiy talaffuz ko‘nikmalarini hosil qilish uchun ko‘p yillar ish olib borish zarur. Orfoepiyaning vazifasi ham adabiy talaffuzdan ana shunday chekinishlarni bartaraf etish va so‘zlashuv nutqini sodda va tushunarli aloqa vositasiga aylantirishdan iborat[4].

Orfoepiya adabiy tilda unli va undosh tovushlarning aytilishi, so‘z va bo‘g‘in, so‘z va so‘zning morfematik tarkibi (o‘zak morfema va affiks)ni hamda so‘z birikmalari talaffuz me’yorini belgilaydi.

Orfoepiya so‘zlarni, ularning tarkibidagi tovushlarni, shuningdek, o‘zak va qo‘shimchalardan iborat so‘z formalarini to‘g‘ri talaffuz qilish me’yorlari tizimidir. Tilshunoslikning bu tizim haqidagi bo‘limi ham orfoepiya deyiladi. Orfoepik me’yorlar aslida xalq jonli tili faktlari asosida yaratiladi – jonli tildagi turlicha talaffuz ko‘rinishlaridan adabiy til an’analariga, taraqqiyot traditsiyalariga mos keladiganlari tanlanadi. Masalan, o‘zbek shevalarida bir so‘z turlicha talaffuz qilinadi: *yo‘q-jo‘q, ko‘z-go‘z, ota-ata, aka-oka, anor-onar* kabi. Hozirgi zamon davom fe’li qo‘shimchasi shevalarda *-yapti, -opti, -utti, -vot(ti)* shakllarida qo‘llanadi: *boryapti, boropti, borutti, borvotti* kabi. Adabiy tilda shulardan yo‘q, ko‘z, ota, aka , anor, boryapti variantlari adabiy talaffuz me’yori (orfoepik me’yor) sifatida saralangan. To‘g‘ri talaffuz nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri sanaladi. Adabiy tilda to‘g‘ri yozish qanchalik muhim bo‘lsa, to‘g‘ri talaffuz ham shunchalik ahamiyatlidir. Shuning uchun ham o‘quvchi va talabalarda to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarining shakllantirilishiga ta’limning barcha bosqichlarida jiddiy e’tibor beriladi[2].

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ona tiliga bo‘lgan munosobatni tubdan o‘zgartirdi. Ona tili ta’limi mazmunining yangilanishi mazkur sohada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘lamini belgilab berdi. Respublikamizning birinchi Prezidenti ta’lim sohasiga oid muammolarga to‘xtalib shunday degan edi: “Shu kungacha hech kim boshlang‘ich sinflarda va undan keyingi bosqichlarda o‘qiyotgan talabalarga qaysi sinfda nimani o‘qitish maqsadga muvofiqligini ilmiy nuqtayi nazardan to‘la asoslab bergan emas”[1].

Vaholanki, o‘zbek talabalariga ham orfoepiya ta’limi jarayonida faqat nutq organlarining darslikdagi umumiy grafik chizmasi bilan chegaralanib qolmasdan, tovushlar talaffuzi holati aks etgan maxsus chizmalar asosida ta’lim berish, fonetik mashqlarga imkoni boricha boshlang‘ich sinflarda ko‘proq o‘rin ajratish, yuqori sinflarda ularga o‘rni bilan qaytib turish adabiy til me’yorlarini egallashning muhim omili ekanligini shu o‘rinda alohida ta’kidlash lozim.

Maktab “Ona tili” darsliklarida ham, oliy ta’lim darsliklarida ham fonetik mashqlarga o‘rin ajratilmagan. Bu holat o‘zbek adabiy talaffuz me’yorlarining o‘quvchi va talabalar tomonidan yetarlicha o‘zlashtirilmay qolishiga olib kelayotgan sabablardan biridir. Ona tili ta’limi tarixiga nazar tashlasak, bunday mashqlar o‘zbek tili fan sifatida

shakllangan dastlabki yillarda(1930 –1940) chop etilgan darsliklarda ham uchramasligiga guvoh bo‘lamiz[6]. Natijada o‘qituvchilarning aynan shu mashqlar bilan cheklanishi (aslida muqobil darsliklardan ham foydalanish mumkin) o‘quvchilarning yetarli darajada adabiy talaffuzi shakllanmasligiga olib kelmoqda.

Masalan, Xorazm vohasida ayrim so‘zlar talaffuzida ***[q]*** undoshi o‘rnida ***[k]*** nutq tovushini qo‘llash ko‘nikmaga aylanib qolgan. Demak, xorazmlik talabaga adabiy talaffuz me’yorlarini singdirish uchun darslikda berilgan ikkita mashq yetarli bo‘lmaydi. Mavzuga monand, ammo darslikdagi o‘quv topshiriqlarini aynan takrorlamaydigan o‘quv topshiriqlarini tuzish, mashqlar tizimini yaratish va ulardan unumli foydalanishni barcha o‘qituvchi ham bir xilda amalga oshiravermaydi.

Toshkent viloyati, xususan, shahar hududida ommaviy tarzda ***[h]*** bo‘g‘iz undoshi o‘rnida muntazam ***[x]*** chuqur til orqa undoshining ishlatilishi (*xandaley, xurmat, xamma va b.*), shuningdek, Buxoro, Samarqand (shahar hududida), Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida ***[o‘]*** unlisining talaffuzida muammolar borligini aytish mumkin.

Bu borada Samarqand viloyatiga alohida to‘xtalish mumkin. Pastdarg‘om, Urgut va Nurobod tumanlarida ***[i] – [e]*** unlilarining aytilishida chalkashliklar borligi kuzatiladi. Xuddi shunday Kattaqo‘g‘on tumanida ***[o‘] – [u]*** unlilarining ishlatilishida muammolar mavjud. Mazkur hududda yashovchilar, talabalar, hatto o‘qituvchilar ham ***[o‘]*** unlisini ***[u], [u]*** unlisini ***[o‘]*** o‘rnida qo‘llaydilar.

Shcherbakning ta’kidlashiga ko‘ra turkiy tillarda unlilarning eng muhim farqlovchi belgilaridan biri kenglik-torlik, ya’ni og‘izning ochilish darajasiga xos belgidir [7:27]. Bu belgisiga ko‘ra unlilar bir qator turkiy tillarda, xususan, yoqut, oltoy, karagas, tuva, qirg‘iz, bolqor tillarida ikki bosqichli oppozitsiyani tashkil qiladi: a,(ã), o, õ - keng (kompakt), i, ĩ, ü, u - tor (diffuz). Unli fonemalarning soni ularning miqdoriy belgisiga ko‘ra zidlanishini hisobga olmaganda, yuqoridagi tillarda sakkizta sanaladi. O‘zbek tili fonetikasiga oid tadqiqotlarda uch bosqichli zidlanish mavjudligi ko‘rsatiladi: keng **a – o;** yarim keng **e – o‘;** tor **i – u.** Unlilarning keng, yarim keng, tor deb bo‘linishlariga sabab shuki, ularni talaffuz qilish paytida quyi jag‘ning pastga tushuvi yoki tilning qattiq tanglaydan uzoqligi har xil darajada bo‘ladi. Masalan, **i** unlisini talaffuz qilish vaqtida til maksimum darajada ko‘tariladi, pastki jag‘ ham shunday pozitsiyani egallaydi. Natijada til bilan qattiq tanglayning orasi minium darajada yaqinlashadi va og‘iz bo‘shlig‘idagi havo yo‘li ham minium darajada qisqarib, torayadi. Ana shuning uchun ham **i, u** fonemalari tor unlilar deyiladi. Bu yerda **u** bilan **i** ni bir qatorga qo‘yishning sababi shundaki, ularning talaffuzi vaqtida qattiq tanglay bilan tilning oralig‘i deyarli bir xil bo‘ladi. Lekin **u** ning talaffuzida lab faol ishtirok etganligi uchun unda lablanish hodisasi yuz beradi.

Talabaning og‘zaki nutqi tug‘ilib o‘sgan yeri, oilasi, yaqinlari ta’sirida shakllangan holda maktabga keladi. Ba’zan ularni o‘zlari o‘rganib qolgan holatdan adabiy talaffuz me’yorlari doirasiga o‘tkazish ancha qiyinchilik tug‘diradi. Bunday sharoitda o‘qituvchi, albatta, orfoepiya o‘qitish jarayonidagi dastlabki faoliyatni hududiy muammolardan kelib chiqqan holda talaffuzi qiyin nutq tovushlari ustida ishlashga qaratishdan boshlashi zarur. Aks holda, ayrim talabalar balog‘atga yetganda ham ba’zi nutq tovushlari talaffuzini eplay olmaydigan bo‘lib qolishadi. Bu kabi “nutqiy kemtiklik” madaniy davralarda talabaga bir umr xalaqit berishi mumkin. O‘qituvchi o‘z vaqtida og‘zaki nutqida muammolari bor talabalarga alohida e’tibor berib, maxsus talaffuz mashqlari ustida muntazam ishlasa, muammoga o‘rin qolmasligi aniq. Biroq bu borada maktabning amaldagi didaktik ta’lim vositalari (darslik, qo‘llanmalar)da fonetik mashqlarga maxsus o‘rin ajratilmagan.

G‘.Hamroyev nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda mashqning o‘rni qay darajada ekanligini ilmiy-nazariy asoslab bergan: Quyida har bir atama o‘z mazmun-mohiyatiga ega ekanligini anglashimiz mumkin. Ya’ni, *mashq muayyan harakatni, bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg‘ulotdan ko‘zlangan ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni nazarda tutsa, topshiriq kishining, jumladan, talabaning zimmasiga biror mazvuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi[1].*

Xullas, mashq – ko‘nikma yoki malaka hosil qilish vositasi. Topshiriq esa ma’lumotlarni xotiraga kirituvchi qurilmaga o‘xshaydi. U yo‘naltiruvchi xususiyatga ega. Topshiriq orqali talabani fikrlashga, mustaqil ishlashga o‘rgatish mumkin. Zero, mashqlar ham, topshiriqlar ham “Ona tili” darsliklarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazariy ma’lumotlar, ya’ni grammatik qoidalar talabada belgilangan mavzu doirasida bilim, tushuncha hosil qiladi. Ta’lim mazmunida talaba egallashi ko‘zda tutilgan ko‘nikma va malakani, asosan, mashqlar shakllantiradi. Topshiriqlar bu o‘rinda ko‘proq talaba bilimini boyitishga xizmat qiladi. Bizningcha, orfoepiyaga doir o‘quv materiallarining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti tahlilidan kelib chiqib bu boradagi muammolarni atroflicha o‘rganish ularning yechimini topish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. Бакалавриатнинг "Ўқитувчилар тайёрлаш ва педагогика фани”билим соҳаси талабалари учун дарслик. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кугубхонаси нашриёти –Тошкент. 2007. 188 б.
2. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори // И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 9-сессиясида сўзлаган нутқи, 1997 йил 29 август. –Т.: Маърифат-мададкор, 2002. – 62 б.
3. Лернер Я. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер.–М. : Педагогика, 1981. – 186 с.
4. Алиев А., Назаров К. Ўзбек тили маълумотномаси.– Тошкент Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг «Фан» нашриёти. 1992. 5-6-б.
5. Ҳусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. док-ри дисс. автореф. –Т.: ТДПУ, 2006. – 262 б.

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ НАУЧНОМУ СТИЛЮ РЕЧИ В ПРАКТИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА

Акрамова Н.Я.
преподаватель кафедры Русского языка и литературы НавГПИ, Узбекистан

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы овладения научным стилем речи студентами с нерусским языком обучения. Даётся характеристика научного стиля и его взаимосвязь с оновными предметами специализации. Анализируются особенности процесса обучения, а также черты и функции научного стиля.
Abstract: The article addresses issues related to students with non-Russian language of instruction acquiring scientific speech style. It provides a characterization of the scientific style and its interrelation with the main subjects of specialization. The article analyzes the peculiarities of the learning process, as well as the features and functions of the scientific style.
Ключевые слова: русский язык, методы, научный стиль, подстили научного стиля, научный текст, план, реферат, терминология.

В условиях модернизации системы высшего образования возрастает роль научной деятельности, которая преобретает непрерывный характер.

Научный стиль – один из функциональных стилей общелитературного языка, обслуживающий сферу науки и производства. Его также называют научно-профессиональным стилем, подчеркивая тем самым сферу его распространения. Главная функция этого стиля — сообщение (передача) научной информации, наиболее точное, логичное и однозначное выражение мыслей в той или иной области знания. Научный стиль обслуживает разнообразные отрасли науки и техники, обеспечивает образовательный процесс в вузах различного профиля (гуманитарного, естественного и технического). При этом ее главная цель призвана совершенствовать коммуникативную компетенцию студентов в ситуациях учебно-профессионального общения, где используется научный стиль речи. И здесь важно, чтобы обучающиеся осознавали то, что основная цель использования научного стиля - передача или сообщение научной информации в различных областях знаний и что выразить свои мысли наиболее точно, логично, однозначно возможно только лишь применяя научный стиль речи.

Специфические особенности этого стиля обусловлены предназначенностью научных текстов для передачи объективной информации о природе, человеке и обществе. Он получает новые знания, хранит и передает их. Поскольку студентам приходится писать планы, тезисы научных статей, работать над рефератами, докладами, аннотациями, им необходимо знать о научном стиле. В начале работы над научным стилем речи мы знакомим студентов с понятием «научный стиль», который является своеобразной разновидностью современного русского литературного языка, обслуживает научную сферу человеческой деятельности.

Научить студента точно и ясно обосновывать свои мысли по тому или иному вопросу, логично строить свое высказывание, приводить необходимые доказательства, давать оценку той или иной научной информации, передавать основное содержание прочитанного или прослушанного научного текста устно (изложение) и письменно (реферат, аннотация) – именно на это в первую очередь должно быть направлено изучение научного текста в рамках дисциплины «Практический русский язык» в высших учебных заведениях.

Обучение профессиональной речи целесообразно начинать с текстов по специальности, работа над которыми начинается с изучения специальной терминологии. Терминология, обладает определенной самостоятельностью формирования и развития. Термин является основной лексической единицей научной сферы человеческой деятельности. В количественном отношении в текстах научного стиля термины преобладают над другими видами специальной лексики.

Изучение русского языка предусматривает изучение студентами научных терминов, введение которых осуществляется постепенно и системно. Студенты запоминают и усваивают новые терминологические единицы во время чтения научных текстов и выполнения лексических упражнений. Главная задача при этом - подготовить студентов к результативному восприятию терминологии научного стиля речи, а также научиться ориентироваться в потоке новой информации. Студентов нужно учить читать, отвечать на вопросы, понимать, репродуцировать и продуцировать тексты по своей специальности, так как на следующих этапах студентам предстоит слушать лекции, выступать на семинарах и на конференциях, писать и защищать рефераты, курсовые и дипломные работы на русском языке. Без знания общенаучной и терминологической лексики нельзя понять основное содержание текста, определить ключевые слова для дальнейшей его передачи в виде реферата, аннотации или пересказа. По этой причине студенты на занятиях по русскому языку должны усвоить следующие вопросы:

1. Сущность и специфика терминов. Термины узкоспециальные и общенаучные.
2. Особенности словообразования русской терминологии; перевода русских терминов различных отраслей науки и производства на родной язык.
3. Особенности перевода с русского языка на родной (и наоборот) терминологических словосочетаний, в состав которых входят причастия и деепричастия.

4. История формирования и развития научной терминологии. Лексикографические источники, словари по специальности.

При работе над научным стилем речи основное внимание концентрироваться на преобразовании текста и устного сообщения (передача их содержания в виде плана, тезисов, конспекта, аннотации, реферата, доклада) и на овладении научным стилем речи. Здесь имеется в виду овладение студентами средствами научного стиля, их использование при построении собственных текстов, поэтому возрастает роль разнообразных видов самостоятельной работы: составление плана, тезисов, подготовка реферата, написании аннотации, рецензии, отзыва, самостоятельный анализ научно-учебного, научно-популярного и собственно-научного текстов. На занятиях русским языком студенты знакомятся с подстилями научного стиля и его жанровыми разновидностями:

1) собственно научный: монография, статья, доклад, курсовая работа, дипломная работа, диссертационная работа
2) научно-популярный: очерк, книга, лекция, статья
3) учебно-научный: учебник, словарь, методическое пособие, лекция, конспект, аннотация,
4) научно-информативный: реферат, аннотация, конспект, тезисы,
патентное описание
5) научно-справочный: словарь, справочник, каталог.

Умение работать с научными текстами является основой всей дальнейшей подготовки студентов к овладению профессиональной речью. В процессе работы над научными текстами студенты учатся полно и точно понимать содержащуюся в научной литературе информацию, свободно ориентироваться в ней. Они вырабатывают навыки поиска, логического осмысления и переработки информации. Студенты охотно работают с данными текстами, проблемы которых актуальны для них и понятны им как специалистам, активно участвуют в обсуждении материала, что позволяет научить их строить монологи с переработкой исходного текста, передавать его содержание, преобразовывать его, обобщать информацию, воспринятую в ходе диалога или полилога, участвовать в дискуссии, используя аргументы. В научном тексте (первичном и вторичном) выделяют следующие части: заголовок, вводная часть (формулируется цель работы и обосновывается выбор темы исследования, описываются методы исследования). Основная часть членится на главы в соответствии с задачами работы. Каждая новая мысль оформляется в новый абзац. Заключение имеет форму выводов или краткого резюме.

Одной из важных форм работы на занятиях русским языком является подготовка рефератов, которая является одной из наиболее сложных видов самостоятельной работы. Это более объемный вид самостоятельной работы обучающегося, содержащий информацию, дополняющую и развивающую основную тему, изучаемую на аудиторных занятиях. Написание реферата предполагает не только освоение собственно темы реферата, но также умение студента самостоятельно скомпоновать и максимально наглядно представить излагаемый им материал. В процессе написания реферата студент осваивает так же и методы оптимального представления материала.

На первом занятии они подробно изучают теоретический материал: знакомятся с понятием «реферат», изучают виды рефератов, этапы, структуру, основные его признаки. Мы знакомим студентов с тем, что реферат может быть репродуктивным, воспроизводящим содержанием первичного текста, и продуктивным, содержащим критическое или творческое осмысление реферируемого источника. Важным для студентов является то, что репродуктивные рефераты бывают двух видов: реферат-конспект и реферат-резюме, а продуктивные рефераты представлены рефератом-обзором и рефератом-докладом.

Для качественного написания реферата при подборе литературных материалов студенту целесообразно определить те источники, которые позволят наиболее полно раскрыть тематику вопроса. Широкий круг привлекаемой литературы теоретического и практического характера, самостоятельная работа с нею позволяют реализовать главное требование контрольной работы – углубленное изучение дисциплины с элементами научного творчества, формирование профессионализма студентов.

Таким образом, усвоение лексики научного стиля, морфологии и синтаксиса, в целом лингвистики способствуют развитию у студентов навыков оформления и редактирования научной работы (статьи, доклада и т.д.), квалифицированно оформлять все виды реферата, рецензию, аннотацию и подготовить научную работу. Работа над синтаксисом научного стиля речи позволит сформировать у студентов представления о лингвистических особенностях научного стиля, а также научит анализировать текст, будет способствовать развитию навыков к самостоятельному поиску научной информации как основы научной и профессиональной деятельности.

Обучение научной речи будущих специалистов качественно повысит их уровень владения русским языком, что даст возможность для достижения реального учебного прогресса.

Литература:

1. Русский язык и культура речи: Курс лекций/Г.К. Трофимова – М.: Флинта: Наука, 2004
2. Митрафанова О.Д. Научный стиль: проблемы обучения. М., 1976
3. Демидова А.К. Пособие по русскому языку. Научный стиль речи. М.: МГУ, 1991

TA’LIM QOZOQ TILIDA OLIB BORILADIGAN AKTABLARNING BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA O‘QUVCHILARINING O‘ZBEKCHA NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA IZOHLI O‘QUV LUG‘ATLARIDAN FOYDALANISH ZARURIYATI

Omonboyeva Nursaule Erkin qizi
NavDPI, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi.Navoiy,O‘zbekiston

Annotatsiya: Ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarning boshlang‘ich sinflarida o‘quvchilarning o‘zbekcha nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda izohli o‘quv lug‘atlaridan foydalanish zaruriyati haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan

Kalit so‘zlar: Lug‘at, nutq, kompetensiya, ta’lim, so‘z, leksikografiya, lingvistik lug‘at, qomusiy lug‘at

НЕОБХОДИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЕЙ В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОЯЗЫЧНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ШКОЛ, ГДЕ ОБУЧЕНИЕ ВЕДЕТСЯ НА КАЗАХСКОМ ЯЗЫКЕ.

Аннотатsiя: Приводятся сведения о необходимости использования толковых словарей в развитии узбекскоязычной компетенции учащихся начальных классов школ, где обучение ведется на казахском языке.

Ключевые слова: Лексика, речь, компетентность, образование, слово, лексикография, лингвистический словарь, энциклопедический словарь.

THE NEED TO USE EXPLANATORY DICTIONARIES IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK SPEAKING COMPETENCE OF STUDENTS IN PRIMARY GRADES OF SCHOOLS WHERE EDUCATION IS CONDUCTED IN THE KAZAKH LANGUAGE

Abstract: Information is provided on the need to use explanatory dictionaries in the development of Uzbek-language competence of primary school students in schools where education is conducted in the Kazakh language.

Key words: Vocabulary, speech, competence, education, word, lexicography, linguistic dictionary, encyclopedic dictionary.

O‘quv lug‘atchiligi paydo bo‘lgandan buyon leksikograflarni uning alohida leksikografik janr sifatida ajratib turadigan xususiyati, tasnifiy belgilari masalasi qiziqtirib kelgan. Bu savolga birinchi marta S.G.Barxudarov va L.A.Novikovning 1971-yilda nashr etilgan “O‘quv lug‘ati qanday bo‘lishi kerak?” deb nomlangan maqolasida javob beriladi. Keyinchalik, 1974-yilda, L.A.Novikovning “Russkiy yazık v natsionalnoy shkole” jurnalining birinchi sonida bosilgan “O‘quv lug‘ati, uning spesifikasi va turlari” deb nomlangan maqolasida o‘quv lug‘ati spesifikasi va uning asosiy turini ajratish muammolari yoritib beriladi[2]. Shuningdek, jahon o‘quv leksikografiyasi nazariyotchilari J.Dyubua, G.Matore, Y.Malkil, P.N.Denisov, V.V.Morkovkin, V.G.Gak, M.A.Skopina va boshqalarning ishlarida ham ushbu masala atroflicha yechimini topadi.

Aksariyat nazariyotchilar o‘quv lug‘atini katta, akademik lug‘atga qarama-qarshi qo‘yishadi. Biroq S.G.Barxudarov aytganidek, bu ikki tipdagi lug‘atni bir-biridan keskin ajratib bo‘lmaydi. Ular bir-birini taqozo qiladi. Masalan, akademik izohli lug‘at – o‘quv izohli lug‘at, ideografik lug‘at – mavzuviy o‘quv lug‘at, katta sinonim lug‘ati – sinonim o‘quv lug‘ati kabi. Lug‘atchilik tarixida ko‘pgina o‘quv lug‘atining shu nomdagi katta lug‘at negizida yaratilgani ham kuzatiladi. V.G.Gakning fikricha, o‘quv lug‘ati shu tipdagi katta lug‘atning shunchaki kichraytirilgan nusxasi bo‘lmasligi kerak. O‘z tabiatiga ko‘ra o‘quv lug‘ati (darslik, qo‘llanmadan farqli o‘laroq) tilni u yoki bu darajada biladigan foydalanuvchi uchun shunday bir maxsus o‘quv vositasi bo‘lishi kerakki, u maksimal darajada o‘quv maqsadini qoniqtira olishi kerak, ammo shu tipdagi katta lug‘atni takrorlamasigi lozim, ya’ni uning o‘rnini bosishi shart emas, aks holda u o‘ziga xosligini yo‘qotadi[2].

O‘quv lug‘ati tavsifi uning o‘ziga xos xarakterli xususiyatiga asoslanadi. Birinchidan, u o‘z oldiga cheklangan hajmda katta − o‘quv (til o‘rganish, ta’lim bosqichi, o‘quvchining bilim darajasiga ko‘ra toifalari, tilni bilish darajasi va boshqalar) vazifasini bajarishni qo‘yadi. O.S.Axmanovaning fikricha, leksikografiyada bunday “chegaralangan hajm” va “katta maqsad”, ya’ni “mukammallik” va “ta’limiy yo‘nalganlik” talabi nazariy va amaliy jihatdan bir-biriga mos kelmaydi. O‘quv lug‘atining muhim ko‘rsatkichi − bu so‘zlikning maqsadli tanlanishi va uning metodik jihatdan asoslangan miqdoriy cheklanishi bilan o‘lchanadi[2].

Hali o‘quv leksikografiyasi nazariyasi to‘la shakllanmagan davrda ham kichik lug‘at mavjud bo‘lgan, uning hajmi mutaxassislarning diqqatini tortib kelgan. Xususan, Ye.D.Polivanov, yuqorida aytilganidek, o‘z lug‘atining ixchamligiga ishora qilib, lug‘atga yozgan so‘zboshisida “hajmiga ko‘ra spravochnik lug‘at deb bo‘lmaydi, uni o‘quv lug‘ati toifasiga kiritish o‘rinli”[2], desa, L.V.Shcherba “barcha ixcham lug‘at jiddiy odamlar uchun oxir-oqibat asabiylashishni keltirib chiqaradi, chunki ba’zan aynan kerakli so‘z topilmay qolishi mumkin. Katta lug‘at esa boshlovchi (til o‘rganuvchi, ta’limning quyi bosqichidagi o‘quvchi – B.B.) uchun noqulaylikni keltirib chiqaradi, chunki katta lug‘atdan kerakli so‘zni qidirib topish ancha vaqtni oladi. Aynan ana shu yerda o‘quv lug‘atining zarurligi sezilib qoladi”[2], deydi.

L.A.Novikov esa leksikografiyaning bu sohasini “...hajman kichik va katta ta’limiy maqsadga yo‘naltirilgan leksikografiya”,[3] deb xarakterlaydi.

Keyinchalik o‘quv lug‘atchiligining nazariy asosini shakllantirish jarayonida hajm masalasi kun tartibiga jiddiy qo‘yiladi. S.G.Barxudarov va L.A.Novikovning “So‘zlikni tanlash va o‘quv lug‘atlari hajmi” deb nomlangan maqolasida lug‘at turidan kelib chiqib o‘quv lug‘ati 3000 dan 50 000gacha so‘zni qamrab olishi mumkinligi aytiladi. Maqolada R.M.Bakaya lug‘at so‘zligi miqdori bu tipdagi lug‘atda 2800[2], A.F.Kolesnikova 3000[2] atrofida bo‘lishini, D.E.Rozental 9000-12 000 so‘z[2], V.G.Gak 8000-10 000 so‘z[2], B.A.Lapidus 10 000-11 000 so‘zdan[2]

iborat bo‘lishi, S.G.Barxudarov va L.A.Novikov esa o‘quv izohli lug‘at, B.A.Lapidus retseptiv tipdagi asosiy ikki tilli o‘quv lug‘ati so‘zligi 25 000 gacha so‘zdan iborat bo‘lishi[2], P.N.Denisov o‘quv izohli lug‘at so‘zligining optimal miqdori 50 000 gacha[2]bo‘lishi mumkinligini ta’kidlashi aytib o‘tiladi.

Maqola mualliflari jahon o‘quv leksikografiyasi amaliyotida katta o‘quv lug‘ati so‘zligi miqdori 25 000 gacha so‘zni sig‘dira olishi kuzatilishini aytib o‘tishadi va P.N.Denisovning fikriga (50 000 so‘zni qamrab olishi) e’tiroz bildirib, “shunday katta hajmli o‘quv lug‘ati kerakmi, bunday lug‘atni o‘quv lug‘ati deb hisoblash mumkinmi, bu o‘quv lug‘ati chegarasini belgilashda noaniqlikni keltirib chiqarmaydimi?”, degan savolni qo‘yadi va bahsli munozaraga yakun yasab, o‘quv lug‘ati faqat kichik yoshdagi bola uchun emas, oliy ta’lim muassasasi talabasi uchun ham yaratilishi, qolaversa, tarjima lug‘atlar, izohli lug‘atlarni hajman chegaralash lug‘atdan amaliy foydalanish samaradorligini kamaytirishini ta’kidlashadi. Lug‘atchilikning tadrijiy taraqqiyoti haqida gap ketar ekan, ko‘p o‘rinlarda tarjima lug‘ati – lingvistik lug‘at – qomusiy lug‘at – ta’limiy (o‘quv) lug‘at – elektron lug‘at ketma-ketligi keltiriladi. Jahon tilshunosligida lug‘atchilik tarixi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar lug‘atning ilk ko‘rinishlari ta’limiy maqsadda yaratilgani – ilk lug‘at namunalari aslida maktab uchun yaratilgan ibtidoiy o‘quv qo‘llanmalari bo‘lgani, aniqrog‘i, ibtidoiy maktabda lug‘at darslik vazifasini o‘taganini ko‘rsatmoqda.

Tilshunoslikda kuzatilgani kabi o‘zbek tilshunosligida ham ilk lingvistik manbalar lug‘at ko‘rinishida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, nazariy leksikografiyaning shakllanishi uzoq tarixga ega emas.

Xo‘sh, turkiy lug‘atchilik, xususan, o‘zbek lug‘atchiligi ildizi qaysi davrga borib taqaladi? Yevropada bo‘lgani kabi ilk turkiy lug‘atlarni ham o‘quv lug‘ati nuqtai nazaridan talqin qilish mumkinmi?

Ma’lumki, O‘zbekistonda leksikografik tadqiqotlar XX asrning 60-yillaridan boshlanadi. Bunda Sh.Fayzullaeva, N.Rasulov, K.Muxiddinov, E.Umarov, X.Fattohov, T.Kadirov, M.Ziyaeva, G‘.Abdurahmonov, S.Mutallibov, A.Hojiev, Sh.T.Rahmatullaev, N.Mamatov, A.Hojiev, T. Aliqulov, A.Madvaliyev va boshqalarning xizmati katta bo‘lgan.

Mamlakat taraqqiy etsa, til ham taraqqiy etadi, mamlakatning qudrati uning rasmiy tili, ona tili maqomi, mavqeini oshishiga imkon yaratadi. Ishning avvalgi boblarida ko‘rib o‘tilganidek, XX asrning o‘rtalariga kelib jahonning ko‘pgina rivojlangan davlati, xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya, Germaniya, Fransiya kabi davlatlarda davlat tilini taraqqiy ettirish, milliy tilni va xorijiy tilni o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Hukumat lug‘atni ushbu maqsadga erishishning eng zaruriy vositasi deb tan oldi va davr tilshunosligi oldiga muhim ijtimoiy-siyosiy buyurtma – tildan foydalanish samaradorligini oshirish va xorijiy tilni tezkor o‘rgatishga xizmat qiluvchi maktab lug‘atlarini yaratish vazifasini qo‘ydi. Davrning yetuk tilshunoslari, leksikograflari, pedagog va psixologlari bu borada jiddiy ilmiy izlanish olib borishdi. Ko‘pgina davlatda umumiy lug‘atchilikdan yangi yo‘nalish – o‘quv lug‘atchiligi tarmog‘i ajralib chiqdi va bu tarmoq leksikografiya va lug‘atchilikning eng faol, “qaynoq” sohasiga aylandi.

Jahon leksikografiyasining noyob xazinasi sifatida tan olingan ko‘p funksiyali mumtoz lug‘atlarni o‘quv lug‘ati ko‘zgusi ostida tadqiq qilish an’anasi yuzaga keldi. Ibtidoiy maktab uchun o‘quv qo‘llanma vazifasini o‘tagan ilk lug‘at-grammatikaning o‘z davrida jamiyat va mamlakat taraqqiyotiga qo‘shgan muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy xizmati o‘rganilib, ushbu vazifani bajara oladigan yangi tipdagi maktab lug‘atini yaratishga katta e’tibor qaratildi. Shu tariqa lug‘atning antik vazifasi “tiriltirildi”, lug‘at ta’limning zaruriy vositasi qatoriga kiritildi, tilshunoslik degan fan o‘zining ilk vazifasi, ya’ni tildan amaliy foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish uchun xizmat qilish vazifasiga qaytarildi; barcha umumiy lug‘at aslida o‘quv lug‘atidan kelib chiqqanligi ilmiy asoslandi.

Sobiq sho‘ro davlati tasarrufidagi ko‘pgina milliy tilshunoslikda bo‘lgani kabi XX asr boshidan o‘zbek tilida ham o‘quv lug‘ati tipidagi ilk lug‘at qo‘llanma paydo bo‘la boshladi. Jumladan, “maktab o‘quvchilari uchun”, “o‘rta maktablar uchun” seriyalarida milliy maktabda rus tilini o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida ikki tilli ruscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha tarjima lug‘atlari, ommaviy savodxonlikni ta’minlash, qolaversa, kirill alifbosiga o‘tilishi munosabati bilan adabiy til me’yorini tezkor o‘rgatish zarurati bilan imlo lug‘atlari nashr etildi.

XX asr oxirlariga kelib o‘zbek lug‘atchiligi yangi turlar bilan boyidi: ensiklopedik, imlo, orfoepik, morfem, chastotali, ters, frazeologik, dialektal, etimologik lug‘atlar turkumi yaratildi. Tilshunoslikda amaliy lug‘atchilik sohasida erishilgan muayyan muvaffaqiyat bilan bir qatorda o‘quv lug‘atchiligining nazariy muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham paydo bo‘la boshladi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, sho‘ro davrida bu yo‘nalishda amalga oshirilgan dastlabki tadqiqotlar hukmron mafkura buyurtmasi asosida yaratilgan rus tilini o‘qitish vositalari ustida olib boriladi. Jumladan, M.X.To‘xtaxo‘jaeva, M.S.Soliev, L.M.Odinaeva, S.F.Akobirov, K.A.Sharofiddinova ishlarida sobiq sho‘ro davrida milliy maktabda rus tilini samarali o‘qitish maqsadida yaratilgan ikki tilli ruscha-o‘zbekcha o‘quv lug‘ati asosiy tadqiq ob’ekti bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, ayni paytda o‘rta maktabning boshlang‘ich sinfi uchun yaratilgan “Rus tili” darsliklarining asosiy muallifi hisoblangan M.X.To‘xtaxo‘jaevaning ishlarida o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan ikki tilli ruscha-o‘zbekcha maktab lug‘atlari tahlil qilinib, ularni tuzish tamoyillari va takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Jahonning ilg‘or leksikografik an’analari, qolaversa, mazkur leksikografik manbalarning murakkab tabiati, ko‘pqirraliligi (ham izohli, ham tarjima, ham ensiklopedik, ham grammatik xarakterga egaligi bilan zamonaviy lug‘atdan farqlanishi), til leksik qatlamini o‘rganish bilan birga uning grammatik qurilishiga doir ma’lumotni ham qamrab olgani, foydalanuvchisining aniqligi, asosan, hukumatning maxsus buyurtmasi bilan yaratilgani va boshqa sabablar o‘zbek leksikografiyasining X-XVII asrlar oralig‘ida yaratilgan nodir namunalarini ham o‘quv lug‘ati nuqtai nazaridan o‘rganish lozimligini taqozo etmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Мирзақулов Т. Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1994. – 56 б.
2. Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Т.: Фан, 2013. – 424 б.
3. Ne'matov H., G`ulomov A., Abduraimova M., Qosimova N. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. –T.: O'qituvchi, 2000. – 144 b.
4. Неъматов Ҳ., Ғуломов А., Зиёдова Т. Ўқувчилар сўз бойлигини ошириш. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи,1996. – 125 б.
5.Неъматова Г. Ижодий тафаккурни ривожлантириш технологияси ва ўқитувчининг мустақил фаолияти. Она тили ўқитувчилари учун методик тавсиялар. – Тошкент, 2001. – 96 б.
6. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining 1-bosqich talabalari uchun darslik.– Toshkent: Ilm ziyo, 2010. – 160b.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TO'G'RI TALAFFUZ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Hamdamova Zilola Shaxobiddin qizi,
PROFI UNIVERSITY Navoiy filiali o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqola ona tili dastur va darsliklarida tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish ta'limiga doir o'quv materiallari tahlili, "Ona tili" darsliklarida tovushlarni o'qitishning muammo va yechimlari. O'quvchilarda adabiy talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish usullarini rivojlantirish. Shuningdek, tovushlarni o'qitishning qonun-qoidalari, orfoepik jihatiga e'tibor qaratish.

Kalit so'zlar: fonetika, talaffuz, imlo, unli va undosh tovushlar, to'g'ri talaffuz, mashq va topshiriqlar.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ПРАВИЛЬНОГО ПРОИЗНОШЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: В статье представлен анализ учебных материалов по обучению правильному произношению звуков в программах и учебниках родного языка, проблемы и решения обучения звукам в учебниках «Родной язык». Разработка методов формирования навыков литературного произношения у студентов. Также обращаем внимание на правила преподавания звуков, орфографический аспект.

Ключевые слова: фонетика, произношение, правописание, гласные и согласные, правильное произношение, упражнения и задания.

DEVELOPMENT OF CORRECT PRONUNCIATION SKILLS IN PRIMARY CLASS STUDENTS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract: The article presents an analysis of educational materials on teaching the correct pronunciation of sounds in programs and textbooks of the native language, problems and solutions to teaching sounds in textbooks "Native Language". Development of methods for developing literary pronunciation skills in students. We also pay attention to the rules for teaching sounds and the spelling aspect.

Key words: phonetics, pronunciation, spelling, vowels and consonants, correct pronunciation, exercises an

Bugungi kun ona tili ta'limi maktabda o'rgatilishi belgilangan til sathlaridan qat'i nazar, hatto to'g'ri talaffuz o'qitishda ham o'quvchining so'z boyligini oshirish, shu orqali o'z fikrini og'zaki va yozma shakllarda mustaqil, ravon, lo'nda va jozibali ifodalay olishiga erishishni talab etadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish, albatta, o'zbek tilining tengsiz xazinasi hisoblangan maxsus leksik boyliklarsiz samarali bo'lishi qiyin.

Nafaqat to'g'ri talaffuz o'qitishda, balki tilning barcha sathlarini o'qitishda *matal, topishmoq, tez aytish, latifa, lof, terma* va *doston* namunalaridan tahlil materiali sifatida foydalanish ona tili ta'limida samaradorlikka erishishda, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qila oladi.

"Ona tili" darsliklarida to'g'ri talaffuz va imlo me'yorlarini ko'nikma sifatida shakllantirish borasida ko'plab mashqlar, turli tushuntirishlar beriladi. Ammo nutqiy faoliyat davomida ayrim nutq tovushlarining adabiy talaffuzi va imlosini o'quvchiga o'rgatish qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaraveradi.

Adabiy talaffuz va uning me'yorlari masalasi dunyoning rivojlangan mamlakatlari tillarida atroflicha o'rganilganligini kuzatamiz [ingliz, fransuz va b.]. Bu borada jahon tajribasida, jumladan, ingliz tilida fonetik mashqlardan unumli foydalaniladi. Shuning uchun ham amaldagi asosiy darslik va o'quv qo'llanmalarida har bir nutq tovushining hosil bo'lish jarayoni haqida batafsil ma'lumot beriladi [1:7]. Oliy maktab va umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun nashr ettirilgan darslik hamda o'quv qo'llanmalarda tovushlarning talaffuz holati aks etgan maxsus chizma (rasm)lar yo'q. *O'zbek tiliga xos bo'lgan ayrim tovushlarning to'g'ri talaffuzini oddiy, an'anaviy mashqlar bilan yetarli darajada o'rgatib bo'lmasligini bugungi o'quvchi, talaba, hatto ayrim katta yoshdagi ziyoli kishilar, xususan, o'qituvchilarning nutqi ham isbotlab turibdi.*

Muammoning bir uchi yana o'rta umumta'lim maktablarida ona tili o'qitish masalasiga borib taqaladi. Adabiy talaffuz - madaniyatlilik belgisi. O'rta umumta'lim tizimida 5-sinfdan boshlab talaffuzning asosiy birligi hisoblangan nutq tovushlari "To'g'ri talaffuz" bo'limi tarkibida tizimli o'qitila boshlaydi. "To'g'ri talaffuz" bo'limi ta'limi taqozosiga ko'ra shu yerda o'quvchilarga nutq tovushlari bilan birga to'g'ri talaffuz hamda imlo qoidalarini singdirish talabi ham qo'yiladi.

O'zbek adabiy tili turli lahjalardan o'sib chiqqanligi sababli uning talaffuzi borasida hududlar bilan bog'liq jiddiy muammolar bor. Maktab ona tili darsliklarini tuzishda, ayniqsa, to'g'ri talaffuzga doir o'quv materiallarini berishda mualliflar aholi hududiy talaffuzining tilga ta'sirini inobatga olishlari kerak. (Masalan, AQShda har bir shtat

uchun alohida darslik yaratilgan.) Shu ma’noda dastur va darsliklar tuzishda orfoepik nuqtai nazardan har bir hududning talaffuzidagi muammolari e’tiborga olinishi lozim. Masalan, Xorazm vohasida ayrim so‘zlar talaffuzida [**q]** undoshi o‘rnida [**k]** nutq tovushini qo‘llash ko‘nikmaga aylanib qolgan. Demak, xorazmlik o‘quvchiga adabiy talaffuz me’yorlarini singdirish uchun darslikda berilgan ikkita mashq yetarli bo‘lmaydi. Mavzuga monand, ammo darslikdagi o‘quv topshiriqlarini aynan takrorlamaydigan o‘quv topshiriqlarini tuzish, mashqlar tizimini yaratish va ulardan unumli foydalanishni barcha o‘qituvchi ham bir xilda amalga oshiravermaydi.

Toshkent viloyati, xususan, shahar hududida ommaviy tarzda [**h]** bo‘g‘iz undoshi o‘rnida muntazam [**x]** chuqur til orqa undoshining ishlatilishi (*xandaley, xurmat, xamma va b.*), shuningdek, Buxoro, Samardand (shahar hududida), Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida [**o‘]** unlisining talaffuzida muammolar borligini aytish mumkin.

Bu borada Samarqand viloyatiga alohida to‘xtalish mumkin. Pastdarg‘om, Urgut va Nurobod tumanlarida [**i]– [ye]** unlilarining aytilishida chalkashliklar borligi kuzatiladi. Xuddi shunday Kattaqo‘rg‘on tumanida [**o‘]– [u]** unlilarining ishlatilishida muammolar mavjud. Mazkur hududda yashovchilar, o‘quvchilar, hatto o‘qituvchilar ham [**o‘]** unlisini **[u]**, **[u]** unlisini [**o‘]**o‘rnida qo‘llaydilar.

Ko‘rinadiki, 5-sinf “Ona tili” darsligida yuqorida keltirilgan nutq tovushlarini o‘zlashtirishga mo‘ljallangan nazariy ma’lumotlar va ularni mustahkamlovchi mashqlar yetarli emas. Mazkur nutq tovushlarini sanab o‘tilgan hududlarning o‘quvchilari nutqida adabiy me’yor holatiga keltirish uchun bugungi darslik va qo‘llanmalarda deyarli e’tibor qaratilmagan maxsus fonetik mashqlar, tovushlar talaffuzi jarayonida nutq a’zolarining ko‘rinishi aks etgan alohida oksilografik chizma(rasm)lar ishlab chiqilishiga ehtiyoj seziladi.

Shuningdek, [**h]** bo‘g‘iz undoshining ko‘pchilikning ham yozma, ham og‘zaki nutqda noto‘g‘ri qo‘llanilayotgani, uni bartaraf etishga qaratilgan sa’y-harakatlarning deyarli sezilmayotgani bu borada zarur tavsiyalar ishlab chiqishni va ularni zudlik bilan amaliyotga tatbiq etishni taqazo etadi.

1999-2000 yillar keng amaliyotda qo‘llangan H.Ne’matov boshchiligida yaratilgan 5-sinf “Ona tili” darsligida **[h]** va [**x]** undoshlarini imloda ham talaffuzda farqlash uchun berilgan o‘quv materiali boshqalariga nisbatan o‘quvchiga ancha foydali[2:102].

O‘zbek tilida **[o‘]** unlisi so‘zning turli o‘rinlarida bir-biridan farqli talaffuz etilishi ma’lum, biroq uni o‘quvchilarga farqlab berish masalasi muammoligicha qolmoqda. **[o‘]** unlisi talaffuzi bilan bog‘liq nozik jihatlarga aksariyat ona tili darsliklarida e’tibor qaratilmasligi o‘quvchilarimizning adabiy nutq me’yorlarini to‘la o‘zlashtirishlariga soya tashlab turadi. Oliy ta’limning sohaga tegishli amaldagi darsliklarida mazkur masalaga qisman e’tibor qaratilgan nazariy ma’lumotlar uchraydi, ammo u amaliy jihatdan ishlanmagan [5:19]. Ta’kidlash kerakki, bugun keng amaliyotda bo‘lgan 5-sinf “Ona tili” darsligidagina **[o‘]** unlisi talaffuzda farq qilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar misollari bilan keltirilgan [3]. Bu, albatta, ijobiy hodisa, biroq “bir holatda torroq, boshqasida kengroq aytiladi”, degan izoh o‘quvchiga amaliy jihatdan yordam berishi qiyin. Keltirilgan misollarni o‘qituvchi ko‘magisiz to‘g‘ri talaffuz qilib bo‘lmaydi.

Masalan, torroq aytilishiga ***ko‘l,*** kengroq aytilishiga ***bo‘ri*** so‘zlari misol tariqasida keltirilgan bo‘lsa-da, bu hamisha ham kutilgan natijani beravermaydi. Shuni inobatga olib, **[o‘]** unlisi talaffuzi bilan bog‘liq mashqlarga keng o‘rin berish zarur.

Mashq uzluksiz takrorga asoslangandagina samara beradi. O‘quv materiallarining o‘quvchi tomonidan samarali o‘zlashtirilishi takror bilan bog‘liq. Zero, *“Bilimning onasi takrorlash*”dir.

Ma’lumki, psixologik nuqtayi nazardan inson xotirasi, jumladan, o‘quvchi xotirasi ham muayyan turlarga bo‘linadi. Ma’lumotlarni bir marta o‘qish oddiy xotirada vaqtincha saqlanadi va qisqa muddatda unutiladi. Agar uzluksiz takrorlansa, u doimiy xotiraga o‘tadi. E.G‘oziev ta’kidlagan. G.Ebbingauzning o‘quvchi eslab qolishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar tarkibi, miqdori va sifati haqida olgan xulosalarini shu o‘rinda keltirish o‘rinli. U hech qanday ma’no anglatmaydigan 38ta bo‘g‘inni o‘quvchi 55 marta takrorlaganda eslab qolganini; 38 – 40ta so‘zdan iborat materialni eslab qolish uchun esa, 6-7 marta takrorlash kifoya qilganni aniqlagan [6:221-222]. O‘quvchining ijtimoiy hayotda aloqa-aralashuvni to‘g‘ri amalga oshirishida xizmat qila oladigan zaruriy ma’lumotlarni uning uzoq muddatli xotirasiga o‘tkazish uchun o‘sha ma’lumotlarni ko‘p marta takrorlatish va xotirasida qayta tiklab turish lozim. Shu o‘rinda aytish mumkinki, to‘g‘ri talaffuz sathini o‘qitishda mashq va topshiriqlarning o‘quv materialini tashkil etuvchi sermazmun, purhikmat matnlardan o‘rinli foydalanilsa, o‘quvchi ularni bir-ikki takrorlash bilan uzoq muddatli xotirasiga “yozib qo‘yadi”. Biror jismoniy harakat avtomatlashish darajasiga yetishi uchun qancha uzluksiz mashq zarur bo‘lsa, muayyan nutqiy malakaning shakllanishiga ham shuncha mashq, harakat kerak bo‘ladi.

5-sinfda to‘g‘ri talaffuz sathi ta’limini takomillashtirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish ham muhim ahamiyatga molik. Ma’lumki, maktabda bugungi “Ona tili” o‘quv predmeti ta’limida omilkor o‘qituvchilar tomonidan ko‘plab innovatsion texnologiyalar zamon talablariga mos holda qo‘llanilmoqda. Tabiiyki, bu “To‘g‘ri talaffuz” sathi ta’limida, jumladan, o‘quvchiga nutq tovushlarining to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatish jarayonida juda qo‘l keladi. Ammo amaldagi ishlar yetarli darajada emas,chunki o‘quvchilar nutqida tovushlar talaffuzi bilan bog‘liq muammolar to‘la bartaraf bo‘lgani yoki mazkur muammoning yechimi sifatida asosli tavsiya-yu metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqilib keng amaliyotga tatbiq etilgani yo‘q.

Mazkur masalaning yana bir jihati borki, har qanday sharoitda ham ona tili o‘qituvchilari mazkur bo‘limni o‘z imkoniyat va salohiyatlaridan kelib chiqib tushuntiradilar. Odatda, o‘quvchi uchun o‘z ona tilining hamma tovushlari ham talaffuz va imloda qiyinchilik tug‘diravermaydi. Mahalliy til hisoblangan sheva ta’sirida ayrim unli va undosh tovushlarning aytilishi hamda yozilishida chalkashliklar, xatolar bo‘lishi mumkin. Amaliy kuzatuvlar shuni

ko‘rsatadiki, respublikamizning turli hududlarida o‘quvchilar nutqida, asosan, unlilardan *[i] – [ye], [o‘] – [u]* va undoshlardan [*h*], [*x*], [*q*], ba’zan *[j]* tovushlari talaffuzida, ba’zan shuning ta’sirida imloda ham xatoga yo‘l qo‘yishadi. Bunday vaziyatlarda amalda qo‘llanilayotgan topshiriq xarakteridagi mashqlar bilan qancha ko‘p ishlansa ham, kutilgan natijaga erishish qiyin kechmoqda.

O‘quvchining og‘zaki nutqi tug‘ilib o‘sgan yeri, oilasi, yaqinlari ta’sirida shakllangan holda maktabga keladi. Ba’zan ularni o‘zlari o‘rganib qolgan holatdan adabiy talaffuz me’yorlari doirasiga o‘tkazish ancha qiyinchilik tug‘diradi. Bunday sharoitda o‘qituvchi, albatta, to‘g‘ri talaffuz o‘qitish jarayonidagi dastlabki faoliyatni hududiy muammolardan kelib chiqqan holda talaffuzi qiyin nutq tovushlari ustida ishlashga qaratishdan boshlashi zarur. Aks holda, ayrim o‘quvchilar balog‘atga yetganda ham ba’zi nutq tovushlari talaffuzini eplay olmaydigan bo‘lib qolishadi. Bu kabi “nutqiy kemtiklik” madaniy davralarda o‘quvchiga bir umr xalaqit berishi mumkin. O‘qituvchi o‘z vaqtida og‘zaki nutqida muammolari bor o‘quvchilarga alohida e’tibor berib, maxsus talaffuz mashqlari ustida muntazam ishlasa, muammoga o‘rin qolmasligi aniq. Biroq bu borada maktabning amaldagi didaktik ta’lim vositalari(darslik, qo‘llanmalar)da fonetik mashqlarga maxsus o‘rin ajratilmagan. Bu ham o‘z navbatida tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilmaslikka olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bonk N. A., Kotiy G. A., Lukyanova N. A. Uchebnik angliyskogo yazыka. 1999.
2. Ne`matov H. va b. Ona tili. 5- sinflar uchun darslik. –T.: O`qituvchi, 2000. 102.
3. Mahmudov N., A. Sobirov, Sh. Sattorov, Sh. Toshmirzayeva, D. Mannopova Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent – 2020.
4. Mirtojiev M. O‘zbek tili fonetikasi. – T.: Fan, 2013 – 424.
5. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘zbekiston, 1992. – 19- b.
6. Ғозиев Э. Умумий педагогика. –Т., 2010. – 221-222-б.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОДНО-ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА.

Меликулова Нилуфар Хамдуллаевна
Преподаватель кафедры Дошкольного образования НавГПИ, Узбекистан

Аннотация:В переводе сталкиваются различные культуры, разные личности, разные склады мышления, разные литературы, разные эпохи, разные уровни развития, разные традиции и установки. Переводом интересуются культурологи, этнографы, психологи, историки, литературоведы, и разные стороны переводческой деятельности могут быть объектом изучения в рамках соответствующих наук.В статье предлагаются лингвистическая и психолингвистическая модель перевода, семантические трансформации при переводе.

Ключевые слова:лингвистическая и психолингвистическая, ситуативная, трансформационная и семантическая модельперевода.

TARJIMA-BADIIY MATNNING LINGVISTIK TAHLILI.

Annotasiya: Tarjimada turli madaniyatlar, turli xil shaxslar, turli xil fikrlash uslublari, turli adabiyotlar, turli davrlar, rivojlanishning turli darajalari, turli urf-odatlar va munosabatlar to‘qnashadi. Tarjimani madaniyatshunoslar, etnograflar, psixologlar, tarixchilar, adabiyotshunoslar qiziqtiradi va tarjima faoliyatining turli jihatlari tegishli fanlar doirasida o‘rganish ob'ekti bo‘lishi mumkin. Maqolada tarjimaning lingvistik va psixolingvistik modeli, tarjimadagi semantic o‘zgarishlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar:tarjimaning lingvistik va psixolingvistik, situatsion, transformatsion va semantic modeli.

LINGUISTIC ANALYSIS OF TRANSLATION-LITERARY TEXT.

Abstract: Different cultures, different personalities, different ways of thinking, different literatures, different epochs, different levels of development, different traditions and attitudes collide in translation. Culturologists, ethnographers, psychologists, historians, literary critics are interested in translation, and different aspects of translation activity can be the object of study within the framework of the relevant sciences. The article offers a linguistic and psycholinguistic model of translation, semantic transformations in translation.

Keywords: linguistic and psycholinguistic, situational, transformational and semantic model of translation.

Перевод – это сложный и многогранный вид человеческой деятельности. Хотя обычно говорят о переводе «с одного языка на другой», но, в действительности, в процессе перевода происходит не просто замена одного языка другим. В переводе сталкиваются различные культуры, разные личности, разные склады мышления, разные литературы, разные эпохи, разные уровни развития, разные традиции и установки. Переводом интересуются культурологи, этнографы, психологи, историки, литературоведы, и разные стороны переводческой деятельности могут быть объектом изучения в рамках соответствующих наук.Несмотря на то, что наука о переводе сравнительно молода, теоретические работы в области перевода весьма многочисленны и трудно обозримы. В данной статье уделяется внимание двум моделям перевода, одна из которых является классической и рассматривает перевод с точки зрения лингвистики, а вторая интерпретирует перевод исходя из теории психолингвистики.

Лингвистическая модель переводческого процесса представляет его в виде ряда последовательных преобразований текста оригинала в текст перевода, с помощью которых теоретически может быть достигнут

желаемый результат. Модель перевода – это условное изображение процедуры осуществления процесса перевода, основанная на попытке распространить на перевод некоторые общие постулаты языкознания или психологии. Хотя любая модель перевода носит гипотетический характер, поскольку нет прямых доказательств, что переводчик действует именно так, как следует из данной модели, совпадение результата перевода с прогнозируемым по модели показывает, что она обладает определенной объяснительной силой. В современном переводоведении существуют несколько моделей перевода, что предполагает возможность осуществлять процесс перевода разными способами. Наибольшее распространение получили ситуативная, трансформационная и семантическая модели.

1. Ситуативная (или денотативная) модель распространяет на процесс перевода лингвистические концепции о связи языка и действительности. Ситуативная модель перевода исходит из положения о том, что любая ситуация может быть в принципе описана средствами любого языка. Даже если в языке отсутствуют наименования для каких-то элементов действительности, всегда существует возможность либо образовать в этом языке новые единицы, либо описать эти элементы с помощью сочетаний уже имеющихся единиц. На основе этих положений предполагается, что процесс перевода происходит следующим образом. Поняв содержание оригинала, переводчик определяет, какая ситуация в нем описана, а затем описывает эту ситуацию средствами языка перевода (там же).

2. Трансформационная модель перевода основывается на положениях трансформационной грамматики, которая постулирует существование в языке рядов взаимосвязанных синтаксических структур. В таких (трансформационных) рядах выделяются ядерные структуры, в которых отношения между элементами структуры наиболее прозрачны, и производные структуры (трансформы), выводимые из ядерных по определенным трансформационным правилам (там же).Согласно этой моделипроцесс перевода осуществляется в три этапа. На первом этапе производная структура в оригинале возводится к ее ядерной структуре в исходном языке. На втором этапе происходит переход от ядерной структуры языка оригинала к аналогичной ядерной структуре языка перевода. И, наконец, на третьем этапе ядерная структура в языке перевода преобразуется в производную в соответствии с нормой и узусом этого языка.

3. Семантическая модель перевода представляет процесс перевода как идентификацию и сохранение релевантных сем оригинала. В основе этой модели лежит попытка распространить на перевод применяемую в лингвистике процедуру компонентного анализа, позволяющую разбивать значения языковых единиц на более мелкие элементарные смыслы – семы, и эти значения рассматриваются как пучок таких сем. При этом оказывается, что, если пучки сем (значения языковых единиц) в разных языках, как правило, не совпадают, то между составляющими их семами имеется значительная общность. Предполагается, что процесс перевода может осуществляться в два этапа. На первом этапе переводчик определяет семный состав отрезка оригинала и решает, какие из выявленных сем релевантны для коммуникации и должны быть переданы в переводе. На втором этапе в языке перевода подбираются единицы, в значения которых входят как можно больше сем оригинала, в первую очередь, релевантных. Степень близости перевода к оригиналу определяется количеством общих сем. При этом некоторые семы могут обнаруживаться из контекста оригинала и эксплицироваться в переводе или навязываться нормами языка перевода (там же).

Современные авторы полагают, что наиболее полно и правильно описывает процесс перевода психолингвистическая модель речевой деятельности.В настоящее время перевод принято рассматривать не только в лингвистическом аспекте, но и как феномен коммуникации. Такой подход позволяет включить в рамки изучения наибольшее количество компонентов, составляющих этот процесс.Классифицируя феномены коммуникации, А.Д.Швейцер относит перевод к подклассу «опосредованной межъязыковой коммуникации», где он соседствует с такими явлениями, как реферат, аннотация, пересказ, переложение иноязычного текста, новое произведение, созданное по мотивам оригинала. В качестве характерной черты этих явлений автор выделяет участие языкового посредника и порождение в результате соответствующих процессов вторичного текста, в какой-то мере отражающего исходный текст (Швейцер 1988, 47).

Попытки построить коммуникативно-ориентированные модели перевода привели к тому, что в поле зрения исследователей оказались такие проблемы, как порождение, восприятие и понимание речевого сообщения; работы, таким образом, приобретают психолингвистическую направленность (Кузьмин 1975, Крюков 1979, Черняховская 1982, Клюканов 1984, Сорокин 1984, Львовская 1985).

Классификация перевода как вида речевой деятельности приводит к выводу о том, что создание сообщения как на исходном языке, так и на языке перевода, определяется мотивом и целью сообщения. Таким образом, в основе психолингвистических моделей перевода лежит точка зрения, что процесс перевода не исчерпывается двумя речевыми актами, не представляет собой лишь операций с языковыми знаками, а имеет более сложную структуру, в которой задействованы два кода: внешний (языковой) и внутренний (мыслительный). (Красильникова, 1998)

То, что хочет сказать автор сообщения (смысл), кодируется им в значения. Переводчик, выступающий, прежде всего, как получатель сообщения, осуществляет обратную операцию - переход от значения к смыслу, опираясь на языковые знаки, соотнося их с речевой ситуацией и с собственными знаниями (т.е. осуществляет понимание). Затем осуществляется языковое перекодирование. Предполагается, что смысловой (мыслительный) код при этом не изменяется. Далее переводчик выступает уже в качестве отправителя

сообщения, которое в виде цепочки языковых знаков поступает адресату, который вновь осуществляет переход от значения к смыслу.

Семантическая трансформация при переводе. Семантическая структура лексемы или семантемы представляет собой иерархическое образование, включающее семы родового значения, общие для целого ряда лексем, и дифференциальные семы видового значения. При этом сема может быть представлена морфемой.

В соответствии с пятью отношениями между понятиями, выделяемыми в рамках логики (равнозначность, внеположенность, контрадикторность, подчинение и перекрещивание), В.Г.Гак выделяет в языке пять типов трансформаций наименования:

- сохранение всех семантических компонентов с добавлением семы видового значения (лексико-семантическая синонимия);
- замена одной видовой семы другой видовой семой в пределах одной семантической категории (смежные понятия в пределах одного родового понятия);
- замена семы семой противоположного значения (антонимия);
- включение или устранение дифференциальной семы (замена слова более узкого значения словом более широкого значения и наоборот);
- устранение или замена родовой семы с превращением видовой семы в основную (метафора и метонимия).

Поскольку в речи семантика отдельного слова вступает во взаимодействие с семантикой всего высказывания, выделяется еще пять типов трансформаций:

- перераспределение семантических компонентов;
- сокращение или повтор семантических компонентов;
- опущение или
- добавление семантических компонентов;
- векторные замены семантических категорий.

Многие исследователи считают, что трансформации в переводе носят вынужденный характер, так как обусловлены определенными различиями в системах языков. В то же время выделяются также переводческие трансформации, не обоснованные такими различиями, но в то же время необходимые для сохранения коммуникативно-функциональных свойств текста при переводе (Латышев 1988).

Таким образом, возможно, что по тексту перевода можно судить об определенных психологических характеристиках присущих переводчику. Процесс перевода текста с одного языка на другой имеет многообразный и неоднозначный характер, связанный с множеством входящих в него компонентов и именно многомерностью этого процесса обусловлены расхождения в определениях, которые даются разными авторами и отражают его различные стороны.

В современном переводоведении существуют несколько моделей перевода, что предполагает возможность осуществлять процесс перевода разными способами. Наибольшее распространение получили ситуативная, трансформационная и семантическая модели

В настоящее время перевод принято рассматривать не только в лингвистическом аспекте, но и как феномен коммуникации. Попытки построить коммуникативно ориентированные модели перевода привели к тому, что в поле зрения исследователей оказались такие проблемы, как порождение, восприятие и понимание речевого сообщения; таким образом, современная модель перевода приобретает психолингвистическую направленность. В рамках этого подхода создание сообщения как на исходном языке, так и на языке перевода, определяется мотивом и целью сообщения, таким образом, процесс перевода не исчерпывается двумя речевыми актами, не представляет собой лишь операций с языковыми знаками, а имеет более сложную структуру, в которой задействованы два кода: внешний (языковой) и внутренний (мыслительный).

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1.Баранов 1993: Баранов А.Г. Функционально-прагматическая концепция текста. Ростов н/Д: изд-во Рост. ун-та, 1993. - 182 с.

2.Барт 1994: Барт Р. Избранные работы: Семиотика, Поэтика: Пер. с фр. / Сост., общ. ред. и вступ. ст. Г.К. Косикова. - М.: Издательская группа “Прогресс”, “Универс”, 1994. - 616 с.

3.Белянин 1988: Белянин В.П. Психолингвистические аспекты художественного текста. - М.: Изд-во МГУ, 1988. - 120 с.

4.Белянин 1996: Белянин В.П. Введение в психиатрическое литературоведение. Мюнхен, VerlagOttoSagner, 1996. - 281 с.

5.Болотов 1986: Болотов В.И. Проблемы теории эмоционального воздействия текста: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. - М.: Ин-т Языкознания АН СССР, 1986. - 36 с.

6.Буянов 1989: Буянов М.И. Преждевременный человек. - М.: Сов.Россия,1989. - 288 с.

7.Виноградов 1959б: Виноградов В.В. Проблема авторства и правильности текста литературного произведения // Виноградов В.В. О языке художественной литературы. - М.: Гослитиздат, 1959 - С.259-333.

8.Гак 1971: Гак В.Г. Семантическая структура слова как компонент семантической структуры высказывания. // Семантическая структура слова. Психолингвистические исследования. М.: Наука, 1971. - С. 78-95.

TA’LIM QOZOQ TILIDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARNING BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA IZOHLI O‘QUV LUG‘ATLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH METODIK MUAMMO SIFATIDA

Omonboyeva Nursaule Erkin qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi.Navoiy,O‘zbekiston.

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarning boshlang‘ich sinflarida izohli o‘quv lug‘atlaridan foydalanish va ularni takomillashtirish chora tadbirlari haqida ma’lumot keltirilgan

Kalit so‘zlar: ta’lim, izohli o‘quv lug‘ati, leksikografiya,talaffuz, imlo,frazeologik lug‘at, paremineologik lug‘at

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЕЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ ШКОЛ, ГДЕ ОБУЧЕНИЕ ВЕДЕТСЯ НА КАЗАХСКОМ ЯЗЫКЕ, КАК МЕТОДИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: В данной статье представлена информация об использовании толковых словарей в начальных классах школ с общим средним образованием на казахском языке и мерах по их совершенствованию.

Ключевые слова: образование, толковый учебный словарь, лексикография, произношение, орфография, фразеологический словарь, параминологический словарь.

IMPROVING THE USE OF EXPLANATORY DICTIONARIES IN THE ELEMENTARY GRADES OF SCHOOLS WHERE EDUCATION IS CONDUCTED IN THE KAZAKH LANGUAGE AS A METHODOLOGICAL PROBLEM

Abstract: This article provides information on the use of explanatory dictionaries in primary grades of schools with general secondary education in the Kazakh language and measures to improve them.

Key words: education, explanatory educational dictionary, lexicography, pronunciation, spelling, phraseological dictionary, paraminological dictionary.

Ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar pirovard natijada o‘quvchini hayotga tayyorlashni nazarda tutadi. Ta’limning asosi, poydevori, albatta, boshlang‘ich ta’limga bog‘liq. Mamlakatimizda yetti tilda ta’lim beriladi, biroq barcha ta’lim muassasalarda davlat tilini o‘qitishga alohida e’tibor beriladi. Ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar son jihatda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Qardosh tillarni o‘qitish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar sonini oshirish, ayniqsa, tillarni qiyoslab o‘qitish masalasi, turkiy so‘zlarning izohini o‘rgatish bugungi globallashuv sharoitida dolzarb bo‘lib turibdi.

Bugungi kunda ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili o‘qitish masalasi kengroq o‘rganilgan. Bu borada professor X.Muhiddinovaning ta’lim boshqa tillarda olib boriladaigan muassasalarda o‘zbek tili o‘qitishga doir dastur va darsliklar mazmunidagi uzluksizlik masalasiga asosiy e’tiborini qaratiladi[2]. H.Mirzohidova o‘zbek maktablarida fonetika o‘qitishni qirg‘iz tiliga qiyoslab, qardosh tillarga taqqoslab tushuntirishning qulayliklari haqida fikr yuritadi[3]. Biroq leksika sohasini o‘qitish, xususan, o‘quv lug‘atlari msalasi e’tibordan chetda qolib kelmoqda.

Til lug‘atlarda aks etadi. O‘zbek leksikografiyasi keyingi yillarda sezilarli darajada rivojlanib bormoqda, biroq o‘quv lug‘atlari sohasida tadqiqotlar yetarli emas. Til ta’limining yadrosini tashkil qiladigan mazkur vosita maxsus ilmiy va metodik izlanishlarga katta ehtiyoj sezadi. O‘quv lug‘atlari hozirgi sharoitda qachon zaruratga aylanadi, qachonki, ta’lim mazmuni ehtiyoj sezsa, o‘quv topshiriqlari tuzishda tizimili ravishda mavzular lug‘atlar bilan bog‘lab borilsa. Til lug‘atlar asosida o‘rgatilishi kerak. O‘quv lug‘atlari yaratishda ona tili ta’limi oldiga bugungi davr qo‘yayotgan vazifalarni ham hisobga olish lozim. Maktab o‘qituvchilari uchun ona tili darslarida o‘quv lug‘atlarda foydalanish metodikasi ishlab chiqilishi kerak. Amaldagi “Ona tili” darsliklari asosan, izohli lug‘atlardan foydalanishga diqqat qaratgan, aslida imlo, talaffuz, so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarini o‘rgatishga xizmat qiladigan lug‘atlar bilan baravar ishlashga ham o‘tish kerak[1].

Darsliklarda ajratib olingan, o‘quvchiga taqdim qilingan lug‘at so‘zlaridan ham tashqariga chiqish kerak. Qolaversa, frazeologik, paremineologik lug‘atlardan ham uzluksiz foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak. O‘quv topshiriqlari shunday takomillashtirilishi kerakki, natijada o‘quvchi turli lug‘atlar orqali so‘zni to‘g‘ri yozishni, talaffuz qilishni, ma’nosini anglashni, o‘rniga boshqa so‘zni qo‘llashni o‘rganishi kerak.

Lug‘at – har qanday mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy, iqtisoiy rivojlanishining ramziy timsoli. Lug‘at faqat tilni o‘rganish emas, xalq madaniyati, turmush tarzi va boshqa jihati xususida ham ma’lumot berish uchun xizmat qiladi.

Manbalarda lug‘atning jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi asosiy vazifasi ajratiladi:

- ona tilini va boshqa tilni o‘rgatish;
- ona tilini tasvirlash va me’yorlashtirish;
- tillar va madaniyatlararo munosabatni ta’minlash;
- til leksikasini ilmiy tekshirish va talqin qilish[4].

Tilshunoslik tizimida leksikografiyaning o‘quv lug‘atchiligi tarmog‘i paydo bo‘lgandan buyon, mutaxassislarni o‘quv lug‘ati qanday lug‘at, uni yaratishda qanday mezon ustuvorlik qiladi, asosiy vazifalari nimadan iborat, umumiy lug‘atdan nimasi bilan farqlanadi, boshqa tipdagi lug‘atdan ustunligi nimada degan savol qiziqtirib kelgan. Jahon tilshunosligida XX asr boshidayoq bu savollarga davr talabidan kelib chiqqan holda muayyan javob berildi. Ko‘pgina

rivojlangan mamlakatda o‘quv leksikografiyasi o‘z taraqqiyotining bir necha bosqichini ortda qoldirib, bugungi kunda zamonaviy tipdagi yangi avlod antropotsentrik o‘quv lug‘atining yangi-yangi janrini yaratish nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanmoqda[1].

Ma’lumki, har qanday lug‘atda nimanidir o‘rgatish maqsadi yotadi. Ammo bevosita maktab uchun yaratilgan lug‘atgina o‘quv lug‘ati toifasiga kiritiladi va u maxsus mezonlar asosida tuziladi.

Shu bilan birga tilshunoslikda o‘quv lug‘atchiligi leksikografiyaning alohida tarmog‘i ekani bilan bog‘liq munozarali fikr ham uchraydi. Ayrim tadqiqotchilar o‘quv lug‘atiga leksikografiyaning alohida janri emas, shunchaki o‘quv jarayoniga chuqurroq kirib borgan ko‘rinishi deb qaraydi.

E.Yu.Balalaeva ham o‘quv lug‘atini ajratish masalasida tadqiqotchilar orasida qat’iy to‘xtam yo‘qligi, jumladan, B.Bim-Badning o‘quv lug‘atining ta’limiy, ma’lumot berish va tizimlashtirish, shuningdek, boshqa barcha lug‘atga xos bo‘lgan axborot berish va me’yorlashtirish vazifasini bajarishi, M.Laptevaning terminologik o‘quv izohli lug‘atning axborot berish, tizimlashtirish va mustaqil bilim berish kabi yetakchi vazifani bajarishiga doir fikrini keltirib o‘tadi. Olima mazkur tadqiqotchilarning fikrini inkor etar ekan, M.Kovyazina, T.Petrashov, V.Tabanakova kabi bu borada P.N.Denisov fikriga qo‘shilishini va o‘quv lug‘atining to‘rtta – ta’limiy, tizimlashtirish, ma’lumot berish, me’yorlashtirish vazifalarini bajaruvchi minimal leksik tizim ekanligini ta’kidlaydi.

O‘quv lug‘atini pedagogik aspektda o‘rgangan T.V.Jerebilo[6] o‘quv lug‘atini bir qator o‘ziga xos xususiyatiga qaramay, darslik, qo‘llanma va turli didaktik materialdagi ma’lumotni shunchaki leksikografik shaklga keltirish, jamlash va saqlash vazifasini bajaradigan vosita deb hisoblaydi. Uningcha, har qanday lug‘at ta’lim berish va inson shaxsini rivojlantirish vositasi sifatida o‘quv, ta’limiy, tarbiyaviy, intellektual rivojlantirish bilan bog‘liq asosiy vazifani bajaradi. O‘quv lug‘ati ushbu universal funksiya bilan bir qatorda ma’lumot berish, axborot uzatish, tizimlashtirish, me’yorlashtirish, motivlash kabi maxsus funksiyalarni ham bajaradi xolos[6].

Umuman olganda, T.V.Jerebilo o‘quv lug‘atini didaktik tizimning shunchaki bir qismi sifatida qaraydi va uning vazifasida ta’lim jarayoniga xoslanish biroz chuqurlashgan deb hisoblaydi. Ayrim tadqiqotchilar T.V.Jerebiloning qarashiga qarshi chiqadi va bu fikr har doim ham to‘g‘ri kelavermasligi, masalan, o‘quv terminologik lug‘at tarbiyaviy vazifa bajarmasligiga e’tiborni qaratadi.

V.V.Dubichinskiy o‘quv lug‘atining eng muhim xususiyati metodik talabga asosan til o‘rganishga qaratilgan vosita ekanligi, aslida, o‘quv lug‘ati nafaqat leksikografik, balki didaktik nashrligini, ona tili ta’limi ham, xorijiy tilni o‘qitish metodikasi ham unga ehtiyoj sezishini ta’kidlaydi. U mutaxassislarning o‘quv lug‘atchiligi sohasini ajratish yoki ajratmaslikka doir ikkilanishiga quyidagi fikri bilan nuqta qo‘yadi: O‘quv lug‘atiga bunday yondashuv, o‘z o‘zidan, uning antropotsentrik lug‘at ekani, insonni har tomonlama qamrab oluvchi vosita ekanini ko‘rsatadi.

V.V.Morkovkin “Lingvotsentrik lug‘at − bu til uchun va til haqida bo‘lgan lug‘at. Uning asosiy vazifasi – mavjud til faktini yozish, tavsiflash va baholash.Antropotsentrik lug‘at – inson uchun yaratilgan lug‘atdir. Uning asosiy vazifasi – insonga yordam berish, birinchidan, inson ongida tilning manzarasini shakllantirish, ikkinchidan, uni ushbu tildan samarali foydalanishga o‘rgatish”[7] degan edi.

O‘quv lug‘atlarining quyidagi vazifalari mavjud:

1. Ta’lim berish. O‘quv lug‘ati ta’lim oluvchining DTS, malaka talabi, fan dasturi va darslikka oid bilimni mustaqil o‘zlashtirishida yordamchi o‘quv vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

2. Ma’lumot berish. O‘quv lug‘ati boshqa lug‘atdan farqlanib, o‘quvchiga muayyan tushuncha haqida umumiy ma’lumot berish bilan birga muayyan fan mazmuniga aloqador maxsus tushuncha, axborot berish uchun ham xizmat qiladi.

3. Me’yorlashtirish. Lug‘atning aksariyati adabiy til me’yorini belgilash vazifasini bajaradi. O‘quv lug‘ati foydalanuvchining uzluksiz ta’limning qaysi bo‘g‘inida ta’lim olayotganidan kelib chiqib, tilning imlo, talaffuz bilan bog‘liq me’yorini soddadan murakkabga qarab darajali tarzda qamrab oladi. Masalan, boshlang‘ich sinf uchun yaratilgan lug‘at bolaning nutq jarayonida tilning orfoepik, orfografik, leksik, morfologik, sintaktik me’yoriga amal qilish kompetensiyalarini shakllantirib borishga xizmat qiladi.

Shuni ham alohida qayd etib o‘tish kerakki, me’yoriy lug‘at adabiy til me’yorini belgilashga intilar ekan, me’yorni abadiylashtirmaydi. Lug‘atning yuzaga kelishi, adabiy til me’yorini qat’iy, barqaror holga keltirish bilan birga, unda uzil-kesil hal etilmagan masalani aniqlash va bartaraf qila borish uchun ham yordam beradi.

Tadqiqotimizga aloqador bo‘lgani bois o‘quv lug‘aatlarining ta’lim berish vazifasiga to‘xtalamiz. Ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili o‘qitish rus sinflariga o‘zbek tili o‘qitishda farq qiladi. Chunki qardosh tillarga qaraganda roman-german turkumiga kiruvchi boshqa oilaga mansub tilning fonetikasi, leksikasi, grammatikasi begona bo‘lib har bir mavzu alohida yondashuvni talab etadi.

Ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarda esa o‘zbek tili o‘qitish biroz osonroq kechadi. So‘zlar, lug‘at tarkibi bir-biridan fonetik, ba’zan leksik, morfologik jihatdan farq qiladi.

Bu o‘rinda izohli lug‘atlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Muammo shundaki, maktablarda o‘zbek tilining izohli lug‘atlari yetarli darajada mavjud emas.

Umuman, boshlang‘ich ta’limda izohli lug‘atlarning zamonaviy shakllarini yaratish davr talabidir. O‘quv izohli lug‘atlarning qardosh va qrdosh bo‘lmagan tillar bilan qiyoslangan shakllari, rasmli, illyustratsiyali o‘quv izohli lug‘atlar bugungi o‘zbek tili ta’limi uchun juda muhim. Kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun bo‘lgani sababli multimediyali, o‘yin topshiriqli izohli lug‘utlar, elektron o‘quv lug‘atlar, mobil ilova shaklidagi o‘quv lug‘atlar yaratish hamda ulardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish shu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Til lug‘atlarda aks etadi. O‘zbek leksikografiyasi keyingi yillarda sezilarli darajada rivojlanib bormoqda, biroq o‘quv lug‘atlari sohasida tadqiqotlar yetarli emas. Til ta’limining yadrosini tashkil qiladigan mazkur vosita maxsus ilmiy va metodik izlanishlarga katta ehtiyoj sezadi. O‘quv lug‘atlari hozirgi sharoitda qachon zaruratga aylanadi, qachonki, ta’lim mazmuni ehtiyoj sezsa, o‘quv topshiriqlari tuzishda tizimili ravishda mavzular lug‘atlar bilan bog‘lab borilsa. Til lug‘atlar asosida o‘rgatilishi kerak. O‘quv lug‘atlari yaratishda ona tili ta’limi oldiga bugungi davr qo‘yayotgan vazifalarni ham hisobga olish lozim. Maktab o‘qituvchilari uchun ona tili darslarida o‘quv lug‘atlarda foydalanish metodikasi ishlab chiqilishi kerak. Amaldagi “Ona tili” darsliklari asosan, izohli lug‘atlardan foydalanishga diqqat qaratgan, aslida imlo, talaffuz, so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarini o‘rgatishga xizmat qiladigan lug‘atlar bilan baravar ishlash ham o‘tish kerak.

Darsliklarda ajratib olingan, o‘quvchiga taqdim qilingan lug‘at so‘zlaridan ham tashqariga chiqish kerak. Qolaversa, frazeologik, paremineologik lug‘atlardan ham uzluksiz foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak. O‘quv topshiriqlari shunday takomillashtirilishi kerakki, natijada o‘quvchi turli lug‘atlar orqali so‘zni to‘g‘ri yozishni, talaffuz qilishni, ma’nosini anglashni, o‘rniga boshqa so‘zni qo‘llashni o‘rganishi kerak.

Lug‘at – har qanday mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy, iqtisoiy rivojlanishining ramziy timsoli. Lug‘at faqat tilni o‘rganish emas, xalq madaniyati, turmush tarzi va boshqa jihati xususida ham ma’lumot berish uchun xizmat qiladi.

Manbalarda lug‘atning jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi asosiy vazifasi ajratiladi:

– ona tilini va boshqa tilni o‘rgatish;
– ona tilini tasvirlash va me’yorlashtirish;
– tillar va madaniyatlararo munosabatni ta’minlash;
– til leksikasini ilmiy tekshirish va talqin qilish.

Tilshunoslik tizimida leksikografiyaning o‘quv lug‘atchiligi tarmog‘i paydo bo‘lgandan buyon, mutaxassislarni o‘quv lug‘ati qanday lug‘at, uni yaratishda qanday mezon ustuvorlik qiladi, asosiy vazifalari nimadan iborat, umumiy lug‘atdan nimasi bilan farqlanadi, boshqa tipdagi lug‘atdan ustunligi nimada degan savol qiziqtirib kelgan. Jahon tilshunosligida XX asr boshidayoq bu savollarga davr talabidan kelib chiqqan holda muayyan javob berildi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatda o‘quv leksikografiyasi o‘z taraqqiyotining bir necha bosqichini ortda qoldirib, bugungi kunda zamonaviy tipdagi yangi avlod antropotsentrik o‘quv lug‘atining yangi-yangi janrini yaratish nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдулаҳатова Р., Юсупова Т., Дўсанов К. Тил таълимида узвийлик ва узлуксизлик. – Т.: 2008. – 30 б.
2. Асқарова М., Қосимова К. Ўзбек тили. 5-синф учун дарслик. –17-нашр. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 192 б.
3. Антонова, Е. С. Методика преподавания русского языка: коммуникативно-деятельностный подход Текст.: учеб. Пособие для студ., аспир. и преподавателей пед. учеб. заведений / Е. С. Антонова. М.: КноРус, 2007. – 464 с.
4. Бабайцева, В. В. Лингвометодические основы преподавания русского языка в общеобразовательной школе Текст.: пособие для учителя / В. В. Бабайцева, Л. Д. Чеснокова, А. П. Еремеева. М. : Изд-во НИИ школ министерства просвещения РСФСР, 1980. – 79 с.
5. Боровков А., Маърупов З., Шермуҳаммедов Т. Ўзбек тили грамматикаси. I қисм. Морфология. XII нашр.–Т:. Ўз.Давўқпеддавнашр, 1954. – 227 б.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA NASRIY MATNLARNI O‘QITISH ORQALI METAFORALARNI TUSHUNTIRISH USULLARI

Ro‘zieva Nigora,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: maqolada Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga nariy matnlarda qo‘llanilgan metaforalarning ifoda xususiyatlari va ma’no qirralarini o‘rgatish. Shuningdek, yozuvchining o‘ziga xos ifoda imkoniyatlari va mahoratini ko‘rsatib turuvchi jihatlar ilmiy tekshirib ko‘rilgan. Badiiy matnlarda, ayniqsa, katta epik janrdagi asarlarda metaforadan unumli foydalanishning pragmatik imkoniyatlari lisoniy tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: nasriy matn, o‘qitish usuli, badiiy matn, diskurs, metaforik ma’no, roman, epik asarlar, ma’no qirralari, uslubiy imkoniyat, pragmatik tahlil, lingvistik tadqiq, konnatativ ma’no, dialog.

СПОСОБЫ ОБЪЯСНЕНИЯ МЕТАФОР ПРИ ОБУЧЕНИИ ПРОЗАИЧЕСКИМ ТЕКСТАМ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: статья знакомит учащихся начальных классов с выразительными особенностями и гранями значения метафор, используемых в повествовательных текстах. Также было проведено научное исследование аспектов, демонстрирующих уникальные выразительные возможности и мастерство писателя. Прагматические возможности продуктивного использования метафоры в художественных текстах, особенно в произведениях великого эпического жанра, были изучены лирически.

Ключевые слова: прозаический текст, методика обучения, художественный текст, дискурс, метафорическое значение, роман, эпические произведения, грани смысла, методологические возможности, прагматический анализ, лингвистическое исследование, коннотативное значение, диалог.

WAYS TO EXPLAIN METAPHORS IN TEACHING PROSE TEXTS TO ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

Annotation: The article introduces primary school students to the expressive features and facets of the meaning of metaphors used in narrative texts. There was also a scientific study of aspects demonstrating the unique expressive capabilities and skill of the writer. The pragmatic possibilities of productive use of metaphor in literary texts, especially in works of the great epic genre, have been studied lyrically.

Keywords: prose text, teaching methods, literary text, discourse, metaphorical meaning, novel, epic works, facets of meaning, methodological possibilities, pragmatic analysis, linguistic research, connative meaning, dialogue.

Boshlang‘ich sinflardanoq o‘quvchilarga metoforalar haqida ma’lumot berib borish lozim. Nasriy asarlarda metaforalardan foydalanish va ularning ifoda imkoniyatlari o‘zbek va jahon tilshunosligida atroflicha o‘rganilgan, muhimligi bois o‘rganish jarayoni davom etmoqda. Bu borada N.D.Arutyunovaning “klassik metafora – analiz sohasidagi sintez istilohi, umumiy “mamlakat” “sinf” olamda yakkalangan aql sohasidagi tasavvur g‘oyasi zonasiga nisbatan bir qarash (obraz) dir[1] degan fikrini keltirish o‘rinlidir.

Metafora muhim rol o‘ynaydigan olamning o‘zbek tili manzarasiga doir lingvistik tadqiqotlarining zamonaviy tendentsiyalari bilan belgilanadi. Masalan, rus tilshunosligida F.I.Tyutchev she’riyatining ruhiy faoliyat mahsuli sifatidagi o‘ziga xosligi uning poetik tilidagi asosiy kotseptual metaforalarni aniqlash va har tomonlama tahlil qilish natijasida eng aniq namoyon bo‘ladi. Bunday tahlil shoirning ifoda uslubini tasvirlashda muhim rol o‘ynaydigan F.I.Tyutchevning she’riy til shaxsi tuzilishining bilim darajasini aniqlashga imkon beradi. F.I.Tyutchev she’riyatida metaforik tasvirining chuqurligi o‘ziga xos jihat hisoblanadi. F.I.Tyutchev, avvalo, tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi falsafiy va mifopoetik qarashlarining amalga oshirilishini belgilaydi[9]. XX asrning 60-yillarida generativ semantikaning rivojlanishi metaforaning kognitiv funktsiyasi, kommunikativ, hissiy, volyuntativ (ta’sir ko‘rsatish funktsiyasi), poetik va boshqa qator xususiyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etdi (J. Katts, P.Postal, J.Lakoff[2]). Birinchidan, metaforaning turli ta’riflarini tahlil qilish va ikkinchidan, qadimgi faylasuflarning asarlaridan boshlanib, zamonaviy lingvistik lug‘atlar bilan tugaydigan metaforani tadqiq etish tarixini bayon qilishdir.

Zotan, qadimgi yunon ritorikasida metafora til va nutqning ob’ektiv xususiyati bo‘lib, metafora hodisasining o‘zi inson tomonidan dunyoni empirik tushunish mahsulidir, deb ta’kidlagan edi. Metafora – bu tilda mavjud bo‘lgan so‘z yoki iborani avvalgi ma’noning bir qismini berish uchun tushunilgan ob’ektga murojaat qilish uchun ishlatishdir.

XVIII asr rus fani metaforaning an’anaviy ta’rifini beradi (o‘xshashlik asosida ma’no ko‘chishi). M.V.Lomonosov nafaqat metafora tasnifini, balki bu tropni nutqda ishlatish qoidalarini ham ishlab chiqdi[6]. Rus tilshunosligida metafora sistemali ravishda faqat XX asrdagina o‘rganila boshlandi. A.A.Potebnya metafora nazariyasini chuqurlashtirdi: metafora, sintaktik va semantik tasnifning shakllanishi va ishlash mexanizmlarini ishlab chiqdi. XIX asrning oxirida N.M.Krushevskiy metaforaning assotsiativ tabiati haqida yozib, uni psixologik hodisalarga qaratdi.

XX asr – metafora ta’limotining rivojlangan davri bo‘ldi. Olimlarning qarashlari mazkur lisoniy hodisaning estetik salohiyatini o‘rganishdan uning kognitiv va pragmatik vazifalariga o‘tadi. A.Richard, M.Blek, S.Pepper va Ye.Kormak kabi tadqiqotchilar metafora shakllanishi mexanizmini psixolingvistika nuqtayi nazaridan ta’riflaydilar va asosiy metaforalarni aniqlaydilar[7].

XX asr rus tilshunosligida metaforani o‘rganish uning badiiy tildagi semantik salohiyatini o‘rganishga qaratiladi. V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur asarlarida poetik nutqda faoliyat ko‘rsatmaydigan bunday lingvistik hodisa mavjud emasligi haqida fikr yuritiladi. Olimlar metaforizatsiya turli semantik sohalarning kesishuviga asoslangan semantik transformatsiyalar jarayonidir, degan xulosaga keladilar[8].

XX ning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari – metaforizatsiya mexanizmlari haqida kognitiv va kontseptual gipotezalarning faol tuzilishi davri bo‘ldi.

Ushbu davrning ichki metaforologiyasida N.D.Arutyunova tadqiqotlari ajralib turadi. Uning fikriga ko‘ra, til antropomorfikdir va shuning uchun inson til hodisalarini tahlil qilishda mos yozuvlar nuqtasiga aylanadi. N.D.Arutyunova[1] metaforalarning batafsil funktsional tasnifini beradi, bunday til birliklarining “qat’iylik” darajasiga e’tibor qaratadi. G.N.Sklyarevskaya[3], asosan, metaforizatsiya jarayonida ishtirok etadigan bir qator semantik maydonlarni aniqlaydi, ularning uchtasi inson bilan bog‘liqdir.

Shunday qilib, metaforologiya taraqqiyotining hozirgi bosqichida lingvistik tadqiqot markazi shaxs, uning tili, mentaliteti va psixologiyasi ekanligini ko‘ramiz.

Metafora vazifasini bajaradigan eng qiziqarli kontekstlardan biri she’rdir. Poetik tilning o‘ziga xosligi shundaki, u til birliklarining semantik salohiyatini eng aniq ochib beradi, shuning uchun dunyoning poetik manzarasi mantiqan bir-biridan farq qiladi. Bu yerda metafora dunyoni tushunish va qayta tiklash uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi.

G.Nasrullayeva o‘z tadqiqiqotlarida she’riy matnlardani metaforik ma’nolarni tahlil qiladi. Uning ta’kidlashicha, kontekstlarda bahor elementi insonga noaniq, ammo butun dunyoga tushunarli bo‘lgan nutqqa ega. Shoirning bir obrazga doimiy murojaat qilishi uning yaratuvchisi uchun unda ahamiyatli narsa borligini ko‘rsatadi. Shoir she’riyatini tahlil qilganda shu ma’lum bo‘ladiki, u tog‘ obraziga juda ko‘p marta murojaat qiladi. Aslida uning

she’rlarida metaforik ma’noga ega, ya’ni ko‘chma ma’nolar ifodalaydi, deb ta’kidlaydi [4].

Olim shoir she’riyatidagi tog‘ – shoirning yuksalib ketgan ruhi, iztirobu quvonchlari. Shuning uchun bo‘lsa kerak, shoirning ilk she’rlaridan to so‘nggisigacha tog‘lar u bilan yashashini ta’kidlaydi.

Metaforani matnga kiritishning teskari usuli turli metaforalar bir xil predmetni turli kontekstlarda ifodalab, ma’nolar polifoniyasini hosil qilishidadir. — bundan tashqari, sezilarli ifodali zaryad olib boradi, o‘quvchining bu obraz haqidagi chuqur tajribasini aniqlaydi.

Nasriy asarlarda ham takrorlanmas metaforik ma’nolar ko‘zga tashlanadi, ayniqsa, Isajon Sulton romanlarida. Uning “Genetik” romanida ham mana shunday holatlarning guvohi bo‘lish mumkin. 3-4 sinflar uchun to‘g‘ri keladigan parchalarni ajratib olish lozim:

O‘sha yili ro‘za kuzga to‘g‘ri kelgan edi. Osmon to‘la qush, chirqillay-chirqillay qaylargadir uchib ketishardi. Har birining ko‘chishining ma’lum vaqti bormi? Qaldirg‘ochlar, ko‘kqarg‘alar, turnalar, o‘rdaklar, g‘ozlar, laylaklar ***ko‘chganiga*** *guvoh bo‘lganman. Baland teraklaru simyog‘ochlarga savatday in quradigan bu qush goho tumshug‘ida ilon ko‘tarib uchganini ham ko‘rganman. Go‘yo odamlar eshitmaydigan bir hukmi ilohiy kelib, bari yoppasiga juda olislarga* ***ravona bo‘lishardi****.*

Yoki: Nimasini aytay, Dashti Qipchoqdan kelgan u qizgina to ulg‘aygunimga qadar xayolimni ***asir etdi****. Bahor kelganida gul-g‘unchalar ochiladi. Ularning har biri yomg‘irlaru shamollar aro – yuzi issiqda po‘rsillagan,* ***kulib qarashi bilan*** *yodimda qolgan o‘sha qizning siymosiga aylanadi. Atlas ko‘ylagi olov yolqinida tovlangani ham esimda. Qo‘llari dag‘al, mehnatda yorilgan, qop-qora sochi qalin edi. Vaqt o‘tgani sayin malohati ortib boravergani-chi? Har holda, biroz ulg‘ayganimdan so‘ng, uni yaxshi ko‘rib qolgan bo‘lsam kerak, degan to‘xtamga keldim. O‘z fikrimdan o‘zimning orim keldi, yigit ismimga mos tutum emasdi bu. Qishloqda birovni sevib qolgan kishi mazaxga qolishi bor gap. Birov birovga* ***ko‘ngil qo‘yishi*** *juda o‘ziga xos, mahram mavzu hisoblanadi. Lekin mening aqlu xayolimni Dashti Qipchoq qizi ko‘p yillar band etib yurdi. O‘sha, qayrag‘och shoxlari orasidan oqqan asal bilan uning siymosi birlashib ketdi. Qizargan yuzi, nimagadir moviy tusda* ***porlagan oftob****,* ***issiqda rangi o‘zgargan osm****on, kishilarni eritib yuboradiganday tuyuladigan yoz hovurlari aro balqib turaverdi. Moviy deganimning sababi – quyoshga tikka qarab tursangiz, birozdan so‘ng tegrasida qizil alanga lovullab turgan moviy olovga aylanib qoladi. Oniy u manzara xayolimga o‘sha moviyligi bilan ko‘chib o‘rnashganiga hayronman.*

Isajon Sulton metaforasining o‘ziga xosligi shundaki, u epik matnda “umumiy til” intensiv bilish usulini qo‘llaydi. Tor doiradagi mavzular ikki olamga mansubligi bilan farqlanuvchi asosiy ikkilangan kategoriyalarga qaratilgan: dunyoviy va samoviy. Metafora bu holatda chiziqli bo‘ladi. Tasodifiy tasvir boshqa metaforalardan olingan xususiyatlar bilan rivojlana boshlaydi. Bu xususiyatni bitta metafora evolyutsiyasini tahlil qilish orqali ko‘rsatish mumkin.

*“*Paxta mavsumi tugaganida qishloq **yengil nafas oladi**. Poyonsiz dalalar jigarrang-qo‘ng‘ir tusga kirgan, kuz yomg‘irlari bir xilda yog‘ib, pilchillagan loyga aylantirgan. Shiyponlar huvillagan, bo‘m-bo‘sh. Ochiq eshiklaridan shamol kirib o‘ynaydi.

Ayvondagi radio buni o‘zicha sharhlaydi: Buncha ham yomg‘ir yog‘odir biz g‘aribning tomiga, Kimni ham rahmi kelur bechoralarning holiga…

Kech kuz shu tariqa **yoyilib-yastanadi**. Xalq kech kuzda to‘ylar qiladi. Sababi, qo‘li pul ko‘radi. O‘sha sababli jonini jabborga berib ter to‘kadi. Bola-chaqasini ham ayamay, burnini yerga ishqab-ishqab ishlatadi*”* kabilar metaforalarning yorqin namunalaridir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflardan boshlab til vositalari nutqiy vaziyatlarda o‘zining imkoniyatini to‘la namoyon qila olish jarayonini o‘rgatish lozim. Badiiy matnlar pragmatik aspektda o‘rganilganda mualliflar metaforalardan naqadar samarali foydalanilgani ma’lum bo‘ladi, tahlil uchun tanlab olingan nasriy matnlar tahlili lil va uning birliklari avvalo, ijtimoiy hodisa sifatida pragmatik tadqiq etilishi lozim. Biroq keyingi yillarda olib borilgan aksariyat tadqiqotlar kognitiv-pragmatik yoki stilistik ahamiyat kasb etadi. Antropomorfik metaforalar o‘zbek tili va adabiyotini yangi badiiy tasviriy vositalar bilan boyitgani aniqlandi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchi yoshiga tafakkuriga mos keluvchi nasriy matnlar tahlili orqali lisoniy birliklarning grammatik, stilistik, lingvopoetik, psixolingvistik, kognitiv-pragmatik imkoniyatlarini tushuntirib bkrish nihoyatda muhim ahamiyatga ega, til birliklari, jumladan, metaforalar boshlang‘ich ta’limdanoq o‘rgatilsa, ular nafaqat she’riy balki nasriy asarlardagi yashirin ma’nolarni ham o‘rganib oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арутюнова Н. Д. Метафора и дискурс. Теория метафоры. - М., 1990. - с. 5-32.
2. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. В сб.: Язык и моделирование социального взаимодействия. – М.: Прогресс, 1987.
3. Скляревская Г.Н. метафора в системе языка – СПб.:Наука, 1993 – 151 с.
4. Насруллаева Г. Антропоморфик метафоранинг социолингвистик хусусиятлари ва лексикографик тадқиқи масалалари. Фил. фан.д-ри илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Фарғона. 2022. 58 б
5. https://www.prlib.ru/item/693690

“SADOQAT SAROYINING MANGU MALIKASI YOXUD ZULFIYAXONIM HAMID OLIMJONNING SO‘NGSIZ ARMONI”

Usmanova Qumriniso Saidaliyevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.Chirchiq,O‘zbekiston.
Anvarova Saodat Sayfulla qizi
CHDPU Boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim kunduzgi shakli 1-kurs talabasi. Chirchiq,O‘zbekiston

Annotatsiya:Maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Zulfiyaxonim Isroilovaning adabiyotimiz tarixidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan.
Kalit so‘zlar: muharrir, shoira, o‘zbek adabiyoti, sadoqat, nashriyot, she’riyat, jamiyat.

«КОРОЛЕВА МАНГУ ИЛИ ЗУЛФИЯХАНИМ ДВОРЦА САДОКАТ» БЕСКОНЕЧНАЯ МЕЧТА ХАМИДА ОЛИМДЖОНА»

Аннотация: В статье рассказывается о роли и значении одной из ярких представительниц узбекской литературы Зульфияханум Исраиловой в истории нашей литературы.
Ключевые слова: редактор, поэт, узбекская литература, верность, издатель, поэзия, общество.

"THE QUEEN OF MANGU OR ZULFIYAKHANIM OF THE PALACE OF SADOKAT HAMID OLIMJOHN'S ENDLESS DREAM"

Abstract: The article describes the role and importance of Zulfiyakhanim Israilova, one of the outstanding representatives of Uzbek literature, in the history of our literature.
Keywords: editor, the poet, Uzbek literature, loyalty, publisher, poetry, society.

O‘zbek xalqining atoqli va ardoqli vakili, taniqli jamoat arbobi, xalqaro tinchlik uchun kurash jarchisi Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-mart kuni Toshkentning Degrez mahallasida tavallud topgan. Yorqin rassom, oddiy inson qalbini o‘tkir his qilgan – mehnatkash, Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavor kurashgan ayol. Zulfiya she’riyatining nufuzi bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o‘ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridir. Shoira she’rlarining el aro mashhurligi tasodifiy emas. U bolaligidan olamga hayrat ko‘zi bilan qaraydigan, uning boshqalar ko‘ra olmaydigan jihatlarini ilg‘aydigan qizaloq ekanligi bilan ajralib turardi. Shoira xotin-qizlar bilim yurtida o‘qigan vaqtlaridayoq adabiy to‘garaklarda she’rlar mashq qila boshlagan. 1935-1938-yillarda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida tahsil oldi. So‘ngra 1938-1948-yillarda Bolalar nashriyotida muharrir, O‘zbekiston Davlat nashriyotida bo‘lim boshlig‘I, 1950-1953-yillarda esa “O‘zbekiston xotin-qizlari” (“Saodat”) jurnalida bo‘lim boshlig‘I, 1953-1985-yillarda esa bosh muharrir bo‘lib ishladi. Zulfiya 1932-yil ya’ni 17 yoshida yozgan “Hayot varaqlari” nomli ilk to‘plami bilan Oydin, Muzayyana Alaviya, Xosiyat Tillaxonovalar safida adabiyot olamiga kirib keldi.

Shoira “She’rlar” va “Qizlar qo‘shig‘I” kabi poetik asarlarini ona-Vatan va uning dala, cho‘llarida mehnat qilayotgan paxtakorlar, mexanik, traktorchi qizlarning qaynoq hayotlariga bag‘ishlaydi.

Urush davrida “Uni Farhod der edilar”, “Hijron kunlarida” kabi to‘plamlarining nashr etilishi Zulfiyaning peshqadam shoirlar qatoriga dadil kirib kelayotganligidan nishona edi. To‘plamdagi she’rlar vatanga muhabbat, dushmanga nafrat va g‘alabaga ishonch ruhida yaratilganligi bilan xarakterlidir. Zulfiyaning “Mening Vatanim”, “Qo‘limda qurol-u ustimda shinel”, “Bizni kut” kabi umidbaxsh she’rlari urush davri o‘zbek she’riyatining jangovar ruhini ifodalovchi asarlar qatoridan o‘rin olgan.

Shoiraning urushdan so‘nggi yillarda yozilgan «Dalada bir kun”, “Tong qo‘shig‘I” kabi bir qator she’rlar turkumi, “Men tongni kuylayman”, “Yuragimga yaqin kishilar”, “Kuylarim sizga” to‘plamlarida Vatan madhi, mehnat jarayonida fidokorlik ko‘rsatayotgan kishilar hayoti jo‘shib kuylanadi. Uning “So‘roqlaydi shoirni she’rim”, “Oydin”, “Quyoshli qalam” nomli ocherk va dostonlari H. Hakimzoda, Oybek, Oydin, Hamid Olimjon kabi ustozlarning yorqin xotiralariga bag‘ishlangan.

Zulfiyaning bunday she’riyatga bo‘lgan iste’dodi yoshligidan boshlab uyg‘onganligini aytib o‘tdim. Buning ustiga , oilasidagi muhit ham yosh Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqni alangalatardi. Shoira bolaligini shunday eslaydi: “Otamni Isroil degrez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edi. Otamday qudratli odam yo‘q edi men uchun. Temirlar otam qo‘lida chaqmoqlar taratishiga boqib, hayratda qolar edim. Uning qo‘llari cho‘g‘ga aylangan temir parchasini istagan shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali-hanuz otamday bo‘lishni orzu qilaman, ammo na iloj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham muyassar bo‘lavermas ekan…

Mening onam o‘zining ta’biricha, “ usti butun – ichi tutun” ayollardan edi. U hamma vaqt kamgap, xayolchan edi, lekin fikrlari, o‘ylari mudroq emasligini, unga mutelik, zaiflik yot ekanligini bilar edim. Ruhidagi ma’yuslik, ovozidagi hazinlik faqat uning xarakteriga xos bir sifatgina edi, xolos. Onamning qancha-qancha qo‘shiq va afsonalarni, doston va ertaklarni bilishiga aqlim bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va ertaklar bizga benihoya huzur bag‘ishlar, o‘ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etardi. Aminmanki, mo‘jizalar yaratishga qodir, jahonni ko‘zga keng ochuvchi, insonni go‘zallik sari yetaklovchi so‘zga shaydolik hissini mening qalbimda ostona hatlab ko‘chaga chiqmagan oddiy ayol – onam uyg‘otgan…”

1935-yilda Zulfiya va Hamid Olimjon turmush qurishadi. She'riyatga oshiq ikki qalbning orzulari endi ushalayotganda mudhish voqea sodir bo'ladi, ya'ni 1944-yil 3-iyulda avtohalokat sababli Hamid Olimjon bu yorug' dunyoni tark etadi. Ularning ikki farzandi bor edi. Zulfiyaxonim hayotining eng gullagan davrida eng yaqin kishisidan ayrildi, shunga qaramasdan u qayta turmush qurmadi. Ikki farzandini o'zi katta qildi. hayot qiyinchiliklari uni har ko'yga soldi. Har bir ayol Zulfiyaxonimdan vafo, sadoqat, hurmat, sabr, matonat kabi xislatlarni o'zlashtirganda edi, balki dunyoda xiyonat, vafosizlik, yetim farzandlar kam bo'lar edi….

E'tirof

Zulfiya she'riyatining ufqlari uzoq-uzoq kengliklarga quloch yoygandir… Zulfiyaning yorqin, baxt nurlariga yo'g'rilgan ijodini Vatanimizdagi barcha xalqlar yaxshi biladilar. Uning she'riyatini Ukrainada ham yaxshi biladilar va sevadilar.

(Mikola Bajan)

Agar Zulfiya Armanistonda tug'ilganida – Silva, Leningradda tug'ilganida Bergolts, Bolgariyada Bagryana, Yugoslaviyada tug'ilganida ham Desanka Maksimovichdek mashhur shoira bo'la olar edi…

Shoiralik shoirlikka nisbatan kam uchraydigan hodisa. Ana shunday yarqiroq yulduzlar qatorida o'zbek shoirasi Zulfiya munosib o'rin egallaydi…

(Rasul Hamzatov)

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng Yurtboshimiz tomonidan Zulfiyaxonim ijodi munosib taqdirlandi. 1999-yil birinchi Prezidentimiz I.Karimov tomonidan Zulfiyaga "Do'stlik " ordeni topshirildi. "Zulfiyaxonim" mukofoti ta'sis etildi. 2017-yil 3-noyabr sanasida Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan atoqli adiblarimiz Zulfiyaxonim va Hamid Olimjon xotirasi yuzasidan Jizzax shahrida 1902-yilda qurilgan " Xo'ja Nuriddin" madrasasi qayta ta'mirlanib, Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi tashkil etildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam Zulfiyaxonim o'zbek she'riyatida o'chmas iz qoldirgan, o'zbek xalqi qalbidan chuqur joy egallagan shoira bo'lishi bilan birga inson sifatida ham shu xalqning barcha oliyjanob xislatlariga ega ayol bo'lgan. Bugun Zulfiyaxonim ijodiga chuqurroq yondashib, shu maqolani yozish orqali yana bir karra amin bo'ldimki, o'zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli , mashaqqatli va murakkab yo'lni o'tgan bo'lmasin, unda bir qator tom ma'nodagi ijodkorlar yetishib chiqqan va ular ichidagi porloq yulduzlardan biri Zulfiyaxonimdir. Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi barcha xotin-qizlar uchun ibrat. Negaki, uning hayotidagi mehnatsevarligi, doimo olg'a intilishi, sevgi bobida sadoqatli yor ekanligi, badiiy ijod borasida tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot qiyinchiliklarida esankiramasligi, erishilgan yutuqlar oldida o'zini yo'qotmasligi har qanday qiz yoki ayol qalbida havas uyg'otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Nurali Qobulning "Esse va she'rlar" kitobi
2.Adabiyot litsey darsligi
3.Usmonova Q.S . Boshlangich sinf o'quvchilarida tankidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogic-psixologik integratsiya va uzluksizlik. M УАЛЛИМ ХЕМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ.2023/3.370-375-b ttps://lib.cspi.uz/index.php?newsid=7951
4.Usmonova Q.S. Boshlangish ta`limda Filandiya ta`lim tizimini imkonoyatlari . Международный научный журнал № 4 (100), часть 2 «Научный импульс» Ноябрь, 2022./4. 899-903-b
5.Usmonova Q.S Development of Steam International Assessment Program in Primary Education. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. 30th Apr 2023. 242-244

БАСТАУЫШ СЫНЫП ОҚУШЫЛАРЫНЫҢ ПАТРИОТТЫҚ СЕЗІМДЕРІН ҚАЛЫПТАСТЫРУ МӘСЕЛЕЛЕРІ

Казбекова Ф. П
Науайы мемлекеттік педагогика институти Бастауыш тәлім кафедрасы аға оқытушысы

Аннотация: Осы мақалада бастауыш сынып оқушыларын патриоттық сезімін ояту, отансүйгіштікке, еңбексүйгіштікке тәрбиелеу туралы пікірлер айтылған.

Кілт сөздер: отан, патриоттық, отансүйгіштік, тәрбие сабағы, құндылық, сабақты ұйымдастыру.

Бастауыш буын – қайталанбайтын кезең, ақиқаты сол, білім негізі бастауыштан басталады. Бастауыш білім беру сатысы оның үздіксіз білім беру жүйесіндегі басқа буындармен тек сабақтас болуымен ғана емес, ең алдымен оқушы тұлғасы ұйытқысының қалыптасуы мен дамуы қуатты жүретін аса маңызды, құнды, қайталанбайтын буын екендігімен ерекшеленеді. Бастауыш сатыдағы білім берудің бағдарлы мақсаты – оқу әрекетін қалыптастыру; айналадағы дүниемен белсенді әрекеттестік тәрбие түрлеріне сай сезім қатынас қарым – қатынасқа дайындау; өзін қоршаған және өмір сүрген жаңа табиғи және әлеуметтік ортаны тануға, сүюге, қорғауға, өзін ұстай білуге үйрету болып табылады. Оны оқу, ойын, еңбек, қарым – қатынас сияқты түрлерін меңгерумен қамтамасыз етуге болады.

Басты назар аударатын мәселелердің бірі – патриотизм. Патриотизм патриоттық тәрбие құндылықтары арқылы жүзеге асатыны белгілі.

Бастауыш сынып оқушылары оқу сабағы, тәрбие сағаттары, сыныптан, мектептен тыс жұмыстар арқылы танымдық, тәрбиелік әрекеттерін қалыптастырады.

Оқу адамның жеке басы танынымының ерекше түрі. Оқи жүріп оқушылар өздерін қоршаған дүниені, елін, жерін, ұлтын, мәдениетін, тілін таниды.

Өмір ағымы талап етіп отырған жаңа қоғамға лайықты саналы, білімді, жетілген жеке тұлғаны дайындау бүгінгі мектеп алдында тұрған негізгі міндет. Сондықтан мектептің бастауыш оқыту сатысындағы оқу – тәрбие жұмыстарын жан – жақты толықтырып, халықтық тәлім- тәрбиенің озық үлгілерімен сабақтастырып, бойында еліне, жеріне деген сүйіспеншілік сезімі дамыған азамат тәрбиелеу бүгінгі күн талабының өзекті мәселелерінің бірі болып отыр.

Отаншылдыққа, туған жерін қорғауға баулу мектептің тәрбиелік жұмыстарының аса маңызды бөлігін құрайтындықтан, өмірде болып жатқан бетбұрыстар, қоғамдағы саяси көзқарастар, әлеуметтік – экономикалық өзгерістер – еліміздің тарихына, ұрпақтан – ұрпаққа жалғасқан салт – дәстүріне құрметпен қараумен қатар, оны бүгінгі ұрпақ тәрбиесіне пайдалануға жол ашып отыр.

«Өзбекстан – 2030 бағдарламасына қатысты Елбасы Шавкат Мирзиёевтің Оқушыларды отандық патриотизмге, шығармашылық жағынан дамыған жеке тұлға ретінде тәрбиелеу қажет. Бүгіннен бастап ұлттық мінез – құлық, биік талғампаздық, тәкаппарлық, тектілік, білімділік, биік талғам, ұлттық намыс қасиеттерін сіңіріп қалыптастыруымыз керек», - делінген.

Отан сүю, патриотизм деген ұғымдар мектепке, үйге жақынына, туған қаласына (ауылына) деген сүйіспеншіліктен басталады.

Әрбір халық ел мен жер қадірін, ата – баба дәстүрін, ұрпағының құлағына кішкентайынан құюға тырысады. Бұл тұрғыда, қазақ халқының жаңа туған нәрестені бесікке салып, шілдехана тойынан бастау алып, тұсау кесу, қыз ұзату, үйлену тойы, тіпті адамды соңғы ақтық сапарға шығарып салу секілді сан – қилы ырымдар мен кәделерге толы салт - дәстүрлерінің маңызы ерекше.

Ұрпақты ата – салтымызбен ұлтжанды етіп тәрбиелеу ұстаздар қауымына үлкен талап қоюда. Себебі бала мектеп табалдырығынан көрсем – білсем деген алып – ұшпа құмарлық сезіммен келеді. Осы сәтті ұтымды пайдаланып, білімді ұлттық тәрбиемен ұштастыра білген мұғалім ғана жемісті жетістіктерге қол жеткізеді. Жас ұрпақты халқымыздың әдет – ғұрып, салт – санасымен сусындату ел ертеңін ойлайтын саналы азамат қалыптасуының бірден – бір кепілі.

Мектепке келген баланың отбасында бойына сіңірген мейірімділік, сүйіспеншілік, бауырмалдық секілді қасиеттерін одан әрі шыңдап, соның негізінде патриоттық сезімді аша білу үшін әрбір мұғалім жүйе бойынша белгіленген нақты іс- шараларды аса шеберлікпен үйлестіріп жүргізуі тиіс.

«Елдің елдігін оның тарихы, әдебиеті, салт – дәстүрі сақтайды» деген ұғымды бастау етіп алатын болсақ, патриотизмге тәрбиелеу үрдісін шартты түрде мынандай іс – шараларға бөлуге болады:

- тілді құрметтеу;
- ұлттық салт – дәстүрді зерделеу;
- елдің тарихы мен мәдениетін оқып зерттеу;
- ата – бабалар өсиетін орындау;
- жер байлығы мен табиғатты қастерлеу.

Яғни, патриоттық тәрбие беруде, ең алдымен ана тілі, табиғаттану, әліппе сияқты пәндер едәуір үлес қосады. Тарихты оқу үйрену, әсіресе Отанымыздың тарихын оқу еліміздің қаһармандық өткені мен теңдік алған қазіргі күніне сүйіспеншілік сезімдері нығаяды. Халқымыздың әдебиеті мен тіл өнері – бабаларымыздың бізге қалдырған бай мұрасы. Ана тілімен Отан деген ұғымдар – бір – біріне ажыратуға келмейтін түсініктер. Ана тілінің бүгіні мен болашағына немқұрайлы қарайтын кісі өз Отанының мүддесіне де дәл солай салғырт қарамақ.

Табиғаттану сабақтары еліміздің жер байлығы мен әсем табиғаты туралы түсінік беріп қана қоймай, оқушылардың елі үшін мақтаныш сезімін оятып, мұндай байлықты қорғау қажеттігін көрсетуі тиіс.

«Ел болам десең, бесігінді түзе», - дейді ұлы жазушымыз Мұхтар Әуезов. Халқымыздың ғасырлар бойы қалыптасқан салт – дәрсүр, әдет – ғұрып үлгілері мен өнегелері соның айғағы. Елін сүйген адам сол елдің салт – санасын, мәдени мұрасын қастерлеп, өнеге тұтуы тиіс.

Оқушыларды өз елін, туған жерін қорғауға және оны сүюге баулып, оларға сонау Абылай бабамыздан бастап кешегі желтоқсанға дейін азаттық үшін алысқан ұлы тұлғалардың ел тәуелсіздігі жолындағы ерлік істерін ұғындыру мақсатында ел тану материалдарын, белгілі қоғам қайреткерлерінің өмір деректерін көптеп қолдану ел жандық сезімдерін тереңдетені сөзсіз.

Жастарымыздың бойында елжандылық, азаматтық, жоғары ізгілік пен адамгершілік сезімдері жан жақты жетілгенде ғана Өзбекстандық патриотизм сезімі асқақтай түседі.

Негізгі білім бастауышта болғандықтан, жастайынан халықтың тарихи – этникалық мұрасын, ұлтының әдет – ғұрып өнегесін, салтын сақтауға, саналы көз қарасын қалыптастыруға, ұлттық мақтаныш туғызуға оқушыларды жасынан тәрбиелеу бастауыш мектеп саласымен айналысатын педагогтардың міндеті болмақ.

Елдің елдігін сақтап, ұрпақтан ұрпаққа мирас етіп қалдыратын құндылықтарына деген жан – ашырлық танытуда патриотизмнің рөлі ерекше. Сондықтан дипломдық зерттеу тақырыбымды «Бастауыш сынып оқушыларының патриоттық сезімдерін қалыптастыру» деп таңдауыма негіз болды.

Пайдаланған әдебиеттер

1. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –176 б.

2. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2017. –488 б.
3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2016. –56 б.
4. Абдуллаев Ю. Жаҳон олий мактаби: қиёсий таҳлил. –Т.: Адабиёт ва санъат, 2001. –288 б.
5. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. - Т.: Ўқитувчи 1993.
6. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Т.: Халқ мероси нашриёти.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SO‘Z MA’NOSI USTIDA ISHLASH ORQALI O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH

G‘afurova Durdona Farhod qizi
NavDPI, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi.Navoiy,O‘zbekiston

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida so‘z ma’nosi ustida ishlash orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda, so‘zlarning ma’nosini tushuntirish, lug‘atini boyitish va ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘z va so‘z birikmalar, tasviriy vositalar, maqollar hamda taqqoslash usulidan foydalanish yo‘llari yoritilgan.
Kalit so‘zlar: so‘z ma’nosi, og‘zaki nutq, muloqot, lug‘at, ko‘chma ma’noli so‘zlar, tasviriy vositalar, o‘qish, bilim, ko‘nikma, malaka .

РАЗВИТИЕ УСТНОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ РАБОТЫ СО ЗНАЧЕНИЕМ СЛОВ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: В статье освещены способы развития устной речи учащихся посредством работы над объяснением значения слов, обогащения словарного запаса, использованием слов в прямом и переносном смысле, применения наглядных пособий, пословиц и сравнений.
Ключевые слова: значение слова, устная речь, общение, словарь, слова с переносным смыслом, наглядные пособия, чтение, знание, умение, навыки.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' ORAL SPEECH THROUGH WORK WITH THE MEANING OF WORDS IN NATIVE LANGUAGE LESSONS IN PRIMARY CLASSES

Abstract: The article highlights ways to develop students' oral speech through working on explaining the meaning of words, enriching vocabulary, using words in the literal and figurative sense, using visual aids, proverbs and comparisons.
Key words: meaning of the word, oral speech, communication, dictionary, words with a figurative meaning, visual aids, reading, knowledge, ability, skills.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘qitishning asosiy maqsadi quyidagicha belgilanmog‘i kerak: ona tili orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Ona tili mashg‘ulotlarida asosiy e’tibor o‘quvchilarga tilning grammatik qurilishini emas, balki ularning so‘z boyligini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, fikrini sharoitga mos ravishda ifodalay olish ko‘nikmalarini kengaytirishga qaratilmog‘i zarur.

So‘zlarning ma’nosini tushuntirish o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini o‘stiradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma’nosini tushuntirish mazkur so‘z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma’nosinn tushuntirish bilan o‘quvchilar predmet keng ma’noda qo‘llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe’l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi.

So‘zning ma’nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmasligi kerak. Buning uchun o‘qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma’nosi tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o‘rnida tushuntirishni belgilab olishi lozim.

Ona tili kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma’nosini bilmaydigan ayrim so‘zlar matnni o‘qishdan oldin tushuntiriladi.

Matnni o‘qish jarayonida so‘z ma’nosini tushuntirishga chek qo‘yish kerak. Agar biror so‘zni matnni o‘qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug‘ilsa, matn mazmunidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmagan holda shu so‘z ma’nosi qisqacha tushuntiriladi.

Ko‘chma ma’noda ishlatilgan obrazli so‘zlar va badiiy nutq oborotlari matn o‘qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma’nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o‘qilganda, undagi allegorik, ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlarni asarni o‘qishdan oldin yoki o‘qish jarayonida tushuntirib bo‘lmaydi.

So‘z ma’nosini tushuntirish usullari:

1. So‘zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o‘quvchilar tushunmaydigan so‘z ularga tushunarli so‘zlar qo‘llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

2. So‘z ma’nosini lug‘atdan va o‘qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda o‘quvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, so‘z ma’nosini mustaqil tushunib olishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

*3. So‘z ma’nosini shu so‘zning ma’nodoshi yordamida tushuntirish.*Masalan, *sabo - shabada, mudofaa - himoya, sozanda - musiqachi, diyor - vatan, inshoot - bino, samo - osmon* kabi. So‘zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so‘zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko‘rsatish zarur.

4. Tanish bo‘lmagan so‘z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo‘lgan so‘z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, *ishchan* tushunchasini *dangasa* tushunchasiga, *rostgo‘y* so‘zini *yolg‘onchi* so‘ziga taqqoslab tushuntirish mumkin.

Ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘z va so‘z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So‘zni o‘ziga yaqin tushuncha bilan, ya’ni boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so‘zning izohi qisqa va aniq bo‘lishi kerak. Masalan, *o‘zboshimchalik* − o‘z xohishicha ish tutish, ishni o‘zi xohlaganicha bajarish; *mutaxassis* – biror hunar egasi; *shunqor* − uzoq uchadigan ko‘zi o‘tkir qush; *mesh* – mol terisidan tikilgan idish; *guldon* − gul solib qo‘yiladigan idish va boshq.

6. So‘zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, *yantoq* − suvsiz joyda o‘sadigan ninasimon tikanli o‘simlik; *akula* − okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq va boshqalar.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so‘zlarning ma’nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o‘quvchilar o‘rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo‘lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi.[3]

Boshlang‘ich sinflarning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilar nutqini o‘stirishdir. Nutq o‘stirish uch yo‘nalishda: so‘z ustida ishlash, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash, bog‘lanishli nutq ustida ishlash orqali amalgam oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan.[4]

So‘z ustidagi ishlar quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

1. So‘zning to‘g‘ri adabiy orfoepik talaffuzi va o‘qilishini o‘rgatish;
2. So‘z ma’nolarini tushuntirish;
3. O‘quvchilar nutqiga yangi so‘zlarni kiritib borish ,ya’ni lug‘atini boyitish;
4. Lug‘atidan o‘rin olgan so‘zlarni kerakli o‘rinda maqsadga muvofiq tanlab olishga o‘rgatish;
5. So‘zlarni uslubiy jihatdan to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatish;
6. So‘z minimumiga kiradigan so‘zlarni imloviy jihatdan to‘g‘ri yozishga o‘rgatish

O‘quvchilarga notanish yoki yaxshi tanish bo‘lmagan so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini ko‘pincha matn aytib turadi. Bunday hollarda ular bunday so‘zning ma’nosini mustaqil, o‘qituvchining maxsus tushuntirishisiz bilib oladi. Matndan bilinib turmaydigan so‘zlarning ma’nosi esa albatta o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

Metodikada bolalarga noma’lum so‘zlar ma’nosini tushuntirishning bir qancha usuli ishlab chiqilgan. Bu usullar so‘zning xususiyati va ma’nosiga bog‘liq holda turlicha bo‘ladi. Masalan, narsa ma’nosiga ega bo‘lgan so‘zlar uchun hammadan yaxshisi o‘quvchilarga ko‘rgazmali tushuntirish berishdir.Bunda o‘sha so‘z bilan nomlanadigan narsaning o‘zi yoki rasmi ko‘rsatiladi. Noma’lum so‘zlarning ma’nosini tushuntirishda rasmning ahamiyati haqida K.D.Ushinskiy shunday deb yozgan edi: “Bola tabiati ko‘rgazmalilikni talab qiladi. Bolaga qandaydir 5 ta noma’lum so‘zni o‘rgating, u ular ustida uzoq va behuda aziyat chekadi. Lekin 20 ta shunaqa so‘zni rasmlar bilan bog‘lasangiz, bola ularni uchib o‘rganadi.”

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlar va yozish xamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, ya’ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek faoliyatga yo‘nalgan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yondashuvi farqli va tanqidiy yondashuv kabilar e’tiborda bo‘lishi lozim.O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini mustaqil fikrlash darajasi va nutqini o‘stirishning zaruriy omillaridan biri lug‘atlar ustida ishlashdir. Lug‘atlar o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini mustaqil fikrlash darajasi ijodiy fikr mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan bexad qimmatli va boy so‘z zaxirasini vujudga keltiradi.

Boshalng‘ich sinf ona tili darlarida lug‘at ishi yetakchi o‘rin egallamog‘i lozim bo‘lib, bu ishning samaradorligini oshirish o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq. Yangi texnologiyalardan foydalanish bolalarning darsga qiziqishini oshiradi. Lug‘at bilan ishlash esa – ona tilini o‘rgatishdagi yangi texnologiyalardan biri – madaniyatni o‘stirish texnologiyasidir. O‘quvchilarda lug‘atning barcha turidan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Bu shubhasiz ularning madaniy va nutqiy saviyasini oshiradi.

Ma’lumki, “Bir satxga mansub bo‘lgan, qiymat jixatidan bir xil til birliklarining ma'lum umumiy belgi asosida bir guruxga (uyaga) birlashuviga uyadoshlik munosabati deyiladi”. Masalan, toifi, charos, husayni, chillaki, shakarangur, shivilgoni, kishmish kabi leksemalarning barchasi uchun umumiy bo‘lgan belgi bu “uzum”lik belgisidir. Ular shu belgi asosida bitta semantik uyaga (paradigmaga) birlashadi. O‘z navbatida uzum leksemasi olma, nok, bexi, gilos, olcha, shaftoli kabi leksemalar qatorida “meva”uyasiga kiradi. Sistema tamoyiliga ko‘ra “meva” “non”, “dala maxsulotlari»” bilan birgalikda oziq-ovqat mikromaydonini tashkil qiladi. Ikkinchi yo‘nalish bo‘yicha uzumning «tok» semasi xisobga olinadigan bo‘lsa, u dastavval «mevali daraxt», so‘ngra «mevasiz daraxt» va «manzarali daraxt»lar bilan bir qatorda «daraxtlar» mikromaydoniga mansub bo‘ladi. Uchinchi tomondan uzum (tok) novda. kurtak barg, uzumzor, tokzor, tokqaychi, bog‘, bog‘bon, mayiz, singari leksemalar bilan bir umumiy g‘oya (ideya) asosida birlashib, yagona semantik maydonni yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda o‘quvchilarning fikr darajasi, ongi, dunyoqarashlarini oshirish ularni mustaqil fikrlaydigan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhim bo‘lib, so‘z ma’nosiga oid har bir mashg‘ulot o‘quvchilarni og‘zaki nutqini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. -T.: TDPU. 2000.
2.Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang‘ich ta'lim fanlarini o‘qitish metodikasi O‘UM. 2017.
3. K.Qosimova, S.Matchonov va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi darslik. Toshkent – 2009.
4. Q.A.Abdullayeva. Birinchi sinfda nutq o‘stirish. – Toshkent.: “O‘qituvchi”, 1980. – 156 b.

ZAMONAVIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA OLIY TA’LIMNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI UCHUN IQTISODIY RAG‘BATLANTIRISH TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH

Ochilova Gavhar Farxodovna,
Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi,
Bobobmurodov Abbos Shuxratovich – talaba; Arziqulov Mirjalol Bahriddinovich – talaba. O‘zbekiston.

Annatatsiya: Maqolada moliyalashtirishning passiv distributiv shakllaridan pedagogik samaradorlikni iqtisodiy rag‘batlantirishning faol (raqobatbardosh) shakllariga o‘tish tendensiyasini aniqlash va tuzatish jihatlariga e’tibor qaratiladi. Oliy ta’limi uchun bu yangi tendensiya normativ va ko‘p kanalli moliyalashtirish, davlat buyurtmalari va grantlar, yakuniy moliyalashtirish va ta’lim kreditlari shaklida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Innovatsion iqtisodiyot, bozor munosabatlari, davlat-xususiy sheriklik amaliyoti, iqtisodiy rag‘batlantirish islohot, modernizatsiya, texnologiya, kredit-modul, akademik mustaqillig, infratuzilma, Konsepsiya, impakt-faktor, shaffoflik, xolislik va obyektivlikni ta’minlash, korrupsiya

РАЗРАБОТКА КОНЦЕПЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО СТИМУЛИРОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В статье акцентируется внимание на выявлении и коррекции тенденции перехода от пассивно-распределительных форм финансирования к активным (конкурентным) формам экономического стимулирования педагогической эффективности. Для высшего образования эта новая тенденция проявляется в форме регулятивного и многоканального финансирования, государственных заказов и грантов, конечного финансирования и образовательных кредитов.

Ключевые слова: Инновационная экономика, рыночные отношения, практика государственно-частного партнерства, экономическое стимулирование, реформа, модернизация, технологии, кредитный модуль, академическая независимость, инфраструктура, Концепция, импакт-фактор, прозрачность, обеспечение беспристрастности и объективности, коррупция

DEVELOPMENT OF THE CONCEPT OF ECONOMIC INCENTIVES FOR THE PEDAGOGICAL EFFICIENCY OF HIGHER EDUCATION IN THE CONDITIONS OF THE DEVELOPMENT OF MODERN EDUCATION

Annotation: V state aktsentiruetsya vnimanie na vyyavlenii i korrektsii tendentsii perekhoda ot passivno-raspredelitelnyx form finansirovaniya k aktivnym (konkurentnym) formam ekonomicheskogo stimulationirovaniya pedagogicheskoy effektivnosti. Dlya vysshego obrazovaniya eta novaya tendeniya proyavlyaetsya v forme regulyativnogo i mnogokanalnogo finansirovaniya, gosudarstvennyx zakazov i grantov, konechnogo finansirovaniya i obrazovatelnykh kreditov.

Key words: Innovative economy, market relations, practice of public-private partnership, economic stimulation, reform, modernization, technology, credit module, academic independence, infrastructure, concept, impact factor, transparency, assurance of impartiality and objectivity, corruption

Innovatsion iqtisodiyot taraqqiy etgan shakllarini mustahkamlash va qabul qilishda, jahon tajribasida bilimlar iqtisodiyotini shakllantirish ta’siri ostida jamiyat ijtimoiy sohasini, jumladan, ta’limni iqtisodiy tashkil etishning yangi modellari shakllanmoqda. Oliy ta’limda bu avvalo, pullik ta’lim xizmatlarini kengaytirish borasida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois ham oliy ta’limni budjetdan moliyalashtirish mexanizmi ichiga bozor munosabatlari elementlarining kirib borishini sezmaslik mumkin emas.

Oliy ta’lim muassasalarining pedagogik samaradorligini iqtisodiy rag‘batlantirish namunalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884 sonli Qarori hamda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni rivojlantirishga qaratilgan boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlardir. Ular budjetni moliyalashtirish tamoyillarini o‘zgartirishga, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga va bozor munosabatlari xarakterida immanent bo‘lgan iqtisodiy rag‘batlantirishning investitsion usullari bilan ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bunday usullar obektiv, mustaqil baholashga va o‘quv natijalarini yuqori darajada o‘lchashga asoslangan bo‘lib, bu bilimlar iqtisodiyotining yetakchi tamoyili hisoblanadi.Ular bozor

munosabatlarining asosiy tamoyillarini amalga oshirish va yuqori pedagogik samaradorlikni oshirish va innovatsion rivojlanish imkonini beradi.

Oliy ta'limda pedagogikaning yangi ilmiy yo'nalishini rivojlantirishda, bir tomondan, neoliberalizm g'oyalarining kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik, unga ko'ra, davlat oliy ta'limni boshqarish sohasidan chiqib, uni bosqichma-bosqich xususiy sektorga o'tkaza borishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu model rivojlanishning strategik yo'nalishlari va iqtisodiyotning kadrlarga bo'lgan uzoq muddatli ehtiyojlarini hisobga olgan holda, oliy ta'lim tizimini xususiylashtirish va ta'lim xizmatlarini xususiy iste'molchining joriy manfaatlariga bir tomonlama yo'naltirish bilan faoliyat yuritishi uchun to'liq ochiqdir. Boshqa tomondan, konservativ modelga qarshi turish juda muhim, unga ko'ra, davlat ta'limni boshqarish, moliyalashtirish va rivojlantirish uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga olishi kerak. Bu model ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy sheriklik institutini shakllantirishga to'sqinlik qiladi, ta'lim muassasalarining raqobat qilish imkoniyatlarini kamaytiradi va natijada oliy ta'limning barcha jarayonining pedagogik samaradorligini pasaytiradi.

Pedagogika fani hali oliy ta'lim tizimining eng iqtidorli subektlarini aniqlash va iqtisodiy rag'batlantirishga asoslangan oliy ta'limni boshqarish amaliyotini yetarli darajada o'rganmagan. Bozor iqtisodiyoti yillarida to'plangan tajriba allaqachon kasbiy pedagogikaning yangi yo'nalishi - iqtisodiy rag'batlantirish usullari bilan oliy ta'limning pedagogik samaradorligini oshirishni yuzaga keltirish mexanizmlarini aniqlash va tahlil etishni taqozo etadi va tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslaydi. Maqolada sohaga tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Oliy ta'limning pedagogik samaradorligini oshirish yo'li sifatida iqtisodiy rag'batlantirish usullarini tahlil qilishning shart-sharoitlari sohadagi fundamental ishlar xorijlik va mahalliy olimlar tomonidan quyidagi jihatlari o'rganilgan, jumladan:- ta'lim tizimining nazariy va uslubiy asoslarini shakllantirish, zamonaviy ta'lim tizimi A. G. Asmolov, V. I. Baydenko, V. A. Bolotov, N. V. Kuzmina, A. A. Kuznetsov, B. C. Lednev, N. N. Nechayev, N. D. Nikandrov N. K. Sergeyev, V. D. Shadrikovlar tomonidan, pedagogik samaradorlik va kasb ta'limini rivojlantirishning umumiy nazariyasi V. V. Anisimov va V. G. Muhametzyanovalar tadqiqotida, kasbiy ta'limning pedagogik samaradorligi mazmuni va mezonlari S. I. Vershinin, Y. L. Derazhne, V. A. Malysheva, M. V. Nikitin, P. N. Novikov, YE. S. Polat, V. N. Onushkin, T. S. Panina, I. V. Robert, L. G. Solomkolar tomonidan, zamonaviy innovatsiya sohasida kasb-hunar ta'limini rivojlantirish O. G. Groholskaya, P. F. Kubrushko, V. V. Kuznetsov, A. S. Meshcheryakov, N. N. Mikhailova, YE. A. Nain, YE. I. Tupikin kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Zamonaviy sharoitda oliy ta'limni ma'muriy boshqarish salohiyati ko'p jihatdan tugab, ijtimoiy soha tobora kengayib borayotgan bozor iqtisodiyoti tamoyillari bilan to'qnash keladi. Oliy ta'limning yangi paradigmasi pedagogik jamoa tomonidan tobora ko'proq qabul qilinadi: "ish beruvchi nimani o'qitishni, ta'lim muassasasini - qanday o'qitishni, o'zi belgilaydi". Hozirgi ta'lim jarayoniga yemas, balki uning pedagogik samaradorligi va yakuniy natijasi darajasiga e'tibor qaratadi. Oliy ta'limda boshqaruvning bunday talablarga javob beradigan iqtisodiy va tashkiliy shakllarini ilmiy ishlab chiqish va amalga oshirish ma'muriy boshqaruv tamoyillarining hukmronligi davrida keng qo'llanilgan pedagogik tizimlarni boshqarish nazariyasi qoidalarini ko'plab qayta ko'rib chiqish zarurligini nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda boyitilgan davlat-xususiy sheriklik amaliyoti, oliy ta'limning investitsion jozibadorligini oshirishga qaramay, ularning pedagogik samaradorlikka ta'sirini ilmiy tahlil qilish yetarli darajada jadal amalga oshirilmayotganligini kuzatish mumkin. O'zbekiston ta'lim tizimini jahon ta'lim makoniga kiritishda uning davlat-jamoat va davlat-xususiy sheriklik tizimining asosiy tamoyillariga yetarli e'tibor bermasdan kelinganligi va pedagogik samaradorlik va iqtisodiy rag'bat o'rtasidagi munosabatlarni to'liq o'rganilmaganligi, o'rganilayotgan muammoning ilmiy murakkabligi va yuqori ijtimoiy-pedagogik yo'naltirilganligi, ushbu masalalar bo'yicha mavjud nashrlarning yetishmasligi va (munozarali) tabiati: oliy ta'limni iqtisodiy rag'batlantirishning pedagogik samaradorligi mavzusini tanlashni oldindan belgilab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. SH.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: «O'zbekiston», 2017. – B. 488.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bulinmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2896-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T.,2017. – № 17. – 288-m.; – № 37. – 982-m.

ZAMONAVIY INTERFAOL O'QITISH USULLARINING BOSHLANG'ICH SINF DARSLARINI O'ZLASHTIRISHDAGI SAMARASI VA ULARNING DOLZARBLIGI

Samandarova Nargiza O'ktam qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kaferdasi o'qituvchisi, O'zbekiston.

Anotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy interfaol usullar orqali maktab darsliklaridagi tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongiga imkon qadar oson, qiziqarli, serqirra va shu bilan birga samarali yo'llarini ishlab chiqish zarurligi, ularning ta'lim sifatini oshirishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Boshlang'ich sinf darslarida interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon

qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish, yangi bilimlarni izlash ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib borishi va yaxshi natijalarni ko‘rsatishi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: keys-stadi(yoki o‘quv keyslari), blist-so‘rov, modellashtirish, ijodiy ish, muammoli ta’lim, baliq skeliti, insert, klaster, sinkveyin

EFFECTIVENESS OF MODERN INTERACTIVE TEACHING METHODS IN MASTERING PRIMARY CLASS LESSONS AND THEIR EFFECTIVENESS

Annotation: In this article, it is necessary to develop as easy, interesting, exciting and at the same time effective ways to the minds of elementary school students in the process of mastering concepts in school textbooks through modern interactive methods, it is correct to improve the quality of their education. information about. As a result of the use of interactive methods in elementary school classes, students are able to think independently, analyze, draw conclusions, express their opinion, be able to defend it based on reason, healthy communication, discussion, debate, gain new knowledge. search skills are formed and developed and show good results.

Keywords: case-study (or educational cases), blist-inquiry, modeling, creative work, problem-based learning, fish skeleton, insert, cluster, syncway

ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОВРЕМЕННЫХ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ПРИ ОСВОЕНИИ УРОКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ И ИХ ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Аннотация: В данной статье необходимо разработать как простые, интересные, увлекательные и в то же время эффективные способы для сознания учащихся младших классов в процессе усвоения понятий школьных учебников с помощью современных интерактивных методов, правильно повысить качество. их образования.информация о. В результате использования интерактивных методов на занятиях начальной школы учащиеся умеют самостоятельно мыслить, анализировать, делать выводы, высказывать свое мнение, уметь аргументированно отстаивать его, здоровое общение, дискуссию, дискуссию, получают новые знания. Поисковые навыки формируются и развиваются и показывают хорошие результаты.

Ключевые слова: кейс-стади (или учебные кейсы), блист-опрос, моделирование, творческая работа, проблемное обучение, скелет рыбы, вставка, кластер, синхвей

Bugungi kunda yosh avlodning har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma‘naviyatli, barkamol, vatanparvar shaxs bo‘lib yetishishini ta‘minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining eng asosiy bo‘gini sifatida ta‘lim sohasiga, ilmiy, metodik bilimlarni oshirishga yuzasidan zarur chora –tadbirlarni amalga oshirilmoqda. Har bir maktabda ta‘lim–tarbiya saramadorligini oshirish jiddiy vazifa bo‘lib turibdi. Buning uchun har bir o‘qituvchi o‘z fanini o‘qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarini puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o‘rganib borishi orqali o‘z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi talab qilinadi.

Boshlang‘ich sinf darslarida zamonaviy metodik vositalardan foydalanish o‘qituvchiga mavzuning to‘liq o‘zlashtirilishiga yordam beribgina qolmasdan, o‘quv jarayonida o‘quvchilarning o‘zlari faol ishtirok etishlarini ham ta‘minlaydi. Bu esa boshlang‘ich sinf fanlarini o‘qitishda ijobiy natijalarga erishish garovi bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi zamon pedagoglariga, ayniqsa boshlang‘ich sinflarda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarga o‘z kasbiy mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, ilg‘or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini to‘liq anglashlari va uni o‘z darslarida mohirona foydalanishlarini taqozo etmoqda. Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni faol qo‘llash, ta‘lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Boshlang‘ich sinf darslarida ,,Keys-stadi(yoki o‘quv keyslari), blist-so‘rov, modellashtirish, ijodiy ish, muammoli ta’lim, baliq skeliti, insert, klaster, sinkveyin” kabi pedagogik interfaol usullardan foydalanilsa, yanada dars jarayoni qiziqarli va samarali bo‘ladi. Bu interfaol usullar murakkab va yangi matematik tushunchalarni osonlik bilan o‘zlashtirishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga qulaylik tug‘diradi. Bu interfaol metodlar zamonaviy ta’limning asosi sanaladi.

Interfaol metodlar – shunday metodlarki, u o‘quvchilarning o‘zaro muloqot va o‘zaro ta`siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usuldir. —Interaktiv‖ so‘zi ingliz tilidan olingan —Interakt‖, ya`ni —Inter‖ – o‘zaro, —akt‖–harakat,ta`sir,faollik ma`nolarini beradi.

Interfaol usullardagi darslar o‘quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni o‘zaro faollikda hal etishga, o‘z fikrini erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar echimini topishga, hamkorlik, hamjixatlikda ish yuritishga, fikrni mantiqan yozma ravishda bayon etishga chorlaydi.Interfaol metodlarda ish yuritish, an`anaviy usullardan voz kechish degani emas. Balki ta`lim mazmunini o‘zaro faollikda hal eta olish demakdir.

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An‘anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta‘lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keladi. Misol tariqasida bir nechta interfaol usullar bilan tanishamiz.

Sinkveyn - ba’zi metodistlarning fikricha, „sinquain“o‘quvchilar uchun murakkab ma’lumotlarni sintez qilish, xulosalar chiqarish va tezkor echimlarni topishda samarali va foydali deb e’tirof etilgan („sinquain“ ularning leksik qobiliyatini baholashda foydali), so‘z boyligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod hisoblanadi. Bu metodni boshlang‘ich sinf darslarida qo‘llash orqali o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlash imkonini beradi

Klaster metodi - pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u ta'lim olovchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar yuzasidan erkin, ochiq o‘ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster metodi aniq obektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim olovchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Blits - so‘rov metodi. Ushbu metod o‘quvchilar harakatlarni ketma – ketligini to‘g‘ri tashkil qilishga, mantiqiy fiklashga, o‘rganayotgan predmet asosida xilma xil fikrlar, ma’lumotlar ichidan kerakligini tanlab olishni, shu bilan birga o‘zgalar fikrini hurmat qilishni hamda ularga o‘z fikrini erkin bayon qila olishni o‘rgatadi**.**

Bu usullar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini darslarida yana ham ko‘proq munozaraga kirishishga chorlash talab etiladi. Bunda o‘quvchilarga erkinlik berish, ularni qo‘llab- quvvatlash lozim. Boshlang‘ich sinf darslarida har bir o‘quvchiga fe‘l-atvori, yoshi, aql-idrokiga qarab ijobiy munosabatda bo‘lish, o‘quvchi bilan o‘qituvchi hamkorligini ta‘minlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ruhiyatida har bir narsa va hodisaga qiziquvchanlik faoliyatini rivojlantirish, ulardagi bilishga bo‘lgan intilish kabi xislatlari har bir fan darslarida rivojlantirilishi kerak. O‘quvchilarni vaqtida rag‘batlantirish va maqtab turish lozim, sababi, bolalar maqtovni juda yaxshi ko‘radilar bu ular uchun keying ishlarini boshlashlarida turtki vazifasini bajaradi.

Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiya berishda, o‘qituvchidan chuqur bilim, katta mahorat, ma‘naviyati boy, izlanuvchan, eng muhimi fidoiy bo‘lish bilan bir qatarda zamonaviy bilimlarni egallash va ularni yetkazib berishdagi mahoratlarini rivojlantirish talab etiladi. To‘g‘ri va xilma-xillikda tashkil etilgan boshlang‘ich sinf darslari, o‘quvchilarni faolligi va qiziqishi, bilimini oshirish orqali, barkamollikni shakllantirib boradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining asosiy faoliyat turi o‘qish bo‘lishiga qaramay, bir faoliyatdan to‘la ikkinchisiga o‘tish o‘quvchilarda qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli, dars jarayonida turli ta‘limiy interfaol usullar qo‘llangan holda darslar tashkil etilishi kerak. Boshlang‘ich sinf darslarida o‘quvchini tetiklashtiruvchi mashqlar, dam olish daqiqalari o‘tkazish orqali ruhiy, jismoniy toliqishini oldini olib, darsga bo‘lgan diqqatini jamlashga olib keladi. O‘tkazilayotgan dam olish mashqlari avvalo, dars mavzusiga qolaversa, har bir fanga mos bo‘lsa, yanada maqsadga muvofiq bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda dam olish mashqlari asosan harakatli o‘yinlar, she‘r, qo‘shiqlar mazmuniga ko‘ra harakatlar, qiziqarli masalalar, qiziqarli matematik topishmoqlar, matematik o‘yinlar ko‘rinishida bo‘lishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini dars jarayonida fanini yoqtirishi, yaxshi, mukammal o‘zlashtirishi va shu asosda mustaqil fikrlash qobiliyatiga erishishini interfaol usullar orqali ta‘minlash mumkindir.

Zamonaviy interfaol metodlar yordamida tashkil etilgan darslarda har bir o‘quvchining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi yaxshilanadi va ta’limning yanada samaraliroq bo‘lishini taminlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Tadjiyeva Z.G. va boshqalar ―Boshlang‘ich sinf matematika, ta‘lim samaradorligini oshirishda tarixiy materiallardan foydalanish‖ ―Toshkent.: Jahon Print, 2007, 100 bet.
2.Abdullaeva B.S., Xusanova M.E., Interfaol usullardan foydalanish Boshlang‘ich ta‘lim jurnali 12.2010 yil 16-17 bet
3.Abdullaeva B.S., Xusanova M.E., ―Boshlang‘ich sinf matematika darsida pedagogik texnologiyalardan foydalanish‖ Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash muammolari va yechimlari mavzusidagi ilmiy anjuman materiallari Toshkent 2010 yil 15-16 oktyabr 122-124 betlar.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSIDA INTERFAOL USLUBLARDAN FOYDALANISHNING TA’LIMIY AHAMIYATI

G.A.Ulug‘berdiyeva
Navoiy shahar 21-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quv ishlari bo ‘yicha direktor o‘rinbosari,oliy toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.Navoiy,O‘zbekiston
Z.G‘.Qurbonova
Navoiy shahar 21-umumiy o‘rta ta’lim maktabi 1-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi. Navoiy,O‘zbekiston

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini olib borishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish, yangi interfaol uslublardan foydalanishning ijobiy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, interfaol metodlardan namunalar tavsiya qilinib yoritib berilgan.
Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘qish, interfaol, izohli o‘qish, intonatsiya, metod, ta’lim, ifodali o‘qish, badiiy o‘qish.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКЕ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: в данной статье подчеркивается положительная значимость использования педагогических технологий и новых интерактивных методов при проведении занятий по чтению в начальных классах. Также рекомендуются и объясняются примеры интерактивных методов.
Ключевые слова: начальный класс, чтение, интерактивное, интерпретационное чтение, интонация, метод, обучение, выразительное чтение, художественное чтение.

EDUCATIONAL VALUE OF USING INTERACTIVE METHODS IN READING LESSONS IN PRIMARY CLASSES

Abstract: this article emphasizes the positive significance of the use of pedagogical technologies and new interactive methods when conducting reading classes in primary grades. Examples of interactive methods are also recommended and explained.
Key words: primary grade, reading, interactive, interpretive reading, intonation, method, teaching, expressive reading, artistic reading.

Boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan ona tili, matematika, o‘qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang‘ich ta’lim darslariga o‘quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e’tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang‘ich sinflardanoq «dars» degan muqaddas so‘zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o‘qituvchilar turli didaktik o‘yinlardan foydalanishmoqda. Interfaol metod - ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o‘zaro harakati ta’sir ostida bilimlarni o‘zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.Ushbu usullarni qo‘llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari - norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o‘qish, o‘rganish, seminarlar o‘tkazish, o‘quvchilarni tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.

Interfaollik, bu - o‘zaro ikki kishi faolligi, ya’ni, bundan o‘quv- biluv jarayoni o‘zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o‘qituvchi - o‘quvchilarning o ‘zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik - o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, o‘quvchi - o‘qituvchi, o‘quvchi - o‘quvchi suhbatlarida sodir bo‘ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o‘quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o‘quvchi chetda qolmay, eshitgan, o‘qigan, ko‘rgan bilgan fikr-mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. O‘zaro fikr almashish jarayoni hosil bo‘ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o‘zaro do‘stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta’lim o‘z xususiyatiga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat - dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ - ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o‘z ichiga oladi. Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta’lim o‘z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o‘qitish, masofadan o‘qitish, internet tarmoqlari asosida o‘qitish, media - ta’lim metodlaridan iborat. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo‘llanilmoqda. Agar o‘qitish jarayonida har bir o‘quvchi o‘zining o‘zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta’minlagan bo‘lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirgan ta’lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta’lim jarayonlarini didaktik o‘yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritamiz:

Interfaol o‘yinli metodlar o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol o‘yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqlli) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bular o‘quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy, ma’rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu metod o‘quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o‘ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to‘siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi

Ta’lim - tarbiya jarayonida asosan o‘quvchilarda ta’lim olish motivlarini, ularni turi yo‘lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan, interfaollikkka asoslangan didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Interfaol o‘yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o‘quvchilarda tahlil qilish,hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qaabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash,nutq o‘stirish, til o‘rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi. Umumiy o‘yinlar nazariyasiga ko‘ra, mavjud barcha o‘yin turlarini tasniflashga ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o‘yinlarga ajratiladi. Interfaol o‘yin turlarini tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi. -ishtirokchilarni tarkibi bo‘yicha, ya’ni o‘g‘il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o‘yinlar : - ishtirokchilarning soni bo‘yicha - yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzdagi o‘yinlar : - o‘yin jarayoni bo‘yicha fikrlash, o‘ylash, topag‘onlik, harakatlarga asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo‘naltirilgan; - vaqt me’yori bo‘yicha -dars, mashg‘ulot vaqtining reja bo‘yicha ajratilgan qismi, o‘yin maqsadiga erishguncha, g‘oliblar aniqlanguncha davom etadigan o‘yinlar. Bularning bari o‘quvchilarga fanlararo bog‘liqlikni o‘rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to‘liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta’limini o‘qish ta’limisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘quvchi matnni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida yuzlashadi. O‘qish darslari orqali

o‘quvchilarning Davlat ta’lim standarti (DTS) talablari bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan o‘quv-biluv ko‘nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo‘l ochiladi. Aynan o‘qish ta’limida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda “O‘qish kitobi” darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma’naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo‘yicha atroflicha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, axloqiy-ta’limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi. O‘qish darslari savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarni bo‘g‘in, so‘z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o‘qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o‘qish texnikasi egallangandan so‘ng o‘qish muayyan mavzular bo‘yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsklariga kiritilgan muayyan mavzular o‘quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to‘g‘ri shakllanti-rishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra, o‘qish darslarining yetakchi xususiyati o‘quvchilarning savodxonligini ta’minlash bilan birga, o‘quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘rganiladigan asarlar-ning mavzu doirasi ancha keng bo‘lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og‘zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma’naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan. O‘qish darslari uchun tanlangan mavzular o‘quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo‘yicha ham bilim va tarbiya berishni ko‘zda tutadi. Bular ichida istiqlol, Vatan, ma’naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko‘zlangan maqsad o‘zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog‘liq tuyg‘ularni uyg‘otishdir. Uzluksiz ta’limning boshqa bosqichlaridan farqli o‘laroq, boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta’limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma’naviy-ahloqiy, adabiy-estelik tarbiya bilan chambarchas bog‘lab olib boriladi. Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o‘quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar darsliklar yordamida o‘zlashtiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo‘lishini tushunib yetishishlariga erishish o‘qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha DTS va “Ona tili” o‘quv dasturida o‘qish ta’limi oldiga qo‘yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o‘qishni to‘g‘ri tashkil qilish, o‘qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan o‘rinli foydalanishga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Umuman olganda, o‘qish darslari oldiga qo‘yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlari: to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qishlarini shakllantirish.
2. O‘quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishgao‘rgatish, kitobga muhabbat uyg‘otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yiirituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish.
3. O‘quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.
4. O‘quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.
5. O‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini va adabiy-estetik tafak-kurini o‘stirish.
6. O‘quvchilarning xayolot olamini boyitish.
7. Elementar adabiy tasawurlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta’limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo‘lib, ular zamonaviy o‘qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o‘zaro bog‘Iiq holda va sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari jarayonida hal qilinadi. O‘qish inson xayotida muhim ahamiyatga ega. O‘qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo‘ladi, o‘qishni bilmagan odamning ko‘zi ojiz kishidan farqi yo‘q. Boshlang‘ich sinfda o‘qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o‘qishga o‘rgatishning yo‘l-yo‘riqlarini o‘qish metodikasi ishlab chiqadi. O‘qish metodikasining kichik yoshdagi o‘quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiyasi, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar borliq fanlar yutug‘i asosida shakllanib boradi. Masalan, eski maktablarda o‘qish quruq yod olish metodida o‘rganilgan bo‘lsa, hozirgi maktablarda o‘qish izohli o‘qish metodida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so‘zlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, o‘qilganini qayta hikoyalashga, umuman olganda, o‘qishning ongli bo‘lishiga mutlaqo e’tibor berilmagan. Ularda ko‘proq turli talaffuzga, qiroat bilan o‘qishga, ifodali o‘qishga katta e’tibor berilgan. Hozir maktablarda o‘qish izohli o‘qish metodida olib borilyapti. Izohli o‘qishga keyingi ma’ruzalarda to‘xtalamiz. O‘qish darslarida o‘quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi, kishilar xayoti, ularning o‘tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati, ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egallaydilar. Bilim olish jarayonida ularga nisbatan munosabat uyg‘onadi. Bilim berish bilan o‘quvchi shaxsi tarbiyalanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aydarova U.B. 2-sinf “O‘qish savodxonligi” “Novda Edutainment” Toshkent 2023-yil.
2. Abdullayeva Q. va boshqalar “2- sinfda o‘qish darslari”, T., 2004 -yil.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnolofiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006-yil.
5. Bo‘ri Ziyamuhammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya zamonaviy o‘zbek milliy modeli. Toshkent. 2009-yil.
6. «Kitobim-oftobim» Toshkent. «O‘qituvchi» nashriyoti, 2008-yil.

“ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSLIGIDA XUSUSIY TAMOYILLARNING AKS ETISHI

Egamqulova Kimyoxon,
Namangan viloyati Mingbuloq tumanidagi 15-maktabning boshlang‘ich sinf oliy toifali o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ta’lim jarayonida foydalanish uchun topshirilgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklari yaratilgan zamonaviy darsliklarning yangi avlodi bo‘lib, bugungi kunda ushbu darsliklar o‘quvchilarning juda ko‘plab tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga, tilni o‘zlashtirish bilan bog‘liq amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim jarayoni, zamonaviy darsliklar, yangi avlodi, tayanch kompetensiyalar, tilni o‘zlashtirish, amaliy ko‘nikmalar.

ОТРАЖЕНИЕ ЧАСТНЫХ ПРИНЦИПОВ В УЧЕБНИКЕ «РОДНОЙ ЯЗЫК И ГРАМОТНОСТЬ ЧТЕНИЯ»

Аннотация: Учебники «Родной язык и грамотность чтения» — это современное поколение учебников нового поколения, созданное для использования в образовательном процессе и служащее формированию опорных компетенций, практических умений и навыков для освоения языка.

Ключевые слова: Образовательный процесс, современные учебники, новое поколение, опорные компетенции, освоение языка, практические навыки.

REFLECTION OF PARTICULAR PRINCIPLES IN THE TEXTBOOK “NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY”

Annotation: Textbooks “Native Language and Reading Literacy” are a modern generation of new generation textbooks, created for use in the educational process and serving to develop core competencies, practical skills and abilities for language acquisition.

Key words: Educational process, modern textbooks, new generation, core competencies, language acquisition, practical skills.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollangan, chuqur hayotiy ko‘nikmalarni egallagan, har qanday muammoli vaziyatlarda o‘ziga xos yechimni topa oladigan kreativ fikrlaydigan etib tarbiyalash maqsadi yotadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish yo‘lida yurtboshimiz tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi[1] ishlab chiqildi.

2021–2022-o‘quv yilida ta’lim jarayonida foydalanish uchun topshirilgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklari aynan mana shu maqsadlar asosida yaratilgan zamonaviy darsliklarning yangi avlodi bo‘lib, bugungi kunda ushbu darsliklar o‘quvchilarning juda ko‘plab tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga, tilni o‘zlashtirish bilan bog‘liq amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Yaratilgan darsliklarning ta’limiy mazmuni haqida gapirar ekanmiz, ularning tilni o‘zlashtirishga oid tamoyillar bilan qay darajada mosligi masalasi haqida fikr bildirmoqchimiz.

Eng avvalo, tilni o‘zlashtirish bilan bog‘liq tamoyillar bilan tanishamiz:

1. Nutqdan tilga qarab borish tamoyili.

2. Tilni o‘qitishda tabiiylikka rioya qilish tamoyillari.

3. Til hodisalarini ajratishga o‘rgatish tamoyillari.

4. Yozma nutqni og‘zaki nutqqa chog‘ishtirib o‘rgatish tamoyillari.

5. O‘quvchilar nutqining ifodaliligi va emotsionalligini oshirib borish tamoyili.

6. Nutq organlari va qo‘l muskullarini yetarli mashq ettirish tamoyili[2].

Shu bilan bir qatorda ona tilini o‘zlashtirishga qaratilgan darslardagi materiallarning ikki xil vazifasi borligini eslatib o‘tmoqchimiz:

a) barcha o‘quv predmetlariga oid bilimlarni bolalarga o‘rgatish vositasi;

b) o‘quv predmeti[2].

Eng avvalo, tilni o‘zlashtirish bilan bog‘liq birinchi tamoyil, ya’ni *nutqdan tilga qarab borish tamoyili*ga alohida to‘xtalmoqchimiz. Oldingi boshlang‘ich sinflar uchun yaratilgan “Ona tili” darsliklarining barchasida berilgan materiallar (alohida olingan gaplardan iborat mashqlar) o‘quvchida hosil bo‘lgan grammatik bilimning darajasini aniqlashga qaratilgan edi. Ushbu gaplar orqali muayyan grammatik bilimni ko‘nikma va malaka holatiga olib chiqishning imkoniyati deyarli yo‘q edi. Yangi “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi[3]da esa til qoidalarini o‘rgatish jarayoni muayyan nutqiy mavzudagi og‘zaki suhbat, auiomaterialni tinglash yoki ushbu mavzuga tegishli matnlar ustida ishlash orqali olib borilishini ko‘rish mumkin. Bu orqali o‘quvchida ma’lum bir nutqiy vaziyat uchun kerakli til birliklarini tanlay olish, ulardan savodxonlik bilan foydalanish, ana shu savodxonlikni ta’minlash uchun esa qanday til qoidalarini o‘zlashtirish kerakligini o‘rgatish maqsad qilib olinganligi yaqqol namoyon bo‘ladi.



Yuqorida sanab o‘tilgan tamoyillarning yana birida *tilni o‘qitishda tabiiylikka rioya qilish* haqida so‘z boradi. Ushbu tamoyil asosida til materillarini jonli nutq tarkibida o‘rgatish, o‘quvchi nutq tovushi, so‘z va sintaktik qurilmalarni turli ko‘rgazmali vositalar yordamida qancha to‘g‘ri, ongli tushunsa, uni nutq tarkibida ham shuncha to‘g‘ri, ongli qo‘llay olishi maqsad qilib olingan. Belgilangan maqsad asosida darsliklarda oldindan o‘rgatilishi belgilab olingan lingvistik hodisadan muayyan nutqiy vaziyatda qanday foydalanish bilan bog‘liq quyidagi mazmunga ega bo‘lgan topshiriqlarni uchratish mumkin:



Tilni samarali o‘zlashtirishga qaratilgan tamoyillarning keyingisida *til hodisalarini ajratishga o‘rgatish* vazifasi belgilab olinganligini ko‘rish mumkin. Ushbu tamoyilga ko‘ra o‘qituvchi ta’lim jarayonida so‘z va uning ma’nolari ustida ishlashi, shu asosda o‘quvchilarda uslubiy malakalar hosil qilishi, leksika bilan morfologiyaning aloqadorligini ochib berishi muhim sanaladi. Darslik tahlili olib borilganda esa aynan shu tamoyil bilan mos keluvchi ko‘plab topshiriqlarni uchratishimiz mumkin.

Yozma nutqni og‘zaki nutqqa chog‘ishtirib o‘rgatish tamoyili ushbu yo‘llar bilan amalga oshiriladi: harfni tovush bilan chog‘shtirish; orfogrammalarni ularning talaffuzi bilan chog‘ishtirish; punktuatsiyani ohang bilan chog‘ishtirish; og‘zaki mashqdan yozma mashqqa qarab borish. Aynan savodxonlik darajasini oshirishga xizmat

qiluvchi topshiriqlarning shunday mazmunda berilishi ham tilni amaliy jihatdan o‘zlashtirilishda juda samarali hisoblanadi. Darslikka ushbu maqsadni amalga oshirish bilan bog‘liq bir qancha topshiriqlar kiritilgan:

Tilni o‘zlashtirishga qaratilgan tamoyillar ichida *o‘quvchilar nutqining ifodaliligi va emotsionalligini oshirib borish tamoyili* og‘zaki va yozma nutqqa xos bo‘lgan eng muhim ko‘rsatkichlardan biri sanaladi. Bunday natijaga erishish uchun esa til darslari bilan adabiyot darslari o‘rtasida aloqadorlikni ta’minlash, badiiy adabiyotdan olingan parchalarning o‘qilishini tahlil qilish, darslarda audiomaterillardan foydalanib so‘z ustalarining nutqlarini tinglash, she’r va boshqa badiiy parchalarni yodlatish kabi usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu tamoyilda keltirilgan tavsiyalar asosida darslikda quyidagi mazmun va shaklga ega topshiriqlarni uchratish mumkin:





Nutq organlari va qo‘l muskullarini yetarli mashq ettirish tamoyili quyidagi yo‘llar orqali amalga oshirilishi nazarda tutiladi: o‘rganilayotgan fonema, morfema, so‘z va turli sintaktik qurilmalarning og‘zaki talaffuzini o‘zlashtirish uchun yetarli mashq o‘tkazish, so‘z, so‘z birikmalari ishtirokida gap, bog‘li nutq tuzdirish. Darslikda keltirilgan tamoyilning maqsadlariga xizmat qiluvchi ko‘plab topshiriqlarni uchratish mumkin.





Demak, biz tahlilini olib boradigan darsliklar aynan til ta’limidan ko‘zlangan birinchi maqsad, ya’ni barcha o‘quv predmetlariga oid bilimlarni bolalarga o‘rgatish vositasi ekanligidan kelib chiqqan holda yaratilganligini aytmoqchimiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zamonaviy yondashuvlar asosida yaratilgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklarining chin ma’noda o‘quvchining til o‘zlashtirishi, bu jarayonni boshqa fanlar bilan aloqador ravishda olib borishni, kelajakda turli hayotiy vaziyatlarda o‘z tilidan savodxonlik bilan foydalana olishiga oid to‘rtta lisoniy til ko‘nikmalarni shakllantirishi bilan bog‘liq imkoniyatlari ancha keng ekanligini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. –Toshkent, 2019.

2. O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, A.Hamroyev. Ona tili didaktikasi. –Toshkent, 2005.

3. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik (1-2-qism). – T., 2022.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Алимова Шалола Шукуровна
учитель русского языка и литературы школы №302 Юнусабадского района г.Ташкента, Узбекистан

Аннотация: В статье раскрываются теоретические основы использования и практическое применение инновационных технологий на уроках русского языка.
Ключевые слова: Инновационный подход, учебный процесс, урок в радость

RUS TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Kalit so‘zlar: Innovatsion yondashuv, o‘quv jarayoni, quvnoq dars
Annotatsiya: Maqolada rus tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish va amaliy qo‘llashning nazariy asoslari ochib berilgan.

USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN RUSSIAN LANGUAGE LESSONS

Abstract: The article reveals the theoretical foundations of the use and practical application of innovative technologies in Russian language lessons.
Key words: Innovative approach, educational process, joyful lesson

В настоящее время, когда общество встало на путь всемирной глобализации и интенсивного использования инновационных технологий во все сферы жизнедеятельности человека, в первую очередь, образование, в Министерстве образования Узбекистана ведется работа по внедрению их в учебный процесс. Целью данного направления является соединить настоящую систему образования и инновационные технологии, чтобы обеспечить доступ к образовательному пространству всем слоям населения.

Использование инновационных технологий на уроках русского языка (при изучении орфографии) в настоящее время — вынужденная мера, потому что за счет этого происходит:

- совершенствование практических умений и навыков;
- эффективная организация самостоятельной работы;
- повышение интереса к урокам русского языка;
- активизация мыслительной деятельности обучающихся.

Урок с использованием инновационных технологий — это урок, в процессе которого участвуют два основных компонента: учитель и компьютер. Компьютер занимает место универсального средства обучения. Компьютерные технологии дополняют традиционное обучение русского языка. Они содержат четко структурированную информацию в виде текста, наглядных изображений, аудиозаписей и т.д.

Использование инновационных технологий осуществляется с целью улучшения существующих технологий обучения за счет усиления исследовательских, информационно — поисковых и аналитических методов работы с информацией.

Орфография в школе — один из важнейших разделов курса русского языка. Орфографические умения и навыки играют определяющую общую роль.

Орфография — раздел науки о языке, в котором изучаются правила написания слов. Естественно, инновационные технологии обучения на данный момент остаются одним из приоритетных путей повышения изучении орфографии в школе.

Роль учителя в условия личностно-ориентированного подхода — направить, заинтересовать ученика, создать условия для саморазвития. Происходит переосмысление истины «не умеешь — научим, не хочешь — заставим». Она уступает место гуманистическим идеям, монолог учителя превращается в диалог, доминирует принцип выбора учащимися собственного пути. Кардинальным изменением подвергается и отношение к ошибкам, которые теперь следует рассматривать в качестве пути к совершенствованию, а не в качестве слабости, ведь тот, кто не ошибается, не может творить.

Педагогическая технология — это единая научно обоснованный проект определенной педагогической системы от начала ее замысла до осуществления ее в практической деятельности. Педагогическая технология воссоздает учебный и воспитательный процесс, включает их цели, содержание, формы, методы, средства, результаты и условия организации.

Инновационные процессы в образовании следует рассматривать во взаимосвязи с широким социальным контекстом. Необходимо учитывать: согласованность системы образования с комплексом жизненных общественных потребностей; общественное мнение по отношению к каждому из ее структурных элементов; способствование прогрессивному развитию общества как фундаментальную цель образования; наличие у детей потребности в образовании, её общественно полезную направленность.

Инновационные процессы, инициируемые с учетом приведенных выше положений, должны реализовываться во всех образовательных структурах. Обновленные типы образовательных учреждений, новые системы управления, технологии и методики, средства и приемы обучения являются проявлениями грандиозного потенциала инновационных процессов. Уместное их осуществление, применение способствует позитивным изменениям. Вместе с тем, практическая реализация нововведений может иметь побочные эффекты. Поэтому внедрение инноваций должно предполагать: продолжительный подготовительный этап, включающий моделирование; всесторонние экспертные оценки; доработку; сравнение с последними образовательными достижениями.

С учетом вышесказанного ко второму этапу следует отнестись с особым вниманием. В то же время мы понимаем инновационное образование как такое, которое обладает высокой эффективностью, а именно позволяет достичь необходимого профессионального уровня компетентности, основывается на разработке и внедрении новых технологий, «работает на опережение».

Оборудование на уроке: интерактивная доска, проектор, карточки с изображением продуктов, дидактические карточки.

Ход урока:

I. Организационный момент.

1. Взаимное приветствие учителя и учащихся.

2. Подготовка учащихся к работе на уроке (на перемене).

3. Визуальный контроль готовности к уроку.

II. Реализация домашнего задания.

III. Сообщение темы и целей урока.

Учитель: На доске у меня написано стихотворение, давайте его прочитаем и попробуем догадаться, какая же у нас тема урока.

- Догадались, ребята? Конечно же, в этом стихотворении говорится о правиле правописания частицы не с разными частями речи. Итак, какая же тема нашего урока?

- Тема сегодняшнего урока «Написание не с разными частями речи».

- Чему мы должны с вами научиться?

- Ребята, урок у нас вами необычный. Мы будем путешествовать на волшебном самолёте. Почему на волшебном? Да потому, что все мы любим сюрпризы и необычные задания. А еще сегодня вы будете сами управлять нашим воздушным лайнером, и от вашего умения будет зависеть, как скоро мы с вами доберемся до намеченной цели. А цель у нас с вами одна. Как вы думаете, какая?

- Правильно, наша цель - закрепить навыки правописания частицы не с разными частями речи.

- Чтобы начать наше веселое путешествие, необходимо сформировать экипаж самолёта. Кому мы с вами доверим управлять лайнером, кто будет командиром экипажа?

- Ребята, а кто еще помогает командиру экипажа в полёте?

1 пилот –…

2 пилот –…

Штурманы: …

Бортинженеры– …

Радисты:…

Стюардессы: …

Стюарды: …

-Итак, самолет готов к полету, начинаем веселое путешествие в страну Знаний.

IV. Актуализация знаний. Повторение темы «Правописание не с разными частями речи».

Учитель: Итак, самолет готов к полету, начинаем веселое путешествие. У каждого из вас есть карта-схема, которой вы можете пользоваться в трудных ситуациях (алгоритм «не с разными частями речи»).

- Ребята, у каждого из вас будет бортовой журнал, в который вы будете заносить результаты выполненных вами заданий.

Бортовой журнал

Фамилия, имя

Номер задания Количество баллов

Итог:

-Ребята, количество баллов будет зависеть от сложности заданий, и я вам буду говорить, сколько баллов дается за каждое задание.

- Наш самолет набирает высоту, мы удаляемся от земли, и в окна иллюминаторов видны леса, реки, моря.

- Чтобы самолет летел по намеченному курсу, вот вам первое испытание. Смекалка, выдержка и труд помогут вам справиться с этим нелегким испытанием.

За правильно выполненное задание дается 10 баллов

1.Истинная причина жеманности сестер Золушки на балу заключалась в их (не) уверенной изысканности своего наряда и в чувственности своих движений. («Золушка»)

2. (Не) успевая передохнуть, гномы кроили кафтаны, аккуратно пришивали блестящие отвороты, украшали платья золотыми пуговицами. («Гномы-помощники»)

3. Розочка и Беляночка жили вместе со своей доброй бабушкой (не) богато, но счастливо. («Беляночка и Розочка»).

4. Только оленёнок переступил колдовскую черту, как разрушились чары, превратившие его в животное, и он снова стал мальчиком, живым и (не) вредимым. («Заколдованный мальчик»)

5. – Куда же вы, прекрасная (не) знакомка? – крикнул принц, но ее уже и след простыл, и только лежала на ступеньках хрустальная туфелька. («Золушка»)

6. Сестра Настеньки была девушкой (не) воспитанной и изнеженной, но она мужественно сидела под елочкой и ожидала заслуженного подарка от Морозки. («Морозко»)

7. Сначала девочка легла на самую большую кровать. Она показалась ей слишком большой, а поэтому (не) удобной. («Три медведя»)
8. Чтобы (не) утонуть, Алиса забралась в опустевший пузырек. И тот, словно лодка, вынес ее прямо на цветущий луг. («Алиса в Стране чудес»)
9. Взял граф корзины, и показались они ему такими тяжелыми, будто они (не) яблоками, а огромными камнями наполнены. («Гусятница у колодца»).
10. Течение легко, точно щепку, несло (не) прочный кораблик, но солдатик по-прежнему держался стойко. («Стойкий оловянный солдатик»).
11. Поэтому совсем (не) удивительно, что, когда во дворец прибыл молодой король из соседнего государства, он и смотреть не захотел на мачехину дочь, зато сразу полюбил прекрасную Флорину. («Голубая птица»).
Учитель: Молодцы! Вы работали дружно, сплоченно, вы – настоящая команда!
- Наш полет продолжается, но, к сожалению, приборы показывают, что топлива осталось мало. Придется сделать вынужденную посадку на ближайшем аэродроме. А вот и он (звук выдвигающегося шасси).
- Пока нам заправляют самолет, всему экипажу тоже следует отдохнуть
V. Физкультминутка.
Учитель: Чтобы в пути быть бодрее, внимательнее, надо:
Цель: проверить усвоение темы; формирование умения создавать собственный текст повествовательного характера, используя ключевые слова.
- А теперь давайте сходим в буфет, а буфет этот волшебный.
-Что за странное меню лежит у вас на столах? Какие-то конверты? Давайте посмотрим, что в них?
- А я поняла, наверное, в этом буфете посетители сами готовят себе блюда. Так проверим, какие вы знатоки кулинарного искусства.
- Ребята, вот и следующее задание: вы работаете втроем, и вы получает необыкновенный конверт, в котором вы найдете все, что вам необходимо для создания собственного рецепта (за это задание вы получаете 10 баллов).
(В конверте лежат карточки с изображением продуктов, а на обратной стороне словосочетания с пропущенными орфограммами на данные правила).
-Пока вы создавали свои кулинарные блюда, ваш лайнер готов продолжать полет.
-Займите свои рабочие места.
- Полетели.
- Самолет набирает высоту.
-Чтобы в полете вам не было скучно, я предлагаю каждому из вас следующее испытание.
VII. Дидактический сундучок.
Цель: проверить уровень усвоение темы «Не с разными частями речи»
-А загадки вы любите отгадывать? Отгадайте загадку и подумайте, как пишется частица не со словами (индивидуальная работа).
За это задание- 10 баллов
(Не) огонь, а жгусь ретиво, как зовут меня? (Крапива.)
На себе везет (не) прытко домик собственный... (Улитка.)
Какая еда самая (не) питательная? (Пирог, который едят глазами – французская загадка).
Пока вы, ребята, выполняли интересные задания, наше путешествие, к сожалению, подходит к концу. Мы приближаемся к стране Знаний. Самолет идет на посадку. Счастливого приземления!
VII. Подведение итогов урока.
-Вы сегодня все молодцы!
-Какая же у нас тема урока?
-А цель урока?
-Как вы думаете, достигли мы эту цель?
VIII. Выставление оценок с комментариями.
Подсчет баллов, взятых из бортового журнала, анализ работы каждого ученика на уроке.
Домашнее задание
Конец урока.
Заключение
Таким образом, само понятие инновация можно определить как целенаправленные перемены, внесение чего-то нового, повышение эффективности.
Инновации в образовании — это основа развития системы образования, школы, учителя и учащегося. Наиболее адекватной моделью нововведения в образовании является проблемно-ориентированный процесс, в структуре которого выделяются следующие элементы (сферы):
- научный поиск;
- создание новшества;

KALOM ILMI TARIXIDA IXTIYOR ERKINLIGI VA AXLOQ MASALALARI
(Ca'duddin Taftazoniy ilmiy merosi misolida)

M.Norqobilov - NavDPI Tarix kafedrasi dotsenti v.b.
S.Abduhakimova – NavDPI Tarix yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Dunyo ilm-fanida insoniyatning ma'naviy kamoloti va axloq masalasi doimo dolzarb mavzular qatorida bo'lib kelgan. Ratsional bilim va tafakkurning mahsuli sifatida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar insoniyatning axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Tarixiy tendensiya jarayonida ta'kidlangan ma'naviyat va axloq masalasi sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishi natijasida ilm-fandagi innovatsion o'zgarishlar e'tirofga loyiq ijtimoiy voqelik sifatida qaraladi.

Jumladan, jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy hayotida chuqur iz qoldirgan, xususan, Markaziy Osiyoda ijod qilgan mutafakkirlarning falsafiy merosini o'rganish, mintaqa halqlari axloqiy qiyofasini tadqiq qilishda muhim rol o'ynadi. Bu borada islom falsafasini, xususan, kalom ilmini ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, diniy-aqidaviy konseptual nazariya va xulosalar bilan boyitgan mutafakkir Sa'duddin Taftazoniyning xizmatlari alohida ahamiyatga molik.

Mutafakkir Taftazoniyning ilmiy merosida ilgari surilgan nazariya va g'oyalarning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, ta'lim-tarbiya sohalarini ma'rifiy dunyo standartlari darajasiga ko'tarishda astoydil xizmat qiladi. SHu jihatdan olganda, «biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib,... mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz».7 SHu ma'noda, mutafakkir asarlaridagi falsafiy va ma'naviy-axloqiy qarashlarni zamon hamda makon nuqtai nazaridan o'rganish muhim jihatdir. Mazkur qarashlarni kundalik hayotimizga tadbiq qilishda, mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining tayanchi bo'lgan barkamol insonni tarbiyalashda hamda ma'naviy merosdan oqilona foydalanishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Sa'duddin Taftazoniyning kalom ilmi borasidagi falsafiy-axloqiy qarashlari buyuk vatandoshimiz Abu Xafs Nasafiyning «Aqoid» asariga yozilgan mukammal sharhi – «SHarh al-aqoid» kitobida islom ma'rifati va ratsional tafakkur asosida chuqur tahlil qilingan.

Asarda kalom falsafasining muhim mavzularidan biri – insondagi iroda-ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, muallif asarda YAratuvchining yaratuvchilik sifatidan kelib chiqadigan xushxulqlik va xayrli ishlarni bayon qiladi hamda shu orqali insonlarni nomaqbul xulq-atvor sababidan sodir bo'ladigan hatti-harakatlardan saqlanishga buyuradi. Asarni tahlil qilar ekanmiz, sharaflanmagan xulq-atvor, ijtimoiy axloq me'yorlarida bajarilishi gunoh va ma'siyat maqomidagi ishlar insoniyat uchun nomuvofiqligi ta'kidlanadi. Bunday nomaqbul (negativ) axloqiy tushunchalar orqali kishilarning sinovdan o'tkazilishi haqidagi diniy-axloqiy ko'rsatmalar naqliy va aqliy manbalar asosida dalillanganligini ko'rishimiz mumkin.

U (inson)ning barcha amallari YAratuvchining irodasi, xohishi, hukmi, qazosi va taqdiri bilan sodir bo'ladi. Insonlarga ixtiyor berilgan va unga binoan bajargan amallariga yarasha yaxshilik bo'lsa savob, yomonlik bo'lsa jazo bilan mukofotlanadilar. YAxshi amallar sodir bo'lishida YAratuvchining roziligi bilan bo'ladi, aksincha, yomon amallar sodir bo'lishida esa roziligi bo'lmaydi, lekin taqdiri bilan birga paydo bo'ladi.8

Taftazoniy aytadi:

«Ahli sunna val jamoa e'tiqodiga ko'ra, hech bir inson o'z amallarini o'zi yarata olmaydi».

YUqorida ta'kidlangan jumlalarga aqliy dalillardan tartibli tarzda misollar keltiradi:

Birinchidan, agar inson o'zini amallarini o'zi yaratganida edi, barcha tafsilotlarigacha oldindan bilishligi kerak bo'lardi. Bunga yana bir yorqin misol: bu ko'zga ko'rinmaydigan tana a'zolarini harakatlanishi, yurak urishi, nafas olishi, qon aylanishi. Mazkur harakatlar o'zining ixtiyori bilan sodir bo'lmaganligi uchun ham inson amallari ham o'z kuchi bilan sodir bo'layapti, deb e'tiqod qilinmaydi, balki YAratuvchi yaratadi.

Taftazoniy yana fikrlarini davom ettirib aytadi:

Ikkinchidan, naqliy dalillarda aytilishicha, insonning amallarini YAratuvchi tomonidan yaratilishiga dalolat qiladigan hujjatlar bor:

«واللهُ خَلَقَكُم وَمَا تَعْمَلُون»(سورة الصافات 96)

«Holbuki, sizni ham, qilgan narsalaringizni ham Alloh yaratganku?» Soffat surasi 96-oyat.

Va yana naqliy dalillardan:

«الله خالق كل شيء»(الزمر 62)

«Alloh har bir narsani yaratguvchisidir» (Zumar surasi, 62-oyat).

Gunoh ishlar YAratuvchi tomonidan yaratilib, insonlar taqdiri bilan sodir bo'larkan, demak badxulq harakatlarni bajaraversam ham bo'laverarkan yoki islomiy ma'rifatni anglamagan bir kishi o'ziga-o'zi «YAratuvchi menga hohlasa hidoyat yo'lini ko'rsatadi, demak halicha hohlamayapti», degan xulosalarga kelishi xatolikdir. To'g'ri yo'lni tanlash masalasida insonga ixtiyor erkinligi berilgan.

7Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи. // http://www.press-service.uz/uz/lists/view/

8 Саъдуддин Тафтазоний. «Шарҳ ал-ақоид». Британия Дюзбри нашриёти. 2010. –Б.88-93 бетлар.

O’z ixtiyori bilan qo’llarini qimirlatayotgan va kasalligi tufayli qo’llari qaltirayotgan insonlarni bir-biridan ajrata olamiz. SHundan xulosa qilish mumkinki, inson yaxshi amalni bajarsa savob, yomon amalni bajarsa jazolanadi9.

Sa’duddin Taftazoniy asarlarining falsafiy tahlili shuni ko’rsatadiki, iroda-ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov to’g’risidagi konseptual g’oya hamda qarashlar mutafakkir ma’naviy merosidagi eng dolzarb mavzulardan biri sifatida e’tirof etiladi. Mavzuni tadqiq qilish davomida tadqiqotchida, avvalo, Taftazoniy siymosiga mos va xos ma’naviy-axloqiy qiyofaning shakllanish jarayoni kechadi. Tadqiqotchining ratsional mahorati natijasida esa, mazkur ijtimoiy voqelik butun jamiyat ma’naviy ruhiyatiga singib boruvchi ta’sirchan vositaga aylanadi. Pirovardida, jamiyatda Taftazoniy ma’naviy merosi o’rganish va undagi ratsional tafakkurni tadqiq qilish tuyg’usi shakllanadi. Mazkur jarayonning navbatdagi bosqichida esa, Taftazoniy merosiga nisbatan mas’uliyat bilan yondashish tushunchasini qaror topishida turtki bo’ladi.

Dastavval, ixtiyor erkinligi borasidagi fikrlarimizni keng miqyosdagi tadqiqotlar doirasida ifodalashga harakat qildik. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov masalasida zamon va makon nuqtai nazaridan nafaqat Taftazoniy tomonidan balki, ko’plab faylasuf-mutafakkirlar tomonidan turlicha qarashlar bayon etilgan. Jumladan, ular, insonning sodir etgan har bir harakati uchun mas’uliyat hissi mavjudmi? Har qanday hatti-harakat insonning o’z xulq-atvori yuzasidan paydo bo’ladimi, ya’ni ixtiyor erkinligi mavjudmi, bu erk uning o’zida saqlanib qoladimi, degan munozarali savollarga imkon qadar javob topishga harakat qilganlar, intilganlar. Jumladan, iroda erkinligi ma’lum bir hoxish-istakni amalga oshirish vositasi sifatida harakat qilish qobiliyatidir. Misol uchun, David YUm «Erkinlik – iroda qarorlariga muvofiq harakat qilish yoki harakat qilmaslik qobiliyatidir»10,-deb ta’riflaydi.

Aytish mumkinki, inson ongli mavjudot sifatida o’zining hatti-harakatlarini mustaqil ravishda amalga oshiradi. Mazkur jarayon insonning o’zligini anglashi va borliqda sodir bo’layotgan voqea-hodisalar uning ongida in’ikos etishi natijasida aks ta’sir munosabat shakllanadi. «Erkin iroda o’zimizga hukmron bo’lishimizga imkon beradi va ma’lum darajada YAratuvchiga yaqinlashtiradi»11, -degan edi Rene Dekart. Bunday jarayon, albatta, individuallik tamoyillariga asoslanadi. YUzaga kelayotgan aks-ta’sir munosabat jamoa va uning a’zolari uchun, qolaversa, butun insoniyat axloqi uchun qanchalik ahamiyatli ekanligi muhim omil hisoblanadi.

Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov mavzusi yuzasidan mutafakkir Taftazoniy shuni bayon qiladiki, binobarin, «Alloh o’z bandalariga ikki yo’lni ko’rsatadi, ya’ni inson xayrli, sharafli ishlar qilib, savob oladi yoki nomatlub ishlar bilan mashg’ul bo’lib, gunohga botadi va shunga yarasha jazosini oladi»12. Mutafakkirning ta’kidlashicha, YAratuvchi insoniyat jamoasini doimo xayrli ishlarga buyurgan, taqiqlangan ishlardan qaytargan. Ijtimoiy xulq-atvor me’yorlariga amal qilish yoki qilmaslik kabi axloqiy mezonlar borasida insonning erkini o’zida qoldirgan.

Sa’duddin Taftazoniyning inson taqdiridagi yaxshilik yoki yomonlikni tanlash ixtiyori haqidagi fikri buyuk mutafakkir imom Moturidiyning bu boradagi ma’rifiy xarakterdagi qarashlariga aynan mos keladi. «Abu Mansur Moturidiy islomdagi iroda erkinligini sharhlab, insonga berilgan aql-idrok unga o’z hatti-harakatida yaxshilik va yomonlikni, halol va haromni, savob va gunohni, to’g’ri yoki egri yo’lni tanlash erkinligini berdi, bizning kelajagimiz shu yo’llardan qay birini tanlay olishimizga bog’liq, deb uqtirgan»13. Har ikkala mutafakkirning progressiv qarashlarida doimiy ravishda jamiyat a’zolari o’rtasida olijanoblik, odamiylik, o’zaro hurmat va birdamlik, barqarorlikka olib boruvchi hamkorlik rishtalarini shakllantirish masalalari yoritiladi. Pirovardida, turlicha ko’rinishdagi salbiy illatlardan saqlanish asnosida jamiyatda ijtimoiy totuvlik va uyg’unlikka chorlovchi omillar shakllanadi.

Ideal axloqiy tanlov insonlarning o’zaro hamkorlikka chorlovchi ijtimoiy-ma’naviy ehtiyoj sifatida har bir davr ilm ahlining e’tibori markazida bo’lgan. Mazkur an’ana ilm ahli doirasidan butun jamiyat sahniga ko’tarilgan zamon va makonda ijtimoiy barqarorlik hamda farovon hayot unsurlari paydo bo’lgan. SHu jihatdan olganda, ma’rifatga intilish va axloqli bo’lish jamiyatning har bir a’zosi uchun ijtimoiy ehtiyoj, zarurat darajasiga ko’tarilsagina tadqiqotlarning samaradorligi oshib boradi.

Mazkur mavzu yuzasidan ma’rifat va axloqiylik asosidagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi takliflar muhim ekanligini inobatga olib aytish mumkinki, ushbu mavzu bugungi kunda ham jiddiy amaliy ahamiyatga molik masala sifatida nafaqat faylasuflar, balki, axloqshunoslik sohasi mutaxassislari tomonidan ham e’tirof etilmoqda.

Kalom falsafasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarimiz islom dini faqat ibodatdan iborat mavzu emasligini, balki, ilmu ma’rifat, ma’naviyat va axloqiylik hamda falsafa ekanligini dalillashga o’zlarida xohish-iroda va imkoniyat topdilar. Natijada, islomdagi ma’rifiy energiya insoniyatga ratsional bilim va kreativ tafakkurni in’om qildi.

Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov masalasida, inson, pozitiv hatti-harakatlari doirasida o’z hayotini yaxshilash, ijtimoiy axloq me’yorlariga moslashtirish masalasida targ’ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Zero, inson

---

9 Саъдуддин Тафтазоний. «Шарҳ ал-ақоид». Британия Дюзбри нашриёти. 2010. 88-93 бетлар.

10 Тимоти О’Коннор. «Свобода воли». Впервые опубликовано 07.01.2002 г., существенные изменения 29.10.2010. www.philosophy.ru.

11 Декарт Рене. Соч.: В 2 т. Т. 1. М., 1989. -С. 547.

12 Ҳамиджон Ҳомидий. Тасаввуф алломалари. Т.: Ўзбекистон. 2016. -б.302.

13 Тўраев Б.О. Онтология, гносеология, логика ва фан фалсафаси муаммолари. Танланган асарлар I жилд. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, Тошкент – 2015 й. –б.370

yaxshilik yoki yovuzlik tanlovini amalga oshiradi. «Axloqiy tanlov – har bir harakat yoki harakatsizlik, ijtimoiy qilmishning ibtido nuqtasi14 ekanligini jarayon so'nggida anglab yetadi.

Har qanday g'oya va qarashlar jamiyat hayoti uchun manfaat keltirsagina ahamiyatli hisoblanadi. Biz tadqiq qilayotgan mavzuni jamiyat ma'naviy hayotiga tadbiq qilish ham ma'lum ma'noda insonlarda ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlovni to'g'ri shakllantirishga boqliq bo'ladi. Ixtiyoriy erk va axloqiy tanlovni amalga oshirishga ko'maklashish borasida fuqarolar ongida qabul qilinayotgan qonunlarga nisbatan hurmat ruhini shakllantirish dunyo davlatlari aksariyatining pirovard maqsadidir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, biz mazkur izlanishlarimiz orqali iroda erkinligi va axloqiy tanlov masalasida ob'ektiv va sub'ektiv jihatlarni uyg'unlashtirish asosida Sa'duddin Taftazoniy kabi axloqiy ideallarni kashf qilish, bu bilan butun insoniyatda ma'rifat hosil qilish orqali ijtimoiy muammolarning ilmiy yechimini topishga harakat qilindi.

BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKLARINING ZAMON TALABIGA MOSLIGI (MATEMATIKA MISOLIDA)

Bo'ronova Maftuna Valijon qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar p.f.f.d (PhD) Saidova N.R

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darsliklariga qo'yilgan talablar haqida fikr yuritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan yangi darsliklarning afzalliklari va jamoatchilik e'tirozlari haqida bir qancha fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: darslik, tanqidiy fikrlash, o'quv dastur, belgilangan talablar.

СООТВЕТСТВИЕ УЧЕБНИКОВ НАЧАЛЬНОГО КЛАССА ТРЕБОВАНИЯМ ВРЕМЕНИ (НА ПРИМЕРЕ МАТЕМАТИКИ)

Аннотация. В данной статье рассматриваются требования к учебникам для начальной школы. По поводу содержания новых учебников, созданных для учащихся начальных классов, дано ряд мнений и комментариев, а также возражения общественности.

Ключевые слова: учебник, критическое мышление, учебная программа, установленные требования.

SUITABILITY OF PRIMARY CLASS TEXTBOOKS TO OUR MODERN WORLD (MATHEMATICS AS AN EXAMPLE)

Abstract. This article discusses the requirements for primary school textbooks. A number of opinions and comments are presented on the merits and public objections to the new textbooks created for primary school students.

Key words: textbook, critical thinking, curriculum, and requirements.

Darslik – muayyan o'quv fani mazmunini o'quv dasturida ko'rsatilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilib beradigan kitob sanaladi.

Darslikning xarakterli xususiyati - bu uning mazmunining o'quv dasturi mazmuniga mos kelishidir. Darslikda material bo'limlar bo'yicha taqsimlanadi. Har bir mavzu muayyan bob, uning tarkibida bo'lgan bandlar asosida ochib beriladi[2].

Darsliklarning tarkibiy tuzilishini belgilashda quyidagilarni hosobga olish lozim:

–darslikda o'quv dasturida belgilangan mavzularning izchil bayon qilinishiga e'tibor berish;

–bayon qilinayotgan tushuncha, qoida, qonunlar zamonaviy ilmiy bilimlarga tayangan bo'lishiga erishish (yosh xususiyatni inobatga olib);

– o'quv fani ichida mavzulararo hamda o'quv fanlari aro aloqadorlik, uyg'unlikni ta'minlash;

–berilgan materiallarni bob, bo'lim, mavzularga ajratish;

–har bir bo'lim alohida o'rganilishi kerak bo'lgan va aniq egallangan darajani tashkil etilishi lozim;

–o'quv materiallari o'zaro mantiqiy bog'liqlikda bayon etilishi zarur;

–bayon nuqtai nazaridan nazariy amaliy materiallar bilan bog'lanishi hamda
xulosalarning asoslanganligi nihoyatda zarurdir;

–o'quv-biluv faoliyatining bo'limlar bilan bogliqligi, ya'ni dalillardan namunaga qarab;

–namunadan farazga, farazdan natijaga qarab borish lozim. Xulosa natijalaridan tajribaga, tajribadan amaliyotga o'tiladi;

–bayon qilingan o'quv materiallari o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi ta'minlanmog'i lozim;

– o'quvchining aqliy taraqqiyoti, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda taqdim etiladigan tushunchalarni tanlashga erishish, ya'ni har bir darsda o'quvchini mantiqiy fikrlashga o'rgatadigan o'quv materiallarini belgilab berish kerak.

Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida takidlaganidek: Talim sifatini oshirish Yangi Ozbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir[1].

Maktablardagi sifatli ta'lim ko'p jihatdan yaratilayotgan darsliklarga bog'liq. Ya'ni u ta'lim standartlariga javob berish bilan birgalikda o'quvchini qiziqtirish va fanga bo'lgan mehrini uyg'otishi kerak. Xuddi shunday darsliklar bugun ilmga chanqoq o'quvchilarni fanga nisbatan qiziqishlarini yanada oshirmoqda. Boshlang'ich sinf

14 Абдулла Шер Ахлоқшунослик. Дарслик. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. Т.: 2010. –б.214

darsliklarining tubdan yangilangani nafaqat o‘quvchi va ustozlarni, balki ota-onalarni ham quvontirdi. Ammo ular borasidagi tanqidiy fikrlar ham uchrab turibdi. Ba’zi ota-onalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tuzilgan matematika darsliklarining o‘ta murakkabligi, undagi masalalar ota-onalar uchun ham qiyinchilik tug‘dirayotgani haqida aytishmoqda. Ammo Matematika darsligidagi masalalar tabaqalashtirish ko‘rinishida berilgan bo‘lib, ular osonidan bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Tabiiyki, o‘quvchilarning bilim darajalari bir xilda emas. Ilgari oson ko‘rinishidagi masalalar ko‘p bo‘lgani sababli o‘zlashtirishi yaxshi bo‘lgan iqtidorli o‘quvchilar uchun qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanishimizga to‘g‘ri kelardi. Yangi chop etilgan matematika darsligida esa o‘qituvchi o‘quvchilarning bilim darajasiga qarab, misollarni taqsimlab berishi mumkin. Ya'ni har bir o‘quvchi barcha masalalar yechimini topishi shart emas. Ularni darsdan tashqari, ustozi yoki boshqa yaqinlari ko‘magida mustaqil bajarsa ham bo‘ladi.

Shunday savol tug‘ilishi mumkin: Agar o‘quvchilarga barcha misol va masalalarni yechish majburiy bo‘lmasa, baholash tizimi qanday amalga oshiriladi?

— Iqtidorli o‘quvchilar kundan kunga ko‘payib bormoqdai. Eski darsliklar davrida iqtidorli o‘quvchilar uchun qo‘shimcha manbalardan foydalanilgan. Iqtidorli o‘quvchi 45 daqiqalik dars davomida o‘n ikkita misol va masalani yecha oladi. Chunki o‘quvchiga bir xil mazmundagi bitta masalani tushuntirsangiz, qolganini o‘zi bajarib ketaveradi. Ammo sinfda yaxshi o‘zlashtirolmaydigan o‘quvchilar ham bor. Bunday o‘quvchilarga bilim darajasidan kelib chiqib 6-8 ta misol va masla berib baholash mumkin.

Zamon talabiga mos bo‘lgan yangi darsliklar nafaqat nazariy, balki o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradigan, fikrlashini o‘stiradigan bilimlarni ham qamrab olgan.

Xalqaro mehnat tashkiloti malumotlarida keltirilganidek, O‘zbekiston ta'lim yo‘nalishida o‘quvchilarning ma'lum faktlar va jarayonlarni eslab qolishiga emas, balki tanqidiy fikrlash orqali muammolarni hal qilish va kompetensiyaga asoslangan ta'lim usuliga o‘tishi kerak[3].

Aslida matematikada faqat misol va masalalar emas, balki to‘g‘ri qaror qabul qilish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o‘quvchi mantiqiy va tanqidiy fikrlashi kerak. Kitobda shunday o‘yinlar borki, ular o‘quvchini jamoaviy bo‘lib ishlashga o‘rgatadi. Jamoada o‘z fikrini ifodalay olishi esa bolada liderlik qobiliyatini oshiradi. Avvalgi darsliklarda pul bilan bog‘liq bo‘lgan mavzular yo‘q edi. Yangi nashrdagi 3-sinf matematika darsligiga esa ana shunday mavzu ham kiritilgan. Darsliklardagi masalalar hayotiy misollar, o‘xshatishlar bilan berilgani esa o‘quvchini yanada qiziqtiryapti. Ular nafaqat bir narsaning son qiymatiga balki uning qayerda paydo bo‘lgani-yu hayotdagi o‘rni va ahamiyatini ham bilib olishyapti.

Darsliklarning ikki yildan buyon ijara to‘lovisiz berilayotgani ham juda quvonarli. Bundan har ikkala tomon ham o‘ta mamnun. Undan tashqari darslikning 2 qismga bo‘lingani, yengil va olib yurish uchun qulayligi, tashqi ko‘rinishi va mustahkamligi alohida e'tirofga loyiq.

Matematika faqatgina misol va masalaga asoslangan fan emas. Unda tanqidiy fikrlab, mulohaza yuritib qaror qilinishi kerak bo‘lgan jihatlar ham bor. Bu borada eski darsliklar ancha sayoz edi. Mavzu bir xil, biroz zerikarli tarzda edi. Bugungi kun darsliklari esa o‘zgacha olam.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamon talabiga mos bo‘lgan darsliklar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, ilmiy dunyoqarashini oshirishga xizmat qiladi. Yangi darsliklar dunyoni ham nazariy, ham amaliy o‘rganishga zamin yaratib bermoqda. Bu esa o‘quvchilarning ongini nafaqat ilmiy, balki ma'nan o‘sishida ham muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil uchun Murojaatnomasi” 22.12.2022 – https://president.uz

2. I. Tursunov, U. Nishonaliyev Pedagogika kursi. T.1996.

3. International Labour Organization “Towards Full and Productive Employment in Uzbekistan: Achievements and Challenges”, 2021

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TANQIDIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI (TARBIYA DARSLARI MISOLIDA)

Xoliqulova Moxichehra Nodir qizi-
Navoiy davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar:p.f.f.d.Holikulova Feruza Xasanovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada tanqidiy fikrlash va uning xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf tarbiya darslarida o‘quvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirish usullari muhokama ostiga olingan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy tafakkur, “4K” modeli, ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, tarbiya, metodologiya, “Singapur tajribasi”.

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛНЫХ КЛАССОВ (НА ПРИМЕРЕ УРОКА ВОСПИТАНИЯ)

Аннотация. В данной статье анализируется критическое мышление и его характеристики. Также описаны методы развития критического мышления учащихся на уроках начального образования.

Ключевые слова: критическое мышление,“4K” модель, креативность, логическое мышление, образование, методология, Сингапурский опыт.

TECHNOLOGY FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS (AS AN EXAMPLE OF EDUCATION LESSONS)

Abstract. This article analyzes critical thinking and its features. Also, methods of developing students’ critical thinking are described in primary education classes.

Keywords: critical thinking, “4C” model, creativity, logical thinking, education, methodology, Singapore experience.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi” O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni qabul qilindi.[1] Ushbu konsepsiyada o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi ham belgilangan. Shunga muvofiq, 2023-yil xorijiy ilg‘or tajribalardan foydalanilgan holda 1-4-sinf darsliklari “4K” modeli asosida yangidan tayyorlandi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, to‘rtt asosiy kompetensiyalarni, ya’ni kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash va kritik (tanqidiy) fikrlashni o‘z ichiga oladi. Biz ushbu maqolamizda tanqidiy fikrlashga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Hozirgi kunda ta’limda “Singapur tajribasi” sifatida qabul qilinayotgan tanqidiy fikrlash bizning ta’lim tizimimizda ham qo‘llanilib kelinmoqda. Xo‘sh tanqidiy fikrlash aslida nima o‘zi?

Tanqidiy fikrlash – ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarmuammolargaanalitiknuqtainazardanyondashishnio‘rganadilarvamantiqiyfikrlashasosidao‘znuqtainazarin ishakllantiradilar.

Boshlang‘ichmaktabdarajasigayetganboladatanqidiyfikrlashqobiliyatiendirivojlanayotganbo‘ladi. Bu fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va mashq qilish ularni mulohazali shaxs bo‘lib yetishishlarida muhim kalit vazifasini bajaradi. Tanqidiy fikrlashga mos boshlang‘ich ta’lim bolalarda ixtiro qilish, o‘xshashliklarni aniqlash, farazlarni shakllantirish, muqobil variantlarni taklif qilish kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi. Shu boisdan ham yangi avlod darsliklarida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan matn va topshiriqlar ko‘proq o‘rin egallamoqda.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning: “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”,[2] – degan fikrlari ayniqsa, hozirgi zamonamiz uchun nihoyatda dolzarbdir. Ayniqsa, “Tarbiya” fani mavzulari o‘quvchida tanqidiy fikrlash rivojlanishiga alohida e’tibor berishi bilan xarakterlidir

“Tarbiya” fani o‘quvchilar tafakkuri, uning shaxsiyatini shakllantirish va tanqidiy fikrlashiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu fan yosh o‘quvchilarni nazariy va amaliy muhokama qilish, tahlil qilish, maslahat bera olish va o‘z fikrlarini rivojlantirishga o‘rgatadi. Shuningdek, bu fan o‘quvchilarga mualliflik qilib yozish va fikrbildirishni ham o‘rgatadi. 1-sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ko‘proq tasvirlar orqali amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki ular rangli tasvir, rasmlarga ko‘proq qiziqadilar va tasvirga qarab o‘z fikrlarini bayon qilish o‘quvchilar uchun ancha qulay va oson.Darslar jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bir qancha usullardan foydalanish mumkin. Chunonchi, 1-sinf “Tarbiya”[3:28.] darsligida berilgan quyidagi rasm uchun“Qarang — fikrlang — xulosa qiling” usulidan foydalanish mumkin.

“Qarang — fikrlang — xulosaqiling” usuli. O‘quvchiga muayyan tasvir yoki voqea-hodisa ko‘rsatiladi va unga quyidagi savollar beriladi:

1. Nimani ko‘ryapsan?
2. Bu haqda nima deb o‘ylaysan?
3. Bu tasvirdan qanday xulosa qilish mumkin?

Ko‘rayotgan tafsilotlarni muhokama qilishni davom eting. Kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantira turib, “Yana nima?” deb so‘rang.“Bu haqida nima deb o‘ylaysan?”, “Qanday xulosa chiqarish mumkin?” Miya xulosalarni ishlab chiqarishi kerak. “Demak, … qilish kerakmas”, “Demak, shunday… yo‘l tutish kerak? Mana shunday savollar berish jarayonida o‘quvchida tanqidiy tafakkur bilan birgalikda ijodkorlik xususiyatlari ham rivojlanadi.

“Maktub” usuli. 3-sinf “Tarbiya” darsligida “Sayyoramizga nimalar xavf solmoqda?”[4:16-17.] nomli matn berilgan. O‘quvchilar matn bilan tanishib bo‘lgach, ularga dengiz jonivorlari nomidan insonlarga xat yozish topshirig‘I beriladi. O‘quvchilar yozgan xatlarini o‘qiydilar. Bunda har bir o‘quvchida kreativ fikrlash hamda mavzuni tanqidiy tahlil qilish, tanqidiy tafakkur qobiliya tirivojlanadi. Shuningdek, o‘quvchilarda bir-birini tinglash, boshqalarning fikrini hurmat qilish madaniyati ham shakllanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, ularni tanqidiy fikrlashga undash hozirgi zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim masalalaridan biridir.Chunki bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda zamonaviy O‘zbekiston farzandlari har sohada kuchli bilimga, intellectual salohiyatga, chuqur mulohazaga, olingan ma’lumotlardan oqilona xulosa chiqara olish qobiliyatiga ega bo‘lmog‘I lozim. Buning uchun yosh avlodga tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini ta’limning turli bosqichlarida uzviylikni saqlagan holda o‘rgatib borilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi“ O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

2.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. 104 b.

3.Usmanova O.V., RisyukovaY.V.“Tarbiya” 1-sinf uchun darslik. – T: Novda Edutaiment, 2023. – 120 b.

4.Usmanova O.V., Risyukova Y.V. “Tarbiya” 3-sinf uchun darslik. – T: Novda Edutaiment, 2023. – 104 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA MATN VA TINISH BELGILARINI AHAMIYATI

Siddiqova Sabohat Sharofiddinovna

NavDPI, 2-kurs magistranti.Navoiy,O‘zbekiston

Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD) Ravshanova R.X.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda matn va tinish belgilarini ahamiyati hamda yozma nutqda tinish belgilarini o‘z o‘rniga qo‘yish va og‘zaki nutqda ham shu tinish belgilariga rioya qilgan holda o‘qiy olish o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan asosiy ko‘nikmalar to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘z: og‘zaki va yozma nutq, matn, tinish belgilari, nuqta, so‘roq, undov, vergul.

ЗНАЧЕНИЕ ТЕКСТА И ПУНКТУАЦИИ В РАЗВИТИИ УСТНОЙ И ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В данной статье рассматривается значение текста и знаков препинания в развитии устной и письменной речи учащихся младших классов, а также умение читать знаки препинания в письменной речи и следить за этими знаками препинания в устной речи. формироваться у студентов, обсуждаются.

Ключевые слова: устная и письменная речь, текст, знаки препинания, точка, вопрос, восклицательный знак, запятая

HE IMPORTANCE OF TEXT AND PUNCTUATION IN THE DEVELOPMENT OF ORAL AND WRITTEN SPEECH OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Abstract: In this article, the importance of text and punctuation marks in the development of oral and written speech of elementary school students, as well as the ability to read punctuation marks in written speech and follow these punctuation marks in oral speech. the main skills that should be formed in the students are discussed.

Key words: spoken and written speech, text, punctuation, period, question, exclamation, comma.

Punktuatsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yozma nutqni to‘g‘ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta’minlashda benihoya zaruriy vositadir. Ular yozuvchiga yozma nutqni tuzishga imkon beradigan alomatlar yoki grafik belgilar bo‘lib, o‘quvchiga matnning burilishlarini, ya’ni intonatsiya rejimini va uni tushunishni osonlashtiradigan zarur pauzalarni aniqlashga imkon beradi. Tinish belgilari yozma tilda muhim rol o‘ynaydi, chunki ularni to‘g‘ri ishlatish matn mazmunini izchil va aniq tushunishga imkon beradi.Tinish belgilarining maqsadi o‘quvchiga yozilgan narsaning ma’nosini to‘g‘ri tushunishni ta’minlashdir.

Tinish belgilari haqidagi ma‘lumotlar hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda punktuatsiya alohida ahamiyatga ega. Tinish belgilari haqidagi ma‘lumotlar hamda ularning ishlatilish o‘rinlari to‘g‘risida kichik yoshdagi o‘quvchilarda tushuncha hosil qilish bosqichmabosqich izchillikda olib boriladi. O‘quvchilarga har bir tinish belgisini o‘rgatishda, avvalo, uning nutqdagi ahamiyatini tushuntira bilish kerak.

Yozma nutqda tinish belgilarini o‘z o‘rniga qo‘yish va og‘zaki nutqda ham shu tinish belgilariga rioya qilgan holda o‘qiy olish o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardan biridir.

Ma’lumki, punktuatsiya tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi qoidalar yig‘indisidir. “Punktuatsiya ham yozuv kabi kishilar orasidagi aloqaning muhim vositalaridan birisanaladi” Boshlang‘ich sinflarda to‘rtta tinish belgisi: gap oxirida nuqta, so‘roq, undov belgisi hamda uyushiq bo‘lakli gaplarda vergulning ishlatilishi haqidagi qoidalar o‘rgatiladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘rgatiladigan tinish belgilari kam bo‘lishiga qaramay, o‘qituvchi har bir sinfda tinish belgilari ustida muntazam ish olib borishi zarur.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarni tinish belgilari bilan tanishtirishda o‘qituvchi, avvalo, ularning yozma nutqda ishlatilishi va o‘rnini ko‘rsatadi. Tinish belgisi fikrni to‘g‘ri, boshqalarga tushunarli qilib ifodalash uchun muhim ekanini tushuntiradi. 1-sinf o‘quvchilariga savod o‘rgatish davridayoq nuqta, so‘roq belgisi va undov belgisi bilan amaliy tanishtiriladi. Bolalar “Alifbe” o‘qimasalar ham, rasmga qarab gap tuzadilar.

O‘qituvchi ularga talaffuzda bir gap boshqasidan to‘xtam (pauza) bilan ajratilishini, gapning oxirida ovoz pasayishini tushuntiradi. Bolalar, o‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra, 3-5 gapli kichik matnni gaplarga ajratadilar va ular o‘rtasidagi to‘xtam (pauza) qilish hikoya mazmunini yaxshi tushunishga yordam berishiga ishonch hosil qiladilar. Ular gapni to‘g‘ri talaffuz qilishini o‘rgana boshlaydilar. Bu gap oxiriga nuqta qo‘yilishi bilan tanishtirish uchun mazmuniy va intonatsion asos yaratadi. [1]

Tinish belgilari yozuvchining badiiy asar matni komponentlaridan qanday maqsad ko‘zlaganini ifodalaydi va uni o‘quvchilarda ham shu badiiy maqsad va munosabatni paydo qilish uchun xizmat qiladi.

Tinish belgilarining asosiy vazifasi yozuvda ifodalanadigan nutqning fikriy bo‘linishini va gapning qanday bo‘laklarga ajratilishini va u bo‘laklarning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatishdan iborat. [2]

1-sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida berilgan tinish belgilarini o‘rgatishga doir mashqlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning aksariyati dialogik ko‘rinishda berilgan matnlar ekanligiga
guvoh bo‘lamiz. Dialogik matnda ham darak, ham so‘roq, ham hishayajon ishtirok etgan gaplar mavjud bo‘lib, ulardan so‘ng tegishli tinish belgilari qo‘yilgan. Bunday mashqlar orqali o‘quvchilar har bir gap o‘z mazmuniga mos bo‘lgan tinish belgisini talab qilishini tushunib oladilar.

1-sinf alifbe darsligida berilgan matnlarni tahlil qilar ekanmiz yuqorida aytganimizdek, ushbu matnda darak, so‘roq gaplar ishtirok etgan.

[2]

Hozirgi kunda matnga e’tibor ancha kuchaygan. Hozirgi kunda maktab darsliklariga ham qoidadanda ko‘ra ko‘proq matn kiritilayotgani bejizga emas, albatta. Chunki matn fikrlashni o‘stiradigan eng yaxshi vositalardan biri hisoblanadi. Hamma jumla ham matn bo‘la oladimi, degan savol tug‘iladi. Yo‘q, har bir jumla ham matn bo‘la olmaydi, uning o‘ziga xos xususiyatlari va talablari mavjud. I.R.Galperin, frazadan katta butunlikning tarkibiy qismi bo‘lgan
gap bir paytning o‘zida yaxlit matnning ham tarkibiy qismi bo‘la olmasligini aytadi.

Hozirgi kunda matnga e’tibor ancha kuchaygan. Hozirgi kunda maktab darsliklariga ham qoidadanda ko‘ra ko‘proq matn kiritilayotgani bejizga emas, albatta. Chunki matn fikrlashni o‘stiradigan eng yaxshi vositalardan biri hisoblanadi. Hamma jumla ham matn bo‘la oladimi, degan savol tug‘iladi. Yo‘q, har bir jumla ham matn bo‘la olmaydi, uning o‘ziga xos xususiyatlari
va talablari mavjud. I.R.Galperin, frazadan katta butunlikning tarkibiy qismi bo‘lgan gap bir paytning o‘zida yaxlit matnning ham tarkibiy qismi bo‘la olmasligini aytadi.

Matndagi har bir so‘z o‘zining vazifasiga ega. So‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llash kontekstning tushunarliligini, ta’sirchanligini ta’minlaydi. Shuningdek, so‘zlarni, birikmalarni, butun nutqni o‘z qolipida o‘rniga joylashtirib turuvchi tinish belgilariga to‘g‘ri amal qilish til haqidagi bilimlarning boyligi va ular yordamida aniq matn tuza olish imkoniyati mavjudligini ifodalaydi.

“Tushunchalar tahlili” texnologiyasi orqali tinish belgilarni tushuntirishni misollar orqali ko‘rib chiqamiz

Tushunchalar	**Sizningcha, bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?**	**Qo‘shimcha ma’lumot**
1. Turg‘un ukam vrach bo‘ldi. 2. Turg‘un, ukam vrach bo‘ldi. 3. Turg‘un – ukam vrach bo‘ldi. 4. Turg‘un, ukam vrach bo‘ldi.	1-gapda Turg‘un bilan ukam o‘rtasida pauza yo‘q: Turg‘un – aniqlovchi, ukam – ega; 2-gapda Turg‘un bilan ukam sanash ohangi bilan aytiladi: uyushiq egalar; 3-gapda ukam gapga nisbatan sal tez va pasayuvchi ohang bilan aytiladi: ajratilgan bo‘lak; 4-gapda Turg‘un so‘zi murojaat ohangi bilan gapdan ajratilib, biroz pauza qilinadi: undalma.	Ohangning o‘zgarishi gapning mazmun va tuzilish jihatidan o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ladi: mazmun farqlaydi, gap qayta shakllanadi

Kreativ yondashgan holda turli xil topishmoqlar yoki boshqa metodlar
yordamida o‘quvchilarning bilimini mustahkamlab borish darkor.
Masalan:
Olmasang yarim nafas,
Yo‘ldan o‘tgani qo‘ymas.
(Vergul)

Xuddi o‘xshar mirza terakka, .
Yo‘lda doim turar tikka.
(Undov)
Tim qora kichkina xol,
To‘xtatar yo‘lda darhol.
[Nuqta]
Shakli o‘xshar o‘roqqa,
Doim tutar so‘roqqa.
(So‘roq)

Tinish belgilarini qay o‘rinda qo‘llash o‘quvchi, kitobxon, tahlilchi, matn tuzuvchi – ko‘pgina sohalar uchun muhim. Ularning yozma matnda qo‘llanish o‘rinlarini farqlash lozim. Bu, avvalo, qahramon nutqiga kira olish va shu orqali yozuvchi maqsadini anglay bilish; tinish belgilarining qay o‘rinda qaysi biri qo‘llanishi yuzasidan bilim va axborotga ega bo‘lish hamda uni qo‘llay bilish til haqidagi, ona tili haqidagi bilimlarning boyligini bildiradi. Tilning boyligi, umri uzoqligi shu tilda bitilgan yozma manbalarning qanchalik boyligi, kengligi va mustahkam saqlanishiga bog‘liq. Bunday yozma manbalarning har tomonlama o‘z me'yoriy talablariga moslangan holda yaratilishi ularning yaratilish vositalari o‘z o‘rnida, to‘g‘ri qo‘llanishida ham ko‘rinadi.

Adabiyotlar

1. K.Qosimova, S.Matchonov va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi darslik. Toshkent – 2009. – B. 350.
2.N.Mahmudov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, D.Andaniyozova. O‘zbek tili me’yorlari (Punktuatsiya) Toshkent: Zamin nashriyoti, 2021.
3. N.K.Azizova.Alifbe darsligi.Umumiy o‘rta maktablari uchun darslik. Toshkent, “ Novda Edutainment”, nashri, 2023.

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA INGLIZ TILINI KOGNITIV STRATEGIYALAR ASOSIDA O‘QITISHNING DOLZARB MASALARI (LISTENING VA READING MISOLIDA)

Qudratova S.O.
NavDPI pedagogika va uning tarixi (faoliyat turilari bo‘yicha) yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilida o‘qish va tinglashni o‘rgatish va o‘rganishda kognitiv strategiyalarni muhim rolini ko‘rib chiqadi**.**
Kalit so‘zlar: kognitiv , strategiya , tinglash, o‘qish, texnologiya, retseptiv, o‘quvchi,o‘qituvchi, ingliz tili

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ ПРОФИЛЬНЫХ ШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ (НА ПРИМЕРЕ СЛУШАНИЯ И ЧТЕНИЯ)

Аннотация. В этой статье рассматривается важная роль когнитивных стратегий в преподавании и изучении английского чтения и аудирования.
Ключевые слова: познавательный, стратегия, аудирование, чтение, технология, восприимчивый, студент, учитель, английский язык

ACTUAL ISSUES OF TEACHING ENGLISH TO SPECIALIZED SCHOOL STUDENTS BASED ON COGNITIVE STRATEGIES (IN THE EXAMPLE OF LISTENING AND READING)

Abstract: This article examines the important role of cognitive strategies in teaching and learning English reading and listening.
Key words:cognitive, strategy, listening, reading, technology, receptive, student, teacher, English language

Mamlakatimizda chet tillarga o‘qitishning kompleks tizimi, ya’ni uyg‘un kamol topgan, o‘qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo‘naltirilgan tizim yaratilmoqda. Ayniqsa ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda , zamonaviy texnologiyalarning hayotga tadbiq etilishida chet tillari ayniqsa ingliz tili kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son **qaroriga** muvofiq xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori 7-bandiga muvofiq xorijiy tillarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatining asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilangan.

- o‘quvchilarning asosiy til ko‘nikmalarini (tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish) rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, shu jumladan oliy ta’lim muassasalarining xorijiy tillar kafedralarini biriktirish orqali o‘quvchilarning xorijiy tillarni chuqur o‘rganishini tashkil etish;

- o‘quvchilarni xorijiy tillarga o‘qitish va ularning bilimlarini baholashning xalqaro tan olingan uslublarini joriy qilish, shu jumladan ta’lim jarayonida masofaviy va boshqa zamonaviy ta’lim shakllarini keng qo‘llash hamda boshqa fanlarni xorijiy tillarda o‘qitish;

-o‘quvchilarning kamida ikkita xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirishi orqali ularning dunyoqarashi kengayishi, salohiyati oshishi hamda mehnat bozorida raqobatbardoshligi oshirilishini ta’minlash;[1]

Shuningdek, shu qarorga muvofiq mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilib umumiy o‘rta ta’lim muassasalari hamda ularga biriktirilayotgan oliy ta’lim muassasalari ro‘yxati shakllantirildi.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda ingliz tilini chuqurlashtirib o‘rgatish uchun haftada berilgan dars soatlari ko‘paytirildi. O‘quvchilar ingliz tilni mukammal o‘rganishlari uchun yangi darsliklar joriy etildi hamda darsda turli xil metodika va texnologiyalardan foydalanilmoqda. Ta’limda bo‘layotgan o‘zgarishlarga, ingliz tilini o‘rgatish yoki o‘rganishda ko‘pgina kamchilik hamda muommolar borligi hech kimga sir emas. O‘quvchilarda listening(eshitish) hamda reading(o‘qish) qobilayatlarini oshirish o‘qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog‘liq. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o‘qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo‘ladi. Ingliz tilida listening(eshitish) hamda reading(o‘qish) o‘rgatishda o‘rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o‘rgatish yaxshi natija beradi. Qo‘shimcha qilib aytganda, listening(eshitish) hamda reading(o‘qish) ko‘nikmalarini shakllantirish degani o‘quvchilarni bilish darajasini aniqlashda emas balki, ularni shu ko‘nikmalarini oshirishni o‘rgatishiga xizmat qilishi kerak.

Ma’lumki, ingliz tilida gapirish va yozish ko‘nikmasiga qaraganda tinglash hamda o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ma’lum bir yo‘nalish hamda yo‘riqnomalari kerak bo‘ladi. O‘quvchilar tilni yaxshiroq tushunishlari uchun ma'lum o‘rganish usullaridan foydalanishni talab qilganligi sababli, kognitiv va metakognitiv strategiyalar o‘rganish jarayonini osonlashtirish orqali tilni egallashga yordam beradigan ajralmas vosita bo‘lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Angliyada o‘rta yoshdagi o‘quvchilari tinglash hamda o‘qishni ayniqsa boshlang‘ich bosqichdan tashqari, yaxshilash uchun eng qiyin ko‘nikmalardan biri sifatida qabul qilishadi . Til o‘rganishning oltinchi yilida bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida qayd etilgan muammolar orasida tushunishning yomon monitoringi , nutq segmentatsiyasi va nutq oqimidagi tanish lug‘atni tanib olishda tushunish muammolarini bartaraf etishga yordam berish uchun fon bilimlarini yomon qo‘llash kiradi.[2]

Kontekstida va retseptiv qobiliyatlar sifatida tinglash va o‘qish passiv qobiliyatlar hisoblanadi. O‘quvchilar tilni tinglash va o‘qish orqali qabul qiladilar, chunki ular ushbu ko‘nikmalarga ega bo‘lgan taqdirda tildan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ongli ravishda foydalanishlari shart emas. Tinglash va o‘qishning aql-idrok qobiliyatlari nutq va yozishning samarali qobiliyatlari bilan to‘ldiriladi. Tilni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar birinchi navbatda materialni retseptiv tushunish orqali idrok etadilar va keyinchalik ular ushbu tildan haqiqiy samarali foydalanish orqali o‘tadilar. Ma'lumotlariga ko‘ra, o‘quvchilar birinchi navbatda tilni tinglaydilar va yangi ma'lumotlarni o‘qiydilar va keyinchalik, to‘g‘ridan-to‘g‘ri nutq va yozishda foydalanadilar. Til o‘rganishdagi muammolar ko‘pincha o‘rganish strategiyalarini noto‘g‘ri va samarasiz qo‘llash natijasidir. Reseptiv va mahsuldor ko‘nikmalar bir-biri bilan uzliksiz munosabatda bo‘lib, biri ikkinchisisiz ishlay olmaydi va mahoratning bir qismiga urg‘u keskin ravishda ikkinchisida aks etadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, o‘qish ko‘nikmalariga urg‘u berish haqiqatan ham o‘quvchilarning yozish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shishi mumkin, agar butun o‘quv jarayoni faqat bitta ko‘nikmalar to‘plamiga qaratilgan bo‘lsa, ammo bu holda o‘quvchilarning retseptiv qobiliyati o‘qish va tinglash qobiliyatini rivojlantiradi lekin to‘g‘ri gapirish yoki yozish ko‘nikmalari rivojlanmasligi mumkin. Bu ixtisoslashtirilgan maktab sinflarida tez-tez uchraydigan holat bo‘lib, o‘qituvchi boshqa ko‘nikmalar to‘plamini butunlay e'tiborsiz qoldirib, bir ko‘nikma to‘plamiga ko‘proq yo‘naltirilgan strategiyalardan foydalanadi. Masalan, tinglash va o‘qishga e'tibor qaratish o‘quvchilarning tilni yuqori darajada tushunish qobiliyatiga olib keladi, lekin uni ishlab chiqarish ko‘nikmalariga ega emas.

Tadqiqotilarga ko‘ra, ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilari tilni juda yaxshi tushunish qobiliyatiga ega bo‘lib ko‘rinadi, lekin real hayotda gapirish yoki yozish uchun ingliz tilidan foydalanishga kelganda, ular vazifani bajara olmaydilar. Kognitiv strategiyalar ularning malakasini har tomonlama yaxshilashga yordam berishini isbotladi.[3]

O‘qish faqat sinf muhiti bilan cheklanmasligi kerak va o‘qituvchilar uyda bajarilishi kerak bo‘lgan o‘qish vazifalarini belgilashlari mumkin. O‘qish ko‘nikmasi o‘quvchining so‘z boyligini yaxshilashi mumkin bo‘lsa-da, katta matnlarni tarjima qilib o‘qish o‘quvchiga notanish so‘zlarni tez-tez uchratish imkonini beradi, bu esa uning tilni o‘zlashtirishiga yordam beradi. O‘qituvchilarni esa o‘quvchilarga taqdim etilgan matnga savol berishga va muayyan masalalar bo‘yicha munozaralar o‘tkazishga ruxsat berishga undaydi. Shunday qilib, ularning matnni tushunishi, so‘z boyligi bilan birga yaxshilanadi, muhokama va kognitiv jihat esa ularni bu haqda o‘ylashga va gapirishga undaydi. O‘qituvchi uchun o‘quvchilarning tinglash bilan bog‘liq muammolarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettiruvchi, tushunadigan muammolarni hal qilishning eng yaxshi usuli bu o‘quvchilar tomonidan taqdim etilgan o‘z kamchiliklari haqida hisobot berishidir. Ular o‘quvchilarga ingliz tilini tushunish bilan bog‘liq qiyinchiliklar haqida umumiy ma'lumot berishga imkon beradi. Bunday hisobotlar o‘quvchilarga kognitiv jarayonlarini tushunishga va audio yoki og‘zaki matnning qaysi tomonlarini tushuna olmaganligi haqida xolis gapirishga imkon beradi. Bundan tashqari, kamchiliklar hisobotlari kognitivdir, shuningdek, ma'lum bir yondashuvda nimani o‘zgartirish kerakligini aniq ko‘rsata oladigan kognitiv qiyinchiliklarni o‘z ichiga oladi . Shunday qilib, o‘qituvchi kognitiv strategiyalar shaklida retseptiv qobiliyatlarini yoki ishlab chiqarish ko‘nikmalarini ta'kidlash shaklida talabalarga tilni o‘zlashtirishda yordam beradigan turli strategiyalarni joriy qila oladi. O‘quvchilar to‘g‘ri strategiyalarni tanlay olishlari, mavjud resurslardan to‘g‘ri va samarali foydalana olishlari kerak. Bunga to‘g‘ri maqsadlarni belgilash, ingliz tilidagi materiallarni o‘qish, to‘g‘ri savollar berish va topshiriqlarni tahlil qilish orqali erishish mumkin. Bular o‘rganishdagi muhim qadamlardir

chunki, talabalar o‘zlari erishmoqchi bo‘lgan maqsadlarni qo‘yadilar va bu maqsadlarga qanday samarali erishishni rejalashtiradilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, kognitiv strategiyalar o‘rganish natijalarini o‘lchaganligi sababli ularni ta’limga tatbiq etish moslashtirish , talab etish mumkin. Qaysi metodologiya qo‘llanilishidan qat'i nazar, o‘rganuvchilarning tanqidiy fikrlashida, o‘qishida, qadrlash va ko‘proq ma'lumotlarni qabul qilishdagi muvaffaqiyatida kognitiv strategiyalardan samarali foydalanishning natijasi ko‘proq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son **qarori**

2.Charles R. Graham Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions- January-2006

3.Mohammed Al Sobaihi. Reading and Listening in English Language Learning: A Critical Study of Cognition and Metacognition. Research- March 2020 .

МЕТОДЫ И ПРИЁМЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА УРОКАХ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ

Хусниддинов Х Х., целевой доктрант НамГУ Узбекистан

Аннотация. Обоснована необходимость развития творческих способностей учащихся начальных классов на уроках читательской грамотности. Раскрыто содержание сочетания “ читательская грамотность”. Представлена характеристика процесса развития творческой способности у учащихся начальных классов с использованием наиболее эффективных методических приёмов. Предложен сравнительный анализ понятий “ творчество” и “ креативность”. На основе анализа научно-методических источников дан анализ понятия “ творческая способность”.

Ключевые слова: начальная ступень, система непрерывного образования, креативно, инициативно, творчески, мозаика, словесное развертывание образов произведения, театральная творческая деятельность. изобразительная творческая деятельность.

METHODS AND TECHNIQUES FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN THE LESSONS OF READING LITERACY

Annotation. The necessity of developing the creative abilities of primary school students in reading literacy lessons is substantiated. The content of the combination “reading literacy” is revealed. The characteristics of the process of development of creative ability in primary school students using the most effective methodological techniques are presented. A comparative analysis of the concepts “creativity” and “creativity” is proposed. Based on the analysis of scientific and methodological sources, an analysis of the concept of “creative ability” is given.

Keywords: initial stage, system of continuing education, creatively, proactively, creatively, mosaic, verbal deployment of images of the work, theatrical creative activity. visual creative activity.

ЎҚИШ САВОДХОНЛИГИ ДАРСЛАРИДА БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ

Аннотация. Ўқиш саводхонлиги дарсларида бошланғич синф ўқувчиларининг ижодий қобилиятларини ривожлантириш зарурлиги асосланади. "Ўқувчи саводхонлиги" комбинациясининг мазмуни очиб берилган. Енг самарали услубий методлардан фойдаланган ҳолда бошланғич синф ўқувчиларида ижодий қобилиятни ривожлантириш жараёнининг характеристикаси келтирилган. "Ижодкорлик" тушунчаларини қиёсий таҳлил қилиш таклиф етилади. Илмий ва услубий манбаларни таҳлил қилиш асосида "ижодий қобилият" тушунчаси таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: дастлабки босқич, узлуксиз таълим тизими, ижодий, фаол, ижодий, мозаик, асар тасвирларини оғзаки жойлаштириш, театрлаштирилган ижодий фаолият. визуал ижодий фаолият.

С 2022-2023 учебного года в связи с принятием «Национальной программы развития системы народного образования в 2022-2026 годах»[2] для начальных классов введен интегрированный предмет «Русский язык и читательская грамотность», составлен соответствующий учебник.

Читательская грамотность – это способность человека понимать, использовать, оценивать тексты, размышлять о них и заниматься чтением для того, чтобы достигать своих целей, расширять свои знания и возможности, участвовать в социальной жизни.

Уроки читательской грамотности предполагают в целях формирования креативности, критического мышления вовлечение всех школьников в творческую деятельность, причем не только читательскую. В зависимости от склонностей и задатков каждый младший школьник может проявить себя в творчестве по-разному: в качестве писателя, критика, художника-иллюстратора, чтеца, актера. Поскольку творческая деятельность предполагает наличие у детей литературно-творческих умений, необходима специальная и целенаправленная система упражнений и заданий, которая позволила шаг за шагом формировать умение выполнять творческие задания.

Развитие творческих способностей учащихся, начиная с младшего школьного возраста, является одной из важнейших проблем системы непрерывного образования. Особую актуальность данная проблема приобретает в последние десятилетия в связи с широкомасштабным реформированием всех сфер жизни в

стране. Изменения, происходящие в жизни общества, связанные со сменой экономического строя, новыми рыночными отношениями, ориентируют систему образования на подготовку подрастающего поколения, креативного, способного к критическому мышлению, активной коммуникации в быстро меняющемся, динамичном мире. В связи с изменениями в социальной жизни, меняется содержание и структура системы образования. Согласно новой образовательной парадигме, перед непрерывной системой образования Узбекистана во главу угла поставлена задача развития творческой активности учащегося, формирования у них умения самостоятельно приобретать и применять знания [1]. В этой связи в настоящее время внимание педагогов акцентируется на поиске и реализации эффективных путей развития творческих способностей учащегося.

Творчество определяется как деятельность человека, которая создает новые материальные и духовные ценности, обладающие новизной и общественной значимостью, то есть в результате творчества создается что-то новое, до этого еще не существующего. Понятию «творчество» можно дать и более широкое определение. Философы определяют творчество, как необходимое условие развития материи, образования ее новых форм, вместе с возникновением, которых меняются и сами формы творчества [3].

В педагогике и психологии термин «творчество» изучается в контексте понятия «творческая деятельность». Уникальная творческая деятельность является специфической формой взаимодействия, а в качестве критерия творчества выступает механизм развития. Исходя из этого определения, механизмом развития творческих способностей детей является организация специфических форм взаимодействия ребенка с взрослым в процессе различных видов деятельности [4].

В зависимости от вида творческой деятельности можно выделить 3 группы методов и приемов, которые нацелены на стимулирование творческой активности младших школьников и развитие творческих способностей на уроках литературного чтения:

- Словесное развертывание образов произведения.
- Театральная творческая деятельность.
- Изобразительная творческая деятельность.

Словесное развертывание образов произведения на уроках читательской грамотности. Целью данного метода является активизация художественного восприятия, как в начале изучения произведения, так и после анализа. Созданные фантазией во время чтения образы, являются результатом творческой активности читателя и стимулируют словесное творчество. Оно может быть представлено высказыванием впечатлений о прочитанном, воспоминаниями о подобном случае из своей жизни, придумыванием продолжения, словесным рисованием картин, творческим пересказом.

Творческое чтение – основа формирования высокого художественного вкуса и им движет любознательность. Методические приемы, обеспечивающие реализацию метода творческого чтения: выразительное чтение, комментиро-ванное чтение, творческие задания, постановка на уроке учебной проблемы. Вопросу развития выразительного чтения придаётся огромное значение, т.к. выразительность, основанная на вдумчивом анализе текста, содействует глубокому пониманию произведения, эпизода, фразы, а также способствует развитию творческого чтения. Главное средство речевой выразительности – интонация. При чтении художественного произведения интонация возникает после осмысления текста, понимания замысла и намерения автора, осознанного отношения к героям, их поступкам и событиям. Вот некоторые задания:

- Передай в тексте радость, возмущение, гордость, печаль;
- Прочитай отрывок, передавая голосом страх, удивление, огорчение;
- Прочитай предложение с разной интонацией.

Ребята с удовольствием работают, пробуют различные интонационные окраски и выбирают для себя именно ту, которая им ближе по смыслу или которую легче удается передать. Таким образом, одно и то же произведение каждый ученик читает с разным чувством, присущим только его сегодняшнему настроению или желанию познакомить товарищей со своей интонационной находкой.

Можно провести конкурс «Кто с большим количеством оттенков интонаций сможет прочитать одно и то же слово (фразу)» или игру «Не дам!». Прошу детей пофантазировать и сказать: «Дай мне игрушку», как это могли бы сказать дождик, гром, птичка. Затем ответить: «Не дам!», голосами тех же персонажей. Выразительное чтение самих детей (наизусть или по книге) – это своеобразный отчет учителю, классу, себе самому о своем понимании текста, его интерпретация, практически выполняемая ребенком не только для себя, но и других. Такую работу можно проводить в виде конкурса чтецов. Эффективным для понимания и нахождения художественных средств является такой прием, когда мы не заменяем слово, а «включаем» воображение: «Дождь барабанил по крыше» - как ты это представляешь?.

Для воспитания внимания к слову я предлагаю детям составить кроссворд по прочитанному произведению или использую готовые кроссворды.

Прием «Мозаика»

Класс делится на пары и каждой паре предлагается задать вопросы по заданному отрывку текста. С первых уроков чтения я применяю много стихотворного материала: загадки, стихи о буквах, рифмовки, подборки стихотворных диалогов, разной степени сложности, скороговорки. В младшем школьном возрасте дети проявляют большой интерес к стихосложению. Но прежде, чем самому начать рифмовать, надо уметь

читать стихи, наблюдать за их построением, художественными особенностями, научиться видеть изобразительные средства (сравнения, эпитеты, метафоры, олицетворения), помогающие понять чувства и переживания. При помощи специальных упражнений учащиеся учатся рифмовать слова, складывать рифмованные строчки.

«Конкурс одной строки» Дана первая строка стихотворения, придумываем окончание и определяем самый удачный вариант.

Для развития творческих способностей детей можно использовать методический прием - интерпретация сказки. Интерпретируя произведение, каждый ученик имеет возможность творчески проявить себя, выступая в новой роли.

Приведем примеры некоторых заданий такого характера.

Расскажи сюжет известной сказки от имени персонажей или предметов – «участников событий».

«Что было дальше?» - закончить сюжет произведения.

Включение в сюжет сказки дополнительных персонажей.

Сочинительство сказок – это один из эффективных приемов для развития творческих способностей детей, способствует самовыражению младшего школьника. Работа по творческой переработке ведется на протяжении изучения сказок

1. Решать «сказочные задачи», не изменяя или минимально изменяя сюжет сказки:

- Что надо сделать, чтобы Иванушка напился, но козленочком не стал?
- Как сделать так, чтобы яичко курочки Рябы не разбилось?
- Что нужно сделать бабушке Красной шапочки, чтобы ее не съел волк?

2. «Выворачивание сказки наизнанку»

Это задание помогает детям не только составлять пародию на знакомое произведение, но и дает возможность развить его в любом направлении.

- Составь сказку, используя сказочные слова и выражения этой сказки, где:

Белоснежка встретила в лесу семь великанов.

Волк хотел съесть козлят, но они захватили его в плен.

3. Сочинение сказки по началу или по концу.

Дети уже имеют героев сказки, начало или конец какой-то истории, им только нужно придумать продолжение. Например, сказка по аналогии, сказка и музыка, сказка по начальной фразе, дописывание сказок. Например, Х.К.Андерсен «Принцесса на горошине» придумать историю жизни одной из горошинок. При сочинении возможно использование юмора. Он стимулирует интерес и является эффективным средством для снятия напряжения, тревоги.

4. Создание собственной оригинальной сказки. Самый трудный вид работы. Все детям нужно придумать самим и название, и героев, и сюжет.

5. Прием «Свободное выступление» Представьте себе, что на сказочную конференцию по правам сказочных героев собрались персонажи любимых сказок. Каждый из них выходит к трибуне и говорит…(Нужно выступить от имени сказочного героя любимой сказки). Опыт творческой деятельности младшие школьники получают не только в процессе чтения и анализа художественного произведения, но и в ходе создания собственных текстов. Это могут быть не только сказки, но и рассказы. Начиная с 1 класса, дети учатся составлять рассказы по аналогии с прочитанным художественным произведением.

Приемы создания собственных текстов:

Прием «Напишите письмо». Учащимся нужно написать кому-либо письмо от имени героя произведения, это позволяет поставить себя на место другого, соотнести его мысли и чувства со своими.

Прием «Пишем сказку на новый лад». Ребята получают листочки бумаги, на которых обозначены персонажи любимых сказок, но при этом включены слова из нашего современного языка. Колобок, бабушка, дедушка, волк, лиса, медведь, велосипед, соревнования. Ребята должны написать сказку, используя предложенные слова, на современный лад. Время написания сказки 7 минут. Группа разыгрывает сказку по ролям.

Театральная творческая деятельность на уроках литературного чтения

Игра-драматизация. Чтобы максимально задействовать творческий потенциал учащихся, развивать интерес к художественному слову, использую прием драматизации. Во время драматизации каждый ученик, создавая неповторимый образ того или иного героя, проявляет творчество, т.к. по-своему выражает замысел автора

Работа с иллюстрацией. Работу иллюстративного характера в начальных классах следует начинать с анализа книжных иллюстраций, картин. Уже на уроках обучения грамоте начинаю работу над иллюстрациями, обращаю внимание детей на мимику, позы изображенных на рисунках персонажей. Приобщение детей к чтению произведений с опорой на иллюстративный материал книг способствует воспитанию, развивает ум, воображение, эстетический вкус.

Креативная игра-драматизация способствует приобретению детьми навыков активного и творческого коллективного взаимодействия. В отличие от традиционной игры-драматизации, где заучиваются роли и разыгрываются сцены по определенному сценарию, креативная игра-драматизация дает простор творчеству детей и свободу самовыражения.

Задания:

Изобразить девочку, потерявшую куклу. Она ищет повсюду, но никак не может найти и спрашивает у детей: «Кто-нибудь видел мой бантик?».

Изобразить зайчика, который радуется, когда мальчик дарит ему морковку и говорит «спасибо».

Изобразить кошку и собаку, которые злятся друг на друга.

Изобразить маленькую мышку, испуганную кошкой. Она услышала грозное «мяу!» и не может найти укромное местечко, чтобы спрятаться. Ты превратился в героя сказки: изобрази его голос, манеры.

Инсценирование произведения

Инсценируя, дети изображают героев с помощью интонации, мимики, позы, жеста. Я применяю общую схему работы по инсценированию:

Восприятие материала, который предстоит инсценировать.

Анализ произведения (обстановка, образ героев и их поступков).

Постановка исполнительских задач: Что нужно передать, разыгрывая сценку? Выбор выразительных средств (как это сделать).Пробы (этюды), анализ.Подведение итогов, его анализ.Заключительный показ, его анализ.

Более сложная форма драматизации – чтение по ролям, сопровождаемое анализом эмоционального состояния и качеств характера героев, интонации.

Одним из важных этапов работы на уроке читательской грамотности является отработка мимики, жестов, движений. Достичь успеха здесь помогает используемая пантомима, в которой ребенок раскрывает свои чувства и понимание образа, испытывая при этом только положительные эмоции

Изобразительная творческая деятельность на уроках литературного чтения

Изобразительная творческая деятельность подразумевает приемы:рисование эпизода, который больше понравился;рисование заданного эпизода, персонажа, серии рисунков; изображение настроения эпизода, произведения или персонажа; составление рисованного диафильма; аппликацию, лепку, изготовление макета книги, рассматривание и обсуждение иллюстраций художников; составление картинного плана.

В работе над произведением я использую рисование по мотивам прочитанных произведений. В рисунке проявляются свободные ассоциации. Через цвет ребенку легче передать свое отношение к героям, к происходящему событию. Так собирается книга-самоделка. Иллюстрирование одного из эпизодов – это эмоциональный отклик детей, отражающий понимание ими содержания текста и личностное отношение к прочитанному.

Литература

1. Постановление № ПФ-5712 от 29 апреля 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года»
2. Указ Президента Республики Узбекистан УП – 134 «Об утверждении национальной программы по развитию народного образования в 2022 — 2026 годах».
3. Выготский Л.С. Мышление и речь: сборник. – М.: АСТ; Астрель, 2011. – 637

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ КЛАССНОГО ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Бобоёрова Мухлиса студентка НавГПИ.
Алимова Шахноза Шукуровна
Научный руководитель д.ф.п.п.н.(PhD).Навои,Узбекистан

Аннотаци: В статье подробно рассказывается о процессе работы над произведением и упражнениями для развития навыков чтения. Описываются различные методы работы с текстом, подчеркивается важность активного вовлечения учеников в процесс чтения.

Ключевые слова: чтение; зрительный диктант; навыки чтения; техника чтения; выразительное чтение; словарная работа.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISHNI TASHKIL ETISHNING SAMARALI METODLARI

Annotatsiya: Maqolada asar ustida ishlash jarayoni va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mashqlar batafsil tavsiflangan. Matn bilan ishlashning turli usullari bayon qilinib, o‘quvchilarni o‘qish jarayoniga faol jalb etish muhimligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: o‘qish; vizual diktant; o‘qish qobiliyati; o‘qish texnikasi; ifodali o‘qish; lug‘at ishi.

EFFECTIVE CLASSROOM READING TECHNIQUES IN THE PRIMARY GRADES

Annotation: The article describes in detail the process of working on a work and exercises for developing reading skills. Various methods of working with text are described, and the importance of actively involving students in the reading process is emphasized.

Key words: reading; visual dictation; reading skills; reading technique; expressive reading; vocabulary work.

«Человек перестаёт думать, когда перестаёт читать.»
Д.Дидро

Задача начального образования – научить детей правильному чтению. Такая задача актуальна, так как чтение играет большую роль в образовании и развитии человека. В.А. Сухомлинский писал: «Чтение – это окошко, через которое дети видят и познают мир и самих себя. Оно открывается перед ребенком лишь тогда,

когда наряду с чтением, одновременно с ним и даже раньше, чем впервые раскрыта книга, начинается кропотливая работа над словом.

Чтение – это непростая работа, в которой выделяют процесс перекодировки письменной речи в звучащую речь и понимание смысла прочитанного текста. С первых школьных шагов ребёнка, с периода обучения грамоте принципиально важно привить любовь к чтению младшему школьнику, заинтересовать изучаемым предметом, чтобы в дальнейшем формировать прочный навык чтения. Без овладения механизмом чтения, понимание смысла прочитанного невозможно, поэтому техническое чтение это всего лишь озвучивание текста, в то время как смысловое чтение предполагает прежде всего построение собственных мыслей и понимания на основе прочитанного.

На сегодняшний день в современной школьной практике зачастую наблюдается большая работа по развитию технического навыка чтения при полном пренебрежении формирования навыка чтения.

Если ребёнок не любит читать, то это значит, что у него при чтении возникают трудности. Ему трудно читать, поэтому он не любит читать. Режим щадящего чтения - это такой режим, когда ребёнок прочитывает 2-3 строчки и после этого получает кратковременный отдых. Такой режим имеет место при просматривании диафильмов. Обратим внимание на то, что в диафильме почти 40 кадров, это 80-120 строчек. И далеко не каждому ребёнку по силам прочитать за вечер такой объём. Полезно читать поочерёдно: несколько кадров читает ребёнок, потом подключаются родители. Хорошо просмотр диафильмов проводить перед сном.

Для формирования прочного навыка чтения необходимо развитие оперативной памяти. Можно наблюдать такую картину. Ребёнок читает предложение, состоящее из 6-8 слов. Дочитав его до 3-4 слова, забывает первое. Поэтому он не может уловить смысл предложения, не может увязать все слова воедино.

В каждом диктанте имеется 6 предложений. Особенность этих предложений такова: если первое предложение «Тает снег.» содержит всего два слова - 8 букв, то последнее предложение диктанта состоит уже из 48 букв. Наращивание длины предложения происходит постепенно по 1-2 буквы. Этот процесс обучения может длиться до 2 месяцев. Таким образом, за это время оперативная память ребёнка развивается настолько, что он может уже запоминать предложения из 46 букв, т. е. из 8-9 слов. Теперь школьник легко усваивает смысл предложения. Читать ему становится интересно, а поэтому и процесс обучения чтению идёт гораздо быстрее.

Также желательно применять проведения зрительных диктантов для развития оперативной памяти. Такой вид работы необходимо проводить ежедневно. Если проводить их через день, то такая тренировка почти не развивает память. Обычно уже через месяц тренировочной работы появляются первые успехи.

Не менее важны коллективные комплексные упражнения: многократное чтение, чтение в темпе скороговорки, выразительное чтение с переходом на незнакомую часть текста. Все три упражнения проводятся коллективно, то есть читают одновременно все ученики вполголоса.

Многократное чтение проводится таким образом. Учитель устанавливает для всех детей одинаковый промежуток времени. После того, как начало нового рассказа прочитано учителем и осознанно детьми, им предлагается начать чтение и продолжать его в течение 1 минуты. По истечению минуты каждый из учеников замечает, до какого слова он успел прочитать. Затем следует повторное чтение этого же отрывка. При этом ученик снова замечает, до какого слова успел дойти и сравнивает с первым результатом. Естественно, что во второй раз он прочитал на несколько слов больше, увеличение темпа чтения вызывает у школьников положительные эмоции, им хочется читать ещё раз.

Для того, чтобы рассмотренные упражнения способствовали формированию прочных навыков чтения, необходимо:

а) давать целевую установку; верить в возможность достижения высокой скорости осмысленного чтения и поэтому убедить учеников и их родителей в необходимости тренажа;

б) регулярно проводить замеры скорости, которые позволяют ученикам следить за своими успехами;

в) проводить консультации для воспитателей отстающих учеников;

г) зрительные диктанты проводить ежедневно.

Больное место на уроках чтения - это невыразительное монотонное «бубнение» вместо выразительного чтения. Очень часто ребята допускают ошибки в произношении (дикция и орфоэпия); не соблюдают остановок на точках; делают ненужные остановки; читают монотонно - на одной ноте; не реагируют на такие знаки препинания, как тире, двоеточие, точка с запятой, кавычки.

Поэтому на каждом уроке должен звучать образец учительского чтения. При необходимости можно сделать в учебнике пометки карандашом, отмечая паузы, слова, требующие логического ударения, и т. д.

Основной приём обучения - не только выразительное чтение учителя, но и поиск ребёнком вариантов правильного, выразительного прочтения монолога, диалога, передачи чувств, настроений, состояний героев.

Чтобы формировать навыки чтения у школьника, необходимы задания, направленные на отработку техники выразительности и осмысленности чтения.

Упражнения для развития техники чтения:

- упражнение «Догонялки» (учитель или быстро читающий ученик читает вслух, остальные шёпотом стараются его обогнать, можно ведущему замолчать и читать про себя, через некоторое время опять начать читать вслух, свериться с детьми, кто обогнал, кто отстал);

- упражнение «Наступи на пятку» (чтение в паре либо учитель - класс через слово в быстром темпе);

- чтение в парах или группах по одному предложению (чья пара (группа) быстрее закончит чтение; чтение в паре тренирует умение распределять внимание и положительно влияет на улучшение качества чтения слабых учащихся);

- чтение в паре с линейкой (быстро читающий ученик закрывает линейкой прочитанную строчку, его сосед старается за ним успеть прочитать);

- динамическое чтение (на доске или карточке записан столбик из 5-7 слов с постепенным увеличением количества букв в словах);

- бинарное чтение (один текст читают два ученика одновременно);

- упражнение «Очередь» (сначала читает учитель, затем ученики читают тот же самый текст);

- упражнение «Буксир»:

а) учитель читает вслух, изменяя скорость чтения; ученики читают вслух, стараясь успеть за учителем;

б) учитель читает вслух, дети про себя; учитель останавливается, ученики показывают слово, где остановился учитель;

- упражнение «Ловушка» (учитель или хорошо читающий ученик читает знакомый текст и заменяет некоторые слова синонимами; ученики ищут замену);

- упражнение «Прыжки» (чтение через слово);

- упражнение «Голова и хвост» (учитель или ученик начинает читать предложение, дети быстро находят его и дочитывают все вместе);

- упражнение «Первый и последний» (чтение первой и последней буквы в слове; первого или последнего слова в предложении);

- упражнение «Прятки» (нахождение в тексте слова с определённым признаком: начинается на букву а, состоит из двух слогов, с ударением в конце слова и др.);

- круговое чтение (небольшой текст читают друг за другом несколько раз);

- упражнение «Кто быстрее?» (на доске написано предложение, на столе рассыпаны тексты; по сигналу учителя ученики ищут в текстах данное предложение);

- упражнение «Фотоглаз»:

а) на доске столбик слов, которые ученики читают определённое время; слова закрываются, дети по памяти называют прочитанные слова;

б) учитель показывает кадр диафильма, ученики должны воспроизвести подпись кадру;

- упражнение «Угадай»:

а) антиципация слов, предложений, пословиц;

б) чтение текста через решётку;

- упражнение «Найди меня» (на листах написаны строчки букв, между буквами «спрятаны» целые слова, их нужно найти);

- упражнение «Счёт слов» (на максимальной скорости дети читают текст и одновременно считают слова; перед чтением ученикам задаётся вопрос, на который они должны ответить после окончания работы);

- упражнение «Сканирование» (за 20-30 секунд ученики «пробегают» глазами текст в поисках важной информации)

А так же не менее важную роль для формирования навыков чтения играет словарная работа. Словарная работа - вид деятельности, который обязательно присутствует на уроке чтения. В структуре урока словарная работа имеет место или на подготовительном этапе, пли на этапе анализа произведения. Учителю важно, во-первых, знать, из каких элементов складывается словарная работа, и, во-вторых, уметь отбирать слова для каждого названного этапа урока, компоненты словарной работы таковы:

- лексическая работа;
- работа по предупреждению ошибочного чтения;
- работа над изобразительно-выразительными средствами;
- орфографическая работа (имеет место на уроке русского языка).

Таким образом, обучение чтению осуществляется в теснейшем взаимодействии с видами речевой деятельности: говорением, слушанием и письмом. Обучение непосредственному чтению ставят своей задачей овладения детьми ведущими видами чтения: изучающего, ознакомительного, просмотрового и реферативного.

При обучении чтению каждый учитель должен работать над навыками (правильностью, беглостью, сознательностью, выразительностью) и техникой чтения, применять различные виды работ, методы (эмоционально-понятийный метод, объяснительное чтение, чтение - рассматривание, метод творческого чтения, воспитательное чтение) и приемы обучения чтению.

Умение читать предполагает овладение техникой чтения, т.е. правильным озвучиванием текста, записанного в определенной графической системе, и умением осмыслить прочитанное. Наиболее существенными чертами зрелого чтения являются следующие: высокая скорость чтения (про себя), что обусловлено автоматизмом

обработки воспринимаемого печатного материала, гибкость чтения, т.е. умение читать с разной скоростью в зависимости от речевой ситуации.

Высокая скорость и гибкость чтения является базой (основой) многих других умений, необходимых для осуществления процесса чтения. Это такие умения, как умение сосредоточить внимание на определенных вопросах содержания; предвидеть в процессе чтения то, что будет сказано дальше; определять ключевые места текста; вычислять основную мысль высказывания; отличать существенное от несущественного воспринимаемой информации; определять логику, структуру высказывания; делать выводы и формулировать их своими словами; критически оценивать полученную информацию, реагировать на нее и использовать ее в соответствующих жизненных ситуациях.

Список литературы

1. Блок, А.А. "Методика классного чтения", стр. 12-25
2. Иванова, Н.Н. "Процесс работы над художественным произведением", стр. 35-42
3. Петров, В.В. "Особенности анализа текста в методике классного чтения", стр. 50-65
4. Сидорова, Е.Е. "Развитие эстетического восприятия учащихся через работу с художественным произведением", стр. 78-85
5. Колесникова О.И. Филологические основы работы над произведением на уроках литературного чтения // Начальная школа. - 2000 №11. С. 6-13.
6. Львов М.Р., Рамзаева Т.Г., Светловская Н.Н. Методика обучения русскому языку в начальных классах, - М., Просвещение, 2001. - 239 с.
7. Львов М.Р. Речь младших школьников и пути ее развития: Пособие для учителя. М.: Просвещение, 2000.- 274 с.

ABDULLA QODIRIY HAJVIYALARIDA -CHI AFFIKSI BILAN YASALAGAN SO‘ZLAR TAHLILI

Jahonova Asila Alisher qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti 4-kurs talabasi
Pardayeva Madixabonu Xakimovna
Navoiy davlat pedagogika instituti, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi,f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda o‘zbek tilini rivojlantirish atamalarni o‘zbekchalashtirish masalasi muhim bo‘lib turganda shaxs oti yasovchi, o‘rin-joy oti yasovchi qo‘shimchalar ustida maxsus tadqiqotlar olib borilayotgani hamda Abdulla Qodiriy hajviyalarida -chi affiksi bilan yasalagan so‘zlarning ko‘p uchrashi misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar:affiks, atama, morfologik, qo‘shimchalar,faol, sinonim,birikma,matn, uslub,grammatik

АНАЛИЗ СЛОВ, ОБРАЗОВАННЫХ С СУФФИКСОМ -CHI, В КОМИКСАХ АБДУЛЛЫ КАДИРИ

Аннотация.В статье, несмотря на актуальность развития узбекского языка в наши дни, важна узбекизация терминов, проводимые специальные исследования личных существительных и локативных существительных, а также слов, образованных с суффиксом -chi в комиксах Абдуллы Кадыри.

Ключевые слова: суффикс, термин, морфологический, активный, синоним, сочетание, текст, стиль, грамматика.

ANALYSISOFWORDS FORMED WITH THE AFFIX -CHI IN ABDULLAH QADIRI'S COMICS

Abstract. In the article, while the development of the Uzbek language is important today, the Uzbekization of terms is important, special research is being carried out on personal nouns and locative nouns, and words formed with the suffix -chi in Abdulla Qadiri's comics. Many occurrences of z are analyzed on the basis of examples.

Key words: affix, term, morphological, adverbs, active, synonym, combination, text, style, grammar

O‘zbek tilida grammatik ma’noni ifodalovchi lisoniy birliklar forscha va arabcha bilan aralash qo‘llaniladi. Bugun milliy tilning mavqeyini oshirish zarur bo‘lib turgan bir davrda o‘zbek tili tabiatiga mos bo‘lgan morfologik vositalarni tanlash va muomalaga kiritish lozim.Eng ko‘p qo‘llaniladigan fe’lning grammatik ma’nolarini ifodalovchi birliklar, xususan, vazifadosh shakllarning o‘ziga xos ifoda imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish bugun grammatik vositalarda ko‘p uchrayotgan omonimlikni qisman bartaraf qilish imkonini beradi. Buning natijasida korpus lingivistikasidagi affikslar omonimligi bilan bog‘liq muammolar ma’lum ma’noda yengillashadi.

Abdulla Qodiriy hajviyalarida -chi affiksi bilan yasalagan so‘zlar ko‘p uchraydi. *Ammo bugungi kunda qo‘llanilmaydiganlari ham bor: / Bir vaqtlarda atoqli bir lo‘ttichi turli lo‘ttilar (fo‘kslarni) ko‘rsatar edi. Ayniqsa, aning chigildak bir qog‘ozni og‘zig‘a solub, hech bir poyonsiz uzun qilub og‘zidan chiqaruvi bizni hayron qoldirar erdi. Lo‘ttiboz yo‘q kunlarda aning o‘rnig‘a lo‘tgichilik qilaturg‘an bir majnun bor edi:*

Bugungi kunda o‘zbek tilini rivojlantirish atamalarni o‘zbekchalashtirish masalasi muhim bo‘lib turganda shaxs oti yasovchi, o‘rin-joy oti yasovchi qo‘shimchalar ustida maxsus tadqiqotlar olib borilishi kerak. Quyidagi matnda qo‘llangan so‘zlardan - chi affiksi orqali yasalgani o‘zbek tili tabiatiga mos keladi: */– Kishilar-kishilar, potino-potino! Chunki lo‘ttiboz xalqni yig‘moqchi bo‘lg‘anda “Potino” degan bir ashula aytar edi. Xalq majnunning atrofig‘a quruq bir mazax uchun yig‘ilg‘anda majnun yana bir marta “Potino”sini aytub olg‘ach, cho‘nchagidan bir changal qog‘oz chiqarub, xalqg‘a ko‘rsatub chiqar edi. (Lo‘ttichi og‘zig‘a solaturg‘an chigildak qog‘ozni yalmalkan ekanlig‘in xalqdan tasdiq ettirar va og‘zini ham ochub, boshqa qog‘oz yo‘qliqni ko‘rsatar edi). /(A.Q.Tanlangan*

asarlar, 556.) Ajratib koʻrsatilgan soʻzlardan aynan “loʻttichi” oʻzbek tili tabiatiga mos tarzda yasalagan. Uning sinonimi sifatida “loʻttiboz” ham aralash qoʻllanilganini koʻrish mumkin. “-boz” fors-tojikcha affiks boʻlib bugungi kunda juda koʻplab oʻzbekcha shaxs otlarini hosil qilishda ishtirok etmoqda. Aslida -chi affiksi faolroq qoʻllanilish kerak, bizningcha.

Quyidagi matnda ham ajratib koʻrsatilgan soʻzlar morfologik jihatdan oʻzgarishga uchragan: *Majnun kulunch bir holda xalqgʻa ogʻzini a… a…. qilub ochub kuldirgach, boyagʻi bir changal qogʻozni ogʻzigʻa solub qiziq bir vaziyat ila yalmiy boshlar va bir qancha vaqt chaynab qogʻozni yutub yana “Potino-potino”sini aytub, qogʻozni loʻmbozdek qilub olur va hunarini xalqgʻa gʻururlanub koʻrsatub chiqar edi. Majnunning bu ishi – loʻttibozligidan ham xalqqa ortiq kulgi berar, hammamiz bu vaqt kula-kula oʻlar edik.[1]*Ayrim oʻzbekcha affiks bilan yasalgan soʻzlar bugungi kunda ham faol qoʻllanmoqda: *“Ishchi”ning kichkina fileto‘ni bo‘lg‘an “Osti-ustiga”si bosilub chiqdi, bunisi “Kichkina fileto‘n”i emish. “Osti-ustiga”si emish “Yaram-yaram bog‘i” emish. Eski shahardagi inqilob shunga o‘xshar emish. Kelishmagan qiliq o‘lsun deymi? Buni o‘qub: Kula-kula o‘lasan!.. qiliq* soʻzi sof oʻzbekcha soʻz boʻlib uni pedagogikada ham termin sifatida bemalol qoʻllash mumkin.

Morfologik usulda soʻz yasalishiga asarda koʻplab misollar keltirish mumkin:

1. *“Har bir asarning boshinda bir-ikki so‘z yozub qog‘ozni bemaza qilub yurgandan ko‘ra, bir-ikki so‘zlarni hammasini birga yig‘ub “Noshirdan bir-ikki so‘z” isminda bir narsa yozub nashr etsa, kitobning boshig‘a yozg‘anig‘a qarag‘anda G‘ozi Yunus ismini chiqarishg‘a qulayroq, ham bir asar maydonga kelgan bo‘lmasmi?”, – degan edi.*

2. Eski shahar sho‘basining vakillig‘ig‘a mashhur eslikli yoshlardan G‘ulom Zafariy ta’yin etilgan. Rivoyatlarga qarag‘anda, Toshkandda bu o‘run uchun o‘zindan boshqa eslik kishi topolmag‘ach, G‘ulom Zafariy o‘zini ta’yin etdirgan. Bu o‘rtoq shu kundan boshlab o‘z atrofiga eslikli yosh o‘smirlarni yig‘a boshladi, deylar… Tag‘i: Kula-kula o‘lasan!..[2]

Yuqorida yettita kontekstda ajratib koʻrsatilgan soʻzlar oʻzbek tili tabiatiga mos holda yasalgan. Bugungi kunda ham xuddi shunday oʻz qatlamga doir soʻzlarni hosil qilish lozim. Bu borada *-li va -lik* affikslari ham ot va sifat yasashda faol ishtrok etuvchi qoʻshimchalar hisoblanadi.

Hozirgi oʻzbek tilida *-li va -lik* affikslari sifat va ot yasashdan tashqari yana boshqa vazifaga ham ega. -li affiksi sifat yasovchi eng unumli affiks ekani ma’lum: zavqli, ibratli, yogʻla, koʻngilli, odobli... Shuningdek, u ot birikmalarni sifatlovchi birikmalarga aylantirish vazifasida ham juda keng qoʻllanadi*: Bu rastada ming xil kiyimli olomon yo‘q. Yaqinda kolxozlarga o‘rta, oliy ma’lo‘motli agronomlar, zootexniklar, irrigatorlar, mexanizatorlar rahbarlik qiladi. Usti brezent yopqichli mashina yonidan yer o‘lchaydigan apparatning oyog‘i chiqib turibdi.* Bu misollarda ham -li affiksi “ega”, “bor” degan ma’no ifodalaydi. Lekin yangi soʻz ham, soʻzning formasini ham yasayotgani yoʻq, ot birikmaga qoʻshilib, shu birikmalarni sifatlovchi (belgi koʻrsatuvchi) birikmaga aylantiryapti. Bunda birikma komponentlari leksik mustaqilligini saqlaydi, shuningdek, ular oʻrtasidagi sintaktik aloqa ham saqlanadi: *katta oynali.*

Hozirgi oʻzbek tilida -lik ot yasovchi koʻp ma’noli affiks: yaxshilik, shaharlik, qumlik, tezlik. Bundan tashqari u gapga teng konstruktsiyalarga qoʻshilib, uni gapning biror boʻlagi funktsiyasidagi konstruktsiyaga aylantiradi - *bir-ikki kundan keyin Yozyovon masalasida katta yig‘in bo‘lishi kerakligini angladi. Vaqti tig‘izligidan avvalgi safar singlisinikiga yo‘lni yaqinroqdan solgan, qamoqxona orqasidagi ko‘chadan yurmagandi*. Bu misollarda -lik affiksi qoʻshilgan “katta yigʻin boʻlishi kerak”, “vaqt tigʻiz” gapga teng konstruktsiyalar. -lik affiksining qoʻshilishi natijasida ular turli kelishik formasida qoʻllanib, gap boʻlagi vazifasida kelish imkoniga ega boʻlyapti. -lik affiksi bunda biror ma’no ifodalamaydi, balki faqat gapga teng konstruktsiyani gapning biror boʻlagi vazifasida kelishga hozirlash vazifasini bajaradi.[3]

-li va -lik qoʻshimchalarining asarda qoʻllanilishi boʻyicha bir xillik mavjud emas. Qolaversa, -lik va -liq shakllari ham aralash qoʻllanib kelmoqda:

Ishonchliq manbalardan oling‘an xabarlarga qarag‘anda, bu dahshatlik fojiani o‘z foydalari bilan bitirmak uchun har ikki tomon o‘z vakillarini duogo‘y Nazir maxzum uzlatxonasiga kirgizib, nazir berib, xolisona duolar olg‘an ekanlar. Birinchidan, Nazir maxzumning ko‘nglining yumshoqlig‘i, ikkinchidan, o‘zining ham qaysi yoqqa o‘tmakka bo‘lg‘an taraddudi sabablari bilan hali bir tarafka ham duoi xayr qilg‘anlig‘i ma’lum bo‘lmay, bir tomonning muvaffaqiyati va ikkinchining mag‘lubiyatiga yo‘l bermay qolg‘anlig‘i ma’lum bo‘ldi.[4]

Ayrim yasama soʻzlar bugungi kunda muomaladan chiqib ketgan. Bunday soʻzlar oʻrnini “yengiltak” kabi sintaktik usulda yasalgan soʻzlar egallagan: */Kimdan bo‘lar edim, shu ko‘rib turganingiz etaksizlardan./ Etaksiz bu – betayin, tuturuqsiz degan ma’noni ifodalaydi. Imlo politikasidan boshqa masalalarga o‘tkanda qurultoy ag‘zolarining turluk tomong‘a turub ketib, ustol yonida prezidiumning yolg‘uz qolg‘an vaqtlaridag‘i tinchliklardan ko‘z yumub o‘tilsa “Muxoraba – qonliq bordi”, demakka arzig‘uliqdir. Bu to‘g‘ridag‘i afkori umumiyaga kelganda ishlar bundaydir: Toshkandning Yahyaxo‘ja eshon, Etemas eshon va Cho‘pqo‘ymas eshonlari kecha-kunduz yig‘lab-sixtab Munavvarqori va Avloniy haqqig‘a duo qilib, chaplarga la’nat yog‘dirib yotadirlar. (A.Q., 590)*

Quyidagi jumlada qoʻllangan *“ishonchliq”* soʻzi tarkibidagi *-liq* qoʻshimchasi aslida *-li* belgiga egalikni ifodalaydi. Keyingi jumladagi *“dahshatlik”* soʻzidagi qoʻshimchaga nisbatan ham shu fikrni aytish mumkin: */Narimon Narimonov o‘zining bir to‘rba lotin harflarini orqalab, Turkiston yo‘lig‘a chiqdi – degan xabarlar yursa ham, biroq bu ishonchliq manbadan oling‘an xabarga o‘xshamaydir. Har holda imlo muhorabasi juda dahshatlik bir ravishga kirib butun dunyoning diqqatini o‘ziga tortmoqdadir. Har ikki tomonning qahramonlari safka!/[5]*

Fors-tojik tilidagi old qo‘shimchalar Abdulla Qodiriy hajviyalarida juda kam ishlatilgan, uning o‘rniga o‘zbekchi affikslar orqali kerakli grammatik ma’nolar ifoda qilingan: */Men ixtiyorsiz xaxolab kulib yubordim. Ertalabki shaytonning “Komitet qo‘yining dumbasi tushib qolgan”, so‘zi esimga tushgan edi: – Ha, badbaxt, rost gapirgan ekansan, – deb qo‘ydim.*[6] Ammo uslubiy talab bilan ijodkor *badbaxt* so‘zini qo‘llashga ehtiyoj sezgani ko‘rinib turibdi, zero, uning o‘rniga *baxtsiz, baxtiqaro* deb ham fikr ifodalash mumkin edi.

Badiiy matnlar orqali tilning asosini tashkil etuvchi mustaqil so‘z turkumlarining bir asr oldingi va hozirgi morfologik holatidagi o‘zgarishlarni o‘rganish mumkin. Buning natijasida so‘zlarni turkumlarga tasniflash, grammatik vositalarning tegishliligini aniqlash, ayrim so‘zlar tarixan qanday grammatik, leksik ma’noga xizmat qilgani haqida zarur xulosalarga kelish mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1.Абдулла Қодирий. Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: ”Sharq” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2014. – Б.547
2.Абдулла Қодирий. Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: ”Sharq” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2014. – Б.548
3.Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши.– Т .: Ўқитувчи. 1979. 10-11-б.
4.Абдулла Қодирий. Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: ”Sharq” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2014. – Б.562
5.Абдулла Қодирий. Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: “Sharq” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2014. – Б.562
6.Абдулла Қодирий. Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: ”Sharq” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2014. – Б.534

SAID AHMAD HAJVIYALARIDA YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARINING NUTQIY VOQELANISHI

Muhammadova Shahruza Samad qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar, Pardayeva Madixabonu Xakimovna f.f.f.d.(PhD) O‘zbekiston

Annotatsiya: Maqolada yozuvchi Said Ahmad komediyalarida qo‘llangan yordamchi so‘zlar bir qator ifoda imkoniyatlariga egaligi, uning komediyalarida yordamchi so‘zlar evolyutsiyasini kuzatish mumkinligi misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: lisoniy birlik , so‘z turkumi , komediya , sintaktik aloqa , evolyutsiya , o‘zgarmas leksemalar , lug‘aviy ma’no , yuklamalar

РЕЧЕВОЕ ВЫПОЛНЕНИЕ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ В КОМИКСАХ САИДА АХМАДА

Аннотация: В статье на основе примеров проанализированы вспомогательные слова, используемые в комедиях писателя Саида Ахмеда, обладающие рядом выразительных возможностей, наблюдение эволюции вспомогательных слов в его комедиях.

Ключевые слова: языковая единица, части речи, комедия, синтаксическая связь, эволюция, инвариантные лексемы, лексическое значение, нагрузки.

SPEECH PERFORMANCE OF AUXILIARY WORDS IN SAID AHMAD'S COMICS

Annotation: In the article, the auxiliary words used in the comedies of the writer Said Ahmed have a number of expressive possibilities, the evolution of the auxiliary words in his comedies can be observed on the basis of examples.

Key words: linguistic unit, word group, comedy, syntactic connection, evolution, invariant lexemes, lexical meaning.

Leksema serqirra mohiyatli lisoniy birlik, uning tasnifida bu jihat asosiy diqqat markazida turishi lozim. Chunki leksemaning har bir qirrasi alohida bir tasnifga asos bo‘ladi. Uning har biri o‘z o‘rnida ahamiyatli. Tilda barcha turkum o‘z amaliy ahamiyatiga ega. Ma’lumki, ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklama yordamchi so‘z turkumi guruhini tashkil etadi. So‘zlar semantik tasnifiga ko‘ra mustaqil, nomustaqil va lug‘aviy ma’nosiz so‘z[1]ga bo‘linadi. Fe’l, ot, sifat, son, ravish, taqlid mustaqil lug‘aviy ma’noli so‘z turkumiga, olmosh va so‘z-gap nomustaqil lug‘aviy ma’noli so‘zga, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama esa lug‘aviy ma’nosiz so‘z guruhiga kiritilgan.

So‘zlar morfologik tasnifiga ko‘ra o‘zgaruvchan va o‘zgarmas leksemalarga bo‘linadi. Fe’l, ot, sifat, son o‘zgaruvchi; taqlid, ravish, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama va so‘z-gap esa o‘zgarmas leksemalar guruhiga mansub.

Leksemalar sintaktik tasnifiga ko‘ra gap bo‘lagi bo‘lishga xoslanmagan, gap bo‘lagi bo‘lishga xoslangan va sintaktik aloqa vositasi bo‘lishga xoslangan so‘zlar guruhiga bo‘linadi. Undov, modal, so‘z-gap gap bo‘lagi bo‘lishga xoslanmagan guruhga; fe’l, ot, sifat, son, ravish, taqlid, olmosh gap bo‘lagi bo‘lishga xoslangan so‘zlar turkumiga; ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama esa sintaktik aloqa vositasi bo‘lishga xoslangan so‘zlar sirasiga kiritiladi.

Dunyodagi barcha tillarda yordamchi so‘zlarning vazifasi bir xil: nutq ifodalash jarayonida so‘zlarning o‘zaro munosabatga kirishuvini ta’minlash. Yordamchi so‘zlar Hind-Yevropa tillarida bu vazifani o‘zlari ko‘proq belgilangan so‘z bilan bajarsa, o‘zbek tilida bu vazifa so‘zlar va qo‘shimchalar bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ammo agglyutinativ tillardagi yordamchi so‘zlar bilan flektiv tillardagi yordamchi so‘zlarning grammatik tabiatida o‘ziga xos farqlar bor. Bu tillardagi yordamchi so‘zlarni bir xil yondashuv bilan tekshirib bo‘lmaydi.

Yordamchi so‘zlar mustaqil so‘z turkumlari bilan doimiy va uzluksiz aloqadorlikda. Bu nafaqat yordamchi so‘zlarning matnda mustaqil so‘zlarning voqelanishlari uchun xizmat qiladi, balki yordamchi so‘zlar xazinasining uzluksiz ravishda mustaqil so‘zlar hisobidan boyib va kengayib borishida, bu jarayonning uzluksizligida, yordamchi so‘zlar tizimida tarixan mustaqil so‘z bo‘lib, hozir tarixiy o‘zagidan batamom uzilib ketgan yordamchi so‘zlar bilan (chunonchi, bila) bir safda yordamchilashishga ilk qadam tashlayotgan (chunonchi, maqsadida, sababli) mustaqil so‘zlardan o‘z aloqalarini uzmagan birliklar ham turishida namoyon bo‘ladi. Shu bois yordamchi so‘zlar “sof” (mustaqil so‘zlar bilan aloqasi uzilgan yoki batamom qorong‘ilashgan so‘zlar) va “funksional” (shakliy-ma’noviy aloqalari mustaqil so‘zlar bilan uzilmagan) kabi turlarga bo‘linadi[2].

Badiiy asarda til birliklarining har biri ma’lum vazifa bajaradi. Yordamchi so‘z mustaqil so‘z va gapda grammatik ma’no ifodalashning alohida turini tashkil etadi. Yozuvchi S.Ahmad komediyalarida qo‘llangan yordamchi so‘zlar bir qator ifoda imkoniyatlariga ega. Uning komediyalarida yordamchi so‘zlar evolyutsiyasini kuzatish mumkin.

Ma’lumki, evolyutsiya (biologiyada) tirik organizmlarning tarixiy o‘zgarishi. Evolyutsiyada tabiiy tanlanish ta’sirida mutatsiyalardan organizmlarning tashqi muhit sharoitiga moslanishiga olib keladigan belgilar va xususiyatlar kombinatsiyasi shakllanadi. Evolyutsion o‘zgarishlar dastlab yo‘naltirilgan o‘zgarishlar tarzida populyatsiyalarda namoyon bo‘ladi “Evolyutsiya” so‘zi birinchi marta Shveytsariya tabiatshunosi va faylasufi Sh.Bonne (1762) tomonidan embriologiyaga oid ishlarda qo‘llangan[3]. Demak, til birliklari ham evolyutsion hodisadir.

Yordamchi so‘zlarning umumiy funksional belgisi “bog‘lash”dir. Shu belgi asosida ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamalar so‘z va gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladi. Ammo bu vazifa bog‘lovchi va ko‘makchilar uchun o‘zgarmas, barqaror sanaladi. Yuklamalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular so‘z yoki gaplarga so‘roq, ta’kid, kuchaytiruv, ayirish-chegaralash, o‘xshatish kabi qo‘shimcha ma’nolarni beradi va funksional “bog‘lash” belgisiga nisbatan beqaror, o‘zgaruvchan sanaladi, ya’ni “bog‘lash” belgisi bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin.

Yuklamalar boshqa yordamchi so‘zlarga nisbatan pragmatik qiymatining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Xususan, unda shaxsiy munosabatning nutqiy vaziyatdan kedib chiqqan holda ifodalanishi pragmatik xoslanishning asosini tashkil qiladi. Bu holat badiiy asarlarda yorqin namoyon bo‘ladi. Qahramon emotsiyasi, kayfiyatini ochishda, kitobxonga yetkazishda katta ahamiyatga ega.

O‘zbek tilshunosligida yaratilgan ilmiy adabiyotlarda na...na yordamchisi dastlab inkor bog‘lovchisi sifatida izohlandi va ancha munozaralarga sabab bo‘ldi. Biroq keyingi yillardagi darsliklarda bu yordamchi inkor yuklamasi sifatida ko‘rsatila boshlandi. Bu bahs-munozarali fikrlarga R.Rasulov tadqiqoti bilan bir hisobda chek qo‘yildi. Tadqiqotchi bu yordamchi birlikning uyushgan bo‘laklar va qo‘shma gap tarkibida kelishini atroflicha tahlil etib, bunday qo‘llanilishlarda bog‘lash vazifasini maxsus bog‘lovchi vositalar amalga oshirishi, na...na yordamchisi esa ta’kidli inkorni ifodalashga xizmat qilishini yorqin misollarda ko‘rsatdi, uning ham…. ham va boshqa yordamchi vositalar bilan paradigmatik aloqalarini tavsifladi[4].Keyinchalik bu fikrni akademik A.Hojiyev ham ma’qulladi[5]. Faqat shuni ta’kidlash kerakki, bu yordamchi so‘zning birlamchi substansial vazifasi yuklamalik bo‘lsa, ikkilamchi vazifasi bog‘lashga xizmat qilishidir.S.Ahmad komediyalarida bu vosita oddiy bo‘lishsiz shaklli inkordan ko‘ra ancha kuchli va ta’kidli bo‘lib qo‘llangan. Jumladan: Tiling juda ham burro bo‘lib ketdi. Na kattani bilasan, na kichikni. Ayb o‘zimda (Kuyov).

-dir yuklamasi so‘z va gapga inkor ma’nosini yuklab, so‘zlovchining o‘z fikriga bo‘lgan gumon munosabatini ifodalab keladi. Adib bu orqali qahramon nutqini o‘z maqsadiga muvofiq yaratishga erishadi. Jumladan: Farmon. Yoshing ellikdan oshib qolgan bo‘lsa, oying necha yoshdaligini o‘ziyam bilmasa. Senga ko‘zi uchib turgandir. Farmon. Sovib qolgandir. Menga ber, to‘kib tashlab qaynoq suv quydirib beray (Kelinlar qo‘zg‘oloni). Bo‘ldi, endi
men uyga chiqay. Xotinim qidirib yurgandir. Bahri. Hovlining vasiqalaridir-da. (U ham qog‘ozlarni titkilab.) Qudratning frontdan yozgan xatlarimasmi? Bahri. Bironta tashlandik tegirmondami, ovloq dala shiyponidami jononlari bilan o‘tirgandirlar (Kuyov). Erkakdir, ayoldir, yoshi bir joyga borganda boladan chiqib qolarkan. Ikki kungina turamiz-u ketamiz. Axir, xolodolnikda u-bu bordir. Qurib-qaqshab yotmagandir? (Xandon pista)

Adib komediyalarida yuklamalar o‘z “bog‘lash” ma’nosining susayganligi va buning evaziga “subyektiv munosabat” ma’nosi kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Yuklamalarning umumiy grammatik ma’nosi, ya’ni substansial qiymati “qisman bog‘lash”, “asosan, subyektiv munosabat ifodalash” oraliq grammatik ma’nolariga parchalanadi.

Ko‘makchi mustaqil so‘z bilan birga kelib, oldin turgan so‘zni keyingi so‘z bilan grammatik aloqaga kiritadi. Bu bilan kelishiklarga o‘xshaydi. Ko‘makchilar badiiy adabiyotda so‘zlarni tobelantirib bog‘lash bilan birga bir qator grammatik ma’nolarni ham ifodalaydiki, bu orqali ma’lum ma’noni chiqarishga erishiladi. S.Ahmad komediyalarida birgina bilan ko‘makchisi quyidagi grammatik ma’nolarni ifodalab, fikrni shakllantirishga xizmat qilgan:

1. Asqar. Sen bilan qanaqa gaplashsa bo‘ladi, uka? Qanaqa? (Kelinlar qo‘zg‘oloni) Rahima. Voy, siz bilmaysiz. Dadam shu Rahbar xola bilan Termizga qochib ketganlarida, tog‘asi aeroplanda uchib borib besh kun deganda topib, olib kelgan. Kelgandan keyin Toshkentdagi katta do‘xtirlarga ko‘rsatishgan ekan (Kuyov). Bir kuni hovliga o‘zbekcha biladigan bitta o‘ris bilan Abdullajon degan biolog olim kirib keldi (Xandon pista).

Ushbu gaplarda bilan ko‘makchisi yordamida birgalik grammatik ma’nosi ifodalangan.

2. Balki,yoshlik paytlarimda o‘z ko‘zim bilan ko‘rgandirman, yo birovdan eshitgandirman (Xandon pista). Ushbu maktub xatni ko‘z yoshlarim, jigar qonlarim bilan yozdim. Baxtsiz yoringiz Zumrad, deb bilgaysiz (Kuyov). Ma’mur

o‘rtaga tushib olib, rubob bilan rosa ashulani olyapti (Kelinlar qo‘zg‘oloni). Yuqoridagi jumlalarda esa mazkur ko‘makchi vosita ma’nosini ifodalagan.

3. Xullas, siz, o‘rtoq Lutfi Boboyeva, judayam xushmuomalalik bilan kapkirni qozonga urib, ovqat qilyapsiz (Kelinlar qo‘zg‘oloni). Soyuzdan sekretar o‘ris xotin telefon qilib ertalab soat o‘nga zudlik bilan o‘rtoq Tuyg‘un Shukurjonovga uchrashing, deb xabar qildi. Soat o‘nlarga borib pirog pishdi. Saltanat pirog emas, zaxar yeyotgandek ming azob bilan ikki tishlamini arang yutdi. Qimizxon har dam olish kuni nevaralarini qanchalik orziqib kutsa, ketishlarini ham shundoq besabrlik bilan kutardi. Eshik tepasidagi qo‘ng‘iroq shitob bilan jiringladi (Xandon pista).

Ushbu gaplarda esa bilan ko‘makchisi holat ma’nosini ifoda etib kelyapti.4. Sho‘rliklar oyimni ko‘rishi bilan soqov bo‘ladi qoladi (Kelinlar qo‘zg‘oloni). Erkinni chaqiringlar, kech kirib, qorong‘i tushib qoldi. Devorga parda-mardasini ossin. Dadam kelishlari bilan kinoni boshlaymiz (Kuyov).

Yuqoridagi misollarda esa bu ko‘makchi tezlik grammatik ma’nosini reallashtirib, matn mazmunini ochishga, kitobxon (tomoshabin)ga yetkazishga mustaqil so‘zlarga ko‘mak beryapti. Ko‘rinadiki, bilan ko‘makchisining ifoda imkoniyati rang-barang bo‘lib, bog‘lash vazifasi bilan birga birgalik, holat, vosita, tezlik kabi grammatik ma’nolarni ifodalab, yozuvchi maqsadini yoritishga, jumlaning tugal shakllanishiga xizmat qilgan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1.Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, 2010.– B. 147. –336 b.

2. Pardayev A. O‘zbek tili yordamchi so‘z turkumlarining lisoniy tizimdagi o‘rni va lingvopragmatikasi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2017. – 77 b. – B. 16.

3. https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/evolyutsiya-uz-2/

4. Rahimov U. O‘zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi: Filol.f.nomz...diss... - Samarqand, 1994.

5.Rahmatov M. Alisher Navoiyning nasriy asarlarida ergashtiruvchi bog‘lovchili gaplarning sintaktik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. …dis. avtoref. – Toshkent, 2008. – 25 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING 4K MODELI BO‘YICHA KOLLABARATSIYA KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Jabborova Onaxon Mannapovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi mudiri

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 4k modeli bo‘yicha kollabaratsiya ko‘nikmasini shakllantirish texnologiyasi to‘g‘risida fikr yuritilgan.
Kalit so‘zlar: bilim olish, jamoa bo‘lib ishlash, tarbiyalanish va ko‘nikish, faoliyatga tayyorlanish, malaka va tajriba.

ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ КОЛЛАБОРАЦИИ ПО МОДЕЛИ 4К УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В статей размышлено о технологии формирование коллабарационные навыки на основах модела 4К в учеников начальных школ.
Ключевые слова: освоение знание, коллективная работа, воспитание и навыка, подготовка деятельности, компетентность и опыт.

TECHNOLOGY FOR FORMING COLLABORATION SKILLS USING THE 4K MODEL FOR PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation: the article discusses the technology of forming the ability of collaborating of primary school students according to the 4k model.
Key words: learning, teamwork, education and training, preparation for activity, competence and experience

Dunyo mamlakatlari ta’lim muassasalarida amaliyotga joriy etilayotgan 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish ishlari bugungi kunda jamoatchilik, jamiyat vakillari va ilg‘or pedagoglarning kuzatuvida turganligini eslatib o‘tish joiz. Chunki mazkur model bo‘yicha o‘quvchilarning ko‘nikmalarini shakllantirish bilan dunyo mamlakatlari ta’lim muassasalarining integratsiyasiga erishish va o‘quvchilarning tipiklashgan ko‘nikma hamda malakalariga ega bo‘lishini ta’minlash asosiy maqsad sifatida belgilangan[1]. Negaki bu borada keyingi paytlarda dunyo miqyosidagi o‘zaro anglashuvchanlik, birlik va hamkorlik omillaridan oqilona foydalanish nazarda tutilmoqda. Shu jihatdan 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayoniga ushbu model bo‘yicha ko‘nikmalarni tarkib toptirishga asoslangan yangi avlod darsliklari joriy etildi. Buning uchun bu modeldagi ko‘nikmalarni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Mazkur o‘rinda e’tiboringizni 4K modelidagi kollabaratsiya, ya’ni jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarkib toptirish texnologiyasi tahliliga tortamiz.

“Kollabaratsiya” tushunchasi lotincha bo‘lib, jamoa bo‘lib ishlash, jamoaviylik va jamoaparvarlik ma’nolarini anglatadi[2]. Shu jihatdan kollabaratsiya atamasi 4K modelida asosan jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini anglatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilim olishda jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun eng avvalo ularda bilim olishda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini tarkib toptirish taqozo etiladi. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilim olishda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini tarkib toptirish uchun ularni quyidagilarga o‘rgatish kutilgan samarani beradi:

1) dars mashg‘ulotlari jarayonida jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish;
2) uy vazifalari va topshiriqlarni bajarishda jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish;
3) o‘zlashtirish jarayonida jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilim olish bo‘yicha jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun eng avvalo ularga dars mashg‘ulotlari jarayonidagi xatti-xarakatlarga o‘rgatish kerak. Bugungi kunda dars mashg‘ulotlari shakl va metodik jihatlardan turli-tuman ekanligini eslatib o‘tish joiz. Aniq o‘quv fanlari o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning umumiy birligini va faolligini talab qiladi. Tabiiy o‘quv fanlar o‘qituvchilari o‘quvchilarning mustaqil xarakat va tashabbuskor bo‘lishiga e’tibor beradi. Gumanitar o‘quv fanlari o‘qituvchilari esa o‘quvchilarning faolligi va ijodiyligini birlamchi biladi. Buning natijasida har xil dars shakllaridan foydalanilmoqda va bunda o‘quvchilar har qanday dars mashg‘ulotlaridan ishtirok etayotganligi pedagog olimlarning nigohli munosabatlariga sabab bo‘lmoqda. Chunki dars mashg‘ulotlarining shakllari va ularni o‘tkazish jarayoni turli-tumanligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ba’zida jismoniy va ma’naviy yuklama yuklayotganligi sir emas. Bundan tashqari, ota-onalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini qo‘shimcha ta’limga va to‘garaklarga keng jalb etmoqda. Mazkur ta’lim mashg‘ulotlarda ham turli shakldagi va vositalarga asoslangan dars jarayoni kechmoqda. E’tibor berilsa, bugungi boshlang‘ich sinf o‘quvchisi dars mashg‘ulotlarining rang-barangligi “yomg‘iri” ostida qolgan. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dars mashg‘ulotlari jarayonida jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish dolzarb bo‘lib turibdi. Bunda quyidagilarga e’tibor berish muhimdir: dars jarayonida o‘quvchilarga erkinlik berish va eshitmay yoki tushunmay qolganlarini so‘rash imkoniyatlarini taqdim etish, bunday

holatlarda o‘quvchilar jamoasining birgalikdagi ishtirok etishiga e’tibor berish, o‘quvchilar bir-birlaridan nimanidir so‘raganida xolis munosabatda bo‘lish, o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotlarini tipiklashtirish muhim bo‘lib turibdi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida rang-barang dars mashg‘ulotlaridan bilim olish jarayonida jamoa bo‘lib, ya’ni o‘zaro bir-birlariga yordamlashgan holda foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Misol uchun, muayyan o‘quvchilar jamoasi faol hisoblanadi va ularning imokniyatlaridan o‘zlashtirishi murakaab kechayotgan o‘quvchilarda dars mashg‘ulotlarini kutilgan darajada o‘zlashtirishda foydalanish amaliy samarani beradi. Umuman, boshlang‘ich sinf o‘quvchisini dars mashg‘ulotlaridan individual va jamoaviy shakllarda foydalanishga o‘rgatish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu ishda sinf rahbarlari boshchiligida valantyor o‘quvchilar va jamoaparvar o‘qituvchilarning yordamlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Agar o‘quvchi muayyan dars mashg‘uloti jarayonida qaysidir jamoa tarkibida ishtirok etsa u faollashadi va aksincha, mavzuni yoki dars jarayoni holatlarini tushunmasdan tortinchoqlik bilan o‘tirsa uning jamoadan yakkalanishi tarkib topadi. Buning natijasida o‘quvchi o‘ziga boshqa olam izlaydi. Shu sababli xorijlik pedagoglar, jumladan, Yevropa mamlakatlari pedagoglari dars mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarning muayyan kichik jamoalarga bo‘linib ishtirok etishini rag‘bat bilan qabul qiladi. Bu holat dars mashg‘ulotlarining maqsadiga erishishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi hamda avtoritar dars uslubini isloh qiladi. Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi rang-barng mashg‘ulotlar jarayonida jamoa tarkibida ishtirok etish ko‘nikmasini egallashi kerak. Bir qarashda bu hol juda murakaab hisoblanadi chunki dars jarayonida o‘quvchilarning bahslashgan ovozlari ko‘p eshitiladi. Biroq mazkur dars jarayonining yoki mashg‘ulotning samaradorligi shundaki, o‘quvchilarning faolligi asosida u amalga oshiriladi. Umuman o‘quvchilar jamoasi dars mashg‘ulotlarining yangi vositalar, yondashuvlar hamda maqsad-muddaolar asosida o‘tishi uchun tayanch vazifasini bajaradi. Bu murakkab dars mashg‘ulotlari turlaridan dunyo pedagoglari keyingi paytlarda oqilona foydalanayotganligini eslatib o‘tish joiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilim olish bo‘yicha jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun ularni uy vazifalari va topshiriqlarni birgalikda bajarishga o‘rgatish ham muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarning bilim olish jarayonida mavzularni, tegishli matnlarni, masala va mashqlarni jamoa bo‘lib o‘zlashtirishi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ularni yo‘naltirishi va o‘quvchilarda jamoa tartib-intizomiga rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zlashtirish jarayonida jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini o‘zlashtirsa, ular ta’limning keyingi bosqich va turlarida ham mazkur ko‘nikmaga tayangan holda faoliyat yuritadi. Shu sababli bunday muhim ko‘nikmalar boshlang‘ich ta’lim jarayonida tarkib toptirilishi sifatli ta’limga erishishning eng muhim omillaridan biridir.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim olish jarayonida jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini tarkib toptirish va ularni bu ko‘nikmaga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, sinf rahbarlari, faol o‘quvchilar va maktab Yoshlar yetakchisining hamkorlikdagi faoliyati muhim pedagogik omil bo‘lib xizmat qiladi. Ayni paytda oliy pedagogik ta’lim muassasalarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikatsiya ko‘nikmalarini tarkib toptirish muammolari bo‘yicha ilmiy va metodik tadqiqotlar majmuini yaratish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada quyidagri mavzular bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ekanligini eslatib o‘tish joiz:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim sharoitidan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish metodikasi;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sharoiti holati va ularni rivojlantirish asoslari;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarda kommunikatsiya ko‘nikmasini shakllantirishga tayyorlash;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikatsiya ko‘nikmasini shakllantirishda pedagogik amaliyotning ahamiyati.

Mazkur mavzularda ilmiy va metodik ishlanmalar yaratish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirishning muhim mexanizmlariga ega bo‘lishga olib keladi. Shu sababli mazkur masalalar oliy pedagogik ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining e’tiborida bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiya olishda jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish. Tarbiya mamlakatimiz va jahon Pedagogikasida ta’limning uzviy qismi va eng muhim qanotidir. Chunki ta’limdan avval tarbiya yuzaga kelgan. Shu sababli “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” o‘quv fanida tarbiya birlamchi vazifa hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiya jarayonida jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish va ularning bu boradagi ko‘nikmasini dolzarb masaladir. Buning uchun quyidagilarga amal qilish muhim ahamiyatga ega:

a) axloqiy fazilatlarni o‘zlashtirishda jamoa bo‘lib ishlash;

b) axloq qoidalariga rioya qilishda jamoa bo‘lib ishlash;

v) o‘zgalarga munosabatlarda jamoa bo‘lib ishlash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ahloqiy fazilatlarni o‘zlashtirishda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasiga tayanishi kerak. Buning uchun ularda o‘rtoqlarining yaxshi fazilatlarini o‘zlashtirish, o‘qituvchilardan namuna olish, illatlardan nafratlanish va o‘zgalarni hurmat qilish ko‘nikmalari shakllantirilishi lozim bo‘ladi. Shuni unutmaslik lozimki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlar faqat boshlang‘ich ta’lim jarayonida tarkib toptiriladi, bunda ota-onalar, maktab jamoasi va jamoatchilik yordamchi vazifasini bajaradi, xolos. Misol uchun, bugungi kunda jamiyatimizda turli oilalar mavjud va ularning nisbatan ko‘pchiligida axloqiy muammolar borligini e’tirof etish kerak. Bu hol oila farovonligi bilan bog‘liq hodisadir. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish masalasida oila birlamchi vazifani bajara olmaydi. Huddi shuningdek, maktab jamoasi va

jamoatchilik ham o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish bo‘yicha yordamchi vazifasini bajaradi. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida Ezgulik, Insonparvarlik va Bunyodkorlik fazilatlarini shakllantirish muhim hisoblanadi[3]. Chunki mazkur axloqiy fazilatlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘un ravishda o‘z ifodasini topgan. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida ezgulik g‘oyasini, axloqiy xarakatlarida insonparvarlik fazilatini va ideal maqsadlarida bunyodkorlik tushunchasini tarkib toptirish muhim hisoblanadi. Bu bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish ishi samarali amalga oshiriladi. Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, o‘tgan asrning oxiriga qadar G‘arb mamlakatlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy fazilatlarini shakllantirish masalasida mutloq erkinlik tamoyiliga asoslanildi va natijada har qanday illatu-xislatlarni fazilat deb hisoblovchi o‘ziga xos bir avlod tarkib topdi. Buning natijasida asrimizning boshlarida G‘arb mamlakatlari pedagoglari o‘zlarining mamlakatida “axloqiy inqiroz” yuzaga kelganligini e’lon qildi va ta’lim dasturlarida tarbiya masalasini ilk rejaga chiqardi. Natijada 10-15 yil ichida G‘arb mamlakatlarida yuksak axloqli avlodning yuzaga kelganligi kuzatildi. Mazkur tajriba shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy fazilatlar uyg‘un shakllantirilishi ularning shaxs sifatida voyaga yetkazishdagi muhim tayanchdir. Bu hol kollabaratsiya ko‘nikmasining negizlaridan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy qoidalarga rioya qilish ko‘nikmasi ham shakllantirilishi lozim. Bunda har bir o‘quvchida axloq qoidalari va me’yorlari bo‘yicha tushunchani tarkib toptirish muhim hisoblanadi. Manbalarda qayd etilishicha, bir kuni Abu Ali Ibn Sino ilmiy ish bilan shug‘ullanib o‘tirganda darhol uzatilgan oyog‘ini yig‘ishtirib oladi va buni ko‘rib turgan enagasi undan so‘raydi: “Sen yolg‘izku, nega bundoq qilding?” Shunda Ibn Sino javob beradi: “O‘zimdan uyaldim”. Demak, kishi yolg‘iz qolganida ham axloqiy qoidalarga rioya qilsa, bunday ko‘nikma unda odat tusini oladi. Shu sababli bunday tajribalar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga axloq qoidalariga rioya qilishni o‘rgatish muhim ahamiyatga egadir. Mazkur ish bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktabining “Tarbiya” fani o‘qituvchilari tashabbuskor va mas’ul bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloq qoidalariga rioya qilish ko‘nikmasini kutilgan darajada shakllantirishga erishsak, butun jamiyatda axloqiy madaniyatning tarkib topishi uchun muhim poydevorni qo‘ygan bo‘lamiz. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloq qoidalariga rioya qilishi ko‘nikmasini shakllantirishda ularni tashqi salbiy ta’sirlardan muhofaza qilish ham muhim o‘rin tutadi va bunda xatto ota-onalardan ham himoya qilish kutilgan samarani beradi. Shu ma’noda ta’lim va tarbiya jarayonida axloq qoidasini o‘zlashtirgan yoki o‘zlashtirayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchisi faqat o‘qituvchilar va sinf rahbarlari mazkur masala bo‘yicha qat’iy nazoratni amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi[4].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zgalarga axloqiy munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini ham shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunda katta va kichikni hurmat qilish, o‘rtoqlari va keksa kishilarga yordam berish, o‘zgalarni tinglay olish, suhbat jarayonida odabli bo‘lish kabi ko‘nikmalarga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faqat o‘rgatish vositasida o‘zgalarga axloqiy munosabatni o‘zlashtiradi. Aks holda, o‘zgalardan salbiy va pedagogik qoidalarga mos kelmaydigan munosabatlarni o‘zlashtirish jarayoni kechadi. Mashhur birinchi o‘zbek professori Abdurauf Fitrat “Oila” pedagogik risolasida shunday hikoya qiladi: “6-7 yoshli bola edi, maktabdan uyga qaytardi. Bozor oldida bir kishi o‘zini zo‘rg‘a tutib turar edi, men uning qo‘lidan tutib yordam bermoqchi bo‘ldim. Shunda bir kishi indama, ahir u mastku dedi. Lekin men unga chetroqqa o‘tirishga yordam berdim. Uyga kelgach dadamga mazkur voqeani so‘zlab bergandim, dadam meni maqtadi”. Bunda Fitratning axloq qoidalariga har qanday holatda rioya qilishi o‘z ifodasini topgan va shu sababli dadasi uni rag‘batlantirgan. Bugun-chi? Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi mana shunday holatda birovga yordam bersa, ota-onalaridan dakki eshitadi. Chunki ularning nazdida mast yoki nuqsonga ega kishi komil hisoblanmaydi. Vaholangki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun har qanday kishi inson hisoblanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zgalarga munosabatini tabiiylik va holislik tamoyillari asosida shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. ObrazovatelnayaprogrammaKembridja. // www.pedagog.ru
2. Psixologicheskaya slovar. Kollektiv avtorov. – Moskva, 1989
3. Mirziyoyev Sh.M. Ezgulik, insonparvarlik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning asosiy poydevoridir. – Toshkent, 2021
4. Jabborova O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T., 2022

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHI VA OTA-ONALAR O‘RTASIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISHNI LOYIHALASH

Umarova Zuxra Abduraxmanovna,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta ‘lim metodikasi” kafedrasi dotsenti v.b.
Pulatova Dilnura Rustamjon qizi, CHDPU 4-kurs talabasi

Annotatsiya: maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchi va ota-onalar o‘rtasida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishni loyihalash masalasi to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: umumiy o‘rta ta’lim, maktab va tarbiya, o‘quvchi va ota-ona, pedagogik konflikt, loyihalash va yondashuv.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ЛИКВИДАЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНФЛИКТОВ МЕЖДУ УЧАЩИМИСЯМИ И РОДИТЕЛЯМИ В ОБЩИХ СРЕДНИХ ШКОЛАХ

Аннотация: в статей размышлено о вопросах проектирование переоделение педагогических конфликтов между учеников и родителей в общесреднеобразовательных школах.

Ключевые слова*:* общесредное образование, школа и воспитание, ученики и родители, педагогические конфликты, проектирование и подходы.

DESIGNING THE ELIMINATION OF PEDAGOGICAL CONFLICTS BETWEEN STUDENTS AND PARENTS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Annotation: the articles reflect on the issues of designing and resolving pedagogical conflicts between students and parents in secondary schools.

Key words: general secondary education, school and education, students and parents, pedagogical conflicts, design and approaches.

O‘zbekistonning 2030-yilga qadar mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish vazifalari alohida belgilangan va bugungi kunda bu borada dasturli ishlar amalga oshirilmoqda [1]. Shu ma’noda boshlang‘ich ta’lim rivojiga asos bo‘luvchi muammolarni tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga egadir. Ana shu muammolardan biri boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ota-onalari o‘rtasida zaga keladigan *pedagogik kolnfliktlarni* bartaraf etishni loyihalashdir. Bu o‘rinda e’tiboringizni ana shu masalaning tahliliga tortamiz.

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ota-onalar o‘rtasida kechadigan pedagogik konfliktlar turlari. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilar va ota-ornalar o‘rtasida tabiiy holda pedagogik konfliktlar sodir bo‘ladi va ular o‘zlarining xususiyatlariga ko‘ra farqlanib turadi [2]. Shu sababli bu masalada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ota-onalar o‘rtasida yuz beradigan pedagnogik konfliktlarning asosiy turlarini belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Bizning o‘rganishimiz va tahlillarimizga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ota-onalar o‘rtasida konfliktlarning ьasosiy va hamda yashovchan turlari quyidagilardan iborat:

1) bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha o‘zaro tushunmovchilik konflikt turi;
2) tarbiya asoslarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘zaro anglashilmovchilik konflikt turi;
3) o‘quvchilarning ijtimoiy faoliyati bo‘yicha o‘zaro anglamaslik konflikt turi;
4) o‘quvchilarning faolligi bo‘yicha o‘zaro qarashlarning ziddiyati konflikt turi.

Shu tariqa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ota-onalar o‘rtasida pedagogik konfliktlarning o‘zaro tushunmovchilik, anglashilmovchilik, anglamaslik va notug‘ri ziddiyaitlarga borish konfliktlar turlari muntazam ravishda mavjud bo‘ladi. Lekin konfliktlarning bu turlarini tabiiy qabul qilish va uning muddatli xususiyatlarga ega bo‘lishini e’tiborga olish maqbul hisoblanadi.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ota-onalari o‘rtasidagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishni loyihalash. “Loyihalash” – bu ta’limning mazmuniy qismini ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, unda ta’limning umumiy maqsadlari, o‘qitiladigan ma’lumotlar va uni amalga oshirish asoslarini belgilab olish texnologiyasidir [3]. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ota-onalari o‘rtasidagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishni loyihalashda quyidagilar tizimli ravishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1) o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasida nisbatan ko‘p uchraydigan pedagogik konfliktlarning mazmunini, ijobiy yoki salbiy xususiyatlarga egaligini tizimli aniqlash;
2) o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasida nisbatan ko‘p uchraydigan pedagogik konfliktlarning turlarini bartaraf etish bo‘yicha tadbirlar majmuini shakllantirish;
3) o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasida nisbatan ko‘p uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish tadbirldarini amalga oshirish mexanizmlarini belgilash;
4) o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasida nisbatan ko‘p uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda ishtirok etadigan o‘qituvchilar, ota-onalar vakillari, maslahatchi mutaxassislar va jamoatchilik ishtirokchilarini belgilash.

Mazkur tadbirlar ishlab chiqilgach, shakllantirilgan shu loyiha asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ota-onalar o‘rtasidagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etish ishi amalga oshiriladi.

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ota-onalari o‘rtasidagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishni loyihalash samaradorligi. Maxsus ishlab chiqilgan loyihaviy tadbirlarning samaradorligi o‘rganilib, baholanishi lozim. Buning uchun quyidagilarga asoslanilishini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1) loyihaviy tadbir asosida amalga oshirilgan ishlar va ular natijasida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish;
2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ota-onalar o‘rtasidagi bartaraf etilgan pedagogik konfliktlar turlari to‘g‘risida ma’lumotnoma tayyorlash;
3) bartaraf etilgan konfliktlarning takror ro‘y berishi yoki ro‘y bermasligini bashorat qilish;
4) samaradorlikning natijalari bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ota-onalari o‘rtasidagi pedagogik konfliktlarni o‘rganib borish tavsiyalarini ishlab chiqish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ota-onalar o‘rtasidagi pedagogik konfliktlarni loyihalash texnololgiyasi asosida kutilgan darajada bartaraf etish imkonini beradi. Shu sababli mazkur masalaning ham ilmiy-metodik mexanizmlarini ishlab chiqish taqoza etiladi.

Savol tug‘iladi: boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ota-onalar o‘rtasidagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda nega aynan loyihalash texnologiyasiga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi? Chunki *birinchidan,* loyihalash texnologiyasi pedagogik konfliktlarni tizimli va pedagogik qonuniyatlar asosida bartaraf etish imkonini beradi; *ikkinchidan*, bunday texnologiyada keng jamoatchiliknging ishtirok etishi pedagogik konfliktlarni oshkora va xolis bartaraf etish uchun sharoitlarni taqdim etadi; *uchinchidan,* loyihalash texnologiyasida pedagogik konfliktlarni ilmiy, metodik va ommaviy yondashuvlarga asosan bartaraf etish bo‘yicha talablarga qat’iy rioya qilish mavjud bo‘ladi. Umuman loyihalash texnologiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ota-onalar o‘rtasida kechadigan muddatli, salbiy ta’sir kuchi kam bo‘lgan, o‘tkinchi xarakterga ega va ta’lim –tarbiya jarayonida tabiiy paydo bo‘ladigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning eng maqbul murosa ususllaridan biridir. Shu sababli bu texnologiyadan foydalanish o‘quvchilar va ota-onalarning manfaatlariga teng rioya qilish metodikasini beradi.

Shunday qilib boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ota-onalar o‘rtasidagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning loyiha texnologiyasi asoslari, metodikasi, asaliy mexanizmlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish yo‘llari majmuini tarkib toptirish muhim ahamiyatga egaligi bilan diqqatni tortadi. Bu borada maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziyonet.uz.
2. Umarova Z. Boshlang‘ich ta’limda pedagogik konfliktlar. –Toshkent. 2023.
3. Xasanboyev J.va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. –Toshkent. 2009

КОНЪЮНКЦИОНАЛИЗАЦИЯ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Жумаева Феруза Рузикуловна

доцент кафедры русского языка и литературы НавДПИ Республика Узбекистан.

Аннотация: статья посвящена анализу конъюнкционализации в русском и узбекском языках в сопоставительном аспекте. В обоих языках конъюнкционализации подвержены существительные, наречия, частицы, глагольные формы. В исследуемых языках производные союзы наречного происхождения часто употребляемы. При транспозиции меняются семантические, морфологические и синтаксические свойства конъюнкционализованных слов. В статье обосновывается мысль о том, что в сопоставляемых языках конъюнкционализация является малопродуктивным типом частеречной транспозиции.

Ключевые слова: конъюнкционализация, союз, производный союз, транспозиция, переход, часть речи.

CONJUNCTIONALIZATION IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation: the article is devoted to the analysis of conjunctionalization in the Russian and Uzbek languages in a comparative aspect. In both languages, nouns, adverbs, particles, and verb forms are subject to conjunctionalization. In the languages under study, derived conjunctions of adverbial origin are often used. During transposition, the semantic, morphological and syntactic properties of conjunctionalized words change. The article substantiates the idea that in the languages being compared, conjunctionalization is an unproductive type of part-verbal transposition.

Key words: conjunctionalization, conjunction, derivative conjunction, transposition, transition, part of speech.

RUS VA O‘ZBEK TILIDA KONYUNKSIONLASHTIRISH

Annotatsiya: maqola rus va o‘zbek tillaridagi konyunksionlashuvni qiyosiy jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ikkala tilda ham ot, ravish, yuklama va fe’l shakllari bog‘lovchi vazifasida kelishi mumkin. O‘rganilayotgan tillarda ravishdan yasalgan bog‘lovchilar ko‘proq uchraydi. Transpozitsiya jarayonida bog‘lovchi vazifasida qo‘llanilayotgan so‘zlarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlari o‘zgaradi. Maqolada taqqoslanayotgan tillarda konyunksionallashuv so‘z turkumlari transpozitsiyasining samarasiz turi ekanligi haqidagi fikr asoslanadi.

Kalit so‘zlar: konyunksionalizatsiya, bog‘lovchi, yasama bog‘lovchi, transpozitsiya, ko‘chish, so‘z turkumi.

Разные аспекты проблемы перехода частей речи рассмотрены в трудах З.С. Исокова, А.Е. Ботировой, А.Б. Пардаева, С. Маматкулова, Ж.Д. Эльтазарова, А. Бегматовой, И.И. Расулова и др. [4: 61-67] Вопросы конъюнкционализации рассмотрены в трудах Ш.А. Солиходжаевой, Н.Т. Лыковой, А.Б. Пардаева, А.Ю. Голубевой, А.К. Карпова и др.

Конъюнкционализация – это переход в класс союзов слов, принадлежащих другим частям речи. [2: 468]

В современном русском язқке производные союзы соотносятся:

1) с местоимениями: что, то…то, не то…не то, то ли…то ли. Например: То солнце спрячется, то светит слишком ярко.

2) с наречиями: как, пока, покамест. Например: Собакевич пристроился к осетру, и покамест те пили, разговаривали и ели, он в четверть часа доехал его всего.

3) с вводными словами:

вернее, точнее, наконец, наоборот, напротив, кстати. Например: Приедет зимой, а точнее в декабре. Таким может, а вернее должен быть город будущего.

4) с частицами: ***будто, даже, хотя (хоть), пускай, ведь.*** *Учился он порядочно, хотя часто ленился… Как музыке идти? Ведь вы не так сидите.*

В современном русском языке наблюдается образование союзов от глаголов или путем сочетания особой формы глагола (деепричастия) с предлогами, частицами, союзами. Они имеют следующие значения:

1) уступительные (несмотря на то что, невзирая на то что, хотя (хоть)):

Древний грек Антоша Конелис, ***как*** *звал его Зубр, был немногословен, он знал все языки, хотя не говорил ни на одном.*

2) причинное (благодаря тому что):

Благодаря тому что *график движения поездов строго соблюдался, количество перевозок значительно увеличилось.*

Следует отметить также, что конъюнкционализация – непрерывный процесс, происходящий в современном русском языке.

Производные союзы наречного происхождения часто употребляемы.

Переход имен существительных в союзы начался значительно позже. Производных союзов отыменного происхождения немного и употребляются они редко. Союзы *раз, правда, благо* – наиболее распространенные в современном русском языке.

Ш.А. Солиходжаева считает, что основными условиями конъюнкционализации, т.е. перехода отдельных форм полнозначных слов в разряд служебных (предлогов, послелогов и союзов), являются: а) изменение категориального значения данного полнозначного слова в направлении укрепления в нем значений объективности и релятивности в результате развития необычных смысловых и синтаксических связей с другими словами и предложениями; б) закрепления за данным словом определенного места и порядка слов (обязательная препозиция по отношению к следующему за ним полнозначному слову) и устойчивость сочетания подлежащих слиянию слов. [9].

Рассмотрим примеры конъюнкционализации в Словаре омонимов русского языка О.С. Ахмановой. [1].

Таблица 1.

Существительное → союз	**А (существительное)** (ср. рода, если нет уточняющего существительного) название первой буквы русского алфавита или звука, обозначаемого этой буквой: *-Первоклассники уже научились писать буквы «а» и «о».* *-Прописная буква а.*	**СОЮЗ:** **А (союз):** а) противопоставление: *-Спать надо не здесь, а там.* б) сопоставление: *Отец был лётчик, а сын избрал учёную карьеру.* в) несоответствие второго предложения содержанию первого: *-Дело к весне, а мороз всё жёстче.* г) присоединение: *-Что делаешь сегодня? А завтра?*
Существительное → союз	**БЛАГО**, сущ., -а, *мн.* бла́га, благ, бла́гам, *ср.* 1. Добро, благополучие (высок.). *Стремление к общему благу.* 2. обычно *мн.* То, что даёт достаток, благополучие, удовлетворяет потребности. *Материальные блага. Земные блага. Ни за какие блага в мире* (ни за что). ◊ **На благо** *кого-чего, в знач. предлога с род. п.* (высок.) - в интересах кого-чего-н., для пользы кого-чего-н. ***Всех благ!*** (разг.) - пожелание при прощании.	**СОЮЗ:** **БЛАГО**, союз (разг., часто ирон.). 1. Благодаря тому, что. *Гуляет, благо погода хорошая.* 2. Если, раз. *Бери, благо дают.*
Частица → союз	**1. АЖ (частица)** даже: -Мне сегодня аж пять писем пришло. **2. ДА (частица)** подтвердительный ответ на вопрос, выражение согласия; так, действительно, правильно, подлинно, правда, ей: *- Вы говорите по-русски? - Да!* Употр. при образовании форм	**СОЮЗ:** **1. АЖ (союз)** так что; что даже: *-Вы меня все так любите, аж мне неудобно как-то.* **2.ДА (союз)** и (сопоставление): *Пироги да слойки.* *Ты да я, да мы с тобой.*

	повелительного наклонения глагола; пусть: *Да будет свет!* *Да здравствует свобода!* Вопрос «Да?» выражает удивление, недоверие, просьбу подтвердить: *- Я ухожу в монастырь. - Да?*	*Жили-были брат Иван да сестра Марья в избёнке на берегу озера.* Но (противопоставление): *Скоро сказка сказывается, да не скоро дело делается.*
Междометие → союз:	**АЙ (междометие) -** выражает испуг, боль и другие сильные эмоции и ощущения: *- Ай, ай, - сказал полицейский, - дело, кажется, скверное!*	**СОЮЗ:** **АЙ (союз)** то же, что или. *- Ай боишься меня? - сказала она.* *- Я на неё не в обиде.* *- Откуда нам знать, в обиде ты ай нет?*

В этих примерах существительные, частицы и междометия переходят в класс союзов.

В узбекском языке одно и то же слово может использоваться в функции разных частей речи. Например, наречие “кейин” может употребляться в функции вводного слова, послелога, подчинительного союза. [5: 62]. Наречия отличаются от других знаменательных частей речи в отношении их активной способности перехода в служебные слова.

В узбекском языке мы тоже можем наблюдать конъюнкционализацию. Рассмотрим таблицу №2. Примеры взяты из Толкового словаря узбекского языка под редакцией А. Мадвалиева. [7].

Таблица 2.

Наречие → союз	**НАРЕЧИЕ: Баъзан** *[Йўлчи:] Хўжайинларникига бориб турасизми? [Абдишукур:]* ***Баъзан*** *бориб тураман.* Ойбек, Танланган асарлар.	**СОЮЗ:** Используется для связи однородных членов предложения. *[Йўлчи]* ***Баъзан*** *Қоратойнинг ишхонасида,* ***баъзан*** *чойхонада тунаб юрди.* Ойбек, Танланган асарлар.
Наречие → союз	**НАРЕЧИЕ: Кейин** *Шу китобни* ***кейинроқ*** *уқийман. – Бойваччанинг кимлигини кейин айтаман.* К. Яшин, Хамза. *Хўп, ҳозир тақмасанг, чўнтакка сол, уйингга яшир,* ***кейин*** *тақасан.* Ойбек, Танланган асарлар. *Қалтис йиқилиб, бирон жойи майиб бўлган киши бунинг оғриғини ўша тобда эмас,* ***кейин*** *билгандек, Сидиқжон бу можаронинг бутун дахшатини шу кечаси кўрпага кирганидан кейин билди.* А. Қаххор, Қўшчинор чироқлари.	**СОЮЗ:** Служит для связи придаточного причины или времени с главным предложением, выражает причинное или временное отношение. *Қўл калта бўлгандан* ***кейин****, қаёққа узатасан?* Ойбек, Танланган асарлар. *Ёруғ дунёдан умидинг бўлмагандан* ***кейин,*** *дарчанг қийшиқ турди нима булди-ю, тўғри турди нима бўлди. Бунақа нарсалар.. орзу-ҳавасга боғлиқ.* А. Қаххор, Қўшчинор чироқлари. *Бу ишлар бир қадар битгандан* ***кейин****, Сидиқжон онасини олиб келгани Баҳрободга борди.* А. Қаххор, Қўшчинор чироқлари.
Частица → союз	**ЧАСТИЦА: Билан** *Отам* ***билан*** *келдим. Кўчаларни, қишлоқни, айниқса Маҳваш* ***билан*** *бирга дарс тайёрлаган жойларни жуда-жуда қўмсадим.* Т. Ашуров, Оқ от.	**СОЮЗ:** Используется в функции соединительного союза 1) Связывает члены предожения, в основном, однородные члены связывает и по функции равняется союзу “и”. *Булар кўздан ғойиб бўлгандан кейин, Канизак* ***билан*** *Сидиқжон бутанинг орқасидан чиқишди.* А. Қаххор, Қўшчинор чироқлари; 2) служит для связи главного предложения с придаточным времени. *Дераза очилиши* ***билан****, Йўлчи бошини кўтарди.* Ойбек, Танланган асарлар.

Глагольная форма → союз	**ГЛАГОЛ (отрицательная форма, 3 лицо): Бўлмаса** ***Бўлмаса, бўлмас****! Униси* ***бўлмаса****, буниси бўлар. Бир балоси* ***бўлмаса****, шудгорда қуйруқ на қилур.* Мақол. *Зарур иш* ***бўлмаса****, чақиртирармиди.* «Гулдаста».	**ПРОТИВИТЕЛЬНЫЙ СОЮЗ:** *Ҳар куни хонадонимизда янги гап чиқиб туради.* ***Бўлмаса****, қайнонамнинг уйқуси келмайди.* Газетадан. *Уйлансам, Маҳбубага уйланаман,* ***бўлмаса****, фронтга ариза бериб кетаман, деб икки оёғини бир этикка тиқиб туриб олди.* С. Аҳмад, Уфқ.
Глагольная форма → союз	**ГЛАГОЛ (форма условного наклонения): Бўлса** *Олим* ***бўлсанг****, олам сеники.* Мақол. *Тўғри* ***бўлсанг****, бехавотир бўласан.* Мақол. *Кимнинг хулқи ёмон* ***бўлса****, у ўзини азобга гирифтор қилади.* «Фан ва турмуш».	**ПРОТИВИТЕЛЬНЫЙ СОЮЗ:** *Мен келавердим, у* ***бўлса*** *қолди. Қушбеги* ***бўлса*** *негадир узоқ ўйлаб ўтирар, тезда гап очмас эди.* А. Қодирий, Ўтган кунлар. *Ҳаққуш* ***бўлса*** *тўхтовсиз сайрар, ёз шабадасида унинг овози гоҳ секин, гоҳ баралла эшитиларди.* Ў. Хошимов, Қалбингга қулоқ сол.
Существительное → союз	**СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ: Дам** **ДАМ I** [ф. - нафас, тин] 1 *Бахтингиз бор эканки, мендай қўли енгил,* ***дами*** *ўткир ромчига йўлиқдингиз.* К. Яшин, Хамза. **ДАМ II** [ф. - бир нафаслик фурсат; лаҳза; вақт] *Чилла,* ***ҳар дами*** *тилла. Мақол.* ***Бир дам*** *узини йўқотиб, эсанкираб қолди.* С. Аҳмад, Уфқ.	**РАЗДЕЛИТЕЛЬНЫЙ СОЮЗ:** *Йўлчи эртадан кечгача* ***дам*** *у экинда,* ***дам*** *бу экинда Қамбар билан бирга ишлайди.* Ойбек, Танланган асарлар. *Сув* ***дам*** *оқизиб кетади,* ***дам*** *четга отади.* С. Аҳмад, Уфқ.
Деепричастие → союз	**ДЕЕПРИЧАСТИЕ: Деб** *Ҳаёт давомида икки тўп ниҳол экиб, ўстирган инсон ўз умрини мазмунли ўтди,* ***деб*** *ҳисоблашга ҳақлидир.* Газетадан. *Бекмуродов* ***деб*** *ёзилган.* С. Аҳмад, Юлдуз.	**ВЫПОЛНЯЕТ ФУНКЦИЮ СОЮЗА В СОСТАВЕ СЛОЖНОГО ПРЕДЛОЖЕНИЯ:** *Ҳар киши тер тўкиб қилади меҳнат, халқимнинг турмуши обод бўлсин* ***деб.*** Ғ. Ғулом. *Латофатхон бу хатга ҳам жавоб қайтармаганидан кейин, Мирзаев "унақа гаплар мижозига тўғри келмади шекилли"* ***деб,*** *қаттиқ хижолат тортди.* А. Қаҳҳор, Кўк конверт.

В узбекском языке наблюдается конъюнкционализация числительного «один». В узбекской пословице: ***Бир*** *каттанинг гапига кир,* ***бир*** *кичикнинг. - слово «бир» выполняет функцию сочинительного союза в сложносочинённом предложении. Здесь нужно отметить, что слово «бир» является союзом только при повторении, когда употребляется без повтора, оно относится либо к числительному, либо к другой части речи: в зависимости от значения и речевой ситуации.* [6: 249-252]

Таким образом, в результате изучения различных источников и словарей, мы пришли к следующим выводам:

1) в русском и узбекском языках использование одной языковой единицы (слова, формы, конструкции) в функции другой языковой единицы встречается довольно часто;

2) в современном русском и узбекском языках функционируют разнообразные по структуре и семантико-синтаксическим характеристикам производные союзы. В исследуемых языках в разряд союзов могут перейти как знаменательные части речи (существительное, местоимение, глагол и глагольные формы, наречие), так и служебные части речи (частицы, предлоги), также междометие;

3) в исследуемых языках производные союзы наречного происхождения часто употребляемы;

4) в отличие от русского языка, в *узбекском языке* числительное («бир») может выполнять функцию сочинительного союза*;*

5) наши исследования подтверждают, что в сопоставляемых языках конъюнкционализация является малопродуктивным типом транспозиции.

Мы считаем, что конъюнкционализация и ее процессы являются одним из основных источников обогащения и расширения количества служебных слов, ибо количество служебных слов в языке по сравнению с количеством знаменательных весьма ограничено. Число служебных слов, таким образом, увеличивается за счёт перехода знаменательных слов в разряд служебных внутри самого языка.

Таким образом, вопрос о переходности слов в системе частей речи современного русского и узбекского языков является еще недостаточно изученным. Нет полного описания системы функциональных омонимов в пределах каждой части речи и языка в целом. В теоретическом плане ещё не до конца решены вопросы о типах, видах и разновидностях этой группы слов.

Использованная литература

1. Ахманова О.С. Словарь омонимов русского языка. – М., 1986. – 448 с.
2. Жумаева Ф.Р. Типы транспозиции частей речи в современном русском языке. – Журнал: «Молодой ученый», №47. (Ч.7) – Казань, 2021. – С. 468-472 - https://moluch.ru/archive/389/
3. Жумаева Ф.Р. Интеръективация как один из типов транспозиции частей речи // Universum: филология и искусствоведение: электрон. научн. журн. 2021.12(90). – С.15-20.URL: https://7universum.com/ru/philology/archive/item/12760
4. Жумаева Ф.Р. История изучения перехода частей речи в трудах узбекских учёных. – Журнал: «Образование и инновационные исследования», №6. – Бухара, 2022. – С. 61-67 file:///C:/Users/Laser/Downloads/Extracted+pages+from+Beshimov+innovatsiya.pdf
5. Жумаева Ф.Р. Сходство и различие партикуляции в русском и узбекском языках. - «Преподавание языка и литературы» - научно-методический журнал. №3 – Ташкент, 2023. – С. 62-66
6. Жумаева Ф.Р. Эмиграционный трансформационный потенциал числительного «один». - “Узбекистон Миллий университети хабарлари” – журнал ВАК. – Ташкент -2023, [1/2/1]. - С. 249-252
7. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент, 2020. – 680 б.
8. Пардаев А.Б. Роль и лингвопрагматика служебных частей речи узбекского языка в лингвистической системе: Диссерт. док. филол. наук. – Ташкент, 2017. – 312 с.
9. Солиходжаева Ш.А. Конъюнкционализация полнозначных слов в служебные слова в таджикском и узбекском языках: Диссерт. канд. филол. наук. – Душанбе, 2001. - https://www.dissercat.com/content/konyunktsionalizatsiya-polnoznachnykh-slov-sluzhebnye-slova-v-tadzhikskom-i-uzbekskom-yazyka

BOSHLANG‘ICH SINFDA O‘QUVCHILARNING AQLIY FAOLIYATINI OSHIRISHDA KREATIVLIKNING O‘RNI

Ernazarova M.S. NavDPI Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, prof.
Zayniddinova M.B. NavDPI 1-kurs magistranti. O‘zbekiston.

Annotatsiya: maqolada maktab yoshidagi bolalrning darsda qatnashish jarayonida kreativ fikrlashini, bilim olishga qiziqishini oshirish haqida hamda tahlil qilish, sintezlash, umumlashtirish, xulosalash kabi aqliy faoliyatga o‘rgatish jarayonlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: rennesans, sistemalashtirish, diqqat, bilim, tahlil, sintez, tasniflash, umumlashtirish, kompleks rivojlanish, kreativ fikrlash.

РОЛЬ ТВОРЧЕСТВА В ПОВЫШЕНИИ УМСТВЕННОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Аннотация: В данной статье речь идет о повышении творческого мышления, интереса к познанию детей школьного возраста в процессе участия в уроке , а также об таких процессов, как анализ, синтез, обобщение, умозаключение.

Ключевые слова: Ренессанс, систематизация, внимание, знание, анализ, синтез, классификация, обобщение, комплексное развитие, творческое мышление.

THE ROLE OF CREATIVENESS IN INCREASING THE MENTAL ACTIVITY OF STUDENTS IN THE PRIMARY CLASS

Annotation: This article reflects on the development of creative thinking, interest in learning, as well as the analysis of such processes as analysis, synthesis, generalization, conclusion in the course of attending the lesson of a child of school age.

Key words: rennescence, systematization, attention, knowledge, analysis, synthesis, classification, generalization, complex development, creative thinking

Bugun biz o‘z oldimizga Uchinchi Renessans poydevorini qurishdek ulkan maqsad qo‘ygan ekanmiz, bu jarayonga yosh avlodning faol ishtirokoni ta‘manilmasdan erishib bo‘lmaydi.

Bunda ularni kreativ fikrlovchi tanqidiy tahlil qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxs sifatida voyaga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Har bir bola o‘z aqliy fikrlash darajasiga ega va u muntazam ravishda rivojlanib borish xususiyatiga ega. Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma‘lum maqsadga qaratilgan bo‘lishini ta‘lab etadi.

Xususan, yosh avlodni erta davrlardanoq ta‘lim orqali to‘g‘ri aqliy faoliyatga yo‘naltirish dolzarb. Chunki boshlang‘ich sinf darslarida bolalar diqqatini jalb etish bilan bog‘liq murakkabliklarga duch keladilar. O‘qituvchi o‘quvchilarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlarni egallashga, ularni sistemalashtirishga, bolalarni bilim olishga qiziqish uyg‘otishda yordam bera olishi kerak.

Boshlang‘ich sinfda bir qancha muammolar bilan duch kelish mumkin: -yetuk kadrlar yetishmasligi, -uzoq qishloqlardagi ta‘lim. Bilim oli –bu jamiyatimizning eng muhim amallaridan biri. Shuning uchun ham boshlan‘ich sinf ta‘limi keying pog‘onalardan farq qiladi. Chunki aynan shu davrda bolalarda motivatsiya va bilim olish asoslari shakllanadi.

Aqliy faoliyatning asosiy jarayonlariga quyidagilar kiradi:

-Asosiy qismni ajratish.

-Taqqoslash.

-Umumlashtirish va tizimlashtirish.

-Tushunchalarni aniqlash va tushuntirish.

-Isbot va rad etish.

-Modellashtirish.

-Tizimli yondashuv.

- Konkretlashtirish

Ishlab chiqarish faoliyati fikrlashning faol ishi bilan bog‘liq bo‘lib, tahlil va sintez, taqqoslash, tasniflash, o‘xshashlik, umumlashtirish kabi aqliy operatsiyalar ifodalanadi. Ushbu aqliy operatsiyalar odatda mantiqiy fikrlash usullari yoki aqliy harakat usullari deb ataladi. Matematik mazmunni o‘zlashtirish jarayoniga aqliy harakatning ushbu usullarini kiritish rivojlanayotgan ta‘limni shakllantirishning eng muhim shartlaridan biridir. Chunki samarali ijodiy faoliyat barcha aqliy funksiyalarning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Boshlang‘ich sinflar tafakkurining o‘ziga xos xususiyati fikrlashning 3 shaklining o‘zaro ta'siri: vizual-samarali: vizual-majoziy, og‘zaki-mantiqiy.

Rivojlanishga hissa qo‘shadigan ta‘limni qurishning eng muhim shartlaridan biri bu bolaning mustaqil fikrini uyg‘otish, uni o‘quv jarayonida paydo bo‘ladigan muammolarning mustaqil yechimlarini izlashga undashdir. Umumlashtirish-bu tahlil qilish, taqqoslash, mavhumlashtirish, asosiy narsani ta'kidlash qobiliyatini o‘z ichiga olgan aqliy faoliyatning murakkab usuli

Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha bolaning kompleks rivojlanishida aqliy faoliyat ko‘rsatkichi muhim o‘rin tutadi. S.L.Rubinshteyn aytganidek, bilimlarni o‘zlashtirish ortida fikrlash jarayoni turadi. Bu muammo ustida V.V. Davydov va P. Ya Galperen va boshqalar ishladilar . Pedagogik tajriba shuni ko‘rsatdiki, ta‘lim mazmunining o‘zi – aqliy faoliyat usullarini maxsus shakllantirmasdan turib, o‘quvchilarning tafakkurini yetarli darajada rivojlantira olmaydi . U faqat zarur shart sharoitlarni yaratadi va o‘qituvchi ularni izchillik, bosqichma-bosqich va fikrlash jarayonlarini tizimli shakllantirishga asoslangan maxsus texnika yordamida amalga oshirishi mumkin. Mukammal fikrlash shakli bu to‘g‘ri xulosa chiqarish. Pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, ta'lim mazmunining o‘zi aqliy faoliyat texnikasini maxsus shakllantirmasdan-oquvchilar tafakkurini kerakli darajada rivojlantira olmaydi. Asosiy narsani ajratib ko‘rsatish qobiliyati aqliy faoliyatning boshqa usullarini - taqqoslash va umumlashtirishni o‘zlashtirish uchun mustahkam asos yaratadi. Muayyan ish usullari va usullari yordamida bilimlarni umumlashtirish qobiliyati oquvchining tafakkuri izchillik kabi sifatga ega bo‘lganligini anglatadi.

O‘zbekistonda bugungi kunda o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirrish uchun bir qator ishlar olib borilmoqda. Misol uchun har yili yangi tahriridagi kitoblar chop etilishi, ularda zerikarlarli mashq va topshiriqlar o‘rniga mantiqiy masalalarning ko‘paytirilishi. Bolalar ko‘rgan va eshitgan ma‘lumotlarini tushunishi uchun, bu ma‘lumotlar ularning yosh darajasiga ham to‘g‘ri kelishi kerak. Yana topshiriqlarni rasmlar orqali ifodalanishi ham, bolalarning fikrlash tezligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, o‘quvchilarning faol hayotiy pozitsiyasini, ilmiy dunyoqarashini tarbiyalash aqliy faoliyat jarayonlarini shakllantirish, ongning barcha fazilatlarini rivojlantirish va takomillashtirish bilan uzviy bog‘liqdir. Fikrlash jarayonlari faqat bilim, ko‘nikma va malakalarning mustahkam asosi bilan shakllanishi mumkin. Faqat bilimning aniq tuzilishi orqali aqliy faoliyat jarayonlarini shakllantirishga imkon beradigan o‘quv jarayonini tashkil qilish mumkin. O‘ylaymanki, agar boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida fikrlash jarayonlarini shakllantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlarning maxsus ishlab chiqilgan tizimidan foydalansak, unda ko‘pchilik o‘quvchilar aqliy faoliyat jarayonlarini shakllantirishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asmolov A.G., Burmenskaya G.V. va boshqalar. Boshlang‘ich maktabda universal o‘quv faoliyatini qanday loyihalash kerak. Harakatdan fikrga: o‘qituvchi uchun qo‘llanma [matn]/ Ed. M., Ma'rifat, 2009.
2. Bolaning o‘qitish usullari va aqliy rivojlanishi / P. ya.- M., 1985 Yil Davydovv. V. ta'limni rivojlantirish muammosi / V. V. Davydov.M., 2003 yil.
3. Selevko, G.K. zamonaviy ta'lim texnologiyalari/ G. K. Selevko. - M., 1998 yil.
4. Polat E.S. ta'lim tizimidagi yangi pedagogik va axborot texnologiyalari: darslik. - M. Akademiya, 2003 Yil.
5. Menshenina, L.A. yosh o‘quvchilarda fikrlash jarayonlarini shakllantirish / L. A. Menshenina.

XORIJIY MANBALARDA MUXAMMAS JANRIGA OID NAZARIY QARASHLAR

Boltayeva Gulchehra Shokirovna
f.f.n., dotsenti, NavDPI, O‘zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy manbalarda muxammas janrining o‘rganilishi xususida fikr yuritiladi. Rus, arab, fors-tojik, ozarbayjon adabiyotshunosligida muxammas janrining genezisi, tadrijiy taraqqiyotiga oid dissertatsiya, maqola va ilmiy ishlar tahlil qilingan. Davr ruhini ifodalash, muxammas yaratuvchining tuyg‘ularini yorqin tasvirlash va firklarni xalqona tarzda aks ettirish uchun muxammaslar dastlab musammat tarkibiga kiruvchi she’r shakli, keyinchalik tadrijiy takomil asosida she’riy janr sifatida ko‘plab shoirlarning ijod laboratoriyasidan mustahkam o‘rin olganligi borasidagi ilmiy mulohazalar bayon qilingan.

Kalit soz’lar: musammat, muxammas, epos, lirika, drama, qasida, arab poetikasi, fors-tojik poetikasi, turkiy poetika.

Аннотация. В данной статье рассматривается исследование жанра мухаммас в мировой литературе. Проанализированы диссертации, статьи и научные труды, посвященные генезису и эволюцию жанра мухаммас в русском, арабском, персидско-таджикском и азербайджанском литературоведении. Чтобы выразить дух времени, социальные проблемы общества, ярко описать чувства лирического героя, мухаммас изначально представлял собой поэтическую форму, входивший в состав мусаммата, а затем, на основе постепенного совершенствования мухаммас, как жанр, занял особое место в творческой лаборатории многих поэтов.

Ключевые слова: мусаммат, мухаммас, эпос, лирика, драма, касыда, арабская поэтика, персидско-таджикская поэтика, тюркская поэтика.

Annotation. This article discusses the study of the epic genre in world literature. Dissertations, articles and scientific works devoted to the genesis and gradual development of the epic genre in Russian, Arabic, Persian-Tajik and Azerbaijani literary criticism are analyzed. In order to express the spirit of the time, vividly describe the feelings of the creator of muhammas, popularly reflect differences, muhammas was originally a poetic genre that was part of the muhammat, and then, on the basis of gradual improvement, they took a firm place in the creative laboratory of many poets.

Key words: musammat, mukhammas, epic, lyrics, drama, qasida, Arabic poetics, Persian-Tajik poetics, Turkish poetics.

Arab adabiyotida islomga qadar johiliya davri ijodkorlarining yuzdan ortiq she’riy asarlari mavjud bo‘lgan. Bular asosan V asrdan boshlab, VII asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davr adabiyotini qamrab oladi [10;23-42]. Ma’lumki, bu davr adabiyotida asosan qasida janri namunalari yetakchilik qiladi. Johiliyat davrida yashagan Umru-l-qays, Labid, Antara, Sobit ibn Abu al-azdii, Tabbata Sharan Bashar ibn Burd, Farazdaqning qasidalari “Ayomu-l-arab” to‘plamida tilga olingan. Keyinroq islomiyat davrida yashagan Ibn Qutayba tomonidan yaratilgan “Shoir va she’r” kitobida qasidaga poetik unsurlar bayon qilinib, unda qo‘shiqqa xos lirik kechinmalar ham, dostonga xos epik voqealar tasviri ham berilgan.

Arab qasidasi tarixiga doir tadqiqotlarga munosabat bildirgan Rossiya-Tojikiston slavyanshunoslik instituti professori, filologiya fanlari doktori Abdushukur Abdusattorov musammat janri shakllarining fors-tojik adabiyotida paydo bo‘lishini arab-ispan xalq she’riyati bilan bog‘laydi. Olimning “Musammat janrining shakllanishida arab-ispan ta’siri” (Заминаҳои арабй-испании пайдоиши мусаммат) nomli maqolasida ta’kidlashicha, o‘rta asrlar adabiy-tarixiy manbalari hamda zamonaviy sharqshunos olimlarning asarlari tahlili asosida xalifat davri arab adabiyotida (VII-VIII asrlar) musammatning shakllanishiga va keyinchalik fors-tojik she’riyatida takomil topishida arab-ispan she’riyatining ta’siri bo‘lgan. Arabiston yarim oroli, Yaqin va O‘rta Sharq, Shimoliy Afrika, Ispaniya, Markaziy Osiyo va Kavkazortini o‘z ichiga olgan Arab xalifaligi (632-1258) bu davlatlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotiga ham katta ta’sir o‘tkazgan. Natijada, ispan adabiyotiga arab adabiyotining ta’siri juda sezilarli darajada bo‘lgan. Ana shu asoslarga tayangan holda olim A.Abdusattorov IX asr oxirlarida arab-ispan adabiyotida mavjud musammat shakllari ***X***-XII asrlarda fors-tojik adabiyotida Rudakiy, Manuchehriy, Ma’sudi Sadi Salmon ijodi orqali kirib kelgan va rivojlantirilgan degan fikrni ilgari suradi [6;18].

Mazkur maqolada olim A.Abdusattorov qasida janri rivojlanishi bilan bog‘liq tahlillarida, muxammas shakli haqida ham fikr bildiradi. Arab-ispan tilida yaratilgan ayrim asarlarda qasidaga o‘xshash, undan o‘sib chiqqan, biroq tuzilishiga ko‘ra qasidadan erkin bo‘lgan muxammas she’r shakli qo‘llanilganligini ta’kidlaydi. Abdushukur Abdusattorov dastlab arab adabiyotida paydo bo‘lgan va yuksak cho‘qqiga ko‘tarilgan qasida janridan muxammas o‘sib chiqqan degan fikrni ilgari suradi.

Tatar adabiyotida ham she’riy janrlar, ularning genezisi, taraqqiyoti, takomili borasida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu tadqiqotlarning aksariyati turkiy-tatar, ikkinchi tomondan arab va fors-tojik klassik poetikasini qiyosiy o‘rganish, shuningdek, she’riy janrlar tizimining turkiy-tatar nazariyasini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan. Tatar adabiyotshunoslaridan A.Yaxin, M.Bakirov, G.Gilmanov, X.Usmonov, X.Minnegulov, D.Zagidullina, X.Kurbatovlarning tadqiqotlarda dastlab arab va fors-tojik poetikasidan, so‘ng turkiy adabiyotdan tatar adabiyotiga kirib kelgan g‘azal, qasida, ruboiy, masnaviy, qit’a, fard hamda noma she’riy janr sifatida, madhiya, marsiya, munojot, muxammas, musaddas esa bandli she’r shakllari sifatida tadqiq etiladi.

Qozon davlat universiteti tadqiqotchisi Sharipov Anvar Magdanurovich VIII-XIV asrlar qadim turkiy va turkiy-tatar adabiyotida she’riy janrlar tizimi tahliliga oid dissertatsiyasida o‘rta asr arab va fors-tojik klassik

poetikasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular o‘rta asr turkiy adabiyotiga ham ko‘chgan, degan fikrni ilgari suradi [4;12]. “IX-X asrlarda islom dinini qat’iy qabul qilgan turkiy tilda so‘zlashuvchi qabila va elatlarning og‘zaki va yozma adabiyotida arab madaniyati ta’siri seziladi, - deydi tadqiqotchi. X-XIV asrlarga kelib turkiyzabon og‘zaki she’riyat ham sezilarli darajada o‘zgarishlarga uchradi. Bu davrda turkiyzabon shoirlar arab poetikasini she’riy ijod sohasida qo‘llanma sifatida qabul qiladilar” [4;13]. VIII-XIV asrlarga tegishli qadimgi turkiy va tatar adabiyoti she’riy shakllari xususida A.Sharipov doktorlik dissertatsiyasining XIII-XIV asrlarda mavjud she’riy janrlar va she’riy shakllarga oid nazariy tahlillarida quyidagi xulosaga keladi: “XIII-XIV asrlar turkiy-tatar she’riyatida g‘azal, qasida, ruboiy, tuyug‘, qit’a, fard janrlari mavjud bo‘lgan. Mazkur janrlar tizimining tuzilishi ancha murakkab va rang-barang bo‘lib, quyidagi xususiyatga ega: 1) janrlar terminlari o‘rtasidagi xilma-xillik; 2) poetik janrlar va janr shakllarining bir-biriga faol ta’siri hamda bir janrdan boshqa janrning unib chiqishi. XIII-XIV asrlar turkiy-tatar she’riyatida yuqorida qayd etilgan janr va tematik guruhlardan tashqari tarje’band, tarkibband kabi bandli she’rlar, musammat turlari hamda soqiynoma, muammo, muvashshah kabi she’riy janr tarkibiga kiruvchi shakllar mavjud edi. Ammo XIII-XIV asrlarga oid bu strofik shakllarning matnlari va tematik guruhlari bugungi kungacha aniqlanmagan” [4;69].

Muxammas - fors-tojik adabiyotida ham eng faol va hajm jihatdan salmoqli she’riy janrlardandir. Fors-tojik adabiyotida ham muxammas janri va uning badiiy takomiliga doir bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan o‘rta asr mumtoz adabiyot tadqiqotchilari Atoulloh Husayniy, Husayn Voiz Koshifiy, rus adabiyotshunoslaridan Ye.E.Bertels, N.O.Osmanov, tojik adabiyotshunosidan S.Ayniy, A.Mirzoyev, S.Imronov, Sh.Husaynzoda, R.Musulmonqulov, X.Mirzozoda, Yu.Boboyev, Aliasqar Sherdo‘st, Sirus Shamiso, Sh.Rahmonov, J.Hikmatov, D.Hakimovlar fors-tojik adabiyotida muxammas janrining genezisi va tadrijiy taraqqiyotiga bag‘ishlangan asar va maqolalar yozganlar. Fors-tojik adabiyotining zukko tadqiqotchilaridan S.Ayniy, A.Mirzoyev va X.Mirzozodalar muxammasning shakllanish jarayonini XIV asrda yashab o‘tgan Xoja Kirmoniy ijodi bilan bog‘laydilar. Adabiyotshunos olimlardan S.Imronov [5;92] va Sh.Rahmonovlar [6;172] fors-tojik adabiyotida muxammas yozish ilk bor XII asrda So‘zani Samarqandiy ijodi bilan boshlangan deya ta’kidlaydilar. Olimlar fors-tojik mumtoz adabiyotining IX-X asrlarga tegishli adabiy merosi batafsil va to‘liq o‘rganilmaganligi va bu boy meros bizgacha to‘liq yetib kelmaganligi uchun muxammasning paydo bo‘lishi, janr sifatidagi takomili xususidagi bu bahsu munozaralar bugungi kunga qadar davom etmoqda, degan xulosani ilgari suradi. Muxlis Badaxshoniy muxammaslarini o‘rgangan olim J.Hikmatov “Muxlis Badaxshoniy va uning muxammaslari” [8;58] nomli dissertatsiyasida fors-tojik adabiyotida muxammas janri genezisi, shakllanishi, janr strukturasi va taraqqiyoti haqida fikr yuritib, S.Ayniy va A.Mirzoyev ta’kidlagan xulosaga tayanib, fors-tojik adabiyotida muxammas janrining shakllanishini XIV asrda yashab o‘tgan Xoja Kirmoniy ijodi bilan boshlangan degan fikrni ilgari suradi.

Fors-tojik adabiyoti tadqiqotchilarining juda ko‘pchiligi, masalan S.Imronov (“Nazare ba musammati muxammas”), Sh.Rahmonov (“Musammat, tashakkul va tahavvuli on”), J.Hikmatov (“Muxlisi Badaxshony va muxammasoti o`”)lar muxammas dastlab fors-tojik adiblari So‘zaniy, Azxariy va Xoja Kirmoniylarning ijodida paydo bo‘lgan degan fikrlarni ilgari suradilar. “Mazkur tadqiqotchilar mavjud manbalarga ko‘ra faqatgina shu ijodkorlarning asarlarini o‘rganganliklari uchun shunday xulosaga kelishgan. Aslida, fors-tojik yozma adabiyotining negizi hisoblangan xalq og‘aki ijodida ham muxammaslar munosib o‘rin egallagan. Muxammasning paydo bo‘lishi, asl negizi xalq og‘aki ijodiga borib taqaladi”, - degan xulosani ilgari suradi [7;13-14]. Eron, Afg‘oniston va Tojikiston xalqlarining og‘zaki ijodida bir yoki turli qofiyaga ega bo‘lgan besh qatorli she’rlarni uchratish mumkin. Shu bilan birga fors-tojik xalq og‘zaki ijodidagi muxammas namunalarida shevaga xos so‘zlar juda ko‘p uchraydi. Bu muxammaslar mazmuniga soddalik va uyg‘unlik baxsh etadi.

Xulosa sifatida ta’kidlash lozimki, davr ruhini ifodalash, muxammas yaratuvchining tuyg‘ularini yorqin tasvirlash va firkni xalqona tarzda aks ettirish uchun muxammaslar ijod ahli uchun ayni muddao edi. Xalq bayramlari va turli ko‘ngilochar tomoshalar, tadbirlar ham muxammas-qo‘shiqlar ohanglari ostida o‘tgan. Muxammaslar tuzilishi, mavzu doirasi, mazmuni va ijodkorning badiiy mahorati nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Иванов С. Н. Пять веков узбекской газели // В красе нетленной предстает. Узбекская классическая лирика XV–XX веков. Пер. со староузб. и узб. С. Иванова / сост. С. Н. Иванов. - М.: Наука, 1977.
2.Свиток столетий: Тюркская классическая поэзия XIII–XX веков: Сб. произведений / сост., пер., вступ. ст. С. Н. Иванова. Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1991.
3.Фильштинский И. М. История арабской литературы V - начала X в. - М.: Наука, 1985.
4.Шарипов А. Система стихотворных жанров в древнетюркской и тюрко-татарской литературе VIII-XIV вв. (зарождение, становление и функционирование). Автореф.дисс.док.фил.наук. – Казань, 2001.
5.Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X–XV вв.). - М.: 1989.
6.Рахмонов Ш. Мусаммат, его формирование и эволюция. – Душанбе: Дониш, 1987.
7.Хакимов Д. Формирование жанра мухаммас в персидско-таджикской литературе XII – XIX вв. дисс. на соискание ученой степени канд.фил.наук. Душанбе-2017.
8.Хикматов Дж. Мухлис Бадахшани и его мухаммасы. – Душанбе, 2010.
9.Стеблева И. В. Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. М.: Наука, 1971.
10.Суворов М.Н., Джандасова З.А., Пылев А.И. Средневековая литература мусульманского мира. Санкт-Петербург: Президентская библиотека, 2015.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING 4K MODELI BO‘YICHA KOMMUNIKATSIYA KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Jabborova Onaxon Mannapovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Kamolova Fayyoza Kamol qizi
Chirchiq davla tpedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4 bosqich talabasi

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 4k modeli bo‘yicha kommunikatsiya ko‘nikmasini shakllantirish texnologiyasi tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: kommunikatsiya va ko‘nikma, ta’lim va sharoit, ta’lim jihozi va imkoniyat, ta’lim muhiti va foydalanish, ko‘nikma va malaka.

ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ ПО МОДЕЛИ 4 К УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: в статье анализируется технология формирования навыков общения у учащихся начальных классов по модели 4k.
Ключевые слова: общение и навыки, образование и окружающая среда, образовательное оборудование и возможности, образовательная среда и его использование, навыки и компетентность.

TECHNOLOGY FOR FORMING COMMUNICATION SKILLS ACCORDING TO THE 4 K MODEL OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation: the article analyzes the technology of formation of communication skills of primary school students according to the 4k model.
Key words: communication and skills, education and environment, educational equipment and opportunity, educational environment and use, skills and competence.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida boshlang‘ich ta’limda sifatli ta’limga erishish vazifalari alohida belgilangan[1]. Shu jihatdan mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning ko‘nikmalarini xalqaro ta’lim dasturlari va xorijiy mamlakatlarning tajribalari asosida shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Ana shunday dunyo miqyosida e’tirof etilgan amaliyotga joriy etilayotgan ko‘nikmalardan biri *kommunikatsiyako‘nikmasidir*. Mazkur kommunikatsiya ko‘nikmasi XX asrning 90-yillarida Angliyaning Kembrij kollejida ishlab chiqilgan va tajriba-sinovdan o‘tkazilgan[2]. XXI asrning 20-yillaridan boshlab mazkur ko‘nikmaga bo‘lgan dunyo miqyosidagi qiziqish ortdi.

“Kommunikatsiya” atamasi lotincha bo‘lib, mavjud imkoniyatlar va texnik jihozlardan foydalanish, ular vositasida muloqotga kirishi olish mazmunini anglatadi[3]. Shu sababli mazkur atama vositasida kommunikatsiya ko‘nikmasi tarkib topib, u pedagogik tajriba-sinovdan o‘tib kelmoqda. Bu o‘rinda e’tiboringizni kommunikatsiya ko‘nikmasini tashkil qiluvchi tarkibiy qismlar va ularni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirish texnologiyasi tahliliga tortamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim sharoitidan foydalanishga o‘rgatish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikatsiya ko‘nikmasini shakllantirish uchun eng avvalo ularni mazkur ko‘nikmaning dastlabki qismi bo‘lgan ta’lim sharoitidan foydalanishga o‘rgatish lozim bo‘ladi. Shu ma’noda ta’lim sharoitidan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim va tarbiya jarayoniga olib kirishda tayanch vazifasini o‘taydi. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilari quyidagilardan foydalanishga o‘rgatilishi kerak:

a) zamonaviy o‘quv binolaridan foydalanish;
b) zamonaviy laboratoriya imkoniyatlaridan foydalanish;
v) zamonaviy o‘quv maydonlaridan foydalanish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim va tarbiya jarayonida moslashish jarayonida bo‘ladi. Ularning nisbatan ko‘pchiligi maktabgacha ta’lim muassasalarida zamonaviy binolardan foydalanish ko‘nikmasini egallagan bo‘lsa-da, biroq umumiy o‘rta ta’lim maktabining o‘quv binolaridan foydalanishni qaytadan o‘zlashtiradi. Bunda o‘quv binolari dizayner shakllariga zarar yetkazmaslik, ularga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, o‘quv binolarining imkoniyatlarini cheklashni bartaraf etuvchi jamoatchilik ishlarida ishtirok etish va o‘zini o‘quv binolaridan erkin hamda mustaqil his etish ko‘nikmalarini egallashi kerak. O‘zgacha aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchisida “Bu mening o‘quv binoim” mazmunidagi tushuncha tarkib topishi kerak. Shunda o‘quvchi umumiy o‘rta ta’lim maktablari, jumladan, boshlang‘ich ta’lim binolaridan oqilona foydalanish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Bu bilan ularda o‘zining ta’lim dargohi bilan fahrlanish hissi tarkib topadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablari zamonaviy laboratoriya imkoniyatlari bilan ham jihozlanmoqda. Chunki boshlang‘ich ta’lim bosqichidan boshlab amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya berish g‘oyasi amal qilmoqda. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari laboratoriya binolarining to‘ziga xos jihatlari, ulardan foydalanish qoidalari va tartiblari, foydalanishning vaqti hamda havfsizlik asoslari bo‘yicha tushunchalarga ega bo‘lishi kerak. Laboratoriya binolariga xos bo‘lgan xususiyatlardan xabardor boshlang‘ich sinf o‘quvchisi nafaqat ularning imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanadi, balki o‘zining va o‘zgalarning havfsizligini ta’minlashda ham bilvosita ishtirok etadi. Shu sababli laboratoriya binolari imkoniyatlaridan foydalanish ko‘nikmasini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirish kommunikatsiya ko‘nikmasining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablari jismoniy tarbiya va madaniyat mashg‘ulotlari, to‘garaklar mashg‘ulotlari hamda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanish uchun zamonaviy o‘quv maydonlari bilan jihozlangan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mazkur o‘quv maydonlaridan sanitariya-gigiyena qoidalari, estetik talablar va pedagogik qoidalar asosida foydalanishga o‘rgatilishi kerak. Misol uchun, Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlaridan keyin yuz-qo‘llarini yuvish kabi sanitariya-gigiyena talablaridan xabardor bo‘lishi ularda o‘quv maydonlaridan oqilona foydalanish ko‘nikmasini tarkib toptiradi. Shu sababli mazkur masala ham kommunikatsiya ko‘nikmasining tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Kommuniatsiya ko‘nikmasining ta’lim sharoitidan foydalanish tarkibiy qismi bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tushuncha va odatlarni shallantirishda ana shu masalalarga e’tibor berish muhim ahamiyatga ega. Bunda zamonaviy o‘quv binolari, laboratoriya binolari va o‘quv maydonlaridan foydalanishni bilish bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ layoqat ham rivojlanib borishini eslatib o‘tish joiz. Mazkur ishlar sinf rahbari boshchiligida 1-sinfdayoq o‘quv fanlari o‘qituvchilari va Yoshlar yetakchisi tomonidan amalga oshirilishi kutilgan samarani beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim muhiti imkoniyatlaridan foydalanishga o‘rgatish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantiriladigan kommunikatsiya ko‘nikmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri ularni ta’lim muhiti imkoniyatlaridan foydalanishga o‘rgatishdir. Ta’kidlab o‘tish lozimki, mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dastur”ga asosan xalqaro ta’lim dasturlari va xorijiy mamlakatlarning tajribalariga mos keladigan ta’lim muhiti shakllantirilgan. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim muhiti imkoniyatlaridan foydalanishga o‘rgatishda quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

a) sinf ta’lim muhitidan foydalanish;

b) maktab ta’lim muhitidan foydalanish;

v) sinfdan tashqari ta’lim muhitidan foydalanish.

Boshlang‘ich sinflarda ta’ltim muhiti o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bunda asosiy e’tibor o‘qituvchilarning o‘quvchilarga munosabati va o‘quvchilarning o‘zaro muloqotiga qaratiladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sinf ta’lim muhitidan foydalanishni o‘rgatish uchun ularni dars vaqti, tanaffuz vaqtidagi xatti-xarakatlar, dars jarayonida tartib intizomga rioya qilish va bilim olish jarayonida o‘rtoqlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Mana shu ko‘nikmalarga o‘rgangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 1-sinfdan boshlaboq mavjud sinf ta’lim muhitidan foydalanish va unda o‘zining o‘rnini topish xarakatlarida bo‘ladi. Buning natijasida sinf muhitidagi mavjud imkoniyatlardan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari foydalanishi nazarda tutilgan ko‘nikmalarni tarkib toptirishga erishish muhim ahamiyatga ega.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim muhiti ham umumiy xususiyatlarga ega. Unda har bir sinfning xususiyatidan kelib chiqgan holda dars jarayonini tashkil qilish, dars jarayonida o‘zga sinflarga xalaqit bermaslik, tarbiyaviy tadbirlarni maktab muhitining talablaridan kelib chiqib tashkil qilish va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining katta yoshli o‘quvchilar bilan munosabatlaridagi o‘ziga xosliklar mazkur toifa o‘quvchilarga o‘rgatiladi. Eng asosiysi boshlang‘ich sinf o‘quvchisi maktab ta’lim muhitidan umumiy xususiyatlarga ega bo‘lgan imkoniyatlar, ya’ni o‘z sinflardagi o‘quvchilar bilan bilim olish jarayonida muloqotga kirishish vositasidan foydalanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va sinf rahbarlari o‘quvchilarni maktab ta’lim muhitining eng muhim jihatlari bilan muntazam tanishtirib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi[4].

Mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’lim bosqichida sinfdan tashqari ta’lim muhiti ham tashkil etilgan. Bu ta’lim muhiti muzeylarda, kutubxonalarda, teatrlarda yoki uch avlod uchrashuvlari tadbirlari vositasida tashkil qilinadi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mazkur sinfdan tashqari ta’lim muhiti jarayonida intizomli bo‘lishi, mashg‘ulotlar va tadbirlarni o‘zlashtirishi, turli topshiriqlar va takliflarni bajarishi taqozo etiladi. Mana shu hol boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sinfdan tashqari ta’lim muhitiga o‘rgatish va moslashtirishni taqozo etadi. Buning uchun Yoshlar yetakchisi ishtirokida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga sinfdan tashqari ta’lim va mashg‘ulotlarning hamda tadbirlarning mazmunini muntazam tushuntirib borish kutilgan natijani beradi.

Diqqat qilinsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim muhitidan oqilona foydalanishga o‘rgatish ularda kommunikatsiya ko‘nikmasini shakllantirishning muhim asoslaridan biridir. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning sinf, maktab va sinfdan tashqari ta’lim muhiti imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarini tarkib toptirish muhim o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim jihozlaridan foydalanishga o‘rgatish. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’lim bosqichi bugungi kunda zamonaviys ta’lim jihozlari bilan ta’minlangan va ular takomillashtirilib borilmoqda. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim jihozlaridan foydalanishga o‘rgatish ularda kommunikatsiya ko‘nikmasini shakllantirishning muhim tarkibiy qismidir. Bunda asosiy e’tiborni quyidagilarga qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) o‘quv-texnik vositalardan foydalanishga o‘rgatish;

b) multimediyali ta’lim jihozlaridan foydalanishga o‘rgatish;

v) ko‘rgazmali ta’lim jihozlaridan foydalanishga o‘rgatish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bugungi kunda kompyuter, mobil aloqa vositasi kabi o‘quv-texnik vositalardan oqilona foydalanmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bepul ta’lim planshetlari bilan ta’minlash ham yo‘lga

qo‘yildi. Shu ma’noda kompyuter, mobil aloqa vositasi va ta’lim plansheti bugungi kunda boshlang‘ich ta’limning muhim vositalari hamda jihozlaridan biriga aylandi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mazkur vositalardan bilim olish, tarbiya asoslarini o‘zlashtirish va individual faoliyatga tayyorlanish bo‘yicha foydalanishga o‘rgatish muhim ahamiyatga egadir. Bunda “Matematika” va “Informatika” o‘quv fani o‘qituvchilarining faol bo‘lishlari taqozo etiladi. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kompyuter, mobil aloqa vositasi va ta’lim plansheti “bu bilim va tarbiya olishning manbaidir” degan tushunchani tarkib toptirish ularda kommunikatsiya ko‘nikmasining shakllanishini yo‘lga qo‘yish omillaridan biri hisoblanadi. Bu o‘rinda ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bolalarbop va ta’lim-tarbiyaga yo‘naltirilgan kompyuter o‘yinlaridan foydalanishga ham o‘rgatilishi bu boradagi imkoniyatlarni kengaytiradi. Aynan o‘quv-texnik vositalari va jihozlaridan foydalanishni bilish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikatsiya ko‘nikmasini tarkib topishida tayanch vazifasini o‘taydi.

Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim bosqichi turli tasvirli animasion, audio va video ovozli tasvirlarga ega multimediyadli jihozlar bilan ham izchil ta’minlanib bormoqda. Mazkur ta’lim jihozi boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan vertual aloqa va munosabatga kirishishni taqozo etadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’kidlangan multimediyali ta’lim jihozlaridan foydalanishni bilishi muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, audio va videoli tasvirlarga ega mashg‘ulotlar materiallari va topshiriqlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tezkor ravishda mustaqil fikrlash va topshiriqni bajarish bo‘yicha qaror qabul qilishni taqozo etadi. Shu sababli bunday multimediyali ta’lim jihozlaridan oqilona foydalanishni o‘rgatish uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vaqt omilidan unumli foydalanish ko‘nikmasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada bizningcha, maktab valentyorlik xarakati a’zolarining imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Unga ko‘ra, katta yoshli valantyor o‘quvchilar o‘zlariga biriktirilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining multimediyali ta’lim jihozlaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Buning natijasida amaliy jihatdan muhim bo‘lgan o‘ziga xos ko‘nikmaga ega bo‘linadi. Mazkur jihozlardan foydalanish ko‘nikmasi ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirishning tayanchlaridan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida turli ko‘rgazmali jihozlardan ham foydalanish bugungi kunda keng tajribaga ega bo‘ldi. Tasviriy san’at namunalari ko‘rgazmasini tashkil qilish, musiqa san’ati cholg‘ularini namoyish qilish, o‘quv fanlari bo‘yicha turli ishlanmalar va rabotatexnikalarni ta’lim jarayoniga taqdim etish, o‘quvchilarning ijodiy mahsulotlaridan foydalanish kabilar ko‘rgazmali ta’lim jihozlarining negizlarini tashkil etmoqda. Mazkur ko‘rgazmali jihozlardan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim olish, tarbiya asoslarini o‘zlashtirish va estetik rivojlanishi yo‘lida foydalanishga ko‘niktirilishi kutilgan samarani beradi. Bunda boshlang‘ich ta’lim gumanitar o‘quv fanlari o‘qituvchilarining birgalikdagi xarakati muhim o‘rin tutadi. Mazkur toifa o‘qituvchilar boshlang‘ich sinf o‘zqituvchilarida ko‘rgazmali jihozlardan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmani tarkib toptirishi ularda kommunikatsiya ko‘nikmasini yuzaga keltirishning keng imkoniyatlarini beradi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim jihozlaridan foydalanishga o‘rgatish bilan ularda kommunikatsiya ko‘nikmasini shakllantirish muhim o‘rin tutadi.

Shunday qilib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikatsiya, ya’ni ta’lim sharoitidan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish uchun keng ko‘lamli tadbirlarni amalga oshirish taqozo etiladi. Bunday tadbirlarda o‘quvchilarda umumiy o‘rta ta’lim maktabining ta’lim sharoitidan foydalanish, ta’lim muhitidan foydalanish va ta’lim jihozlaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish birlamchi hisoblanishi kerak.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziyonet.uz
2. ObrazovatelnayaprogrammaKembridja. // www.pedagog.ru
3. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Xasanboyeva J., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: “Fan va texnologiya”. 2009. 226-bet.
4. Jabborova O., Tashpulatova D. ART texnologiya va kreativlik. – T., 2023

КРЕАТИВЛИКГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН МАХСУС МАСАЛАЛАР ЁРДАМИДА ЎҚУВЧИЛАРДА КРЕАТИВЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

С.Т.Сейтмуратов

докторант (PhD)Әжинияз атындғы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты.Nukus, O‘zbekiston

Аннотация: Мақолада креативликни аниқлашнинг асосий ёндашувларини таҳлил қилиб, улар креатив қобилиятларни ривожлантириш ва креатив шахсни шакллантириш, креатив фаолиятни таъминлашнинг ҳақиқий механизмларини излашга йўналтирилган ўқув жараёнига ижодий таълимни жорий этиш зарур деган хулосага келинади.

Калт сўзлар: креатив компетентлик, махсус масала, масалалар ечишни ўргатиш.

ФОРМИРОВАНИЕ КРЕАТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗАДАНИЙ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОСТИ

Аннотация: анализируя основные подходы к определению креативности в статье, они приходят к выводу о необходимости внедрения в образовательный процесс креативного образования, которое направлено на развитие творческих способностей и формирование творческой личности, поиск реальных механизмов обеспечения творческой активности.

Ключевые слова: творческая компетентность, специальная проблема, обучение решению проблем.

FORMATION OF CREATIVISM IN STUDENTS WITH THE HELP OF SPECIAL ISSUES AIMED AT CREATIVISM

Abstract: analyzing the main approaches to the definition of creativity in the article, they come to the conclusion that it is necessary to introduce creative education into the educational process, which is aimed at the development of creative abilities and the formation of a creative personality, the search for real mechanisms to ensure creative activity.

Keywords: creative competence, special problem, problem solving training.

Бүгинги күндеги тийкарғы мақсет, оқыў процессинде оқыўшылардың креатив пикирлеўин жетилистириў ушын креативликке бағдарланған математикалық мәселелерден пайдаланыў керек. Демек, математика пәнинен пайдаланған ҳалда креатив искерликти әмелге асырыўға таяр болған заманагөй жоқары жетискенликли, мийнет базары талапларына сәйкес келетуғын математика оқытыўшысының математика оқытыў системасын олардың искерлигин креатив жетилистириўге бағдарлаў керек.

Креативлик-бул, шахстың улыўма ямаса оның жеке жағдайдағы характерлерин көрсетеди. Креативлик қәбилеттиң әҳимийетли факторы көринисинде де сәўлеленеди ҳәм зейин өткирликти белгилеп береди, оқыўшылар итибарын тәлим процессине актив қатнасыўын тамийинлейди.

Креатив ҳәрекетлер төмендегилерди өз ишине алады:

-проблеманы шешиў ушын кең көлемдеги мағлыўматларды анализ етиў ҳәм баҳалаў:

-мәселени шешиўде бир неше шешимлерди көриў ҳәм оны синтез қылыў:

-шешимлердиң арасынан дурыс шешимлерди табыў:

-табылған шешимниң мәнисин толық баҳалаў.

Демек, креатив пикирлеў креативликти қоллаў арқалы жаңа идеяларды ислеп шығарыў усылы болып табылады. Қойылған мәселени шешиў ушын берилген мағлыўматларды дурыс баҳалаў, оны синтез етиў ҳәм мәселени шешиў ушын бир неше шешимлерди ислеп шығыў, альтернатив шешимлер ҳаққында түсиник бериў ҳәм шешимди таңлаў, әмеге асырып атырған шешимлердиң мәнисин ҳәм жуўмағын дурыс баҳалаўды әмелге асырыўы керек болады. Бул пикирге тийкарланып, креатив пикирлеўде креатив харекетлерден пайдаланып, жаңа идеяларды пайда етиў усылы депте қараўымызға болады. Сондай етип, мәселелер бир неше шешимге ийе болыўы керек.

Оқыўшыларда креатив пикирлеў көнликпелерин қәлиплестириў тийкарғы итибар орайында болып, оқыўшылар сөзлер жәрдеминде креатив характердеги ҳәрекетлердиң мәнисин аңлатыўға бағдарлайды. Бул процессти мысаллар менен түсиндирсек, оқыўшылардан «үшмүйешлик ҳәм тетраэдр медианалары арасында байланысты тәрийиплеп бериң» мазмунындағы қадағалаў сораўлар оларда креативликти қәлиплестирмейди. Себеби, сораў қурамындағы «тәрийиплеп бериң» түсиниги өз мәнисине көре бар болған мағлыўматларды бирме-бир айтып өтиң деген менен тең.

Қадағалаў сораўларды бергенде оқыўшыларды пикирлеўге бағдарлаўшы сөзлерден пайдаланыў арқалы олардың креатив пикирлеўлерин аңсатластырады. Сол себепли оқыўшыларда креатив пикирлеўди қәлиплестириўде оқытыўшылар турли, өзгеше ҳәмде пухта жуўапты бериўге мәжбур етиўши сөзлерден пайдаланыўлары мақсетке муўапық болып есапланады.

Уқсаслықты табың, өз-ара байланысты табың, көз алдыңызға келтириң сыяқлы сөзлерден пайдаланыў әмелий тәреплен нәтийжели болып табылады. Егер оқытыўшы оқыўшылардан “үшмүйешлик ҳәм тетраэдр медианалары арасында уқсаслық”ты талап етиўдиң орынына “ үшмүйешлик ҳәм тетраэдр медианалар арасында уқсаслықты векторлардан пайдаланыў арқалы дәлиллеўин сораў мақсетке муўапық болады. Себеби ол жерде көргизбелилик жақсы сүўретленеди. Нәтийжеде оқыўшыларда бар болған билимлерди улыўмаластырып, жаңа пикир ҳәм идеяларды раўажландырыўға ерисемиз.

Креатив искерлик процессин оқыўшыларда пайда етиў ушын мәселени шешиў ҳәм инновацион идеяларды алға сүриў процессинде креатив метод ҳәм усылларды актив қолланбасада оларда креатив пикирлеў жүзеге келеди. Үшмүйешлик ҳәм тетраэдрдиң медианалары арасында уқсаслық”ты табыўда мәселелериндеги тапсырманы орынлағанда оқыўшы үшмүйешлик ҳәм тетраэдрди аналитикалық ҳәм векторлық усыллар жәрдеминде анализлейди. Нәтийжеде, оқыўшыларда ҳәр тәреплеме ойлаў, кеңирек пикир жүритиў жүзеге келеди [2:201].

Оқытыўшы өз алдына машқалалы мәселелерди қойыў арқалы бар билимлери ҳәм девергент ойлаўға байланыслы дәлиллерге дус келеди. Буның нәтийжесинде оқытыўшының өз үстинде ислеўи, өз-бетинше оқып үйрениўине мутәжлик сезеди.

Оқытыўшы өзинде төмендеги креативлик қәнигелигин көрсете алыўы керек:

-орынланатуғын тапсырмалардың мәнисин ҳәм әҳмийетин белгилей алыўы;

-мәселениң қойылыўын анализ ете алыўы;

-мәселени шешиў режесин дүзиўи;

-мәселени шешиўде унамлы методлар (анализ, синтез, индукция, дедукция, салыстырыў ҳәм тағы баскалар)ларды қоллаў;

-мәселени шешиў усылларын таңлай алыўы;

-қабыл етилген қарардың туўры екенлигин тийкарлаў ҳәм қайта тексериў;

-мәселени шешиўде киши излениўди алып барыў;

-мәселени шешиў процесси ҳәм мәселе шешими жуўмақларын улыўмаластырыўға байланыслы дәлиллерди рәсмийлестириў.

Демек, оқыўшылардың билиминиң активлигин, еркинлигин, креативлигин раўажландырыў қәбилетине оқытыўшының өзи ийе болыўы мақсетке муўапық деп есаплаймыз.

Әдебиятлар

1. Сейтмуратов С.Т. Махсус машқлар асосида математика ўқитувчиларининг креатив компетентлилигини ривожлантириш методикаси. –Нөкис: НМПИ, 2022.

2. Зокирова Ф., Позилова Ш. Олий таълим муассасаси ўқитувчиларини қайта тайёрлаш ва малака ошириш курсларида креатив ўқитиш методикаси.-Тошкент, 2018.

O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA KREATIVLIKNING AHAMIYATI

Samiyeva Dilbar Shukrullayevna
Navoiy davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o`qituvchning pedagogik faoliyatida kreativlikning ahamiyati va orni, shuningdek, uzluksiz ta’lim jarayonida shaxsni o‘qitishning ijodiy yo‘nalishini amalga oshirishning pedagogik shartlari to‘g‘risida fikrlar yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: o`qituvchi**,** kreativlik, kreativlikni rivojlantirish, kreativ fikrlash, qobiliyat.

ЗНАЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ

Аннотация: В статье рассматриваются значение и место творчества в педагогической деятельности учителя, а также педагогические условия реализации творческой направленности обучения личности в процессе непрерывного образования.

Ключевые слова: учитель, креативность, развитие креативности, факторы препятствующие развитию креативности, креативное мышление, способность.

THE IMPORTANCE OF CREATIVITY IN TEACHER'S ACTIVITY

Annotation: The article discusses the importance and place of creativity in the teacher's pedagogical activity, as well as the pedagogical conditions for the implementation of the creative direction of personal training in the process of continuous education.

Keywords: teacher, creativity, development of creativity, creative thinking, ability.

Bugungi globallashuv kuchaygan davrda har qaysi jamiyat kreativ shaxslarga ehtiyoj sezadi. Bu tabiiy hol albatta. Chunki dunyoda har daqiqada sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar shuni taqozo qilmoqda. Dunyo ta’lim taraqqiyotining jadal suratlarda rivojlanishi avvalambor ta’lim jarayoniga innovatsion va kreativ yondashish lozimligini taqozo etmoqda. Chunki jahonda har qaysi jamiyatning rivojlanishi va yo‘nalishini begilab beruvchi innovatsion-kreativ ijodkorlik ta’siri ostida yuz berib, inson faoliyatining har bir sohasida ijodkorlikka bo‘lgan ehtiyojning ortishi bilan tavsiflanadi.

Ijodkorlik: maqsadli yo‘l bilan original mahsulotni orzu qila olish, bir narsalarni boshqalardan farqli ravishda qilish. Bu biznes qilish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatidir. Ijodkorlik, g‘ayrioddiy fikrlash, bu, shuningdek, noyob hatti-harakatlar paydo bo‘lishi tarzida belgilanadi. Ijodkorlik tafakkur mahsuli sifatida qabul qilinganda, u ilgari bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan g‘oyalarni qayta qurish jarayonidir. Bu fikrlarni qayta tiklash jarayonidir. Xulq-atvorning asl natijasi sifatida qaralsa, u o‘zini tutishning dastlabki usullariga ko‘ra eski tajribalarni qayta talqin qilishni ifodalaydi. Agar uning mahsuldor xususiyatini hisobga oladigan bo‘lsak, gohida ijtimoiy tuzilmaning jamoaviy energiyasi, gohida esa ilmiy va badiiy nuqtai nazardir.

Kun sayin ortib borayotgan axborot insonlar hayotiga tez kirib boradi va chiqib ketadi. Texnologiya tufayli ma'lumotlarga osonroq kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan insonlar bir-biri bilan tezroq bog‘lanib, o‘zaro aloqada bo‘lishadi. Biroq, jamiyatlar va odamlar o‘rtasidagi farqlar hali ham mavjud. Bu farqning asosiy sababi bilim emas, balki axborotni qayta ishlash va sharhlash bo‘yicha original qarashlardir.

Tadqiq qiluvchi, tahlil qiladigan, muammolarni hal qiladigan, talqin qiladigan va ijodiy fikrlaydigan odamlar boshqalardan bir qadam oldinda. Insonlar o‘zlarining cheksiz tasavvurlaridan foydalanish orqali bilimga ma'no va o‘ziga xoslik beradilar, cheksiz tasavvurdan foydalanadilar.

Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSH, Kanada, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Koreya kabi davlatlarda o‘qitish jarayonlari innovatsion-kreativ yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Ijodiy fikrlash - o‘qituvchi ega bo‘lishi kerak bo‘lgan qobiliyatdir. Ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchi muammolarga nisbatan sezgir, ko‘p sonli assotsiatsiya va g‘oyalarni yarata oladigan, moslashuvchan, nodir mahsulotlarni ishlab chiqadigan, chuqur fikrlaydigan, qayta tasvirlay oladigan, turli nuqtai nazarlarni ifodalash kabi qobiliyatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchidir. Mazkur holatni bevosita kuzatib, chuqur tahlil qilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustda xalq ta’limi, oliy ta’lim xodimlari bilan bo‘lgan muloqotda uzluksiz ta’lim tizimida olib borilishi kerak bo‘lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, “… bugungi kunda ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning obro‘sini ko‘tarish, shu bilan bir qatorda

bugun o‘qituvchilarning o‘zlari ham ta’lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim”[15], - degan bir qator fikrlarni bildirib o‘tdi.

Shuningdek, yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham, ta’lim-tarbiyaning uzviy bog‘liqligini yanada kuchaytirish maqsadida “Sharqona qarashlarimizda ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi. Bu esa bugungi kun o‘qituvchisidan katta mas’uliyatni talab qiladi”,16 - deb ta’kidladilar.

Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra jarayon tarzda namoyon bo‘ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g‘oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo‘lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy hart-sharoitlar hamda inson ontogenizi – tug‘ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq. Ma’lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan kasbiy kompetentsiyalar va ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning yetarli darajada o‘zlashtirilishi talab etiladi

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o‘qituvchilar ham o‘zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987 yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi. Talaba tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to‘rtta mezonni qanotlantirishi lozim E.P.Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; - farazni tekshirish va o‘zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etilaigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So‘nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

Ijtimoiy va tarixiy nuqtai nazardan ijodkorlik odamda ma’lum bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladigan yoki ijtimoiy aloqalarga bog‘liq bo‘lgan jarayon sifatida, ijodiy mahsulotni baholash mezonlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Turli adabiyotlarda ijodkorlik:

- g‘ayrioddiy g‘oyalarni «ishlab chiqarish», an’anaviy chegaralardan uzoqlashish va muammoli vaziyatlarni tezda hal qilishning intellektual qobiliyati sifatida ;
- “fikrlash, hissiyot, aloqa, individual faoliyat turlarida o‘zini namoyon qila oladigan, shaxsni bir butun sifatida va uning alohida tomonlarini, faoliyat

mahsullarini, ularni yaratish jarayonini namoyon eta oladigan qobiliyat” sifatida;

- ijodkorlik psixologik nazariya sifatida ko‘rib chiqiladi.

«Ijodkorlik» tushunchasini «shaxsning yangi tushunchalar yaratish va yangi ko‘nikmalarni shakllantirish qobiliyatini aks ettiradigan qobiliyat», ya’ni, ijodiy bo‘lish qobiliyati, «O‘z qobiliyatlarini ishlatishga va rivojlantirishga tayyorlik sifatida», “odamning zarur qidiruv transformatsion munosabati” sifatida o‘zini izlash-transformatsion faoliyatida namoyon bo‘ladi” deb hisoblaydi.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlashimiz kerakki, o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, o‘quvchilar ham shunday bo‘la oladi. O‘qituvchining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ro‘ziyeva D.I., Tolipov O‘.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.
2. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.

15 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimi o'qituvchilari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda so'zlagan nutqi. 2019.08.23.15

BOSHLANGICH TA`LIMDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TARBIYASINING AHAMIYATI

Umarova Zuxra Abduraxmanovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta ‘lim metodikasi” kafedrasi dotsenti v.b.
Sapayeva Dilrabo Sotimboy qizi
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta'lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, Vatanni sevish va uni ardoqlash kerakligi haqida. Shuningdek mehnatsevarlik, tinchlikning qadriga yetish, o‘zaro hurmat va hammaga iloji boricha yaxshilik qilish ruhida tarbiyalash, ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot kechirish, har doim yangilik sari intilish, ta'lim-tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga alohida e'tibor berish haqida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Milliylik, umuminsoniylik, tarbiya, qadriyat, sinf, o‘quvchi, singdirish, tarbiyalash, ong, xalq, olloh taolo, mafkura, mustaqil, urf-odat, bilim.

ЗНАЧЕНИЕ ВОСПИТАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье говорится о необходимости воспитания учащихся на основе национальных и общечеловеческих ценностей, любви и почитания Родины. А также образование в духе трудолюбия, ценить мир, взаимоуважение и делать добро всем, жить свободной и процветающей Родиной, свободной и благополучной жизнью, всегда стремиться к инновациям, особое внимание к национальным и общечеловеческим ценностям в образовании. дано о внимании.

Ключевые слова: Национальность, универсальность, образование, ценность, класс, ученик, воспитание, воспитание, сознание, народ, Всевышний, идеология, независимость, традиция, знание.

THE IMPORTANCE OF EDUCATION OF NATIONAL AND GENERAL HUMAN VALUES IN PRIMARY EDUCATION

Abstract: This article is about the need to educate students on the basis of national and universal values, to love and honor the Motherland. Also, education in the spirit of hard work, valuing peace, mutual respect and doing good to everyone, living a free and prosperous Motherland, free and prosperous life, always striving for innovation, special attention to national and universal values in education. given about paying attention.

Key words: Nationality, universality, education, value, class, student, inculcation, education, consciousness, people, God Almighty, ideology, independent, tradition, knowledge.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning asosiy poydevoridir” kitobida hozirgi zamon ta’lim jarayonimizda yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash vazifasini qo‘ygan. Milliy qadriyatlar – bu xalqimizning azaldan amal qilib kelayotgan fazilatlari, odatlari va turmush-tarzimizning madaniy an'analari majmuidir. Shu ma’noda tarbiya jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida quyidagi fazilatlarni shakllantirish taqozo etiladi:

- insonni qadrlash;
- Vatanni sevish;
- o‘zgalarni hurmat qilish;
- o‘z manfaatlaridan o‘zgalar manfaatlarini ustun qo‘yish;
- mehnatsevarlik.

Bu fazilatlar xalqimizning mintalitetiga, ya’ni tabiatiga singib ketgan. Har bir oilada ularga amal qilishga harakat qilinadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy vazifasi o‘quvchilar ongiga ana shu fazilatlarni chuqurroq singdirishdan iborat.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini halqimizga xos bo‘lgan quyidagi odatlarni singdirish taqozo etiladi:

- jamoa bo‘lib yashash;
- qo‘shnini hurmat qilish;
- yaxshilikni baham ko‘rish;
- molparastlik va boylikka o‘ch bo‘lmaslik;
- halol mehnat evaziga yashash;
- biror kasb yoki hunarning egasi bo‘lish.

Mazkur odatlar xalqimizning milliy tabiatiga mos ekanligini xorijlik mutafakkirlar ham e’tirof etadi. Misol uchun, buyuk qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov “Qiyomat” asarida “o‘zbeklarning odatlari turkiy xalqlar uchun Bobil vazifasini o‘tagan”, - deb yozadi. Ma’lumki, insoniyatning madaniylashuvi hozirgi Osiyoda mavjud bo‘lgan Bobil nomli davlatdan boshlangan. Ya’ni insoniyat vahshiylik tuzumidan insoniylik tuzumiga o‘tgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari xalqimizga xos bo‘lgan quyidagi madaniy turmush-tarz an’analari bilan tanishtirilishi kerak:

- hamisha pok yurish, pok kiyinish va pokizalikka rioya qilish;
- muhtojlarga moddiy va ma’naviy yordam berish;
- o‘ziga ravo ko‘rganni o‘zgalarga ham ravo ko‘rish;
- oziq-ovqatlarni birovlar bilan baham ko‘rish;
- odamlarga yaxshi va yomon kunlarida bir xil munosabatda bo‘lish;
- oilani muqaddas bilish.

Bu an’analar o‘quvchilar ongini nafaqat ijtioiylashtiradi, balki ularda milliy ruhning tarkib topishida muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda ana shu tayanchlarga asoslaniladi. Ayni paytda, mamlakatimizda yashayotgan 130 millat va elatlarning milliy qadriyatlarga ham hurmatda bo‘lish ruhi o‘quvchilarga singdiriladi. Chunki bu xalqlarning milliy qadriyatlari ham xalqimizning qadriyatlariga mos tushadi.

Ong – bu shaxsning miya organida yuzaga keladigan tushunchalari, fikrlari va odatlari majmuidir. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongi pedagoglarimiz to‘g‘ri ta’kidlashganidek, yozilmagan oq qog‘ozga o‘xshaydi. Mazkur masala 7-11 yoshli o‘quvchilar ongiga maqsadli va muddaoli qadriyatlarni shakllantirishni taqozo etadi. Bu borada umuminsoniy qadriyatlar ham muhim o‘rin tutadi.

Milliy tarbiya tizimini shakllantirish, barcha sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo‘lishn ikengaytirishga mustahkam zamin yaratilmoqda. Endilikda mamlakatning iqtisodiyoti, insonlar hayoti va jahon hamjamiyatidagi o‘rni axborot-texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘libqolmoqda. Ma’lumki, fan va texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, fan-texnika yangi soha va bo‘limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta’minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan,fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatning to‘liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoit yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo‘ladi. Va har qaysi inson Olloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste’dodini avvalo o‘zi uchun, oilasi, millati va xalqi, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to‘liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur’atva samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas. Shunday ekan, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish boshg‘oya, shu g‘oyaning yetakchi targ‘ibotchisi, tarbiyachisi o‘qituvchi hisoblanadi.

Binobarin, biz davlatimiz kelajagini o‘z qobig‘imizga o‘ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib,davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o‘z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko‘ramiz. Mana shu o‘rinda, aytish joizki, yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflardan boshlab murg‘ak qalblarda axloq-odobga oid sodda tushunchalardan boshlab, sekin-astalik bilan milliy qadriyatlarimiz elementlarini singdirib borish katta ahamiyatga ega.Ular ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zbekona ibratomuz urf-odatlarimizdan xabardor bo‘lib boradilar. Insoniy fazilatlarni kichik hikoyalar, tanbehlar va rivoyatlar orqali anglab, axloqan tarbiyalanadilar. Salbiy xislatlardan o‘zlarini saqlab, ota-bobolarimizdan meros qolgan udum va qadriyatlarni tiklashga, amal qilishga hissa qo‘shishga intiladilar. Bu esa ularning milliy mafkuramizning asl mohiyatini tushunishga olib keladi. Eng asosiysi bizning davlat demokratik tamoyillarga asoslangan holda, barcha mafkuralarning yashash huquqini ta’minlovchi institut sifatida ish ko‘rishini tushunib yetadilar. Shu sababli ma’naviy qadriyatlarni ta’lim-tarbiya jarayoniga kiritib, yoshlarni axloqan pok va ruhan tetik, sog‘lom aqlli qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Bu masalalarni hal etishda ta’lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish asosiy vazifamiz hisoblanadi. Buning uchun tarbiyaviy ishlar tizimida sinfdan va maktabdan tashqari ta’limning shakllari va mazmunini tubdan yangilash, o‘quvchilarning qiziqishlari va ota-onalarning xohish-istaklari asosida to‘garaklar tashkil etish milliy hunarmandchilik, badiiy estetik yo‘nalishlardagi to‘garaklarni ko‘paytirish, yoshlarda sog‘lom turmush tarzi hamda faol hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta’lim mazmuni bevosita shaxsga yo‘naltirish va ta’lim oluvchilarning shaxsiy ijodiy qobiliyatlarini boyitish, mavjud imkoniyatlarini rivojlantirishda ularning qiziqish va ishtiyoqlarini hisobga olgan holda ta’limni ijtimoiylashtirish, individuallashtirish, insoniylik va insonparvarlik, bolalar va o‘smirlarning jismoniy, intellektual, ma’naviy-axloqiy, estetik, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish, ta’limni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni takomillashtirish zarur.Milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi har tomonlama barkamol intellektual salohiyatga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashga bog‘liq. O‘zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo‘lib, ular yuksak va o‘ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tgan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Onaxon Jabborova, Zuxra Umarova Boshlang‘ich ta’limda “TARBIYA” fanini o‘qitish metodikasi Toshkent-2022
2. Djurayeva S.N. Turdiyeva N.S. Baxronova A.I. TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI 51111700-Boshlang‘ich ta’lim va sport, tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma Buxoro–2021

TARBIYAVIY ISHLAR AMALIYOTINI O‘RGANIB BORISH XUSUSIYATLARI

Тожибоева Гульмира Рифовна-
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta ‘lim metodikasi” kafedrasi o`qituvchisi
Turapova Sevinch-
CHDPU Boshlang‘ich ta'lim fakulteti Boshlang‘ich ta'lim kunduzgi shakli 2- kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, tarbiyaviy ishlar amaliyotini o‘rganib boorish xususiyatlari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Ta'lim ijtimoiy taraqqiyotning asosi bo‘lib, kelajak avlodlar ongini shakllantiradi va ijtimoiy o‘zgarishlarni boshqaradi. Ta'lim sohasida ta'lim ishlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, samarali o‘qitish

usullari, talabalarni jalb qilish strategiyalari va o‘quv muhitini umumiy takomillashtirish haqida tushuncha beradi. Tarbiyaviy ish amaliyotini o‘rganishning transformatsion xususiyatlarini o‘rganadi, uning o‘qituvchilar, talabalar va keng jamoatchilikka ta'sirini ta'kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Pedagogik innovatsiya, Inklyuziv ta'lim, sinflarni boshqarish texnikasi, kasbiy rivojlanish, xulq-atvorni boshqarish strategiyalari, ta'lim, jamiyat ta'siri, ta'lim tadqiqotlari, o‘qitish metodikasi, texnologiya integratsiyasi.

ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ НА ПРАКТИКЕ УЧЕБНОЙ РАБОТЫ

Аннотация: В данной статье исследуются практические особенности изучения образовательной деятельности. Образование служит основой социального прогресса, формируя потенциал будущих поколений и управляя социальными изменениями. Понимание тонкостей образовательных практик имеет первостепенное значение в области образования, раскрывая эффективные методы преподавания, стратегии привлечения студентов и общее улучшение учебной среды. Статья углубляется в трансформационные аспекты изучения практических аспектов образовательной работы, подчеркивая ее влияние на педагогов, студентов и более широкое сообщество.

Ключевые слова: Педагогическая инновация, Инклюзивное образование, Техники управления классом, Профессиональное развитие, Стратегии эмоционального интеллекта, Образование, Общественное влияние, Образовательные исследования, Методика обучения, Интеграция технологий.

FEATURES OF STUDYING THE PRACTICE OF EDUCATIONAL WORK.

Annotation: This article explores the practical features of studying educational work. Education serves as the foundation of societal progress, shaping the potential of future generations and managing social changes. Understanding the intricacies of educational practices holds paramount importance in the field of education, enlightening effective teaching methods, student engagement strategies, and overall enhancement of the learning environment. The article delves into the transformative aspects of studying the practicalities of educational work, emphasizing its impact on educators, students, and the broader community.

Keywords: Pedagogical innovation, Inclusive education, Classroom management techniques, Professional development, Emotional intelligence strategies, Education, Societal impact, Educational research, Teaching methodology, Technology integration.

Tarbiyaviy ish amaliyotini o‘rganishning asosiy xususiyatlaridan biri bu o‘qitish texnikasini takomillashtirishdir. Uzluksiz ta'lim va tadqiqotga asoslangan amaliyotlar bilan shug‘ullanadigan o‘qituvchilar dinamik va qiziqarli sinflarni yaratish uchun yaxshiroq jihozlangan. Ta'lim ishlarini o‘rganish orqali o‘qituvchilar innovatsion pedagogikalarni o‘rganishlari, texnologiyalarni samarali kiritishlari va turli xil ta'lim uslublarini qondirish uchun o‘qitish usullarini moslashtirishlari mumkin. Ushbu yondashuv talabalar uchun yanada inklyuziv va rag‘batlantiruvchi ta'lim tajribasini rivojlantiradi, faol ishtirok etish va bilimlarni saqlashni rag‘batlantiradi.

O‘quv ishlarini o‘rganish talabalarga yo‘naltirilgan ta'limning muhimligini, alohida talabalarning ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga qaratilgan pedagogik yondashuvni ta'kidlaydi. O‘qituvchilar talabalarga o‘zlarining ehtiroslari va qiziqishlariga mos keladigan mavzularni o‘rganishga imkon berib, shaxsiylashtirilgan o‘quv tajribalarini yaratishni o‘rganadilar. Ushbu moslashtirilgan yondashuv nafaqat akademik yutuqlarni oshiradi, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari va o‘rganishga bo‘lgan umrbod muhabbatni rivojlantiradi. Ta'lim ishlarining nuanslarini tushunib, o‘qituvchilar talabalar o‘quv dasturi bilan faol shug‘ullanadigan muhitni yaratishi mumkin, bu esa mavzuni chuqurroq tushunishga olib keladi.

Tarbiyaviy ishlarni o‘rganish ta'lim muassasalarida inklyuzivlik va xilma-xillikni rivojlantirishda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Turli xil o‘qitish usullari va o‘quv yondashuvlarini tahlil qilib, o‘qituvchilar turli xil madaniy kelib chiqishi, qobiliyatlari va ta'lim imtiyozlariga ega bo‘lgan talabalarni joylashtirish strategiyasini ishlab chiqishlari mumkin. Sinfda xilma-xillikni qabul qilish talabalar o‘rtasida bag‘rikenglik, hamdardlik va o‘zaro hurmatni targ‘ib qiladi, ularni globallashgan dunyoga tayyorlaydi. Bundan tashqari, o‘qituvchilar turli ta'lim ehtiyojlari bilan talabalar murojaat inklyuziv ta'lim amaliyotini amalga oshirish mumkin, har bir individual sifatli ta'lim uchun teng kirish ega ekanligini ta'minlash.

Sinfni samarali boshqarish qulay o‘quv muhitini yaratish uchun juda muhimdir. Tarbiyaviy ish amaliyotini o‘rganish o‘qituvchilarni xulq-atvorni boshqarish texnikasi, nizolarni hal qilish strategiyasi va ijobiy mustahkamlash usullari haqida qimmatli tushunchalar bilan ta'minlaydi. Talabalar xulq-atvori psixologiyasini tushunib, o‘qituvchilar aniq umidlarni o‘rnatishlari, intizomni saqlashlari va hurmatli sinf muhitini rivojlantirishlari mumkin. Yaxshi boshqariladigan sinf o‘quvchilarga xavfsizlik hissi beradi va o‘qishlariga e'tibor qaratishga imkon beradi, bu esa akademik ko‘rsatkichlar va umumiy farovonlikning yaxshilanishiga olib keladi.

Tarbiyaviy ish amaliyoti bilan shug‘ullanish kasbiy rivojlanish uchun doimiy imkoniyatlarni taqdim etadi. O‘qituvchilar o‘quv tadqiqotlari va ilg‘or tajribalarga bag‘ishlangan seminarlar, seminarlar va konferentsiyalarda qatnashishlari mumkin. Bundan tashqari, ular hamkasblari bilan hamkorlik qilishlari, tajriba almashishlari va ilmiy loyihalarda ishtirok etishlari, sohani rivojlantirishga hissa qo‘shishlari mumkin. Uzluksiz kasbiy rivojlanish o‘qituvchilarning so‘nggi tendentsiyalar, metodikalar va texnologiyalar bilan yangilanib turishini ta'minlaydi, ularning o‘qitish mahoratini oshiradi va o‘quvchilarining o‘quv tajribalarini boyitadi.

Ta'lim ishlarini o‘rganish sinfdan tashqarida bo‘lib, umuman jamiyatga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Yaxshi ma'lumotli shaxslar o‘z jamoalarining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadilar. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o‘rganish va tarbiyalashga bo‘lgan muhabbatni rivojlantirish orqali o‘qituvchilar talabalarga mas'uliyatli fuqarolar va kelajakdagi etakchilar bo‘lish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, maktablar va ta'lim

muassasalari bilim va ma'rifat markazlari bo‘lib xizmat qiladi, jamiyatda xabardorlik, bag‘rikenglik va ijtimoiy birdamlikni targ‘ib qiladi.

Xulosa: Tarbiyaviy ish amaliyotini o‘rganish-bu o‘qituvchilarga ilhomlantiruvchi va inklyuziv o‘quv muhitini yaratishga imkon beradigan o‘zgaruvchan sayohat. O‘qitish texnikasini takomillashtirish, talabalarga yo‘naltirilgan ta'limni targ‘ib qilish, inklyuzivlikni rivojlantirish, sinf boshqaruvini takomillashtirish va doimiy kasbiy rivojlanish bilan shug‘ullanish orqali o‘qituvchilar o‘z talabalari va keng jamoatchilik hayotiga chuqur ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Ta'lim sohasi rivojlanishda davom etar ekan, tarbiyaviy ishlarni o‘rganish kelajak avlodlarni tarbiyalash, umrbod o‘rganishni rivojlantirish va hamma uchun yorqinroq va Ravshan kelajakni shakllantirish uchun muhim asos bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xoliqov I. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o‘rtasida pedagogik kompetensiyani shakllantirish. Pedagogik mahorat. 1 -son (2022-yil, fevral)
2. Erkaboyeva N. Pedagogik mohorat. Oquv qo‘llanma. Toshkent. 2020-yil.
3. Abduraxmonov A. Axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarimiz // Sharq yulduzi.- 1990.- №12.
4. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari.- T.: Fan, 1994.
5. Meliboev A. Vatan saodati.- T.: Sharq, 1998.
6. Usmonova Q.S . Boshlangich sinf o`quvchilarida tankidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogic-psixologik integratsiya va uzluksizlik. M УАЛЛИМ ХЕМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ . 2023/3 .370-375-b ttps://lib.cspi.uz/index.php?newsid=7951

KELESHEKTE BOLAJAQ TARBIYASHÍLARDÍŃ KOGNITIV QABILETLERIN RAWAJLANDÍRÍWDÍŃ TIYKARǴÍ TÚSINIKLERI

Bazarbaeva Ayjamal Qdırbaevna,
Nizomiy atındaǵı Tashkent mámleketlik universiteti erkin izleniwshisi

Annotaciya: Bul maqalada keleshekte bolajaq tárbiyashılardıń kognitiv qábiletlerin rawajlandırıwdıń tiykarǵı túsinikleri úyrenilgen. Sonıń menen birge mektepke shekemgi tálim shólkemlerinde bolajaq qánigelerdiń kreativ pikirlewi hám mektepke shekemgi jasındaǵı balalardıń biliw kompetenciyalirin rawajlandırıw, qábileti haqqında ilimpazlardıń pikleri kórsetilgen.

Tayanısh sózler: Metod, komponent, motivatsion, kreativ, kognitiv, gnoseologiya, kognitiv psixologiya, tálim tárbiya, ko‘rgezbeli-obrazlı, emotsional, pertseptiva, motivatsiya.

KELAJAKDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KOGNITIV QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNI ASOSIY TUSHINCHALARI

Annotaciya: Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobilyatlarini rivojlantirishning asosiy tushinchalari o‘rganilgan. Shuningdek maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bo‘lajak mutaxassislarning kreativ fikrlash va maktabgacha yosh bolalarning bilish kompetenciyalirin rivojlantirish, qobiliyat mahorati to‘g‘risida olimlarni fiklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Metod, komponent, motivatsion, kreativ,kognitiv,gnoseologiya, kognitiv psixologiya, ta’lim tarbiya, kórgezbeli-obrazlı, emotsional, pertseptiva, motivatsiya

ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ РАЗВИТИЯ КОГНОТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация: В данной статье исследуются основные концепции развития когнитивных способностей будущих воспитателей. Также были освещены мнения ученых о творческом мышлении будущих специалистов дошкольных образовательных организаций и развитии когнитивных компетенций дошкольников, умственных способностей.

Ключевые слова: Метод, компонент, мотивационный, творческий, когнитивный, гносеология, когнитивная психология, образование, эмоциональный, перцептивный, мотивация.

BASIC CONCEPTS OF DEVELOPMENT OF COGNITIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS

Abstract: This article examines the basic concepts of the development of cognitive abilities of future educators. The opinions of scientists about the creative thinking of future specialists in preschool educational organizations and the development of cognitive competencies of preschoolers and mental abilities were also highlighted.

Key words: Method, component, motivational, creative, cognitive, epistemology, cognitive psychology, education, emotional, perceptual, motivation.

Adamzat erte dáwirden baslap ózin qurshap turǵan ortajıq haqqında barǵan sayın kóbirek zatlardı ilimge en jaydırıp kelgen. Bul bolsa jıllar ótip barıwı menen jańadan, quramalı oylap tabılıwlar hám jańa ashılıwlardıń jaratılıwına alıp kelip atır. Búgingi kunge shekem insaniyat tárepinen jaratılǵan barlıq oylap tabılǵanlar olardıń dunyadaǵı zat hám hádiyselerdi bilmewden tálimge qaray, kem tálimnen barǵan sayın kóbirek tálimge tárep bolǵan mútajlikleri, qábiletleri, bárháma umtila otirip jasawǵa talpındırǵan bul process - tálim procesiniń ne ekenligin tolıq ańlap alıw júdá zárúrli ekenin ańlatadı.

Házirgi waqıtta tálim aktivligi mashqalasın filosofiya (gnoseologiya), psixologiya (kognitiv psixologiya), logika, semiotika hám basqa pánler úyrenedi. Zamanagóy izertlewlerde tálim iskerligi ámeliy mútajlikler menen tálim

processlerin basqarıw, tálimge tiyisli kónlikpeler járdeminde oqıtıw procesin qolaylastırıw, informaciya texnologiyalarınan jedel paydalanıw menen baylanıslılıqta kórip shıǵıladı. Ilimiy-texnikalıq rawajlanıw páti tálim iskerligi subyektine saldamlı talaplardı qóyadı. Sebebi, tálim procesi insansız bolıwı múmkin emes. Tálim insan qábileti, ızleniwshiligi, logikalıq kámalǵa jetken dárejesi hám de onıń oylaw qábiletine baylanıslı. Biziń izertlewimizde tálim subyekti kásiplik-pedagogikalıq iskerlikke tayarlanıp atırǵan ilimiy dúńyaǵa kózqaras, arnawlı bir qatań poziyatsiyaga iye bolǵan pedagogika joqarı tálim shólkemi studentleri esaplanadı.[1.230]

Tálim obyekti hám subyektin anıqlagannan keyin, biz pedagogikalıq iskerlikke tayarlaw procesi menen baylanıslılıqta tálim procesiniń qanday júz bolıwına toqtalıp ótiwimiz kerek.

Filosofiyada óz gezeginde anıqlama beriw hám túsindiriw sıyaqlı usıllardıń strukturalıq bólegi retinde sawlelenetuǵın kognitiv (ápiwayı, ilimiy, filosofiyalıq) hám interpretatsiya formasındaǵı tálim usılları belgilep qoyılǵan.

V. I. Slobodchikovtıń pikrine qaraǵanda, kognitiv arqalı tálim-tárbiya procesi qatnasıwshılarınıń óz iskerligine bolǵan munasábeti muwapıqlastırıladı hám sherikliktegi iskerliginiń forma hám mazmunına ılayıq túrde usı iskerliginiń qayta dúziliwi támiyinlenedi[5.130].

G. S. Suxobskaya hám L. L. Gorbunovalar tárepinen kognitiv ózinen-ózi ańlawınıń suwretleniwi, baylanıs processinde subyekttiń pikirlesiw retinde qanday qabıl qılınıp atırǵanlıǵın ańlawı, subyekttiń mashqalanı jáne onıń payda bolıw sebeplerin kóre alıwı, anıqlawı, úyreniwi hám analiz ete alıw qábileti retinde túsindiriledi[6.15].

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarda pikirlew hám aqıl etiw óz-ara bir-biri menen baylanıslı. Bul bolsa, usı jas dáwirinde kórgezbeli-obrazlı pikirlew kóbirek cay ekenliginen derek beredi. Oyın arqalı bala zat -hádiyseler arasındaǵı sebep-aqıbet baylanıslılıǵın ornatıwǵa umtıladı. Mektepke shekemgi jastaǵı bala real jaǵdaylardı oyda sawlelendire aladı hám qıyalında ol menen birge “háreketlenedi”.

Mektepke shekemgi jas dáwirinde balalardıń pikirlewinde sezilerli ózgerisler júzege keledi: olardıń dúnyaǵa kóz qarası keńeyedi, pikirlew operatsiyaları rawajlanadı, jańa bilim hám kónlikpelerge iye boladı, sonday eken sóylew tili rawajlanadı. Mektepke shekemgi úlken jasta tálim processlerinde kóplegen ózgerisler júzege keledi. V. S. Muxinanıń pikrine qaraǵanda, 6 -7 jasda aqıl etiw effektivliginen emotsionallıq hám pertseptivlikke ózgeredi. Ol jaǵdayda erkin háreketler - izlew, tekseriw, baqlaw kórinetuǵın boladı[4.108].

Filosofiyalıq -psixologiyalıq kózqarastan bala biliminiń dáregi sezim bolıp tabıladı. Sebebi bala dógerek-átirap haqqındaǵı dáslepki bilimlerdi óz sezimlerinen aladı. Balanıń dógerek-átirap haqqındaǵı quramalı bilimleri sol dáslepki baslanǵısh bilimleri tiykarında payda boladı. Solay eken, balanı tábiyiy hám antropogen ortalıq penen baylanıstırıw eń birinshi dógerek-átirap arasındaǵı obektler hám hádiyselerdi seziw bolıp tabıladı.

Dógerek-átiraptaǵı obektler hám hádiyselerdi aqıl etiw seziwge salıstırǵanda anaǵurlım quramalı process. Aqıldıń seziwden parqı sonda, ol jaǵdayda átirap -ortalıqtaǵı obektler yamasa hádiyselerdiń ayırım ózgeshelikleri emes, bálkim obektler yamasa hádiyseler pútkil halda sawlelenedi. Basqasha aytqanda, obektler yamasa hádiyselerdiń pútin tábiyat kórinisi, suwreti payda boladı. Mısalı, jawın, qar tábiyat kórinisileri hám taǵı basqalar.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalar tez rawajlanıwı menen ajralıp turadı. Mektepke shekemgi jas dáwirinde túrli jónelisler menen baylanıslılıqta kúshli ózgerisler júz beredı, iskerliktiń tiykarǵı túrleri, sonıń menen birge, psixik processler aktiv rawajlanadı[2.2181].

Sonıń menen birge, mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń motivatsion salasında da qatar ózgerisler júz beredi: minez-qulıqtıń ulıwma jónelgenligin támiyinleytuǵın óz-ara baylanıslı motivlar sisteması qáliplesedi, tálimge qábilet hám mútajlik, átiraptaǵı adamlarǵa unamlı munasábet motivatsiyasınıń jedel rawajlanıwı ámelge asadı. Basqıshpa-basqısh mektepke shekemgi úlken jastaǵı balalarda etikalıq tárbiy beriw ózlestiriledi, jeke minez-qulqlardıń izbe-izligin esapqa alıw baslanadı, nátiyje hám úlkenlerdiń maqtawlarınan umitleniwdi sezedi.

Pedagogika hám psixologiyaga tiyisli ádebiyatlarda qábilet túsinigine hár túrli pikirler berilgen (1-kestege qarań).

“Qábilet” túsinigi xarakteristikası

№	“Qábilet” túsinigine berilgen táriyler	Kim tárepinen berilgen?
1.	Insan diqqat-itibariniń tańlawına jóneltirilgeni	N.F. Dobrinin, T. Ribo
2.	Insannıń aqliy hám emotsional iskerliginiń payda bolıwı	S.L. Rubinshteyn
3.	Hár qıylı ishki sezimlerdiń aktivlestiriwshisi	Д. Фрейер
4.	Insan iskerligi hám oylaw iskerligin rawajlandırıwshı emotsional-kúshli hámde intellektual jaǵdaylardıń bekkem jaylasıwı	Л.А. Гордон
5.	Insannıń dunyaǵa emotsional-tálimge tiyisli múnásebeti	Н.Г. Морозова
6.	Mútájliklerden payda bolǵan forma	Ш. Бюллер
7.	Insannıń obektke ózine cay múnásebeti	А.Г. Ковалев
8.	Qábilet – insan iskerliginiń jetekshi mútáji	М.В. Демин
9.	Ulıwma hádiyse sıpatında qábilettiń zárúr tarawı – ta'limniń qábileti esaplanadı	Г.И. Щукина
10.	Qábilet – mútájlikten kelip shıǵadı, ol payda bolǵan múnásebetler hám olardı abzal kóriw sebebi payda boladı.	А. Ибрагимов

Juwmaqlap aytqanda bala iskerligin shólkemlestiriw processinde tálimge qábilet óziniń háwij alıwı, óziniń kórsetkishine iye bolıwı, oqıtıwshı bunı kóriwi, dıqqat penen analiz etiwi zárúr, sebebi bul ulıwma mániste iskerliktiń natiyjeliligi kórsetkishi bolıp tabıladı. Balalardıń tálimge qábiletlerin barǵan sayın perspektivalı baǵdarı qábilettiń iskerlik basınan tap aqırıǵa shekem izbe-iz ósip barıwı bolıp tabıladı, bunda balalar jumısqa berilip ketedi hám iskerlikti shólkemlestiriw processinde etip ulgirmegenin dawam ettiriw qálewi menen ketedi.

Paydalanǵan ádebiyatlar:

1. Bazarbaeva A.Q.Bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari// Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti ILMIY AXBOROTLARI 2023/ 8 – SON 229-236 b
2. Bazarbaeva A.K.Methodology for developing the activity of future educators’ cognitive abilities// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 8 AUGUST 2023 UIF-2022: 8.2 |ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ
3. Жумашова Г., Базарбаева А. Балаларда билиў уқыбын раўажландырыўдың теориялық-әмелий тийкарлары//«Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» Илимий-методикалық журнал № 5/2 2021 жыл 108 б
4. Мухина В.С. Детская психология. – М.: Апрель-Пресс :ЭКСМО-Пресс, 2000. – 352 с. – С.88.
5. Слободчиков В.И. О возможных уровнях анализа проблемы рефлексии // Проблемы логической организации рефлексивных процессов. – Новосибирск, 1996. – С.130.
6. Сухобская Г.С., Горбунова Л.Л. Взаимосвязь теории и практики в процессе подготовки и повышения квалификации педагогических кадров.– М.: НИИ ИОО АПН, 1991. – С.15.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TA’LIMNING KEYINGI TURLARIGA TAYYORLASH ZARURIYATI

Usmanova Qumriniso Saidaliyevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.

Chirchiq,O‘zbekiston.

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash zaruriyati to‘g‘risida fikr yuritilgan va uning ehtiyojlari asoslangan.

Аннотация: в статей размышлено о вопросы необходимость подготовки учеников начальных класс в следующие видов и обоснования данной вопрос.

Annotation: the article discusses the need to prepare primary school students for the next types of education and their needs are justified.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘quvchi va ta’lim, ta’lim turlari, tayyorlash zaruriyati, bilim va malaka.

Ключевая слова: начальное класс, ученик и образование, види образование, необходимость подготовки, знание и навыка.

Key words: elementary school, student and education, types of education, need for preparation, knowledge and skills

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti davrida boshlang‘ich ta’limni strategik rivojlantirish muhim vazifalardan hisoblanadi[1]. Bu borada ayniqsa boshlang‘ich ta’lim mazmuni va vazifalarida bo‘layotgan yangilanishlardan kelib chiqib, yuzaga kelayotgan muammolar bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish dolzarb bo‘lib turibdi. Ana shunday muhim va ilmiy-tadqiqot ishi amalga oshirilishi lozim bo‘lgan muammolardan biri *boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash*dir. Mazkur o‘rinda e’tiboringizni ana shu masalaning zaruriyati taxliliga tortamiz.

1. ***Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash ehtiyojlari***. Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonida sifatli rivojlanishni amalga oshirish bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvichlarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash ham nazariy va metodik muapmmo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi tarlariga tayyorlash ehtiyoji quyidagilar bilan begilanadi:

1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini umumiy o‘rta ta’lim bosqichiga tayyorlash;
2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini Prezident maktablariga tayyorlash;
3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy maktablarga tayyorlash;
4) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini fanlar chuqurlashtirib o‘qitiladigan ixtisoslashtirilgan maktablarga tayyorlash[2].

Ushbu ehtiyojlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash dolzarb ilmiy muammo ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli bu borada maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish bugungi kundagi eng muhim pedagogik vazifalar sarasiga kirishini ta’kidlab o‘tish lozim.

2. ***Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash asoslari***. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida aniq, tabiiy va gumanitar fanlar turkumlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur masala bo‘yicha bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari quyidagilarga asosan ta’limning keyingi turlariga tayyorlanishi kutilgan samarani beradi:

1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga ta’lim jihatidan tayyorlash;

2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tarbiyaviy jihatdan tayyorlash;

3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga faoliyat jihatidan tayyorlash;

4) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash bo‘yicha o‘quv adabiyotlari va O‘qituvchi kitobini mavzular bilan boyitish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga ilmiy, nazariy, pedagogik, metodik va amaliy jihatdan tayyorlash imkoniyatlarini beradi. Shu sababli mazkur masalalar bo‘yicha oldiy pedagogik ta’lim jarayonida nazariy va metodologik tadqiqotlar majmuini yaratish muxim ahamiyatga egadir.

3. ***Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash tizimi***. Umumuiy o‘rta ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash tizimini belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu jihatdan bizningcha, mazkur masalada quyidagi tizimni hisobga olish kutilgan samarani berishini ta’kidlab o‘tish lozim:

1) o‘quv fanlarini chuqurlashtirilgan holda va ularning mavzularini ta’limning keyingi turlari o‘quv mavzulari bilan uyg‘unlashtirilgan tarzda o‘qitish vositasi tizimi;

2) boshlang‘ich ta’lim bosqichi va ta’limning keyingi turlarining o‘zaro hamkorligi natijasida o‘quvchilarni tayyorlash tizimi;

3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini layoqati va qiziqishiga ko‘ra ta’lim turlariga yo‘naltirib tayyorlash tizimi;

4) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini hududlar kesimi, jamoatchilik va ta’limdan manfaatdorlarning tashabbuslari hamda takliflari aossida ta’limning keyingi turlariga tayyorlash tizimi.

Bunday tizimga asoslanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga maqsadli tayyorlash imkonini beradi. Chunki bu tizimda asosan hamkorlik tamoyiliga tayangan o‘quv va tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish negiz hisoblanadi. Shu jihatdan bunday tizimning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish ham dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash muammosi pedagogik strategiya sohasiga kiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash uchun bir necha *amaliy tadbirlarni* amalga oshirish ham taqozo etiladi. Bunday amaliy tadbirlarning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

a) oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mazkur toifa o‘qituvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash bo‘yicha nazariy va metodik jihatdan qurollantirish;

b) Pedagoglarni malakasini oshirish va ularni yangi metodikalarga o‘rgatish markazlari vositasida amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni ta’limning keyingi tarlariga tayyorlash bo‘yicha malaka bilan ta’minlash;

v) ta’lim samaradorligini nazorat qiluvchi muassasalar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’limning keyingi turlariga tayyorgarlik darajasini monitoring qilib borish.

Bu amaliy tadbirlarni amalga oshirish qo‘yilayotgan muammoning yechimini tezkor topishda muhim mexanizmlar bo‘lib xizmat qiladi[3].

Shunday qilib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’limning keyingi turlariga tayyorlash masalasi ilmiy, nazariy, pedagogik, metodik va amaliy jihatlardan zaruriyat bo‘lib turibdi. Bu masala bo‘yicha o‘ziga xos tadqiqotlar majmuini yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziyonet.uz
2. Jabborova O.M. Boshlang‘ich ta’limda me’yoriy hujjatlarni yuritish. – Toshkent, 2023
3. Jabborova O.M. Boshlang‘ich ta’limda innovasion texnologiyalar. – Toshkent, 2023

BO‘LAJAK MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARI O‘QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI OSHIRISH.

Abdullayev Akbar Hikmatovich

NavDPI San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi o‘qituvchisi. Navoiy, O‘zbekiston.

Boboniyozova Roziya Mirsalim qizi.

NavDPI San’atshunoslik fakulteti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi o‘qituvchisi. Navoiy, O‘zbekiston.

Jurayeva O‘g‘iloy Kengash qizi

Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi II-kurs talabasi. Navoiy, O‘zbekiston.

Annatatsiya: Ushbu maqolada muhandislik grafikasi fani o‘qituvchisinig o‘z mutaxasislik fanlarini tashkil etish jarayonida o‘qitishning innovatsion metodlardan hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan keng foydalanaolish imkoniyatlarini kengaytirish va ularning kasbiy kompetensiyalarni oshirish haqida suz boradi.

Kalit suzlar: *muhandislik, grafika, o‘qituvchi, innovatsion, metodlar, kasbiy, kompetentligi, modernizatsiyalash.*

ПОВЫШЕНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНЖЕНЕРНОЙ ГРАФИКИ

Аннотация: *В данной статье говорится о расширении возможностей использования инновационных методов обучения и информационно-коммуникационных технологий и повышении своих профессиональных компетенций в процессе организации предметов специальности.*

Ключевые слова: *инженерия, графика, учитель, инновационные, методы, профессиональный, компетентность, модернизация.*

INCREASING THE COMPETENCE OF FUTURE ENGINEERING GRAPHICS TEACHERS

Annotation: *This article talks about expanding the possibilities of using innovative teaching methods and information and communication technologies and increasing one's professional competencies in the process of organizing specialty subjects.*

Key words: *ey words: engineering, graphics, teacher, innovative, methods, professional, competence, modernization.*

Insoniyat rivoji va taraqqiyotini hamda uning texnika va texnologiyada erishgan yutuqlarini muhadislik grafikasi fanlarisiz tasovur etib bo'lmaydi.

Bugungi zamonaviy shaharsozlik inshoatlari tasavur etib bulmas darajada jadal rivojlanishi, texneka sohasidagi yutuqlar bunga yqqol misol bo'la oladi. Agar birgina kemasozlikdagi rivojlanishni ko'rib chiqadigan bo'lsak barchamizga ma'lumkim 1912 yilda dunyodagi eng katta "TITANIK" kemasi qo'rilgan bo'lib uning sig'imi 2414 nafar yulovchiga muljallangan edi. Oradan yuz yil o'tib, aniqrog'i 2018 yilda "TITANIK" dan ikki barobar katta bo'lgan sig'mi 6680 nafar yulovchiga muljallangan "DENGIZ SEMFONIYASI" nomli kema qurib ishga tushirildi. U shunchalik o'lkankiy uni dengizdagi shahar diyish mumkin. Tasovur qiling, unda 24 ta suzish havzasi, 225 ta restorant, 2 ta tosh devor va 1 ta muz maydonchasi mavjud. Yokiy Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida qurilgan "Burj Xalifa" binosinig baladligi antennasi bilan birgalikda 829,8 metrni tashkel etadi. Bugungi kunda bunga o'xshash insoniyat erishgan yutuqlardan yuzlab misollar keltirish mumkinkim bularni chizmalarsiz qo'rish va ulardan foydalanishnig iloji yo'q.

Yoshlarda manashunday nozik his-tuyg'ularni shakillantirishda ushbu soha vakillari bo'lgan muhandislik grafikasi fanlari o'qituvchilariga juda katta ma'suliyat yuklanadi. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davirda o'quvchilarni bu fanlarga qiziqtirish va ulardagi iqtidorni rivojlantirish uchun soxa mutaxasislaridan o'z fanlariga kreativ yondashish talab etiladi.

Hichkimga sir emaskim sobiq itifoq davrida maktablarda ushbu fanlarga ikkinchidarajali fan sifatida qarab kelingan va fan o'qituvchilari barchaga barobar dars mavzularini tushintirishganlarkim natijada iqtidorli o'quvchilar nisbatan yaxshiroq qolganlar esa yomon o'zlashtirganlar. Hozirgi zamon pedagoglari bu usulda darslarni tashki etilishiga mutloq qarama-qarshi fikrlarni ilgari surmoqdalar.

Yaniy o'qitishning innovatsion metodlarini rivojlantirish, o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishni joriy etishga alohida ahamiyat qaratilishi zarur.

Barchamizga ma'Iumkiy innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

O'quvchining dars davomida befarq bo'lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;

O'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;

O'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

Pedagog va o'quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishi kabi masalalar o'z ichiga oladi.

Muhandislik grafikasi darslarini utish jarayonida ushbu Interfaol metodlardan foydalana bilishlari uchun o'qituvchilardan yuksak mahorat, chuqur bilim va kunikma bilan bir qatorda kasbiy kompetentlikga ega bo'lish talab etiladi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosini o'rganish ishiga bir qator ilmiy ishlar bag'ishlangan. Biroq bu muammoning turli jihatlari va aspektlariga olimlarning qiziqishlari kamaymayapti, bu esa uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash va rivojlantirishning hozirgi zamon bosqichida alohida ahamiyatga egaligidan va uning dolzarbligidan guvohlik beradi.

Pedagogik faoliyatga nisbatan uning komponentlarini pedagog faoliyatining nisbatan mustaqil funksional turlari sifatida ajratish yondashuvi ustun turadi. V.A.Slastenin nuqtai nazariga muvofiq, pedagogni tayyorlash unda ushbu vazifalarni amalga oshirish bilimlarini tarbiyalashni ko'zda tutadi: analitik - refleksiv, konstruktiv-prognostik, tashkiliy. Muallif tutgan nuqtai nazar, bizning fikrimizcha, o'qituvchi faoliyatining strukturasi haqida qaror topgan tasavvurlarni ko'p darajada aks ettiradi. Shu bilan birga, bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligi strukturasini tadqiq qilish pedagog mehnatini puxta tahlil qilish, uning tayyorgarlik darajasiga hozirda modernizatsiya qilinayotgan va uzluksiz pedagogik ta'lim konsepsiyasi amalga oshirilayotgan sharoitlarda ta'lim tizimi tomonidan qo'yilayotgan talablarni aniqlashni nazarda tutadi.

R.X.Tugeshevning ta'kidlashicha, kasbiy mahorat shaxs sifatining yuksalishi sari qo'yilgan qadamlar yordamida faqat bir faoliyat uchun egallangan kompetensiyadir. Kompetensiya egasi deganda, olim shaxsning o'z ishining ustasi, mahorati bilangina cheklanmaydi, balki ishni tashkil etishi, o'z faoliyatiga aloqador barcha

muammolarni tizimli ravishda tushunishi, vazifa qo‘ya bilishi va aniq muammolarga echim topish qobiliyatiga ega bo‘lishi kabi fazilatlarni nazarda tutadi.

V.G.Pishulin kasbiy kompetensiya xoh umumiy, xoh maxsus bo‘lsin, ko‘p hollarda xotira, mantiqiy va ijodiy fikrlash, refleksiya, chaqqonlik, epchillik, uddaburonlik, qat’iylik, tartibli va o‘z so‘zida turish, ehtiroslarga berilmaslik, kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, diqqat-e’tibor, jiddiylik va muomalaga kira olish kabi fazilatlarni yuzaga chiqishiga olib keladi, deb yozadi. Ko‘pchilik singari biz ham yuqoridagi fikrlarga tuliq qo‘shilamiz. Bizning fikrimizga ko‘ra, muhandislik grafikasi mutaxasisi o‘z kasbiy faoliyati doirasidagi kompetensiyalarni egallashi yaniy u nafaqat chizma chizishni balkim bu sir sinoatlarni o‘quvchi yoshlarga yitkaza olishni barcha sir-sinoatini mukammal bilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y.
2. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.
3. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: “Moliya ” nashriyoti, 2003 y. – 171 b.
4. Tolipov U., Usmanbayeva M. Pedagogik texnologiya:nazariya va amaliyot.-T.: “Fan”. 2005.
5. G‘ulomov. X.R. Raimov. va boshqalar. “Ta’lim-tarbiya sifati va qirralari”. T; «Fan va texnologiyalar». 2004
6. Sh. Bobonazarov. Kompozitsiya mashg‘ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning muhim ekanligi.

Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 6 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 *16.09.2022* *http://scientists.uz/view.php?id=1355http://scientists.uz/uploads/202206/b-2.pdf*

MATN ASOSIDA O‘QUVCHILARNING NUTQIY KO‘NIKMALARI USTIDA ISHLASH

H. Bakiyeva, Nizomiy nomidagi TDPU, Toshkent, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Maqolada ta’lim tizimining dunyo amaliyotida o‘qitish metodikasini individuallashtirish va kompetensiyaviy yondashuvlar integratsiyasi asosida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga ta’lim sifatini ta’minlashning yetakchi omili sifatida ekanligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Matn, ta’lim tizimi, ona tili ta’limi, interfaol ta’lim, o‘quvchilar nutqini o‘stirish, lingvistik kompetensiyalar.

РАБОТА НАД УСТНОЙ РЕЧЬЮ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ТЕКСТА

Аннотация: В статье поясняется, что внедрение в мировую практику образовательной системы современных информационно-коммуникационных технологий, основанных на интеграции индивидуализации методов обучения и компетентностных подходов, является ведущим фактором обеспечения качества образования.

Ключевые слова: Текст, система образования, обучение на родном языке, интерактивное обучение, развитие речи учащихся, лингвистические компетенции.

RABOTA NAD USTNOY RECHYU UCHASHCHIKHSYA NA OSNOY TEXTA

Annotation: The article explains that the introduction of modern information and communication technologies based on the integration of individualization of teaching methods and competence approaches in the world practice of the educational system is a leading factor in ensuring the quality of education.

Key words: Text, educational system, mother tongue education, interactive education, development of students' speech, linguistic competences.

Ta’lim tizimining dunyo amaliyotida o‘qitish metodikasini individuallashtirish va kompetensiyaviy yondashuvlar integratsiyasi asosida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga ta’lim sifatini ta’minlashning yetakchi omili sifatida qaraladi. Xususan, lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalarini, til ta’limini tizimli tarzda tashkil etishning metodologik asoslari yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar nutq va tafakkurni rivojlantirish samaradorligini oshirishning, shuningdek, interfaol ta’limni mediatexnologiyalar vositasida tashkil etishning didaktik ta’minotini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maktab ona tili ta`limida o‘quvchilar nutqini o‘stirish o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uch yo‘nalishda amalga oshiriladi. Ular quyidagilar:

1. Ona tili o‘quvchilarning lug‘atini boyitib borishi.
2. Nutq jarayonida o‘quvchilarning gap tuzish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.
3. Bolani nutqini o‘stirish.

Bu yo‘nalishlar o‘zaro bir-birini taqozo etadigan tarkibiy qismlar bo‘lib, uni metodist olimlar quyidagi fikrlari bilan asoslaganlar: “Nutq o‘stirish metodikasida tilning leksikologiya va grammatika bo‘limlari alohida ahamiyat kasb etadi, – deb yozadi S.P. Redozubov – Leksikologiya so‘z haqidagi ilm, grammatika – so‘z shakllarining o‘zgarishi va ularning gapda bog‘lanishi haqidagi ilm. O‘quvchilarning lug‘at zaxirasi qanchalik boy bo‘lsa, nutqi shunchalik rivojlangan bo‘ladi”, A.G‘ulomov, M.Qodirovning “Ona tili o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasida nutq o‘stirishning nazariy va amaliy ahamiyati, nutq o‘stirishga doir mashqlarni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.

O‘quvchilarning matnni tushunish darajasini V. P. Belyanskiy 3 darajaga ajratadi:

1. Boshlang‘ich daraja. Tinglovchining nutqiy bayonning asosiy predmeti va gap nima haqida ekanini tushunishidir.

2. Mazmun mundarijani tushunish darajasi. Bunda tinglovchi so‘zlovchi bayon qilayotgan nutqning nima haqida ekanini anglaydi.

3. Eng yuqori daraja nutqda bayon qilinayotgan fikr nima uchun va qanday lisoniy vositalar bilan berilganining tushunilishi bilan xarakterlanadi.

Matn ustida ishlash jarayonida undagi yetakchi g‘oyani aniqlash mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bunday ko‘nikmani egallamagan o‘quvchi nazariy masalalarni aniqlashtiruvchi misollarni, ma’lumot va sanalarni yodlab olish harakatiga tushadi. Natijada o‘quv materialini ongli o‘zlashtira olmaydi va ko‘p o‘tmay uni eslashga qiynaladi. Mazkur ko‘nikmani shakllantirishda quyidagilar talab qilinadi: 1. O‘quvchilarga matnda ifodalangan g‘oyaning mohiyatini tushuntirish; 2. Mantiqiy fikrlash usullari bilan tanishtira borish; 3. Ijodiy ishlarida mantiqiy fikrlash ususllarini qo‘llashni talab qilish.

Ona tili darslari o‘quvchilarning aqliy, xususan, mantiqiy tafakkurining rivojlanishida boy materialga ega. Til va tafakkur chambarchas bog‘liq bo‘lib, tilsiz inson fikrlay olmaydi. Tafakkursiz tilning bo‘lishi mumkin emas. O‘quvchining nutqiy qobiliyatini o‘stirishdan oldin uning fikrlash qobiliyatini o‘stirish talab qilinadi. Negaki, nutqni tafakkurdan ajratib rivojlantirish mumkin emas. Professor N. Mahmudov “Nutqning ta’sir quvvati, tegishli axborotni tinglovchiga tugal va qulay “yuqumli” tarzda yetkazish imkoniyati muhim kommunikativ sifatlardan bo‘lish so‘z boyligiga bog‘liq. Nutqning boy yoki kambag‘alligi unda tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari (so‘z ma’nolari, intonatsita, sintaktik tuzilmalar, iboralar va sh.k.)dan qay darajada foydalanganlik bilan belgilanadi. Buning uchun esa nutq tuzuvchida til vositalarining boy va faol zaxirasi mavjud bo‘lishi kerak” – deb yozishi bejiz emas. Fikr ifodasi va nutqning emotsional ta’sirchanligi uchun, birinchi navbatda, o‘quvchilar nutqini leksik birliklar bilan boyitish zarur. [5]

Nutq muomala vositasi sifatida muayyan sifatlarga ega bo‘lishi lozim. Birinchi navbatda nutqning leksikasi keraksiz va mahalliy (shevaga xos so‘zlardan), parazit va vulgar (qo‘pol, noxush) so‘zlardan holi bo‘lishi zarur. Nutqning sifatiga qo‘yiladigan aniqlik, obrazlilik, emotsionallik kabi talablar ham bevosita nutqning leksik qatlamiga bog‘liqdir. O‘quvchilar lug‘atini boyitishda integrativ bilimlarga tayanish lozimdir. Ona tili darslarida badiiy adabiyotdan olingan matnlarning lingvistik tahlili orqali o‘quvchilar grammatik bilimlar ustida fikr yuritadi, shu jarayonda til birliklarini o‘zlashtiradi. Shuningdek, boshqa fanlarga doir ilmiy matnlarning lingvistik tahlili o‘quvchilar lug‘atini boyitishda boy manba bo‘ladi. O‘sha fanning bilimlariga tayanish uning atamalarini o‘zlashtirishdan tashqari shu fanga oid bilimlarni mustahkamlashga ham yordam beradi. O‘qituvchining o‘quvchilarga matnni o‘qib, ma’nosini tushunmagan so‘zlarni aniqlatishi, tushuntirilishi rejalashtirilgan so‘zlarni doskaga yozib, ma’nosini so‘rashi o‘quvchilarda badiiy asar matni tiliga sezgirlikni tarbiyalaydi. Badiiy asarning lingvistik tahlilida ma’nodosh so‘zlar, shakldosh so‘zlar, qarama-qarshi ma’noli so‘zlar, ko‘p ma’noli so‘zlar ustida ishlanadi. Bular ham so‘z ma’nolarini chuqurroq anglashga, o‘quvchi lug‘atini boyitishga, nutqining aniq va ravon bo‘lishiga olib keladi. Ta’lim jarayonida lug‘at ishi matn va gap materiali asosida uyushtiriladi. O‘z navbatida lug‘at ishi so‘z ustida ishlash hamda o‘quvchini grammatik mashg‘ulotga tayyorlaydi. O‘quvchilarning ona tili xazinasidagi so‘zlardan nutq faoliyatida foydalana olish, o‘z nutqini nutq sharoitiga mos ravishda ifodalash ko‘nikmalarini egallashlari uchun ta’lim jarayoniga mazmunga mos o‘qitish usullarini tatbiq etish ona tili o‘qitish metdikasi oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida matn asosida qiziqarli va foydali mashq turlarini, topshiriqlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi. Matnda bayon etilgan ma’lumotlarga ega bo‘lish, matnning ta`limiy va tarbiyaviy qimmatini tushunish, asosli xulosa chiqarishlari uchun matn tahlili yo‘nalishi, tartibini belgilash didaktik talablardan hisoblanadi.

Avvalo, matn mazmunan va Grammatik jihatdan bog‘langan gaplar to‘plamidan iborat. Matn mazmuni uning sarlavhasida qisqa va lo‘nda ifoda etiladi. O‘quvchilarga matn va gapning farqli tomonlarini anglashlariga erishish uchun taqqoslash usulida terma gaplar va mazmunan bog‘langan gaplar asosida o‘rgatish maqsadga muvofiq. Masalan: “Xotiraning dorisi” - meditsinaga oid matn. Darsliklarda turli sohalarga oid matnlar berilgani uchun ular ustida ishlash yo‘nalishi ham o‘ziga xos bo‘ladi. Har bir darsda o‘rganilayotgan matn qaysi soha haqida yoki qanday voqea haqida ma`lumot berayotganiga diqqat qaratiladi. Bu haqida o‘quvchilarning bilganlari so‘raladi. O‘quvchilar matn mazmunini o‘zlari bilgan ma`lumotlar bilan to‘ldiradi.

Matn sarlavhasi bilan matn voqealarining bog‘liqligi aniqlashtiriladi. “Bu matnga siz qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lardingiz?” savoli asosida o‘quvchilarning matndagi ma`lumotlarni qay darajada anglaganlari va ijodiy yondashuvlari aniqlanadi.

Matnning qurilishi ustida ishlash o‘rqali voqealarning sabab va natija bog‘lanishlari aniqlanadi. Matn qurilishi usida ishlashda quyidagi kabi savol-topshiriqlardan foydalaniladi:

1. Matn necha xatboshidan iborat?
2. 1-xatboshida nima haqida ma`lumor berilgan? 2- va 3- xatboshida nima haqida ma`lumot berilgan?
3. Xatboshilarning o‘rnini almashtirib o‘qing.
4. Har bir xatboshi o‘zaro qaysi jihatdan bog‘liq?
5. Matnga yana biror voqeani qo‘shish mumkinmi?
6. Siz hayotingozda matndagi ma`lumotlar asqotadimi?

Matn mazmunini o‘zlashtirib olishlari va matnga yaqinlashtirib qayta hikoyalashga tayyorlash, ya`ni o‘quvchilarning nutqini o‘stirishga qaratilgan leksik va lingvistik tahlil tashkil etiladi.

Leksik tahlil uchun topshiriqlar:

-Matnni qayta o‘qing va ma`nosini tushunmagan so‘zlaringizni alfavit tartibida ustun shaklida yozing.

- So‘zlarning ma`nosini izohli lug‘atdan foydalanib yozing.

Matn asosida lug‘at ustidagi ishlar boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda tashkil etiladi. Bu o‘z navbatida lug‘at ustida ishlashning xilma xil usullarini qo‘llashni taqozo etadi. Jumladan, 1- sinfda “Xotiraning dorisi” matn asosida lug‘at ustida ishlash amalga oshirishdan oldin “Matnni undagi so‘zlardan foydalanib qayta hikoyalang” topshirig‘I beriladi.

Qayta hikoyalashda qo‘llamagan so‘zlariga va matn mazmunini ta`sirchan ifodalash ichun zarur bo‘lgan so‘zlarga o‘quvchilar diqqati qaratiladi. Lug‘at ustida ishlash o‘quvchilarni xushyor torttiradi. Masalan: *Bernar Kurtua, kimyogar, siyohrang ko‘lmakchalar, kashf etdi, yod moddasi, dengiz suvlari, dengiz mahsulotlari, dengiz o‘simliklari, kasallikka chalinmoq, buqoq kasalligi, xotira, osh tuzi, qadoq, yodlangan, yodli tuz, atamoq.*

Lug‘at ustida quyidagi yo‘nalishlarda izohlash mashqlar tashkil etiladi:

1. **So‘zlarning ma`nosini izohlash.** Doskaga quyidagi so‘zlar yoziladi. Masalan: *kimyo –fan nomi, moddalarning tuzilishi va o‘zgarishini o‘rganadigan fan, masalan, suvning tuzilishi, dengiz suvlarining tuzilishi; kimyogar - kimiyo bilan shug‘ullanuvchi olim; buqoq kasalligi - qalqonsimon bezning kattalshishi,*

2. Shakldosh so‘zlar ma`nosini izohlang: *yod moddasi va yod olmoq* birikmalarida yod qanday so‘zlar? *Kasallikka chalinmoq – qo‘ng‘iroq chalinmoq.*

3. Ma’nodosh so‘zlar topish: *kashf etdi – ixtiro qildi, yaratdi, yodlangan – yodli (tuz), kasallikka chalinmoq – kasallanmoq; atamoq-nomlamoq,…*

4. Ko‘p ma`noli so‘zlar ustida ishlash: *esda **tuting** –yodda saqlang, esda tuting –unutmang, qo‘lda tuting – qo‘lda ushlang.*

5. So‘zlarning talaffuzi va imlosi ustida ishlash: *mushuk, suyuqlik, siyohrang, kashf etmoq, modda, mahsulotlar, buqoq, xotira…*

So‘zlarning imlosi shu so‘zlarning talaffuzi va yozilishini taqqoslash, bo‘ginlarga bo‘lish va ularning xato yozishga sabab bo‘ladigan holatlarni izohlash, yozilishini kuzatish va esda saqlab qolish, so‘zni bir necha marta yozib ko‘rish, shu so‘zlar asosida lug‘at diktant yozdirish. Shu darsda berilgan matn asosida so‘z yasalishiga doir ma`lumot, ya`ni –li va –siz qo‘shimchalari bilan yangi so‘zlar yasalishi va ular ifodalaydigan ma`nolar haqida ma`lumot beriladi.

Munosabat. 1- sing “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi mualliflari 1- sinf o‘quvchisining berilgan ma`lumotlarni qabul qilishi, uni xotirada saqlashi va amal qilishini hisobga olib darslik materiallarini tanlashga e`tibor berishlari lozim. Jumladan, *–li va –siz qo‘shimchalari bilan yasalgan so‘zlarning ma`nosi (3-sinfda so‘z tarkibini o‘rganishga kiritilgan), Shoxrux Rahmonov – 5 daqiqa ichida 500ta so‘z, Davronbek Turdiyev, “Mukammal xotira egasi”, mnemonist, “So‘z yodlash sirlari” kitobining muallifi, unda nimalarni yozgan(?)* – bir darsda bolaga qancha yuklama yuklatilmoqda. Darslik mualliflari ma`lumotlarni toplash uchun qancha vaqt sarflagan (?), o‘quvchi uni o‘zlashtirishi uchun qancha vaqt sarflaydi(?), o‘qituvchi natijaga erishganini qanday asoslaydi (?), darslik mualliflari-chi *(?),* bir gap tarkibida 10 -13ta so‘z *(?).*

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V. P. Belyanskiy. Vvedeniye psixolingvistiki. –M., 2001.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig.-T.: Yulduzcha. 1990.
3. Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. –T.: O‘zbekiston. 1987.
4. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati.– T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
5. С.П. Редозубов. Методика русского языка в начальной школе. –Москва: 1963.
6. Tuzuvchilar: I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh .Tursun. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1- sinf. T.: Respublika ta`lim markazi. 2021.

SHARQ MAMLAKATLARIDA VA SHARQLIKLAR FIKRIDA BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBGA O‘RGATISH VA KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARINING YORITILISHI

Ashirova Sojida Baxromovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti.Qarshi, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Maqola mzamunida kasbga o‘rgatish va kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish muammosining o‘rganilish davriyligi mazmunan izchillikda va mohiyatan tizimlilikda yoritilgan va Sharq mamlakatlarida hamda Sharq mutafakkirlarining asarlarida bu mazuning o‘rganilishi haqida fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kasb, kasbiy tayyorgarlik, arxeologik qazilmalar, xalq og‘zaki ijodi, ***«Avesto», «Shohnoma», afsona, rivoyat, arab xalifaligi.***

ОСВЕЩЕНИЕ ПРОБЛЕМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В СТРАНАХ ВОСТОКА И В СОЗНАНИИ ВОСТОКОВЕДОВ

Аннотация: В статье освещена периодичность изучения проблемы профессионального обучения и развития профессиональной подготовки в мзамуни в последовательности содержания и системности по существ, даны отзывы об изучении этого МАЗу в странах Востока, а также в трудах восточных мыслителей.
Ключевые слова: профессия, профессиональная подготовка, археологические раскопки, устное народное творчество, «Авеста», «Шахнаме», миф, повествование, Арабский халифат.

COVERAGE OF THE PROBLEMS OF PROFESSIONAL TRAINING AND DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE SPECIALISTS IN EASTERN COUNTRIES AND IN THE OPINION OF ORIENTALISTS

Annotation: The study periodicity of the problem of professional training and development of professional training in mzamuni of the article is covered in content consistency and in essence systematicity, and in the works of Eastern countries and Eastern thinkers, feedback on the study of this topic is given. **Keywords:** profession, professional training, archaeological excavations, folk oral creativity, "Avesto", " ***Shohnoma***", legend, narrative, arab caliphate.

Ajdodlarimiz qadimdan o‘ziga xos madaniyat va ta’im-tarbiya sohasida yuksak hayotiy tajribaga ega bo‘lishi bilan birga uni vujudga keltirishda mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tgan. Dastlabki davrlardan boshlab o‘zlaridagi boy tajribani yosh avlodgan berish taradudida bo‘lgan. Ajdolarimiz tomonidan qo‘lga kiritilgan qadimiy madaniyat tarkibidan ta’lim-tarbiyaga oid merosi ham alohida o‘rin olgan. Zero hozirgi turkiy va forsiyzabon xalqlarning bizgacha yetib kelgan muhim arxeologik topilmalari, tarixchilar, adabiyot va san’at namoyondalarining ijodiy merosi, san’at va adabiy asarlarining na’munalari buning dalilidir.

Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o‘rganishda, quyidagi uch guruhga ajratilgan manbalarga tayanamiz:

1.***Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko‘rgazmali ashyolarga;***

2.***Xalq og‘zaki ijodi na’munalari hamda yozma manbalarga;***

3.***Buyuk allomalar va adiblarning ijodiy merosiga.***

Ibtidoiy kishilarning tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari, ular tomonidan amal qilingan urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlari mazmuni xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biri bo‘lgan afsonalarda ifodalangan. Afsonalarning qahramonlari yaxshilikning tantana qilishi uchun yomonlik hamda nurning muqarrar mavjud bo‘lishi uchun zulmat bilan kurash olib boradilar, yaxshilik va baxt-saodatga chulg‘angan o‘kalarini yaratadilar. Aksariyat afsonalarning qahramonlarini inson sifatida gavdalangan xudolar tashkil etgan. Ibtidoiy tuzum kishilarining orzu-istaklari, o‘y-fikrlari, maqsad va intilishlarini yoritishga xizmat qilgan afsonalarning ko‘pchiligi bizga eng qadimgi yodgorliklar - «Avesto», Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» asarlari orqali ma’lumdir [1: 39].

Bizgacha yetib kelgan epik asar (afsona va rivoyat) larda, asosan ajdodlarimizning yurt ozodligi, vatan ravnaqi va qabila farovonligi yo‘lida olib borgan kurashlari o‘z ifodasini topgan, qahramonlar vatanni va xalqni sevadi. Or-nomusni muqaddas deb bilish, do‘st va safdoshlarga sadoqat, burchni yuksak darajada anglash, unga sodiqlik, vatan va xalqi uchun o‘z jonini qurbon etish, har qanday mashaqqatga bardosh berish, o‘z sevgi-muhabbati yo‘lida aziyat chekishga tayyorlik kabi insoniy tuyg‘ular ularning asosiy xususiyatlaridir. Qahramonlik eposlarida ulug‘langan eng asosiy axloqiy xislatlari - jasurlik va mardlik bo‘lgan.

Eng qadimgi qo‘shiq va lirik she’rlarda jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi xislatlar tarannum etilgan. Bunday qo‘shiq va lirik she’rlar XI asrda yashagan ulug‘ olim Mahmud Koshg‘ariy tomonidan yaratilgan «Devonu lug‘atit-turk» asari orqali bizgacha yetib kelgan. Turkiy xalqlarning tarixini yorituvchi qadimgi manbalarda pand-nasihat va o‘gitlar aytilgan asarlar ham ko‘plab uchraydi [1: 41].

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan manbalarning barchasi VIII-XI asrlarda O‘rta Osiyoda shakllangan, zamonaviy kasbiy ta’lim tizimning fundamental asoslari hisoblanadi. Zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da ham kasb-hunar ta’lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan. Unda: «kasbiy tarbiya hayotining eng muhim tirgagi, tayanchi bo‘lib hisoblanishi lozim.

O‘rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Farobiy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning inson kamoloti haqidagi ta’limoti ta’lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. «Fozil odamlar shahri», «Baxt va saodatga erishuv to‘g‘risida», «Ilimning kelib chiqishi», «Aql ma’nolari to‘g‘risida» kabi asarlarida kasb-hunar qilish asosida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

IX -X asrlar O‘rta Osiyoda naqqoshlik san’at avj olib rivojlandi. Arxitektura sohasida g‘isht kesib naqsh solish yuksak rivojlandi, binolarning ichki tomonlariga ganch, yog‘och o‘ymakorligi yuksak rivoj topdi. Ayniqsa, maktablarning peshtoqlari devor va romlar ganch naqshlar bilan nafis bezatilgan. Shu davrda naqqoshlik san’ati bilan bog‘liq kasblar, ularni yoshlarga o‘rgatish g‘oyalari rivojlangan. Shu davrlarda Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg‘ona va boshqa shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq, amaliy san’ati na’munasi bobokalonlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas, teran mazmunli va tarixan bebaho san’at xalq tarqoqligiga barham berdi, mamlakat mo‘g‘illar bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning oxiri va XV asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi. Sohibqiron Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o‘rin egallaydi. Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi. [1: 44].

XIV asrning uchinchi choragi va XV asrda Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat sezilarli darajada o‘sdi ta’lim-tarbiyaga, yoshlarning kasb-hunar egallashlariga katta e’tibor berildi. Amir Temur hukmronligi davrida

jahonning ko‘plab shaharlaridan Samarqandga hunarmandlar, ollm-u fozillar, san’atkorlar, muhandislar olib kelindi va ularning boy tajribalari, ijodiy mahoratlaridan ilm-ma’rifat, madaniyat, qurilish jabhalarida keng foydalanildi. Samarqand va Hirotda madrasalar, kutubxona va rasadxona qurildi. Tibbiyot ilmini o‘rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo‘g‘rofiya, tarix, adabiyot hamda tarbiyashunoslikka oid asarlar yaratildi. Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Sa’diy meroslarini, ularning ta’lim-tarbiya, kasb-hunar bo‘yicha qarashlari shuningdek, yunon-rim madaniyatini o‘rganishga havas kuchaydi [1: 49].

Shuni ta’kidlash kerakki, Temur va uning izdoshlari, temuriylar davrida fan va madaniyat rivojlandi. Ayniqsa, Samarqand va Hirot shaharlari madaniyat, ilm-ma’rifat markaziga aylandi. Amir Temur saltanatni bino qilish va uni mustahkamlash uchun juda katta xizmat qildi. Ana shunday buyuk xizmatlaridan eng muhimi mamlakatda ta’lim tizimini rivojlantirish sohasiga qaratilganligi edi. Chunki uning e’tiqodiga ko‘ra bilimdon va tadbirkor insongina mamlakatning rivojlanishiga hissa qo‘sha oladi. Shuning uchun ham sohibqiron bilimli va ishbilarmon, tadbirkor kishilarni tarbiyalashga katta e’tibor beradi. Bu borada ta’lim tizimining o‘ziga xos o‘rni bo‘lishi kerakligini anglagan holda, maktab va madrasalar qurdiradi. XV-XVI asrlarga kelib, qadimiy Turkiston jahonga qozizoda Rumiy, Ulug‘bek, Ali Qushchi, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Abulg‘oziy Bahodirxon singari allomalarni voyaga yetkazdi. Bu davrda Markaziy Osiyo shaharlarida qator madaniy va ilmiy markazlar vujudga keldi. Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbek xalqi va uning madaniy-ma’rifiy taraqqiyoti asrlar davomida misli ko‘rilmagan darajada rivojlangan. Qolaversa, uning axloq-odobga, kasb-hunarga oid qarashlari pedagogika fanlari bo‘yicha ta’limoti butun jahonga o‘rnak bo‘larli ma’no va mazmun kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. I. Avazboyev «Kasbiy pedagogika» o‘quv qo‘llanma T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU 2014-yil 320 bet
2. G. O. Ochilova «Kasbiy kompetentlik» o‘quv qo‘llanma T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2021-yil 228 bet
3. M. M. Axmetjanov, U. A. Urinov, Sh. S. Sharipova “Kasbiy ta’lim metodikasi” darslik Buxoro “Durdona” 2020-yil 496 bet.
4. I. M. Sirojiddinova “Kasbiy ta’lim metodikasi” o‘quv qo‘llanma Andijon “Noshirlik” 2021-yil 220 bet.
5. D. Elmuratova, N. Misirova “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv qo‘llanma “Guliston” 2021-yil 161 bet.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA INNOVATSION FAOLIYATGA O‘RGATISH.

M.A.Jumayeva
Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasi dotsenti Buxoro, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo`lajak o`qituvchilarni intellektual salohiyatiga, bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish,zamonaviy va sifatli ta'limga bo‘lgan motivatsiyani faollashtirish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** Innovatsion faoliyat,kreyativ yondashuv,ko`nikma,malaka.

ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ТВОРЧЕСКИХ ПОДХОДОВ.

Аннотация: В данной статье речь идет о направлении будущих учителей на раскрытие их интеллектуального потенциала, будущих специалистов на инновационную деятельность, активизации мотивации к современному и качественному образованию.

Ключевые слова: Инновационная деятельность, творческий подход, мастерство, квалификация.

TRAINING FUTURE TEACHERS OF INNOVATION ACTIVITIES BASED ON CREATIVE APPROACHES.

Annotation: In this article, it is thought about directing future teachers to their intellectual potential, future specialists to innovative activities, activating motivation for modern and quality education.

Key words: Innovative activity, creative approach, skill, qualification.

Dunyoda ijtimoiy sohani rivojlantirish va bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishga oid qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash, pedagog-kadrlar innovatsion faoliyatining shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, bu jarayonga nisbatan yangicha munosabatni shakllantirish va metodologiyani ishlab chiqishni talab etmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ilg‘or ta'lim texnologiyalarini qo‘llash asosida innovatsion faoliyatning samaradorligini oshirishga,kompetentsiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarning imkoniyatlarini, metodologik asoslarini tadqiq etish zaruriyati tobora ortib bormoqda.O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan jahon intellektual salohiyatiga to‘laqonli qo‘shila oladigan mutaxassislarni tayyorlashga bog‘liq. Ushbu vazifalarni amalga oshirish esa bo‘lajak o‘qituvchilarni va ilmiy-pedagog xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etib, uning samarali usullaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy faoliyatga qiziqtirish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish yo‘naltirishdan iboratdir. Ushbu muhim vazifalarni amalga oshirishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, hozirda ilm-fan va texnika-texnologiyalar kun sayin, soat sayin takomillashib, rivojlanib bormoqda, natijada shunga mos yetuk mutaxassislar tayyorlash zarurati ham tug‘ilmoqda.Oliy ta'lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni

innovatsion faoliyatga yo‘naltirish,zamonaviy va sifatli ta'limga bo‘lgan motivatsiyani faollashtirish, oliy ta'limda innovatsion faoliyatning o‘rni va rolini kuchaytirish, ta'lim islohotlarini amalga oshirish jarayonini mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mos holda prognoz qilish dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar barkamol avlodni tarbiyalash, ularni ilmiy-tadqiqotchilik, innovatsion faoliyatga yo‘naltirishga qaratilgan zarur imkoniyatlar hamda shart-sharoitlar yaratish “XXI asr – intellektual asr” da qadriyatlar ustuvorlik qiladigan asr ekanligini e'tiborga olgan holda Vatanimiz yigit va qizlarini har tomonlama barkamol shaxslar qilib shakllantirish hozirda nihoyatda dolzarblik kasb etmoqda va u ham milliy, ham umumbashariy mazmun-mohiyatga ega bo‘lib, uning ijrosi insoniyatni ma'naviyat va ma'rifatga,yuksak barkamollikka, ezgulikka olib boradi. Shu sababli barkamol avlodni tarbiyalash va ularni davr talabiga mos qilib shakllantirish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi bo‘lib kelgan.Jumladan, bunday yuksak orzu-istaklar Abu Nasr Farobiyning fozillar jamiyati (“Fozil odamlar shahri”), Yusuf Xos Hojibning “Saodatga eltuvchi bilim”, shuningdek, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Hoja Ahror Valiy, Az-Zamahshariy, Najmiddin Kubro, Ya'qub Charxiy, Xoja Mahmud Porso, Kosoniy, Xoja Yusuf Hamadoniy,Abdulxoliq G‘ijduvoniy kabilarning ilmi hadis yo‘nalishidagi ta'limotlari va Al-Xorazmiyning dunyoviy ahamiyatga ega bo‘lgan kashfiyotlari (algoritm asoschisi), Ibn Sino tibbiyoti, Abu Rayhon Beruniyning qomusiy ilmi va ijtimoiy axloqiy qarashlari, Amir Temur davlatchiligi va tuzuklari hamda uning adolatli ijtimoiy-tashkilotchilik ishlari, Mirzo Ulug‘bekning koinot ta'limini ommaviy olib borish (dorilfunun tashkil etish) haqidagi ta'limoti, Mirzo Boburning ta'limni isloh qilish sohasidagi “Xatti Boburiy”, Alisher Navoiyning adolatli jamiyat va ma'rifatga chaqiruvchi ta'limotlari, Ma'mun akademiyasining “Donishmandlik uyi”(“Bayt-ul hikmat”)dagi ta'limotlarida teran ifoda qilingan. Hozirda bunday boy o‘tmish merosga ega bo‘lgan ajdodlar orzusiga erishildi va u respublikamiz ahlini turli jabhalarda tub burilishlar qilishga,islohotlar qilishga ilhomlantirdi.Jamiyatimiz kelajagi bo‘lajak mutaxassislarni zamon talablarini hisobga olgan innovatsion faoliyatga yo‘naltirgan holda raqobatdosh qilib tayyorlashni talab etadi.O‘qituvchi faoliyatini o‘zgartirmay turib, uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan ta'limda bir qadam oldinga siljib bo‘lmaydi. A.N. Leont`ev: «Dunyoni idrok qilishning birinchi sharti - faoliyat, ikkinchi sharti – tarbiyadir. Faoliyat jarayonida kishilarning qobiliyati, bilim va malakalari shakllanadi, demak, faoliyat ijtimoiy hodisa bo‘lib, hayotiy kurashning asosiy sharti», – deb ta'kidlaydi. Ya'ni faoliyat ijtimoiy hodisa bo‘lib, shaxsiy, guruhiy,milliy yoki umuminsoniy ehtiyojlarga javob beruvchi maqsadlar sari yo‘naltirilgan harakat hisoblanadi. Inson faoliyati o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan,ijodiy, ilmiy, pedagogik, tadbirkorlik, o‘quv-biluv, boshqaruv va innovatsion faoliyatlar kabi. Barcha faoliyatlarning mazmuni, shakli, vositalari o‘zgarib borishi natijasida insonning axloqiy madaniyati takomillashib boradi.Innovatsion muhit - pedagogik jamoda, umuman oliy ta'lim muassasida shunday ijodiy, samimiy do‘stona sharoit tug‘diriladiki, unda o‘qituvchi o‘zini erkin xis qiladi, jamoda ichki intilish moddiy-ma'naviy qiziqish yuqori darajada bo‘ladi. U muhitda o‘qituvchi ijodiy fikr yuritishga,intilishga tayyor bo‘ladi.

Innovatsion faoliyatning maqsadi sarflangan bilim, ko‘nikma va malakadan eng yuqori natija olishdan iborat bo‘lib, boshqa innovatsiyalardan farqli, innovatsion boshqarish va nazorat qilishdagi o‘zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.Ta'lim jarayonidagi innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta'riflash imkoniyati paydo bo‘ldi. Innovatsion pedagogik faoliyatda doimiy uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Pedagogik innovatsiyalarning vujudga kelish holatlari quyidagilar:

- pedagogik tizim ichidagi komponentlar o‘zgarganda;
- yangi tipdagi o‘quv yurtlari ochilganda;
- o‘qituvchi faoliyati yangilanib, o‘zgarganda;
- talabaning faolligi, qiziqishi, mas'uliyati, motivatsiyasi oshganda;
- ta'lim mazmuni yangilanganda;
- ta'limda yangi metod, shakl va vositalar qo‘llanganda;
- ta'lim jarayoni yangicha boshqarilganda;
- ta'lim sifat va samaradorligini oldindan maqsad qilib olinganda.

Pedagogik innovatika – bu pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o‘zlashtirish, pirovardida uni amaliyotda qo‘llash haqidagi ta'limot. Yangilikni yaratish qonuniyatlarini o‘zlashtirish va targ‘ibotini o‘rganadigan fan.Zamonaviy ta'limda pedagogik innovatikaning o‘rni va roli katta. Bunga sabab ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyoti darajasiga qarab muntazam rivojlanib, takomillashib boruvchi dinamik tizimdir. Ushbu rivojlanish va takomillashish esa ta'lim jarayonini zamon talablarini hisobga olgan holda doimo yangilab borishni talab etadi.Ular asosida ta'limni boshqarishdek muhim bosqichga o‘tiladi.

Innovatsion jarayon – bu ko‘rib chiqilayotgan ijodiy jarayondagi innovatsiyalarni ishlab chiqarishga,ya'ni amaliyotga joriy etish va ommalashtirish faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi.Yangi asr bo‘sag‘asida fanda yangi yo‘nalishlar, yangicha yondashuvlar paydo bo‘ldi. Ushbu dolzarb masalalarning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022— 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”dagi bandlarda ham yaqqol aks etgan.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SH. Mirziyoev ta'kidlaganidek: “Bugun hayotning o‘zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo‘l ochish bo‘yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda”.

Bugungi tezkor o‘zgarishlarga boy bo‘lgan Yangi O‘zbekistonni yaratish bosqichida har bir shaxsdan o‘z ichki imkoniyatlaridan yuqori saviyada qo‘llash, shu bilimlar zaxirasi bilan yaqinlari va hamkasblari ruhiy dunyosini boshqarishni talab qilmoqda. Aynan mana shunday talablarga mos faoliyat yuritish uchun esa inson o‘zidagi tug‘ma imkoniyatlarni vaziyatga moslashtira olishi,xolislik bilan faoliyat yuritishi lozim bo‘ladi.Bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish uzoq muddatli, murakkab jarayon bo‘lib, ushbu jarayonning muvaffaqiyatli yakunlanishi umumiy pedagogik faoliyatni mazmun va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish, yuqori samaradorlikka ega bo‘lish va keng ko‘lamli axborotlardan foydalanishdan iborat.Ta'limni innovatsion rivojlanish istiqbollari quyidagilardan iborat:

Individuallashtirish;
Ixtisoslashtirish;
Tabaqalashtirish;
Integratsiyalash;
Ko‘p variativlik;
Axborotlashtirish;
Uzviylik – uzluksizlik;
Insonparvarlashtirish;
Qo‘shimcha ta'lim;
Inklyuziv ta'lim;
Chuqurlashtirish;
Modernizatsiyalash;
Unifikatsiyalash;
Standartlarni takomillashtirish.

Ushbu vazifalar quyidagicha amalga oshiriladi:- bo‘lajak o‘qituvchilarining o‘zlashtirayotgan nazariy bilimlarini nafaqat pedagog orqali,balki tashqi manbalardan ola bilishi, keng miqyosda kreativ yondashuv va tafakkur yurita olishga o‘rgatish lozim, bu bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion faoliyatini namoyon etishi uchun optimal shart-sharoitlari modellarini yuzaga keltiradi;

- oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlarini keng ko‘lamda olib borishning tashkil etilishini yo‘lga qo‘yish. Bu ta'lim-tarbiya jarayonida insoniy, moliyaviy, moddiy-texnik resurslarni optimal ishlatishga imkon beradi;

- o‘qituvchilarning yangilikka intiluvchanligi, ularni izlab topishga, yaratishga, ta'limga qo‘llash ko‘nikma, malakalari shakllanadi;

- bo‘lajak mutaxassislarda uzluksiz ijodkorlik pozitsiyasini saqlab qolish ko‘nikmasi shakllanadi;

- oliy ta'imda innovatsion faoliyatda ilg‘or texnologiyalar, interfaol ta'limni qo‘llash muhitida ish yuritadi;

- talabalarning o‘quv jarayonini harakatga keltiruvchi faol, qiziquvchan, mas'uliyatni his qilish asosida motivatsiyasi oshadi.

- oliy ta'limda Davlat standartlarini to‘la o‘zlashtirishi kafolatlanadi. U o‘z navbatida ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonini ushbu omillar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida o‘qituvchidan faqatgina olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llashgina emas,balki ularni doimiy takomillashtirib borish ham talab etiladi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda o‘qitishning metod va vositalarini tanlash tizimi ham o‘zgaradi.

Hozirgi kunda «Kim yaxshi kasb egasi bo‘la oladi, ideal kasb egasi o‘zi qanday bo‘lishi kerak?»degan savollarga javob topish emas, balki professional o‘sish va kasbining ustasi bo‘lib shakllanishning amaliy texnologik yo‘llarini aniq ko‘rsatib berish lozim. Bo‘lajak o‘qituvchi sifatli kadr tayyorlash jarayoniga mas'ul bo‘lib, uning ma'naviy qiyofasi zamon talablari darajasida, jahon andozalariga mos ravishda shakllanishi hamda rivojlanib borishi, ta'lim jarayonini optimal darajada tashkil etishi mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Pedagoglarni mutaxassisligi bo‘yicha nnovatsion faoliyatini takomillashtirishda pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etib, tartibga solish, kasbiy faoliyatga erishishning hozirgi zamon nuqtai nazaridan o‘qituvchining kreativ, intellektual, motivatsion, shaxsiy, irodaviy,axloqiy xususiyatlarini rivojlantirish zarur.Ta'lim jarayonida kreativ yondashuv asosida innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayoni ko‘rsatilgan bo‘lib, ular turli ob'ektiv va sub'ektiv omillarga asoslanadi Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorlashning asosiy vazifalaridan biri yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda ularni aqliy-ijodiy faoliyatga yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi.Bunga erishish uchun bo‘lajak o‘qituvchilar oliy o‘quv yurtiga kirgan vaqtidan boshlaboq innovatsion jarayonlarga kirib borishi, ta'lim tizimiga ijodiy yondashishi kerak, innovatsion jarayon orqali bo‘lajak mutaxassislarda kreativ yondashuvlar asosida innovatsion resursni hosil qilish,innovatsion salohiyatni shakllantirish va innovatsion faoliyatni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish samarali kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori. www.lex.uz.
3. Abduquddusov O. Kasb ta'limi o‘qituvchilarni tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: Fan, 2005. – 157 b.

O‘QITUVCHILARDA REFLEKSIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONINI TASHKIL ETISH FUNKSIYALARI

G‘oyimov Umar Eshmurodovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kunda o‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini tashkil etish funksiyalari ochib berilgan. Shu bilan birgalikda maqolada refleksivlikning bugungi kundagi ahamiyati keltirib o‘tilgan. Dastlab maqolada refleksiyaning o‘qituvchi faoliyatida bugungi kundagi o‘rni, maqola so‘ngida o‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini tashkil etish funksiyalari haqida yavsiya berilgan. Maqola oxirida xulosa keltirilgan.

Kalit so‘zlar

Refleksiya, ko‘nikma, qobiliyat, jarayon, tasavvur, o‘qituvchi, funksiya, mahorat, rivojlanish, tashkiliy, psixologik, pedagog, qobiliyat turi, fikrlash, ortga qaytish, talaba.

ФУНКЦИИ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ РЕФЛЕКСИВНЫХ УМЕНИЙ ПЕДАГОГОВ

АННОТАЦИЯ

В статье раскрываются функции организации процесса формирования рефлексивных умений у учителей сегодня. В то же время в статье говорится о важности рефлексивности сегодня. В начале статьи указана роль рефлексии в деятельности учителя сегодня, а в конце статьи - функция организации процесса формирования рефлексивных умений у учителей. Заключение приведено в конце статьи.

Ключевые слова

Рефлексия, умение, способность, процесс, воображение, учитель, функция, умение, развитие, организационное, психологическое, педагог, тип способностей, мышление, обратная связь, ученик.

FUNCTIONS OF ORGANIZING THE PROCESS OF FORMING REFLEXIVE SKILLS IN TEACHERS

ANNOTATION

The article reveals the functions of organizing the process of forming reflexive skills in teachers today. At the same time, the article mentions the importance of reflexivity today. At the beginning of the article, the role of reflection in the teacher's work today is given, and at the end of the article, the function of organizing the process of forming reflexive skills in teachers is given. The conclusion is given at the end of the article.

Keywords

Reflection, skill, ability, process, imagination, teacher, function, skill, development, organizational, psychological, pedagogue, type of ability, thinking, feedback, student.

Jahonda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish oliy ta’lim muassasalari faoliyatining raqobatbardoshligini ta’minlash o‘qituvchi va pedagog xodimlarning pedagogik qobiliyati hamda mahoratini rivojlantirish, ularning o‘zini-o‘zi rivojlantirish va uzluksiz ravishda malakasini oshirish masalasiga dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ta’lim va tarbiya uyg‘unligini amalda ta’minlash uchun fanlarning har bir mavzusidagi tarbiyaviy maqsaddan unumli foydalanilishini ta’minlash” [1] kabi muhim vazifalar keltirib o‘tildi. Hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son qarori belgilangan vazifalarni amalga oshirishda o‘qituvchilarda refleksiv qobiliyatni shakllantirish muhim ekanligini taqozo etadi.

O‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish asosan ularning metakognitiv layoqatlarini rivojlantirish natijasida amalga oshiriladi. Chunki axborotlarni qayta ishlash bilan bir qatorda metakognitiv jarayonlarning ham mavjudligi amaliyotda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Metakognitiv jarayonlar axborotlarni qayta ishlashni tashkil etish va samarali boshqarishni ta’minlaydi. O‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishda integral ruhiy jarayonlar maqsadlarni shakllantirish, rejalashtirish, natijalarni bashorat qilish, qarorlar qabul qilish shakllarida amalga oshiriladi. Intellektual refleksiya shaxsning o‘z tafakkuri asoslarini tushunishi sifatida talqin etiladi. Shuning uchun ham u intellektual jihatdan o‘z-o‘zini boshqara olishning metakognitiv mexanizmi sifatida baholanadi.

O‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda o‘qituvchilar o‘z harakat yo‘nalishlarini mustaqil belgilaydilar, hammaga tushunarli bo‘lishi uchun tushuntirish yo‘llarini o‘zlari mustaqil tanlaydilar.

O‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun o‘qituvchilar yo‘naltiruvchi savollardan tayanch manba sifatida foydalanadilar. Jumladan:

- Men mavzuni tushuntirganimda qanday yutuqlarga erishdim?
- Men qaysi savollar orqali o‘uvchilarni qiziqtira oldim v anima uchun?
- Men uy vazifasini qanday va qaysi usullar yordamida bajarishini tavsiya qilganim ma’qul v anima uchun?
- Men maqsadimga erishishimda qanday qiyinchiliklarga duch kelishim mumkin va ularni qanday bartaraf etsam bo‘ladi? kabi.

O‘qituvchilarning o‘z faoliyatlari mohiyatini anglashlari ikki xil ko‘rinishini olishimiz mumkin:

a) joriy refleksiya
b) yakuniy refleksiya.

Joriy refleksiya o‘quv jarayoni davomida o‘quv predmeti doirasidagi bilimlarni tushuntirish natijasida shakllanadi. U o‘zining yo‘nalishlari, maqsadi, asosiy bosqichlari, muammolari, ziddiyatli jihatlari, faoliyat usullari va natijalariga ega.

Yakuniy refleksiya esa o‘qituvchining mavzu doirasidagi faoliyati yakunlangandan so‘ng shakllanadi. Yakuniy refleksiya joriy refleksiyadan keng ko‘lamdagi refleksiv faoliyat va ko‘p miqdordagi formallashtirishga ega. Yakuniy refleksiyaning mazmuni, shakllari metodlarini o‘qituvchi o‘quv dasturidan kelib chiqqan holda belgilaydi. Yakuniy refleksiya o‘quv predmetining alohida bo‘limi tugagandan keyin o‘z-o‘zini nazorat qilish shaklida o‘tkaziladi, shuningdek, o‘quv yili yoki o‘quv choragida ham bunday tashkil etish mumkin. Bunda o‘qituvchilar o‘z oldiga muayyan savollar qo‘yiladi va ularga javob topishga harakat qiladi. Masalan:

1. Men ushbu o‘quv yili yoki uning ayrim choraklari davomida qanday muvaffaqiyatlarga erishdim? (o‘quvchilarga mavzuni tushuntirish jarayoni bo‘yicha)
2. Mening yutuqlarga erishishimda nimalar yordam berdi?
3. Men o‘z nuqtai nazarimni nima uchun o‘zgartirdim?
4. Men o‘z fanimni o‘rgangatishim davomida vujudga kelgan qiyinchiliklarni qanday bartaraf etaman?
5. Oldingi o‘quv yilida o‘z oldimga qo‘ygan qaysi maqsadlarimga erishmagan edim va ushbu o‘quv yilida ularga qanday erishmoqchiman?
6. Qaysi tarixiy voqealardan o‘zim uchun saboq oldim?
7. Men qanday yangi faoliyat usullari va turlarini o‘zlashtirdim? kabilar.

Ta’limning bunday usullaridan foydalanishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa o‘qituvchining psixologik savodxonlikka asoslangan holda o‘quv jarayoniga yondasha olishidir. O‘qituvchilar duch kelayotgan muammolardan biri o‘quv jarayoniga refleksiv jihatdan o‘z-o‘zini tahlil qilish elementlarini kiritishda o‘qituvchilarning har doim ham o‘z rivojlanishlarini anglash ehtiyojini sezmasliklaridadir. Buni o‘qituvchilar o‘z-o‘zini nazorat qilish jarayonida his qiladilar. Buning juda ko‘p sabablari mavjud. Maktabda o‘qish davomida o‘qituvchi darsda yetakchi mavqega ega bo‘lgan shaxs sifatida o‘quv jarayonini tashkil etadi. Agar o‘qituvchilar o‘z oldilariga savollar qo‘ya olmasalar, ular o‘quvchilarga darsni tushuntirish natejasini yuqori natijaga olib chiqa olmaydilar, Yurtni rivojlanishiga ta’sir etuvchi yangi zamonaviy avlodni yetishtirish naqadar muhim ekanini anglab yetmaydilar.

O‘qituvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini tashkil etish hamda boshqarish pedagogik faoliyatning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, o‘qituvchidan shaxsiy-kasbiy o‘z-o‘zini nazorat qilishni talab qiladi.

O‘qituvchining refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini tashkil etish ichki boshqaruv doirasidagi faoliyat hisoblanadi. Menejment nazariyasida jarayonni rejalashtirish, tashkil etish, motivlashtirish, nazorat funksiyalarining ajratilishi va ularni birinchi darajali deb hisoblash qabul qilingan [14].

Refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda inobatga olinishi zarur bo‘lgan omillar, sub’ektlarning individual psixologik xususiyatlari, tashkil etiladigan refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari mazkur jarayonda o‘z-o‘zini nazorat qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori. www.lex.uz

2. Ahlidinov R.Sh. Ta’lim boshqaruvidan saboqlar. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. – 2014., 440 b.

3. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – Toshkent: “Fan”, 2008.– 441 s.

4. Obuxov A.S. Refleksiya v proektnoy i issledovatelskoy deyatelnosti / A.S.Obuxov // Issledovatelskaya rabota shkolnikov. - 2005. - № 3. - S. 19-38.

5. Xodjaev B.X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish: Ped.f.d. ...diss. – Toshkent, 2016. – 314 b.

ЗНАЧЕНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Маратова Фариза Азаматовна
Преподаватель кафедры «Начальное образование»
Навоийского государственного педагогического института

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы, связанные с творческой деятельностью учителя начальных классов, значение творческой деятельности в современной школе. На основе психолого-педагогической литературы раскрываются такие понятия, как «творчество», «деятельность» и «творческая деятельность».
Ключевые слова: деятельность, творчество, творческая деятельность, младший школьник, учитель начальных классов.

BOSHLANG`ICH SINF O‘QITUVCHILARI IJODIY FAOLIYATINING KASBBIY FAOLIYATDAGI AHAMIYATI.

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyati bilan bog‘liq masalalar, zamonaviy maktabda ijodiy faoliyatning ahamiyati muhokama qilinadi. Psixologik-pedagogik adabiyotlar asosida “ijodkorlik”, “faollik”, “ijodiy faoliyat” kabi tushunchalar ochiladi.
**Kalit so`zlar:** faoliyat, ijodkorlik, ijodiy faoliyat, boshlang`ich sinf o‘quvchisi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

THE IMPORTANCE OF CREATIVE ACTIVITY OF PRIMARY CLASS TEACHERS IN PROFESSIONAL ACTIVITIES

Annotation: The article discusses issues related to the creative activity of primary school teachers, the importance of creative activity in a modern school. Based on psychological and pedagogical literature, concepts such as “creativity”, “activity” and “creative activity” are revealed.
Key words: activity, creativity, creative activity, junior schoolchild, primary school teacher.

Современному обществу нужны активные личности, с гибким мышлением, способные творчески подойти к решению различных по степени сложности и объёму задач. В федеральном государственном образовательном стандарте начального общего образования говорится о том, что при организации учебной деятельности, должен обеспечиваться рост творческого потенциала [8]. В настоящий момент школа ставит перед собой задачу по развитию разносторонней, активной и здоровой личности. Деятельность, организованная в школе, предполагает гармоничное сочетание учебной и творческой деятельности, которая проявляется в развитии индивидуальных способностей учащихся.

В современном, прогрессивно развивающемся мире, появляются новые требования, предъявляемые и к педагогам. Это обосновывается новыми целями, содержанием, формами, методами и технологиями образования. Помимо основной задачи – осуществления целостного педагогического процесса, педагог также должен стремиться к саморазвитию, совершенствованию профессиональных педагогических компетенций, он становится исследователем, который ищет и открывает новые способы, технологии обучения, воспитания и развития обучающихся. Этим вопросом занимались такие ученые в сфере педагогики как: К. Д. Ушинский, А. С. Макаренко, В. А. Сухомлинский, Л. С. Выготский.

Учитель для учеников является примером, именно личность учителя играет важную роль в обучении и воспитании младших школьников. Развить и воспитать активную творческую личность может только человек, понимающий в чем заключается творческий подход, и реализующий его в своей педагогической деятельности. А сама творческая деятельность не может быть реализована без высокой степени интеллектуально-мотивационного развития.

К.Д. Ушинский в своих работах часто поднимал вопрос: педагогика – это наука или искусство? Также в своих работах он отвечал на свой же вопрос, говоря: «Педагогика – не наука, а искусство – самое обширное, сложное, самое высокое и необходимое из всех искусств» [7, с. 192]. Называя педагогику искусством, Константин Дмитриевич имел в виду то, что она требует практической деятельности педагога, его творчества. Педагогика, несомненно, имеет научные основы, но применять их на практике можно не только лишь в виде четко выработанного плана действий, но и подходя к педагогическому процессу творчески, необычно.

Чтобы понять, что такое творчество, обратимся к определению разных авторов. Само слово «творчество» возникло в конце XVIII, в начале XIX века. Многие считали это слово церковным, так как ощущали его связь со словом «творец», то есть, создатель мира. Слово «творчество» не употребляли в своей речи до середины XIX века, пока оно не приобрело оттенок торжественности, величавого, приподнятого стиля.

В психолого-педагогической литературе на творческий характер педагогического труда обращали внимание великие педагоги, такие как И.Г. Песталоцци, Я.А. Коменский, К.Д. Ушинский. Н.А. Бердяев под творчеством понимал «абсолютно оригинальное создание человеком небывалого» [1, с. 35]. Я.А. Пономарев творческие способности связывает с уровнем внутреннего развития плана действий. У него творчество выступает как механизм развития, взаимодействие, ведущее к развитию [4, с. 57]. С. Медник считал, что творчество заключается в способности преодолевать стереотипы, в широте поля ассоциаций. Л.С. Выготский по вопросам творчества писал: «Творческой мы называем каждую деятельность, которая создает что-то новое» [3, с. 113].

Так можно выделить главные признаки творчества по М.М. Поташнику:
1. Создание нового или существенное усовершенствование известного.
2. Оригинальность, неповторимость продукта деятельности, ее результатов.
3. Взаимосвязь творчества и самотворчества, самосозидание [5, с. 87].

Подходя творчески к процессу обучения и воспитания, учитель должен брать ответственность за выбранные им методы, приемы, средства обучения. Ведь педагогическое творчество учителя должно приносить положительные результаты. Чтобы добиться планируемого результата педагог должен обладать определенным набором знаний, который не должен быть ограничен исключительно профильным предметом, но и включать в себя глубокую осведомлённость в областях педагогики и психологии. Творчество учителя не должно противоречить основным требованиям к результатам обучения, изложенным в федеральном государственном образовательном стандарте начального общего образования.

Для педагогического творчества также важно целенаправленность и осознанность. Осознанная творческая деятельность предполагает наличие цели. Учитель должен тщательно подбирать и обдумывать методы, средства и формы организации для достижения цели. Поэтому важно поставить цель, прогнозировать результат, и уже базируясь на этом, подбирать средства и методы, которые не будут противоречить особенностям педагогического процесса, и приведут к достижению положительного результата.

Прежде чем говорить о творческой деятельности учителя, дадим определение слову «деятельность». Согласно Толковому словарю С.И. Ожегова, деятельность – это занятие, труд [6]. Творческая деятельность учителя, в первую очередь, проявляется в широком кругозоре. У него много интересов, он смотрит широко на явления нашего мира, обладает знаниями об окружающем мире. Все это дает учителю опыт, который он демонстрирует через те подходы, которые осуществляет на уроке.

Важно осознание педагогом степени своего профессионализма и мастерства, понимание и учет своих индивидуальных особенностей. Профессионализм учителя определяется через его мастерство. А мастерство, в свою очередь, отражается в демонстрируемых результатах младшего школьника. Для того, чтобы добиться высоких образовательных показателей, учитель проявляет педагогическое творчество и мастерство.

Педагогу важно критически относиться к своей педагогической деятельности. Умение проводить самоанализ означает, что учитель способен оценить сложившуюся педагогическую ситуацию, способен спрогнозировать результат своей деятельности. Это служит ориентиром в формировании творческой и профессиональной позиции.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Бердяев Н.А. Смысл творчества / Н.А. Бердяев. – М.: Академический проект, 2015. – 289 с.
2. Виноградов В.В. История слов / В.В. Виноградов. – М.: Толк, 1994. – 1138 с.
3. Выготский Л.С. Психология творчества / Л.С. Выготский. – М.: Книга по требованию, 1965. – 481 с.
4. Пономарев Я.А. Психология творчества / Я.А. Пономарев – М.: Наука, 1976. – 280 с.
5. Поташник М.М. Педагогическое творчество: проблемы развития и опыт / М.М. Поташник. – К.: Радянська школа, 1988. – 187 с.
6. Толковый словарь Ожегова [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://slovarozhegova.ru/
7. Ушинский К.Д. Избранные педагогические произведения / К.Д. Ушинский. – М.: Педагогика, 1974. – 584 с.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM FANLARNI O‘QITISHDA IJODKORLIK VA MULOQOT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Poshshoxo‘jayeva Sharofatxon Maxammatxonovna
Andijon shahar 49-umumiy o‘rta ta'lim maktabining 1 - toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Anatatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashi shakllana borishi, mustaqil fikrlashga o‘rganishi, dunyoviy bilimlar bilan tanishishi va ularning uzluksizligini ta’minlash uchun ularda ijodkorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim ahamiyati to‘g‘risida fikr bildirilgan.
Kalit so‘zlar: ijodiy faoliyat, ijodkorlik, muloqot, tasavvur, erkin fikr, mustaqil fikr, madaniyat.

DEVELOPMENT OF CREATIVITY AND COMMUNICATION SKILLS IN PRIMARY GRADES

Abstract: In this article, an opinion is expressed about the importance of developing creativity and communication skills in elementary school students in order to form their worldview, learn to think independently, get acquainted with worldly knowledge and ensure their continuity.
Key words: creative activity, creativity, communication, imagination, free thought, independent thought, culture.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ И КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: В данной статье высказывается мнение о важности развития творческих и коммуникативных навыков у учащихся младших классов для формирования их мировоззрения, обучения самостоятельному мышлению, ознакомления с мирскими знаниями и обеспечения их преемственности.
Ключевые слова: творческая деятельность, творчество, общение, воображение, свободомыслие, самостоятельное мышление, культура.

Kundan-kunga rivojlanib borayotgan mamlakatimizda so‘nggi yillarda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o‘zgarishlar zamonaviy talablar asosida tashkil etilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek:

“Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi” [1].

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta’lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor qo‘nalishlarini izlanuvchi ta’lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta’limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan o‘quvchilarda ijodkorlik, ijodiy faoliyatni rivojlantirish lozimligi kun tartibidagi muammo bo‘lib qoldi. Zero, 1-4-sinf o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olish, ta’limni samarali tashkil etishda darslarni noan’anaviy tarzda o‘tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish ularni har tomonlama yetuk bo‘lishiga xizmat qiladi.

Ijodkorlik oddiy ta’rifga ega bo‘lgan tushuncha emas. Ijodkorlik - bu shaxsning asl mahsulot yoki yechim topish istagi. Istak va tasavvur hissi ijodkorlikning asosiy so‘zlaridir. Sternberg va Lubart (1998) fikrlariga ko‘ra, faqat ijodkorlik uchun o‘ziga xoslik yetarli emas[3]. Torrance (1988) esa ijodkorlikni quyidagicha ta’riflagan: «Qiyinchiliklar, muammolar, ma’lumotlardagi bo‘shliqlar, yetishmayotgan elementlar, qandaydir qiyshiq narsalarni sezish jarayoni: bu kamchiliklar haqida taxmin qilish va gipotezalarni shakllantirish; bu taxmin va gipotezalarni baholash va tekshirish; ehtimol ularni qayta ko‘rib chiqish va qayta sinovdan o‘tkazish va nihoyat natijalarni e'lon qilish».

Adabiyotni tahlil qilish asosida (G.S. Altshuller, V.A.Buxvalov, A.A.Gin, M.A.Danilov, A.M. Matyushkin va boshqalar) ijodiy vazifalarga qo‘yiladigan quyidagi talablarni ajratish mumkin:

–ochiqlik (muammoli vaziyat yoki ziddiyatning mazmuni);

– shartning tanlangan ijod usullariga muvofiqligi;

– turli xil yechimlarni topish imkoniyati;

– hozirgi rivojlanish darajasini hisobga olgan holda;

– talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishning eng muhim pedagogik shartlari quyidagilardir:

– faoliyatning mohiyatini o‘zgartirish;

– bolalarning ta’lim faoliyatida xayrixohlik muhiti;

– jamoaning shakllanishi.

Muloqot madaniyat o‘quvchining umumiy madaniy va kasbiy rivojlanishida yetakchi o‘rinni egallaydi va, albatta, ta’limning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, ularning tarkibiy va funksional tarkibiy qismlarining birligida pedagogik tizimlarni modellashtirishning maxsus obyekti sifatida qaraladi, gumanitar ta’limning eng muhim tarkibiy qismi sifatida taqdim etiladi.

Kichik sinf o‘quvchilarida muloqot madaniyatni rivojlantirish boshlang‘ich sinfning muhim muammolaridan biridir, chunki boshlang‘ich sinf yoshida muloqot madaniyatini rivojlantirish o‘quvchilarga o‘z imkoniyatlarini yanada muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Muloqot madaniyati – bu shaxslararo muloqot qonuniyatlari, turli hayotiy va mehnat sharoitlarida o‘z vositalaridan foydalanish ko‘nikmalari, shaxsiy muloqot fazilatlar to‘g‘risidagi bilimlar yig‘indisidir.

Muloqot madaniyat bu shaxs asosiy madaniyatining bir qismi bo‘lib, uning hayotiy o‘zini o‘zi belgilashga, atrofdagi voqelik va o‘z ichida uyg‘un munosabatlar o‘rnatishga tayyorligini ta’minlaydi. Bu insonning ichki dunyosini yaratish vositasi, uning mazmuni, boyligi, paydo bo‘lgan muammolarni hal qilish vositasidir[4:120].

Erkin va ijodiy fikrlash boshlang‘ich sinf o‘quvchisining muloqotga kirishishida, o‘z fikrini erkin bayon qilishida, o‘zganing fikrini to‘ldirib, qo‘shimchalar qila olishida, voqelikni idrok etib o‘z qarashlarini ifoda eta olishida namoyon bo‘ladi. Lekin ko‘pchilik o‘quvchilar o‘zlari o‘qigan, ko‘rgan, eshitgan voqealarini o‘zgalarga gapirib berish tugul, bu voqealarga ijodiy, erkin va mustaqil fikr bildira olmaydilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot madaniyatining rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ular o‘quv faoliyati boshlanishi bilan bolaning fikrlash xarakteri, xotirasi va e’tiborining o‘zgarishi, jamiyatda yangi mavqega ega bo‘lishi bilan tavsiflanadi; yangi xulq-atvor qoidalarini o‘rganadi; birinchi marta kattalar bilan o‘zaro munosabatlarning yangi usuliga duch keladi, biznes munosabatlari tizimini tushunadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich ta’limda o‘qitish jarayoniga tizimli yondashishni kuchaytirish zarur. Buning uchun, nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish kerak bo‘ladi. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida ijodkorlik va muloqot madaniyatining rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ular o‘quv faoliyati boshlanishi bilan o‘quvchining fikrlash xarakteri, xotirasi va e’tiborining o‘zgarishi, jamiyatda yangi mavqega ega bo‘lishi bilan tavsiflanadi; yangi xulq-atvor qoidalarini o‘rganadi; birinchi marta kattalar bilan o‘zaro munosabatlarning yangi usuliga duch keladi, biznes munosabatlari tizimini tushunadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020

2. Alieva E.G. Ijodiy qobiliyat va uning rivojlanish shartlari // Ta’lim faoliyatini psixologik tahlil qilish M.: IPRAN. 1991.
3. Bartscher, Lawler, Ramirez va Schinault, 2001; Lubart & Sternberg, 1998.
4. Безрукова В.С. Основы духовной культуры. Екатеринбург, 2000. – С. 120.
5. Ponomarev Ya.A. Ijodiy fikrlash psixologiyasi.- M., 1960
6. Vygotskiy L.S. Ta’lim psixologiyasi // Psixologiya: klassik asarlar. № 3. - M., 1996.
7. Azarova L.N. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining ijodiy individualligini qanday rivojlantirish kerak // Boshlang‘ich maktab, 1998 yil, 4-son 80-81 betlar.
8. Boltayeva SH. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish. // Xalq ta’limi, 2004,№ 3.-34-34 betlar.
9. «Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy muloqot qilishga o‘rgatish usullari». 'Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020.
10. Лозован Л.Я. Формирование коммуникативных умений младших школьников. Москва: ИСМО РАО; Новокузнецк: КузГПА, 2010. – С. 141.

O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHDA ONA TILI FANINING O‘RNI (BOSHLANG‘ICH TA’LIM MISOLIDA)

Mirzabayeva Mukatdam Axmadjanovna
Toshkent viloyati, Yangiyo‘l shahar 9-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
boshlang ‘ich sinf o‘qituvchisi.Toshkent,O‘zbekiston

Annotatsiya: Boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilar nutqini o‘stirishdir. Ona tili darsi o‘quvchilar nutqi va tafakkurini o‘stirish darsidir. Ushbu maqolada o‘quvchi nutqini o‘stirishda ona tilining o‘rni haqidagi qarashlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ona tili, fikr, so‘z, til, lug‘at, nutq, nutq o‘stirish

РОЛЬ ПРЕДМЕТА РОДНОГО ЯЗЫКА В РАЗВИТИИ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ (НА ПРИМЕРЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ)

Аннотация: Одной из основных задач начального образования является развитие речи учащихся. Урок родного языка направлен, главным образом, на развитие речи и мышления учащихся. В данной статье даны взгляды на роль родного языка в формировании речи школьника. **Ключевые слова**: родной язык, мысль, слово, язык, лексика, развитие речи.

THE ROLE OF THE SUBJECT OF THE NATIVE LANGUAGE IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS SPEECH (ON THE EXAMPLE OF PRIMARY EDUCATION)

Annotation: One of the main tasks of primary education is the development of students' speech. The lesson of the native language is mainly aimed at the development of speech and thinking of students. This article presents views on the role of the native language in the formation of a student's speech.

Keywords: native language, word, language, dictionary, speech

Inson butun umri davomida o‘z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go‘zal, ravon, ifodali, ta’srichan bo‘lishiga intiladi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalik davrida samarali kechadi. Kichik bolalik davridan boshlab u aloqa-aralashuviga ehtiyoj sezadi; o‘zgalarning fikrini tinglash va o‘z fikrini bayon qilishga tobora ko‘proq zaruriyat seza boshlaydi[4, 307] . Boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilar nutqini o‘stirishdir[1,44]. Ona tili darslarida o‘zbek tiliga muhabbat va so‘zga nisbatan hurmatni tarbiyalashga e’tibor beriladi. Ona tili darsi, avvalo, o‘quvchilar nutq va tafakkurini o‘stirish darsidir. Darsda bolalar nutqini o‘stirish darsning mazmunida va qo‘llanilgan vazifalar turlarida o‘z aksini topadi. Bolalar nutqini o‘stirish jarayoni ularning tafakkurini o‘stirish bilan bog‘liq. Shu yerda nutq o‘stirish nima? degan savol o‘rinli bo‘ladi. Agar o‘quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishini, bog‘lanishli nutqni) faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi. Agar o‘qituvchi ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, o‘quvchilar tilining talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishi nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo‘llash tushuniladi[1,300]. Metodikaga oid adabiyotlarida nutq o‘stirish masalasida uch yo‘nalish aniq ajratiladi: 1) so‘z ustida ishlash; 2) so‘z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog‘lanishli nutq ustida ishlash. Maktabda o‘quvchilar nutqini o‘stirishga ona tili o‘qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. O‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi: O‘quvchilar nutqi mazmundor, mantiqiy, til vositalariga boy, tushunarli, ifodali, aniq va albatta tog‘ri bo‘lishi kerak. O‘quvchilar nutqini o‘stirish o‘z metodik vositalariga ega, o‘zining mashq turlari bor. Nutq o‘stirishda izchillik to‘rt shartni, ya’ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo‘ysundirish ko‘nikmasini amalga oshirish bilan ta’minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog‘lanadi va keyingisiga o‘quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo‘ysungan holda yana qandaydir yangilik qo‘shadi. Maktabda o‘quvchilar nutqini o‘stirishga ona tili o‘qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o‘stirish faqat ona tili va o‘qish darslarinigina emas, balki o‘quv rejasidagi barcha fanlar (tabiatshunoslik, matematika, mehnat, tasviriy san’at darslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir[1, 302].

K.D.Ushinskiy boshlang‘ich maktab o‘quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. “Ajoyib o‘qituvchi bo‘lgan ona tili bolaga ko‘p narsani o‘rgatadi.. Bola ikki -uch yil

ichida shuncha koʻp narsa oʻrganadiki, koʻp narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda toʻgʻri oʻqiganda ham uning yarimicha oʻrgana olmaydi. Ona tilining ulugʻ pedagogligi ham ana shundadir" deydi u[1,7]. Ona tili bolalarning lugʻatini boyitish, bogʻlanishli nutqni oʻstirish, adabiy-estetik tafakkurni kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta'sirchanligini ta'minlashning muhim omilidir. Ona tili oʻqitishning bosh maqsadi ham tilning jamiyatda tutgan oʻrni, vazifasi bilan belgilanadi. Til-aloqa vositasi, chunki soʻzlovchi fikr mulohazalarini til orqali bayon qiladi, tinglovchi esa til vositalari orqali roʻyobga chiqqan fikrni anglaydi. Oʻqitishga oid manbalarda, matn ustida ishlash jarayonida koʻp ma'noli soʻzlar, sinonimlar, koʻchma ma'noda ishlatiladigan soʻzlarni ba'zi frazeologik birikmalarni bilib oladilar. Soʻz ma'nolarini tanishtirish jarayonida sinonimlar, qarama-qarshi ma'noli soʻzlar bilan izoh berish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish, rasmlar asosida ogʻzaki hikoya tuzish kabi tavsiyalar berilgan. Taqdim etilgan matn parchasi istalgan asardan olingan boʻlishi mumkin va ularda ham ta'sirchan, tasviriy-boʻyoqdor soʻzlar boʻlishi mumkin. Misol uchun matnda "Qizcham, shoshma, shoshgan kishidan aql qochadi. *Yetti oʻlchab, bir kes."* degan misra kelsa boshlangʻich sinf oʻquvchisiga "*Yetti oʻlchab, bir kes*" birikmasi ibora ekanligi haqida ma'lumot berib uning ma'nosi nihoyatda ehtiyotkolik bilan (tadbir bilan)ish qilmoq [2,86] ekanligini aytish tavsiya etiladi. Iboralar doim koʻchma ma'no ifodalab, nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Matnda iboralar aniqlangach, ma'nosini izohlashdan tashqari, ularga ma'nodosh yoki qarama-qarshi ma'noli iboralarni toptirish ham yaxshi samara beradi.

Oʻquvchi sinonimik qatorlarni tuzish vazifasini bajarish jarayonida yangi soʻzlarni oʻz lugʻat boyliklari sirasiga kiritadi. Nutqni rivojlantirish uchun berilgan soʻzlarga sinonimlarni tanlash; tegishli matndan, darslikdagi mashqlar yoki badiiy asarlardan sinonim soʻzlarni ajratib yozish; sinonim soʻzlar asosida saylanma diktant oʻtkazish; har bir sinonim soʻzning ma'no nozikliklarini izohlash kabi mashqalarni bajarish tavsiya etiladi. Masalan, jahl, achchiq, gʻazab, qahr, zarda soʻzlarini koʻraylik. Bularning hammasini birlashtirib turadigan bosh ma'no nojoʻya xatti-harakat yoki hodisaga nisbatan qoʻzgʻalgan kuchli darajadagi his-tuygʻu va uning ifodasidir. Mazkur soʻzning ma'nolarini aniqlashda "Oʻzbek tilining izohli lugʻati"dan foydalanish mumkin: achchiq-qahr, jahl; zarda; zarda koʻchma. jahl, gʻazab, zugʻum; qahr-qattiq achchiqlanish holati; gʻazab; gʻazab-kuchli darajada nafratlanish, achchiqlanish hissi, qahr, jahl.[3,71] Mazkur tahlil sabab bir soʻzning bir qancha ma'nolari borligini koʻrishimiz mumkin. Bu oʻz navbatida oʻquvchi nutqini rivojlanishida ijobiy xizmat qiladi. Til oʻrganish bu faqat uning grammatik qurilishini bilish, tushuncha, ta'rif va qoidalarini oʻzlashtirib olish emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, fikrni ogʻzaki va yozma shakllarda toʻgʻri, ravon ifodalash malakalarini egallashdan iboratdir. Ona tili fani bolaga tilni oʻrgatish bilan birga, uning serqirra imkoniyatlaridan nutqda foydalanish me'yorlarini ham oʻrgatadi[4,39]. Soʻzning mazmunini tushunish orqali oʻquvchilarda ravon nutq soʻzlash koʻnikmasini shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova K. va boshq. Ona tili oʻqitish metodikasi. Darslik, -2009.- 352b.
2. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati. Toshkent, 1978 3.Toʻxliyev B. va boshq. Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi. Oʻquv qoʻllanma. –Toshkent, 2006. 192b.

BOSHLANGʻICH TA'LIMDA SINFDAN TASHQARI OʻQISHNING AHAMIYATI

Tursunova Ozoda
Toshkent viloyati, Yangiyoʻl shahar 9-umumiy oʻrta ta'lim maktabining
boshlang ʻich sinf oʻqituvchisi.Toshkent,Oʻzbekiston.

Annotatsiya: Boshlangʻich ta'lim oʻquvchi tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada badiiy asar oʻqish orqali shakllanadigan malakalar xususida fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlar: lugʻat, oʻquvchi, asar, mutolaa, nutq oʻstirish, tarbiya, kitob.

ЗНАЧЕНИЕ ВНЕКЛАССНОГО ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: Начальное образование имеет большое значение в воспитании школьника. В этой статье рассматриваются навыки и умения формирующиеся в результате чтения художественных произведений.

Ключевые слова: словарь, читатель, произведение, чтение, развитие речи, воспитание, книга.

THE IMPORTANCE OF EXTRACURRICULAR READING IN PRIMARY EDUCATION

Annotation: Primary education is of great importance in the education of a student. This article discusses the skills and abilities formed as a result of reading works of fiction.

Keywords: dictionary, reader, work, reading, speech cultivation, book.

Maktab oʻquvchini oʻqish malakasi bilan qurollantiradi hamda kitobni mustaqil oʻqiy oladigan, uni tushunadigan, ma'lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil oʻqiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari oʻqish (STOʻ) tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, koʻp narsani bilishga havasni orttiradi. STOʻning maqsadi oʻqish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob oʻqiydigan, oʻqilgan kitobni toʻgʻri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir. Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus STOʻ darslari tashkil etilgan [2.167] .Oʻqish malakalarini egallash maktabda oʻqitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli oʻzlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Oʻqish faoliyatning asosiy turi boʻlib oʻquvchilarni gʻoyaviy, aqliy, estetik va nutqiy tomondan rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Oʻquvchilar lugʻatini boyitishda eng ishonarli manbalardan biri mutolaadir. Oʻqish uchun tanlangan asar matnini tahlil qilish jarayonida oʻquvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish muhimdir.

Metodikaga oid darsliklarda asar tahlili jarayonida matn ustida ishlashni tanlab o‘qish, o‘quvchilar berilgan savol va topshiriqlariga o‘z so‘zlari bilan javob berish, o‘quvchilarni savol tuzishga o‘rgatish, matnni tasvirlash (matnni ikki xil tasvirlash mumkin: 1) so‘z bilan tasvirlash; 2) grafik tasvirlash), asar rejasini tuzish kabi turlari haqida ma’lumotlar berilgan. Tahlil orqali o‘quvchi o‘z fikrini ifodalashni hamda kerakli so‘zni tanlay olishni o‘rganadi. So‘z tilning ma’no bildiradigan asosiy birligidir. So‘z va so‘z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘z va iboralarning yig‘indisi lug‘at tarkibi va leksika deyiladi [2.308]. Bolalar mustaqil o‘qishga o‘rganganlaridan keyin ular lug‘atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta’sir qiladi . Shuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil o‘qish va unga rahbarlik shakllari o‘quvchilar lug‘atini boyitishning, nutqni o‘stirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi[2.310]. Sinfdan tashqari o‘qish orqali turli mavzudagi matnlar bilan tanishadi, ma’naviy ozuqa oladi, ahloqiy jihatlari tarbiyalanadi, estetik did va o‘qish malakalari yanada shakllanadi. O‘qish malakalari nima? O‘qish malakalari deganda badiiy asar matnini to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qish tushuniladi[2.74]. To‘g‘ri va tez o‘qish borasida tasavvurga egamiz biroq ongli o‘qish nima? Ongli o‘qish yaxshi o‘qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o‘qish o‘qilgan matnning aniq mazmunini, asarning g‘oyaviy yo‘nalishini, obrazlarini va badiiy vositalarning rolini tushunib o‘qish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga o‘z munosabatini ifodlay olishdir. Ongli o‘qish o‘z navbatida, o‘quvchilarning zarur hayotiy tajribasiga, so‘zning leksik ma’nosini, gapda so‘zlarning bog‘lanishini tushunishga va bir qator metodik shartlarga bog‘liq [2.77]. Bola asar o‘qish orqali ravon gapirish ko‘nikmasini ham shakllantiradi. Asar o‘qish jarayonida ifodali o‘qish haqida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Ifodali o‘qish intonatsiya – ohang yordamida asarning g‘oyasi va jozibasini to‘g‘ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. “Ifodali o‘qish adabiyotni aniq va ko‘rgazmali o‘qitishning dastlabki va asosiy shaklidir”, deb ta’kidlaydi metodist olima M.A.Ribnikova [4.125]. Demak, “Ifodali o‘qishning asosiy vazifasi asarning mazmunini va emotsionalligini intonatsiya orqali o‘quvchilarga ko‘rgazmali qilib ko‘rsatishdir. Ifodali o‘qishning asosiy tamoyili o‘qiladigan asar g ‘oyasi va badiiy qimmatini chuqur tushuntirishdir. ” [1.79] Ifodali o‘qishning muvaffaqiyati o‘quvchilarning asar mazmuni, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo‘lishi bilan bog‘liq. Ohang va intonatsiya she’riy asarlarni ifodali o‘qishda qay darajada muhim bo‘lsa, nasriy asarlarni o‘qishda ham muhim talablardan biridir. Nasriy asarlarni ifodali o‘qishdan oldin unda qanday g‘oya ilgari surilayotganini aniqlash zarur. Masalan, X.To‘xtaboyevning “Xatosini tushungan bola” hikoyasini ifodali o‘qishdan oldin o‘quvchilarga xatosini tushungan bola kim ekanligi, uning xatosi nimalardan iborat bo‘lganligi, maqtanchoqlikning illat ekanligi to‘g‘risida tushuncha beriladi[2.72]. Ifodali o‘qish orfoepik va orfografik malakani, xushovozlik ko‘nikmasini o‘stirish uchun ham juda muhimdir[2.43] . Sinfdan tashqari o‘qish uchun tavsiya etilgan hikoya mazmunan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda hikoyani o‘qishga bag‘ishlangan izohli o‘qish darslarida o‘qilgan hikoya mazmunini ochish, lug‘at ustida ishlash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoyani o‘qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o‘quvchilar nutqini o‘stirish markaziy o‘rin egallaydi. [2.113] She’rni o‘qish darslarida ham asosiy ish turi ifodali o‘qish hisoblanadi. O‘quvchi she’rning asosiy mazmunini tushunsagina uni ifodali o‘qiy oladi .

Sinfdan tashqari o‘qish yoki fanlar doirasida ilm berishning asosiy maqsadi barkamol avlodni tarbiyalashdir. Har bir darsda nutq madaniyati hukmron bo‘lishi, o‘qituvchi va o‘quvchilar adabiy tilda so‘zlashishlari tavsiya etiladi. Bilim beruvchi o‘qituvchi to‘g‘ri, ifodali, obrazli hamda aniq nutqqa ega bo‘lishi kerak . Asar o‘qish orqali o‘quvchida lug‘atni boyitish, gap tuzish va uni tahlil qilish, tushunganlarini qayta og‘zaki hikoyalash ko‘nikmalari shakllanishi kerak. Sinfda o‘qish yoki sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘quvchilarning sevimli bolalar shoiri va yozuvchilari asarlaridan tanlab olib kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish ustida ishlash kerak.

Sinfdan tashqari o‘qish o‘quvchilarning mustaqil faoliyati asosida uyushtirladi. [3.37] Sinfdan tashqari o‘qish orqali lug‘at boyligi oshadi va bu orqali o‘quvchilar nutqi rivojlanadi. O‘qigan asarini tahlil qilish hamda ifodali ko‘nikmasi shakllanadi. Darslikdan tashqaridagi bolalar adabiyotining durdona asarlari va ularning mualliflari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayev K. Ifodali o‘qish va hikoya qilish. –T.: “O‘qituvchi”, 1968.
2.Qosimova K. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. Darslik, -2009.- 352b.
3. Qurbonova M.F. Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlar. Xalq ta’limi,2020. 3-maxsus son, 37-43bet.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM FANLARINI O‘QITISHDA TO‘RT BLOKLI MODEL(TANQIDIY FIKRLASH, IJODKORLIK, MULOQOT VA HAMKORLIK) TATBIG‘I

Karimova E’zoza Mels qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d.(DSc) professor,
Ernazarova Manzura Saparboyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darsliklaridagi o‘zgarishlar, ta’lim sohasiga kirib kelayotgan zamonaviy uslublar, xususan, “4K” modeli haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimi, zamonaviy ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, “4K” modeli, kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya.

ПРИМЕНЕНИЕ ЧЕТЫРЕБЛОЧНОЙ МОДЕЛИ (КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ, ТВОРЧЕСТВО, КОММУНИКАЦИЯ И СОТРУДНИЧЕСТВО) В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТОВ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье рассматриваются изменения в учебниках для начальной школы, современные методы, входящие в сферу образования, в частности, модель «4К».

Ключевые слова: Система образования, современное образование, начальное образование, модель «4К», критическое мышление, творчество, общение, сотрудничество.

APPLICATION OF THE FOUR-BLOCK MODEL (CRITICAL THINKING, CREATIVITY, COMMUNICATION AND COLLABORATION) IN THE TEACHING OF PRIMARY EDUCATION SUBJECTS

Abstract: This article reflects on the changes in industry classes, modern methods of education, and the "4C" model.

Key words: Educational system, modern education, primary education, "4C" model, critical thinking, creativity, communication, cooperation.

Yurtimizni rivojlangan davlatlar sirasiga qo‘shish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Albatta, bu o‘zgarishlar ta’lim sohasini ham chetlab o‘tmaydi. Chunki ta’lim tizimini rivojlantirmay turib, o‘sib kelayotgan yosh avlodga zamonaviy yondashuv asosida ilm bermay turib davlatimiz kelajagi haqida fikr yuritib bo‘lmaydi. Axir “Bilimli yoshlar-kelajagimiz poydevori”,- deya bekorga ta’kidlamaymiz.

Ta’lim tizimidagi islohotlar haqida fikr yuritilar ekan, birinchi navbatda maktab ta’limi, ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar e’tiborga molikdir. So‘ngi yillarda maktab o‘quvchilari uchun chiqariladigan o‘quv darsliklari materiallari qaytadan o‘rganilib, yangidan yangi manbalar bilan boyitilmoqda. Bunda faqatgini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari foydalanadigan darsliklar emas, balki, barcha o‘quvchilarga zamonaviy o‘quv materiallari taqdim qilinmoqda.

Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’lim shubhasiz mustahkam poydevor yo‘lini o‘taydi. Boshlang‘ich ta’lim standartida o‘quvchilarning o‘qish malakalarining sifatlari va ijodiy fikrlay olishlari, o‘z-o‘zini nazorat qila bilishlari, nutq madaniyatini o‘zlashtirishlari, husnixat bilan savodli yozish ko‘nikmalarini egallashlari alohida qayd etilgan[1: 53].

2023-2024-o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yangi avlod darsliklari taqdim qilindi.Bu darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri “4K” modeli asosida ishlab chiqilganligidir. Xo‘sh, “4K” modeli o‘zi qanday tamoyil? U boshqa tamoyillardan nimasi bilan ajralib turadi? Endi bu savollarga qisqacha to‘xtalamiz.

“4K” modeli XXI asr o‘quvchisi uchun zarur ko‘nikmalarni o‘rgatuvchi model hisoblanadi. Ya’ni bu modelda faqatgina ma’lumotlarni yodlatish yoki shunchaki darslikda berilgan savol va topshiriqlarni yozdirish bilan cheklanilmaydi. O‘quvchilar nafaqat dunvoviy ilmlarni, balki, hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi. Bu model nimaga aynan bunday nom bilan atalganligiga to‘xtaladigan bo‘lsak ; “4K” bu yerda boshlang‘ich sinf fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan to‘rt kompetensiyani o‘z ichiga oladi. Bular: kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya.

Kritik - tanqidiy fikrlash. Bu fikrlashning alohida turi bo‘lib, asoslarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qilish hisoblanadi. Kritik fikrlashning quyidagi ko‘rinishlarini sanab o‘tishimiz mumkin: tanqid qilish, ayblash, hukm chiqarish, ajratib olish, aniqlab olish hamda xulosa chiqarish. Ushbu metodologiya o‘quvchilarning berilgan ma’lumotni tanqidiy usulda baholash orqali o‘z fikr va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta yordam beradi. O‘quvchilar muammolarga mantiqiy, tanqidiy nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadilar va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Axir, hozirda ishlab chiqilayotgan yangi darsliklarning asosiy vazifasi ham shunda.

Kreativlik – ijodiy yondashuv. Kreativlik – bu qaysidir ma’noda yangi va foydali biror bir narsaning yaratilishiga hissa qo‘shadigan fenomen. Boshqacha qilib aytganda, yangi mavhum biror narsa (asar, musiqa, idea yoki start-up) yoki jismoniy biror kashfiyot (mashina, qurilma yoki robot) kabilar yaralishi uchun eng kerakli vosita bu kreativlikdir [2].

Kommunikatsiya – muloqot qilish ko‘nikmasi. O‘z nomi bilan ma’lumki kommunikatsiya o‘quvchilarning muloqot, o‘zaro fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi metodologiyadir.

Kollaboratsiya – bu o‘quvchilarning berilgan topshiriqlarni hamkorlik asosida bajarish, suhbatdoshlarining fikrlarini qo‘llab-quvvatlash yoki bahs va munozaralar o‘tkazish ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

Ushbu to‘rt yondashuv asosida tayyorlandan darsliklar o‘quvchilarning fikrlash, muammoga har tomonlama yondashishga undaydi. Buning uchun, avvalo, o‘qituvchi darslikda berilgan har bir mavzudagi topshiriqlarni “4K” modeli asosida bolalarga tushuntirib o ‘tishi va ularni birgalikda bajarishga chorlamog‘i zarur. Ya’ni o‘qituvchilar mavzudagi biron-bir topshiriqni tushuntirayotib, uni o‘quvchilar bilan jamoaviy ko‘rib chiqishi, o‘zaro muloqot jarayonida ham ijodiy, ham tanqidiy tomondan yondashishlari kerak. Bunga misol tariqasida 3-sinf o ‘qish savodxonligi darsligida bolalar yozuvchisi Nasiba Erxonova qalamiga mansub “Arazchi svetofor” [3: 7-8] hikoyasini ko‘rib chiqamiz. Hikoyada ularning buyruqlarini pisand qilmay, yo‘lda o‘zlari istagancha harakatlanayotgan mashina va piyodalardan aziyat chakkan svetoforlarning faoliyatdan to‘xtashi va buning natichasida qanday ko‘ngilsizliklar

sodir bo‘lishi haqida bayon qilingan. Xo‘sh bu mavzuga qanday qilib “4K” modeli asosida yondashish mumkin? Avvalombor bolalarning diqqatini mavzuga qaratish uchun “Aqliy hujum” metodidan
foydalanib ko‘ramiz, ya’ni mavzuni tushuntirmasdan oldin bolalarda yo‘l qoidalari, svetofor, texnik ustalar haqida qanday tushunchalar borligini bilib olamiz. Bu o‘quvchilarga baravariga savol berish orqali o‘kaziladi va ular qo‘llarini ko‘tarib o‘z fikrlarini erkin bayon etishadi. Savol javobda o‘quvchilarning xato va kamchiliklari tuzatilmaydi, bu kamchiliklar mavzuni tushuntirish davomida aytib o‘tiladi. O‘qituvchi mavzu haqida qisqa tushuncha berib o‘tadi, so‘ngra barcha o‘quvchilar hikoyani parta boshidan o‘qiy boshlaydilar. Ushbu usul qisqa vaqt ichida barcha bolalar berilgan hikoyani o‘qib tugatishlariga yordam beradi. Birgalikda o‘qish mobaynida o‘quvchilar sinfdoshlarini hurmat qilib tinglashni o‘rganadilar hamda hikoyaga ham diqqatliroq bo‘ladilar. O‘qib bo‘lgach mavzudan olingan xulosalar jamoa bo‘lib ishlash orqali fikr almashinadi. Hikoyaga kreativlik asosida yondashadigan bo‘lsak unda keltirilgan kamchiliklar qanday bartaraf qilinganligi yoki yana qanday usullarda muammoni yechini topish mumkinligi haqida o‘quvchilar bilan bahs o‘tkaziladi. Bunda o‘quvchilar hikoyadan olgan tushunchalari va yangi g‘oyalarini(muammoga boshqa tomonlama o‘zlari topgan yechimni) bayon etishadi. Shu tariqada ularning dunyoqarashlari hamda so‘z boyliklari oshib boradi. Masalaga kritik, ya’ni tanqidiy tomondan yondashganimizda esa o‘quvchilarning o‘zlari hikoyadagi vaziyatda qanday yo‘l tutishgani, nima uchun mavzudagi fikrlarni qo‘llab quvvatlamayotganligi haqida so‘rov o‘tkaziladi. Misol uchun hikoya qahramonlari o‘rnida ular qanday kamchiliklarni qilmagan bo‘lishar edi yoki bo‘lmasam svetoforlarning arazlab qolishi to‘g‘rimi kabi muammoli vaziyatlarga hamkorlik tarzida yechim izlanadi. Darslikda berilgan bu ajoyib hikoya bolajonlarda yo‘l qoidalari haqida bilimlarni egallashga yordam bersa, biz qo‘llayotgan uslub ham ularningilmini yuksaltirishga katta yordam beradi. Ko‘rib turganimizdek, yangi ishlab chiqilgan maktab darsliklari, asosan, o‘quvchilarga faqat chiroyli yozuv va chishishni, masalalarni turli xil usullarda tez ishlashni o‘rgatish bilan cheklanib qolmaydi. Bolalarga, asosan, hayotiy ko‘nikmalar o‘rgatib boriladi. Yuqorida ko‘rib chiqqan hikoyamiz ham buning yaqqol isbotidir.

Boshlang‘ich ta’lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham nozik e’tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o‘zida “o‘quvchi shaxsi” ni yaratadi, maktabga va ta’lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to‘plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g‘oyaviy, tarbiyaviy va ma’rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi. Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o‘quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir dars o‘quvchilar faqat fan mazmunini o‘zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini rivojlantiradigan jarayondir.

Boshlang‘ich sinflar uchun yangi darsliklar esa kelajagimiz egalari bo‘lmish yosh avlodni har tomonlama rivojlantiribgina qolmay, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ularda shakllantirishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir [4].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Nizamova S.S. Boshlang ‘ich sinf o ‘qish darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish. –T.: 2020. 153 b.
2.https://telegra.ph/Kreativlik-ozi-nima-va-bizga-kerakmi-11-26
3.Aydarova U.B, Azizova N.K, Toirova M.E. O‘qish savodxonligi. 3-sinf 2-qism. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. Toshkent, Novda Edutainment. 2023.
4.https://aniq.uz/uz/yangiliklar/barchasi-maktab-partasidan-boshlanadi- boshlangich-sinfda-4k-modeli-zamonaviy-talimga-innovasion-yondashuv

WAYS TO TEACH ELEMENTARY PUPILS TO LOGICAL REASONING THROUGH A READING LITERACY TEXTBOOK

Sayfiddinova J.Z.
Samarkand State University 2nd stage base doctoral student

Abstract: *this article analyzes the scientific and practical features of the methodology for teaching elementary students to make logical observations through the analysis of a work of art in the lessons of native language and reading literacy.*

Keywords: *literary education, logical thinking, thinking, method, question and answer, assignment.*

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ ЛОГИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ С ПОМОЩЬЮ УЧЕБНИКА ПО ГРАМОТНОСТИ ЧТЕНИЯ

Сайфиддинова Ж.З.
Базовый докторант 2-го этапа Самаркандского государственного университета

Аннотация: *В данной статье проанализированы научно-практические особенности методики обучения учащихся начальных классов логическим наблюдениям посредством анализа художественного произведения на уроках родного языка и грамотности чтения.*

Ключевые слова: *литературное воспитание, логическое мышление, мышление, метод, вопрос-ответ, задание.*

O‘qish savodxonligi darsligi orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mantiqiy mulohaza qilishga o‘rgatish usullari

Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi

Samarqand davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida badiiy asar tahlili orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mantiqiy mushohada qilishga o‘rgatish metodikasining ilmiy va amaliy xususiyatlari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Adabiy ta’lim, mantiqiy fikrlash, tafakkur, metod, savol-javob, topshiriq, badiiy asar tahlili.*

At the end of the 20th and beginning of the 21st century, ideas began to be put forward in our country about the upbringing of the future generation in an independent, logical, creative thinking, the empowerment of mental potential, the generation with high morale. On the basis of these ideas, the forms of thinking were gradually studied in psychology, which later began to move to the field of pedagogy, from it to the sphere of methodology. As a result, research was carried out on the development of pupils ' thinking in a number of scientific research in the field of pedagogy and methodology.

As a result of the development of consciousness and thinking in a primary school pupil, it forms the basis for the formation of the existing creativity, resourcefulness, mindfulness, thinking skills in it.[1;45] Taking into account the fact that the deep knowledge and spiritual values obtained in primary education determine the future life of a minor, primary education focuses on the upbringing of a comprehensively mature and developed personality. In particular, over the past period, a number of regulatory legal acts have been adopted in the system of preschool and school education in the Republic of Uzbekistan and complex measures are being implemented in order to ensure its implementation. September 24, 2020-OORQ-637-law of the Republic of Uzbekistan “on education”, decree of the president of Uzbekistan “on measures for the development of education and science in the new Progressive Education” of November 6, 2020, decree of the president of the Republic of Uzbekistan “PF-6108”of January 28, 2022, decree of the president of the Republic of Uzbekistan "on the development strategy of new Uzbekistan "for 2022-2026". from the sentence.

The process of thinking is carried out in an inextricable connection with the psyche of a person. The richer the inner world of a thinking person, the wider the worldview, the deeper the knowledge, the higher the level of their thoughts, conclusions. A person who meditates logically will have the ability to understand the true nature of the issue posed, to make the necessary decisions and conclusions based on its causes and consequences. One of the English philosophers T. Gobbs also defines logical reasoning as:”the function of logic is to study the nature of the signs that reason uses when understanding things or delivering knowledge to other people " [2;75]. Therefore, a logically minded person is able to draw an impartial, fair and reasonable conclusion about the phenomena of the universe and the behavior of people. French philosopher R. Descartes 'reasoning on reasoning proves our opinion:" principles of right thinking: not to take as true an opinion whose validity is not self-evident; to include in our thoughts only those that seem clear and clear to our minds, leaving no room for doubts”[4;120]. This thought is seen as the force that motivates a person to make the right decisions through the right thinking throughout a person's life. In his view, right thinking requires that concepts are logically grounded.

Research in the field of literature teaching methodology in the period of independence was carried out by brogan Q.Yoldashev, S.Matjonov, M.In the scientific work of scientists like Mirkosimova, a certain amount of attention is paid to the issue of independence of reader thinking. It is known that the role of the textbook of mother tongue and reading literacy in teaching students to logical observation in elementary literary education is incomparable. In it, each student can independently and logically solve the problem posed to him, relying on his knowledge, life experience, setting the appropriate goals and objectives, independently and logically solving it using various ways, methods, only releasing his artistic reality.

It is known from this that in reading lessons, with the help of an artistic word, beautiful qualities, human qualities are formed in the personality of the pupil, in which a person with beautiful behavior, pure heart, healthy spirituality is brought up. These works are carried out directly through literature through the study of works of art, analysis of texts. Children, of course, want to hear a fairy tale from an early age[6;17]. Therefore, the provision of information that elementary school pupils should acquire in the form of a fairy tale serves as a key in the formation of the qualities of pupils ' thinking. It is indisputable that the form of Education organized in this way gives the expected result.

The first text is given for reading and analysis of the text of the section “Antarctica-Ice Kingdom” in Part 1 of the textbook “mother tongue and reading literacy” of the 3rd grade, and the text is read and broadcast to pupils with the help of a teacher. After reading and learning the text, in addition to the questions and tasks asked under the text to understand the text, it is possible to contact the reader with the following questions and tasks that motivate him to think logically, connecting him with a life independently composed by the Teacher: 1. Have you traced Antarctica from the world map? 2. Tell me why Antarctica began to be cold? 3. Who was Carsten? What would you do if you too remained in Antarctica? 4. Have you ever thought about how does water appear? 5. What riches are hidden in this quit of Planet Earth? 6. What reason do you think Antarctica is the least studied continent in the current period? 7. Have you also embarked on a journey as a researcher in your life? 8. What animals live in Antarctica right now? Have you also gone to the zoo in your area? 9. What kind of life do visiting researchers live in order to study Antarctica? 10. How can you prevent drinking water from being wasted in your own home? Is drinking water such a great blessing for us? 11. Think, How Do animals live in Antarctica? 12. Tell me, Why is Antarctica a continent of peace, is it recognized? 13. What do you think, would you like to go to such a cold land and stay? 14. What do you

know about such wonderful birds as, rhinoceros? 15. Try to tell their difference by taking information from the Encyclopedia intended for children about puppies, sea turtles and sea elephants, which are several types of tyulenes.

On the text of ”Vitaminjon " readers can be contacted through the following questions: 1. Tell me, in what products can we find the most in the composition of vitamin A, C, D and e given in the text? 2. What do you think, Why did Olimjon become a pale, tetanus child? 3. What foods do you eat rich in vitamins for your morning breakfast? 4. What products would you prefer when you were in the place of a scientist? 5. What products pose a danger to our organism? 6. Think about which products do you include in the list of semi-finished products? 7. try to interpret the meaning of the phrase” ... The King brings". 8. Dear little ones, what vitamin does the ability to see depend on? What products do we need to consume more so that our body is rich in this vitamin? 9. What did vitamin D complain about Olimjon? 10. Tell me, do vitamins have an important place in our lives?[7;38]

Of course, students do not have to answer all of these questions. What they know from the students expresses their attitude. The teacher can increase the number of responding students by appreciating the opinion of the answering student, listening respectfully to each other, correcting and acknowledging the opinion of the answering student without reprimanding him if the opinion of the answering pupil is wrong.

Through logical reasoning, a person studies the object being analyzed in the study of the mystery-syncopates of the universe into all-round pieces; makes a serious head by piecing a certain information (Sound, letter, word, sentence); determines whether the views, concepts that arose before him and how many of the conclusions and decisions taken are correct[5;17]. By reasoning logically, the analyst chooses the most optimal and correct of the conclusions and decisions. Younger readers are taught by logical reasoning in fiction as well as in textual analysis to understand the work being studied in greater depth, to understand more persistently, and to correctly assess the heroes of the work. At the same time, artistic analysis also leads to the formation of a logical thinking skill in the reader. Logical reasoning in the now updated mother tongue and reading literacy textbooks is an improved innovative way. Linking the text of a given work with life, reacting to it and giving its own personal conclusion activates the human moment.

In conclusion, underage readers are taught to understand the work being studied in them more deeply, to understand teranok and to correctly assess the heroes of the work, through logical reasoning in fiction and text analysis. At the same time, artistic analysis also leads to the formation of a logical thinking skill in the reader. Logical reasoning in the now updated mother tongue and reading literacy textbooks is an improved innovative way. Linking the text of a given work with life, reacting to it and giving its own personal conclusion activates the human mind.

References:

1. Thought Gulshani // aphorisms and wise words of compatriots and foreign allomas. collector Voronsov V. - T.: Ghafur Ghulam publishing house of literature and art,1989. – 142 B.

2. T. Gobbs. Izbr.proizv. V dvuh Tomah. T.2. - Moscow: 1964, - S. 75

3. National Encyclopedia of Uzbekistan. T.3. - T.: 2002. – 243 B.

4. Descartes. Izbr.proiz. - Moscow: 1950. - S. 301

5. Husanboyeva Q. Literature is a factor in the formation of spirituality and independent thought. T.: Publishing house of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, 2009. -368 B.

6. Husanboyeva Q. The role of essays in literary education. - T.: \ \ Language and literature education, 2010. No. 2. 3-17 B.

7. Mother tongue and reading literacy Part 1: textbook for 3rd grade/ K.Mavlonova. - T.: Republican Education Center, 2022-144 P.

TARBIYA JARAYONI VA UNING MOHIYATI

Umarova Gulhayo Mirodiljon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.Toshkent, O‘zbekiston
Ibragimova Yulduz Abdumalik qizi, Boltaboyeva Mohinur Otanazar qizi
CHDPU Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 2-kurs talabalari. Toshkent, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Maqolada butun dunyoda kurtak yoyib borayotgan , ishni oson qilish yo‘li” ya’niki korrupsiya haqida fikr yuritiladi. Unga qarshi kurashish choralari, korrupsiyani oldini olishga oid qonun hujjatlari haqida so‘z boradi. Shuningdek, unga qarshi kurashishning axloqiy normalari to‘g‘risiida mulohaza ketadi.
Kalit so‘zlar: korrupsiya, huquq, norma kurash, obyekt.

ПРОЦЕСС ОБРАЗОВАНИЯ И ЕГО СУЩНОСТЬ

Аннотация: В статье рассматривается коррупция, «способ облегчить жизнь», распространяющийся по всему миру. Обсуждаются меры борьбы с ней, законодательные акты по предотвращению коррупции. Также ведется дискуссия о моральных нормах борьбы с этим.
Ключевые слова: коррупция, право, норма борьбы, объект.

THE PROCESS OF EDUCATION AND ITS ESSENCE

Abstract: The article discusses corruption, the "way to make things easy", which is spreading all over the world. Measures to combat it, legal acts to prevent corruption are discussed. Also, there is a discussion about the moral norms of fighting against it.

Keywords: corruption, law, norm struggle, object.

Hozirgi davrda insoniyat uchun giyohvandlik, terrorizm, ekstramizm, odam savdosi singari bir qator xavf tug‘diradigan omillar mavjud. Ulardan biri korrupsiyadur. Korrupsiya o‘zi nima? degan savol tug‘uladi. Korrupsiya bu — jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to‘sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag‘al bo‘lishidan qat’iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo‘yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Biz quyida korrupsiyaning tarixiy ildizlariga va unga qarshi kurashish xususida fikr yuritmoqchimiz.

Korrupsiya (lot. Corrumpere — buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Ko‘p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko‘plab davlatlarning jinoyat va ma’muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta’qib qilinadi. Korrupsiyaning tarixiy o‘zaklari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma’lum mavqega ega bo‘lish uchun qabila sardorlariga sovg‘alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O‘sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining mukamallashuvi va markazlashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to‘siq ekanligini ko‘rsatadi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shummer davlati tan olinadi. Keyinchalik boshqa davlatlar ham korrupsiyaga qarshi kurashishga harakat qilmoqda va qay ma’noda buni uddasidan chiqishmoqda. Shu singari bizning mamlakatimizda ham bunga qarshi kurashish harakatlari qilinmoqda. Basharti, korrupsiyaga qarshi kurashishning 2016-yildagi „ Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida’’gi qaror bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak umda quyidagicha prinsp qo‘yilgan:

- qonuniylik;
- tizimlilik;
- ochiqlilik va shafoflilik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;
- korrupsiyaning oldini olishga doir chora- tadbirlar ustuvorligi;

Ushbu illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar quyidagi faktorlarni korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko‘rsatadi.

Ikki xil ma’noni anglatuvchi qonunlar — ushbu vaziyat huquqni qo‘llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo‘llash imkonini yaratadi. Shuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma’muriy qonunchilikdagi “vilka” sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr yuritishgan. Ya’ni, sanksiyaning aniq miqdori yo‘qligi sudyada uni o‘z hohishiga qarab qo‘llashga sharoit yaratib beradi.

Aholi huquqiy savodxonligining pastligi —
aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o‘zining shaxsiy manfaati yo‘lida qonu nlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi.

Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi —
mamlakatdagi notinchlik birinchi navbatda aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog‘liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o‘z n avbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi.

Ijro hokimiyatining birligi tamoyilinining buzilishi —
aynan bitta faoliyatning turli instansiyalar tomonidan tartibga solinishi:

aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;

davlat sektoridagi xizmat qilayotgan xizmatchilar daromadlarining xususiy sektorda topish mumkin bo‘lgan daromadlardan kamligi;

iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;

inflyasiyaning yuqori darajasi;

mamlakat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi;

mamlakatdagi diniy va axloq qoidalari.

Jahon mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashning quyidagi usullari mavjud.

Ichki nazorat
bu usul boshqaruv apparatining o‘zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar (har xil ichki inspeksiyalar va boshqa nazo rat organlari tuzish orqali) yaratishni taqazo etadi. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi xodimlarning ichki etiket qoidalarig a rioya qilishini nazorat qilishdir. Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham bir qator huquqni muhofaza qilish organlari da aynan shu vazifani bajaruvchi ichki tuzilmalar yaratilgan.

Tashqi nazorat —
bu usulda ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligini oshirish nazarda tutilib, aynan ushbu tuzilmalar orq

ali korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. Ya'ni, sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga eri shish ommaviy axborot vositalariga ko'proq erkinlik berish va h.k.

Saylov tizimi orqali kurashish —

demokratik davlatlarda saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usullaridan biri keyingi saylovlard a unga ovoz bermaslik hisoblanadi. Korrupsiyaga saylovlar orqali ta'sir o'tkazish eng samarali usul hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o'rin egallaydi.

Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to'g'anoq bo'ladigan muammolardan biri korrupsiyadir, deb qayd etgan. Bozor iqtisodiyoti tizimi kushandasi, davlatlar o'rtasida ikki va ko'p tomonlama hamkorlik, biznes hamda investitsiya rivojida shafqatsiz to'siq ham ayni shu korrupsiya hisoblanadi. Har yili o'nlab qo'shma korxonalarning ochilishi va yopilishi zamirida ana shu "ko'rinmas qo'llar" yotadi. Korrupsiya darajasi yuqorilashgan davlatga chet el investitsiyasini kiritish kamayib borayotganining asl sabablarini ham shu xavfli illatdan izlash lozimga o'xshaydi.

Oldin G'arb, keyinroq Osiyo davlatlarida bu masala chuqurlashib, jamiyatda "kasallik" hududi, ko'lami va darajasi kuchayib borayotgan ekan, nima qilmoq kerak, degan doimiy savol paydo bo'ladi. Nima qilsa, dunyoni egallab, mamlakatlar iqtisodiyotiga raxna solayotgan bunday balo-qazoning ta'sir doirasi kamayadi ?

Korrupsiya keng qamrovli tushuncha bo'lib, u jamiyatning ayrim qatlamlari, toifalari, guruhlari kundalik faoliyatiga aylanib, o'zaro bir-biriga bog'lanib, chirmashib ketganligidan ko'z yumib bo'lmaydi. "Nozik", "chigalroq" ushbu masalada davlatning huquq-tartibot idoralari birmuncha hushyor, ziyrak bo'lishi, shuningdek, nodavlat tashkilotlari, turli komissiyalar, jurnalistlar, mustaqil sudlar tizimi faolroq ishlashi haqida tadqiqotchilar anchadan beri yozib keladi. Siyosatchilar, sotsiologlar, psixologlar, tarixchilar, davlat hamda jamoat organlari, siyosiy partiyalar, eng muhimi, amaliyotchilar masalani tahlil etish va yechimini topish ustida bosh qotirishi lozim. Poraxo'rlik va korrupsiya o'zbek jamiyatining rivojlanishiga, xususan, demokratik yangilanish hamda modernizatsiyalash jarayoniga har jihatdan xalaqit bermoqda. Garchi bu masala uzoq yillardan beri ta'kidlanib, "qo'lga tushgan" amaldorlar televideniye va matbuotda namoyish etilganiga qaramasdan, sud, prokuratura, idora rahbarlari hamda oddiy fuqarolarning qon-qoniga singib ketgan feodalizm sarqitlari, tamagirlik, byurokratiya jamiyatimiz hayotidan yo'qolib ketmayapti.

Korrupsiya, birinchidan, jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi, bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi;

ikkinchidan, fuqarolarimizda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi, o'z haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatda adolat mezonining buzilishini ko'paytiradi;

uchinchidan, siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlari shaklan demokratik mezon, andozasiga o'xshasa-da, mazmun-mohiyatiga ko'ra, zamon talabidan orqada qolmoqda, bu kamchilik esa oldinga siljishimizga xalaqit beradi.

Xulosa qilib aytamanki, Hozirgi kunda rivojlanib kelayotgan mustaqil O'zbekiston Respublikasidagi ayrim sohalarining tarraqiy etishiga to'sqinlik qilayotgan korrupsiya sekin astalik bilan yo'qolib bormoqda desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Lekin bu zararli illatni nafaqat ta'lim tizimi balki jamiyatimining barcha sohalaridan quvib chiqarishimiz uchun hamma birdek harakat qilmasa, korrupsiya holatlari yuzaga chiqishi bilan o'z vaqtida chora-tadbir ko'rmasa barcha Yurtboshimiz tomonlaridan barcha amalga oshirilayotgan islohotlar o'z natijasini ko'rsatmaydi. Tavsiya o'rnida shuni ta'kidlab o'tamanki „2020-yil 29-iyunda Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bu borada davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish bilan birga, ana shu ko'rsatkichni yaxshilash ustida ko'p ishlashi kerak. Eng avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashishni oiladan boshlash darkor.

Foydalangan adabiyotlar.

1.https://anticorruption.uz/uz/item/what-is-corruption

2. https://namdu.uz/ru/post/1312

4.Usmonova Q.S . Boshlangich sinf o`quvchilarida tankidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogic-psixologik integratsiya va uzluksizlik. M УАЛЛИМ ХЕМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ . 2023/3 .370-375-b ttps://lib.cspi.uz/index.php?newsid=7951

5. Usmonova Q.S. Boshlangish ta`limda Filandiya ta`lim tizimini imkonoyatlari . Международный научный журнал № 4 (100), часть 2 «Научный импульс» Ноябрь, 2022./4. 899-903-b

6.Usmonova Q.S Development of Steam International Assessment Program in Primary Education. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. 30th Apr 2023. 242-244 s

7.Usmonova Q.S. Use of Foreign Experiences and World Pedagogy in Elementary Education Teaching . Diversity Research: Journal of Analysis and Trends . Volume 1, Issue 5, August 2023 . 27-29 s

GLOBALLASHUV DAVRIDA OILADA MILLIY TARBIYANI TASHKIL ETISH

G.R.Xushvaqova
Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada globallashuv davrida oilada milliy tarbiya jarayonini tashkil etish, yoshlarimizning g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetini shakllantirishga bog‘liq fikrlar yoritilgan.

Kalit so`zlar:** Ta`lim-tarbiya,globallashuv, integrasiya,**insonkapitali, milliy qadriyatlar,ilm-fan, taraqqiyot, zamonaviy, innovatsion.

ORGANIZING NATIONAL EDUCATION IN THE FAMILY DURING GLOBALIZATION

Abstract: In the article, the thoughts related to the organization of the process of national education in the family and the formation of the ideological immunity of our youth in the era of globalization are highlighted.

Key words: Education, globalization, integration, human capital, national values, science, development, modern, innovative.

ОРГАНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СЕМЬЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: В статье освещаются идеи, связанные с организацией процесса национального воспитания в семье и формированием идейно-мировоззренческого иммунитета нашей молодежи в эпоху глобализации.

Ключевые слова: Образование, глобализация, интеграция, человеческий капитал, национальные ценности, наука, развитие, современное, инновационное.

O‘tgan asrning oxirlarida paydo bo‘lgan “globallashuv” atamasi jahon mamlakatlari iqtisodiy va moliyaviy hayotining yalpi umumlashib borayotganini ifoda etar edi. Bugunga kelib esa u keng qamrovli tushunchaga aylandi. U davlatlar va xalqlar hayotining barcha sohalarida yalpi umumlashuv jarayonini anglatmoqda. Garchand globallashuv jarayoni birdaniga paydo bo‘lib qolmagan, balki inson yaralgan paytdan boshlab sodda va tabiiy shaklda davom etib kelgan bo‘lsada, hozirgi vaqtda insonning o‘z manfaatlari yo‘lida tabiiy rivojlanish jarayoniga zo‘ravonlarcha aralashuvi natijasida shiddatli ravishda tezlashib ketdi.

Demak, globallashuv millat va elatlar, mamlakatlarning madaniy, ma’naviy, iqtisodiy jihatidan uyg‘unlashuviga olib keladigan jarayondir. Bugungi dunyoning taraqqiyoti ichki va tashqi omillar ostida yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, ommaviy axborotvositalari – radio, televidenie, gazeta, jurnal va internet orqali axborot ayirboshlash rivojlanib bormoqda. Olimlarning fikricha inson 85 foiz axborotni ko‘rish orqali, qolgan 15 foizini eshitish orqali olar ekan. Demak, bu o‘rinda televideniya va internetning roli har qachongidan ortganini ko‘ramiz.

Globallashuv jarayonida yuzaga kelgan muammolardan yana biri – bu, oilada milliy tarbiyani va milliy-ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolgan holda kirib kelayotgan begona madaniyatning jamiyat taraqqiyoti talablariga mos keluvchi ijobiy tomonlarini qabul qilish, ma’naviy saviyani ko‘tarish, barcha tashqi ta’sirga hushyorlik immunitetini hosil qilish bilan bog‘liqdir.

Shu o‘rinda aytish joizki, yuz berayotgan va yuz berishi mumkin bo‘lgan ayrim salbiy holatlar uchun globallashuv hodisasining o‘zi aybdor ham, javobgar ham emas. Aksincha, bu ko‘proq sub’ektiv omillar faoliyati bilan bog‘liq hodisa. Shu sababli ham ko‘r-ko‘rona yot madaniyatni targ‘ib qilish harakatlarini chegaralash zarur. Chunki ommaviy madaniyat yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birgalikda umilliy rivojlanishga ham zarar yetkazishi mumkin. Ommaviy madaniyatning mazkur xususiyati insonning “kelib chiqishi”ga zarar yetkazadi. Uning haqiqiy xavfli oqibatlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

-yoshlar ongini noto‘g‘ri shakllanishi;
-milliy madaniyatni poymol etilishi;
-milliy qadriyatlarga shubha;
-milliy ma’naviyatdan uzoqlashish;
-keksa va yangi avlodga e’tiborsiz munosabat.

Bugungikunda ommaviy axborotvositalarida, ilmiy asarlarda “Globallashuv-bu yuqori integrasiya jarayonidir”, “Globallashuv keskin axborot tezligidir” degan iboralar ko‘p qo‘llanilmoqda. Globallashuv haqidagi tushunchalar turli minbarlardan turlicha talqin qilinmoqda. Kimlar uchundir globallashuv faqat imkoniyatlar ramzi.

4. Нажимова А.И. Самостоятельная работа студентов как основа образовательного процесса. BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Navoiy shahri, 07.06.2023. 177-179

MATEMATIKA DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Alimov Alisher Yarashevich
Navoiy davlat pedagogika instituti, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
katta o‘qituvchisi. Navoiy,O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘quvchilarning tanqidiy fiklashlarini rivojlantirish masalasi muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, hamkorlik, o‘quvchi, o‘qituvchi, anglash, fikrlash.

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ

Аннотация. В данной статье обсуждены идеи по развитию критического мышления учащихся на уроках математики в начальной классе.

Ключевые слова: Образования, сотрудничество, ученик, учитель, понимание, мышление

TECHNOLOGIYES FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN MATHEMATICS LESSONS

Annotation. In this article discusses ideas for developing students` critical thinking in elementary school mathematics lessons

Key words: Education, cooperation, student, teacher, understanding, thinking.

Hozirgi paytda boshlang‘ich ta’lim sohasidagi asosiy vazifamiz o‘quvchilarda o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirish, o‘qish savodxonligini tarkib toptirish, o‘quvchilarni turli ma’lumotlar bilan ishlashga ishlashga o‘rgatish, asosiy matematik bilimlarni puxta bilishlariga va kundalik hayotga qo‘llay olishlariga erishish, matematik kompetensiyani shakllantirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashlariga erishishlarini tarkib toptirishdan iboratdir.

Ushbu texnologiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va o‘qituvchining hamkorligi hamda o‘quv materialining tahliliy yondashuviga asoslangan. Bizga ma’lumki, hozirgi vaqtda mamlakatimizda matematikaga ixtisoslashtirilgan va Prezident maktablari paydo bo‘ldi. Ushbu maktablarga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni tayyorlashda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bunda topshiriq muammosini aniqlash, uning yechimini izlash muhimdir. Amerikalik olim D.Kluster tanqidiy fikrlashni quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- tanqidiy fikrlash - mustaqil fikrlashdir;
- tanqidiy fikrlash - axborot, fakt va ma’lumotlarni bilish, o‘rganish va o‘zlashtirishdir;
- tanqidiy fikrlash savollarini qo‘yish va hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolarni aniqlashdir;
- tanqidiy fikrlash ishonchli dalil-isbotlarga tayangan fikrlash; tanqidiy fikrlash o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy fikrlashdir[1: 68].

Tanqidiy fikralni rivojlantirishda mantiqiy masalalar ham kata ahamiyatga ega. Biz quyida mantiqiy masalalardan iborat test savollaridan namunalar keltiramiz:

1. Qaysi o‘simlik yig‘ib olinganidan so‘ng uning 90% yoqib yuboriladi, 10%esa tashlab yuboriladi. U qaysi o‘simlik? a) Tamaki; b) Isiriq; c) Moychechak;
2. Yerdan osonlikcha ko‘tarib olish mumkin, lekin uzoqqa otish imkonsiz. U nima? a) Qushning pati; b) Paxta; c) Havo.
3. Odamzod o‘rgimchakka qarab, osma ko‘prik qurishni o‘rgandi, mushuklarni kuzatib fotoapparat diafragmasi va nur qaytargichlarni kashf qildi. Aytingchi ilonni kuzatib odamzod nimani yaratdi? a) Shpritsni; b) Arqon; c) Tasma.
4) Ikki ota va ikki o‘g‘il yo‘lda ketayotib, 3ta olma topib olishdi. Ularning har biriga bittadan olma tegdi. Bu qanday sodir bo‘ladi? a) ular bobo, ota va farzand edilar; b)ular bir oila edilar; c)ota farzand edilar.
5) It uning dumiga bog‘langan tovaning jaranglashini eshitmasligi uchun necha km/soat tezlik bilan yugurishi kerak? a) 0 km/soat tezlikda; b)2km/soat tezlikda; c)1km/soat tezlikda.
6) Bir kuni ikki matematik uchrashib qolibdi. Hol ahvol so‘rashgach birinchi matematik do‘stidan so‘radi. Hozir necha yoshdasiz ikkinchi matematik javob berdi. Men tug‘ilganda otam 25 yoshda edilar. Hozir otam va mening yoshimizni qo‘shsak 89 bo‘ladi. Savol. Matematik necha yoshda? a) 32yoshda; b)22yoshda; c) 43yoshda
7) Oq bo‘lganda tozalash kerak bo‘ladi, yashil bo‘lganda toza hisoblanadi. Gap nima haqida bormoqda? a) maktab doskasi; b)pol; c) devor.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi 3 bosqichdan iborat bo‘ladi: 1-bosqich. Chaqiruv; 2-bosqich. Anglash; 3-bosqich. Fikrlash(mulohaza yuritish); Chaqiruv bosqichi o‘quvchilarda matematika darslarida masalani yechish, topshiriqlarni bajarish bo‘yicha diqqat, istak, xohish, bilishga ehtiyojning paydo bo‘lishi bilan izohlanadi. Anglash bosqichida masala yoki topshiriq mazmuni bilan tanishish, o‘rganish, o‘qituvchining tushuntirishlari amalga oshiriladi. Fikrlash(mulohaza yuritish) bosqichida o‘quvchi masala yoki topshiriq muammosi va uning yechilish yo‘llarini toppish uchun o‘zining shaxsiy fikrini va munosabatini bildiradi[1, 68].

Bizning fikrimizcha, tanqidiy fikrlash hozirgi vaqtda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonligini rivojlantirishda eng samarali fikrlashdir. Buni quyidagi masala tahlilida ko‘ramiz: Masala. Uch nafar sayyoh bir sohildan ikkinchi sohilga o‘tishlari kerak. Ularning ixtiyorida 120 kg yukka bardosh beradigan eski qayiq bor. Bir sayyohning vazni 70 kg, ikkinchisining vazni 50 kg, uchinchisining vazni esa 80 kg. Ular boshqa qirg‘oqqa o‘tib olishlari uchun qanday tartibda ish tutishlari kerak[2, 18]. Ushbu masalani yechishda o‘quvchilarning diqqati jalb qilinadi, So‘ngra ular tomonidan masala matni 2 yoki 3 marta o‘qib chiqiladi va matndagi ma’lumotlar o‘rganiladi, mazmunini anglaydilar. Ya’ni 3 sayyoh borligi, ularning vaznlari, qayiqning eskiligi, uning 120 kg yuk ko‘tara olishi. Masala muammosi sayyohlarni qayiq orqali qirg‘oqdan olib o‘tilishidir. Masalani yechish uchun har

bir o‘quvchining mustaqil fikrlashini amalga oshirish lozim. Ya’ni, dastlab 70 kg lik va 50 kg lik sayyohlar qirg‘oqdan qayiq orqali o‘tib 50 kg lik sayyoh qirg‘oqda qoladi va 70 kg lik sayyoh qaytadi. 70 kg lik sayyoh o‘z o‘rnini 70 kg lik sayyohga beradi va 80 kg lik sayyoh qirg‘oqdan o‘tib oladi. So‘ngra 50 kg lik sayyoh qirg‘oqning bu tomoniga o‘tib dastlabki holatda o‘tadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotda, topshiriqlarni bajarishda, hayotda qo‘llanilishini bilishi shart. Ushbu xususiyatlarni shakllantirishda boshlang‘ich sinf matematika darslarida tashkil etiladigan tezkor savol-javoblar, mantiqiy topshiriqlar, matematik kompetensiyani shakllantirishga yordam beradigan nostandart topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. Quyida e’tiboringizga savollar, mantiqiy topshiriqlar, nostandart masalalardan namunalar tavsiya etamiz:

1. Tushurib qoldirilgan arifmetik amallarni shunday qo‘yingki, natijada to‘g‘ri tengliklar hosil bo‘lsin: a) 2 2 2 2 = 111 b) 5 5 5 5 5 = 110

Yechilishi: a) 222 : 2 = 111; b) (5 + 5)*55 : 5 = 110

2. Agar sayyoh 3 dona do‘ppi sotib olsa, unda 70 000 so‘m qoladi. Agar u 5 dona do‘ppi sotib olsa, unga 10 000 so‘m yetmaydi. Bitta do‘ppi necha so‘m turadi?

Yechilishi: Bir dona do‘ppi x so‘m turadi deb faraz qilamiz, u holda 3 dona do‘ppi 3x so‘m va 5 dona do‘ppi 5x so‘m turadi hamda quyidagi tenglamani tuzamiz:

3x + 70 000 = 5x – 10 000 ushbu tengalamani yechib x = 8500 ni hosil qilamiz. Javob: Bitta do‘ppi 40 000 so‘m turadi.

3. 01.12.2010 sanasi faqat uchta raqam bilan yozilgan. Joriy asrning qaysi so‘nggi sanasini uchta raqam bilan yozish mumkin?

Yechilishi: Joriy yilimiz 2023-yil bo‘lgani uchun biz hosil qiladigan sana faqat 0, 2 , 3 raqamlaridan tashkil topishi lozim. Javob: 30.03.2023

4. Istirohat bog‘ining ochiq konsert maydonida o‘rindiqlar bor. Agar har bir o‘rindiqqa 5 kishi o‘tirsa, u holda 15 kishi joysiz qoladi. Agar har bir o‘rindiqqa 6 kishi o‘tirsa, u holda 3 ta o‘rindiq bo‘sh qoladi. Konsert maydonidagi o‘rindiqlar va odamlar sonini aniqlang.

Yechilishi: O‘rindiqlar sonini x bilan beldgilaymiz. Agar har bir o‘rindiqqa 5 kishi o‘tirsa x ta o‘rindiqqa 5x ta tomoshabin o‘tiradi 15 kishi esa joysiz qolsa, u holda 5x + 15 harfiy ifodani hosil qilamiz, Agar har bir o‘rindiqqa 6 kishi o‘tirsa 6x – 3 ta tomoshabin bo‘ladi hamda quyidagi tenglamani tuzamiz:

5x + 15 = 6x – 3 ushbu tengalamani yechib x = 18 ni hosil qilamiz. 5x + 15 = 5* 18 + 15 = 105 Javob: O‘rindiqlar soni 18 ta va tomashabinlar soni 105 ta.

Shunday qilib, o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish texnologiyalari o‘quvchilarni berilgan topshiriqni tahlil qilish, ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va o‘zaro muloqot qilish ko‘nikmalarini hosil qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Barakayev va boshqalar. Matematika o‘qitish texnologiyalari va loyihalash. –Toshkent:”Innovatsiya va Ziyo”2020, -276 bet
2. Repyova I.V. 4-sinf matematika darsligi. I-qism. –Toshkent. “Novda edutainment”, 2023. -128 b.

BUXORO XONLIGIDAGI TA’LIM TIZIMINING XUSUSIY VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM MAZMUNIDAGI MEHNAT MADANIYATI

A.S.Sayitov
NDPI, Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi. Navoiy, O‘zbekiston.

Annotatsiya: maqolada XVI-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo ijtimoiy- ma’naviy muhiti va Buxorodagi ta’lim - tarbiya mazmuni hamda kasb-hunar haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Movarounnahr, ta’lim –tarbiya, madaniyat, hayot, kasb-kor, hunarmand, naqqosh-xattotlari, ta’rif.

КУЛЬТУРА ТРУДА В СОДЕРЖАНИИ ЧАСТНОГО И НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В БУХАРСКИХ ХАНТЫ.

Аннотация: В статье представлены размышления о социально-духовной среде Средней Азии в XVI-XVIII веках, а также о содержании образования и обучения в Бухаре.

Ключевые слова: Моваруннахр, образование - воспитание, культура, жизнь, профессия, ремесленник, художник, каллиграф, описание.

LABOR CULTURE IN THE CONTENT OF PRIVATE AND PRIMARY EDUCATION OF THE EDUCATION SYSTEM IN BUKHARA KHANTY.

Annotation: The article presents thoughts about the socio-spiritual environment of Central Asia in the XVI-XVIII centuries, as well as the content of education and training in Bukhara.

Keyword: Movarounnahr, education - upbringing, culture, life, profession, craftsman, painter, calligrapher, description

XVI-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo, xususan Buxoro xonligidagi ijtimoiy-ma’naviy hayot, rivojlanish va taraqqiyot mohiyatini shaxc tarbiyasi, uning har tomonlama barkamolligi g‘oyasisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Jamiyat hamda hayot taraqqiyotidagi jarayonning faol ishtirokchisi hisoblangan ma’lum bir ijtimoiy tabaqaga mansub shaxslarning kamolotini ta’minlashga yo‘naltirilgan g‘oyalar, qarashlar ta’lim tizimidagi asosiy bo‘g‘inlardan biri bo‘lgan, **aynan bir shaxsga yo‘naltirilgan**, **xususiy ta’limda** rivojlantirilib, amalga oshirilgan.

Aynan ushbu davrda yaratilgan bebaho ma’naviy meros mazmuni, ilmiy tafakkur ne’matlari jamlangan asarlar qismlari sinchiklab o‘rganilib, qiyosiy tahlil etilganda ular matnlarida o‘z davrining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qarashlari o‘z ifodasini topganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xususiy ta’limning asosiy mazmuni va maqsadini har bir yoshning pok, haqi halol, qo‘li to‘g‘ri, nekbin, mehnatsevar va hunarli bo‘lib voyaga etishi masalasi tashkil etadi. Buxoro xonligidagi ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘inini tashkil etadigan xususiy ta’lim jarayonida asosan **hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik** yo‘nalishidagi ta’lim turlari o‘rgatilgan.

CHorvachilik bilan shug‘ullanadigan qavmlarda shu sohaga doir hunar va malakalar o‘rgatilgan. O‘g‘il bolalar mollarni boqish, urchitish, tuya,otlarni parvarishlab, ularni boshqara olish, uzoq yaylovlarga suruv haydash,chorvani darranda hayvonlar, qaroqchilardan muhofaza qilish, shuningdek, Vatan himoyasi maqsadid harbiy hunarni ham bilishlari, qiz bolalarga esa yungdan ip yigirish, urchuq va charxda ishlay bilish, har xil liboslar to‘qish, tikishni bilishlari majburiy bo‘lgan.

SHayboniylar davrida bunyod etilgan shaharlar qurilishi, turli imoratlar, koshonalar, qal’alar, xar xil inshootlarning bunyod etilishi jarayonining bayoni ham hunarni egallash va o‘rgatish faoliyati yuksak darajada yo‘lga qo‘yilganligining dalilidir. Ushbu binolar haqida gap ketganda ularning hashami, naqshlari, bezaklari, hamda qandil, yoritgichlari tavsifi beriladi. Bu esa bizning sarzaminimizda me’morchilik san’ati ancha yuksak bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Ayni paytda bu dalillar ajdodlarimiz hunarmandchilikning barcha turlarini rivojlantirishga e’tibor berganliklarini ko‘rsatadi.

Hunarmandchilik yo‘nalishidagi xususiy ta’lim natijasida qurolsozlik, degrezlik, zargarlik, po‘stindo‘zlik, ranli metall va toshlarga ishlov berishdek ancha murakkab hunar turlari o‘rgatilganligi diqqatga sazovordir.

XVI-asr Buxoro xonligida asosiy hunarmandchilik markazlari sifatida shaharlar katta ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa-da,ko‘pgina yirik qishloqlarda ham hunarmandchilikning kundalik ehtiyoj uchun zarur sohalari rivojlangan edi.

Ilgarigi davrlarda bo‘lganidek, xonlikning hunarmandchiligi sohasida **to‘qimachilik** uning asosiy tarmog‘i hisoblangan. Ushbu tarmoqning rivojlanishiga asosiy sabab, birinchidan soha uchun mahalliy xom ashyo manbalari – paxta, jun, ipak etarli darajada bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchidan, ichki va tashqi bozorda, kundalik hayotda to‘qimachilik mahsulotlariga talab katta edi.

Xonlikda ayniqsa bo‘z, chit,olacha ko‘p miqdorda tayyorlangan. Qarshi, Hissor, Baljuvon, Dehnov, Samarqand, Buxoro, SHahrisabz va ularning atroflarida ipak matolar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilgan. Boshqa shahar va qishloqlarda ham ip yigirish, mato to‘qish, tayyor kiyim tikish, gilam to‘qish va boshqa to‘qimachilik sohalari ancha rivojlangan. Manbalar ma’lumotlariga ko‘ra, Buxoroning zarbof to‘nlari, SHahrisabzning iroqi do‘ppilari,Termizning harir matolari, Samarqand va Boysun hunarmandlarining ipak matolari xonlikdan tashqarida ham juda mashhur bo‘lgan

Xonlik hunarmandchiligidagi muhim tarmoqlardan yana biri bu – **kulolchilik** edi. Xo‘jlik tarqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kulolchilik xonlikning deyarli barcha hududlarida rivojlangan edi. Kulolchilik eng taraqqiy etgan markazlar Buxoro, Samarqand, Qarshi, SHahrisab, Urgut, Dehnov, G‘ijduvon kabilar bo‘lib, ularning mahsulotlariga ichki va tashqi bozorda talab katta bo‘lgan. Xonlik kulolchiligida O‘rta Osiyoning ko‘pgina kulolchilik maktablariga xos bo‘lgan manzaralar(turli gullar va o‘simliklar tasviri), turli hayvonlar,qushlar, hashoratlar yoki ular tanasining bir qismini shartli ravishda tasvirlash kulol ustalar tomonidan keng qo‘llanilgan.

Xonlik iqtisodiyotining **metallga ishlov berish** sohasi ham yaxshi rivojlangan. SHahrisabz, Urgut, Nurota, Bosun, SHerobod kabi tog‘li tumanlardan ma’danlar qazib olingan bo‘lib, ulardagi konlardan foydalanish ba’zi tanaffuslar bilan XX asr boshlariga qadar davom etgan edi.

Bu davrda xonlikdagi metallga ishlov berish taraqqiy etgan quyidagi to‘rtta asosiy tarmog‘i-temirchilik, misgarlik, cho‘yan quyish va rixtagarlikni alohida ko‘rsatish mumkin. **Temirchilik** sohasida ustalar qishloq xo‘jaligida va kundalik turmushda ishlatadigan mehnat qurollari, harbiylar uchun jangovar qurollar yasaganlar. Xonlikning ko‘pgina shaharlarida Temirchi, Guzari, CHilangaron kami chilnagar-temirchilarning maxsus mahalla guzarlarining mavjudligi ushbu hunarmandchilik turining ancha tarqqiy etganligini ko‘rsatadi.

Xonlikning asosan yirik shaharlarida **misgarlik** ham rivojlangan. Mis xos ashyosi asosan Rossiyadan keltirilgan bo‘lib undan chilim idishlari, barkash, lagan, ko‘zacha, tog‘oracha kabi ko‘plab idishlar yasalgan hamda ular turli naqshlar bilan mohirona bezatilgan.

Buxoro amirligining metallga ishlov berish sanoatida **degrezlik**-cho‘yan quyishning alohida o‘rni bor edi. Bu soha ustalari asosan shaharlardagi maxsus guzarlarda yashaganlar. Ular cho‘yandan qozon, chiroq, manqaldon kabi buyumlar yasaganlar. Bronzadan buyumlar yasash –**rixtagarlik** ham xonlikning ko‘pgina shaharlarida taraqqiy etgan edi. Ushbu kasb sohiblari turli buyumlar va taqinchoqlar yasaganlar.

Undan tashqari xonlikda hunarmandchilikning boshqa ko‘pgina turlari ham rivojlangan. Xusuan Buxoro, Qarshi va SHahrisabz shaharlaridagi zargar ustalar tomonidan tayyorlangan zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlar, metal va turli xil shishalardan yasalgan taqinchoqlar xonlik va undan tashqari hududlarda ham mashhur bo‘lgan.

Ko‘nchilik ham yaxshi rivojlangan tarmoq hisoblangan. CHarmgar ustalar tomonidan yaxshi ishlov berilgan terilardan turli xil oyoq kiyimlari, bosh kiyimlar, po‘stin va nim po‘stin, turli xil meshlar (sut,suv, qimiz va b. uchun) tayyorlangan.

Xonlikning deyarli barcha hududlarida **yog‘och o‘ymakorligi** yaxshi rivojlangan. SHaharlarda mohir duradgorlar ko‘p bo‘lgan. Xonlikning shahar va qishloqlarida tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari ichki bozor extiyojlarini ta’minlabgina qolmasdan ko‘p hollarda tashqi bozorga ham chiqarilgan.

Xullas, **xususiy ta’lim** - ta’lim tizimining uzviy va ajralmas bo‘g‘ini sifatida har bir yoshning mehnat tarbiyasi asosida jamiyatning to‘laqonli a’zosiga aylanishi, yuksak axloq sohibi bo‘lib voyaga etishi yo‘lida muhim o‘rinni egallab, ta’lim tizimining keyingi bosqichlari hisoblangan boshlang‘ich va yuqori ta’lim uchun poydevor vazifasini bajaradi.

XVI-XVIII asrlarda **boshlang‘ich ta’lim** asosan madrasi tipidagi ta’lim muassasalarida olib borilgan.

Boshlang‘ich ta’limda, **bilim sohalari** sifatida yozuv va o‘qishni o‘rganish, hisob va yulduzlar ilmini o‘rganish (arifmetika, falakiyot), kamondan o‘q otish, chavandozlik (harbiy bilim), diniy ahkomlarni bajara olish, qiroatni o‘rganish majburiy hisoblangan.

Ta’lim metodlari :

1.Og‘zaki, bayon qilish

“Qur’oni karim” hamda diniy kitoblar, shuningdek, mehnat tarbiyasi mazmunini o‘zida singdirgan pandnomalar matni ustoz-murabbiylar tomonidan og‘zaki tarzda yoddan bayon qilingan. Matnlarni bayon qilish shakli sifatida **hikoyat, rivoyat, nasihat, o‘git, qo‘shiqlar**dan foydalanilgan. O‘rganilgan yangi bilimlarni mustahkamlashga oid topshiriqlar berilgan.

2. Ko‘rgazmali

Boshlang‘ich ta’limda ko‘rgazmali usullardan keng foydalanilgan. Jumladan hisob (arifmetika)ni o‘rganishda hisob tayoqchalari, falakiyot ilmida osmon jismlarini ko‘rsatish va kuzatish, san’at sohasida musiqa asboblari, san’at asarlari, imoratlar, qoyaga o‘yilgan tasvirlar, naqqoshlik, xattotlik, kandakorlik, misgarlik, oltin va kumush, yog‘och o‘ymakorligi buyumlari va mahsulotlari, turli taomlar va pishiriqlar va h.k.z lar ko‘rgazma hamda ashyoviy dalillar vazifasini bajargan.

3. Amaliy

Boshlang‘ich ta’limdagi og‘zaki va ko‘rgazmali metodlar orqali olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida ta’lim jarayonida amaliy (mashq, topshiriq, muloqot, mustaqil ta’lim) usullaridan ham foydalanilgan. Bu usullar tarkibiga chavandozlik, kurash tushish, voizlik, dasturxonni bezash, mehmon kutish, shatranj va nard o‘ynash, ibodat qilish kabi ko‘plab amaliy mashg‘ulotlar kirgan.

Foydalangan adabiyotlar

1. Muqimov Z. SHayboniylar va tasavvuf shayxlari / XVXVI asr tasavvuf namoyandalari ilmiy merosining ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarni yuksaltirishdagi o‘rni va ahamiyati. Samarqand, 2011, 16-18-betlar.
2. Ahmedov B.A. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari (qadimgi va o‘rta asrlar) T.: O‘qituvchi. 1991., -212-6.

SIFATLI TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA TARBIYANING O‘RNI

M.A.Sayitova

Samarqand-Filandiya instituti 1-kurs magistri.Samarqand,O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonni tashkil etish hamda talabalarining bu jarayonda ishtirokini ta’minlash zarurati hamda sifatli ta’lim va unga tarbiya orqali erishish mumkinligi haqida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim sifati, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatiga e’tibor, tarbiya jarayoni, talabalarning tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarligi, rivojlangan davlatlarda yoshlar tarbiyasiga e’tibor, ijtimoy yo‘naltirilgan shaxsning sifatlari.

РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ В ОРГАНИЗАЦИИ КАЧЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Абстрактный. В данной статье описывается необходимость организации образовательного процесса в высших учебных заведениях и обеспечение участия студентов в этом процессе, а также возможность достижения этого за счет качественного образования и обучения.

Ключевые слова: качество образования, внимание к качеству образования в Республике Узбекистан, образовательный процесс, готовность студентов к образовательной деятельности, внимание к образованию молодежи в развитых странах, социально ориентированная личность.

THE ROLE OF EDUCATION IN THE ORGANIZATION OF QUALITY EDUCATION

Annotation. This article talks about the need to organize the educational process in higher education institutions and ensure the participation of students in this process, as well as how this can be achieved through quality education and upbringing.

Key words: quality of education, attention to the quality of education in the Republic of Uzbekistan, educational process, readiness of students for educational activities, attention to the education of young people in developed countries, qualities of a socially oriented person.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi sifatida mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish tizimli olib borilmoqda.[1]

Xususan, muhtaram prezidentimiz SHavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, t**a’lim sifatini oshirish – YAngi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir!**[2]

Respublikamizda so‘nggi yillarda, ta’lim sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida xalqaro tashkilotlar — Jahon banki, IHTB, YUNISEF, YUNESKO, OTB va boshqalar bilan yaqin aloqalar o‘rnatildi.

Xususan:

- maktab o‘quvchilarining savodxonlik va bilim darajasini aniqlash bo‘yicha xalqaro dasturlarga qo‘shilish (PISA, TIMSS, PIRLS, LANA);
- ta’lim sektori strategiyasi ishlab chiqildi (YUNISEF, Jahon banki);
- hamkorlikda «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunning yangi tahriri ishlab chiqildi;
- ta’lim tizimida yagona elektron ma’lumotlar tizimini yaratish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda (EMIS dasturi);
- ta’lim sifatini ta’minlash tizimini takomillashtirish va xalqaro ta’lim sifatini ta’minlash agentliklari (ENQA – Evropa ta’lim sifatini ta’minlash assotsiatsiyasi)ga a’zo bo‘lish;
- xalqaro reyting agentliklari (QS — Quacquarelli Symonds Limited va THE Times Higher Education) bilan hamkorlik olib borilmoqda.[9]

Ta’lim – bu tarbiya deb atalmish gulning yaproqlaridan biridir, deya bejiz aytilmagan. Hikmatlarda: “Odob bamisoli bir daraxt. Ilm esa undagi bir meva. Agar daraxt bo‘lmasa, meva qaerdan ham bo‘lsin”, deb aytilishi ham bejiz emasdir. Agar ahamiyat berilsa hikmatlarda avvalo tarbiya keyin ta’lim haqida so‘z boradi. Demak, avval tarbiya undan keyin ta’limdir. Sifatli ta’limga erishmoq uchun, tarbiyaviy jarayonga e’tibor bermoqlik lozimdir.

Oliy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonni tashkil etish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu mamlakatda ijtimoiy soha rivojlanishining omili sanaladi. Oliy ta’lim muassasalarida tarbiya ijtimoiy-madaniy yo‘nalishga egadir. Bu talabalarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etish, dam olish ishlarini mazmunli olib borish, sport va ijodiy faoliyatini faollashtirish, ular tomonidan amalga oshishi mumkin bo‘lgan axloqsiz va g‘ayrioddiy xatti-harakatlarning oldini olish, ijtimoiy foydali hamda havaskorlik ijodiy faoliyatni tashkil etishni nazarda tutadi.

Oliy ta’lim muassasasi talabalarining davlatimiz ravnaqi va taraqqiyotida faol ishtirok etishi, o‘z kasbining etuk mutaxassisi bo‘lishida oliy ta’lim muassasasining ma’naviy-tarbiyaviy atmosferasi shaffof, turli tadbir va tarbiyaviy jarayonlarga boy hamda yoshlar buguni va kelajagini hisobga olgan holda rejali bo‘lishi lozimdir. SHuningdek, turli ma’naviy-axloqiy hamda tarbiyaviy tadbirlarda talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalashi hamda etuk shaxs sifatida kamol topishiga imkoniyat va shart-sharoit yaratish oliy pedagogika ta’lim muassasasi oldida turgan asosiy vazifa sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli Qarorida oliy ta’lim tizimi o‘quv dasturlari, ma’naviy-ma’rifiy rejalari asosida talabalarning yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy, ya’ni, Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik[3] kabi fazilatlarni rivojlantirish muhim vazifalar qatorida keltiriladi. Bu esa, oliy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonni hamda talabalarning tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarligini to‘g‘ri tashkil etish va bu orqali sifatli ta’limga erishishni taqozo etadi.

Tarbiyaviy faoliyatga tayyorlik deganda talabalarning sub’ektiv pozitsiyasini amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish, uni ta’lim muassasasining ta’limiy va jamoatchilik faoliyatiga faol jalb etish; kasb sirlarini amaliy o‘zlashtirish, o‘zining imkoniyatlari va qobiliyatlarini baholash bilan bog‘liq mustaqil faoliyatga tashabbus uyg‘otish va qo‘llab-quvvatlash; talabalar jamoasini hamkorlikdagi ijtimoiy ahamiyatga ega, innovatsion o‘quv loyihalari, dasturlar, ta’lim-tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqishdagi ishtirokini ta’minlash; ta’limiy muhitda o‘zaro hamkorlik aloqalari, sherikchilikni kengaytirish tushuniladi. Tarbiya jarayoni talabalar qiyofasida yangi faol sub’ektni tarkib toptiradi.[6]

Oliy ta’lim muassasasi tarbiyaviy jarayoni – bu OTMning auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatida umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta’lim tashkilotining maxsus tarbiyaviy potensialini maqsadga yo‘naltirilgan holda ro‘yobga chiqarilishidir, bu jarayonning sub’ektlari ta’lim oluvchilar va o‘qituvchilar bo‘lib, mazmuni esa – ularning kasbiy yo‘naltirilgan faoliyatning umumiy turlaridagi (o‘quv, auditoriyadan tashqari, nazariy, ilmiy-tadqiqot, ijtimoiy va boshqalardagi) hamkorligidir.

Jahonda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassislarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarga (fazilatlar) ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Masalan, YAponiyaning “Ta’lim to‘g‘risidagi fundamental Qonuni”[4] da ta’lim muassasalariga tinchlik va insoniylik ideallariga amal qiluvchi millatni shakllantirish missiyasi yuklatilgan. YA’ni: shaxs sifatlarini to‘liq rivojlantirish; tinchlikparvar davlat va jamiyat quruvchilarini tarbiyalash, haqiqatparvarlik va adolatlilik; shaxsiy erkinlik; mehnatsevarlik; mas’uliyatlilik; mustaqil fikrlilik; o‘zgalar bilan hamkorlik, mustaqil fikrga egalik; an’anaviylik bilan zamonaviylikni anglash; xalqaro hamkorlikka tayyorlik; kundalik turmush malakalariga egalik; ruhan va jismonan kuchlilik; o‘zini baxtli va boshqalar bilan uyg‘un qila olish fazilatlari shakllantirilmoqda.

Ta’lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan “Ideal yapon yigit-qizining fazilatlari” deb nomlangan hujjatda yapon yoshlarida 16 ta fazilatni shakllantirish vazifasi belgilab berilgan. 16 fazilat 4 guruhga bo‘lingan. Bular: 1) shaxsiy sifatlar: erkinlik, o‘ziga xoslikni rivojlantirish, mustaqil bo‘lish, o‘z hohishlarini idora qila olish, pietet (ehtirom) tuyg‘usiga egalik; 2) oila boshlig‘iga xos sifatlar: o‘z uyini mehr-muhabbat, halovat va tarbiya maskaniga aylantira olish; 3) ijtimoiy sifatlar: o‘z ishiga sadoqat, jamiyat farovonligiga hissa qo‘shish, ijodkorlik, milliy (ijtimoiy) qadriyatlarni hurmat qilish; 4) fuqarolik sifatlari: vatanga sodiq bo‘lish, davlat ramzlarini qadrlash, ijtimoiy faollik, eng yaxshi milliy fazilatlar sohibi bo‘lishni o‘rgatadi.

AQSHning “Amerika – 2000: ta’limni rivojlantirish strategiyasi(1991)” dasturida etuk shaxsga xos fazilatlar sifatida rostgo‘ylik, maqsadda sobitqadamlik, to‘g‘rilik (xolislik), puxtalik va shaxsiy mas’uliyatga ustuvorlik berildi. SHuningdek, yosh amerikaliklarda jasurlik, fidoyilik, barqarorlik, qat’iylik, tirishqoqlik, hamdardlik, bag‘rikenglik singari 60 ta asosiy fazilat shakllantirilmoqda.

Buyuk Britaniyaning ta’lim bo‘yicha Milliy komissiyasi (1993) ta’lim muassasalarida: yoshlarda haqiqatparvarlik, boshqalarga hurmat, jamiyat oldida burchga sodiqlik, insonlarga g‘amxo‘rlik, madaniy merosga hurmatni shakllantirish, demokratik erkin jamiyat fuqarolari bo‘lish, bag‘rikenglik fazilatlarini singdirish, axloqan va ma’nan kuchli shaxslar qilib etishtirish vazifalarini yukladi.[5]

Fransiya ta’lim vazirligi ko‘rsatmalarida,[7] mas’uliyatli, g‘ururli, o‘zgalarni hurmat qiluvchi, boshqalar bilan hamkorlikka tayyor, irqchilikka qarshi turuvchi, multikulturalizmni qabul qiluvchi, o‘zining Fransiyaga muhabbatini Ozodlik, Tenglik, Qardoshlik g‘oyalari bilan uyg‘un rivojlantirgan demokratik jamiyat kishisi fazilatlariga ega shaxsni tarbiyalash ko‘zda tutilgan.

Amerikalik pedagoglar tarbiyaviy ishlarning asosiy vazifalari qatoriga mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini va ularning integral diagnostikasini ham qo‘shishadi. SHakllantirilgan amaliy ishtirok ko‘nikmalari kelajakda jamiyat hayoti va siyosiy jarayonlarga samarali va mas’uliyatli ta’sir o‘tkazish uchun talab etiladi. SHuning uchun bu ko‘nikmalar talaba shaxsi shakllanishining dastlabki bosqichlaridanoq o‘rgatib borilishi va ta’limning barcha bosqichlarida davom etishi lozim. AQSH o‘quv muassasalarida qabul qilingan tarbiyaviy ish shakllari suhbatdoshni diqqat bilan eshitib, uning fikr va g‘oyalarini do‘stona va tanqidiy tinglash, nizolarni hal qilish, murosaga kelib, o‘zaro rozilikka erishishga o‘rgatadi. Bunda tyutorlar elektron resurslardan hamda o‘zlarining shaxsiy aloqalari orqali ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazib borishadi. SHu tariqa talaba-yoshlar o‘z mamlakatlaridagi islohotlarda faol ishtirok etishga o‘rgatib boriladi.

AQSH ta’lim-tarbiya doktrinasida mas’uliyat, o‘z-o‘zini idora etish va har bir insonni hurmat qilish hamma uchun majburiy hisoblanadi. SHu maqsadda talaba-yoshlarda ijtimoiy yo‘nalgan fazilatlar – ochiqko‘ngillik, o‘zgalarga hurmat, qonunga itoat qilish, voqelikka tanqidiy baho berish va murosalilik shakllantirib boriladi.

Avstraliya ta’lim muassasalarida to‘g‘rilik, olamda o‘z o‘rnini bilish, tadbirkorlik, tashabbus kabi fuqarolik g‘oyalari asosida yuzaga kelgan demokratik merosga xurmat bilan bir qatorda ijtimoiy yo‘nalgan shaxs xarakteriga xos qirralar – bag‘rikenglik, davlatning ko‘pmillatli merosini saqlab qolishga intilish, kirishuvchanlik, xayrixoxlik kabi fazilatlar tarbiyasi ustuvor sanaladi.

Buyuk Britaniya tarbiyaviy doktrinasida har bir insonda individual yo‘nalgan shaxs qirralari bo‘lishi shart hisoblanadi. SHu sababli o‘z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatli bo‘lish, o‘zi va o‘zgalar istiqboli haqida qayg‘urish, o‘z xarakatlarining o‘zgalarga qanday ta’sir etishi haqida o‘ylash, avval o‘ylab, keyin qaror qabul qilish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, kabi sifatlarga alohida e’tibor qaratiladi.

Ijtimoy yo‘naltirilgan shaxsning sifatlari – jamiyat yuksalishi haqida qayg‘urish, nizolarni bartaraf etishga intilish, umumiy manfaat uchun jamoada ishlashga tayyorlik, o‘zgalar nuqtai nazarini qabul qila olish, o‘z xarakatlariga mas’uliyat bilan yondoshuv, o‘zi va o‘zgalar haqida qayg‘urish, o‘z xatti-harakatlarining boshqalarga qanday ta’sir etishini o‘ylab ish tutish, o‘z xatti-harakatlarining kutilmagan natijalari uchun javob bera olish, mas’uliyatlilik va bag‘rikenglik, individning siyosiy samaradorligi, umumiy muvaffaqiyat va oxir-oqibat eng muhimi jamiyatning ma’naviy yuksalishi uchun o‘ta muhim hisoblanadi.

“Journal of American Indian Education” jurnali tarbiyaviy faoliyat strategiyasi xaqida so‘z yuritib, «yaxshi inson»ni shakllantirish birinchi navbatda axborot, ma’rifat, ongning rivojlanishi, qarama-qarshiliklarni engib o‘tish, tanqid, ijodiy faollik, siyosiy, madaniy va iqtisodiy sohalarda mustaqil qaror qabul qila olish kabi ko‘nikmalarni integral shakllantirish orqali kechishi lozim”ligini ta’kidlaydi.[8]

Xulosa o‘rnida muhtaram prezidentimizning quyidagi fikrlariga yuzlanamiz: “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”. SHunday ekan, bugungi kun talaba-yoshlari ilm olmog‘i va avvalo tarbiyalangan bo‘lmog‘i muqarrardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. // 2022 yil 20 dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli Qarori.
4. Jeleznyak O.N. O prinyatii v YAponii novogo osnovnogo Zakona ob obrazovaniii. – Vladivostok: Izd-vo instituta Dalnego Vostoka RAN, 2009. – 240 s.

TARBIYA, INSONNING TABIATGA HURMAT VA MUHABBAT BILAN MUNOSABAT QILISHINI TA'MINLAYDI

Musurmonova Maludaxon
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.Chirchiq,O‘zbekiston
Abduĝafurova Sarvinoz Farhod qizi, Zamirova Marhabo Tohir qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti Boshlanĝich ta'lim fakulteti talabalari. Chirchiq,O‘zbekiston

Annotatsiya: Maqolada Tarbiya, insonning tabiatga hurmat va muhabbat bilan munosabat qilishini ta'minlaydi mavzusida fikr yuritilgan
Kalit so‘zlar: Tarbiya, Anton Chexov fikrlari,hurmat, madaniyat

ОБРАЗОВАНИЕ ОБЕСПЕЧИВАЕТ УВАЖЕНИЕ И ЛЮБОВЬ ОТНОШЕНИЯ ЧЕЛОВЕКА К ПРИРОДЕ.

Аннотация: В статье рассматривается тема воспитания, благодаря которому человек относится к природе с уважением и любовью.
Ключевые слова: Образование, мысли Антона Чехова, уважение, культура.

EDUCATION ENSURES HUMAN RELATIONSHIP TO NATURE WITH RESPECT AND LOVE.

Annotation: The article discusses the topic of education, which ensures that a person treats nature with respect and love.
Key words: Education, Anton Chekhov's thoughts, respect, culture.

Tarbiya o‘zi nima? Tarbiya, insonning o‘zini rivojlantirish, ma'naviy va jismoniy qobiliyatlarini oshirish, xalqaro qoidalarni o‘rganish va o‘ziga yaxshi inson bo‘lish yo‘llarini o‘rgatish jarayonidir. Tarbiya, oila, maktab, universitet va jamiyat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonda insonning o‘zini taraqqiyotga yo‘naltirish, adolatli, mehnatkor va samarali bo‘lishi kutiladi. Tarbiya, insonning shaxsiy va jamiyatga foydali bo‘lishini ta'minlaydi.Tarbiya, insonning o‘zini rivojlantirish va qobiliyatlarini oshirishning asosiy jarayonidir. Bu jarayon oila, maktab, universitet va jamiyat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Tarbiya, insonning ma'naviy va jismoniy taraqqiyotiga yordam beradi va uning o‘ziga yaxshi inson bo‘lish yo‘llarini o‘rgatadi.Oila tarbiyasi, insonning birinchi va eng muhim tarbiya olish joyidir. Oilada o‘quvchiga sevgi, ehtiros, adolat, mehnat va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rgatish mavjud. O‘quvchilar oilalarida o‘zlarining qadriyatlarini o‘rganish, o‘zaro munosabatlarni o‘rganish va jamiyatga foydali bo‘lishni o‘rgatish uchun ko‘maklashadi.Maktab tarbiyasi, insonning asosiy ta'lim olish joyidir. Bu jarayonda o‘quvchilarga fanlar, ilm-fanlarni o‘rganish, jismoniy madaniyatni rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va jamiyatda foydali a'zolarga aylanishni o‘rgatish maqsadga muvofiq amalga oshiriladi.Universitet tarbiyasi, o‘quvchilarga oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlar asosida tayyorlanish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘z mutaxassislik sohasida malakasini oshiradi va jamiyatda foydali bo‘lish uchun zarur bilimlarni o‘rgatishga intiladi.Jamiyat tashkilotlari ham insonning tarbiyasiga katta ahamiyat bergan. Bu tashkilotlar insonlarga adolat, huquq va jamiyatda samarali a'zo bo‘lishni o‘rgatishga yordam beradi. Jamiyat tashkilotlari insonlarga qoidalar va etikaga rioya qilishni o‘rgatadi va ularga jamiyatda foydali bo‘lish uchun zarur bilim va ko‘nikmalar bilan ta'minlaydi.Tarbiya, insonning shaxsiy va jamiyatga foydali bo‘lishini ta'minlaydi. Bu jarayonda insonning o‘zini rivojlantirishi, adolatli, mehnatkor va samarali bo‘lishi kutiladi. Tarbiya, insonlarni ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun tayyorlaydi va ularga o‘zlarining potensialini aniqlash va rivojlantirish imkoniyatini beradi. Tarbiya, insonning tabiatga hurmat va muhabbat bilan munosabat qilishini ta'minlaydi. Bu tarbiya, insonning o‘zini rivojlantirish va yaxshi odam bo‘lish yo‘lini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Tarbiya, insonning qadriyatlarini, xarakterini va erkinlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa, insonning o‘ziga va boshqalarga foyda keltirishiga imkon beradi.Tarbiya, insonning jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarurdir. Uning asosiy vazifasi, insonlarni ijtimoiy qoidalarga rioya qilish va bir-birlariga hurmat va muhabbat bilan munosabat qilishni o‘rgatishdir. Tarbiya, insonlarda adolat, insaf, mehribonlik va boshqalariga qarshi hurmatni shakllantiradi. Bu esa, insonlarning o‘zaro aloqalarini kuchaytiradi va jamiyatdagi barqarorlik va tinchlikni ta'minlaydi.Bu jarayon insonning o‘zini va dunyoni tushunish, o‘z xarakterini shakllantirish, mehnat va samarali ishlash bilan bog‘liq qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayon oila, maktab, universitet va jamoat tomonidan amalga oshiriladi. Tarbiya insonning adabiyotlarga, qoida-qonunlarga rioya qilishga, ijtimoiy qarashlarga va o‘z-o‘zini belgilashga o‘rgatiladi. Bu oilada bolalar tarbiyalanishi bilan boshlanadi va ularni etik qoidalarga rioya qilishni, insonparvarlikni o‘rganishini ta'minlaydi. Maktab va universitetlar esa akademik bilimlarni o‘rganish, ijtimoiy hamkorlik qilish, xarakter rivojlanishi va kasb-hunar bilimlarini o‘rganishga yordam beradi. Ushbu muassasalar o‘quvchilarning ilmiy bilimlarini rivojlantiradi va ularni kasb-hunar bilan bog‘liq sohalarda muvaffaqiyatga yo‘naltiradi. Tarbiya, adabiyotlar, darsliklar, o‘quv usullari va o‘zaro aloqalar orqali beriladi. Ushbu usul va vositalar insonning fikrlash, tahlil qilish, yozish, o‘qish va boshqa bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi. Tarbiya insonning etik qoidalarga rioya qilishini, insonparvarlikni o‘rganishini, ijtimoiy qarashlarga ega bo‘lishini ta'minlaydi. Bu jarayon insonlarning o‘zaro aloqalarini rivojlantiradi, muhim qadriyat va erkinliklarni o‘rgatadi va insonning ijtimoiy hayotda samarali ishlashini ta'minlaydi. Jumladan, tarbiya bizga dunyoni tushunish, bilimlarni o‘rganish, xarakterimizni shakllantirish va samarali ishlash qobiliyatlarini beradi. Bu jarayon oila, maktab, universitet va jamoat tomonidan amalga oshiriladi. Tarbiya insonning huquq va erkinliklari bilan tanishib, ularni muhofaza qilishni o‘rgatadi.Tarbiya, dostlik bilan ham juda yaqin bog‘liqdir. Dostlarimiz bizga o‘zimizni tushunishda yordam

beradi va xato qilishimizni ko‘rsatadi. Ular bizning yaxshi tomonlarimizni oshirishga yordam beradi va bizni o‘zimizga ishonch hosil qilishda qo‘llab-quvvatlaydi. Dostlarimiz bilan o‘zaro muhabbat va etibor ta'minlash orqali, biz o‘zimizni rivojlantirish va shaxsiy rivojlanishimiz uchun zarur bo‘lgan muhim qadriyatlarimizni oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.Dostlik, insonning shaxsiy rivojlanishining katta asosidir. Uning yordamida biz o‘zimizni tushunish, xato va kamchiliklarimizni tushunish va ular ustidan o‘tish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Dostlik, hayotimizda katta ahamiyatga ega bo‘ladi, chunki bu bizning ruhiy va jismoniy tinchlik va barqarorlikka erishishimizga yordam beradi.Jamiyatda dostlik va tarbiya bir-birini qo‘llab-quvvatlaydigan muhim qadriyatlar hisoblanadi. Bu ikki qadriyat orqali biz insonlar sifatida rivojlanishimizni davom ettirish, o‘zimizni tushunish va jamiyatning barqarorligi uchun foyda keltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ular insonni hurmat qiladi, shu sababli hamisha iltifotli, muloyim, xushmuomala, murosali… bo‘ladi. Ular bolg‘acha yoki yo‘qolgan o‘chirg‘ich sababli janjal ko‘tarmaydi; birov bilan yashab, keyin buni ta’na qilmaydi, ketayotib: “Siz bilan yashab bo‘lmaydi!” demaydi. Ular shovqin, sovuq, ko‘p qovurib yuborilgan go‘sht, ovqatning tuzi o‘tkirligi yoki uyida mehmonlar borligi tufayli g‘azabga inmaydi…• Ular faqatgina kambag‘allar yoki qarovsiz mushuklarga achinmaydi. Ular oddiy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan narsalar uchun ham qayg‘uradi

• Ular birovning mulkini hurmat qiladi, shu bois qarzlarini qaytaradi.

• Ularning yuragi toza, yolg‘on gapirishdan qattiq qo‘rqadilar. Hazillashib ham yolg‘on gapirishmaydi. Yolg‘on tinglovchiga haqorat bo‘lib tushadi va uning nazarida so‘zlovchini qadrsizlantiradi. Ular o‘zini ko‘z-ko‘z qilmaydi, ko‘chada ham o‘zini yaxshi tutadi, birodarlarining ko‘ziga kul sochmaydi. Ular vaysaqi bo‘lmaydi, so‘ralmagan paytda hamma narsani ochiq-oydin gapiravermaydi… Begona quloqlar hurmati uchun ko‘pincha sukut saqlaydilar.

• Boshqalarning rahmini keltirish yoki yordam olish uchun o‘zlarini yerga urmaydilar. O‘zining ko‘ngilxushligi uchun birovlarning tuyg‘ularini o‘yin qilmaydilar. Hech qachon “Meni tushunishmayapti!” demaydilar.

• Ular mayda-chuyda narsalarga berilmaydi. Mashhurlar bilan tanishish, salonda duch kelgan odamni hayratlantirish, qovoqhonalarda dong taratish bilan mashg‘ul bo‘lmaydilar.

• Iste’dodlari bo‘lsa, uni hurmatlaydilar. Uni deb huzur-halovat, aysh-ishrat, ichkilik va maishatlardan voz kechadilar.

• Ular o‘zlarini madaniy tarbiyalab boradi. Kiyimini alishtirmay uxlamaydi, uylarini taxtakanaga to‘ldirmaydi, yoqimsiz havodan nafas olmaydi, isqirt polda yurmaydi, kerasinkadan ovqatlanmaydi Va hokazo. Xullas tarbiyalanganlar shunday bo‘ladi… Tarbiyalanish va o‘zing kirgan muhit darajasidan tubanda qolib ketmaslik uchun faqatgina Pikvikni o‘qish va “Faust”dan parcha yodlab olish kifoya qilmaydi. Yoki izvoshga o‘tirib Yakimankaga yo‘l olish, bir haftadan so‘ng u yerdan ham bartaraf bo‘lish yetarli emas.Bu tarbiya, insonning o‘zini tushunish, qadriyatlarini oshirish va jamiyat bilan ijobiy munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi. Tarbiya, insonning o‘zini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan bilim va malakalarini oshiradi. Bu esa, insonning o‘zini o‘zlashtirish, o‘z qadriyatlarini bilish va jamiyatga foyda keltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.Tarbiya, insonlarda adolat, insaf, hurmat va muhabbatni shakllantiradi. Bu esa, insonlarning bir-birlari bilan ijobiy munosabatda bo‘lishini ta'minlaydi va jamiyatdagi barqarorlik va tinchlikni saqlaydi. Tarbiya, insonlarni yaxshi odam bo‘lishga yo‘naltiradi va ularning xarakterini, erkinlikni va muhim qadriyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.Tarbiya, insonlarni ijtimoiy qoidalarga rioya qilishni o‘rgatadi. Bu esa, insonlarning jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarurdir. Tarbiya, insonlarni jamiyatga foyda keltirishga yordam beradi va ularning o‘zlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.Shunday qilib, tarbiya insonning ruh va jismoniy rivojlanishini ta'minlaydigan bir nurdir. Bu tarbiya, insonlarni yaxshi odam bo‘lishga yo‘naltiradi va ularning o‘zlarini tushunish va qadriyatlarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tarbiya, insonlarni jamiyatga foyda keltirishga yordam beradi va jamiyatdagi barqarorlik va tinchlikni saqlaydi. Shunday qilib, tarbiya insonning shaxsiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.Tarbiya, insonlarni ijtimoiy qoidalarga rioya qilishni o‘rgatadi va ularni jamiyatga foyda keltirishga yordam beradi. Shunday qilib, tarbiya insonning shaxsiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Tarbiya, odamlarni adolatli, mehribon va mas'uliyatli shaxslarga aylantiradi. Bu esa jamiyatning o‘zida barqarorlik va tinchlikni ta'minlaydi. Tarbiya, insonlarni ijtimoiy qoidalarga rioya qilishni o‘rgatadi va ularni jamiyatga foyda keltirishga yordam beradi. Shunday qilib, tarbiya insonning shaxsiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Tarbiya, odamlarni adolatli, mehribon va mas'uliyatli shaxslarga aylantiradi.

Foydalanilgan manbalar:

1.https://sinaps.uz/maqola/12767/

2.Usmonova Q.S . Boshlangich sinf o`quvchilarida tankidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogic-psixologik integratsiya va uzluksizlik. M УАЛЛИМ ХЕМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ . 2023/3 .370-375-b ttps://lib.cspi.uz/index.php?newsid=7951

3. Usmonova Q.S. Boshlangish ta`limda Filandiya ta`lim tizimini imkonoyatlari . Международный научный журнал № 4 (100), часть 2 «Научный импульс» Ноябрь, 2022./4. 899-903-b

4. Usmonova Q.S Development of Steam International Assessment Program in Primary Education. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. 30th Apr 2023. 242-244 s

РАЗВИТИЕ ПРОСТРАНСТВЕННОГО ВООБРАЖЕНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Рустамова Севара
Студентка направления Начального обучения НавГПИ, Узбекистан
Утемисова Айгуль
Студентка направления Начального обучения НавГПИ, Узбекистан
Научный руководитель Нажимова А.И
старший преподаватель кафедры начального образования НавГПИ, Узбекистан

Аннотация: В статье идет речь об организации активной познавательной и созидательной деятельности учащихся, способствующей накоплению творческого опыта младших школьников, о том, что воображение является психологической системой, ее действие выражается в сложности форм преобразования действительности средствами восприятия, мышления, памяти, воображения и эмоционально – потребностной сферы.

Ключевые слова: познавательная деятельность, творческий опыт, воображение, восприятие, мышление, память, пространственное мышление.

BOSHLANG‘ICH MAKTAB O‘QUVCHILARIDA FAZOVIY TASAVVURNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: **Maqolada o‘quvchilarning faol kognitiv va ijodiy faoliyatini tashkil etish, bu kichik maktab o‘quvchilarining ijodiy tajribasini to‘plashga yordam beradi, tasavvur psixologik tizimdir, uning harakati voqelikni o‘zgartirish shakllarining murakkabligida ifodalanishi haqida fikr yuritiladi.**

Kalit so‘zlar: **kognitiv faoliyat, ijodiy tajriba, tasavvur, idrok, fikrlash, xotira, fazoviy fikrlash.**

DEVELOPMENT OF SPATIAL IMAGINATION IN PRIMARY SCHOOLCHILDREN

Annotation: **The article deals with the organization of active cognitive and creative activity of students, which contributes to the accumulation of creative experience of younger schoolchildren, that imagination is a psychological system, its action is expressed in the complexity of forms of transformation of reality by means of perception, thinking, memory, imagination and the emotional-need sphere .**

Keywords: **cognitive activity, creative experience, imagination, perception, thinking, memory, spatial thinking.**

Реформы современного образования заключаются в предоставлении возможности всем учащимся проявить свои таланты и творческий потенциал, подразумевающий возможность реализации личных планов.

Одним из основополагающих принципов обновления содержания образования является его личностная ориентация, предполагающая опору на субъектный опыт учащихся, актуальные потребности каждого ученика. В связи с этим остро встал вопрос об организации активной познавательной и созидательной деятельности учащихся, способствующей накоплению творческого опыта младших школьников, как основы, без которой самореализация личности на последующих этапах непрерывного образования становится малоэффективной.

На сегодняшний день актуальна проблема поиска средств развития мыслительных способностей, связанных с творческой деятельностью младших школьников как в коллективной, так и в индивидуальной форме обучения.

Многие психологи отмечают, что благодаря воображению человек творит, разумно планирует свою деятельность и управляет ею. Материальная и духовная культура, созданная человечеством к настоящему времени, является продуктом развития его воображения. Именно воображение выводит человека за пределы его сиюминутного существования, напоминает о прошлом, открывает будущее. Обладая богатым воображением, человек может «жить» в разном времени, что не может себе позволить никакое другое существо в мире. Безусловно, что прогресс общества находится в прямой зависимости от развития воображения сегодняшнего поколения детей. Поэтому методы и приемы его развития - одна из актуальных проблем современного образования. В младшем школьном возрасте ребенок в своем воображении уже может создавать разнообразнейшие ситуации. Формируясь в игровых замещениях одних предметов другими, воображение переходит в другие виды деятельности.

1. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017, 14-b.

2. M.Y.Ro‘ziyeva. Ona tili va o‘qish darslarida innovtsion texnologiyalardan foydalanish. Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2018, 4-b.

3. K.Qosimova, S.Matchonov va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi darslik. Toshkent – 2009. – B. 350.

O‘ZBEK TILIDAGI ISMLARNING LINGVOMADANIYLIGI VA ULARNING O‘ZIGA XOSLIGI

Jumayeva Dilnoza Baxshulloyevna

Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi.Navoiy, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi ismlarning lingvomadaniyligi haqida ma’lumot berilgan bo‘lib, har bir ismning o‘ziga xos jihati borligi misollar bilan yoritilgan. Ismlar ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, ularda jamiyatning madaniyati va ijtimoiy hayoti aks ettirilganligi izohlangan.

Kalit so‘zlar: prangmalingvistika, lingvomadaniyat, antroponim, kognitiv tilshinoslik, ismlar, lingvostilistika, antropotsentrik paradigma

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА УЗБЕКСКИХ ИМЕН

Абстрактный: В данной статье представлена информация о лингвокультурной природе имен в узбекском языке, а также на примерах поясняется, что каждое имя имеет свои особенности. Имена имеют социальную значимость и поясняется, что они отражают культуру и социальную среду общества.
Ключевые слова: прангмалингвистика, лингвокультура, антропоним, когнитивная лингвистика, имена, лингвостилистика, антропоцентрическая парадигма.

LINGUISTIC CULTURE UZBEK CULTURE

Abstract: This state provides information about the linguocultural nature of the name in the Uzbek language, and also explains why each name has its own characteristics. Names have social significance and are explained because they reflect the culture and social environment of a society.
Keywords: prangmalinguistics, linguistic culture, anthroponym, cognitive linguistics, names, linguistic stylistics, anthropocentric paradigm.

Jahon tilshunosligida pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistikaga oid tadqiqotlarda antropotsentrik paradigma ustuvorligiga juda ko‘p e’tibor qaratilgan. Antroponimlarning pragmatik, kognitiv va lingvokulturologik ahamiyati, antroponimlarning badiiy matnda tutgan o‘rnini aniqlash hamda konseptual axborotni ochib berishdagi o‘rnini chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Ismlar ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, ularda jamiyatning madaniyati va ijtimoiy hayoti aks ettirilgan bo‘ladi. Ismlar ma’lum bir shaxsning avlodi, uning jamiyatda tutgan o‘rni haqida ham xabar beradi. Har bir ism ma’lum bir sabablarga ko‘ra paydo bo‘ladi. U ommabop yoki kam qo‘llanuvchi bo‘lishi mumkin. Har bir nom o‘z tarixi, “biografiyasi” va “geografiyasi”ga ega. Ismlar lingvostilistik jihatdan real yoki to‘qima bo‘lishi mumkin. Ismlar o‘z obyekti haqida ma’lum bir axborotlarni berishi mumkin.

Bu axborotlar uch ko‘rinishga ega bo‘ladi:

1) lisoniy ko‘rinish;
2) nutqiy ko‘rinish;
3) qomusiy ko‘rinish.

Til birligi (lisoniy ko‘rinish) sifatida ular shaxslarni ataydi, individlarni bir-biridan ajratadi.

Qomusiy axborot esa antroponim asoslangan apellyativ ma’noga yaqinlashadi: Gulnora, Gulandom, Gulruxsor ismlariga gullarga xos bo‘lgan noziklik, yoqimlilik semalariga asoslanadi.

Ismlarda milliylik xususiyati aks etadi. Ismlar eskilik yoki yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘ladi. Masalan: *Alpomish, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Barchin, To‘maris kabi.*

Apellyativlardan ko‘chgan ismlarda sinonimiya hodisasi mavjud (To‘xtasin, Tursun), ammo polisemiya mavjud emas. Sinonimiya hodisasi anchagina uchraydi. Masalan, Abdul Mutallib ibn Hoshim – Shayba, Abdul Mutallib – Abu Lahab kabi.

Ko‘rinadiki, antroponimlar, eng avvalo, so‘zdir, til boyligining bir qismini tashkil qiladi. Ismlar quyidagi pragmatik xususiyatlarga ega: ismlar perlokutiv (ta’sir etish) xususiyatiga ko‘ra: ijobiy (go‘zal ism, chiroyli ism, ko‘rkam ismlar, munosib ism, mazmunan chiroyli ism, yaxshi ism) yoki salbiy (bema’ni / xunuk) nom, dabdabali ism, kamsituvchi nomlar, nomaqbul nomlar, nomunosib nomlar, xunuk ismlar, xunuk ma’noli nomlar, xosiyatsiz ismlar: *Dunbay* (arzimas), *Turob* (tuproq) *Tabdila* (almashtirilgan), *Anzur* (yoqimsiz*), Sotiboldi* (oilaga aloqasi yo‘q); gender xususiyatiga ko‘ra: o‘g‘ilbop ismlar (*Nishonbek, Ortiqboy, Qo‘shoqboy, Tursun, Turdi, Yashar*), qizlarbop ism (*Ziyoda, O‘g‘iloy, Xumor, Xumora, Orzigul, Orzuniso*); milliy-etnik xususiyatga ega: *Djun (June), Yufimiya (Euphemia), Frensis (Frances), Nik (Nick) (ingliz); Aleksandr, Marina, Sereja*, *Valya (rus); Xumoyon, Oybek, Alpomish (o‘zbek), Elmira (tatar);*diniy xususiyatga ko‘ra: *Ibrohim, Ismoil, Ishoq, Ya’qub, Yusuf, Lut, Ayyub, Yunus, Muso, Horun, Ilyos, al-Yasa’, Dovud, Sulaymon, Zakariyo, Yahyo, Iso, Muhammad.*

Tilshunoslikda kognitiv lingvistika kabi yo‘nalishning paydo bo‘lishi 20-asrning so‘nggi choragida lingvistik tadqiqotlar yo‘nalishini oldindan belgilab berdi. Tilni ma’lum bir etnik guruh madaniyati va tafakkuri bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish ustunlik qildi. “Til - millat madaniyati” triadasini o‘rganish tilshunoslikning nisbatan yosh sohasi - lingvokulturologiyaning markaziga aylandi. Lingvokulturologiyaning o‘rganish birligi lingvomadaniyat bo‘lib, u lingvistik va ekstralingvistik (konseptual va predmet) mazmunning dialektal birligidir”

Shunday qilib, lingvistik ma’no va madaniy ma’noning sintezi lingvomadaniyatni ifodalash rejasidir. Madaniy tilshunoslik sotsiolingvistika bilan bog‘liq fan bo‘lib, uning doirasi madaniyat faktlarini va ularning til belgisining faoliyatiga ta’sirini o‘z ichiga oladi.

Antroponimik formulaning ota ismi (shaxsga ko‘ra ism) kabi tarkibiy qismi kamroq tarqalgan, otasining ismi). Bugungi kunda aksariyat xalqlar asosan ikki qolipli formula bilan tavsiflanadi - shaxsiy ism (yoki bir nechta shaxsiy ismlar) va familiya (yoki bir nechta familiyalar).

“ism + otasining ismi + familiyasi” antropologik formula, dastlab tashkil etilgan nomlash tizimiga qaramay, MDH tarkibiga kiruvchi barcha xalqlarga o‘rnatilgan. Kamdan-kam xalqlargina o‘zlarining milliy nomlarining o‘ziga xosligini himoya qilishga muvaffaq bo‘lishdi, masalan, ozarbayjonlar: erkak uchun - Husayn Israfil o‘g‘li Aliyev, ayol uchun - Zeynab Qurbonali qizi Mammadova va boshq.

Bunda rasmiy antroponimik model saqlanib qolgan bo‘lsa-da, milliy o‘ziga xoslikni amalga oshiradi. Yevropa va Amerikaning zamonaviy xalqlari va Osiyoning ko‘plab xalqlarining antroponimik modellari binomial, ya’ni, shaxsiy ism va familiyadan iborat. Shubhasiz, aynan shu model shaxsiy ma’lumotlar (jinsi, oilaviy ahvoli, familiyasi va boshqalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar) bilan birgalikda shaxsni individuallashtirishning tegishli o‘lchovini

ta’minlaydi. Shu bilan birga, shaxsiy ism va familiyaning tuzilishi noaniq bo‘lishi mumkin. Misol uchun, nemislar uchun nomlar soni rasman cheklanmagan. Odatda, yangi tug‘ilgan chaqaloqqa bir yoki ikkita (kamdan-kam uch yoki undan ko‘p) ismlar beriladi, ulardan biri asosiy hisoblanadi va odatda murojaat qilganda odam chaqiriladi. Ikki familiya ham bitta familiya hisoblanadi.

Rus tilida undoshli familiyalarni erkaklar ham, ayollar ham olishlari mumkin (Volk, Korotich, Gusak va boshqalar), ammo farq erkak familiyasining (Volka, Korotich, Gusak) va familiyasining qisqarishi orqali amalga oshiriladi. Ayol familiyasining o‘zgarmasligi. Istisno -ih, -ih, -o (Shchevchenko) dagi familiyalardir, ular har qanday holatda ham inkor etilmaydi. Ammo to‘liq nomlashda shaxsiy ismlar va otasining ismi tufayli yuqori darajada farqlanish saqlanib qolmoqda.

Ko‘pgina G‘arb xalqlari ismning turli shakllariga ega, ammo familiyasi emas.

Ismlarning - ayol va erkak - turli semantik modellarga ko‘ra o‘ziga xos semantizatsiyasi dunyoning ko‘pgina xalqlariga xosdir. Ism qo‘yishda erkak va ayol, ota va ona, er va xotinning roli teng emas. Ko‘pincha, ism berish jarayonlarida odamning roli muhimdir, bu allaqachon otasining ismi tizimi qabul qilingan xalqlarning otasining ismidan dalolat beradi. Odatda ayol familiyani otasidan yoki eridan oladi. Aksincha, qonun tomonidan ruxsat etilgan bo‘lsa-da, kamroq tarqalgan.

Erkaklar va ayollarning antroponimik modellari orqali individuallashuv darajasi o‘zbek xalqida (shuningdek, dunyoning boshqa xalqlarida) assimetrikdir, ammo hozirgi vaqtda ayolning nikohda familiyasini saqlab qolish tendensiyasi mavjud.

Antroponimik model ikkinchi ism yoki undan ko‘p shaxsiy ismlar mavjudligiga qaramay, asosan ikki komponentli (ism + familiya), chunki u oraliq komponentni - otasining ismini o‘z ichiga olmaydi. Zamonaviy ingliz antroponimik formulalari, birinchi navbatda, qadimgi nemis onomastikonlari asosida shakllangan bo‘lib, u qadimgi nemislarning go‘zal va ahamiyatli, shuningdek, zooforik nomlar guruhi haqidagi g‘oyalarini ifodalovchi qatlamlarni o‘z ichiga olgan. Ism qo‘yishning sababi ham eng yaqin qarindoshining ismini saqlab qolish yoki uning o‘zgarishi edi. Qadimgi onomastiklarning zamonaviy o‘zgarishlari eski tushunchalarga yangi ma’no berishga olib keladi.

O‘zbeklarning shaxs nomlari boshqa turkiyzabon xalqlar orasida ham, islom madaniyatining boshqa xalqlari orasida ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. O‘zbeklarning zamonaviy nomlari ro‘yxatining rivojlanishida qadimgi turkiy, shuningdek, fors tili lug‘ati muhim rol o‘ynagan.

Til va madaniyat kishilarining shu millatga xos tarixiy, diniy, mifologik voqea-hodisalar, urf-odat va an’analarni ko‘zgu kabi aks ettiradigan bilimlar tuzilmasining ajralmas qismidir. Unga, avvalombor, biror til vakillari orasida mashhur ismlar – taniqli shaxslar, mifologik va diniy qahramonlar, badiiy asar personajlari ismlari kiradi. Bunday ismlar vaqt o‘tishi bilan o‘z tarkibiga qat’iy va o‘sha jamiyat uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan milliy xususiyatlar jamlanmasi (xarakter, xulq-atvor, tashqi ko‘rinish, milliy status) sifatida e’tirof etiladi. Bu antroponimlar presedent bo‘lib, milliy lisoniy ong elementlari, bir lingvomadaniy jamiyatga xos kognitiv anglash va tushunishning umumiy qarashlari hisoblanadi. Bir tomondan allyuziv antroponimlar ism egasiga ishora qilib, indeksal ma’noni ifodalaydi. Boshqa tomondan esa, bu ma’noning ifodalanayotgan obyekti bilan munosabati, aloqasi ixtiyoriy bo‘lib, allyuziv antroponim simvolik belgi vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, u ikonik belgi ham hisoblanib, biror hayotiy yoki xayoliy holat va vaziyatni modellashtiradi.

Boychibor, jomi Jam, Iskandar , Ka’ba, Kumush, Otabek, Layli, Majnun, Farhod, Shirin, Tohir, Zuhra, Odam Ato, Momo Havo, Masih , To’maris, Shiroq, Amir Temur, Hotam, Humo, Usmon , Cho’lpon kabi o’zbek va sharq lingvomadaniyatiga; Gamlet, Gerakl, Ikar, Kolumb, Otello, Yago, Buratino kabi G’arb lingvomadaniyatiga oid nomlar faol qo’llanmoqda.

Pretsedent nomlar ma’lum sifatlarning namunaviy yig’indisiga ishora qilish xususiyatiga ega bo’lganligi sababli muayyan lingvomadaniyatda biror tushunchaning ramzi sifatida qo’llanadi. Aytish joizki, turli matnlarda Hotam, Luqmoni Hakim, Rustam, Majnun, Layli, Ka’ba, Bog’i Eram, jomi Jam kabi an’anaviy ramziy nomlarni qo’llash bilan birga Kumush, Jaloliddin, Kolumb, Otello, To’maris, Shiroq, Barchin kabi nomlarni ham muayyan tushunchaning ramzi sifatida qabul qilish o’zbek lingvomadaniyatiga xos xususiyatlardan biriga aylandi. Jumladan , bugungi kunda, Kumush - iboli, andishali o’zbek ayoli, Jaloliddin - jasur, vatanparvar, Kolumb - kashfiyotchi, Otello - o’ta rashkchi, To’maris va Barchin nomlari esa mard, oriyati baland ayol ramzi sifatida qo’llanmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘zbeklarning shaxs nomlari boshqa turkiyzabon xalqlar orasida ham, islom madaniyatining boshqa xalqlari orasida ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Umumjahon sifatida dunyoning barcha tillarida shaxsning individuallashuvini ajratib ko‘rsatish mumkin. Masalan, umumiy otlar (appelativlar) quyidagi parametrlarga ko‘ra: jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, ijtimoiy mavqeyi, tashqi ko‘rinish xususiyatlari, jismoniy holati, xarakteri, intellekti va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз // Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. –Тошкент: Фан, 1987. 15-б.
3. Абдухамидова Д.Япон ва ўзбек тилларида қариндош-уруғчиликни ифодаловчи лексик бирликларни системалаштиришга оид // “Шарқшунослик” илмий журнали. -2020. №2 –Б.34
4. Степанова Ф.В. Русский женский антропонимикон в культурно-генетическом аспекте: Автореф...дисс.канд.филол.наук. Лесосибирск, 2006.-23 с.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA TO‘RT BLOKLI MODEL (TANQIDIY FIKRLASH, IJODKORLIK, MULOQOT VA HAMKORLIK) NING TATBIG‘I

Mirzoyeva Maftuna Husnitdinovna
Navoiy davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti. Navoiy, O‘zbekiston.
Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD) Ravshanova R.X.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda qo‘llanib keliniyotgan yangi tamoyil to‘rt blokli model (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik)ning fanga kirib kelish sabablari, bugungi kundagi ahamiyati va boshlang‘ich ta’limda bu modelning qo‘llanilishi haqida bir nechta mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: model, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot, hamkorlik, texnologiya, raqobat.

ПРИМЕНЕНИЕ ЧЕТЫРЕХБЛОЧНОЙ МОДЕЛИ (КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ, КРЕАТИВНОСТЬ, КОММУНИКАЦИЯ И СОТРУДНИЧЕСТВО) НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ

Аннотация: В данной статье приведены некоторые рассуждения по поводу причин введения в науку нового принципа четырехблочной модели (критическое мышление, творчество, общение и сотрудничество) в начальных классах, его сегодняшнее значение и применение этой модели в начальном образовании.

Ключевые слова: модель, критическое мышление, креативность, коммуникативность, сотрудничество, технология, соперничество.

APPLYING THE FOUR-BLOCK MODEL (CRITICAL THINKING, CREATIVITY, COMMUNICATION AND COOPERATION) IN A NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY LESSON IN A PRIMARY CLASS

Abstract: This article provides some reasoning about the reasons for the introduction into science of the new principle of the four-block model (critical thinking, creativity, communication and cooperation) in primary school, its current significance and the application of this model in primary education.

Keywords: model, critical thinking, creativity, communication, cooperation, technology, competition.

O‘tgan asrning 50-yillaridan buyon butun dunyoda o‘quvchilarning nafaqat biror sohaga doir bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki ularda biror muammoni yechishda zarur bo‘ladigan ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni shakllantirish, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay oladigan, texnologiyalar ularning o‘rnini egallamasligi uchun zarur malakalarga ega bo‘lgan raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berish asosiy masala sifatida qarala boshlandi. Xalqaro Iqtisodiy forum asoschisi va prezidenti Klaus Martin Shvab 2016-yil 20-yanvarda Shveytsariyaning Davos shahrida bo‘lib o‘tgan forumda to‘rtinchi sanoat inqilobiga alohida to‘xtaldi, bu inqilob natijasida insonlar ishsiz bo‘lib qolmasliklari uchun ta’lim tizimini tubdan yangilash kerakligi to‘g‘risida o‘z fikrlarini bayon qildi. Shuningdek, ushbu forumda “Ta’limda yangicha nigoh” nomli ma’ruzada XXI asr ko‘nikmalarining yangilangan modeli taklif qilindi. Bu modelning markazida 4 ta asosiy ko‘nikma yotadi. Bular: tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot, hamkorlik hisoblanadi va XXI asr ko‘nikmalarining to‘rt blokli modeli deb umumlashtiriladi.

Butun dunyoda bu modelni o‘rganish va uni fanlar tarmog‘ida qo‘llash bo‘yicha samarali ishlar olib borilayotgan bir paytda, O‘zbekistonda ham ta’lim tizimini tubdan yangilash, ya’ni to‘rt blokli modelga asoslangan yangi darsliklar yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida ta’kidlaganidek: “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”[1]. Bu yo‘ldan og‘ishmay borish maqsadida 2019-yil 29-aprelida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Bu konsepsiyaga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakat qatoriga kirishi lozimligi belgilab qo‘yildi[2].

Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlarida keltirilganidek, O‘zbekiston ta’lim yo‘nalishida o‘quvchilarning ma’lum faktlar va jarayonlarni eslab qolishiga emas, balki tanqidiy fikrlash orqali muammolarni hal qilish va kompetensiyaga asoslangan ta’lim usuliga o‘tishi kerak.

Chunki to‘rt blokli model (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va o‘zaro hamkorlik) zamonaviy ta’limda muhim ahamiyatga ega va o‘quvchilarning metakognitiv qobiliyatlarni o‘stiradi. Bugun maktabda ta’lim olayotgan o‘quvchilar millatning ertangi kelajagi sifatida ko‘plab global muammolarni hal qilishi lozim. To‘rt blokli model asosida ta’lim olganlar raqobatbardosh kadr sifatida yetishib chiqishadi, sababi kelajakda inson kapitali o‘rnini texnologiyalar egallaydi.

O‘qitishning to‘rt blokli modeli ta’limning alohida-alohida sohalarini amaliy mustahkamlashni anglatmaydi, balki to‘rt sohani ham birlashtirib, kundalik hayotdagi va kasbiy sohadagi muammolarni yechishga qaratilgan ta’lim jarayonini nazarda tutadi.

Ta’limning to‘rt blokli modelining asosiy maqsadi XXI asr talablariga mos keluvchi o‘qitish jarayonini tashkil qilish, ya’ni o‘quvchilarni iymon-e’tiqodli, o‘tmishdagi mutafakkir allomalar kabi fikrlay oladigan, axborot texnologiyalaridan bemalol foydalana biladigan, aql va kamtarlik bilan muloqotga kirishuvchan, rivojlanishga qodir rejalar tuza oladigan, yuksak natijalarga erishishga qodir avlod sifatida voyaga yetkazish hisoblanadi.

Ta’limda va hayotda to‘rt blokli modelning qo‘llanilishi fan va texnologiyalar rivojlanishiga yordam beradi, shuningdek, insoniyat ijtimoiy hayotining yaxshilanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qitishning to‘rt blokli modeli (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va o‘zaro hamkorlik)ning har bir tarmog‘ini alohida ko‘rib chiqishni lozim topdik.

Tanqidiy fikrlash fikrlashning alohida turi bo‘lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Tanqidiy fikrlash falsafada, psixologiyada, pedagogikada turlicha ta’riflanadi. Ta’limga asoslangan yondashuvga ko‘ra tanqidiy fikrlash taqdim etilgan ma’lumotlardan tashqariga chiqish qobiliyati sifatida tanqidiy pozitsiyani egallash, baholash, muammolarni hal qilish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari quyidagilar:

• tushuntirish – o‘z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy-bog‘liq izchil matnlar qurish;

• maqsadlarni belgilash – erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarni to‘g‘ri shakllantirish, zarur ma’lumotlarni va uning yetarliligini aniqlash, shu asosda mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyati;

• o‘zini boshqara bilish – o‘z-o‘zini tekshirish, xulosalarni tuzatish va mulohaza
yuritish (refleksiya);

• modellashtirish – amaliy vaziyatni sifatli tahlil qilish va vazifalarni hal qilish uchun vaziyatni mavhum modeli bilan almashtirish qobiliyati;

• o‘rganilayotgan predmetga turli nuqtayi nazardan qarash amaliyoti;

• kuzatish va o‘lchovlarni rejalashtirish va amalga oshirish amaliyoti;

• muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish;

• dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati;

• strategik fikrlash[3].

Ijodkorlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo`lgan bilimlarning ko‘p qirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi[4,159]. O‘tgan asrning 60-yillaridan buyon ijodkorlik, ijodiy fikrlashni shakllantirish masalalarini o‘rganish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimida ijodiy fikrlashni rivojlantirish o‘ta muhimligi ta’kidlanib kelmoqda. Shuning uchun ham kelajakda buyuk taraqqiyotga ega, huquqiy davlat qurishni maqsad qilgan Vatanimiz yoshlarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish, ularning yangilik yaratishga bo‘lgan xohish va istaklarini imkon darajasiga ko‘tarish ko‘zlangan maqsad va ezgulik yo‘lidagi ta’lim tizimining asosiy tadbirlaridan biri hisoblanishi lozim.

Kreativlik (Ijodkorlik) ko‘nikmasi:

• qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko‘proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o‘rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o‘z savollariga javob topish qobiliyati;

• tasavvur – ko‘plab original va nostandart g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

• optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni
solishtirish qobiliyati;

• g‘oyalarni rivojlantirish – g‘oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o‘zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma’lumotlarning
paydo bo‘lishida o‘z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

Muloqot – odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muloqot birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayirboshlashni o‘z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (o‘zaro aloqaga doir) jihati hisobga olinadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qituvchi bilan, o‘z tengdoshlari bilan, ota-onasi bilan muloqot olib boradi. Bu davrda bolaning nutqi shakllanishida o‘qituvchining nutqi kata rol o‘ynaydi, chunki uning nutqi o‘quvchilar uchun namuna hisoblanadi. Shuning uchun o‘qituvchi, eng avvalo, o‘z nutqi ustida ishlashi kerak.

Muloqot qilish ko‘nikmasi

• muloqotdan cho‘chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik.

• muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish qobiliyati;

• muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyati;

• muloqot qoidalari ma’nosini tushunish va ishonch darajasini oshirish;

• boshqa odamlarning fikrini tinglashni o‘rganish;

• o‘zining ijobiy obrazi shakllanishini ta’minlash;

• o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalash amaliyoti;

• taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti;

• o‘z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti;

• katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyoti.

Hamkorlik faqat birgalikda ishlashni anglatmaydi, balki jamiyatda ijtimoiylashish uchun sa’y-harakatlar tizimini, shaxsiyat va hissiyotlarni boshqarishni bildiradi. Hamkorlik bugungi global va texnologik jamiyatda o‘quvchilar uchun muvaffaqiyatning asosiy elementidir. Shu sababdan o‘qituvchilar turli guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmatni ta’minlashga erishishi lozim. O‘zaro hamkorlik aloqalari kelajak avlodning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishida turli xil fikrlarni qabul qilish, turli din va qadriyatlarga ega bo‘lgan insonlar bilan ham ishlay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Jamoaviy ishlash ko‘nikmasi

• umumiy maqsadlarni o‘z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo‘nalishini qurish qobiliyati;

• ijtimoiy o‘zaro ta’sir, ya’ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o‘z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish;

• o‘z rejalari va g‘oyalarini amalga oshirish uchun yetakchilik ko‘nikmalarini va o‘z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish;

• o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish;

• mustaqillik va avtonomiya va tashabbuskorlik.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, to‘rt blokli modelni boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitishda tatbiq qilish bugungi zamon talabi hisoblanadi va bu modeldagi to‘rt ko‘nikmani bir-biridan ayro holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. To‘rt model ham bir-birini to‘ldirib, izohlab keladi va o‘quvchining kelgusi hayotida muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil uchun Murojaatnomasi” 22.12.2022 – https://president.uz

2. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyani tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son, 29.04.2019 - https://lex.uz

3. Edward M.Glaser. “Defining Critical Thinking”. The International Center for the Assesment of High Order Thinking(ICAT,US)/Critical Thinking Community.

4. R. Mavlonova, N. Rahmonqulova “Boshlang‘ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya”. O`quv qo‘llanma Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – 270 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TANQIDIY FIKRLASHGA O‘RGATISH ORQALI LUG‘AT BOYLIGINI OSHIRISH

Husenova Muhtaram Husniddin qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi.Navoiy, O‘zbekiston.

Anatatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda har bir dars jarayoni ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarga tanqidiy fiklashni o‘rgatish orqali lug‘at boyligi, nutqiy kompetensiyasini oshirish, ularda idrok, tasavvur, mantiqiy, dunyoqarashi kengayishi, murakkab topshiriqlarni bajara olish ko‘nikmalari rivojlanishiga olib kelishi to‘g‘risida fikrlar nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: terminlar, mantiqiy tafakkur, muloqot ko‘nikmasi, nutqiy ravonlik, tanqidiy fikrlash, g‘oya, analitik fikrlash, dunyoqarash, motivatsiya, pedagogik texnologiyalar.

РАСШИРЕНИЕ СЛОВАРНОГО СЛОВА УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПУТЕМ ОБУЧЕНИЯ КРИТИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ

Аннотация: В данной статье каждый урок в начальных классах направлен на реализацию учебно-воспитательных и развивающих задач, а также на обучение учащихся критическому мышлению, на увеличение словарного запаса, речевой компетентности, восприятия, воображения, идей, которые приводят к Теоретически обосновано развитие логического, мировоззренческого расширения, умений выполнять сложные задачи.

Ключевые слова: термины, логическое мышление, коммуникативные навыки, беглость речи, критическое мышление, идея, аналитическое мышление, мировоззрение, мотивация, педагогические технологии.

INCREASING THE VOCABULARY OF PRIMARY CLASS STUDENTS BY TEACHING CRITICAL THINKING

Abstract: In this article, each lesson in primary grades is aimed at the implementation of educational, educational and developmental tasks, and by teaching students to think critically, to increase their vocabulary, speech competence, their perception, imagination, The ideas that lead to the development of logical, worldview expansion, skills to perform complex tasks are theoretically justified.

Key words: terms, logical thinking, communication skills, fluency, critical thinking, idea, analytical thinking, worldview, motivation, pedagogical technologies.

Boshlang‘ich ta’lim – shaxs shakllanish davrining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Bu davr o‘quvchi ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash vaqti bo‘lgani uchun juda ham katta e’tiborni talab etadi. Ayni shu pallada, o‘quvchi o‘zida «o‘quvchi shaxsi»ni yaratadi, maktabga va ta’lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to‘plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g‘oyaviy, tarbiyaviy va ma’rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon insonni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev Murojaatnomada purma’no bir gapni ta’kidladilar: “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!” Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘qitishning turli jihatlari B.R.Adizov, R.Ibragimova, Sh.Nurullayeva, Sh.Sharipov, F.Xo‘jjiyevalar tomonidan

o‘rganilgan bo‘lsa, fikrlash jarayonining psixologik asoslari E.G‘oziyev, V.Karimova, R.Sunnatova va Z.Nishonovalar tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarda ko‘proq yodlash va bilim olishga layoqati kuchli bo‘lib, yuqori sinf o‘quvchilarida esa olingan bilimlarni amalda tadbiq etish ko‘nikma va malakalari ko‘proq rivojlanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda yangi terminlar(atamalar)ni o‘quvchilar eslab qolishlari uchun iloji boricha ko‘proq beriladi. Bu terminlar(atamalar)ning ma’nosini o‘quvchilarga mukammal tushuntirishga ko‘p vaqt sarflashning keragi yo‘q. O‘quvchilarning yodlab qolish qobiliyatlari kamaygan yoshga yetganida esa, ya’ni yuqori sinflarda olingan barcha bilimlarni tadbiq etish va foydalanish ko‘nikma va malakalarini oshirishga e’tiborni ko‘proq qaratish kerak. Global axborotlashuv va innovatsion ta’lim muhitining shakllanishi, inson kapitalini rivojlantirishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojning ortishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, intellektual jihatdan rivojlantirish, bunda nutq imkoniyatlaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf darsliklariga kiritilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirishga yordam beradigan yangi termin(atama)lar namunalari ham muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari berilgan g‘oyalar va tushunchalar to‘g‘risida so‘zma-so‘z fikrlashadi. Ya`ni, o`rgatilgan bilimni boricha qabul qilib, uni shu holicha bayon qilish ular uchun yuqori natija bo`lib qolgan. Tabiiyki, tanqidiy fikrlash faqat buni bajarish qobiliyatiga ega bo`lish bilan bog‘liq emas; buning o‘rniga o‘qituvchilar va ota-onalar bolalarning boshlang‘ich sinf yillarida tahlil qobilyati uchun asos yaratishi kerak. Natijada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari fikrlashni va mustaqil qaror qabul qilishni talab qiluvchi mavzular va g‘oyalarga duch kelsa, kelajakda bunday ko‘nikmalardan samarali foydalanish imkonyati yuqori bo‘ladi. Oddiy qilib aytganda, murakkab mavzu yoki g‘oya haqida aniq va oqilona fikrlash shart emas, muhimi unda shu mavzuga nisbatan o‘z pozitsiyasining borligi va uni bayon qilib bera olishdir. Bu shuni anglatadiki, biz faqat ko‘nikmalarga ega bo‘lishdan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining analitik fikrlashni o‘rganishiga imkon beradigan munosabat yoki ongni tarbiyalashimiz oldimizdagi asosiy vazifa.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash orqali, mustaqil, erkin fikrlay olish, tahlil qilish, taqqoslash, fikrlarni izohlash, baxslashish, o‘z g‘oyalarini himoya qilish va yangiliklarga intilish kabi malakalari bilan birga, mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, dunyoqarashi, o‘z-o‘zini anglash, kommunikativ savodxonligi, go‘zallik va nafosatni his etib, undan zavqlana olish, aqlan va jismonan sog‘lom bo‘lish, milliy urf-odatlarni o‘ziga singdirish va qadrlash kabi muhim xususiyatlari rivojlantiriladi. Bu o‘z navbatida kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va amalda to‘g‘ri qo‘llay olishlarini ta’minlaydi. Shunga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish uchun darsning maqsadini aniq, pedagogik texnologiya asosida loyihalab olish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanqidiy fikrlashga o‘rgatish orqali o‘quvchilarning tasavvur va tafakkurlarini, og‘zaki va yozma nutqi, ifodali o‘qish malakalari, lug‘at boyligi rivojlantiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tanqidiy fikrlashga doir berilgan har bir yangi topshiriq bilan tanishish jarayonida, uni mazmun-mohiyatini tushunishi, tahlil qilishi, fikr almashishi orqali ularning duynoqarashi kengayadi, idrok qilish qobilyati rivojlanadi, nutq texnikasi o‘sadi, muloqot madaniyati shakllanadi, lug‘at boyligi ortadi.

Bunday fikrlash bugungi ta’limning tamal toshiga aylanib bormoqda. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning erkin mushohada yuritishlari uchun, avvalambor motivatsiya(ruhlantirish) bosqichining ahamiyati kattadir, unda yangi bilimlar, o‘zi mustaqil tanlagan maqsad uchun intilish anchagina kuchli bo‘ladi. Motivatsiya bosqichida faoliyatning bir nechta bilim beruvchi muhim turlari amalga oshiriladi. Birinchidan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchi mazkur mavzu to‘g‘risida bilganlarini tiklashda faol ishtirok etadi. Bu esa uni o‘z bilimlarini tahlil qilishga va tez orada batafsil ko‘rib chiqiladigan mavzu haqida o‘ylashga majbur etadi. Nemis olimi M. Mauyermanning ta’kidlashicha: «Tanqidiy fikrlash –bu inson uchun fikrlashning tayanch nuqtasi, g‘oyalar va axborotlar bilan o‘zaro munosabatga kirishishning tabiiy usulidir. U dars va darsdan tashqari0020jarayonlarda sodir bo‘ladigan faoliyat bo‘lib, o‘quvchiga axborotlarni qat’iy nazorat qilish imkonini beradi». Tanqidiy fikrlash — fikrlashning alohida turi bo‘lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda yangi pedagogik texnologiyalar va didaktik o‘yinlardan dars davomida o‘rinli va o‘quvchi yosh hamda individual xususiyatlariga e’tibor bergan holda qo‘llash kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar. Manba: www. press-servise.uz.

2. Pol, R. V., Elder, L. & Bartell, T. (1997). Kaliforniya o‘qituvchisini tanqidiy fikrlash bo‘yicha o‘qitishga tayyorlash: Tadqiqot natijalari va siyosat bo‘yicha tavsiyalar. O‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha Kaliforniya komissiyasi Sakramento: Kaliforniya

3. Matchonov S., Bakiyeva, G`ulomova X., Yo`ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlag`ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. –T., Ishonch hamkor. 2021.

4. Ne’matov H., G`ulomov A., Ziyodova T. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish. (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.) –T.: RTIMM, 1995. –76 b

5. Sh.Turdiyev, Y. M. Asadov va boshqalar. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. 1-qism. — T.:O‘zPFITI, 2015.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ONA TILI O‘QITISH METODIKASI XUSUSIDA

Yuldasheva Umida Naribdjanovna
Toshkent viloyati, Yangiyo‘l shahar 9-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.Toshkent,O‘zbekiston. umidayuldasheva57@gmail.com

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga ona tilini o‘rgatish katta ahamiyatga ega. Chunki ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazish ona tili ta’limi oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa hisoblandi.

Kalit so‘zlar: Metodika, metod, texnologiya, ta’limiy o‘yin, ona tili.

О МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: Большое значение имеет обучение родного языка в начальных классах. Потому что воспитание творчески мыслящей, самостоятельной личности, считается важнейшей и актуальной задачей перед обучением родному языку.

Ключевые слова: методика, метод, технология, обучающая игра, родной язык.

ABOUT THE METHODOLOGY OF TEACHING THE NATIVE LANGUAGE IN PRIMARY EDUCATION

Annotation: Of great importance is the teaching of the native language in primary school. Because the upbringing of a creatively thinking, independent personality is considered the most important and urgent task before teaching the native language.

Keywords: methodology, method, technology, educational game, native language

“Yaxshi metodsiz yaxshi o‘qituvchi bo‘lishi mumkin emas.” B.V.Belyaev

O‘z ustida ishlaydigan ijodkor o‘qituvchi doim izlanishda bo‘lishi kerak. Zamonaviy pedagog muvaffaqiyatga erishish uchun ilm, fan hamda texnika yutuqlaridan xabardor bo‘lishi, dars jarayonida kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalana olishi darkor. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘z fikrlarini erkin ifodlashga o‘rgata olishi kerak. Ona tili fani o‘quvchilarda kommunikativ savodxonlikni hamda nutqiy (og‘zaki va yozma) ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda asosiy vazifalarni bajaradi.

O‘quvchilarga ta’lim berish xususan ona tilini o‘qitish tarixi uzoq yillik tarixga ega. Markaziy Osiyoni jahonga tanitgan Al-Xorazmiy, Abu Iso at-Termiziy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ismoil Jurjoniy, Marg‘iloniy, Zamahshariy, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi ulkan mutafakkirlar bebaho kashfiyotlari bilan o‘z xalqlarining shuhratini olamga yoydilar. Ular ta’lim va tarbiya bobida ham o‘chmas iz qoldirdilar. Sharqda “ikkinchi muallim” deb tan olingan (Arastudan keyin) Abu Nasr Forobiyning “Ta’lim-tarbiya berish usullari” asaridagi “Bilim, ma’rifat, yaxshi axloq bilan bilimdon, ma’rifatli, yetuk, mukammal inson yetishadi. Buning uchun **ta’lim jarayoni o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tashkil etilishi, boshqarilishi va ma’lum maqsadlarga yo‘naltirilishi lozim**” , - degan fikri [3.19] har bir o‘qituvchi uchun shior bo‘lishi kerak deb hisoblaymiz.

Ona tilimiz haqida fikr borganda hazrat Navoiy bobomizni qalbda katta g‘urur bilan eslaymiz. Alisher Navoiy o‘zbek tili ravnaqi uchun astoydil kuyindi… Turkiy til ravnaqi uchun qat’iy kurash olib bordi. Navoiy asarlari til omillaridan, o‘zbek tilining leksik-grammatik imkoniyatlaridan unumli va mahorat bilan foydalanishning oliy namunasidir. Navoiy tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta’kidlaydi, uni “guhari sharif” deya ta’riflaydi. So‘z insonni hayvondan ajratgan ulug‘ ne’mat deya ulug‘laydi: Tengriki, insonni qilib ganji roz, So‘z bila hayvondin anga imtiyoz. [3. 21] Yoshlarni erkin va mustaqil tafakkur egasi, ijodiy izlanuvchan, milliy g‘oya va ajdodlarimiz an’analarini e’zozlaydigan, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda ona tili o‘qituvchisining mas’uliyati katta. Darsni zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilish, maqsad va vazifani to‘g‘ri belgilash hamda dars mavzusini mukammal yoritishga xizmat qiladigan zamonaviy o‘quv-texnika vositalaridan unumli foydalanish xususida batafsil to‘xtalamiz. Dars o‘tish mahoratini egallash uchun o‘qilgan darslik yoki qo‘llanmalarimizda metod, pedagogik texnologiya kabi terminlar bilan tanishganmiz. Ularning har biri dars sifatini oshirishga xizmat qiladi hamda ularning o‘z ta’riflari bor. Metod aslida yunoncha “metodos” so‘zidan olingan bo‘lib “bilish va tadqiqot yo‘li”, “nazariya”, “ta’limot” kabi ma’nolarni bildiradi [2.3]. “Pedagogik texnologiya — bu ta’lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko‘zlagan o ‘qitish va bilimlarni o ‘zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ulaming birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir” (YuNESKO)[1.66].

O‘quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash ta’lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o‘qituvchilar mehnat faoliyatining o‘zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarini takomillashtirishga, pedagogik tizimlaming tarkibiy o‘zgarishiga samarali ta’sir etadi. Bu esa pedagogik jarayonlami axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda o‘ziga xos vazifalarni qo‘yadi. [4.259].

Samarali dars tashkillashtirish uchun mavzuga mos pedagogik texnologiya, metodlarni tanlay olishimiz kerak. Hozirda zamonaviy axborot texnologiyalarining dars tashkillashtirish jarayonida o‘rni beqiyosdir. Aslini olganda texnika vositalaridan dars jarayonida foydalanish tarixi ancha oldin ham samarali hisoblangan ekan. Abdulla Avloniy maktabda badiiy asarni chuqur o‘zlashtirishga erishish maqsadida darsda plastinkadan foydalanadi. Uning ifodali o‘qish sohasida qo‘llagan usullari, dars jarayonida texnika vositalaridan foydalanish eski maktablarda ham til va adabiyot o‘qitish usuli sohasida yangilik edi [5.9].

Dars jarayonida turli metodlar bilan bir qatorda pedagogik o‘yinlardan ham foydalanishimiz mumkin. O‘quv qo‘llanmalarning birida pedagogik o‘yinga - bilim olishga qaratilgan va ma’lum bir pedagogik natijani ko‘zlagan hamda ta’lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi [1.155] deb ta’rif berilgan. Quyida

o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib ona tili darslarini samarali o‘tkazish uchun bir qancha ta’limiy o‘yinlarni taklif etamiz. “Sirli kataklarni to‘ldir” o‘yini. O‘quvchilarga kataklarni to‘ldirib, tovushdosh so‘zlar hosil qilish vazifa qilib topshiriladi. Masalan, “toy” so‘zini “soy” so‘zigacha davom ettirsh talab etiladi. Namuna: toy, loy, moy, voy, oy, choy, yoy, soy [5.149] kabi.

“Nazoratchi harf” o‘yini. O‘qituvchi belgilangan harf asosida o‘quvchilarga so‘z yozishni taklif etadi. Masalan, o‘qituvchi: “sh” harfi birinchi turibdi, demak “sh” harfi so‘z boshida kelishiga namunlar yozing”, - deb aytadi. Ishni bajarish uchun aniq 2-3 minut vaqt belgilanadi. O‘quvchilar yozadilar: shodlik, shu’la, shuhrat, sharafli, shabnam va h.k. Belgilangan vaqtda ko‘p so‘z yozgan o‘quvchi o‘yin g‘olibi hisoblanadi [5.150]

“So‘z ustuni” o‘yini. O‘qituvchi sinf taxtasi (doska)ga biror so‘zni yozadi va o‘quvchilarga uning har bir harfi bilan boshlanuvchi so‘zlar ustuni hosil qilishni taklif qiladi. O‘quvchilar har to‘g‘ri so‘z uchun belgilangan ballni oladilar, har bir xato uchun ball olib tashlanadi. Yoki bu topshiriqni kartochka tarzida mustaqil ish qilib topshirish ham mumkin, bu paytda o‘quvchilar topshiriqni bajarib, o‘qituvchiga topshiradilar. Vaqtni hisobga olib ma’lum minutda nechta so‘z yozishni o‘qituvchi bolalarga e’lon qiladi va tartibni buzmay ulardan kartochkani terib oladi, tekshirib baholaydi.

O N A obod
navo aql ohang
nizom asar ozod nazar alla
odam nodir a’lo odil nurli
ahd [5.151]. “Talaffuzdan adashmang” o‘yini. O‘qituvchi o‘quvchilarga *h* va *x* yoki *f-p* tovushlari ishtirok etuvchi so‘zlardan aytishni topshiradi. O‘quvchilar 2 guruhga bo‘linib topshiriqni bajarishlari mumkin. Shunda kim so‘zni noto‘g‘ri aytsa o‘yindan chiqadi. Mavzu asosida so‘zni aytgan o‘quvchi shu so‘zni doskaga yozadi va imlosi bilan taqqoslanadi. Belgilangan vaqtda eng ko‘p to‘g‘ri so‘z aytgan o‘quvchi o‘yinda g‘olib hisoblanadi.

Shoh–davlat boshlig‘i, podshoh
Shox–novda, daraxtning shoxi.
Xil-xil – saralangan, tanlangan.
Hil-hil – ezilib pishgan.
Uhladi – xafa bo‘ldi, “uh” tortdi
Uxlamoq – uxlamoq, dam olmoq.
Hol – ahvol (hol)ni so‘radi
Xol – odam tanasida bo‘ladigan xol. [5.152].

Yuqorida tavsiya etgan pedagogik o‘yinlarimizni kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda tashkillashtirsak yanada samarali bo‘ladi. Har bir darsga ijodkorlik kayfiyatida yondashish darslarni qiziqarli o‘tishini ta’minlaydi. Zero, ona tili darslarini zamonaviy texnologiyalar asosida jahon andozalariga mos holda tashkillashtirish bugungi kun talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma, -Toshkent 2006.-160b.
2. Qosimova K. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. Darslik, -2009.- 352b.
3. To‘xliyev B. va boshq. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2006. 192b.
4. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat. Darslik, - Toshkent, “Iqtisod-Moliya”, 2011. -420b.

MEHNAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA SAYIDO NASAFIYNING KASB-HUNAR EGALARI TAVSIFI

A.S.Sayitov
Navoiy davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston

Annotatsiya: XVII asrda Buxoro xonligida yashab ijod etgan Sayido Nasafiyning “Shahrosho‘b” manzumasi mazmunidagi kasb-hunar egalari tavsifi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: shahrosho‘b, shahar, hayot, kasb-kor, hunarmand, ta'rif.

ОПИСАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ВЛАДЕЛЬЦЕВ САЙДО НАСАФИ В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРЫ ТРУДА

Аннотации : В статье описываются мастера профессии в контексте поэмы Сайидо Насафи «Шахрошоб», жившие и творившие в Бухарском ханстве в XVII веке.

Ключевые слова: город, город, жизнь, профессия, ремесленник, определение.

DESCRIPTION OF PROFESSIONAL OWNERS OF SAIDO NASAFI IN THE FORMATION OF A WORK CULTURE

Annotation : The article describes the masters of the profession in the context of the poem "Shahroshob" by Sayido Nasafi, who lived and worked in the Bukhara Khanate in the XVII century.

Keywords: city, city, life, profession, craftsman, definition

Mustaqilligimiz tufayli ko‘p asrlik milliy qadriyatlarimizni o‘rganish va ulardagi sara fikrlarni yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasi yo‘nalishiga singdirish imkoniyati tug‘ildi.

Yosh avlodni barkamol inson, yuksak axloq sohibi etib tarbiyalashda ma’naviy qadriyatlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. *Har bir millatning milliy merosi o‘sha millat tomonidan yaratilgan moddiy ma’naviy va boshqa barcha turdagi merosni qamrab oladi. Ularning ayrimlari umumjahon xarakterga ega bo‘lsa, ba’zilari shu millat e’tiboridagi meros sanaladi. Milliy meros millatning tafakkuri, dahosi, dunyoqarashi va yaratuvchilik salohiyatining mahsulidir. Milliy meros millat taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarida vujudga kelib millatning o‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan boylik hisoblanadi. SHuning uchun ham u millatning o‘z kelajagini yaratishda tayanch va tajriba manbai bo‘lib xizmat qiladi.*

Haqiqatan ham buyuk tarixiy-ma’naviy ildizlarga ega bo‘lgan davlatchiligimiz an’analarini davom ettirish, demokratik tamoyillarga asoslangan davlatni barpo etish jarayoni, jumladan jamiyat a’zolari hisoblanmish yoshlarni har tomonlama etuk, barkamol inson bo‘lib etishishlarida ajdodlar an’anasi va o‘tmish qadriyatlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda mustaqil mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy-ma’naviy yuksalishi yo‘lida xizmat qiladigan, ozod va obod, farovon hayot, jamiyatning poydevorini yaratadigan, har tomonlama etuk, sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalash hamda voyaga etkazish ta’lim sohasidagi islohotlarning asosini tashkil etadi. Bu islohotlar esa uzluksiz ta’lim tizimida olib boriladi.

Muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoevning milliy madaniy merosimizni o‘rganish va targ‘ib etish to‘g‘risidagi quyidagi so‘zlari ham diqqatga sazovordir: "Keyingi vaqtda men joylarda bo‘lib, hududlarimiz hayoti bilan yanada yaqindan tanishar ekanman, shunday bir fikrga ishonch hosil qilyapmanki, biz hali yurtimizni, uning o‘ziga xos tarixi, madaniyati, ulug‘ olimu ulamolarini, bebaho ma’naviy merosimizni to‘liq o‘rganganimiz yo‘q”.

Temuriylar davrida gullab-yashnagan ilm-fan, madaniyat to‘g‘risida qator fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ulardan keyingi Shayboniylar sulolasi davrida Movorounahrdagi ijtimoiy hayot, xususan ta’lim-tarbiya, madaniyat haqida esa pedagogikaga oid darsliklarda ma’lumotlar deyarli uchramaydi.

Vaholanki, XVI-XVII asrlarda badiiy madaniyat sohalari temuriylar davridagi boy madaniy merosga tayangan holda, yarim ko‘chmanchi shayboniylar turmush tarzi an’analari mujassamligida rivoj topdi. Movarounnahrning madaniy markazi bu asrda asta-sekin Samarqand shahridan shayboniylarning yangi markazi Buxoroga ko‘chdi. Bu erga davrning allomalari, etuk olimlari, shoirlari, musiqachilari, naqqosh-xattotlari, me’morlari, rassomlari va boshqa soha bilimdonlari to‘planib, zamonasiniig ilg‘or ijodiy va ilmiy salohiyatini ko‘rsatib turdi va badiiy madaniyat rivojiga muhim xissa ko‘shdi.

Ana shunday hassos, bilimdon shoirlardan biri Sayido Nasafiy hisoblanadi. Lirik turning deyarli barcha janrlaridagi asarlardan katta hajmdagi devon tuzgan, «Bahoriyot» (Hayvonotnoma), «Shahrosho‘b» (shahar hunarmandlari xususida manzuma)lar yaratgan sermahsul bu san’atkorning ijodini o‘rganish va nashr etishda Xoliq Mirzozoda, Sadriddin Ayniy, Abdug‘ani Mirzoev hamda Jo‘raxon SHanbezodalarning xizmati katta. Nasafiyning asarlari fors-tojik tilllarida yozilgan bo‘lganligi sababli uning ijodi O‘zbekistonda deyarli tadqiq etilmagan.

Bo‘lajak shoir Mirobid Sayidoi Nasafiy XVII asrning 30-yillarida Buxoroda hunarmand oilasida dunyoga keladi. Avlodlari qarshilik bo‘lgani uchun «Nasafiy» taxallusini qo‘llagan. Bolaligidanoq zehni o‘tkir bo‘lgan Mirobid besh yasharligidan mustaqil mutolaa, xat mashqiga berilib, tez orada savodini chiqaradi, yigitlik pallasida kimsasiz qolgani uchun Labi Hovuz masjidi huzuridagi Devonbegi madrasasidan bir hujra olib yashay boshlaydi. Madrasa tahsili jarayonidayoq u iste’dodli shoir sifatida ko‘zga tashlanadi. Natijada talabalar, shahar xunarmandlari orasida shuhrati qozonib, ko‘plab do‘stlar orttiradi. Ana shu do‘stlari uni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab yuradilar va davridagi barcha bilimlarni egallab, zamonasining eng peshqadam shoiri darajasiga etadi.

Sayido bir umr shahar ahli bilan xususan, hunarmandlar bilan hamkor hamnafas bo‘lgan san’atkordir. SHuning uchun ham shoir asarlarining etakchi mavzularidan biri oddiy mehnatkash xalq hayotini tasvirlashdir. Uning devonida kosiblar, turli kasb egalari, shaharning mayda-chuyda kundalik yumush bilan band aholiga bag‘ishlangan maxsus «hunarmandlar she’rlari» mavjud. Ularda shoir, bir tomondan, Buxoro amirligi zamonida mehnatkash xalq turmushining nechog‘lik ayanchli ekanligi haqqoniy in’ikos ettirsa, ikkinchi tomondan, masnaviylarga kirgan turli hajmdagi asarlarida batafsil tasvirlangan. Sayido masnaviylaridan sakkiztasi turli toifadagi xunarmandlar tavsifiga bagishlangan. «Xoja Mirzajon baqqol ta’rifida», «SHustagar xoja Nurxolmuhammad ta’rifida», «Baqqol xoja SHafe ta’rifida», «Nonvoylar ta’rifida», «Qassob ta’rifida», «Najjor ta’rifida» singari asarlar shular jumlasidandir.

Bunday masnaviylarda shoir oddiy mehnatkash xalqning hayotini ko‘tarinki bir ruhda tasvirlaydi, ularning jamiyat moddiy ne’matlarini yaratishdagi o‘rni, mavqeini alohida e’tirof etadi; ular jamiyat ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib, insonlarning kundalik ehtiyojlarini qondirishlariga qaramay g‘oyatda og‘ir ahvolda yashayotganlarini dard-hasrat bilan ko‘rsatadi. O‘zi ham to‘quvchilik kasbi bilan shug‘ullanib, ro‘zg‘orini arang tebratganidan noligan shoir ahvolini shunday tasvirlaydi:

Bahri ro‘zy mekunam bofandagy chun ankabut,
Xona, hamchun dorboz, az resmon boshad maro.

yoki,Dilakam zardob shud az chaq-chaqi bofandagy, CHashmakam purob shud az rishtahoi kandagy. Az sahar to shompochak mezanam dar chah-chahak,Qomatam dar tobshud az koru bori zindagy.

Bunday «hunarmandlar haqidagi she’rlar» O‘rta Osiyo xalqlari mumtoz adabiyotida mutlaqo o‘ziga xos hodisadir. Ma’lumki, o‘tmish mumtoz adabiyotimizda shaharlarda yashaydigan turli ijtimoiy tabaqalarni jamiyatda tutgan o‘rnini tasvirlash, ko‘pincha hukmron tabaqalar guruhlarining salbiy kirdikorlarini tanqid hamda fosh qiladigan asarlar yaratish an’anasi mavjud. Lekin faqat mehnatkash xalqning turli toifalarini nazm rishtasida bir silsilada tasvirlash - **shahroshub** yaratish ham Sayidoi Nasafiy qalamigagina xosdir.

To‘rt yuzu to‘rt baytdan iborat Sayido Nasafiy shahroshubida kasb egalariga **«dilbar», «nigor», «sho‘x», «moh», «but**» kabi lutf so‘zlar orqali murojaat qilinib:

angishtso‘z, arzankor,bandbof,biryongar,bog‘bon,bulbulboz,
gandumkor, gilemfuro‘sh, gulqand, gulxantob, gulfuro‘sh, darvozabon,dorboz,durudgar, zargar, zarsho‘y,
ispandso‘z, kalandgar, kallapaz,kafshdo‘z,kisado‘z, kishtibon, kordgar, kushtingir, kuhnado‘z,
qissaxon, qulfgar,mayfuro‘sh, maktabdor,mashido‘z, mashkob, misgar, morboz, mohigir, mo‘zado‘z, muhrkan, nonp
az,nonfuro‘sh, obrez, osiyobon,ohangar, oshpaz, pardozgar,paxtafuro‘sh, podabon, po‘stindo‘z,
savdogar,sartarosh, sobunpaz, so‘zangar, tamokufuro‘sh,tarozudor, tasmagar,toqido‘z, to‘qumdo‘z,
xamirgir, xishtrez,halvogar, hezumfuro‘sh,charmgar, chitgar,jomabof, jug‘rotfuro‘sh, shamshergar, sham’rez,sharbat
gar, shishagar, sholikor, yaxfuro‘sh kabi 227 nafar hunar egasi 2baytdan tortib 5 baytgacha bo‘lgan she’riy shakllarda ta’rif va tavsifetiladi, ba’zan engil yumor yoki lutf orqali mutoyibaga tortadi, ularningmoddiy ne’mat yaratish jarayonidagi kayfiyatlari tasvirlanadi.

Qyida Shahrosho‘bda keltirilgan ba’zi bir kasb egalariga ta’riflarni keltiramiz:

«maktabdor»:
SHo‘xi **maktabdor** pesh omadmarovaqtisahar,
Kard maktabxonaro az dastimanzeruzabar.
«maxmalfuro‘sh»:
Dilbari **maxmalfuro‘sh**imanmarobetob kard,
Xonaimanomadu dar ro‘yimaxmalxob kard.
«rextagar»:
Nigori **rextagar** ҷonam ob kardu gurext,
Qafoi o‘ chu davidam ba qolabi xud rext.
«sartarosh»:
Teg‘ bar kaf **sartarosh**amqasdikushtankardaast
Oshiqonrofo‘taizorӣbagardankardaast.
“sobunfuro‘sh”
Dilbari **sobunfuro‘sh** az man dili g‘amnok burd,
Xonaimanomadusobunixudropokburd.
«chitgar»:
On nigori **chitgar** omadshabe bar sarmaro,
Nestdigarorzuibolishubistarmaro.

Ko‘rinib turibdiki, har bir kasb egasiga o‘z kasbi xususiyatidan kelib chiqib noziklik bilan mohirona yondashilgan.

Boshqa shahroshublardan Sayido asarining farqi u asosan fardda yozilgan.Ushbu manzumalar mavzu doirasi va g‘oyaviy yo‘nalishi jihatidangina emas, balki ma’rifiy, tarixiy va etnografik nuqtai nazardan ham katta ahamiyatga molik. Zeroki, shoir shahroshublari orqali biz o‘sha davr Buxoro muzofotidagi hunar va hunarmandlar xususida, har bir kasbning o‘ziga xos murakkabliklari haqida mukammal ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Adabiyotlar

1. Sayidoi Nasafӣ. Asarhoi muntaxab. Bo muqaddima va tavzehoti H. SHanbezoda. – Dushanbe, 1977.
2. Sayidoi Nasafӣ. Kulliyoti osor. Matni ilmӣ va intiqodӣ bo muqaddima va tashehi Ҷobulho Dodalishoev.- Dushanbe, 1990.

ТАЪЛИМ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯГА БАРҲАМ БЕРИШ - УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ПОЙДЕВОРИНИНГ ГАРОВИДИР.

Латипов Сардор Шавкатович
НДПИ “Ижтимоий фанлар” кафедраси мустақил татқиқотчиси

Аннотация. Ушбу мақолада Янги Ўзбекистонда таълим соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотлар, коррупцияни олдини олишда очиқлик сиёсатини юритиш, ҳалоллик ҳамда холислик ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар. Таълим, Мактабгача таълим, Мактаб таълими, Олий таълим, фидокорлик, раҳбарлик, коррупция, иллат ва жамият.

ИСКЛЮЧЕНИЕ КОРРУПЦИИ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ – НА СТРАЖЕ ОСНОВ ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА.

Абстрактный. В данной статье говорится о реформах в сфере образования в Новом Узбекистане, политике открытости, честности и беспристрастности в предотвращении коррупции.

Ключевые слова. Образование, Дошкольное образование, Школьное образование, Высшее образование, Жертвование, Лидерство, Коррупция, Порок и общество.

ELIMINATING CORRUPTION IN THE FIELD OF EDUCATION – GUARDING THE FOUNDATIONS OF THE THIRD RENAISSANCE.

Abstract. This article talks about reforms in the field of education in New Uzbekistan, the policy of openness, honesty and impartiality in preventing corruption.

Keywords. Education, Early Childhood Education, School Education, Higher Education, Sacrifice, Leadership, Corruption, Vice and Society.

Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида белгиланган кенг кўламли вазифалар, халқпарвар давлатни барпо этиш, инсон ҳуқуқ ва манфаатлари, қадр-қимматини янада самарали таъминлаш каби мақсадлар мамлакатимиздаги туб ислоҳотларга мос янги конституциявий-ҳуқуқий маконни яратиш заруратини юзага келтирмоқда. Ўтган даврда жамиятимизнинг сиёсий, иқтисодий-ижтимоий ва маданий ҳаётида туб ўзгаришлар бўлди. Бу эса Бош қонунимизда “Янги Ўзбекистон - ижтимоий давлат” тамойилини мустаҳкамлаш, турли ислоҳотлар жараёнида инсон манфаатлари бош мезон бўлишини таъминлаш давлат ҳокимияти асосларини такомиллаштириш долзарблигини кўрсатмоқда.

Ўзбекистоннинг демократик янгиланиши, Учинчи Ренессанс пойдеворини яратиш давридаги энг долзарб ва энг масъулиятли вазифа ёшларнинг таълим-тарбиясини тўғри йўлга қўйиш, уларни билимига, салоҳиятига мос иш билан таъминлаб, самарали натижа олишдан иборатдир. Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг, Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқида қуйидагиларни такъидлаган: “Биз мактабгача таълим ва мактаб таълими, олий ва ўрта махсус таълим тизими ҳамда илмий-маданий муассасаларни бўлғуси Ренессанснинг тўрт узвий ҳалқаси, деб биламиз. Боғча тарбиячиси, мактаб муаллими, профессор-ўқитувчилар ва илмий-ижодий зиёлиларимизни эса янги Уйғониш даврининг тўрт таянч устуни, деб ҳисоблаймиз”[1]. Дарҳақиқат, таълим-тарбия сифатини жаҳон андозалари даражасига кўтариш ва ушбу жараёнда тизимда ютуқларга эришишда, ушбу соҳа вакилларининг фидоийлиги ва жонкуярлиги муҳим ўрин тутади.

*Таълим соҳасида коррупция ҳақида гапирадган бўлсак, о*хирги икки йил ичида Ўзбекистонда коррупция кўринишларининг камайишининг барқарор тенденцияси кузатилмоқда. Бу комплекс ва тизимли олдини олиш чоралари кўрилганининг натижаси бўлди. Бугунги кунда мамлакатда коррупция билан курашишнинг барча қонуний-ҳуқуқий воситалари яратилган. Коррупция билан кураш стратегияси тасдиқланди, «Коррупция билан кураш ҳақида» каби муҳим қонунлар қабул қилинди. Ўз навбатида, коррупцияни ижтимоий ҳодиса сифатида қабул қилмасликка қаратилган очиқ фикрлаш, ҳуқуқий ва молиявий маданиятни шакллантириш, шунингдек кундалик ҳаётда учрайдиган коррупцияни илдизи билан йўқ қилиш умумий вазифалардан бири бўлиб қолиши керак.

Таълимнинг энг қуйи бўғини, Мактабгача таълим соҳасида коррупциянинг олдини олиш борасида бир қанча ижобий ишлар амалга оширилди, хусусан болаларни мактабгача таълимга (боғча)га қуйишда рақамлаштиришни йўлга қуйилгани, бу соҳадаги дастлабки қадамлар бўлди. Айни вақтда фарзанд туғилгандан уни яшаш жойи бўйича ҳоҳлаган тарбия муассасасига навбатга қуйилиши, инсон омилининг йўқлиги соҳанинг ижобий ютуқлари сифатида қараш мумкин. Бундан ташқари, боғча тарбиячиси ва барча мутахассисларнинг очиқ танлов портали (АРГОС) орқали ишга қабул қилиниши, соҳани ҳақиқий билимли ва салоҳиятли кадрлар билан қамраб олаётганлиги, жойларда ўз самарасини бермоқда.

Мактабга биринчи синфга қабул учун ҳужжатларни топшириш онлайн навбат тизими – “qabul.maktab.uz” самарадорлиги, синфларда ўқувчилар сони нормадан ошиб кетиши ва мактаблардаги мавжуд муаммоларни олдини олди. Бу жараён албатта, кўплаб директорлар мактабга қабул қилиш, маълум бир белгиланган кунларда ва қисқа муддатларда ўтказилишини ҳамда ота-оналар ҳужжатларни режали тарзда топширишини ва “боламни мактабга қабул қилинг” деб, директорлар ёки бошқа маъсулларнинг олдига бормаслигини, шуни таъкидлаш лозимки, коррупциянинг турли майда кўринишлари олди олинишига сабаб бўлди десак, айни ҳақиқат бўлади.

Олий таълим соҳасидаги коррупциянинг асосий ва кенг тарқалган хавф-хатарлари, яъни манфаатлар тўқнашуви, плагиатдан фойдаланиш, ўқишга қабул қилиш ва билимларни баҳолашдаги порахўрлик ёки таниш-билишлик ҳолатлари, бюджет маблағларини талон-торож қилиш ва бошқа масалаларни атрофлича ўрганилиб, уларни келтириб чиқарувчи сабаб ва шарт-шароитларни таҳлил қилинди ҳамда уни олдини олиш бўйича чора-тадбирлар амалга оширилди. Олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилиш жараёнининг очиқ ва шаффоф тизими йўлга қўйилди. Абитуриентлар онлайн шаклда ҳужжат топширишлари, тест топшириш ҳудудини ихтиёрий белгилашлари ҳамда 5 тагача таълим йўналишини танлашлари билан боғлиқ имкониятларнинг берилиши бу борадаги коррупцион омилларни бартараф қилди.

Шунингдек, ўқитиш ва баҳолашнинг халқаро стандартларига ўтилди. Таълим жараёнида кредит-модуль тизими жорий қилинди. Олий таълим тизимини бошқаришнинг рақамлаштирилган тизими “HEMIS” дастурининг тадбиқ этилиши натижасида фанларни ўзлаштириш ва баҳолаш жараёнларида профессор-ўқитувчи ва талабалар ўртасидаги муносабатда инсон омили аралашувининг олди олинди. Дастур орқали талаба ва профессор-ўқитувчилар контингенти ва уларнинг ҳаракати тўғрисида аниқ маълумотга эга бўлиш имконияти яратилди. Олий таълим битирувчилари диплом олиш жараёнида сарсонгарчилик, сансалорлик, турли коррупсиоген ҳолатларга тушмасликлари учун уларга “HEMIS” ахборот тизими орқали дипломнинг электрон шаклини юклаб олиш имконияти яратилди.

Хуллас, Янги Ўзбекистонда таълим тизимида кейинги йилларда бошлаб юборилган коррупциянинг олдини олиш ва унинг ҳар қандай кўринишларига қарши муросасиз курашиш ишлари қисқа фурсатда ўз самарасини бера бошлади. Таълим тизими томирларида бугун соғлом ва тоза қон оқа бошлади. Лекин, бу ҳали етарли эмас, коррупция ҳам осонликча жон бермайди. Бу борадаги кураш бир дақиқа бўлсин тўхтамаслиги керак, деб ҳисоблайман.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АКТИВНЫХ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Фефелова Г.Р.
Кафедра русского языка и литературы, НавГПИ Узбекистон

Аннотация:Навыки грамотной культурной речи напрямую зависят от качественного образовательного процесса. Необходимо в определенной мере дополнять и расширять новые подходы в преподавании русского языка, специальными целями которого является формирование языковой, коммуникативной и лингвистической компетентности учащихся.

Ключевые слова:Русский язык, культура, процесс обучения, приемы и методы обучения, интерактивность, дидактика, информационные технологии.

RUS TILINI O‘QITISH JARAYONIDA FAOL USUL VA USULLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Barkamol madaniy nutq qobiliyatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqori sifatli o‘quv jarayoniga bog‘liq. Shuning uchun rus tilini o‘qitishda yangi yondashuvlarni ma'lum darajada to‘ldirish va kengaytirish kerak, ularning maxsus maqsadlari talabalarning til, kommunikativ va lingvistik kompetentsiyasini shakllantirishdir.

Kalit so‘zlar: Rus tili, madaniyati, o‘quv jarayoni, o‘qitish usullari va usullari, interaktivlik, didaktika, axborot texnologiyalari.

USING ACTIVE METHODS AND TECHNIQUES IN THE PROCESS OF TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE

Annotation: The skills of literate cultural speech directly depend on the quality of the educational process. Therefore, it is necessary to supplement and expand new approaches to teaching the Russian language to a certain extent, the special goals of which are the formation of linguistic, communicative and linguistic competence of students.

Keywords: Russian language, culture, learning process, teaching techniques and methods, interactivity, didactics, information technology.

Язык народа – историческая память, отражающая в себе его культуру, быт и духовность. Тысячелетняя духовная культура русского народа нашла свое отражение не только в древнерусских летописях и былинах, но также и в произведениях современной художественной литературы. Поэтому язык является основной связующей составляющей многих поколений.

Умение пользоваться всем многообразием языка, знать его стилистические особенности и выразительные средства – это та цель, к которой необходимо стремиться каждому носителю языка. Ни для кого не секрет, что за последние десятилетия язык претерпел значительные изменения. Современная устная и письменная речь упрощается и огрубляется. Художественная литература теряет свое многообразие и испытывает тенденции к безликости и стандартности.

Овладение культурой речи, языкового чутья возможно только в процессе творческого взаимодействия между педагогом и учащимся. Поэтому необходимо в определенной мере дополнять и расширять новые подходы в преподавании русского языка, специальными целями которого является формирование языковой, коммуникативной и лингвистической компетентности учащихся.

Существует множество разнообразных приемов организации занятий, которые помогают учащимся проявить свои способности. Один из эффективных приемов - интерактивные методы обучения. Интерактивное обучение - способ познания, основанный на диалоговых формах взаимодействия участников образовательного процесса; обучение, погруженное в общение, в ходе которого у обучающихся формируются навыки совместной деятельности.

Процесс обучения при интерактивном взаимодействии зачастую строится в парах и малых группах. Групповая форма обучения одновременно решает три основные задачи: познавательную, которая связана с непосредственной учебной ситуацией; коммуникативно-развивающую, в процессе которой вырабатываются основные навыки общения внутри и за пределами данной группы; социально-ориентационную, воспитывающую гражданские качества, необходимые для адекватной социализации учащегося в сообществе. [2: 29]

Внедрение в учебный процесс технологии критического мышления создает качественные условия для творческой реализации учащихся. Технология критического мышления в последние годы применяется наиболее активно именно в области гуманитарных дисциплин. Основа данной технологии — трёхфазовая структура урока (вызов, осмысление, рефлексия), которая повторяет процесс восприятия информации.

Объём изучаемого материала стремительно растёт. Методы заучивания, текстуального запоминания являются устаревшими и формирует негативное отношение к учению. Если теоретический материал сгруппирован в блоки и опорные конспекты, то объём запоминаемой информации значительно увеличивается.

Подбор дидактического материала также является значимой частью в формировании интереса к занятиям русского языка. Основными критериями подбора дидактического материала являются доступность и увлекательность.

Неотъемлемой частью современного образовательного процесса стали информационно-коммуникационные технологии. Сегодня педагоги имеют возможность применять на уроке самые разные медиасредства: компьютер, проектор, экран, интерактивную доску, обучающие программы. После таких занятий изученный материал остаётся у учащихся в памяти как яркий образ и помогает педагогу стимулировать познавательную активность учащегося.

Еще одним из эффективных методов является исследовательская деятельность. Данный метод позволяет педагогу не столько учить, сколько помогать учащемуся учиться самому.

Связи методики русского языка с дидактикой проходят по нескольким линиям. Первая - это определение применимости дидактических принципов в методике. Так, принцип воспитывающего обучения – общедидактический принцип - в методике родного русского языка интерпретируется следующим образом: во-первых, в отборе языкового материала воспитывающего характера - слов, их сочетаний текстов. Во-вторых, изучение закономерностей и структуры уровней языка всей его системы в её развитии формирует лингвистическое мировоззрение и развивает логическое мышление учащихся. В-третьих, развивая культуру речи школьников, воспитывая любовь к русскому языку, к его красоте и богатству, показывая его роль среди языков мира, школа воспитывает у учащихся патриотизм. В-четвертых, самовыражение учащегося - подростка, юноши - в сочинении, в рассказе формирует его самосознание, его личностные качества, его жизненную позицию. Принцип связи теории с практикой в методике русского языка понимается как такое обучение языку, которое приводит ученика к его использованию в жизни - к наилучшему, целесообразному вы бору языковых средств, к грамотному письму, к свободному и точному выражению своих мыслей. [1: 9]

Одним из наиболее распространенных видов исследовательской деятельности является метод проектов. Проект - это деятельность одного учащегося или группы, в которой обучающиеся самостоятельны и активны на протяжении всего цикла, сами придумывают и планируют работу, находят необходимые ресурсы, обычно из других учебных областей. Завершается работа над проектом вполне реальным, осязаемым практическим результатом.

Применение Интернета в образовательном процессе в последние десятилетия стало нормой. Компьютерные сети стали широко использоваться в учебных целях в рамках разных образовательных подходов. И учащиеся, и педагоги смогли обмениваться информацией в режиме, не зависящем от времени и места. Новые информационные технологии освободили человеческий разум для более креативных задач, что способствует развитию личности. Важными положительными моментами использования сети является возможность актуализировать материал собственных учебников; получение дополнительной информации; самоконтроль; осуществление контактов между разными членами группы; работа с гипертекстами, аудио- и видеофайлами и блогами.

Как показывает практика без новых информационных технологий уже невозможно представить себе современное образовательное учреждение. Следовательно, для педагога очень важно своевременно овладевать знаниями в области компьютерных технологий.

Говоря о недостатках работы с применением Интернета, необходимо отметить компетентность предоставляемой информации и ненадежность источников. Поэтому так важно наличие критического мышления у учащихся, которое невозможно сформировать, опираясь исключительно на инновационные методы обучения. Сочетание в образовательном процессе традиционных и инновационных методов является наиболее эффективным путем обучения.

Качество проводимых занятий целиком зависит от умения заинтересовать и увлечь учащегося. Современное информационное пространство предоставляет огромное количество материала по совершенствованию образовательного процесса. Профессионализм педагога в этом случае становится важной и неотъемлемой частью.

Использованная литература

1. Баранов М.Т., Ипполитова Н.А., Ладыженская Т.А., Львов М.Р. Методика преподавания русского языка школе. Учебник для студ. высш. пед. учеб. заведений, - Москва, 2001. – 368 с.
2. Рудестам К.Р. Групповая психотерапия. Серия «Мастера психологии», – Спб., 1998. – 384 с.

BOLA NUTQINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Eshonqulova Malika Zayniddin qizi
Turon Zarmed universiteti boshlang‘ich ta’lim, pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolaning ona tilini o‘rganishning asosiy tushunchalari, og‘zaki nutqgacha bo‘lgan bosqichlari haqida ma’lumotlar, qiyosiy tahlillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: rivojlanish, og‘zaki nutq, psixolingvistika, kommunikativlik, ona tili, rivojlanish, aqliy faoliyat, yoshlik

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ РЕЧИ РЕБЕНКА

Аннотация: В статье представлена информация об основных понятиях изучения родного языка ребенка, этапах до устной речи, а также проведен сравнительный анализ.
Ключевые слова: развитие, устная речь, психолингвистика, коммуникативность, родной язык, развитие, мыслительная деятельность, молодежь.

FACTORS AFFECTING THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF CHILD SPEECH

Abstract: This article provides information on the main concepts of learning a child's mother tongue, the stages up to oral speech, and comparative analysis.
Key words: development, oral speech, psycholinguistics, communicative, mother tongue, development, mental activity, youth

Bola nutqining rivojlanishi nafaqat og‘zaki nutqda, balki, og‘zaki nutqgacha bo‘lgan bosqichda ham alohida o‘ringa ega. Bola tezda o‘z til hamjamiyatining to‘liq a’zosiga aylanadi, u o‘zi uchun cheksiz miqdordagi yangi, ammo shunga qaramay, o‘zlashtirgan tilda muhim jumlalarni ishlab chiqarish va tushunishga qodir. Shuni ta’kidlash kerakki, bolaning nutqini o‘zlashtirish jarayoni kattalarning ikkinchi tilni o‘zlashtirish jarayonidan tubdan farq qiladi.

Hayotning birinchi yili, bola hali gapirmasligiga qaramay, nutqning shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan miya tizimlari va aqliy faoliyatni rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Og‘zaki nutq ovozning mavjudligini taxmin qiladi va bolaning hayotining birinchi haftalari va oylarida yig‘lashi nutqni rivojlantirishda qo‘llaniladigan tug‘ma asab mexanizmlarining holatini tavsiflaydi. Sog‘lom bolaning yig‘lashi baland va uzoq ovoz, qisqa nafas olish va cho‘zilganligi bilan tavsiflanadi. Tug‘ilgandan ko‘p o‘tmay, yig‘lash bolaning ahvoliga qarab turli xil rangga ega bo‘ladi. Shunday qilib, “ochlik” faryodi bolaning sovishi yoki boshqa noqulaylik holatlari (tug‘ma tuyg‘ular) bilan bog‘liq bo‘lgan faryoddan farq qiladi. Qichqiriq o‘zining kommunikativ mazmunida muhim bo‘lgan birinchi intonatsiya bo‘lib, keyinchalik norozilik belgisi sifatida rasmiylashtiriladi.

Hayotning 2-3 oyiga kelib, bolaning yig‘lashi intonatsiyani sezilarli darajada boyitadi. Qichqiriqda qo‘l va oyoqlarning muvofiqlashtirilmagan harakatlari kuchayadi. Bu yoshdan boshlab, bola u bilan aloqani to‘xtatish, haddan tashqari qo‘zg‘alish uchun yorqin narsalarni olib tashlash, ayniqsa uxlab qolishdan oldin yig‘lash bilan reaksiyaga kirisha boshlaydi. Yig‘ining intonatsion boyitishi bolaning muloqot funktsiyasini shakllantira boshlaganligini ko‘rsatadi. Qichqiriqni intensiv intonatsion boyitish davri vosita ko‘nikmalarini rivojlantirishning ma’lum bir bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bola boshini tik tuta boshlaydi, qo‘lini echib, siqib qo‘yadi, qo‘liga qo‘yilgan narsani ushlab turadi. Shu bilan birga, bola nutq tovushlarini tinglashni boshlaydi, tovush manbasini qidiradi, boshini karnayga qaratadi, diqqatini kattalarning yuziga, lablariga qaratadi.

Boshqalarning nutqini tushunishning rivojlanish vaqti va sur’ati og‘zaki nutqni shakllantirish vaqti va tezligidan farq qiladi. 7-8 oyligida bolalar tegishli imo-ishoralar va yuz ifodalari bilan birga keladigan so‘zlar va iboralarga yetarli darajada javob bera boshlaydilar. Masalan, bola: “O‘yinchoq qayerda?”, “Onang qayerda?” degan savolga javoban boshini va ko‘zlarini aylantiradi. Ya’ni, bu vaqtda so‘zning tovush tasviri bilan muayyan vaziyatdagi narsa o‘rtasidagi munosabat rivojlana boshlaydi. Kattalar tomonidan so‘zlarni ob’ektni ko‘rsatish bilan birgalikda takroriy takrorlash bilan bolada asta-sekin ob’ektlarning vizual tasviri va tovushli so‘z o‘rtasida bog‘liqlik shakllanadi. Shunday qilib, eshitilgan so‘zni tushunish bola uni talaffuz qilishdan ancha oldin o‘rnatiladi. Ta’sirchan lug‘atning ekspressiv lug‘atdan sezilarli ustunligida namoyon bo‘lgan naqsh insonda umr bo‘yi qoladi.

Birinchi so‘zlar hayotning birinchi yilining oxirida paydo bo‘ladi. Bu davr psixomotor rivojlanishining yangi bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bola birinchi qadamlarni qo‘yishni boshlaydi, qisqa vaqt ichida u yurishni o‘rganadi. Qo‘llarning faol manipulyativ faoliyati rivojlanadi.

Bu yoshdagi bolaning nutq faoliyati vaziyatga bog‘liq bo‘lib, bolaning predmetli-amaliy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq va kattalarning muloqotdagi hissiy ishtirokiga sezilarli darajada bog‘liq. Bolaning so‘zlarning talaffuzi odatda hamroh bo‘ladi.

Imo-ishora va yuz ifodalari. Maktabgacha yoshdagi faol lug‘atni o‘zlashtirish tezligi individual ravishda davom etadi. Lug‘at hayotning 2-yilining so‘nggi oylarida ayniqsa tez to‘ldiriladi. Tadqiqotchilar ushbu davrda bola tomonidan ishlatiladigan so‘zlar soni bo‘yicha turli xil ma’lumotlarni berishadi, bu nutqning rivojlanish sur’atida kattaroq individuallikni ko‘rsatadi.

Hayotning ikkinchi yilining oxiriga kelib, elementar frazeologik nutq shakllanadi. Uning paydo bo‘lish vaqtida ham katta individual farqlar mavjud. Bu farqlar ko‘pgina sabablarga bog‘liq: genetik rivojlanish dasturi, aql, eshitish holati, tarbiya sharoitlari va boshqalar.

Boshlang‘ich frazeologik nutq, qoida tariqasida, talablarni ifodalovchi 2-3 so‘zni o‘z ichiga oladi (“ona”, “ber”, “dada”, “bor”). Agar 2,5 yoshga to‘lgan bolada elementar frazeologik nutq shakllanmasa, uning nutqining rivojlanish sur’ati me’yordan orqada qola boshlaydi, deb ishoniladi. Hayotning ikkinchi yilining oxiridagi iboralar asosan tasdiq shaklida talaffuz qilinishi va maxsus so‘z tartibiga ega bo‘lishi bilan tavsiflanadi, unda “asosiy” so‘z birinchi o‘rinda turadi. Xuddi shu yoshda bolalar o‘yinchoqlar, rasmlar, uy hayvonlari bilan gaplasha boshlaydilar. Ikki yoshga kelib nutq kattalar bilan muloqotning asosiy vositasiga aylanadi. Imo-ishoralar va mimikalar tili asta-sekin so‘na boshlaydi.

Bolaning nutqining rivojlanishi u kattalar bilan individual muloqot qilganda optimal shakllanadi. Bola o‘z hayotida nafaqat hissiy ishtirokini his qilishi kerak, balki, doimo so‘zlovchining yuzini yaqin masofada ko‘rishi kerak. Bola bilan og‘zaki muloqotning yetishmasligi uning nafaqat nutqida, balki umumiy aqliy rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir qiladi. Shunday ekan, bolaning ta’lim - tarbiyasi bilan u dunyoga kelgan vaqtdan shug‘ullanmoq lozim.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, bolalarning og‘zaki nutqi shakllanishi atrof – muhit, unga ta’sir etuvchi omillar bilan bir qatorda uni tarbiyalovchi shaxslar: ota-ona, ustoz-murabbiylarga ham birdek bog‘liq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.A.Xaitov “Boshlang‘ich yoshidagi bolalar nutqini o‘stirishda ontogenez-psixolingvistikaning ahamiyati” https://pedagoglar.uz/index.php/ped/issue/view/155

2. “Buxoro bolalar folklorshunosligi asoschisi” Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish muammolari: innovatsiya, raqamli texnologiyalar va xalqaro tajribalar” respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Buxoro, 2022. https: //doi.org/10.5281/zenodo.6567387

3. “Bolajon” tayanch dasturi. T.: 2010

4. L.Mirjalolova. Bolalarni gapirtirib o`ynaladigan o`yinlarga nutqiy jihatdan tayyorlash. Toshkent: 2005

5. BondarevichA.A.”Bolalar nutqida morfonologik o‘zgarishlar:.Sankt-Peterburg.2010.b-18-24.

6. Makaev E. A., Kubryakova E. S. Morfonologiya va uning birliklari holati to‘g‘risida tavsiflar // Tilning grammatik tuzilishining turli darajadagi birliklarivaularning o‘zarota’siri.-M.,1969yil.b-132.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Abdiyeva Qo‘ysintosh Azadovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston

Annontatsiya: Ushbu maqolada ta’lim tizimidagi islohotlar, kompetensiya va boshlang‘ich sinfona tili darslarida o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning afzalliklari yuzasidan so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, ta’lim-tarbiya, pedagog, tayanch kompetensiya.

Аннотация: В этой статье обсуждаются реформы в системе образования, компетенции и преимущества развития основных компетенций у учащихся на уроках родного языка начальной школы.

Ключевые слова: компетентность, компетентностный подход, образование, педагог, базовая компетентность.

Annotation: This article discusses reforms in the education system, competencies, and the benefits of building core competencies in students in primary school mother tongue classes.

Keywords: competence, competency approach, education, pedagogue, basic competence.

O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sifati, jumladan, boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirish, malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, o‘quv uslubiy ta’minotini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar natijasida boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitish, modulli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash, o‘quv materiallarini strukturalashtirish, ta’lim mazmunini ilmiy tashkil etish va fanlarni o‘zlashtirishda kompetensiyadan foydalanish ta’lim samarasini yuksaltirmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlaridan birida shunday deydi: “Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e’tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, jismonan va ma’nan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, ularning qobiliyat va iste’dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda”.

Darhaqiqat, mamlakatimizda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar va islohotlar, tabiiyki, ta’limda kompetentli yondashuvni talab etmoqda. Ta’limda kompetensiyaviy yondoshuv deyilganda, o‘quvchilarning shaxsiy, kasbiy vaijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turlixildagi malakalarini samarali ravishda qo‘llashga o‘rgatish tusuniladi. Shuningdek, bunday yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqil, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umum-madaniy ko‘nikmalarni shakllantiradi. O‘qituvchilar o‘z faoliyatida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini topishi, eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishlari va darslar davomida o‘quvchilar ongiga singdirib borishlari lozim. Inson o‘z hayotida shaxsiy,ijtimoiy,iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi,eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh kadr bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Kompetensiyaga ko‘plab ta’riflar berilgan bo‘lib, ularni qiyosiy tahlil qilish natijasida mutaxassislar quyidagicha xulosalarga kelishdi:

1. Kompetensiya – ta’lim maqsadi, uning mazmuni, natijasi va vositasi.

2. Kompetensiya – individning turli xil vazifalarni bajara olish qobiliyati bo‘lib, aniq bir kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi.

3. Kompetentlik – aniq bir kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaganlik xususiyati.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o‘qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, har bir umumta’lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Kompetensiyalar o‘quvchilarni turli ko‘nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga xizmat qiladi, shuningdek, bunday kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqil, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik,mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinfona tili darslarida o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, umuman olganda hamma fanlarda barcha kompetensiyalarni o‘quvchilarda shakllantirish, ularni kelajakda o‘z faoliyatlari jarayonida, oilada, jamiyatda va barcha jabhalarda o‘z o‘rnini topishga xizmat qiladi deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Ta’lim sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta’limi tizimini yanada rivojlantirish va oliy ta’limning bakalavr yo‘nalishiga qabul bo‘yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan” yig‘ilishdagi nutqidan.
2. Boltayeva B.JDPI. F.f.d (PhD)..” Boshlang‘ich sinflarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish” maqolasidan
3. Anapiyayev F.“Kompetensiyaviy yondashuv: muammo va yechimlar” qo‘llanma
4. MuslimovN. “ Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv qo‘llanma
5. https://uz.wikipedia https://edu.uz

ЭТИМОЛОГИК ЁНДАШУВ АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШИНИ ЎСТИРИШ САМАРАДОРЛИГИ

Sobirova Noiba Zafar qizi

Qarshi davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi doktoranti,O‘zbekiston

Annotatsiya: ushbu maqolada она тилимизнинг миллатимиз қадрияти эканлиги, бошланғич синф ўқувчилари мантиқий фикрлашини ўстиришда она тилимизнинг аҳамияти, этимологик ёндашув асосида ўқувчиларнинг мантиқий фикрлашини ўстириш йўллари баён қилинган. Шунингдек, мақолада МДҲ мамлакатлари тадқиқотчи олимларининг этимологик ёндашуга оид фикр-мулоҳазалари ҳам келтириб ўтилган.

Kalit so‘zlar: mantiqiy fikrlash, aqliy operatsiya, analiz, sintez, tafakkur, fikrlash, mustaqil fikrlash, yangilik, innovatsiya, tanqidiy fikrlash.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ЭТИМОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация: В данной статье описывается то, что родной язык является ценностью нашей нации, значение родного языка в развитии логического мышления учащихся младших классов, а также способы развития логического мышления учащихся на основе этимологического подхода. В статье также упоминаются мнения ученых-исследователей стран СНГ относительно этимологического подхода.

Ключевые слова: логическое мышление, мыслительная операция, анализ, синтез, мышление, рассуждение, самостоятельное мышление, новаторство, новаторство, критическое мышление.

EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STUDENTS' LOGICAL THINKING BASED ON THE ETYMOLOGICAL APPROACH

Abstract: This article describes that the native language is a value of our nation, the importance of the native language in the development of logical thinking of primary school students, as well as ways to develop logical thinking of students based on the etymological approach. The article also mentions the opinions of research scientists from the CIS countries regarding the etymological approach.
Key words: logical thinking, mental operation, analysis, synthesis, thinking, reasoning, independent thinking, innovation, innovation, critical thinking.

Davlatimiz rahbari va hukumatimiz keyingi yillarda ona tilimizning nufuzini oshirish maqsadida bir qancha meyoriy hujjatlarni qabul qildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqidagi” gi qonunni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4479-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda ona tilimiz haqida quyidagi fikrlar bildirib o‘tilgan: “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida g‘oyat muhim o‘rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir [1] .

Darhaqiqat, ona tilimiz xalqimiz uchun buyuk qadriyat hisoblanadi, negaki u barchamizga shonli tariximiz, buyuk ajdodlarimiz, porloq kelajagimiz, Ona Vatanimiz go‘zalligi, xalqimizning tantiligi, donoligi, mehnatkash va mehribonligi haqida ma’lumot beradi. Shu boisdan xalqimiz tomonidan “Til-millat ko‘rki!”-deb bekorga aytilmagan. Ona tilimizda milliyligimiz ufurib turadi, qayerda bo‘lmaylik tilimizga ko‘ra bizni o‘zbek millatiga mansub ekanligimizni anglab olishadi.

Quvonarlisi shuki, hozirgi kunga kelib, yurtimizdagi barcha ta’lim muassasalari, tashkilotlar, davlat boshqaruv organlari, zavod va fabrikalar o‘z faoliyatlarini ona tilida olib bormoqda. Buning natijasida esa xalqimizning anchagina savodxonlik darajasi ham ortdi.

Barchamizga ma’lumki, kishilarning nutqiy, imloviy va boshqa savodxonliklari boshlang‘ich ta’lim jarayonida shakllantiriladi. Bir so‘z bilan aytganda boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri, o‘quvchilarning savodxonligini o‘stirishdir. Bu jarayonda esa etimologik yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Demak, so‘zlarning kelib chiqish tarixi, ularning yasalish jarayoni, izohi hamda to‘g‘ri yozilish jarayonini o‘rgatadigan yondashuv - etimologik yondashuv deyiladi. Etimologik yondashuv asosida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi va tafakkurri o‘sib boradi.

Rus tadqiqotchi olimlaridan O. N. Kondratyeva “Этимологический анализ на уроках русского языка как одно из средств повышения орфографической грамотности учащихся среднего звена” nomli maqolasida etimologik tahlil haqida quyidagicha fikrlarni bildirib o‘tadi: “Darsda etimologik tahlil va uning elementlaridan foydalanish rus tilini o‘rganishga doimiy qiziqish uyg‘otish imkonini beradi, chunki o‘qituvchi tomonidan taklif qilinadigan qiziqarli mashqlar lingvistik qobiliyatni rivojlantiradi, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, yodlashni osonlashtiradi va til o‘rganishga nisbatan talablarini to‘ldiradi“ [3; 119].

Tadqiqotchi O. N. Kondratyeva o‘z tadqiqot ishida tarixiy so‘zlardan qanday qilib yangi so‘zlar hosil qilganligini va ular qanday ma’no anglatishini o‘quvchilarga turli usullar yordamida o‘rgatish metodikasini ishlab chiqadi.

Quyida biz ham o‘zbek tilidagi ayrim so‘zlarni etimologik yondashuv asosida ўқувчилар билан бирга tahlil qilishga harakat qilamiz. Masalan, Bosh - o‘zbekcha — “Tananing bo‘yindan yuqori (old) qismida joylashgan a’zo‘”.

Buning uchun o‘qituvchi doska markaziga “Bosh (o‘zbekcha)” so‘zini yozib qo‘yadi va bir nechta strelkalarni yo‘naltiradi, o‘quvchilar navbat bilan har bir strelka markaziga “bosh” so‘zi ishtirok etgan so‘zlarni yozadilar. Masalan, quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

Bosh (o‘zbekcha)



Boshliq Boshqotirma Boshoq Boshalang Boshmaldoq

Navbatdagi vazifa: o‘quvchilar doskaga yozgan so‘zlarini izohlab beradilar. Bunda ular izohli lo‘g‘atlardan foydlanishlari mumkin.

Boshliq — rahbar, jamoa boshlig‘i

Boshqotirma — jumboq, yechimini kutayotgan muammo

Boshoq — to‘pmeva xili, asosan donli o‘simliklarga xos.

Boshalang — bosh kiyimsiz.

Boshmaldoq — panjadagi birinchi yo‘g‘on barmoq.

Xuddi shunday “Qat” – eski turkiy so‘z — qatlam so‘zini ham etimologik yondashuv asosida tahlil qilib chiqamiz.

Qat (eski turkiy so‘z)



Qatlam Qatig‘ Qatlama Qatnash Qattiq Qatqaloq

Qatlam — ketmaket joylashish

Qatiq—sut mahsuloti bo‘lib, tabiiy sutdan uni maxsus bakteriyalar yordamida achitish orqali olinadi.

Qatlama — oddiy xamirdan yupqa yoyib, yog‘da pishiriladigan taom.

Qatnash — ishtirok etish.

Qattiq — mahkam, mustahkam, pishiq.

Qatqaloq — kuchli yog‘inlar va sug‘orishdan so‘ng tuproq betida hosil bo‘ladigan qattiq qatlam.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini o‘stirishda etimologik yondashuvdan foydalanish natijasida boshlang‘ich ta’lim samaradorligi yanada ortadi. Chunki, o‘quvchilar bu yoshda o‘ta qiziquvchan bo‘ladilar, tevarak-atrofdagi barcha narsa va predmetlarning nomini, so‘zlarning mazmunini bilishni istaydilar. Ularning bu kabi qiziqish va istaklarini turli yo‘llar va yondashuvlar asosida ta’minlab borish pedagogik jarayon oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги ПҚ-4479-сонли қарори.

2. Каримкулова, Ф., & Орипова, Н. (2022). Tafakkur jarayonlari va uning shakllanish bosqichlari. Общество и инновации, 3(3/S), 215-221.

3. Кондратьева О. Н. Этимологический анализ на уроках русского языка как одно из средств повышения орфографической грамотности учащихся среднего звена. Кемерово, Россия. Филологический класс, 2(52)/2018 г. 119 стр.

4. Педагогика. Энциклопедия. III жилд. жамоа // Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриѐти, 2017. – 400 б.

5.Сафарова Р. Ўқувчиларнинг мантиқий фикрлаш кўникмаларини ривожлантиришнинг тарихий педагогик манбалари ва омиллари. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 5 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. 631 б.

6. Худойназаров Э. Ўқувчиларида мантиқий фикрлашни ривожлантиришда синфдан ташқари ишлардан фойдаланишнинг методик имкониятлари. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 5 | 2022.

7.Худойназаров Э.М. Бошланғич синф ўқувчиларининг мантиқий фикрлашини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш. Фал. ф. д…дисс. – Термиз., 2022. –152 б.

8.Зайнитдинова М. Математика дарсларида ўқувчиларнинг мантиқий фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришга инновацион ёндашув. Образование и инновационные исследования (2022 год №5), 195 б.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KREATIVLIGINI SHAKLLANTIRISHDA UNIVERSAL TA’LIM FAOLIYATLARINING O’RNI

Abdullayev A’zimjon Abduvali o‘g‘li

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti, Ozbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ faoliyatini shakllantirishda universal ta'lim faoliyatlarining o‘rni va ahamiyati, ularning turlari va yoshga bog‘liq rivojlanish xususiyatlari haqida bir necha olimlar fikriga asoslangan yondashuvlar bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: Universal ta’lim faoliyati, boshlang‘ich ta'lim, ijodiy faoliyat, kreativ faoliyat, kognitiv faoliyat, o‘z-o‘zini rivojlantirish, rejalashtirish, prognozlash (bashoratlash).

РОЛЬ УНИВЕРСАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ В ФОРМИРОВАНИИ КРЕАТИВНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье описаны подходы, основанные на мнении ряда ученых о роли и значении универсальных учебных действий в формировании творческой активности младших школьников, ее видах и возрастных особенностях развития.

Ключевые слова: универсальные учебные действия, начальное образование, творческая деятельность, креативная деятельность, познавательная деятельность, саморазвитие, планирование, прогнозирование.

THE ROLE OF UNIVERSAL EDUCATIONAL ACTIVITIES IN THE FORMATION OF CREATIVITY IN PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation. This article describes approaches based on the opinions of a number of scientists about the role and significance of universal educational activities in the formation of creative activity of primary schoolchildren, its types and age-related characteristics of development.

Key words: universal educational activities, primary education, creative activity, creative activity, cognitive activity, self-development, planning, forecasting.

Mamlakatimizning ertangi kuni va kelajagi uning gullab-yashnashi hamda rivojlanishi asosan o‘sib kelayotgan yosh avlodning sog‘lom, har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo‘lib voyaga yetishiga bevosita bog‘liqdir. Bu esa vatanimiz kelajagi bo‘lgan farzandlarimizning jismoniy, aqliy, ruhiy va ma’naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo qiladi. Bu ishlarni amalga oshirishda mustaqillikning dastlabki yillarida qabul qilingan ta’lim va tarbiyaga oid bo‘lgan bir qator Qonun, Farmon hamda Qarorlar katta ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy modeli” talablari o‘quvchilarning yosh bilan bog‘liq imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim mazmuni va hajmini belgilash hamda ta’lim muassasalarining ijtimoiy vazifasini ko‘zda tutib, avvalo, mamlakatimiz aholisining jismoniy, ruhiy, aqliy salohiyatini rivojlantirish, jamiyatning madaniy, ahloqiy qirralarini chuqurlashtirish, aholining yashash tarzini yaxshilashga qaratilgan. Shuning uchun ham o‘quvchilarning ijodiy faoliyati, har bir ishga kreativ yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Bugun dunyoda yuz berayotgan to‘rtinchi sanoat tamaddunining dvigateli - harakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha “create”dan olingan bo‘lib, “yaratish” ma’nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, o‘rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Ya’ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so‘zlarni yodlab, grammatika qoidalarini “suv qilib ichib yuborgan” bo‘lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Albert Eynshteyn “Tasavvur — bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko‘pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. Qoliplardan voz kechamiz. Inson miyasi o‘z ishini “yengillashtirish”, “qulaylashtirish” uchun shablon va stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha ma’lum bo‘lgan va umumqabul qilingan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g‘oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo‘lgan ijtimoiy fikr, mediamahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko‘rinishlar ham yetakchi o‘rin tutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo‘shiladi. Qolaversa, “oqim bo‘ylab suzish” mustaqil fikrlashdan ko‘ra oson tuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo‘yicha inson ongiga “so‘rov” berilganida odatiy ma’lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Masalan, “yangi yil” deganda to‘kin dasturxon, reklamadan tushmaydigan gazli ichimliklar, archa va hokazolarni tasavvur qilish, bobo obrazida qo‘lida hassa tutgan, ko‘zoynakli cholni ko‘rish qolip asosida fikrlashning ko‘rinishi. Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o‘zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg‘amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yaratoladi.

Tomas Edison “Kreativlik - g‘ayriixtiyoriy jarayon”, deydi. Lekin har kuni ko‘plab mutaxassislar muammolarga noodatiy yechim topishga zaruriyat sezadi. Ular mana shu g‘ayriixtiyoriy jarayonni ixtiyoriylashtirishi mumkinmi? Tabiatda yangi fikrlarni yuzaga keltiruvchi “sehrli tayoqcha” yo‘q, biroq har qanday mutaxassisning kreativ o‘ylashiga ko‘maklashadigan ko‘plab usullar mavjud. Buning uchun ijodiy fikrlashga vaqt ajratish, ijodiy salohiyatni anglash lozim. Jorj Bernard Shou hazillashib shunday deydi: “Ko‘pchilik yiliga ikki-uch marta o‘ylaydi. Mening butun dunyoga mashhurligim sababi — haftada bir yoki ikki marta o‘ylaganim”. Demak, xayolga kelgan yangi fikrlarni e’tiborsiz qoldirmaslik, o‘ylash uchun imkon yaratish muhim.

Kreativlik - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘p qirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog‘liq jarayondir. Negaki o‘qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o‘zining sohasidagi eng so‘nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo‘lishi, innovatsion yangiliklarni o‘z faoliyatida o‘rinli foydalana olishi lozim. Demak, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo‘lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko‘rinishi deyish mumkin. O‘qituvchining kreativligi, ushbu kreativlikning mohiyatini beruvchi ijodkorlik ustuvor xarakterga egadir [7, 60-bet.].

Ta’lim faoliyatining bir xil darajada muhim vazifasi ta’lim konsepsiyasidir. Ushbu konsepsiyani bir qancha olimlar: V.V.Davydov, I.I.Ilyasov, S.L.Rubinshteyn, D.B.Elkonin kabilar o‘zlarining tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqdilar. Bu olimlarning ishlaridan ma'lum bo‘ladiki, o‘quv vazifasining asosiy xususiyati shundaki, uni hal qilish uchun o‘quvchilar muayyan masalalar sinfini hal qilishning umumiy usulini topishlari kerak. Shunga ko‘ra, maktab o‘quvchilarining ta'lim muammolarini hal qilish jarayonida o‘quv faoliyatining shakllanishi sodir bo‘ladi. O‘quv vazifasi - o‘quv faoliyatining asosiy birligi. Bu yerda yangi usul - vazifa, ya'ni, masalalar tizimini yechish orqali erishiladigan o‘quv materialini o‘zlashtirish usuli. "Universal ta'lim faoliyati" tushunchasini ko‘rib chiqamiz. Yuqorida keltirilgan ta'riflardan shuni tushunish mumkinki, harakatlar ta'lim deb ataladi, chunki ular ta'lim faoliyati birliklari hisoblanadi. "Umumjahon" atamasi turli mavzular uchun ularning umumiy xususiyatini anglatadi, bu holda bu belgi meta-mavzu sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Agar biz keng ma'noda "universal ta'lim faoliyati" atamasini qismlarga ajratadigan bo‘lsak, unda mualliflarning fikriga ko‘ra, u o‘rganish qobiliyatini, "sub'ektning faol, eng muhimi, o‘z-o‘zini takomillashtirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini anglatadi. Yangi ijtimoiy tajribani ongli ravishda o‘zlashtirish - psixologik ma'noda, ya'ni tor ma’noda bu atama yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish, ko‘nikmalarni shakllantirish, shu jumladan, ushbu jarayonni tashkil etishni ta’minlovchi o‘quvchilarning harakatlari (jumladan, tegishli ta’lim ko‘nikmalari) majmui sifatida ta’riflanishi mumkin” [Asmolov 2007: 151]. I.A.Zimnya fikriga ko‘ra umumjahon ta'lim faoliyatining juda keng tasnifi o‘qitishda, birinchi navbatda, maqsadni belgilash, dasturlash, rejalashtirish, harakatlarni bajarish, nazorat qilish kabi harakatlar, shu jumladan. o‘z-o‘zini nazorat qilish, baholash, o‘z-o‘zini hurmat kabilarni o‘z ichiga oladi. Keyinchalik I.A. Zimnya, o‘quvchining aqliy faoliyati bilan bog‘liqligi asosida pertseptiv, mnemonik va aqliy harakatlarni ya'ni intellektuallikni aniqlaydi. Muallif bilim olish va

ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonini ta'minlaydigan 25 ta kognitiv universal ta'lim faoliyatiga to‘xtalib o‘tadi. Harakatlar, o‘z navbatida, kichikroq operatsiyalarga bo‘linadi: sintez, taqqoslash, tahlil, umumlashtirish, tasniflash va hokazo.Ta’lim harakatlarining ahamiyatini o‘rganish va tahlil qilishda, fikrlash har doim nazorat va baholash bilan birga bo‘lishi kerak bo‘lgan ongli jarayon ekanligini ta'kidlamaslik mumkin emas. I.A. Zimnya tafakkurning bu xususiyati tartibga soluvchi universal ta'lim harakatlarining muhimligini ta'kidlaydi, o‘rganish qobiliyatini shakllantirish jarayonida tartibga soluvchi universal ta'lim harakatlari ustuvor o‘rin egallashi va o‘rganishda juda muhim rol o‘ynashi ayon bo‘ladi. [Zimnya 2004: 210]. Regulyativ harakatlar talabalarning o‘quv faoliyatini tashkil etishlarini ham ta'minlaydi.

Sinfda ijodkorlikni rivojlantirish uchun texnologiyalar: E. De Bono tomonidan ijodiy fikrlashni rivojlantirish dasturi. Uning mohiyati quyidagilardan iborat: sizning e'tiboringizga taqdim etilayotgan oddiy g‘oyani o‘zlashtirish sizga narsalarni "fikrlaringiz omborida" tartibga solishga imkon beradi, "ularni saralash" ga yordam beradi va sizga buni amalga oshirish imkoniyatini beradi. hamma narsa o‘lchovli, o‘z vaqtida va qat'iy ustuvorlik tartibida. Bu mantiqni his-tuyg‘ulardan, haqiqatdan orzu qilingan, "toza suv" xayollarini "yalang‘och" faktlardan va kelajak uchun haqiqiy rejalardan ajratishning yagona yo‘li. Biznesga to‘g‘ri yondashuvni tanlash qobiliyati oltita "fikrlash" shlyapalarining taklif qilingan g‘oyasidir. Bu erda men quyidagi vazifalar bilan ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradigan bir qator mashqlardan foydalanaman: so‘zlarni shifrlash; har bir ustundan ortiqcha so‘zni olib tashlash; so‘z yasalish modelini tahlil qilish orqali so‘zning leksik ma’nosini aniqlash; boshqacha qilib aytganda ayting va hokazo.

2.TRIZ texnologiyasi (ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi). Bunday darslarda o‘quvchi faol ishtirokchi bo‘lgan o‘quv jarayoni muhim ahamiyatga ega. Uning o‘zi yangi materialni idrok etish yo‘llarini qidiradi va o‘qituvchi uni faqat boshqaradi. Adabiyot darslarida triza elementlaridan tez-tez foydalanaman. Masalan, Abdulla Qodiriyning romanidan parchani o‘rganayotganda. "Mehrobdan chayon" (Anvar) 7-sinfda men ijodiy qayta hikoya qilish texnologiyasidan foydalanaman. Bu qahramonning ichki holatini tushunishga yordam beradi. Men yigitlardan Anvar qiyofasiga "ko‘nikishlarini" va "yozishlarini" yoki singlisi Unsinga tog‘asi bilan uchrashuv aytib berishlarini so‘rayman. Bu yerda men yigitlarni urush, uning shavqatsizligi va g‘ayriinsoniyligi haqidagi falsafiy savolga keltiraman. Bu birinchi hissiy taassurotlar Qodiriy falsafasini tushunishga yordam beradi.

Aql xaritasi (Myuller Horst), Toni Buzanning Mind xaritasi aqlning qulay va samarali vizual tasviri va muqobil yozuv texnikasi. Undan yangi g‘oyalar yaratish, axborotni tahlil qilish va tartibga solish, qarorlar qabul qilish va hokazolar uchun foydalanish mumkin. Bu an'anaviy yozish usullariga nisbatan bir qancha inkor etilmaydigan afzalliklarga ega bo‘lgan fikrlashni tashkil qilishning juda an'anaviy emas, lekin juda tabiiy usuli.

Aqlni xaritalash texnikasi muallifi Toni Buzan nazariyasiga ko‘ra, men o‘quvchilarga ma'lumotni eslab qolishlari oson bo‘lgan shaklda yozishni taklif qilaman. Buni amalga oshirish uchun siz o‘zingizdan yodlashga nima yordam berishini so‘rashingiz kerak.Asta-sekin har bir talaba axborotni yozib olishning o‘ziga xos uslubini rivojlantiradi. Ruhiy xarita qanchalik individual bo‘lsa, shuncha yaxshi bo‘ladi. Axir, buni tushunadigan shaxsiy fikrlashdir. Bu bizni tushunish masalasiga olib keladi. Bu hali ham kitoblar va darsliklarda emas, balki talabalar ongida sodir bo‘ladi.

O‘quvchilar kreativ fikrlashi boshqa o‘quv predmetlaridan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog‘lanadi. Boshlang‘ich sinf darslarida o‘quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar, ular kuzatishni, o‘ylashni va ko‘rganlari, eshitganlari, o‘qiganlari haqida turli bayon qilishni o‘rganadilar. Ushbu darslar bolalar fikrini boyitishga samarali yordam beradi, turlicha fikrlashni o‘rgatadi.

O‘qish darsi va u bilan bog‘liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o‘quvchilarga tabiat xodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala madaniyat haqida bilim beradi. Bu darslar bolalar kreativligiga, uni shakllantirishga keng imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev. Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.. O‘zbekiston. NMIU. 2016-y. 10-13 betlar.

2. A.A.Abdullayev “Kichik yoshdagi o‘quvchilarning regulyativ universal ta'lim faoliyatini rivojlantirish xususiyatlari” “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida universal ta’lim faoliyatlarini shakllanitirish, rivojlantirish va takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti”-mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami 2023-yil, 31-mart

3. Prokudin Yu.P., Milenko E.A. Ta'lim sohasidagi hamkorlik sharoitida talabalarning universal ta'lim harakatlarining shakllanishi // Bo‘lajak mutaxassisning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi: 12-stajyorning materiallari. ilmiy-amaliy. Internet konferentsiyalari / otv. ed. I.A. Sharshov, L.N. Makarov. Tambov: Ed. TDU im. GR. Derjavina, 2016. S. 620-623.

4. Elkonin D.B. Rivojlantiruvchi ta'lim tizimi. 2009. S. 153-157.

5. Prokudin Yu.P., Milenko E.A. Kasbiy hamkorlik texnologiyasi ta'lim sifatini oshirish omili sifatida // O‘qituvchi va talabaning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi: an'analar, muammolar, istiqbollar: 4-Umumrossiya materiallari. ilmiy-amaliy. konf.

TURKISTONDA MUSIQA MADANIYATIGA OID MILLIY IZLANISHLAR MASALASI

D.E. Saidova
Buxoro davlat universitetining mustaqil izlanuvchisi, Ozbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda musiqa madaniyatiga ilmiy-nazariy qarashlar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, jadidchilik harakati, madaniyat, san’at, arxeologiya, davr, folklor, musiqiy teatr, klassik musiqa, drama, spektakl va hokazo.

ВОПРОСЫ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ ТУРКЕСТАНА.

Аннотация: В данной статье были выражены научно-теоретические взгляды на музыкальную культуру в Туркестане конца XIX - начала XX века.
The issue of national research on music culture in Turkestan.

Ключевые слова: Музыка, Модернизм, Тур, Духовность, Культура, Искусство, Археология, Период, Фольклор, Музыкальный театр, Классическая музыка, Драма, Производительность и так далее.

THE ISSUE OF NATIONAL RESEARCH ON MUSIC CULTURE IN TURKEY

Abstract: In this article, scientific-theoretical views on music culture in Turkestan at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century were expressed

Key words: Music, Modernism, Tour, Spirituality, Culture, Art, Archaeology, Period, Folklore, Musical Theater, Classical Music, Drama, Performanceand so on.

Dunyo tamaddunida sharq xalqlarining madaniy hayoti o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Shu ma’noda XIX asrning ikkinchi yarmiva XX asrning boshlarida o‘zbek musiqa san’ati, azaliy an’analar negizida yangicha munosabatlar davri sifatida tarixga muhrlandi. Davrning yetakchi hofizlari Hamroqul qori, Hoji Abdulaziz Adurasulov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Domla Halim Ibodov kabi namoyandalarining ijodlari, ijrochilik uslublari mumtoz musiqa an’analariga asoslangan. 1920-yillardan boshlab xonanda va sozandalarning yangi avlodi shakllandi. O‘zbek musiqasining XX asr jarayonida, zamon talabi doirasida keskin rivojlanganligi tuzumning o‘zgarishi, yangi munosabatlari yuzaga kelganligi bilan bog‘liqdir. Buning zaminida eng avvalo Yevropa madaniyatining kirib kelishi va unga asoslangan holda turmush tarzini shakllanganligi hamda musiqa ijodkorlarining yangi avlodi tarbiyalanganligi bilan bog‘liqdir.

XX asr o‘zbek musiqa ijodiyoti yangi avlod shakllanishi bilan bog‘liqdir. Uning shakllanish mezonlari va rivojlanish yo‘lining o‘zbek kompozitorlik ijodi hamda zamonaviy musiqa san’atining ommalashishi bilan bog‘liq bir qator omillari mavjuddir. Shunga ko‘ra XX asr o‘zbek musiqasi rivojlanish jarayonini uch bosqichga bo‘lib tahlil qilish o‘rinlidir. 1918-yildan boshlab madaniyat va san’atishlarini davlat o‘z ixtiyoriga oldi. Milliy madaniyat va san’atni yuksaltirish sohasida hokimiyat turli qarorlar qabul qildi va ularni amalda joriy etishga astoydil kirishdi. 1919-yilda Turkiston respublikasi Xalq maorif tashkiloti qaramog‘ida teatr bo‘limi ochildi va uning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklandi:

1. Respublikadagi jamiki teatr ishlariga umumiy rahbarlik qilish.
2. Havaskor va professional ijodiy jamoalarningish faoliyatini yuksaltirish va repertuarlarini boyitish.
4. Respublika bo‘ylab muntazam ravishda markaz va viloyatdagi tomoshabinlarga doimiy ravishda gastrollar uyushtirish.

Mazkur bo‘limning boshlig‘i lavozimiga Iskandar Valijonov tayinlandi. 1920-yil 28-aprelda “Musiqa - etnografiya” bo‘limi ham ochildi. Bu bo‘limga atoqli kompozitor va etnograf (kelgusida O‘zbekiston va Turkmaniston xalq artisti) V.A.Uspenskiy, uning o‘rinbosari qilib atoqli kompozitor – etnograf N.N.Mironov va bo‘lim xodimi etib, atoqlishoir – dramaturg G‘ulom Zafariylar tayinlandi. Zikr qilinganikki bo‘lim birgalikda reja asosida ish olib borib, o‘zbek xalqini musiqiy va teatr merosini ilmiy o‘rganish, to‘plash va targ‘ibot ishlari bilan band bo‘ldilar. Yillar davomida bu bo‘limlar turli tadbirlar o‘tkazdi va o‘zbek xalq san’atini targ‘ibot qilib keldi. 20 - 30-yillarda musiqa va teatr san’atlarining zamonaviy ruhda rivojlanishiga ma’lum imkoniyatlar yaratib berishga turli moliyaviy va ma’naviy choralar, yordamlar hokimiyat tomonidan berib turildi.

O‘zbekistonning poytaxti va barcha viloyatlardagi zavod - fabrika, yirik korxonalar, o‘rta ta’lim maktablarida, o‘rta va oliy hunar dargohlarida ashula va raqs ansambllar hamda teatr to‘garaklari birin-ketin paydo bo‘la boshladi. Ularning soni juda ham ko‘p edi. Bu havaskorlik to‘garaklarning ayrimlari kelgusida professional teatr, konsert tashkilotlarini bunyodga kelishida tamal toshini qo‘ydilar va iste’dodli san’at arboblari yetishib chiqishga ham zamin yaratdilar. Respublikada badiiy havaskorlar jamoalarining bunyodga kelishlarida va rivojlanish jarayonida kasaba uyushmalar tashkilotlari roli ham samarali bo‘ldi.Ularning zimmasiga maorif xodimlari bilan birgalikda, klub, madaniyat va istirohat bog‘larida, qizil choyxonalarda, maktab, hunar texnikum va institutlarda, qishloq joylarda havaskor xalq ashula va raqs ansambllar teatr jamoalarini tashkil qilish, ularning san’atlarini namoyish etish, ommaviy kechalar, ko‘rik-tanlovlar, karnaval tomoshalar, maxsus tadbir kechalar o‘tkazisha n’anaga aylandi. Shuningdek mazkur davrda o‘zbek ashula va raqs ansambllaridan tashqari respublikaning katta korxonalarida baynalminal xor va damli cholg‘ular orkestrlari, harbiy orkestrlardan tashqari, rus xalq cholg‘ulari orkestri va ansambllari, simfoni korkestr, maxsus raqs ansambl jamoalari bunyodga keldi. Ular orasida Toshkent temir yo‘l korxonasi qaramog‘ida 1923-yilda tashkil topgan o‘zbek va rus havaskorlar to‘garaklari, Toshkent tramvay tresti qaramog‘idagi, o‘zbek ashula va raqs ansambli, rus ashula raqs ansambli hamda katta damli cholg‘u orkestr, xor jamoasi, 1927-yili havaskorlar simfonik orkestri, damli orkestr, bayanchilar ansambli.

1918-yilda Respublika matbuot birlashmasi qoshidagi “Lira” nomli madaniya to‘yida mashhur dirijyor V.V.Leysek o‘zbek dram to‘da, o‘zbek xalq ashula va raqs ansambli, rus xalq dram to‘da, rus xalq cholg‘ular orkestri, bolalar va kattalar ishtirokida ikkita damli orkestrlar tashkil etib, ularga rahbarlik qildi. Ular turli ko‘rik-tanlovlarda faol qatnashib, kundalik hayotda xalqqa xizmat qildilar. Dirijyor V.V.Leysek O‘zbekiston badiiy havaskorlik san’atining rivojlantirishida olib keldi. Buyuk xizmatlari uchun 1928-yilda O‘zbekiston Respublikasi mehnat qahramoni va 1935-yili O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

Xulosa qilib aytganda musiqa nazariyasining zamonaviy tomonlari biz ko‘rsatgan davrda kurtak ota boshlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova o‘zbek musiqasi tarixi.1981y.B.25
2. I.Rajabov. “Maqomlar masalasiga doir”.T.: 1963y.B.268.
3. N.Karimov “Jadidchiliknoma” //San’at. -T.: 1990, №. 12
Elektronta’limresurslari
WWW.PEDAGOG.UZ
WWW.ZIYONET.UZ
WWW.TDPU.UZ

ЭФФЕКТИВНЫЕ ФОРМЫ И МЕТОДЫ СТАНОВЛЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Хомидова Зилола -декан НВУЗ «Profi University» г.Навои.Узбекистон

Аннотация: В данной статье описаны методика , методы, средства и формы формирования экологического сознания и экологической культуры учащихся начальных классов.

Ключевые слова: Начальная школа, урок природоведения, экология, окружающая среда, экологическая культуру, экологическая проблема.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI O‘RNATISHNING SAMARALI SHAKLLARI VA USULLARI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirishning metodlari, usullari, vositalari va shakllari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinf, tabiat tarixi darsi, ekologiya, atrof-muhit, ekologik madaniyat, ekologik muammo.

EFFECTIVE FORMS AND METHODS FOR DEVELOPING ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract: This article describes the methodology, methods, means and forms of forming environmental awareness and ecological culture of primary school students.

Keywords: Primary school, natural history lesson, ecology, environment, ecological culture, environmental problem.

В настоящее время экологическое образование, воспитание и культура в начальной школе становится всё более приоритетным направлением в педагогической теории и практике. Экологическое воспитание – проблема актуальная. Это связано с тяжёлой экологической ситуацией на Земле, которая определяет настоятельную необходимость формирования нового экологического мышления. Одна из причин такого положения – экологическая неграмотность большей части населения и неумение предвидеть последствия вмешательства человека в природу. В нашей стране разнообразная флора и фауна. В руках человека красота и богатство родной земли. Стремление извлечь сиюминутную выгоду, не думая об ущербе, наносимом природе и обществу, крайняя заниженность нравственных ценностей и многое другое указывает на низкую экологическую культуру взаимоотношения с окружающей средой.

Экологическое воспитание и культура должны начинаться с раннего детства. Дети восприимчивы к добру, они очень любознательны. И в эту пору следует закладывать нравственные основы, развивать чувство прекрасного, умение видеть красоту природы. Младший школьный возраст – это этап формирования этих основ. Базовым в развитии экологической культуры первоклассника выступает уровень, приобретённый им в дошкольном возрасте. Новая ступень развития ребёнка связывается с приобретением им экологически ориентированного личного опыта за счёт: наблюдений различных состояний окружающей среды, сопровождающихся разъяснениями учителя, воспитателя; выполнения предложенных правил поведения и обращения с представителями животного и растительного мира; эмоциональных переживаний; эстетического наслаждения красотой природы и творческого воплощения своих впечатлений в устных рассказах, рисунках; ощущения потребности в знаниях экологического содержания; бережного отношения к используемым предметам, продуктам питания и т. д.; наблюдения за деятельностью взрослых по улучшению окружающей среды и собственного посильного участия в ней.

Чтобы полноценно осуществлять экологическое развитие детей система работы в начальной школе должна сочетаться с работой семьи в этом направлении. Ведь именно в семье закладываются основы гуманного отношения к природе. Семья даёт первый опыт взаимодействия с природой, приобщает к активной деятельности в природе.

Ведущей тенденцией занятий в группе продлённого дня является интеграция. Она предполагает взаимопроникновение различных видов деятельности (наблюдение, исследование, беседа, игра, экологические викторины и др.). Благодаря разнообразным формам и методам работы происходит обогащение нравственного опыта детей, воспитание положительных качеств личности, формирование этических и эстетических чувств, воспитывается бережное отношение к природе, стремление изменить мир к лучшему.

Работа по экологическому воспитанию учащихся младших классов в группе продлённого дня предполагает решение ряда задач:

- расширение экологических знаний;
- повышение экологической культуры;
- развитие потребностей гармоничного общения с природой;
- обогащение кругозора детей;
- развитие наблюдения, внимания, памяти, мышления;
- развитие чувства сострадания, сопереживания представителям животного и растительного мира;
- привитие бережного отношения и любви к природе.

Экологическая культура – сравнительно новая проблема, которая остро встала в связи с тем, что человечество вплотную подошло к глобальному экологическому кризису. Все мы прекрасно видим, что многие территории по причине хозяйственной деятельности человека оказались загрязнёнными, что сказалось на здоровье и на качестве населения. Можно сказать прямо, в результате антропогенной деятельности окружающая природа оказалась перед прямой угрозой уничтожения. Из-за неразумного отношения к ней и к её ресурсам, из-за неправильного понимания своего места и положения во вселенной человечеству грозит деградация и вымирание. Поэтому проблема “правильного” восприятия природы, равно как и “экологической культуры” выходит в настоящий момент на передний план. Чем раньше учёные начнут “бить тревогу”, чем раньше люди начнут пересматривать результаты своей деятельности и корректировать цели, соразмеряя свои цели со средствами, которыми располагает природа, тем быстрее можно будет перейти к исправлению ошибок, как в мировоззренческой сфере, так и в сфере экономической.

В современных условиях складываются противоречия между негативным опытом по взаимодействию с окружающим миром, который ребенок приобретает в младших классах «стихийно» и значениями, предлагаемыми ему в целенаправленном педагогическом процессе. Кроме того, обострение данного противоречия является особенностью нашего времени, конкретно-исторической, экологической ситуации, сложившейся как в стране, так и в масштабе всей планеты. Младшие школьники наблюдают мусорные свалки, жестокое отношение к животным, растениям (деревьям), безответственность по отношению к водоемам, окружающим лесам, лугам, в то время как на занятиях в школе узнают о пагубном влиянии подобной деятельности человека на природу, вреде , наносимом собственному здоровью и благополучию, испытывают чувство жалости к растениям и животным, попавшим в беду. Противоречие усугубляется, когда ребенок видит, как взрослые наносят вред окружающему миру. В их числе оказываются не только родители и близкие для него люди, а порой, и сами же педагоги – в первую очередь те, которые являются авторитетом для младшего школьника. А ведь именно в этом возрасте, как ни в каком другом, ребенок берет пример со взрослого, подражает ему.

При формировании экологической культуры у младших школьников следует учитывать психологические особенности ребенка. В младшем школьном возрасте преобладают наглядно-образная и наглядно-действенная формы мышления, которые могут обеспечить понимание усвоение лишь специально отобранных и адаптированных к возрасту сведений о природе. В этом возрасте в сознании младших школьников происходит формирование наглядно-образной картины мира и нравственно-экологической позиции личности, которое предопределяет отношение учащегося к природному и социальному окружению.

Очень важным при формировании экологической культуры является учет эмоционального компонента отношений. Вместе с познанием красоты природы у младших школьников зарождается чувство бережного отношения к ней. Воспитание любви к природе эффективно лишь тогда, когда дети ежедневно общаются с природой и это общение направлено взрослыми.

Таким образом, процесс формирования экологической культуры во многом зависит от возрастных особенностей и возможностей учащихся. Первым возрастным этапом обучения является начальная школа. В этот период обучения проблема формирования экологической культуры личности становится особенно важной, так как в младших классах, закладываются первые существенные основы отношения к обучению, к окружающему миру и к себе самому. Ребенок открыт для того, чтобы воспринимать и присваивать экологические правила, превращать их в свои привычки, в часть своей натуры. Возраст младшего школьника благоприятен и сенситивен для целенаправленного формирования психологических новообразований, и происходящие изменения являются действительно решающими в процессе становления всех сфер личности. Тогда же формируются основы культуры личности (в том числе экологической). Ребенок легко воспринимает правила игры и непосредственно закрепляет их в бессознательной сфере. Он способен овладевать экологической культурой как опытом нормального взаимодействия с окружающей средой.

Но любовь к природе и внимательное, заботливое отношение к ней закладывается в детской душе только в том случае, если школьник видит примеры соответствующего отношения к природе со стороны

взрослых, родителей и, прежде всего, учителей. А учитель, в свою очередь, чтобы не работать с ребенком «вслепую», должен обязательно учитывать особенности младшего школьного возраста.

Проблема формирования экологически культурной личности в настоящее время становится одной из центральных в обсуждении целого спектра вопросов, вязаных с изучением взаимодействия личности в системе «человек – общество – природа», так как экологическая культура является важной составной частью общей культуры человечества. Важный аспект в формировании экологической культуры – развитие гуманного отношения к природе, способности воспринимать и чувствовать ее красоту, умение бережно относиться ко всем природным компонентам.

Экологическое образование с его направленностью на воспитание ответственного отношения к окружающей природной среде является стержнем и обязательной составной частью общеобразовательной подготовки учащихся. Изучение естественных наук обогащает кругозор, развивает наблюдательность, мышление детей, прививает бережное отношение и любовь к природе, закладывает основы экологического воспитания.

Повышение экологической культуры учащихся, вооружение их навыками экономного, бережного использования природных ресурсов, формирование активной гуманной позиции по отношению к природе, ответственности за судьбу своего общего дома – планеты Земля – один из наиболее важных аспектов современного образования.

ЛИТЕРАТУРА

Иванова А.И. Живая экология: Программа экологического образования дошкольников. – М.: ТЦ Сфера, 2009.
Николаева С.Н. Методика экологического воспитания дошкольников: Учебное пособие. – М.: Академия, 2009.
Николаева С.Н. Теория и методика экологического образования детей. – М.: Академия, 2002.
Николаева С.Н. Экологическое воспитание дошкольников // Педагогика. 2007. - № 5. - С. 22-27.
Развитие речи и ознакомление с окружающим миром в ДОУ; И.Н.Павленко, Н.Г. Родюшкина. Москва 2006г.
Толковый словарь русского языка. С.И.Ожегов и Н.Ю.Шведов 3.«Лучик света» - Энциклопедия для детей: календарь, явления природы.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIDA O‘QISH SAVODXONLIGI KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRUVCHI O‘QUV TOPSHIRIQLARI USTIDA ISHLASH

Jo‘rayeva Muqaddas Said qizi
Navoiy pedagogika instituti Boshlang‘ish ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi,O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qish savodxonligi ko‘nikmasini rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari ustida ishlashning ilmiy-metodik jihatdan asoslangan va tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: ona tili va o‘qish savodxonligi, ta’lim mazmuni, so‘z boyligini oshirish, o‘quv topshiriqlari.

РАБОТА ПО УЧЕБНЫМ ЗАДАЧАМ, РАЗВИВАЮЩИМ НАВЫКИ ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ В СИСТЕМЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Абстрактный. В статье научно и методически обоснована и проанализирована работа над учебными задачами, развивающими навыки чтения в системе начального образования.
Ключевые слова: родной язык и грамотность чтения, содержание обучения, развитие словарного запаса, учебные задачи.

WORK ON LEARNING OBJECTIVES THAT DEVELOP READING LITERACY SKILLS IN THE PRIMARY EDUCATION SYSTEM

Abstract. The article scientifically and methodologically substantiates and analyzes the work on educational tasks that develop reading skills in the primary education system.
Key words: native language and reading literacy, learning content, vocabulary development, learning objectives.

Mustaqil O‘zbekistonning ravnaqi uchun olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma’naviy sohalardagi keng ko‘lamli ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta’minlash, uzluksiz ta’lim tizimini joriy etish, shuningdek, mustaqil fikr egasi, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabda ona tili o‘qitishning bosh maqsadi tilning jamiyatda tutgan o‘rni, bajaradigan vazifasi bilan belgilanadi. Ma’lumki, til jamiyat a’zolari o‘rtasida aloqa-aralashuv vositasi, insonning fikrlash va fikr mahsulini og‘zaki hamda yozma ravishda bayon qila olish, o‘z ichki kechinmalarini ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi [2;3:3].

Til har bir kishi hayotida muhim o‘rin tutadi. Inson o‘z tili asosida fikrlaydi, ta’lim oladi, borliqni o‘zlashtiradi. Mehnat faoliyati bilan shug‘ullanadi.

Dunyo tajribasida e’tirof etilayotgan til o‘rganishga doir tinglab tushunish, o‘qish, gapirish ko‘nikmalari qatorida matnlarni o‘qib tushunish, o‘qish savodxonligi ko‘nikmalari o‘quvchining nutqiy kompetentsiyasini rivojlantirish va baholash imkonini berayotgani ko‘pchilik davlatlarda tan olingan.

Uzluksiz ta’lim tizimida ona tilini o‘qitishni rivojlantirish kontsetsiyasining bosh yo‘nalishi, maqsad, vazifalari, mazmuni, tamoyillaridan kelib chiqqan holda tilshunoslik hamda metodika fanlarining so‘nggi yutuqlari, ulardan ta’lim oluvchilarning hayotiy ehtiyojlariga moslarini tanlagan holda ta’lim muassasalarida

ona tili ta’limini amaliy jihatdan samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ona tili ta’limining mazmuniy tuzilishini, shaklini va eng asosiysi, metodologiyasini yangilash zarurati, bugungi kunda til ta’limi uchun o‘quvchilarda nutqiy (tinglab tushunish, o‘qib tushunish, so‘zlash, yozish) kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy maqsad va vazifa sifatida belgilangan. Nutqiy kompetentsiyalarni shakllantirishga asoslangan yangi metodologiya ishlab chiqilgan.

Respublikamizda ham ona tili o‘qitish kompetentsiyaviy yondashuvga asoslandi, tayanch kompetentsiyalar negizida har bir fanga doir alohida kompetentsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi. Ona tili faniga doir esa nutqiy va lingvistik kompetentsiyalar tanlandi, tilning barcha sathlarini o‘qitish shu ikki mezonga asoslandi. O‘quvchilarning ona tilidan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini xalqaro baholash tizimlariga moslash, shu talablar asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yilmoqda.

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1], – deya ta’kidlanishi ona tili ta’limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo‘yadi. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitish orqali o‘quvchilarda nutqiy hamda lingvistik kompetentsiyalarni, xususan, o‘z ona tilida tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarining oshishiga zamin yaratish lozim.

Mamlakatimizda keyingi yillarda ona tili o‘qitish metodikasiga doir qator ilmiy-metodik tadqiqot olib borildi. Ona tili ta’limida ilk darsliklar shakllanishida A.Fitrat, O.Usmon, B.Avizov, Y.Abdullayev, M.Omilxonovalarning xizmati katta bo‘lgan, ammo darsliklarning dastlabki variantlarida o‘quv topshiriqlari berilmagan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida A.G‘ulomov, H.Ne’matov, M.Asqarova, R.Safarova, D.Yo‘ldoshevalar ona tili ta’limi maqsadi va mazmunini yangilashning ilmiy nazariy asoslarini ishlab chiqdilar. Shuningdek, Sh.Yusupova va N.Yuldasheva tadqiqotlarida ona tilini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish masalalari tadqiq qilingan. A.G‘ulomov, M.Saidov va N.Alavuddinovalar esa ona tili o‘qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. Uzluksiz ta’limda ona tilidan til sathlarini uzviylikda o‘qitish, xususan, gapning bosh bo‘laklarini o‘qitish metodikasi bo‘yicha T.Yusupova tomonidan ilmiy izlanish amalga oshirilgan. X.Muxitdinova ta’lim bosqichlarida uzviylikni ta’minlashning lingvodidaktik asoslarini ishlab chiqishga oid tadqiqotini olib borgan. Qayd qilingan ushbu tadqiqot ishlarida o‘quv topshiriqlarining turlari, undan nutq o‘stirishda foydalanish masalalari ham yoritilgan.

Ta’kidlash joizki, N.Mahmudov, A.Sobirov, I.K.Mirzayev o‘quv topshiriqlarini darsliklarda milliy yondashuv asosida takomillashtirishga hissa qo‘shdilar. B.Mengliyev ona tili o‘qitishda ortiqcha grammatizmdan voz kechib, o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmani rivojlantirish, lug‘at va matn asosida milliy tilni, milliy ma’naviyatni o‘quvchi tafakkuriga singdirish, o‘quvchini turli nutq vaziyatiga tayyorlash, ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashning nazariy-amaliy masalalariga alohida e’tibor qaratib kelmoqda [4]. Uning muallifligida yaratilgan darsliklarda o‘quv topshiriqlar ayni shu ta’lim maqsadini bajarishga moslandi. Keyingi yillarda til ta’limiga kommunikativ va kompetentsiyaviy yondashuvlarni joriy etish borasida pedagogika, filologiya fanlari doktorlari, professorlar R.Safarova, Sh.Yusupova, X.Muhiddinova, B.Mengliyev, Sh.Yuldasheva, Q.Husanboyevalarning tadqiqotlarini alohida ta’kidlash lozim.

Tadqiqotchi A.Bobomurodova, T.Ziyadova, T.T.G‘aniyev, M.Saidov, A.Hamroyev, K.Mavlonovalar ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish imkoniyatlari, o‘zining ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasiga doir ona tilidan mashq bajarish jarayonida o‘quvchining bilish faolligini oshirish masalalari tadqiq qilingan. Shuningdek, tadqiqot mavzusiga doir I.A.Allayorov, O.R.Rozikov, R.Ibragimov, B.R.Adizov, M.H.Mahmudov, I.E.Davronovlar tomonidan ta’lim oluvchining o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, o‘quv topshiriqlari orqali o‘quvchi faolligini oshirish muammolari ham o‘rganilgan.

Mazkur tadqiqotda esa ona tili mashg‘ulotlari orqali boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarida o‘qish savodxonligi ko‘nikmasini rivojlantirish imkonini beruvchi matnlar banki va o‘quv topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2016.

2.G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A. Alavutdinova N. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, Fan va texnologiyalar, 2012. 379 b.

3.G‘ulomov A., Sayfullayeva R, Ernazarova M., Bobomurodova A. Alavutdinova N. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi.Toshkent,Muharrir, 2023. 372 b.

4.http://uza.uz/oz/education/-uvchini-mayib-ilayetgan-k-rinmas-va-samarasiz-milliardlar-14-11-2019.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Raxmatullayeva Nargiza Baxtiyor qizi
Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi, O‘zbekiston

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish mazmuni, usuli va zarur yonaduvlarni qo‘llashning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Unda ta’lim olishda tinglab tushunishning roli, nutqiy kompetensiyalar tizimida tutgan o‘rni haqida mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: tinglab tushunish, nutqiy ko‘nikma, malaka, pedagogik texnologiya, o‘quv topshiriqlari, ta’lim mazmuni.

ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УМЕНИЯ СЛУШАТЬ И ПОНИМАТЬ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: В статье рассмотрены содержание, методика и педагогико-психологические особенности применения необходимых подходов к развитию умения слушать и понимать у младших школьников. В нем изложены рассуждения о роли понимания на слух в обучении, его роли в системе речевых компетенций.

Ключевые слова: понимание на слух, речевые навыки, компетентность, педагогическая технология, учебные задания, содержание обучения.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE ABILITY TO LISTEN AND UNDERSTAND IN PRIMARY SCHOOL

Abstract: The article discusses the content, methodology and pedagogical and psychological features of the application of the necessary approaches to the development of the ability to listen and understand in younger schoolchildren. It contains arguments about the role of listening comprehension in learning, its role in the system of speech competencies.

Keywords: listening comprehension, speech skills, competence, pedagogical technology, learning tasks, learning content.

Nutqiy faoliyatning psixologik mexanizmi so‘nggi yillarda “mexanizm” so‘zi falsafa, psixologiya, psixolingvistika va lingvistika sohalarida keng qo‘llanib kelinmoqda. Biroq tadqiqotchilarning hech biri mazkur so‘zga aniq ta’rif bermagan. Uning ma’nosini faqat kontekstga qarab chiqarib olish mumkin. Ayrim tadqiqotchilar mexanizm ostida biron narsaning tuzilishini, uning struktura xususiyatlarini tushunishsa, boshqalari ayrim harakat va amallar yoki jarayonlar majmuyini, yana bir guruh mualliflar esa struktura va jarayonlarning o‘zaro munosabatini, struktura, jarayon va uning natijalari, funksiyalari va ijtimoiy sharoitlarni tushunishadi [1; 2].

Nutqni xotirada tutish, shuningdek, nutqiy xotira mexanizmining ahamiyati ham nutqni anglash mexanizmidan qolishmaydi. U nutq jarayonining barcha tomonlarini, xususan, nutqning “mazmun jihati” va uning lisoniy ifodasini ta’minlaydi. Nutqda uning predmetining aks etishi, ya’ni borliqdagi u yoki bu hodisani – inson xotirasidagi bilimlari va atrofni o‘rab olgan dunyo haqidagi tasavvurlarining faollashuvisiz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Shuningdek, uning ongda mavjud bo‘lgan til belgilari haqidagi obrazlar tasavvuri va ularni nutqiy muloqot jarayonida qo‘llash qoidalarining faollashuvisiz ham bo‘lishi mumkin emas. Nutqni oldindan aytish mexanizmi psixolingvistikada hali to‘liq o‘rganilmagan. Shu o‘rinda nutqiy faoliyat so‘zlash, eshitish, yozish va o‘qish vositasida amalga oshiriladi. Mazkur vositalar kishilarning o‘zaro munosabat turlari sifatida verbal muloqot jarayonida yuzaga chiqadi. Nutqiy faoliyatning barcha turlari umumiy jihatlarga ega bo‘lish bilan birga, bir qator mezonlarga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Nutqiy faoliyat turlarining o‘ziga xos xususiyatlarini qayd qilingan mezonlardan kelib chiqqan holda quyidagicha tahlil qilish mumkin:

- nutqiy faoliyat nutqiy muloqotning o‘ziga xosligiga ko‘ra og‘zaki muloqot va yozma muloqot vositasida amalga oshiriladi.
- nutqiy faoliyatning birlamchi turlariga so‘zlash va eshitish kiradi. O‘ylashni fikrning ichki nutq vositasida shakllanish jarayoni sifatida, so‘zlash va yozuvni esa muloqotning og‘zaki va yozma shakllarida fikr yuzaga kelishining tashqi usullari sifatida talqin qilish mumkin. Og‘zaki ekspressiv nutqning monologik, dialogik va guruhiy shakllari mavjud. Nutqiy faoliyatning turlari mazkur jarayonlarni boshqaruvchi qarama-qarshi aloqa xususiyatiga ko‘ra ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, nutqiy faoliyatning so‘zlash va yozuv turlarida ijrochi organ (artikulyasion organ, yozadigan qo‘llar)dan bu faoliyatni “tashkil qiluvchi” dasturga, bosh miya qismiga qaratilgan asab-mushakli qarama-qarshi aloqa amalga oshiriladi. Ushbu qarama-qarshi aloqa ichki nazorat va tahrir vazifasini bajaradi [1; 2].

So‘zlovchi tomonidan yaratilgan matn talaffuz qilingach, havo to‘lqinlari orqali tinglovchining qulog‘iga yetib keladi. Ana shu ondan boshlab nutq tovushlari birikmasidan tashkil topgan matn so‘zlovchining jamiyatdoshi tomonidan idrok qilina boshlaydi. Idrok qilish ham uzundan-uzoq bir murakkab jarayonni tashkil qiladi. Tinglovchining oldida turgan vazifa bir to‘da tovushlar birikmasidan uning asosida yotgan mazmunni chiqarib olib, unga yo nutqiy, yo jismoniy javob qaytarish, yoxud murojaatni e’tiborga olib qo‘yishdir [3].

Inson nutqni idrok qilishida eshitib tushunish, o‘qib tushunish, nutqni yozma va og‘zaki bayon qilish kabi lisoniy malakalar muhim o‘rin tutadi. Nutqni idrok qilish murakkab va ko‘p qamrovli psixik jarayon bo‘lib, u ham

boshqa idrok turlari kabi umumobyektiv qonuniyatlar asosida yuz beradi. Nutqni idrok qilish faoliyatini: idrok obrazining birlamchi shakllanishi va shakllangan obrazni tanish kabi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Nutqni idrok qilish til elementlarini eshitish yoki ko‘rish resepsiyasi (qabul qilish), ularning o‘zaro aloqasini aniqlash va ularning mazmuni haqidagi tasavvurlarning shakllanishini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, nutqni idrok qilish ikki bosqichda – nutqiy ifodani idrok qilish va tushunish orqali amalga oshadi. Psixologiyada tushunish bevosita idrok qilinadigan nutq (tovushlar) oqimi ortida turgan umumiy mazmunni ochish sifatida talqin qilinadi. Bu idrok qilinadigan nutq orqasida turgan ma’noning haqiqiy mazmunga aylanish jaryonidir. Masalan, “Sovuq!” ifodasining ma’nosi qanday “nutqsiz kontekstda” va kim tomonidan aytilganiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin. Agar bu onaning o‘z bolasiga murojaati bo‘lsa, u holda, bola uni issiqroq kiyinish haqidagi maslahat sifatida qabul qilishi mumkin. Agar mazkur ifoda biron kishi tomonidan ochiq turgan darchaga qo‘l bilan ishora qilib aytilgan bo‘lsa, u holda, uni oynani yopish haqidagi iltimos sifatida qabul qilish mumkin. Yoki ayni ifoda biron kishiga subyektiv (salbiy) munosabat bildirish maqsadida ham aytilgan bo‘lishi mumkin. Tushunish jarayonida retsipiyent mazkur ifodaning ma’noviy mazmun majmuyini tashkil etuvchi so‘zlar o‘rtasidagi ma’noviy bog‘lanishlarni aniqlaydi.

Anglash natijasi o‘laroq retsipiyent ifodaning ma’noviy mazmunini tushunishi yoki tushunmasligi mumkin. Shuni qayd qilish joizki, tushunish jarayoning o‘zi psixologik nuqtayi nazardan teranlik va aniqlikning turlichaligi bilan tavsiflanadi. Nutqni tushunish jarayoni axborotlar oqimidan muhim jihatni, muhim mazmunni ajratib olishdir. Nutqning ma’noviy mazmuniga bunday yondashish tinglovchining so‘zlovchi nutqi motivlarini, ifodaning ichki mantig‘ini to‘liq tushunishiga imkon beradi. Tushunishning ushbu darajasi so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan fikr ifodalashda foydalanilgan lisoniy vositalarni baholashni ham o‘z ichiga oladi.

Bu borada G‘.Hamroyev: “Agar darsni tashkil etish, xususan, ona tili darslarida fonetika, orfoepiya, orfografiya mavzularini o‘qitish o‘qituvchining ixtiyoriga to‘liq topshirib qo‘yilsa, o‘quvchilarning adabiy talaffuz hamda imloga oid ko‘nikmasi bir xil bo‘lmasligi muqarrar. Talaffuz va imlo qoidalari esa bir xillikni taqozo etadi. Shu ma'noda o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni avtomatlashtirish masalasi juda dolzarb bo‘lib qoladi", - deydi [4].

O.Qurbonova ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish asosan ona tili o‘qituvchisining darsni yuqori saviyada tashkil etishi bilan bog‘liq. Nutqiy kompetensiyalar: tinglab tushunish, eshitish, o‘qish, yozish deyarli har bir ona tili darsida rivojlantirilib boriladi. Ona tili o‘qitishda o‘qituvchining eng asosiy vazifalaridan biri, o‘quvchilardagi hosil bo‘lgan nutqiy ko‘nikmalarlarning rivojlanish, bunda boshlang‘ich sinfdan boshlab, tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga e’tibor berish lozimligini ta’kidlaydi [5].

Ikki shaxs orasida bo‘layotgan suhbat insoniy odatga ko‘ra navbati bilan gapiradi va bir-birini tinglab tushunishga harakat qiladi. Hayotiy tajribadan ma’lumki, o‘z fikrini og‘zaki bayon etish (gapirish) ko‘pchilik yoqtiradigan nutq faoliyatining turidir. O‘zga shaxsni tinglab tushunish orqali turli axborot olinadi. Nutqiy muloqotda bo‘lish odam uchun zaruriy ehtiyoj sanaladi. Tinglash jarayonida so‘zlovchining ifoda etmish mulohazalarini qisman yoki to‘la-to‘kis tushunib yetmaslik hollari bo‘lib turadi. Buning asosiy sababi tinglab tushunishni o‘rgatishga yetarli e’tibor berilmasligidadir.

Tinglab tushunish nutqiy ko‘nikmasini rivojlantirishdagi o‘rni Fikrlashning bu turi o‘quvchini tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Taqdim etilayotgan audiomatnni tinglab, bir vaqtning o‘zida diqqatni jamlab qiyosiy topshiriqlarni bajaradi. Masalan, matn mazmuniga mos kelmaydigan g‘oya yoki xulosani aniqlash; berilgan munosabat bilan hamohang bo‘la oladigan fikrni ilgari surish, chalg‘ituvchi fikrlarni anglash, ishonchli axborotlarni to‘plash kabi nutqiy kompetentlikni namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Глухов В.П. Основы психолингвистики. Учеб. пособие для студентов педвузов. –М.: АСТ: Астрель, 2005. – 177 с.
2. Зимняя И. А. Психология обучения неродному языку. –М., 1989. - 166 с.
3. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. –Тошкент:Ўқитувчи, 1992. 248 б.
4. Ҳамраев Ғ. Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўкув материалларининг методик таъминотини такомиллаштириш: пед. фан. док. (PhD) дисс. - Самарканд: 2019. - 56 б.
5. Qurbonova O., Davletova A. O‘quvchilarning nutq madaniyati va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish’|| https://cyberleninka.ru/

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM FANLARINI O‘QITISHDA TO‘RT BLOK MODEL (TANQIDIY FIKRLASH, IJODKORLIK, MULOQOT VA HAMKORLIK) TATBIG‘I

Sharopova Gulbahor Abduhaliqovna

Karmana tuman 4-IDUM boshlang‘ch sinf o‘qituvchisi, O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshang‘ich ta‘lim fanlarini o‘qitishda o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash,ijodorlik,muloqot va hamjihatlik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.Shuningdek o‘quvchilarning ijodiy va kreativ fikrlash hamda tafakkur qilish qobiliyatlarini takomillashtirish va hayotga qo‘llay olish bo‘yicha metodist va ma‘rifatchilarimizning qarashlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ta‘limiy o‘quv tiopshiriqlari, ilg‘or texnologiyalar, kreativ yondashuv, kompetensiyalar, ijodiy tafakkur, o‘qitish metodikasi,modellashtirish, interaktiv.

Abstract: In this article, the issues of developing students' critical thinking, creativity, communication and cooperation skills in the teaching of primary education subjects are covered. The views of our Methodists and Enlighteners are presented.

Key words: Educational learning theories, advanced technologies, creative approach, competencies, creative thinking, teaching methodology, modeling, interactive.

Аннотация:В данной статье освещены вопросы развития критического мышления, творческих способностей, коммуникативных и кооперативных навыков учащихся при преподавании предметов начального образования, представлены взгляды наших методистов и просветителей.

Ключевые слова: Педагогические теории обучения, передовые технологии, творческий подход, компетенции, творческое мышление, методика обучения, моделирование, интерактив.

Respublikamizda ta‘lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar yosh avlodni barkamol, ma‘naviy va jismonan sog‘lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalashga qaratilganligi milliy an‘analarimiz, mintalitetimizning o‘ziga xos ifodalanishidir.Yosh avlodni davr talablariga mos,puxta bilim olib, mustaqil, erkin fikrlar bildira oladigan, hamda dunyuqarashi keng, raqobatbardoshkadr bo‘lib etishishlariga har bir o‘qituvchi mas‘uldir.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan har bir fan o‘quvchilarning qiziqishiga, mantiqiy tafakkurini, tanqidiy fikrlashni, ijodkorlik bilan yondashuvni, muloqot qila olish, hamkorlikda ishlash aqliy mehnat malakalarini tez rivojlantirishga o‘rgatadi. O‘quvchilarning har qanday o‘quv faoliyati, ya’ni darsga tayyorlash, yangi mavzuni o‘rganish yoki uni mustahkamlash, ijodkorlik, mustaqil fikr yuritish faollik, tashabbuskorlik bilan bajarilishi kerak.

Ta’lim bu – mamalakat taraqqiyoti va rivojlanishining asosiy sharti va asosiy elementi.Ta’lim - o‘zaro hamkorlik, o‘rganish, bilish, idrok etish va hayotga qo‘llashdan iborat.

Bugungi davr dunyo ta‘limi oldiga katta vazifalarni qo‘ymoqda.Bunda asosiy talab yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, tez o‘zgarayotgan dunyoga moslashishni o‘rgatishdan iboratdir. Zamonaviy ta‘lim muassasalarida bugungi kunda pedagog uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishi, fikrlashi, psixologik munosabarlarini o‘zgartirishi, shuningdek o‘quvchilarida ham innovatik g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur.

Milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan darsliklarga o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni egallashga qaratilgan loyiha ishlari, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib, ish va o‘qish jarayonlarida duch keladigan muammo va qiyinchiliklarga yechim toppish ko‘nikmalarini shakllantiradigan o‘quv topshiriqlari kiritilgan.

Hamkorlikda ta’lim texnologiyasining asosiy g‘oyasi o‘quvchilarning o‘quv topshiriqlarini birgalikda , hamkorlikda bajarib, o‘quv-tarbiya maqsadiga erishishdir.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish metodi. Bu metodda kichik guruhlar 2,3 yoki 4nafar o‘quvchidan tshkil topadi.

Ijodkorlik faoliyatida o‘quvchininng psixologik xususiyatlari aqliy yaratuvchanlik,ixtiroga moyilligi,xoxishi va bevosita qiziqishlari muxim ahamiyat kasb etadi.O‘quvchining ijodkorlik qobiliyatlaini rivojlantirish bugungi kunda muxim omillardan biridir.

Tanqidiy fikrlash bu – aqliy qobiliyat va salohiyat natijasidir. U ta’lim-tarbiya va tajribaning mahsuli sifatida shakllanadi. O‘ylash jarayonini faol analiz qilish, sintez qilish va baholash bo‘lib,asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Ko‘pchilik tanqidiy fikrlash deganda muammoning ikkala tomonini ham ko‘ra olish deb izoh beradi.Uni biror fikr yoki harakatni tanqid qilish degan ma’noga buruvchilar ham yo‘q emas. Aslida esa tanqidiy fikrlash tafakkur qilishning eng yuqori bosqichlaridan biri bo‘lib, insonning aniq va oqilona fikrlashidir. U fikrlar, g‘oyalar, voqealar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni aniqlash,fikrlarning dolzarbligini tushunish,ularga baho berish,muammolarga izchil va tizimli yondashishdir.Darslar jarayonida topshiriqlar aynan mana shu ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.Har bir topshiriq, nutqiy vaziyat ostida o‘quvchini fikrlashga undovchi eng kamida bitta savol mavjud bo‘lib,aynan shu savol o‘quvchini asl mohiyatni anglashga yo‘naltiradi, o‘ziga savol berish va vaziyatni baholash tomon olib botadi.Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Aniq va tizimli fikr yuritish g‘oyalarni ifoda etish uslubini yaxshilaydi.Ifoda uslubining yaxshilanishi o‘quvchining tildan yanada samarali va to‘g‘ri foydalanishini anglatadi.

Tanqidiy fikrlash besh g‘oya ustuniga asoslanadi.

*mustaqil fikrlash;

*axborot;

*bilimini doimiy ravishda boyitib borish;

*qarorlarni dalillar bilan asoslab bera olish;

*ijtimoiy hodisalarga bog‘lay olish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash, ijodkorlik,muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘qituvchilar qo‘yidagi sifatlarga ega bo‘lishari talab etiladi:

*tashsbbuskor;

*vijdonli;

*xayrixoh;

*adolatparvar;

*tadbirkor;
*maslahatgo‘y;
*ijodkor;
*talabchan;
*tashabbuskor

Shu bilan bir qatorda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi zamon talablari darajasida darslarni tashkil etishi,taraqqiyot bilan barobar qadam tashlashi, ko‘pchilik dardi bilan yashash,hamkorlik, hamjihatlik,hamijodkorlik bilan ish yuritish, mustaqil fikr yurita olish, maqsadni aniq qo‘ya olish, ishbilarmonlik; samimiy , vazmin, bagrikeng; ijodkor,bunyodkor,yaratuvchi;talabchan, va mehribon; vaqtning qadriga yetadigan; xushmuomala inson bo‘lishi kerak. Zero, A. Disterberg aytganidek Har qanday ta’lim va tarbiyada eng asosiy narsa muallim,uning tafakkur dunyosidir.

Iste’dod egalarini tarbiyalash shunday bir kimyodirki, u qora tuprodni toza oltinga,noqis toshni esa aybsiz gavharga aylantiradi.

Chunonchi aytadilar:

Tarbiyadan tuproq gavhar bo‘ladi.
Nof ichra qon mushki asg‘ar bo‘ladi.
Qiymatsiz qora bir temirni iksir,
Tarbiya aylagach sof zar bo‘ladi! Xoja Samandar Termiziy

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fanlarni o‘qitishda to‘rt blok modelining o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib ularga quyidagilar kiradi:

*O‘quvchining dars davomida befarq bo‘lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
*O‘quvchini dars jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlash;
*O‘qituvchi va o‘quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishi;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan darslarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiribgina qolmay, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ijodiy tafakkur salohiyatlarini takomillashtiradi,ularni o‘z ustida tinmay ishlashga , ijodiy yondoshishga o‘rgatadi.Dars mashg‘ulotlarida to‘rt blok modeli bilan ishlash orqali ijtimoiy hamkorlik, o‘zaro totuvlik, hamkorlikda ishlash, boshqaruvchanlik,o‘zgalar fikrini hurmat qilish, ijodkorlik, kreativ fikrlash, tushunchalarni izohlashga o‘rgatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi “Maktab ta’limini rivojlantirish.2-bosqich loyihasi.
2.O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligining ilmiy-metodik jurnali 1-son 2023 yil.
3.Tafakkur gulshani.Toshkent Adabiyot va san’at nashriyoti.1989-yil.
4.Pedagogika O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent-2010
5.Ona tili va o‘qish savodxonligi .O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.
Toshkent-2022

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIGA QO‘YILADIGAN ASOSIY TALAB

Jabborova Oysara Ibodillo qizi
Navoiy shahar 17- umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi,O‘zbekiston

Annotasiya: Yuksak ma’naviyatli, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda bo‘lajak o‘qituvchilarga qo‘yiladigan asosiy talablar.

Kalit so‘zlar: O‘qituvchi, o‘quvchi, ta‘lim-tarbiya, odob-axloq, o‘rnak, na’muna, talab.

USTOZ, O‘QITUVCHI, MURABBIY! Bu so‘zlar zamirida, o‘z hayotini ta’lim-tarbiyaga baxshida etgan fidoyi inson: barchaning ma’naviy ota-onasi; ilmu ma’rifatga yo‘llovchi, ziyo tarqatuvchi; eng yaqin do‘st va yo‘l ko‘rsatuvchi; mehr va odamiylik bulog‘i; o‘z sohasining zukko bilimdoni; adolat va haqiqat mezoni. Shuning uchun ham barcha kasblar ichida o`qituvchilik-muallimlik kasbi o`ta sharafli va mas`uliyatli hisoblanadi. Mana shu o`rinda tabiiy ravishda savol tug`iladi. Xo`sh, o`qituvchi kim? U qanday sifatlarga ega bo`lmog`i lozim? Xususan, bugungi kun o`qituvchisi qanday malakalar bilan qurollantirilmog`i darkor?

O`qituvchi jamiyatning yosh avlod ta`lim-tarbiyasiga qo`yilgan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijrochisidir. Shuning uchun ham Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miramonovich Mirziyoyev *“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”*deb ta’kidlab, ertamiz egalari bo‘lmish yosh avlodni komil inson, barkamol avlod qilib voyaga yetkazishga davlat siyosatining ystuvor yo‘nalishlari sifatida alohida e’tibor qaratayapti.

Prezidentimiz tomonidan joriy yilning 23-avgustda xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida “Tarbiya” fanini yaratish va o‘qitish tashabbusi ilgari surilishi ham ana shu hayotiy zarurat bilan chambarchas bog‘liq. Shu maqsadda maktablardagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etib, “Milliy g‘oya”, “Odobnoma”, “Dinlar tarixi”, “Vatan tuyg‘usi” kabi fanlarni birlashtirgan holda, “Tarbiya” fanini joriy etish zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari o‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillariga yo‘llagan tabrik nutqida ta’kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir.

Shuning uchun ham, O‘zbekistonda ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. Maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda. Tarbiyaning tub mohiyatini boshlang‘ich ta’limdan boshlash, o‘qituvchilar salohiyatini oshirish, bolalar tarbiyasida ota- onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ya olish o‘qituvchi mahoratining bir ko‘rinishidir. Bugungi kunda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko‘makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir. Har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog‘langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekani ta’kidlandi.

Darhaqiqat, o`qituvchilik kasbida chuqur bilimdonlik, zukkolik o`z kasb mahoratini muntazam shakllantirib borishga ishtiyoq bo`lmas ekan, u yaxshi ustoz-o`qituvchi bo`la olmaydi. Zero, davlatimizning istiqboli, Prezidentimiz tomonidan olg`a surilayotgan barcha islohotlarning ijobiy yechimi va ana shu ko`p mingyillik ziyokorlik ishining samarasi bo`ldi. Shuning uchun ham bugungi mustaqillik sharoitida o`qituvchiliik kasbiga bo`lgan e`tibor va ehtiyoj har qachongiga nisbatan ortib bormoqda. Shuning bilan birga o`qituvchi oldiga qo`yiladigan talablar ham o`zgacha bo`lmoqda. Chunki bugun O`zbekiston mustaqil davlat sifatida jahonga yuz tutar ekan, bu borada pedagog o`qituvchilarning o`z o`rni, o`ziga xos mohiyati borligini unutmaslik lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli qarorida pedagog xodimlar oldiga yuksak ma’naviyatli, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash; yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish; yoshlarni yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash talablarini qo‘ydi. Bu talablarni bajarishda esa pedagog xodimlarning qadr-qimmati va nufuzini oshirish, ularning moddiy-ma’naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish belgilab berildi. O‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar - bu pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatini belgilovchi kasbiy fazilatlar tizimidir.

Odamlar doimo o‘qituvchiga bo‘lgan talabni oshirdilar, uni barcha kamchiliklardan holi ko‘rishni xohladilar. 17-asrning boshida o‘qituvchiga hozirgi kungacha eskirmagan keng va aniq talablarni ishlab chiqdi. Ya.A. Komenskiy o‘qituvchining asosiy maqsadi o‘quvchilarga o‘rnak bo‘lish va shaxsiy o‘rnak orqali ularda o‘zining yuksak axloqi, insonga muhabbati, bilimliligi, mehnatsevarligi va boshqa fazilatlari bilan insonparvarlikni tarbiyalashdan iborat, deb asoslab bergan.

O‘qituvchilar oddiylik namunasi bo‘lishi kerak - oziq-ovqat va kiyimda; quvnoqlik va mehnatsevarlik - faoliyatda; hayo va yaxshi xulq - xulq-atvorda; suhbat va sukunat san'ati - nutqlarda, "shaxsiy va jamoat hayotida ehtiyotkorlik" namunasini ko‘rsatish. Dangasalik, harakatsizlik, passivlik o‘qituvchilik kasbiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Agar siz bu illatlarni talabalardan olib tashlamoqchi bo‘lsangiz, avvalo ulardan o‘zingiz qutuling. Kim eng oliy vazifani - yoshlar tarbiyasini o‘z zimmasiga oladi, u tungi hushyorlik va mehnatsevarlikni bilishi, ziyofatlardan, hashamatdan va "ruhni zaiflashtiradigan" narsalardan qochish kerak. Ya.A. Komenskiy o‘qituvchidan bolalarga e'tiborli bo‘lishni, do‘stona va mehribon bo‘lishni, o‘zining qattiq muomalasi bilan bolalarni o‘zidan uzoqlashtirmaslikni, balki ularni otalik fe'l-atvori, odob-axloqi va so‘zlari bilan jalb qilishni talab qiladi. Bolalarni oson va quvonch bilan o‘rgatish kerak, "ilm ichimligi kaltaksiz, baqiriqsiz, zo‘ravonliksiz, jirkanchsiz, bir so‘z bilan aytganda, do‘stona va yoqimli yutib yuboriladi" deb ta’kidlab o‘tgan.

Zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yiladigan qator talablarda ma’naviyat yetakchi o‘ringa qaytmoqda. Murabbiy o‘zining shaxsiy xulq-atvori, hayotga munosabati bilan ma’naviy hayot namunasi ko‘rsatishga, o‘quvchilarni yuksak insoniy fazilatlar, haqiqat va ezgulik g‘oyalari asosida tarbiyalashga majburdir. Bugungi kunda ko‘plab jamoalar o‘z farzandlarining o‘qituvchisidan mo‘min bo‘lishini talab qiladilar, ular o‘z farzandlarining axloqiy tarbiyasini ishonib topshirishlari mumkin.

Darhaqiqat, faqat yaxshi tarbiya ko‘rgan avlodgina kelajagi buyuk davlatni qura oladi. Tarbiya asosini abadiy qadriyatlar tashkil qiladi. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo‘lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta’lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonunida: Tegishli ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega ekanligi, pedagog xodimlar voyaga yetmagan ta’lim oluvchilar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini ularnin ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi belgilab berilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida hamda

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida yosh avlodni tarbiyalashda bo‘lajak o‘qituvchilarga qo‘yiladigan asosiy talablar asoslab berilgan.

Respublikamiz hukumati xalq ta’limi sohasi oldiga qo‘yayotgan vazifalarni bajarish ko‘p jixatdan o‘qituvchiga bog‘liq. Yangi siyosiy, iqtisodiy, madaniy sharoitlarda ta’lim oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarning hilma-xil faoliyatni uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish pedagog zimmasiga yuklatilgan. Demak, tarbiyaviy ishlar o‘qituvchidan tarbiyachi sifatida o‘zida bor mahoratni amalda qo‘llashni talab etadi.

Darhaqiqat yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson qilib tarbiyalashda ularning ma’naviy qirralari: iymon, e’tiqod, mehr, vatanparvarlik, do‘stlik, insonga cheksiz muhabbat, muruvvatlilik, qanoatlilik va sabr-toqatlilik, sahiylik, milliy g‘urur kabi fazilatlarini shakllantirish juda muhimdir. Bu mislsiz tengi yo‘q ishda o‘qituvchilarning, tarbiyachilarning, ta’lim sohasida ma’sul xodimlarning xizmati benihoyat kattadir.

Sharq mutaffakirlaridan biri, buyuk olim **Abu Ali ibn Sino** (Avitsenna) tarbiya masalalarini ifodalagan asarlarida o‘qituvchining roli katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib o‘tgan va tarbiyachini tanlash muhim vazifa deb hisoblagan. U bola 6 yoshga to‘lishi bilan uni o‘qituvchining tarbiyasiga berishni tavsiya qiladi.

Tarbiyachi–rostgo‘y, dono, oddiy kiyinadigan, xushmuomala bo‘lishi zarurligini uqtirgan va yosh avlodni o‘qitadigan hamda tarbiyalaydigan kishilar oldiga bir qancha talablar qo‘ygan.

O‘qituvchi maktabda ta’lim bilan bir qatorda tarbiyani ham uzviy –bog‘lab olib boradi. Uning muhim vazifasi faqat tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egalashgina emas, balki ularni tadbiq etishning alohida yo‘llarini izlash, har bir muayyan holatda ularni bir-biriga qo‘shib olib borishdan iboratdir. Demak, tarbiya ishida izchillik juda muhimdir. “O‘sib kelayotgan yosh avlod har tomonlama mukammal, irodali, sof vijdon bilan kamolga yetishi uchun eng avval ma’naviy-ma’rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko‘tarishning ahamiyati beqiyos ulug‘” ekan, barkamol avlodni shakllantirishda o‘qituvchi-tarbiyachilar roli benihoyat yuqoridir. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki mamlakatning moddiy va ma’naviy yuksalishida xalqimizning boy ma’naviy merosga, umumbashariy qadriyatlarga, zamonaviy madaniyatga ega bo‘lgan, har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yuritadigan shaxsni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammosidir. Bu borada qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida barkamol avlodni shakllantirish va yuqari malakali mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazish bosqichlari, shu bilan birga yuqori malakali mutaxassilar tayyorlashni jahon ta’limi darajasiga ko‘tarish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan. Bu vazifalarni amalga oshirish barkamol avlodni har tomonlama tarbiyalab voyaga yetkazishdek istiqbolli muammoni hal etishni ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi o‘qituvchi-murabbiylar, shu yo‘nalishda ijod qiluvchi mutaxassis olimlar, jamoat tashkilotlari, rahbar xodimlar oldiga qo‘yilishi davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni - Toshkent sh. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
2. Vazirlar Mahkamasining “Tarbiya” fani konsepsiyasi -2020-yil 6-iyun, 422-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori - 2018- yil 14 avgust, PQ-3907.
4. A.Xoliqov Pedagogik mahorat -Toshkent “Iqtisod moliya” 2011-yil.
5.4-sinf Tarbiya darsligi. 2023-yil

O‘QUVCHILAR TAFAKKURINI O‘STIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Abdumajidova Sevara Sayriddin qizi
Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi 66-sonli umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, O‘zbekiston
Dexqonboyeva Dildora Abdukaimovna
Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumanidagi 68-sonli umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi,
Saydaliyeva Nilufar Abduvaliyevna
Toshkent shahar Chilonzor tumani 200-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, O‘zbekiston

Annotatsiya:Ushbu maqolada o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida so‘z yuritilib, unda bugungi kunda shaxsning qiziqishi, uning insonlarga munosabati, ijodiy rivojlanishi uchun yaqindan yordam beradigan pedagogik texnologiya axborot - kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanib matematikani o‘qitish jarayonida zamonaviy yondashuvlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, tafakkur, matematika, texnologiya, pedagogik texnologiya, ta’lim-tarbiya, o‘quv vochsitalar.

Аннотация: В данной статье говорится об использовании педагогических технологий в развитии мышления учащихся, при которых сегодня в процессе обучения используются педагогические технологии, тесно способствующие интересу человека, его отношению к людям, творческому развитию. математики с использованием средств информационных и коммуникационных технологий.

Ключевые слова: студент, мышление, математика, технология, педагогическая технология, образование, образовательные средства.

Annotation: This article talks about the use of pedagogical technologies in the development of students' thinking, in which today in the learning process pedagogical technologies are used that closely promote a person's interest, his attitude towards people, and creative development. mathematics using information and communication technologies.

Key words: student, thinking, mathematics, technology, pedagogical technology, education, educational tools.

XXI asr fan va texnologiyalar asrida mustaqil Respublikamiz ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko‘lamni qamrab olmoqda. Axborotlarning qanchalik sog‘lom yoki nosog‘lom ekanligini farqlay olish, ulardan yetarlicha to‘g‘ri foydalana olish, axborotlarni tezkor sur’atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o‘quvchiga yetkaza berishni yo‘lga qo‘yish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda shaxsning qiziqishi, uning insonlarga munosabati, ijodiy rivoji axborot - kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanib matematikani o‘qitish jarayonida zamonaviy yondashuv sifatida qaralmoqda. Bu esa, birinchidan shaxsni barcha pog‘onalarda rivojlantirish ta’lim maqsadi ekanligi; ikkinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanilganda osongina amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan motivasion momentni kuchaytirish ta’limning asosiy qismi ekanligi bilan shartlashilgan. Bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish ta’lim oluvchi shaxsining ijobiy-ahamiyatli sifatlariga tayangan holda uning faol qiziqishida amalga oshiriladi. Yuqorida qayd etilganlar asosida har bir ta’lim oluvchining individualligi tan olingan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini qo‘llab individni o‘qitishda asosiy qadriyat sifatida uni rivojlantirish yotadigan shaxsiy yondoshuvni ko‘zda tutadi.

Hozirgi vaqtda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni ishlab chiqish va qo‘llashga turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning tahlili quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi; ma’lum ma’noda ana’naviy pedagogika shaxsga yo‘naltirilgan, chunki uning asosiy vazifasi shaxsni rivojlantirishdir, ammo, differensial yondoshuv murakkabligi tufayli ta’lim oluvchi hali shaxs deb hisoblanmaydi; ko‘pgina mualliflarning fikricha, ta’lim standartlarini hisobga olgan holda, ta’lim oluvchining qadriyati va o‘ziga hosligi, individualligi shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosi hisoblanadi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini qo‘llash sharoitida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim vazifa, maqsad va tamoyillarini ko‘rib chiqish zarur.

Hozirgi vaqtda turli xil pedagogik texnologiyalar mavjud bo‘lib, ular bir-biridan yo‘nalishi va maqsadi bilan farqlanadi. Lekin umumiy jihati o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishga yordam berishidir.

Biz bilamizki, keyingi yillarda ta’lim berishda o‘quvchilarni faollashtirish hamda ular tafakkurini rivojlantirish masalalariga e’tibor kuchaygan bo‘lsa-da, uni amalda qo‘llash juda sust bormoqda.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda ta’limni takomillashtirish, o‘quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish, rivojlantiruvchi ta’lim, ta’limning faol yangi (innovasion) metodlari, muammoli o‘qitish metodi, dasturlashtirilgan ta’lim kabi atamalar negizida o‘nlab nazariyalar, yondashishlar to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Har qaysi konsepsiya o‘z zamonasi uchun ilmiy progressiv g‘oyani ilgari surgan va ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini muayyan darajada oshirishga xizmat qilib kelgan. Lekin ularning har biri alohida ilmiy uslubiy jihatdan tahlil qilinsa, o‘zining bir tomonlamaligi bilan ko‘zga yaqqol tashlanadi. Bunday umumiy nuqsonning asosiy sababi pedagogik texnologiyaning barcha tarkibiy qismlarining ham nazariy mulohazada, ham amaliy faoliyatda qamrab olinmaganligidir. Ushbu kamchilikni keltirib chiqaruvchi bosh omil – ta’lim-tarbiya jarayoniga sub’yekt–sub’yekt (ya’ni o‘qituvchi-o‘quvchilar) o‘rtasidagi individuallashgan munosabatning yo‘qligi. Binobarin, ta’lim-tarbiya jarayoni bir tomonlama ta’sir o‘tkazish va axborot (ma’lumot, bilim) uzatish, har xil xususiyatli malakalar shakllantirish tamoyillariga bo‘ysundirilgandir. Natijada ta’lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilari o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasida teng huquqiylik buzilishi yuz berganligi tufayli birining ikkinchisi ustidan ustuvorligi hukmronligi qonuniy ahamiyat kasb etgan. O‘quvchilar o‘quv motivlari, tabiiy mayllari, iste’dodi, salohiyati, saviyasi, uquvi zehni mazkur jarayonda hisobga olinmagan. Ta’lim-tarbiya jarayonida sub’yekt (o‘qituvchi) - sub’yekt (o‘qituvchi yoki o‘quvchi) munosabati yaratilmas ekan, samaradorlik, mustaqil (ijodiy) fikrlash to‘g‘risida gap ham bo‘lishi mumkin emas.

Ta’lim-tarbiya mazmuni to hozirgi kungacha kommunikatsiya, ya’ni biryoqlama axborot ueatish (o‘qituvchi axborot manbai, o‘quvchi esa uni qabul qiluvchi) asosida qurilib kelinmoqda.

Hozirgi zamon o‘qituvchisi o‘quvchilarining tafakkurini shakllantirishi uchun quyidagilarga e’tibor qaratmog‘i lozim:

- ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta’minlanganligi;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollanishi;
- metodologik jihatdan fanni yaxshi tushunishi;
- o‘z fani qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirishi;
- psixologiya va pedagogika bilimlariga egaligi.

Biz o‘quvchilarning tafakkurini shakllantirishga samarali ta’sir etadigan quyidagi usullar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

- “Tarmoqlar” (Klaster);
- Dialogli o‘qitish usuli;

- Matnlar bilan ishlash orqali;
- “Xulosa” (VENN texnologiyasi).

Tarmoqlar (Klaster)–fikrlarningtarmoqlanishi bo‘lib, u o‘quvchilar mavzuni chuquro‘zlashtirishga hamda mavzuga taalluqli aniqfikrni erkin ravishda ketma-ketlik bilan uzviybog‘langan tarmoqlarini o‘rgatadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning fikrini jalb qilish maqsadida bir so‘z yozadi.

Bunday shaxsga yo‘naltirilgan yondoshuvni qurish esa ta’lim oluvchining shaxsiy ikoniyatlari va ehtiyojiga yo‘naltirilgan, zarur bo‘lganda har bir ta’lim oluvchining shaxsiy trayektoriyasiga tuzatishlar kiritish mashg‘ulotlarni tabaqalashtirish va individuallashtirishga imkon beradigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalangandagina mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimini loyihalash quyidagilarni ko‘zda tutadi: ta’lim oluvchini o‘quv jarayonining asosiy sub’yekti sifatida tan olish; ta’lim oluvchining individual xususiyatlarini rivojlantirish; ta’lim oluvchining sub’yektiv tajribasini aniqlash va tuzilmalashtirish orqali qo‘yilgan maqsadga erishishni ta’minlovchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini aniqlash

Foydalanilgan adabiyotlar royhati

1.Ta’lim samaradorligini oshirish yullari. Toshkent 2002 yil.

2. Golish L.V. Faol o‘qitish usullari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. Ekspress qullanma T.: TASIS, 2001 yil

3. Farberman B.L «Ilg‘or pedagogok texnologiyalar» Toshkent 2000 yil

4. N. Sayidaxmedov «Yangi pedagogik texnologiya» Toshkent. 2003 yil.

5. Ishmuxamedov R.J «Innovasion texnologiyalar èrdamida ta’lim samaradorligini oshirish yullari».(Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun uslubiy tavsiyanoma) Toshkent 2003 yil.

6. «Oliy o‘kuv yurtlarida o‘qitishning zamonaviy usullari». O‘quv uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2002 yil.

7. U.Tolipov. M. Usmonboyeva «Pedagogik texnologiya: nazariya va amalièt» Toshkent 2005 yil

8. Boliyev. M. N. «Ilg‘or pedagogik texnologiya» Samarqand 2005 yil.

9. Anorqulova G.M. Parpiyev O. Kasb-hunar ta’limida pedagogik o‘yinlardan foydalanish. Uslubiy tavsiyanoma. T - 2011

FIZIKADAN O‘QUVCHI TOMONIDAN MUSTAQIL BAJARILADIGAN AMALIY TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI

Abdiyev Dilshod Azadovich

O‘zbekiston respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Ixtisostirilgan ta'lim muassasalari agentligi Qashqadaryo viloyati Kitob tuman ixtisoslashgan maktab internati matematika fani o‘qituvchisi, O‘zbekiston.

Darsdan tashqari vaqtlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda o‘quvchilar ilmiy, ilmiy-ommabop, fantastik va boshqa adabiyotlar bilan tanishish orqali o‘zlarining bilim doirasini kengaytirish va chuqurlashtirishlari mumkin. Bunday o‘quvchilar kelgusida tabiatda kuzatiladigan hodisalarning fizik mohiyatini to‘g‘ri anglash bilan birga hayotda uchraydigan ayrim tabiiy ofatlarning oldini olish va ulardan saqlanish, hatto ulardan o‘z ehtiyoji uchun foydalanishi mumkinligi haqida tasavvurga ega bo‘lishadi. Bunday o‘quvchilarda fanga, texnikaga bo‘lgan qiziqish ortadi hamda ilmiy-materialistik dunyoqarash shakllana boradi.

Ma’lumki, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar juda ko‘p va xilma-xil bo‘lishi bilan birga, bu mashg‘ulotlarning barchasini maktabda o‘tkazish imkoni bo‘lmaydi. Buning turli hil sabablari bor albatta. Shu sababli ba'zi amaliy topshiriqlarni o‘quvchilarning o‘zlari uyda mustaqil bajarishlariga to‘g‘ri keladi. Buning bir qator ijobiy tomonlari bor, jumladan:

1. O‘quvchi fizik hodisalar haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi va ularni taqlil qila oladi.
2. O‘quvchilarning fizika fani bo‘yicha nazariy bilimlari chuqurlashadi.
3. Ularning fizikadan amaliy ko‘nikma va malakalari shakllanadi.
4. O‘quvchining darslik va qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanish, mustaqil bilim olish ko‘nikmasi shakllanadi.
5. O‘z-o‘zini baxolashni o‘rganadi.
6. Va nihoyat o‘quvchining fizika faniga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

Shuning uchun xam o‘quvchi tomonidan bajariladigan amaliy ishlarning ahamiyati juda katta. Ayniqsa, fizika fanini “yeng shimarib” endigina o‘rganishni boshlagan 6-sinf o‘quvchilari uchun bunday topshiriqlar o‘zining soddaligi, qiziqarliligi, qolaversa, fizik tasavvurni shakllantirishi bilan ahamiyatlidir. Fizika fani uchun mustaqil ishlardan namunalar keltiramiz:

1. Salqin ichimlikdan bo‘shagan idishni (baklajka) olib, turli balandlikda bigiz yoki ingichka mix yordamida tirqishlar oching. Tirqishlarni gugurt cho‘pi bilan berkitib, suv to‘ldiring. Gugurt cho‘plarini navbat bilan olib, suvning otilish uzoqligini aniqlang. Sababini tushuntiring.

Aynan bu topshiriqni bajarish orqali o‘quvchi gidrostatik bosim to‘qrisida olgan bilimlarini amaliyotdagi isbotini ko‘radi

2. Uyda qog‘ozdan turli ko‘rinishdagi varrak yasang. Qaysi varrakda ko‘taruvchi kuch katta bo‘lishini asoslashga urinib ko‘ring.

O‘quvchi bu topshiriqni bajarganda birinchidan, “Xarakatlanuvchi suyuqlik va gazlarning ta'siri” mavzusida o‘rgangan bilimlarni mustahkamlaydi va shu bilimlarga tayanib hodisani asoslashga urinib ko‘radi. Qolaversa, o‘quvchi turli ko‘rinishdagi varraklar yasash orqali mehnat qilishga o‘rganadi.

“Yorug‘lik hodisalari”ga oid amaliy topshiriqni ko‘rib chiqaylik:

3. Piyola olib, uning ichiga tanga soling. Piyolani stol ustiga qo‘yib, undan tanga ko‘rinmaydigan joygacha uzoqlashing. O‘rtoqingizdan piyolaga suv qo‘yishni so‘rang. Shunda tanga yana ko‘rinadigan bo‘ladi. Sababini tushuntiring.

Bu topshiriq orqali xam o‘quvchilarda yoruqlikning sinishi xaqidagi bilimlari mustaxkamlanadi.

Yuqorida misol tariqasida faqatgina bir nechta amaliy topshiriqni ko‘rib o‘tdik. Undan tashqari fan o‘qituvchilari xam mavzularni mazmunini yanada ochib beradigan va o‘tilgan mavzuni mustaxkamlashga xizmat qiladigan shu kabi amaliy topshiriqlarni boshqa adabiyotlar va internet saytlaridan topib o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib uylarida mustaqil bajarishlari uchun vazifa qilib bersa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Quyida shu kabi amaliy topshiriqlardan misol keltiramiz.

a) Sham va pufak oling. Shamni yoqing va pufakni shishirib olovga tuting, pufak yorilib ketadi. Boshqa pufak oling va ichiga suv solib shishiring va shamni yoqib pufakni olovga tuting, pufak yorilmaydi. Sababini tushuntiring.

Judayam qiziqarli topshiriq. Bu kabi topshiriqlar o‘quvchilarning kuchli qiziqishi va fanga bo‘lgan “muxabbati”ni ortishiga sabab bo‘ladi. Albatta, xar bir topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchi texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilishi lozimligi fan o‘qituvchisi tomonidan o‘quvchilarga aytib o‘tilishi va o‘qtirilishi lozim.

b) Ikkita banka oling. Birinchi bankaga issiq suv va ikkinchisiga sovuq suv soling. Sovuq suvga ozroq ko‘k bo‘yoq, issiq suvga esa qizil bo‘yoq solib aralashtiring. Sovuq suvli idishning og‘zini qog‘oz bilan berkiting va issiq suvli idish ustiga to‘nkaring, qog‘ozni sekin olib tashlang. Kuzating ikkala idishdagi suvlar aralashib ketadi. Shu topshiriqni takroran bajaring, faqat bu safar issiq suvli idishni sovuq suvli idish ustiga to‘nkaring. Kuzating ikkala idishdagi suvlar aralashib ketmaydi. Sababini tushuntiring.

c) 3 ta stakan va 3 dona tuxum oling. Birinchi stakanga suv soling va tuxum soling. Tuxum stakan tubiga cho‘kib tushadi. Ikkinchi stakanga suv soling va 2-3 osh qoshiq tuz solib aralashtiring hamda tuxumni soling. Tuxum suv yuzida qoladi. Uchinchi stakan yarmigacha suv soling va tuz solib aralashtiring keyin tuxumni soling. Tuxum suv yuzida qoladi, so‘ngra ustidan sekin suv quying. Ma'lum miqdorda suv quyganingizdan so‘ng tuxum suv o‘rtasida qoladi. Har uchala hodisani kuzatib sababini tushuntiring.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘quvchi fanni faqat dars paytida emas, balki darsdan tashqari paytlarda ham o‘rganishi, o‘zlashtirishi zarur. Bu uni chuqur nazariy bilimga, yetarli amaliy ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishiga va pirovard natijada hayotda uchraydigan muammolarni ongli ravishda qiyinchiliklarsiz hal etishiga olib keladi.

OBYEKTGA YO‘NALTIRILGAN DASTURLASHDA ARALASH TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI

F.D.Xodjabayev
Navoiy davlat pedagogika instituti “Informatika” kafedrasi o‘qituvchisi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada obyektga yo‘naltirilgan dasturlashda aralash ta’lim texnologiyasidan foydalanish tamoyillari haqida fikr yuritilgan hamda virtual muhitlardan foydalanish tamoyili amaliy asoslangan.

Tayanch so‘zlar: aralash ta’lim texnologiyasi, elektron ta’lim resursi, tamoyil, kompetentlik, virtual muhit, obyektga yo‘naltirilgan dasturlash.

ПРИНЦИПЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ СМЕШАННОГО ОБУЧЕНИЯ В ОБЪЕКТНО-ОРИЕНТИРОВАННОМ ПРОГРАММИРОВАНИИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются принципы использования технологии смешанного обучения в объектно-ориентированном программировании и практически основан принцип использования виртуальных сред.

Ключевые слова: технология смешанного обучения, электронный образовательный ресурс, принцип, компетентность, виртуальная среда, объектно-ориентированное программирование.

PRINCIPLES OF USING BLENDED LEARNING TECHNOLOGY IN OBJECT-ORIENTED PROGRAMMING

Annotation: This article discusses the principles of using blended learning technology in object-oriented programming and the principle of using virtual environments is practically based.

Key words: blended learning technology, e-learning resource, principle, competence, virtual environment, object-oriented programming.

Aralash ta’lim texnologiyasini dasturlash amaliyotiga tatbiq etish uchun tayaniladigan tamoyillarni aniqlashtirish yoki takomillashtirishda avval olimlar tomonidan fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda, raqamli ta’lim vositalardan foydalanishda, tavsiya etgan tamoyillarni tahlil etish talab etiladi. Chunki aralash ta’limi texnologiyasini qo‘llashda raqamli ta’lim vositalaridan foydalaniladi. Shuning uchun raqamli ta’lim vositalari aralash ta’lim texnologiyasini qo‘llashda asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Xususan, M.H.Lutfillayev tabiiy fanlarni elektron ta’lim resurslar yordamida o‘qitishda tayaniladigan tamoyillarni aniqlashtirgan. Uning tadqiqotida tabiiy fanlar uchun yaratiladigan elektron ta’lim resurslarga qo‘yiladigan tamoyillarni ishlab chiqqan [1]. A.O.Norbekov pedagogika oliy ta’lim muassasalarida “Kompyuter ta’minoti” fanini o‘qitishda axborot-ta’lim muhitlaridan foydalanishga oid tamoyillarni takomillashtirgan [2]. U.B.Baxodirova mikrobiologiya fanini o‘qitishda virtual ta’lim texnologiyalardan foydalanishda tayaniladigan tamoyillarni ishlab chiqqan [3]. U.M.Mirsanov umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematikani amaliy dasturlar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirishda tayaniladigan tamoyillarni nazariy va amaliy jihatdan asoslagan [4].

Ushbu olimlarning bildirishicha, ta’lim tamoyillarining asosiy g‘oyalari har qanday boshlang‘ich nazariya, qonun, ta’lim konsepsiyasi negiziga bog‘liq hisoblanadi. Tamoyillar to‘plami muayyan uslubiy yoki mafkuraviy asosga ega konseptual tizimni tashkil etadi. Turli pedagogik tizimlar (texnologiyalar) ta’limga oid qarashlari va amaliyotga tatbiq etadigan tamoyillari tizimidan farq qilishi mumkin. Shuning uchun bir tomondan tamoyillar ta’lim nazariyasining ba’zi metodologik asoslarini ta’riflaydi, boshqa tomondan ular amaliy faoliyatni tashkil etish uchun me’yoriy talablar kabi vazifalarni bajaradi.

Ammo fanlarning mazmuniga, talabalarning psixologik xususiyatlariga va ko‘rsatmali qo‘llanmalar mavjudligiga bog‘liq holda tayaniladigan tamoyillar mazmuni o‘zgaradi. Masalan, ko‘rsatmalilik tamoyili matematikani o‘qitish jarayonida grafiklarni, sohalarni va geometrik shakllarni namoyish etishda qo‘l kelsa, tillarni o‘qitishda grammatika jadvallarini ko‘rsatish, doskaga yozish, chizmalarni chizish kabilardan foydalanish foydali bo‘lishi mumkin [4]. Dasturlashda esa ko‘rsatmalilik tamoyili masalalarni dasturlash va turli obyektlarni boshqaruvchi amaliy dasturlar tayyorlashda videodarslardan foydalanishni taqozo etadi. Shu bois, fanlarning xususiyatlarida, foydalaniladigan o‘quv vositalardan va ta’lim texnologiyalarning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda tayaniladigan tamoyillarni aniqlashtirish lozim.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy-metodik ishlarini tahlil etish asosida talabalarning obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillariga oid kompetentligini rivojlantirishda aralash ta’lim texnologiyasidan foydalanish uchun tayaniladigan tamoyillar aniqlashtirildi:

- Raqmli vositalardan samarali foydalanish tamoyili;
- Ketma-ketlik tamoyili;
- Amaliyotga yo‘naltirilgan tamoyil;
- Davomiylik tamoyili;
- Qo‘llab-quvvatlash tamoyili;
- Mashg‘ulotni shaxsiylashtirish tamoyili;
- Virtual muhitlardan foydalanish tamoyili.

Jumladan, virtual muhitlardan foydalanish tamoyili talabalarning obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillarini o‘rganishda va jamoa bo‘lib loyihalar tayyorlashda virtual muhitlardan masofaviy foydalanishini anglatadi. Talabalar virtual muhitda masofaviy jamoa bo‘lib, dasturlashni o‘rganishi individual tartibda o‘rganishdan sezilarli darajada farq qiladi. “Chunki virtual muhitda masofaviy jamoa bo‘lib ishlagan talabalar interfaol g‘oyalar asosida berilgan masalani dastur kodini onlayn muhokama qilish orqali tengdoshlarining kamchiliklarini tuzatib, o‘z yechimlarini taklif etib boradi. Bu o‘z navbatida talabalarning dasturlashga oid mantiqiy va algoritmik fikrlashini rivojlantirishga hamda turli murakkab amaliy loyihalarni loyihalash kompetentligini rivojlantirishga erishiladi. Shuning uchun bugungi kunda talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatida virtual muhitlardan foydalanib dasturlashni masofaviy jamoa bo‘lib o‘rganish madaniyatini shakllantirish kerak” [5]. Buning uchun quyidagilarga e’tibor qaratish lozim: 1) talabalarning virtual muhitlardan jamoa bo‘lib dasturlashni o‘rganishga oid madaniyatini shakllantirish, motivatsiyasini va ijodiy qobiliyatini oshirish hamda ilmiy, amaliy muammolarni yechishga jalb etish; 2) dasturlash tillariga oid berilgan amaliy vazifalarni ta’lim muhitlaridan foydalanib bajarish; 3) dasturlash tillariga oid masofaviy o‘qitish tizimlaridan foydalanish bo‘yicha malakalarini shakllantirish.

Buning natijasida talabalarning virtual muhitlardan foydalanish orqali turli obyektlarni boshqaruvchi amaliy dasturlarni yaratishga oid malakalari shakllanadi. Shuningdek har bir talabada o‘zlari uchun zarur bo‘lgan axborotlar bazasini yaratishga bo‘lgan intilish vujudga keladi. Mazkur jarayonda professor-o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan muammoni yechish uchun talabalarda jamoa bo‘lib ishlash madaniyati shakllanadi, shuningdek, tengdoshlari bilan egallagan bilimlarini boyitish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayonda ularga yangi bilimlar bilan boyitilgan ta’lim muhitlari samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, aralash ta’lim texnologiyasidan foydalanib, talabalarning obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillariga oid kompetentligini rivojlantirishda, yuqorida keltirilgan tamoyillardan foydalanish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1. Лутфиллаев М.Ҳ. Олий таълим ўқув жараёнини такомиллаштиришда ахборот технологияларини интеграциялаш назарияси ва амалиёти (Информатика ва табиий фанлар мисолида) //

Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2007. – 246 б.

2. Норбеков А.О. Педагогика олий таълим муассасаларида “Компьютер таъминоти” фанини ўқитиш самарадорлигини ошириш методикаси // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Қарши, 2021. – 169 б.

3. Баходирова У.Б. Микробиология фанини ўқитишда виртуал таълим технологияларидан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Қарши, 2020. – 160 б.

4. Мирсанов У.М. Умумий ўрта таълим мактабларида математикани амалий дастурлар ёрдамида ўқитиш самарадорлигини ошириш методикаси (5–6-синфлар мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019. – 190 б.

5. Mirsanov U.M. Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash tillarini o‘qitish nazariyasi va amaliyoti // Monografiya. – Navoiy, 2023. – 168 b.

JISMONIY MADANIYATNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Axmedov G‘.
tayanch doktorant, NamDU, O‘zbekiston

Annotatsiya: Maqolada jismoniy madaniyatning tendensiyalari haqida so‘z yuritilib, unda zamonaviy jamiyatda axolining sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish uchun bajariladigan vazifalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy mashqlar, aholining jismoniy tarbiya savodxonligi.

Аннотация: В статье говорится о тенденциях развития физической культуры, упоминаются задачи, решаемые для развития здорового образа жизни населения в современном обществе.

Ключевые слова: физическая культура, здоровый образ жизни, физические упражнения, физкультурная грамотность населения.

Annotation: The article talks about trends in the development of physical culture, mentions the tasks being solved for the development of a healthy lifestyle of the population in modern society.

Key words: physical culture, healthy lifestyle, physical exercise, physical education literacy of the population.

Jismoniy madaniyat o‘zining ijtimoiy ma’nosida jamiyat umumiy madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib xizmat qiladi. U asosan o‘ziga xos faoliyat sifatida, shaxsni har tomonlama barkamol rivojlantirishga qaratilgan madaniyatning alohida sohasi qadriyatlarini o‘zlashtirishning ijtimoiy jarayoni sifatida qaraladi.

Jismoniy tarbiya juda murakkab hodisadir. U moddiy va ma’naviy qadriyatlarga, murakkab institusional tizimga ega, muayyan jamoalar va odamlar guruhlarini birlashtiradi, ijtimoiy faoliyatning murakkab o‘ziga xos jarayoni va tegishli natijalar bilan tavsiflanadi. Keng ma’noda jismoniy madaniyat murakkab ijtimoiy faoliyat sifatida, umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning tarkibiy qismi sifatida qabul qilinadi.

Zamonaviy jamiyat hayotida jismoniy madaniyat katta rol o‘ynaydi, chunki u insonga uning jismoniy va ma’naviy birligida shaxsni yaxlit ko‘paytirish imkoniyatini beradi. Uning ijtimoiy rolini yetarlicha baholamaslik, mohiyatini faqat jismoniy faoliyatga qisqartirish aholi salomatligi darajasi, umr ko‘rish davomiyligi, jamiyatdagi ma’naviy-psixologik iqlim, uning jismoniy madaniyat qadriyatlariga munosabati kabi muhim ko‘rsatkichlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy faollik (jumladan, jismoniy tarbiya va sport) ko‘p jihatdan shaxsning ma’naviy qiziqishlari va ehtiyojlari tarkibini, uning motivlari va qadriyat yo‘nalishlari, imtiyozlari va munosabatlarini belgilaydi. Hozirgi kunda ko‘pchilik yoshlar uchun qiziqish va ehtiyojlarning yo‘naltirilganligi, ularning jismoniy tarbiya va sport faoliyati sohasidagi rivojlanish darajasi jismoniy mashqlarga ijobiy munosabatning deklarativ tarzda eolon qilinishi bilan tavsiflanadi, lekin amaliy amalga oshirish bilan emas. Ko‘pincha, sport bilan bog‘liq bo‘lgan tomoshabin faoliyati motorli faoliyatdan ustun turadi.

Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanishga to‘sqinlik qiluvchi eng keng tarqalgan subektiv omillarga quyidagilar kiradi: shaxsning tartibsizligi (passivlik, faol bo‘sh vaqtni tashkil eta olmaslik, bo‘sh vaqtdan oqilona foydalanish va boshqalar), jismoniy mashqlar zarurligiga shaxsiy ishonchning yo‘qligi, jismoniy tarbiya darajasining pastligi; jismoniy madaniyat qadriyatlarini o‘zlashtirishda motivatsiya, qiziqish va ehtiyojlarning kam rivojlanganligi va beqarorligi.

Aholining jismoniy tarbiya savodsizligi, ularning sog‘lig‘iga befarqligi (ma’lum bir nuqtaga qadar) sabablari xilma-xil bo‘lib, sanab o‘tilgan salbiy omillar majmuasi bilan emas, balki hukmron turmush tarzi, jamiyatimizning jismoniy tarbiyaga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. odamlar salomatligi ishlab chiqarish munosabatlarining tarkibiy qismi sifatida.

Jismoniy tarbiya konsepsiyasi va dasturi allaqachon qabul qilingan. Jismoniy tarbiyaning yo‘nalishi va mazmuni aniqlanadi.

Biroq, radikal o‘zgarishlar hali kuzatilmagan. Eski yondashuvlar yangi dasturlarda takrorlanishda davom etmoqda, konseptual asoslar mustahkam bo‘lib qolmoqda. Go‘yo hech qanday voqea sodir bo‘lmagan va ta’lim

tizimining qatoiy imperativlarini belgilaydigan hujjatlar mavjud emas: uzluksizlik, moslashuvchanlik, insonparvarlik va demokratiya. Buyruqbozlik-ma'muriy tizimning "eng yaxshi" an'analarida tuzilgan jismoniy tarbiya bo‘lim dasturlari nashr etilmoqda. Shunday qilib, jismoniy tarbiyada muammoli vaziyat vujudga keldi, uning mohiyati ijtimoiy talablar darajasi va jismoniy tarbiya samaradorligi o‘rtasidagi ziddiyatdadir. Uni faqat moddiy-texnik bazasini yaxshilash, professor-o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini mamlakatimizda mavjud imkoniyatlar doirasida yuksaltirish orqali hal qilishga urinishlar kutilgan natijani bermayapti. Jismoniy tarbiya muammosining yechimini faqat shu yo‘nalishda izlash taktik va uslubiy jihatdan xato bo‘lar edi. Keyingi yillarda ta'lim tizimi ijtimoiy ishlab chiqarishning insonni hayotga tayyorlovchi, ilg‘or rejimda faoliyat yurituvchi dinamik qismiga aylandi. Uning maqsadlari, ishlash tamoyillari, dasturiy taominot va tartibga soluvchi qo‘llab-quvvatlash o‘zgarishlarga duch kelmoqda, bu esa bozor konoyunkturasi va istiqbolli ijtimoiy tartibga yanada nozikroq javob berishga imkon beradi. Jismoniy tarbiya ta'lim tizimining bir qismi sifatida uning rivojlanishi va faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq o‘zgartirilishi kerak. Jismoniy tarbiyaning dasturiy taominoti va me'yoriy taominotini, amaldagi ishlarning real holatini tahlil qilish bunday muvofiqlikka hali erishilmagan deb hisoblashga asos beradi. Jismoniy madaniyat konsepsiyasi va aholi jismoniy tarbiya dasturining nisbatan progressiv xarakterga ega bo‘lishiga qaramay, o‘quvchilar va talabalarning jismoniy tarbiya amaliyoti ilgari o‘rnatilgan yo‘l bo‘ylab harakatini davom ettirmoqda. Ushbu hujjatlar paydo bo‘lgunga qadar tasdiqlangan va hozirda amalda bo‘lgan dasturlar qayta qurishdan oldingi davrda va ta'limni cho‘zilgan qayta qurishning dastlabki yillarida ishlab chiqilgan g‘oyalar yukini o‘z zimmasiga oldi. Yaqinda tayyorlangan dasturlar hatto ular uchun mo‘ljallangan kontingent uchun ham jismoniy tarbiyani o‘zgartirish muammosini hal qilmaydi. Taklif etilayotgan dastur variantlarining asosiy kamchiligi ularning mazmunini qatoiy tartibga solishdir, bu esa jismoniy tarbiyaning etnik, geografik, ekologik, moddiy-texnik va boshqa sharoitlarini hisobga olishga imkon bermaydi. Bunday tartibga solish uzoq vaqtdan beri o‘zini oqlagan jismoniy tarbiyaning ko‘p qirrali amaliyotiga zid keladi. O‘quvchilar va talabalarning jismoniy tarbiyasi bo‘yicha dasturiy taominotning zaif bo‘g‘ini yosh guruhlari va har xil turdagi o‘quv

Oqibatda o‘quv materialining asossiz takrorlanishi, uning tizimlilik talablariga mos kelmasligi, ya'ni oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, ma'lumdan o‘zgarmasga va boshqa tizimlilik talablariga nomuvofiqligi vujudga keladi.

Maktab o‘quv dasturlarida majburiy mashg‘ulotlar va oiladagi jismoniy tarbiya o‘rtasidagi bog‘liqlik etarli emas. Turli yosh guruhlari jismoniy tarbiyasi ta'lim faoliyati, sog‘lom turmush tarzi bilan zaif bog‘liq. O‘quvchilar va talabalar shaxsini shakllantirishning yoshga bog‘liq xususiyatlari, ularning jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishlari dinamikasi hisobga olinmaydi. Ko‘pgina dasturlarda ta'lim talablarining mazmuni ijtimoiy vaziyatga bo‘ysunadigan etarli darajada farqlanmagan me'yorlarga qisqartiriladi. Jismoniy tarbiyadagi o‘quv jarayoni normativ talablarni amalga oshirishga tayyorgarlik jarayoniga aylanadi. Bu jismoniy tarbiyaning maqsadli sozlamalari va mazmunini sezilarli darajada yomonlashtiradi, uni ko‘p yillik majburiy darslar uchun stereotip, monoton qiladi. Bu, ehtimol, ta'lim jarayonining konservatizmining sabablaridan biridir. Mehnat, turmush sharoiti, harbiy ishlar, bolalar va yoshlarning axborot mazmuni, ularning ehtiyojlari tarkibi, jismoniy tarbiya darslarining yo‘nalishi va mazmuni tez o‘zgarib borayotganiga qaramay, amalda o‘zgarishsiz qolmoqda.

Jismoniy tarbiyaning me'yoriy tizimi kamchiliklardan xoli emas. Baozi hollarda nazorat mashqlari juda ko‘p, sinov batareyalari noqulay va bir xil ball bilan baholanadigan ta'lim standartlari bir xil darajada qiyin emas. Jismoniy tarbiyadagi yutuqlarni baholash mezonlarini takomillashtirish zarur. Ular ko‘proq insonparvar bo‘lishi, barcha talabalar uchun ochiq bo‘lishi kerak va shu bilan birga bir xil ball olish uchun ulardan taxminan teng harakatlar talab etiladi.

Belgilangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun jismoniy tarbiya mutaxassislari tomonidan hududiy dasturlarni ishlab chiqish ijtimoiy tartib, zamonaviy nazariy-uslubiy, tabiiy-ilmiy shart-sharoitlar, mahalliy va xorijiy ish tajribasi, hududiy sharoitlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863-son "2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash" to‘g‘risidagi farmoni //lex.uz// O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06/19/5863/3979-son;

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 fevraldagi 118-son qarori bilan tasdiqlangan "2019-2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi" //lex.uz// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.02.2019 y., 09/19/118/2612-son;

3. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021 yildagi 23-son)

4. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar darslik. T.:"Zarqshom"-2004. 34-b.

5. Neverkovicha S.D. Pedagogika fizicheskoy kul'turi. Uchebnik dlya studentov VUZov. Pod red. "Academia". M.: 2017. 46-c.

6. Usmonxo‘jaev T. Sog‘lom bola - el boyligi T:Yangi asr avlodi 2005. 64-b.

7. Fayzieva S. Sog‘lom muhit-inson salomatligi. Eko hayot, 2014. 2-s, 74-b.

8. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat va sportni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. Samarqand.: 2014. 71-b.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SO‘Z USTIDA ISHLASH ORQALI O‘QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Malikova Dilrabo Ravshan qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish bosqichlari va nutq o‘stirish ustida olib boriladigan ish turlari haqida ma’lumotlar berilgan.O‘quvchilar lug‘ati boyishi uchun xizmat qiluvchi na’munaviy mashqlar keltirilib,ularning mazmun-mohiyati ochib berilgan

Kalit so‘zlar: nutq va uni o‘stirish, metod va usullar, so‘z boyligini oshirish, aktivlashtirish ,fonetik birikma, sinonim, antonim, to‘g‘ri talaffuz,audiomatn .

Abstract.This article provides information about the stages of speech development of elementary school students and the types of work carried out on the development of speech. Sample exercises that serve to enrich the vocabulary of students are given and their content is revealed.

Key words: speech and its development, methods and methods, increasing vocabulary, activation, phonetic combination, synonym, antonym, correct pronunciation, audiotext.

Аннотация: В данной статье представлена информация об этапах речевого развития учащихся младших классов и видах работы, проводимой по развитию речи. Приводятся примерные упражнения, служащие для обогащения словарного запаса учащихся, и раскрывается их содержание.

Ключевые слова: речь и ее развитие, приемы и приемы, увеличение словарного запаса, активизация, фонетическое сочетание, синоним, антоним, правильное произношение, аудиотекст.

Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi,tilning alohida ijtimoiy faoliyati turi sifatidagi muayyan yashash shakli.Bundan tashqari, nutq-bu til yordamida insonning ovozli aloqa vositasi hamdir..Har bir til so‘z tovushini tashkil etuvchi unli va undosh tovushlarning fonetik birikmalaridan iborat (ya’ni barcha o‘zbekcha so‘zlar barcha ruscha so‘zlardan farq qiladi , hatto ular bir so‘z bo‘lsa ham,masalan, “stul” yoki “doska”va boshqalar).

Nutq o‘stirishda uch yo‘nalish aniq ajratiladi: 1) so‘z ustida ishlash; 2) so‘z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog‘lanishli nutq ustida ishlash.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida so‘z ustida ishlash orqali nutqini rivojlantirish deganda, so‘zlarning o‘z ma’nolaridan o‘rinli foydalanilishi va uning xususiyatlarini anglashi va o‘rinli joylarda foydalanishi balki, to‘g‘ri talaffuz qilishi ham tushuniladi .

O‘quvchilar nutqiga qo‘yiladigan talablar, o‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi:

1. O‘quvchilar nutqi mazmundor bo‘lsin. Hikoya yoki insho o‘quvchilar uchun yaxshi ma’lum bo‘lgan dalillar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radioeshittirish va teleko‘rsatuvdan olgan ma’lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo‘ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko‘rmagan voqea-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so‘zlashga yo‘l qo‘yilsa, nutq mazmunsiz chiqadi. Nutq o‘stirish metodikasi hikoya, insho uchun materialni puxta tayyorlashni, ya’ni material yig‘ish, uni muhokama qilish, to‘ldirish, asosiy mazmunni ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, bu jarayonda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari ham hisobga olinadi.

2. Nutqda mantiqiylik bo‘lsin. O‘quvchilar nutqi mantiqan to‘g‘ri bo‘lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o‘rinlar tushirib qoldirilmasligi va o‘rinsiz takrorga, mavzuga taalluqli bo‘lmagan ortiqchalikka yo‘l qo‘yilmasligi talab etiladi. Nutqning mantiqiyligi narsa, voqea-hodisalarni yaxshi bilish bilan belgilanadi, mantiqiy xato esa material mazmunini aniq bilmaslik, mavzuni o‘ylamasdan noqulay tanlash natijasida kelib chiqadi. Bu ikki talab nutqning mazmuni va qurilishiga taalluqlidir. Nutqni til jihatidan shakllantirishga oid talablar ham mavjud.

3. Nutq aniq bo‘lsin. O‘quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan (so‘z, so‘z birikmasi, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga o‘rgansin.

4. Nutq til vositalariga boy bo‘lsin. Mazmunni aniq ifodalash uchun o‘quvchi nutqi til vositalariga boy bo‘lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur. Albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga til boyligi yuzasidan yuqori talab qo‘yib bo‘lmaydi, ammo o‘qituvchi o‘quv ishlarida ularning so‘z boyligini oshirib borishni har vaqt ko‘zda tutishi kerak.

5. Nutq tushunarli bo‘lsin. Og‘zaki nutq eshituvchiga, yozma nutq esa uni o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi zarur. So‘zlovchi yoki yozuvchi nutqini eshituvchining yoki o‘quvchining imkoniyatini, qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa, uni hamma birdek, hech qiyinchiliksiz tushunadi.

6. Nutq ifodali bo‘lsin. Agar nutq ifodali, ya’ni jonli, ishontiradigan bo‘lsa, eshituvchiga yoki o‘quvchiga ta’sir etadi. Og‘zaki nutq eshituvchiga intonatsiya orqali ta’sir etsa, og‘zaki nutq ham, yozma nutq ham tinglovchi va o‘quvchiga hikoyaning umumiy ruhi, dalillar, tanlangan so‘zlar, ularning emotsionalligi, tuzilgan jumla, iboralar

yordamida ta’sir etadi. Nutqning tushunarli va ifodali bo‘lishi har qanday shevaga xos va ortiqcha so‘zlardan xoli bo‘lishini taqozo etadi.

7. Nutq to‘g‘ri bo‘lsin. Maktab o‘quvchilari uchun nutqning adabiy til me’yorlariga mos va to‘g‘ri bo‘lishi alohida ahamiyatga ega. Yozma nutq grammatika, imlo va punktuatsiya jihatidan, og‘zaki nutq esa orfoepik jihatdan to‘g‘ri tuzilishi talab etiladi. Nutqning to‘g‘ri bo‘lishi uchun so‘z tanlash va nutq logikasi katta ahamiyatga ega. Yuqorida sanab o‘tilgan talablar o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ta’lim tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi. [2,Б.303]

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar nafaqat ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida balki,barcha o‘quv darslari orqali nutqini rivojlantirib va boyitib boradi.Bu turdagi darslar orqali o‘quvchalar so‘zlarning ma’nolari ,qo‘llanilishi haqida aniq tushunchalari hosil bo‘ladi.Agarda, o‘quvchi so‘zlardan o‘rinli foydalana olsa va lu’gat boyligi rivojlangan bo‘lsa , uning nutqi chiroyli va mazmundor bo‘ladi va har qanday fikrni ifodali bayon eta oladi.

O‘zbek tili rang-barang tillardan biri hisoblanadi. Besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi berilgan bo‘lib, bu yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Bunga o‘zbek tilida nashr etilgan turli terminologik lug‘atlarda, o‘zbek tili sinonimlari, antonimlari, frazeologik lug‘atlarida va turli izohli lug‘atlarda berilgan so‘zlar qo‘shilsa, lug‘at boyligi yana ming-minglab oshadi. Bulardan tashqari, juda ko‘p so‘zlar ko‘p ma’noli so‘zlar hisoblanadi. .

Maktabda nutq o‘stirishning muhim vazifalaridan biri lug‘at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo‘nalishlarini ajratish va asoslash, o‘quvchilam ing lug‘atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi. Maktabda lug‘at ustida ishlash metodikasi to‘rt asosiy yo‘nalishni ko‘zda tutadi:

boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida nutq o‘stirishning muhim vazifalaridan biri bu lug‘at ustida ishlashdir. Lug‘at ustida ishlash to‘rt qisimdan tashkil topgan.

1. O‘quvchilar lug‘atini boyitish, ya’ni yangi so‘zlarni, shuningdek, bolalar lug‘atida bo‘lgan ayrim so‘zlarning yangi ma’nolarini o‘zlashtirish.

2. O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish. Bu o‘z ichiga o‘zlashtirilgan so‘zlarning ma’nosini to‘liq anglash, ularning sinonim va antonimlarini aniqlash va ko‘chma ma’nolarini ongli ravishda anglash tushunishni oladi.

3. Lug‘atni aktivlashtirish, ya‘ni o‘quvchilar ma’nosini o‘zlashtirgan, ammo nutqida foydalanilmaydigan so‘zlarni faollashtirishdan iborat.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atidan nofaol lug‘atiga o‘tkazish. Bunday so‘zlarga bolalarning nutq muhiti ta’sirida o‘zlashib qolgan adabiy til me’yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so‘zlashuv tilida qo‘llanadigan sodda so‘z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so‘zlar kiradi. [3,Б.652]

So‘z ma’nosini tushuntirish nutq o‘stirishning muhim shartlaridan biri hisoblanib, ushbu jarayon dars davomida quydagicha amalga oshiriladi.Agarda o‘quvchi ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida biror so‘zning qanday ma’no anglatishini bilmasa yoki qay o‘rinda foydalanish kerakligi xususida muammoga duch kelsa , bu o‘rinda o‘qituvchi ushbu so‘zning ma’nosini o‘quvchiga o‘sha so‘z ishtirok etgan mashq yoki matn bajarilishi oldidan qisqa vaqt davomida o‘quvchining fikrini asosiy g‘oyadan chalg‘itmagan holda tushuntirib o‘tadi.

So‘z ma’nosini tushuntirishning ham bir necha shakllari mavjud bo‘lib,ular quydagilardan iborat.

1.So‘z ma’nosini matn ostida berilgan izohi yordamida tushuntirish.

2.So‘z ma’nosini uning sinonimi yordamida tushuntirish.

3.So‘z ma’nosini uning antonimi yordamida tushuntirish.

4.So‘z ma’nosini uning asosiy belgisi yordamida tushuntirish.

5.So‘z ma’nosini ko‘rsatish(harakatlar,rasmlar,videolar) yordamida tushuntirish. . [3,Б.655]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar nutqini o‘stirish jarayonida bajarilayotgan mashqlar ham katta ahamiyatga egadir.Quyida keltirilgan turli mashqlar o‘quvchilarda so‘zlarga e’tiborini kuchaytirishga yordam beradi,ya’ni tallafuz qilinayotgan so‘zlar ayni eshitilgandek yozilmasligi hamda nutq jarayonida faqat bir turdagi so‘zlar o‘rniga ularning muqobil ma’nodoshlaridan foydalanish mumkin ekanligini o‘rganib borishadi.

1-jadval asosida birinchi ustunda berilgan so‘zlarning ma’nodoshini ikkinchi ustundan topib ayting. [1,Б.11]

oftob	mamlakat
el	quyosh
xush	xalq
yurt	xarakter
fe’l	yaxshi

1-jadval

2-jadvalda berilgan so‘zlar qatnashgan gaplarni matndan topib, qayta o‘qing. Ushbu so‘zlar gaplarda qanday ma’noda kelganini ayting.

tanob	qiyg‘os	shabboda	sayroqi	fayz-tarovat
zilol	poyonsiz	g‘oyat	arz	to‘satdan

2- jadval

3- jadval asosida audiomatndan olingan quyidagi so‘zlarni o‘qing. To‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlab, ko‘chiring. . [1,Б.16]

kitob	ko‘b	g‘aroyib	mexnat
kitobhon	farzant	ko‘p	kitobxon

mehnat	g‘aroyip	kitop	farzand

3-jadval

(Ushbu turdagi mashqlar o‘quvchilarga so‘zlar eshitilishiga ko‘ra yoki tallafuz usuliga ko‘ra yozilmasligini o‘rgatish uchun berilgan bo‘lib,o‘quvchilarni yanada e’tiborli bo‘lishga undaydi.)

4- jadval asosida ajiratib ko‘rsatilgan so‘zlar bilan ularning izohini moslab daftaringizga yozing.

mayib	bebaho,kam uchraydigan
zina	qimmatbaho boylik
javohir	yuqoriga va pastga tushish qurilmasi
askari	shikastlanish sababli asl holatini yo‘qotish
noyob	ko‘pincha

4-jadval

(Yuqorida keltirilgan mashq turi o‘quvchilarga yangi so‘zlarni ularning ma’nodoshi,izohi hamda uning asosiy vazifasi orqali tushunishga va o‘rganishga yordam beradi.)

Ushbu turdagi mashqlar so‘z ustida bajariladigan mashqlar sirasiga kirib, o‘quvchilar lug‘atini boyitishga va bu orqali ularning nutqini rivojlantirshga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.Azimova, K. Mavlonova, S. Quronov, Sh. Tursun, Z.Ro‘zmetova “Ona tili va o‘qish savodxonligi”3-sinf uchun darslik 1-qism .Toshkent-2022
2. K.Qosimova , S. Matchonov, X.G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev “Ona tili o‘qitish metodikasi ”.«NOSIR» nashriyoti. Toshkent -2009.
3. S. Matchonov,H.Bakiyeva, X.G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva,G.Xolboyeva “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi”darslik. “Ishonchli hamkor nashiryoti” Toshkent-2021.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ СЛОЖЕНИЮ И ВЫЧИТАНИЮ ЧИСЕЛ ПОСРЕДСТВОМ НАГЛЯДНОГО МАТЕРИАЛА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Бобоёрова Мухлиса
студентка 2 курса направления Начального обучения НавГПИ
Научный руководитель **Нажимова А.И.**
старший преподаватель кафедры начального образования НавГПИ

Аннотация: В статье приведены рассуждения о методике обучения сложению и вычитанию чисел в начальных классах посредством наглядного материала, применении различных подходов и стратегий, которые помогают детям освоить основные навыки математики, о значимости визуального представления чисел.

Ключевые слова: методика обучения, сложение, вычитание, числа, начальные классы, визуальное представление, конкретные предметы, игры, повторение, практика.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KO‘RGAZMALI MATERIAL ASOSIDA SONLARNI QO‘SHISH VA AYIRISHGA O‘RGATISH METODIKASI

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda ko‘rgazmali material asosida sonlarni qo‘shish va ayirishga o‘rgatish metodikasi haqida, asosiy matematik ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga yordam beruvchi turli yondashuv va strategiyalar, raqamlarni vizual tasvirlashning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qitish usullari, qo‘shish, ayirish, sonlar, boshlang‘ich sinflar, ko‘rgazmali tasvir, aniq ob’ektlar, o‘yinlar, takrorlash, mashq.

METHODS OF TEACHING ADDITION AND SUBTRACTION OF NUMBERS THROUGH VISUAL MATERIAL IN PRIMARY GRADES

Annotation: The article contains discussions about the methodology of teaching addition and subtraction of numbers in primary school through visual material, the use of various approaches and strategies that help children master basic mathematics skills, and the importance of visual representation of numbers.

Key words: teaching methods, addition, subtraction, numbers, primary grades, visual representation, concrete objects, games, repetition, practice.

«Суть обучения математике - не просто научить решать задачи, но научить мыслить математически»
Джордж Полья

В настоящее время одним из основополагающих принципов обновления содержания образования является его личностная ориентация, предполагающая опору на субъектный опыт учащихся, актуальные потребности каждого ученика. В связи с этим остро встал вопрос об организации активной познавательной и созидательной деятельности учащихся, способствующей накоплению творческого опыта младших школьников, как основы, без которой самореализация личности на последующих этапах непрерывного образования становится малоэффективной.

С точки зрения педагогики и психологии наиболее актуален вопрос о формировании креативного воображения и творческих способностей именно для детей начальной школы как первой ступени общего среднего образования. И поэтому можно сделать вывод, что вопросы творчества приобретают все большее значение в системе образования, при развитии учебно-познавательной деятельности, вычислительных навыков учащихся.

Наряду с этим умение сложения и вычитания в пределах ста является основательным навыком для дальнейшего успешного обучения математике учащихся начальных классов. Данные операции используются повседневно в жизни, и умение быстро и точно выполнять их имеет большое значение. Целью методики обучения сложению и вычитанию является формирование у учеников навыков работы с числами в пределах ста, развитие логического мышления, а также уверенности в своих математических способностях.

Использование дидактических игр и игрушек в процессе обучения помогает сделать математику более увлекательной и интересной для учеников начальных классов. Это позволяет им более легко усваивать материал и развивать навыки сложения и вычитания с помощью дидактические игры.

В условиях учебной деятельности к воображению ребенка предъявляют специальные требования, которые побуждают его к произвольным действиям воображения. Учитель на уроках предлагает детям представить себе ситуацию, в которой происходят некие преобразования предметов, образов, знаков. Эти учебные требования побуждают развитие воображения, но они нуждаются в подкреплении специальными средствами - иначе ребенок затрудняется продвинуться в произвольных действиях воображения. Это могут быть реальные предметы, схемы, макеты, знаки, графические образы и другое.

И поэтому визуальные помощники учителя, такие как картинки и диаграммы, помогают ученикам визуализировать математические операции, что облегчает понимание и запоминание материала.

Групповые упражнения позволяют учащимся общаться друг с другом, объяснять свои мысли и подходы к решению задач, а также эти упражнения способствуют развитию коммуникативных навыков и улучшению понимания математических концепций.

Использование технологий также играет важную роль в обучении сложению и вычитанию, поскольку интерактивные учебные программы могут сделать процесс обучения более увлекательным и доступным для учеников.

Практические задания помогают ученикам применять полученные знания на практике, что способствует их закреплению и улучшению навыков.

Индивидуальный подход к каждому ученику позволяет учителю учитывать индивидуальные особенности каждого ученика и предоставлять дополнительную помощь тем, кто испытывает трудности с освоением материала.

Регулярная проверка знаний и подведение итогов обучения помогают оценить уровень успеваемости учеников и выявить области, требующие дополнительной работы.

Использование дидактических игр и материалов, таких как карточки с числами, игровые кубики и игры на доске, является эффективным методом для обучения сложению и вычитанию. Данная методика помогает учащимся начальных классов лучше понимать и использовать математические действия не только в области математики, но и в повседневной жизни.

- С карточками с числами можно проводить игры, в которых дети соотносят числа и выполняют операции сложения и вычитания. Например, можно разложить карточки с числами на две группы и попросить ребенка сложить или вычесть числа в каждой группе. Это помогает развить навыки счета и понимание числовых операций.
- Игровые кубики можно использовать для моделирования сложения и вычитания. Дети могут бросать кубики и складывать или вычитать числа, которые выпали. Данная игра способствует развитию навыков подсчета и осознания взаимосвязи между числами.
- Игры на доске, такие как шашки или шахматы, также могут быть полезны для обучения сложению и вычитанию. В этих играх дети должны выполнять математические операции, чтобы принимать решения и разрабатывать стратегии. Эти игры способствуют развитию не только математических навыков, но и логического мышления.

Использование дидактических игр и материалов для обучения сложению и вычитанию может сделать учебный процесс более интересным. Они могут помочь учащимся лучше понять и запомнить математические концепции, а также развить навыки проблемного мышления и решения задач.

Такие наглядности как картинки, рисунки и диаграммы являются визуальными помощниками и могут быть очень полезными инструментами для учителя при обучении операциям сложения и вычитания. Они могут помочь ученикам лучше понять эти операции и визуализировать математические концепции.



Диаграммы также могут быть полезными для иллюстрации операций сложения и вычитания. Например, можно использовать числовую линейку или столбчатую диаграмму, чтобы показать, как числа изменяются при выполнении операций. Ученики могут использовать эти визуальные средства для более глубокого понимания математических операций.

Применение картинок и рисунков может помочь ученикам представить числа и операции визуально. Например, можно использовать изображения фруктов или предметов, чтобы показать сложение или вычитание конкретных количеств. Это поможет ученикам увидеть связь между числами и их взаимодействием.

Использование наглядностей в учебном процессе помогает сделать математику более доступной и интересной для учеников, позволяя им визуально представлять и анализировать числа и операции.

Ещё одной из эффективных методик для обучения учащихся являются «групповые упражнения», то есть игры и задания, которые выполняются в группах.

Идеи для групповых игр:

1. Карточные игры: Игры с карточками, где ученики должны складывать или вычитать числа, могут быть интересным и вовлекающим способом практики математических операций. Например, можно создать колоду карточек с числами и дать каждой группе учеников задание составить сумму или разность чисел.

2. Соревновательные игры: Устраивайте соревнования между группами учеников, где они должны решать математические задачи на сложение и вычитание. Это может быть игра-гонка, где команды стараются решить задачи как можно быстрее, данную игру можно проводит как с помощью раздаточного материала, так и у доски.

Групповые упражнения и игры помогают ученикам развивать навыки сотрудничества, коммуникации и применения математических знаний на практике. Они также создают интерес и разнообразие в учебном процессе, что способствует более эффективному усвоению материала.

Индивидуальный подход для обучения сложению и вычитанию в начальных классах включает учет индивидуальных особенностей каждого ученика и

предоставление дополнительной помощи тем, кто испытывает трудности. Некоторые методы, которые могут быть использованы, включают:

1. Диагностика: Определение уровня знаний каждого ученика в области сложения и вычитания. Это позволяет определить их индивидуальные потребности и проблемные области.

2. Вариативность заданий: Предоставление разнообразных заданий, которые соответствуют индивидуальным потребностям каждого ученика. Это помогает поддерживать их интерес и мотивацию.

3. Индивидуальные работы с учеником: Предоставление дополнительной помощи и объяснений тем ученикам, которые испытывают трудности. Это может быть индивидуальное время с учителем или использование дополнительных образовательных материалов.

5. Использование разных методов обучения: Применение различных методов, таких как визуальные материалы, игры, манипулятивные модели и т.д., чтобы обеспечить максимальное усвоение материала всеми учениками.

Важно помнить, что индивидуальный подход требует внимания и терпения со стороны учителя, а также постоянного мониторинга и оценки прогресса каждого ученика.

Проверка знаний учеников является важной частью образовательного процесса. Регулярная проверка позволяет оценить уровень успеваемости и понять, какие темы требуют дополнительного изучения. Вот некоторые методы проверки знаний:

1. Тесты: Создание тестов с вопросами, которые охватывают материал, изученный учениками. Тесты могут быть как письменными, так и онлайн, включать разные типы заданий (множественный выбор, соответствие, открытый ответ и т.д.) и охватывать различные навыки.

2. Задачи и упражнения: Предоставление задач и упражнений, которые проверяют понимание и применение материала. Это может включать решение математических задач, написание эссе, выполнение практических заданий и т.д.

3. Проекты и презентации: Задание ученикам создать проект или презентацию на основе изученного материала. Это позволяет проверить их способность применять знания в практических ситуациях и развивать навыки исследования и коммуникации.

4. Устные ответы: Задавание устных вопросов ученикам или проведение устных дискуссий на уроках. Это способствует развитию устной речи, критического мышления и умения аргументировать свои ответы.

Важно проводить проверку знаний регулярно, чтобы ученики могли отслеживать свой прогресс, а учителям было понятно, где необходима дополнительная поддержка и помощь.

Подведя итоги, можно сказать, что обучение сложению и вычитанию включает в себя оценку достигнутых результатов учеников и дальнейшие рекомендации для улучшения их навыков. Вот некоторые шаги, которые могут быть включены в этот процесс:

1. Оценка уровня успеваемости: После проведения регулярных проверок знаний, учителя должны оценить уровень успеваемости каждого ученика. Это может включать оценку точности решения задач, понимания концепций и применения правил сложения и вычитания.

2. Анализ ошибок: Учителя должны проанализировать ошибки, сделанные учениками, чтобы понять, где возникают трудности и какие концепции нуждаются в дополнительном объяснении или тренировке. Это поможет определить области, которые требуют дополнительной работы.

3. Обратная связь: Для каждого ученика необходимо предоставить обратную связь, основанную на результате оценки. Это может включать похвалу за достигнутые успехи и конструктивную критику для улучшения слабых сторон. Учителя могут также предложить рекомендации и стратегии для улучшения навыков сложения и вычитания.

4. Дальнейшие рекомендации и планы: На основе оценки и обратной связи учителя могут предложить дальнейшие рекомендации и планы для каждого ученика. Это может включать дополнительные упражнения и задачи для тренировки, использование дополнительных ресурсов или предложение индивидуальных занятий для учеников, которые нуждаются в дополнительной помощи.

Важно помнить, что подведение итогов и дальнейшие рекомендации должны быть индивидуальными и адаптированными к потребностям каждого ученика. Это поможет им развивать навыки сложения и вычитания и достигать лучших результатов в обучении.

Список использованной литературы:

1. Аркадьева, Т.А. Методика обучения математике в начальной школе: Учебное пособие / Т.А. Аркадьева, Л.В. Кузнецова. – М.: Дрофа, 2012. (стр. 45-67)

2. Береснева, Н.В. Методика обучения математике в начальной школе: Учебное пособие / Н.В. Береснева, Т.В. Горбунова. – М.: Академия, 2010. (стр. 78-92)

3. Волкова, Н.А. Методика обучения математике в начальной школе: Учебное пособие / Н.А. Волкова, О.В. Давыдова. – М.: Просвещение, 2015. (стр. 110-125)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA MATEMATIK MASALALAR YECHISHGA O‘RGATISH METODIKASI

Suyunova Munisa, Qarshibayeva Shaxlo
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari, TDPU, Toshkent, O‘zbekiston.
Ilmiy rahbar: M.I.Toshpulatova
Boshlang‘ich ta’limda matematika kafedrasi dotsenti, PhD, TDPU, Toshkent, O‘zbekiston.

Anontatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik masalalar yechishga o‘rgatishn,va ularni fikrlash qobilyatlarini rivojlantirishganazariy-metodik tavsiyalar keltirib o‘z qarashlari bilan izohlab berildi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinf, o‘quvchilar, matematik masalalar, arifmetik amallar, aqliy qobilyat, malaka, reja, ko‘nikma, malaka, analiz, sintez.

Аннотация: В статье представлены теоретические и методические рекомендации по обучению школьников младших классов решению математических задач и развитию их мыслительных способностей на основе собственных взглядов автора.

Ключевые слова: начальная школа, учащиеся, математические задачи, арифметические операции, умственные способности, навыки, планы, компетенция, анализ, синтез.

Annotation: This article provides theoretical and methodological recommendations for teaching elementary students to solve mathematical problems and developing their thinking skills explained by author’s own views.

Key words: Elementary school, students, math problems, arithmetic operations, mental abilities, skills, plans, competence, analysis, synthesis.

Hozirgi paytda maktablarda boshlang‘ichsinflarda matematika o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni har tomonlama etuk insonlar qilibtarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo‘yicha bilimlar berish bilan birga ularga o‘rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo‘lishini ta‘minlash, ularni qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni kelgusida olingan bilimlarni ongli hayotiy faoliyatda muvaffaqiyatli qo‘llashlari uchun zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirish boshlanqich matematik ta‘limning asosiy vazifalariga aylanishi lozim. SHu nuqtai nazardan o‘quv jarayonida matematik masalalar, jumladan hayotiy mazmunli,ularning to‘plagan tajribasiga asoslangan masalalarni echish usullariga va ularni qo‘llashga o‘rgatish o‘ziga xos xususiyatlarga ega, ularni ta‘lim mazmuni va o‘rganilayotgan tushunchalar mohiyatini ochib berishda foydalanish, o‘zaro aloqadorlikda va o‘quvchilar amaliy faoliyati tajribasi bilan qo‘shgan holda o‘qitishdolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu usullarni ishlab chiqish va amalda qo‘llash o‘qitish sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Muxtaram prizidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Matematikani yaxshi bilgan bola aqilli,keng,tafakkurli bo‘ladi vaistalgan sohada ishlab ketadi” deb takidlaganlar. Shu bilan birga: - “boshlang‘ich sinfda matematika fanini yaxshi o‘lashtirgan va matematik masalalarni ongli ravishda ishlagan o‘quvchilar boshqa fanlarni o‘zlashtirishga qiynalmaydilar” – degan edi.

Boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida fikrlash qobilyatlarini shakllantirishda albatta biz mantiqiy masalalardan foydalanamiz.Aqliy qobilyatini rivojlantirishda har bir darsda foydalanish maqsadga muvofiqdir.Masalalar bolalarning fikrlash qobilyatlarini rejalashtirishning foydali vositasi bo‘lib, odatda, o‘z ichiga, yashirin informatsiyani’’oladi. Bu informatsiyani qidirish, masala yechuvidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish, faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokozalarni talab qiladi.

Masalalar yechish orqali o‘quvchilarda ushbu malakalar tarkib topmog‘i lozim.

Masalani tinglashni o‘rganish va uni mustaqil o‘qiy olish.

Masalani dastlabki analiz qilish (ma’lumni nomalumdan ajrata olish malakasi).

Masalani qisqa yozish malakasi.

Sodda masalalarni yechishda amal tanlashni asoslab berish va murakkab masala tahlilini amalga oshirish, so‘ngra yechish rejasini tuzish malakasi.

Yechishni bajarish.

Masala yechimini tekshira olish malakasi.

Masalalar ustida ishlashda ma’lum sistemani belgilash va uni joriy qilish malakasi.

Boshlang‘ich sinf matematika metodikasiga oid qo‘llanmalarda masalani tahlil qilishning analitik va sintetik usullari o‘rganiladi.Chunki masala yechishda masala yechuvchining fikri doim ma’lumdan no‘malumga va noma’lumdan ma’lumga qarab borishi kerak. Masala tahlilini uning savolidan ham, berilganlardan ham boshlash mumkin.Yechish yo‘llarini izlash maqsadga yo‘nalgan bo‘lishi muhimdir, bunda berilgan ma’lumotlar bo‘yicha nimani bilish mumkinligiga doir ko‘rsatma har doim “Buni bilishim zarurmi?” “Bu masalani yechishga yordam bera oladimi?” degan savollar bilan tekshirib turilishi kerak, va aksincha, masala savoliga javob berish uchun nimani bilish kerakligi ‘’Buni masalada berilganlarga qarab bilish mumkinmi?”degan savol bilan tekshirilib turishi kerak.

Matematik masala ustida ishlash jarayonida shunga intilish kerakki, har bir masala o‘quvchilar uchun haqiqiy bilim manbai bo‘lib qolsin. Buning uchun o‘quvchining diqqatini masala shartidan tafakkurini va bilish qobilyatlarini rivojlantiradigan darajada ko‘proq ma’lumotlarini olishga yonaltirish kerak.

Quyidagi masalani ko‘rib chiqamiz.

1-masala Amir Temur muzeyiga birinchi kuni 2180 nafar, ikkinchi kuni undan 420 nafar kam, uchinchi kuni ikkinchi kundagiga qaraganda 350 nafar ko‘p kishi keldi. Muzeyga uch kun davomida necha nafar kishi tashrif buyurgan.

Masalani ishlashda birinchi o‘quvchilarga ongli ravishda tushunib o‘qishni, birinchi kuni muzeyga tashrif buyurganlar ma’lum ya’ni 2180 nafar, ikkinchi kuni birinchi kundagidan 420 nafarga kam ekanligini kam deganda ayirish amalidan foydalanishni tushuntirib, ikkinchi kuni muzeyga borganlar sonini topamiz. Uchinchi kun ikkinchi kundagidan 350 nafar ko‘pligini topishimiz uchun ko‘p tushunchasini tushungan holda qo‘shish amalidan foydalanishni tushuntiramiz va shu tarzda masala shartini tuzamiz.

Yechilishi:

Ikkinchi kunda muzeyga necha kishi tashrif buyurgan?

2180-420=1760

Uchinchi kuni muzeyga necha nafar kishi tashrif buyurgan?

1760+350=2110

Muzeyga uch kun davomida necha nafar kishi tashrif buyurgan?

2180+1760+2110=6050

Javob: 6050nafar kishi

Murakkab masalalarni yechishda masalani tahlil qilish malakasi (ya’ni masalani yechish rejasini tuzish) asosiy ahamiyatga ega .Masalani tahlil qilish nimani v anima bilan,qanday ketma-ketlikdagini bilish;har bir bosqichda qanchamiqdorda va qanday arifmetik amallar bajarilishini bilish demakdir.O‘quvchilar soda masalalarni yechish malakasini egallagan sari murakkab masalalarni ishlaydilar.Masalalar tuzishda o‘qituvchi bolalar tanlagan mazmun hayot bilan mos tushishini kuzatib borishi kerak.

2-masala. Rasm asosida masala tuzing va yeching.



Rasm asosida masala tuzish o‘quvchilarni fikrlash bilan bir qatorda nutqini o‘stirishga ham xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda rasm asosida masala tuzish ularning diqqatini yanada jalb qiladi va har bir o‘quvchi o‘z fikrini bayon qiladi.

Yechish:12 ta mevadonda 96 ta apilsin bor. 3 ta mevadonda nechta apilsin bor?

Bitta mevadondanechta apilsin borligini topamiz,

96:12=8

3 ta mevadonda nechta apilsin bor?

8*3=24

Javob:24 ta apilsin

Matematika darslarida beriladigan har bir masala o‘quvchini fikrlashva aqliy qobilyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fofdalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Jumayev M.E., Z.G‘.Tadjiyeva “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” Toshkent “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2005.
2. Jumayev M.E. ,,Matematika o‘qitish metodikasidan praktiku’’Toshkent ,,O‘qituvchi’’nashriyoti,2004.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUV TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI

Asatova Mohichehra-NavDPI 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbar M.A Jumaeva
Boshlang‘ich ta'lim kafedrasi katta o‘qituvchisi p.f.f.d(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab ta’limi samaradorligini oshirishda o‘quv topshirig‘i mazmunining sifatli bo‘lishi, o‘quvchini kreativ fikrlashga yo‘naltira olish masalalari, bundan tashqari, o‘quv topshirig‘I o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatni ham belgilovchi omillardan biri ekanlgi, chunki, aksariyat hollarda o‘quv topshirig‘I orqali yosh o‘quvchining o‘qituvchiga bo‘lgan munosabati shakllanib borishi, har qanday jamiyat va davlat kelajagining istiqboli bevosita sifatli ta’limga bog‘liqligi aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: ishtiyoq, o‘quv topshirig‘i, islohot, demotivatsiya, obyekt, samaradorlik, mashq, topshiriq,maqol, matal, fonetika, talaffuz.

ЗНАЧЕНИЕ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТН

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы качества содержания учебного задания в повышении эффективности школьного образования, умения ориентировать ученика на творческое мышление, а также то, что учебное задание также является одним из определяющих факторов взаимоотношений учителя и ученика, поскольку, в большинстве случаев, через учебное задание формируется отношение молодого ученика к учителю, перспектива будущего любого общества и государства отражена зависимость от качественного образования.
Ключевые слова: страсть, учебное задание, реформа, демотивация, объект, Эффективность, упражнение, задание,пословица, поговорка, фонетика, произношение.

IMPORTANCE OF TEACHING ASSIGNMENTS IN ELEMENTARY EDUCATION NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY CLASSES

Abstract: this article reflects the issues of quality of the content of the educational task in improving the effectiveness of school education, the ability to direct the student to creative thinking, in addition, the educational assignment is one of the factors that also determine the relationship between the teacher and the student, since, in most cases, through the educational assignment, the attitude of a young
Keywords: passion, study assignment, reform, demotivation, object, efficiency, exercise,assignment, proverb, matal, phonetics, pronunciation.

Har qanday Jamiyat va davlat kelajagining istiqboli bevosita sifatli ta’limga bog‘liq. Muvaffaqiyat asosini ishtiyoq va harakatdan avval ilm tashkil etadi. ilm-fanga suyangan jamiyat va davlat barcha sohalarda taraqqiy etadi. Maktablar shu taraqqiyotni harakatlantiruvchi asosiy omili bo‘lgan yetuk kadrlarni tayyorlash va aniqlashda eng muhim bosqich hisoblanadi. Maktab ta’limi samaradorligini oshirishda esa o‘quv topshirig‘i mazmunining sifatli bo‘lishi, o‘quvchini kreativ fikrlashga yo‘naltira olishi muhim masala hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘quv topshirig‘I o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatni ham belgilovchi omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, aksariyat hollarda o‘quv topshirig‘I orqali yosh o‘quvchining o‘qituvchiga bo‘lgan munosabati shakllanib boradi. Lekin bugungi kunda aksariyat hollarda o‘quv topshiriqlarining talabga javob bermayotganligi, o‘quvchi tushunishidagi murakkabliklarning mavjudligi sohadagi islohotlar zaruratini ko‘rsatadi.

Butun jahon ilm fanida , ilmiy tadqiqot markazlarida, oliy ta'lim muassasalarida o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi munosabat, va bu jarayonda o‘quv topshirig‘ining mazmuni masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan. Malayziyaning Sains universitetida, dunyoga mashxur Harvord universiteti, Brown universitetlarida bu sohada ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xitoyning School of Digital Economics, Chengdu Textile kolleji va Amerikaning Clay School of Business, Arizona state university birgalik tadqiqot olib borgan. Unga ko‘ra o‘qituvchi munosabati va o‘qitish yondashuvlarining o‘quvchilar demotivatsiyasiga ta’sirini, o‘rganish motivatsiyasini kamaytiradigan omillarni o‘rganishga harakat qilindi. Ushbu tadqiqot aniqlashicha o‘qituvchining tushkun munosabati va o‘qitish yondashuvlari salbiy his tuyg‘ularni keltirib chiqaradi, bu esa o‘z navbatida xitoylik talabalarni demotivatsiya qiladi.

O‘quv topshirig‘i sifati va mazmuni masalalari o‘zbek olimlarining ham tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan. Jumladan ta’lim faoliyati sharoitida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi nizolarning oldini olish, ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha R. Musurmonov (Chirchiq Davlat Pedagogika instituti dotsenti) tadqiqot olib borgan. Sayfullaev, T.G,,aniyev, M.Sobirova, Sh.Yusupova, T.Yusupova, T.Ziyodova, M.Saidov, O.Oxunjonova kabi metodist olimlarning yaratgan tadqiqot ishlari, metodik qo‘llanmalari, ilmiy maqolalarida uzluksiz ta’lim tizimi bosqichlarida ona tilini o‘qitish yuzasidan yo‘l-yo‘riqlar bayon qilingan. Ulardagi tavsiyalardan bugungi kunda ham maktab ta’limida ona tili darslarini tashkil etishda zaruriy dasturulamal sifatida unumli qo‘llanilmoqda. Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘tilayotgan boshlang‘ich sinf ona tili darsligi oldingi chiqqan darsliklarga nisbatan ancha mukammalroq tuzilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Asosiy diqqatni darslikdagi o‘quv materiallarining tarkibi, tuzilishi va, albatta, mazmuniga qaratish kerak. Maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg‘or namunalari aks etishi kerak, degan ta’kid, fikrimizcha, “Ona tili” darsliklariga ko‘proq tegishlidir. Ajdodlardan, umuman, insoniyat daholaridan bugungi kungacha yetib kelgan tafakkurning eng ilg‘or mahsuli bo‘lgan maqol, matal, hikmatli so‘zlar, tasviriy ifodalar, iboralar ona tili ta’limining mazmunini tashkil etishi kerak, ulardan onda-sonda emas, balki har darsda, har o‘quv topshiriq tarkibida unumli foydalanish maqsadga muvofiq. Demak, o‘quv topshiriqlari o‘quvchini mustaqil izlanishga unday olsagina, ularni talab darajasida deb hisoblash mumkin bo‘ladi.O‘quvchining og‘zaki nutqi tug‘ilib o‘sgan yeri, oilasi, yaqinlari ta’sirida shakllangan holda maktabga keladi. Ba’zan ularni o‘zlari o‘rganib qolgan holatdan adabiy talaffuz me’yorlari doirasiga o‘tkazish ancha qiyinchilik tug‘diradi. Bunday sharoitda o‘qituvchi, albatta, fonetika o‘qitish jarayonidagi dastlabki faoliyatni hududiy muammolardan kelib chiqqan holda talaffuzi qiyin nutq tovushlari ustida ishlashga qaratishdan boshlashi zarur. Aks holda, ayrim o‘quvchilar balog‘atga yetganda ham ba’zi nutq tovushlari talaffuzini eplay olmaydigan bo‘lib qolishadi. O‘qituvchi o‘z vaqtida og‘zaki nutqida muammolari bor o‘quvchilarga alohida e’tibor berib, maxsus talaffuz mashqlari ustida muntazam ishlasa, kerakli topshiriqlar bersa muammoga o‘rin qolmasligi aniq. Biroq bu borada maktabning amaldagi didaktik ta’lim vositalari (darslik, qo‘llanmalar)da fonetik mashqlarga maxsus o‘rin ajratilmagan.

Xulosa qilib aytganda ona tili darslarida o‘quvchilarga adabiy tilning talaffuz me’yorlari o‘rgatilmas ekan, savodxonlikka, nutq madaniyatiga erishib bo‘lmaydi, o‘quvchining so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganishi uning to‘g‘ri yoza olishi, shuningdek, ona tili ta’limida fonetika o‘qitishni takomillashtirmasdan nutqiy kompetensiyaga erishib bo‘lmaydi. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga so‘z boyligini oshirishga mo‘ljallangan, xalq og‘zaki ijodi

namunalaridan maqol, hikmatli so‘z va aforizmlar mavjud bo‘lgan o‘quv topshiriqlari berib borilsa, ko‘proq natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Йўлдошева Д. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари.–Т.: Фан, 2006. – 84 б.
2. Yo`ldosheva D.N. Ona tili ta‟limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. – 168 b.
3. Лернер И. Я. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер.–М.: Педагогика, 1981. –186 с.
1940-1980 yillarda sotsial realist yozuvchilar tomonidan nashr etilgan bolalar romanlari tufayli tadqiqotchilar tegishli davrning ta’lim yondashuvi va ta'lim holati panoramasini ko‘rishlari mumkin. Ko‘rib chiqilayotgan asarlarda oilaning farzandlarga bo‘lgan munosabati, maktab va sinf xonalarining ahvoli, direktor-o‘qituvchi-shogird munosabatlari atroflicha o‘rganilib, baholanishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Akbayır, S. (2010). Çocuğum Neyi Okumalı?. Ankara: Pegem Akademi.
2. Can, D. T. (2013). Çocuk Edebiyatında Dilin Ideolojisi: Anlatı Bilimsel Yaklaşım. Dil Araştırmaları, 12, 191-213.
3. Can, D. T. (2014). Çocuk Edebiyatı: Kuramsal Yaklaşım. Konya: Eğitim.
4. Cılgın, A. S. (2007). Çocuk Edebiyatı. İstanbul: Morpa.
5. Efe, A. (2014). Çocuk Edebiyatında Ideoloji Üzerine Bazı Düşünceler. Türk Dili, C.VII (756), 472-475.
6. Enginün, İ. (1998). Çocuk Edebiyatında Ideoloji. M. R. Şirin (Haz.), 99 Soruda Çocuk Edebiyatı Içinde (S. 192-197). İstanbul: Çocuk Vakfı.
7. Erdoğan, F. (2008). Toplumsal Tarihimizde Çocuk Edebiyatının Yeri. B. Onur (Haz.), Toplumsal Tarihte Çocuk Içinde (S. 79-86). İstanbul: Tarih Vakfı Yurt.
8. Fuçik, J. (1978). Çocuk Edebiyatı Üstüne. D. Richter (Drl.), Politik Çocuk Kitabı Içinde (S. 232-236). İstanbul: Gözlem.
9. Gorki, M. (1978). Konular Üstüne. D. Richter (Drl.), Politik Çocuk Kitabı Içinde (S. 245- 255). İstanbul: Gözlem.
10. Hollindale, P. (1988). Ideology And The Children’s Book. United Kingdom, UK: Thimble
11. Ipşiroğlu, Z. (2001). Çağdaş Çocuk Ve Gençlik Yazınının Türkiye’deki Işlevi, Gelişimi Ve Konumu. Z. İpşiroğlu (Haz.), Çağdaş Türk Yazını Içinde (S. 168-192). İstanbul: Adam.
12. Markey, A. (2017). Irish Children’s Books 1696-1810: Importation, Exportation And The Beginnings Of Irish Children’s Literature. In K. O’Sullivan & P. Whyte (Eds.), 346 Critical Approaches To Children’s Literature (Pp. 33-51). New York, NY: Springer Nature.
13. Mcnamara, K. H. (2009). The Potato Eaters: Food Collection In Irish Famine Literature For Children. In K. K. Keeling & S. T. Pollard (Eds.), Critical Approaches To Food In Children’s Literature (Pp. 149-166). United Kingdom, UK: Routledge.
14. Mickenberg, J. L. (2006). Learning From The Left. United Kingdom, UK: Oxford University.
15. O’Malley, A. (2003). The Making Of The Modern Child: Children’s Literature And Childhood In The Late Eighteenth Century. New York, NY: Routledge.
16. Pereira, Í. S. P. & Campos, Â. (2014). Turning Ideologies Inside Out: Developing Young Readers’ Empathy For Critical Voices In Narrative Fiction. Changing English, 21(4), 359-370.
17. Puurtinen, T. (1998). Syntax, Readability And Ideology In Children’s Literature. Meta, 43(4), 524-533.
18. Sever, S. (2012). Çocuk Ve Edebiyat. İzmir: Tudem.
19. Sirin, M. R. (Haz.). (1998). 99 Soruda Çocuk Edebiyatı. İstanbul: Çocuk Vakfı.
20. Stephens, J. (1992). Language And Ideology In Children’s Fiction. London: Longman.
21. Ünal, A. G. (2014). Türk Çocuk Edebiyatı Eserlerinden Hareketle Dil, Ideoloji Ve Engellilik. Türk Dili, C.VII(756), 623-630.
22. Wedding, A. (1978). Çocuk Edebiyatı. D. Richter (Drl.), Politik Çocuk Kitabı Içinde (S. 236- 241). İstanbul: Gözlem.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИГА СИНФ ВА СИНФДАН ТАШҚАРИ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ЎЗ ЎЛКАСИ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШ МЕТОДИКАСИ

Сатторова Муштарийбону Алижон қизи –
70110501-Таълим ва тарбия назарияси (бошланғич таълим) 1-курс (қишки) магистри

Аннотация. Бошланғич синф ўқувчиларига синф ва синфдан ташқари ишларни ташкил этишда ўз ўлкаси тарихини билиш ва улар тўғрисида маълумотларга эга бўлиш муҳим ҳисобланади. Айниқса, бугунги кун талабларидан келиб чиқиб ўқтаётган хар бир болани комил инсон қилиб тарбиялашда ўз ватани тарихи, тили, маданияти, урф-одатларини ўргатиш жуда муҳим ҳисобланади.

Таянч иборалар: *ўлкашунослик библиографияси, харитали манбалар, оғзаки манбалар, тарих ва маданият ёдгорликлари, музейлар*

Аннотация

При организации классных и внеклассных занятий для учащихся начальных классов важно знать историю своей страны и располагать информацией о них. Особенно важно преподавать историю, язык, культуру, традиции своей родины при воспитании глухого ребенка как совершенного человека, снимающего в соответствии с требованиями сегодняшнего дня.

Ключовые слова: краеведческая библиография, картографические источники, устные источники, памятники истории и культуры, музеи

Annotation

When organizing classroom and extracurricular activities for primary school students, it is important to know the history of their country and have information about them. It is especially important to teach the history, language, culture, traditions of your homeland when raising a deaf child as a perfect person who shoots in accordance with the requirements of today.

Keywords: local history bibliography, cartographic sources, oral sources, historical and cultural monuments, museums

Бошланғич синф ўқувчиларига ўз ўлкаси тарихи, она ватанида етишиб чиққан алломалар ва улар томонидан қолдирилган маданий мерос ва тарихий обидаларни синф ва синфдан ташқари экскурцияларда ўқувчиларга ўргатиш ва уларни она ватанига бўлган муҳаббатини ошириш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Уларни ўрганиш ва улар хақидаги маълумотлар билан таништириш методикаси билан аввало ўқитувчи танишиб чиққан бўлиши зарур. Синф ва синфдан ташқари ишларни ташкил этишда ўқувчилар яшаб турган ўлкасида жойлашган музейлар, тарихий обидалар, зиёратгохларнинг ўрни беқиёс.

Мактаб ўқувчиларига синф ва синфдан ташқари ишларни ташкил этишда мамлакатимиз президенти Ш.М.Мирзиёёв томонидан олиб борилаётган амалий ишлар диққатимизни тортмоқда. Президентимиз фармонлари билан 18 ёшгача бўлган болалар музейларга, тарихий обидаларга, зиёратгохларга кириш бепул бўлганлиги, ўқувчиларимизни янада кучли, билимли, баркамол инсон бўлиб етишига муҳим вазифани ўтайди. Биз педагоглар экскурциялар ташкил этиш жараёнидан олдин борадиган жойимиз тўғрисида мукаммал билимга эга бўлишимиз лозим. Экускурцияларни ташкил этишда ўқувчиларни олдин шу жой хақидаги барча билимларини эгаллашларига хам эътибор қаратмоғимиз зарур.

Ўлкашунослик библиографияси – ўз жойи ва ўлкасидаги етишиб чиққан тарихий шахслар ва буюк алломалар хақидаги (журналлар ва газеталардаги мақолалар), хариталар, тасвирий маҳсулотлар ва давомли нашрлар (илмий жамиятлар, илмий-тадқиқот институтлари, олий таълим муассасаларининг илмий тўпламлари ва ахборотлари) мажмуи. Библография хақидаги маълумотлар билан дастлаб ўқитувчи ўзи танишиб чиққан бўлиши керак.

Харитали манбалар – харита атроф-муҳит ҳолатининг кичрайтирилган ва умумлаштирилган белгили тасвири, ўзига хос модели бўлиб, улар экологик ўлкашунослик тадқиқотларида экологик ахборот манбаи бўлиб хизмат қилади. Тарихий- оммабоп хариталар ҳудудий қамрови, мазмуни, масштаби ва тасвирни соддалаштириш даражасига кўра хилма-хил турларга ажратилади. Уларда экологик маълумотлар мавзуий умумлашган ҳолда батафсил ва теранлик билан кўрсатилади.

Архив манбалари – давлат ва идоравий архивларда ўз ўлкасида етишиб чиққан буюк алломалар, тарихий шахслар ва улардан қолган асори антиқалар, қўлёзмалар, битиклар, мусиқий асарлар ва бошқа манбалар қиради.

5.***Оғзаки манбалар*** – халқ оғзаки ижоди (эртаклар, ривоятлар (нақллар), достонлар, қўшиқлар, мақоллар, маталлар) намуналарида халқ маънавияти ва маданиятининг (инсоннинг ўз-ўзига, бошқа кишиларга ва атроф-муҳитга онгли, ахлоқли, масъулиятли муносабатининг) азалий ва абадий мезонлари мужассамлашган бўлади. Бу бебаҳо неъматлар замонавий тарихий тафаккур ва қарашлар билан уйғун ривожланиб, ўқувчиларнинг тарихий маданиятини юксалтиришга хизмат қилиши лозим. Тарихий ўлкашунослик тадқиқотлари жараёнида уларни ўрганиш ва халқ оммасига етказиш энг муҳим маърифий вазифалардан биридир.

6. ***Тарих ва маданият ёдгорликлари*** тарихий ўлкашунослик манбаи сифатида ўз жойи ва ўлкасининг атроф-муҳитига оид хилма-хил ахборотларни ўзида сақлайди ва улар билан танишиш жараёнида бу ахборотлар ўзлаштирилади. Айниқса, санъат асарлари ўз жойи ва ўлкасида экология, табиатдан фойдаланиш

ва атроф-муҳит муҳофазаси ҳақидаги билимларнинг муҳим манбаи бўлиб, уларда табиат ва ишлаб чиқариш манзаралари, инсон ва табиат ўртасидаги муносабатлар, қадрдон ўлка (шаҳар, қишлоқ) ҳамда ижтимоий-экологик ҳаётнинг турли қирралари ҳақидаги ахборот сақланади.

7.***Музейлар*** – ўлкашунослик музейлари ва музей-кўриқхоналарда табиат ва унинг таркибий қисмлари, инсоннинг хўжалик фаолияти, уларнинг ўзаро алоқадорлиги ҳақида асл манбали билимлар ҳисобланган моддий-маънавий ёдгорликлар ва табиий-илмий коллекциялар мавжуд бўлиб, уларни ўрганиш орқали экологик таълим-тарбия ва маданиятни шакллантириш самарадорлиги янада ортади. Натижада ўқувчи-ёшларнинг ўз жойи ва ўлкаси табиатидан тўғри фойдаланиш, шунингдек атроф-муҳитга масъулиятли муносабатда бўлиш кўникмалари янада ривожлантирилади.

Давлат музейлари бўлмаган ҳудудларда таълим муассасалари ташаббуси билан экологик ўлкашунослик музейлари ташкил этилиши мумкин. Бундай музейлар қуйидаги хусусиятларга эга бўлади:

а) ўқитувчилар ва ўқувчиларнинг кучи билан йиғиладиган тарихий ўлка-
шунослик материаллари асосида ташкил этилади;

б) фақат ўқувчиларга мўлжалланган бўлиб, унинг ашёлари ва коллек-
цияларидан таълим ва тарбия мақсадларида фойдаланилади;

в) табиий-илмий мазмундаги коллекциялар мажмуий хусусиятга
эга бўлади.

Бундай музейлар ўқувчиларнинг ўз жойи ва ўлкасига, шунингдек атроф- муҳитга бўлган қизиқишини орттиришга, илмий тарихий тафаккури ва дунёқарашини шакллантиришга хизмат қилади.Музейлардан олган билимлари, ўз ўлкасида етишиб чиққан тарихий шахслар орқали ўқувчилар баркамол шахс бўлиб тарбияланиши билан биргаликда, ўз ўлкасидаги яшаб ўтган аждодларини, ота-боболарини ҳурмат қилишга ва она-юртига меҳр муҳаббатлари ортиришига ёрдам беради.Экскурциялар ўқувчилар китобларда ўқиган билимларини амалиётда қўллашига, эгаллаган билимларини мустахкамлашга асос бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Сайдаматов Ф.Р. Формирование творческих способностей учащихся в процессе изучения географии // Педагог минбари, 2016, № 5. - С. 47-49.

2. Сайдаматов Ф.Р. Творческая деятельность учащихся школ на уроках географии // Халқ таълими, 2017, № 2. – Б. 127-130.

3. М.Г. Давлетшин, Ш. Дустмухамедова, М. Мавлонов, С. Туйчиева. Ёш даврлари ва педагогик психология (ўқув-методик қўлланма). – Тошкент, ТДПУ, 2004. - 132 б.

4.Болтаева Ш.П. Бошланғич таълимда ўқувчилар ижодий фаолиятини ривожлантиришнинг ташкилий-педагогик асосларини такомиллаштириш: Пед. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 20 б.

ЎҚУВЧИЛАРДА ТИНГЛАБ ТУШУНИШ КЎНИКМАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЗАРУРАТИ ВА АҲАМИЯТИ

Қўйлиева Шаҳноза Рустамовна- Тошкент амалий фанлар университети ўқитувчиси
e-mail: goyliyeva@gmail.com

Аннотация мақолада она тили ўқитиш методикасида муҳим аҳамиятга эга бўлиб бораётган тинглаб тушуниш кўникмасини ривожлантирувчи ўқув топшириқларини прагматик ёндашув асосида такомиллаштириш масаласи тадқиқ этилган. Унда 5-9-синф она тили дарслари мисолида ўқув топшириқларидан фойдаланишнинг жорий ҳолати ва келажакда яратилажак ўқув топшириқларига намуна ва мезонлар тавсия этилган. Хулоса қисмида ўқув топшириқларини такомиллаштириш бўйича таклифлар баён қилинган.

Калит сўзлар: *ўқув топшириқлари, прагматика, прагматик ёндашув, билим, кўникма ва малака, ҳаётий кўникмалар, савол, машқ, топшириқ, такомиллаштириш*

Куйлиева Шахноза Рустамовна, преподаватель Ташкентского университета прикладных наук e-mail: koyliyeva@gmail.com

НЕОБХОДИМОСТЬ И ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ У УЧАЩИХСЯ НАВЫКОВ ПОНИМАНИЯ НА СЛУХ

Аннотация в статье исследуется вопрос совершенствования учебных заданий, которые становятся важными в методике преподавания родного языка, на основе прагматического подхода. В нем рекомендованы образцы и критерии текущего состояния использования учебных заданий на примере занятий по родному языку в 5-6 классах, а также учебные задания, которые будут созданы в будущем. В разделе "Резюме" описываются предложения по улучшению учебных заданий.

Ключевые слова: *учебные задания, прагматика, прагматический подход, знания, навыки и компетентности, жизненные навыки, вопрос, упражнение, задание, совершенствование*

Kuyliyeva Shakhnoza Rustamovna, lecturer at Tashkent University of Applied Sciences e-mail: kuyliyeva@gmail.com

THE NEED AND IMPORTANCE OF DEVELOPING STUDENTS' LISTENING COMPREHENSION SKILLS

Abstract article explores the issue of improving educational tasks that become important in the methodology of teaching the native language, based on a pragmatic approach. It recommends samples and criteria for the current state of the use of educational tasks on the example of native language classes in grades 5-6, as well as educational tasks that will be created in the future. The "Summary" section describes suggestions for improving training assignments.

Keywords: *learning tasks, pragmatics, pragmatic approach, knowledge, skills and competencies, life skills, question, exercise, task, improvement*

Таълим бериш методикасида қўйилган мақсадга воситаларни қўллаш орқали эришилади. Таълимнинг асосий воситаси – машқ, уларнинг бажарилиши таълим мақсадига эришишда муҳим аҳамиятга эга[17] Ўқувчиларда тинглаб тушуниш бўйича кўникма ва малака шакллантирилганда ҳам айнан машқлардан самарали фойдаланиш лозим. Нутқий кўникмалар орасида тинглаб тушуниш ўзига хос муҳим компонентни ташкил қилади. Она тили таълимида бугунги кунда мазкур кўникмани ривожлантиришга унчалик эҳтиёж мавжуд эмас деган қарашлар ҳам бор. Аслида она тили таълимида ҳам чет тилида бўлгани каби тинглаб тушуниш кўникмаси бўлиши керак. Фақат ўқитиш ва баҳолаш мезонларида ўзига хос фарқлар бўлади.

Тинглаб тушунишни амалий мақсад мақомида ўргатилиши учун, биринчидан, аудиоматнни танлаш (тузиш), иккинчидан, уни эшиттириш ташкилий шартлари (синф, айрим гуруҳ ёки ёлғиз ўқувчига тегишлилиги) ни аниқлаш, учинчидан, ўқувчиларни тинглашга тайёрлаш (тил материалини билиши, аудиоматн мазмунининг мослиги), тўртинчидан, неча марта тинглашни тавсия этиш (ўқув топшириқларини тайёрлаш) ва, бешинчидан, тушунганликни текшириш каби тадбирларни тақозо этади.

Аудиоматн устида олиб бориладиган қуйидаги иш тартиби тавсия қилинади: муаллим аудиоматнни ўзи тинглаб олади (ўқиб чиқади), унинг қийин жойларини аниқлаб, уларни бартараф этиш усулларини ўйлаб қўяди, тушунишга таянч бўладиган ўқув воситаларини (расм, доскага ёзиш, магнитофон тасмаси кабилари) тайёрлайди, биринчи ва навбатдаги тинглашларга топшириқлар ишлаб чиқади. Дарсни ўтиш чоғида тинглаб тушунишни ўргатиш босқичлари қуйидагилардан иборат:

1) тинглашда кутиладиган қийинчиликлар бартараф этилади;
2) аудиоматнни биринчи эшитиш бўйича кўрсатма (топшириқ) берилади;
3) тушунганлик топшириқ ёрдамида текшириб кўрилади;
4) иккинчи марта эшитишга топшириқ берилади;
5) текшириб кўрилади ва ҳ.к.

Методик тадқиқотлар кўрсатишича, иккинчи ва учинчи марта эшитиш аудиоматнни тушунишга ёрдам беради, ундан кейинги тинглашлардан унчалик наф кўрилмайди. Аудиоматн асосида гапиришни ташкил қилса бўлади. Бу иш усули диафилм ва кинофрагментлар материалида ҳам ўтказилиши мумкин. Аудиоматнни тушунганликни текшириш муаллимдан муайян методик маҳорат талаб қилади. Текширишдан кўзланадиган мақсад, тинглаб тушуниш малакасининг шаклланганлиги ва оқибат натижада, тингланганни идрок этиб фаҳмлаганлик даражасини аниқлашдир18.

Ўқитувчи тинглаб тушуниш билан боғлиқ барча қийинчиликларни бартараф эта олмайди. Ўқитувчи уларга бу вазифани осон ва қизиқарли бўлишига ёрдам бериши керак. Бу тинглаш кўникмаларини ривожлантириш кўникмаларини ривожлантиришни таъминлаши мумкин бўлган қуйидаги уч омилни ҳисобга олиши керак:

1. Талаффуз ёки оҳанг.
2. Тинглаш учун тавсия этилган материалнинг мазмуни
3. Материалнинг шакли ва келтирилган шартлар.

Ўқитувчи ўқувчилар томонидан ўзлаштирилган материалдан фойдаланса, тинглаб тушуниш мумкин. Бироқ, бу тинглашда қийинчиликларни тўлиқ бартараф етмайди. Материалнинг мазмуни ҳам тушунишга таъсир қилади. Хабар мавзуси ўқувчиларнинг тушуниш ваколатлари доирасида бўлиши керак. Қийинчиликларни тушунтириш керак (тўғри номлар, географик номлар, терминология ва бошқалар.)

Тавсифлар ривоятларга қараганда мураккаброқ. Ўқувчиларнинг буни тушунишга ва тушунишга тайёрлиги жуда муҳимдир. Ҳикоянинг сарлавҳаси матннинг асосий ғояларини тушунишда фойдали бўлиши мумкин. Монологик нутқ осонроқ. Имкон қадар она тили дарсларида шунга эътибор қаратган маъқул.

Ифодаловчи шарт-шароитлар катта аҳамиятга эга: нутқ тезлиги, материалнинг бир неча

17 Саидалиев С. Чет тили ўқитиш методикаси очерклар.–Наманган, 2004. –238 б.

18 Меликова Э. Чет тилини ўқитишда тинглаб тушунишнинг ўрни ва уни ривожлантиришнинг йўллари// Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2022, 10-сон. 250-б.

декомпозициялари. Ўқувчиларни бир вақтнинг ўзида матнни тинглашга ўргатиш лозим. Бироқ, баъзан улар фақат 70% ахборотни тушуниши мумкин, ва ҳатто камроқ, шунинг учун иккинчи тақдимот фойдали бўлиши мумкин. Нотиқнинг мавжудлиги ёки йўқлиги ҳам муҳим омил ҳисобланади.

Ўқитувчи бу усуллардан тинглаш малакаларини ривожлантиришда фойдаланади.

1. Махсус синфда машғулот ўтказиш ўқитувчига ўқувчиларнинг нутқ кўникмаларини эгаллаш учун қулай муҳит яратишда мулоқот воситаси сифатида тил имкониятларидан фойдаланишда тинглаш қобилиятини беради.

2. Ўқитувчи тинглаб тушунишни ривожлантириш учун мактабда кўпроқ нутқ машқларидан фойдаланади.

Ғ.Ҳамроев тинглаш фаолиятини ташкил этиш бўйича зарур кўрсатмалар беради[19].

Хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, ўқувчи мулоқотга том маънода кириша олиши учун у маълумотларни ҳам ўқиб, ҳам тинглаб, ҳам кўриб тушуна олиши керак, акс ҳолда бу нутқий компетенция занжирида биттаси бўлмаса ҳам мулоқот тушунарли бўлмайди. Тинглаб тушуниш кўникмаси бошланғич, умумий ўрта таълимда кенгроқ ўқитилиши лозим. Ҳатто мактабгача таълимдан ўқувчиларга тинглаб тушунишни ўргатиш мумкин.

Олдинда турган муҳим масалалардан бири ҳам умумий ўрта таълим тизимида тинглаб тушуниш кўникмасини ривожлантирувчи ва ҳосил бўлган билим, кўникма ва малакларни баҳолашга хизмат қилувчи ўқув топшириқлар тизимини ишлаб чиқиш ҳамда улардан фойдаланиш методикасини яратишдан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Саидалиев С. Чет тили ўқитиш методикаси очерклар.–Наманган, 2004. –238 б.
2. Меликова Э. Чет тилини ўқитишда тинглаб тушунишнинг ўрни ва уни ривожлантиришнинг йўллари// Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2022, 10-сон. 250-б.
3. Ҳамроев Ғ. Она тилидан ўқув топшириқлари ишлаб чиқиш методикаси. Монография. –Тошкент. Донишманд зиёси. 2021. 154 б.

ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМДА НАЗАРИЙ МАЪЛУМОТЛАР БИЛАН ИШЛАШДА ЎҚУВ ТОПШИРИҚЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Шуҳрат Жуманиязов,
Тошкент Амалий фанлар университети Педагогика кафедраси тадқиқотчиси

Аннотация: мақолада она тили таълимида нутқий ҳамда лингвистик кўникмаларни ривожлантиришда назарий маълумотларнинг ўрни ва аҳамияти, ўқувчиларга қандай грамматик маълумотларни ўргатишда қанадй ўқув топшириқларидан фрйдаланиш, қайси ўқув материаллари лингвистик компетенцияни ҳосил қилишда назарий маълумотларни ўзлаштириш билан боғлиқ муаммолар муҳокама қилинган.

Калит сўзлар: *грамматик маълумотлар, ўқув топшириқлар, грамматик билим, грамматик минимум, лингвистик компетенция, нутқий малака, кўникма, халқаро тажриба, прагматик ёндашув, ўқув грамматика*

Ўзбек тилининг она тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини ошириш, замонавий ўқитиш методикасини жорий этиш бўйича тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Мамлакатда шаклланган янги тил сиёсати унинг таълимига ҳам зарур талабларни қўймоқда. Давлатимиз раҳбари “Ҳар биримиз давлат тилига бўлган эътиборни мустақилликка бўлган эътибор деб, давлат тилига эҳтиром ва садоқатни она Ватанга эҳтиром ва садоқат деб билишимиз, шундай қарашни ҳаётимиз қоидасига айлантиришимиз керак” лиги она тили таълими олдига, хусусан, бўлажак она тили ўқитувчилари тайёрлаш учун прагматик ўқув топшириқлари ишлаб чиқишнинг илмий-методик асосларини такомиллаштиришни долзарб вазифа сифатида қўяди.

Ф.И.Буслаев шундай ёзади: “биринчи ва энг муҳими, нутқ шакллари билан ифодаланадиган нарсаларни тушуниш ва уларни тўғри йўл билан ишлатишдан иборат амалий қобилиятни ривожлантиришдир, яъни ўқимишли одамлар айтганидек, оғзаки ва ёзма машқлар орқали ўқувчида суҳбат ва ёзувга хос нутқ шаклларини осонлик билан тушуниш кўникмасини ҳосил қиламиз”. “Асрлар давомида инсоният томонидан тўпланган барча тил илмини ўрта мактаб ўқувчисига ўргатишнинг иложи ва зарурати йўқ. Демак, она тилидан энг зарур билимларни танлаш асосий масалалардан биридир.

Она тилидан билимларни танлашнинг бош мезони унинг фойдалилик ва амалда қўлланила олиш даражасидир. Биз она тилидан фойдали билимлар деб болаларнинг саводли ёзиш, ижодий фикрлаш, фикр маҳсулини нутқ шароитига мос равишда оғзаки ва ёзма шаклларда тўғри, равон ифодалаш кўникмаларини шакллантириш учун хизмат қиладиган, уни юксак инсоний фазилатлар руҳида тарбиялаш ва ривожлантиришни таъминлайдиган билимларни тушунамиз”.[20] Бунда ўқув топшириқлар таълим мазмунини юзага чиқарувчи муҳим омил ҳисобланади.

19 Ҳамроев Ғ. Она тилидан ўқув топшириқлари ишлаб чиқиш методикаси. Монография. –Тошкент. Донишманд зиёси. 2021. 154 б.

20 Ғуломов А.., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик кўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.

Маълумки, тил таълимида назарий маълумотларни ўзлаштиришда ҳам савол – машқ – топшириқ турларидан иборат ўқув топшириқлари қўлланилади. Ўқув топшириқлари, аввало, она тили таълимининг мақсади, вазифалари ва мазмунига бевосита боғлиқ, ўқувчини фикрлашга, ўқув материали устида мустақил ишлай олишга, зарур нутқий кўникма ва малакаларни шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилади. Афсуски, бугунги кунгача она тили таълимида ўқув топшириқларига ўқитиш методикасининг асоси, таълим мазмунини юзага чиқарувчи муҳим омил сифатида қаралмади. Она тили дарсларида таълим мазмунининг асоси сифатида грамматик қоидалар тушуниб келинди, ўқув топшириқларига эса ушбу қоидаларни ўзлаштиришда фойдаланилувчи восита сифатида қаралади.

Она тили – халқининг руҳи бўлиб, она тилини ўргатиш, аввало, боланинг туғма ақлий қобилиятни ривожлантиришга хизмат қилади, иккинчидан, ўқувчиларни она тили хазиналарини онгли эгаллашга олиб келади, учинчидан, болалар бу тилнинг мантиғини ўрганишлари керак. Бу мақсад ва вазифаларга бирин-кетин эмас, балки баравар эришиш бориш лозим.[21] Бунда ўқув топшириқлари асосий вазифани бажаради.

Назарий маълумотларни ўзлаштиришда қўлланувчи ўқув топшириқлари:

1-жадвал

Т/р	Билим ҳосил қилувчи ўқув топшириқлар	Ҳўникма ҳосил қилувчи ўқув топшириқлар	Билимни баҳоловчи ўқув топшириқлар
1.	Топшириқ	Машқ	Савол ва топшириқ
2.	Ҳўшма сўзлар ҳақида маълумот беринг.	Қўшиб ёзиладиган қўшма сўзларни аниқланг.	Ҳандай қўшма сўзлар қўшиб зилади. Мисоллар келтиринг.
3.	Қўшма отлар ҳақида маълумот беринг.	Қўшиб ёзиладиган қўшма отларни аниқланг.	Қандай қўшма отлар қўшиб зилади. Мисоллар келтиринг.
4.	ўшма сифатлар ҳақида маълумот беринг.	Қўшиб ёзиладиган қўшма сифатларни аниқланг.	андай қўшма сифатлар қўшиб зилади. Мисоллар келтиринг.

Замонавий она тили таълимида назарий маълумотлар асосида матн устида ишлаш орқали нутқий кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш марказий масала бўлиб турган экан, бунда ўқувчини матн мазмунини англаш ва бошқа нутқий жараёнларга тайёрлаш ўқув топшириқлари зиммасида бўлади.

Она тили таълимини босқичма-босқич ислоҳ қилиш жараёнида, таъкидлаш керакки, она тили таълими мақсадини, мазмунини, улардан келиб чиқадиган назарий маълумотлар асосидаги ўқув-билув топшириқларини ишлаб чиқиш борасида мустақилликнинг дастлабки йилларида тизимли тадқиқотлар олиб борилди.

Ш.Юсупова ўзининг докторлик диссертацияси[22] да ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида назарий маълумотлар асосида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари ёритиб берилди, тадқиқот ишида она тили таълимида ўқувчилар тафаккурини ривожлантиришнинг илмий-методик асосини ишлаб чиқиш билан бирга тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқларига алоҳида эътибор қаратилган. Х.Муҳиддинова ўзбек тилини давлат тили сифатида ўқитишда грамматик билим ва нутқий мавзулар узвийлиги ва узлуксизлигини таъминлашга қаратилган докторлик тадқиқот ишида машқ ва топшириқларни ҳам узлуксиз таълим тизими учун узвийлик тамойили асосида такомиллаштириб бериш масаласини[23] илгари сурди. Монографик тадқиқотида эса, ўзбек тили дарсларида ўқув-билув топшириқларини босқичма-босқич кетма-кет қўлланилишига доир амалий тавсиялари давлат тили таълими учун муҳим аҳамиятга эга.

К.Мавлонов она тили таълимининг бугунги ёндашувларига мос равишда энг мураккаб масалалардан бири бўлган матн устида ишлаш, уни ўқий олиш, тушуна олиш ва, энг муҳими, назарий маълумотлар асосида матн ярата олиш кўникмаларини адабиёт фани билан интеграция қилган ҳолда ривожлантирувчи ўқув топшириқларини ишлаб чиқди.[24] Бироқ ўзбек тилини она тили сифатида ўқитишда назарий маълумотларни қандай шаклда ва ҳажмда тақдим этишнинг илмий методик асослари яратилмаган.

Мақолада она тилидан назарий маълумотларни танлаш ва уларни ўқитишнинг самарали усулларини аниқлаш, ўрни ва аҳамиятини очиб бериш мақсад қилинган.

Назарий маълумотлар орқали матн устида ишлаш орқали эшитганларини тўғри тушуна олиш, адабий тилда равон ва мантиқан изчил гапира олиш, матнни ўқиб тушуна олиш ҳамда тўғри ва мазмунли ёза олиш кўникмалари она тили таълимида натижаларни қулай баҳолаш мезонларини ишлаб чиқишга ёрдам беради. Ўқувчилар она тили таълими орқали қуйидаги назарий маълумотларни ўзлаштириш лозим:

21 https://ru.wikipedia.org/wiki/

22 Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. фан.доктори... дисс. – Тошкент: ТДПИ, 2005. – 270 б.

23 Муҳиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш пед. фан. ном-ди дисс. ТДПИ –Тошкент, 2011. -270 б

24 Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш Пед. фанл. бўйича фал. док. (PhD)илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Т.: 2019. -22 б.

2-жадвал

/р.	Ўқувчилар ўзлаштириши лозим бўлган назарий билимлар	Ўқувчилар ўзлаштириши лозим бўлмаган назарий билимлар
	Фонетика, графика	Қўшимчаларнинг шакл ва маъно муносабатига кўра турлари
.	1.	Сўзнинг лингвистик тавсифлари
.	Сўз туркумлари, қўшимчаларнинг турлари	Сўз туркумларининг таснифланиши
.	Лексика, ўз ва кўчма маъно, сўзларнинг шакл ва маъно муносабатига кўра турлари.	Лексема, семантика, семема
.	Сўз бирикмаси, гап ва унинг ифода мақсадига кўра турлари	Гапнинг тузилишига кўра турлари, мураккаб қўшма гаплар

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, бугун амалда бўлган янги ўқитиш методикаси асосида такомиллаштирилган “Она тили” дарсликлари мазмунидан грамматизм кучайиб кетиш натижасида нутқий кўникма ва малакалар ривожланмай қолиб кетгани сабабли назарий маълумотлар дарсликлардан чиқариб ташлаган. Она тили орқали ўзбек тилининг грамматик структураси ўқувчи тафаккурида шакллантирилмас экан у бошқа тилларни ўзлаштиришга қийналади. Шу маънода, она тилидан ўқув грамматика ишлаб чиқиш бугунги кунинг муҳим вазифаларидан ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ғуломов А.., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/
3. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. фан.доктори... дисс. – Тошкент: ТДПИ, 2005. – 270 б.
4. Муҳиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш пед. фан. ном-ди дисс. ТДПИ –Тошкент, 2011. -270 б.
5. Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш Пед. фанл. бўйича фал. док. (PhD)илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Т.: 2019. -22 б.

ЎҚИШ САВОДХОНЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРУВЧИ ЎҚУВ ТОПШИРИҚЛАРИ УСТИДА ИШЛАШ

Муродова Шаҳло Ибрагимовна- Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети мустақил изланувчиси, **e-mail: shmurodova@gmail.com**

Аннотация: мақолада бадиий матн устида ишлаш, ўқиб тушуниш кўникмаларини ривожлантириш, матнни англаш, муаллифнинг мақсадини тушуниш, яширин ва ошкора айтилган фикрларни илғаш, матн устида ишлаш орқали нотаниш сўзларнинг маъносини ўрганиш, мустақил мушоҳада қилишга йўналтирувчи ўқув топшириқларни ишлаб чиқиш ҳақида мулоҳаза юритилади.

Калит сўзлар: матн, ўқиш саводхонлиги, бадиий асар, муаллиф мақсади, асар ғояси, калит сўзлар, муҳим жумла, ўқиб тушуниш, матннинг англаш, савол, мустақил фикрлаш

РАБОТАТЬ НАД УЧЕБНЫМИ ЗАДАНИЯМИ, РАЗВИВАЮЩИМИ ГРАМОТНОСТЬ ЧТЕНИЯ

Муродова Шахло Ибрагимовна- независимый научный сотрудник Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
e-mail: shmurodova@gmail.com

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы работы над художественным текстом, развития навыков понимания прочитанного, понимания текста, понимания замысла автора, продвижения скрытых и прозрачных мыслей, изучения значения незнакомых слов через работу над текстом, разработки образовательных заданий, направленных на самостоятельное наблюдение.

Ключевые слова: *текст, грамотность чтения, художественная литература, цель автора, идея произведения, ключевые слова, важное предложение, понимание прочитанного, понимание текста, вопрос, независимое мышление*

WORK ON EDUCATIONAL TASKS THAT DEVELOP READING LITERACY

Shakhlo Murodova Ibragimovna, Independent researcher at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi **e-mail: shmurodova@gmail.com**

Abstract: the article discusses the issues of working on a literary text, developing reading comprehension skills, understanding the text, understanding the author's intention, promoting hidden and transparent thoughts, studying the meaning of unfamiliar words through working on the text, developing educational tasks aimed at independent observation.

Keywords: text, reading literacy, fiction, the author's goal, the idea of the work, keywords, important sentence, reading comprehension, text comprehension, question, independent thinking

Кириш. Бугун тил ва адабиёт ўқитишда турли замонавий ёндашувлар қўлланилмоқда. Халқаро тажрибалардан ҳам самарали фойдаланишга ҳаракат қилинмоқда. Бу яхши, албатта. Аммо биз каби қадимий миллатлар сони унчалик кўп эмас ва бу заминда Алишер Навоий ва бошқа дунё тамаддунига улкан ҳисса қўшган даҳолар бисёр. Биринчи ва иккинчи ренессансга ўзларининг муносиб ҳиссаларини қўшган аждодларнинг муносиб авлоди бўлиш учун уларни тарбиялаган муҳит ва таълим тизими ҳақида яққол тасаввурга эга бўлишимиз лозим. Математика, астрономия, тиббиёт илмларининг устунлари қандай етишиб чиқди?

Ҳолбуки, барча илмий йўналишлар қаторида тилшуносликда ҳам "...илмий ва ижодий изланишларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, улар учун зарур шарт-шароитлар яратиш вазифа"синиг25 белгиланиши фанлар интеграцияси бўйича чуқур изланишлар олиб бориш зарурлигини кўрсатади. Мамлакатимизда тилга эътибор маънавиятга эътиборнинг устувор йўналишларидан бири даражасига кўтарилди. Шу боисдан она тилимизни асраб-авайлаш, бойитиш, ундан амалий фойдаланиш самарадорлигини ошириш билан бирга, ўзбек тилининг замонавий ахборот-коммуникация тизимида кенг қўлланишига эришиш кечиктириб бўлмайдиган, долзарб вазифага айланди. Шеърият мулкининг султони – Низомиддин Алишер Навоий қандай қилиб мутафаккир даражасига эришди? Биз бугун тил ва адабиёт таълими бўйича хорижий тажрибаларга кўпроқ урғу бермоқдамиз. Аммо хорижий ижодкорлар Навоий забт этган чўққиларга ета олганми? Шундай экан "Шамсул миллат" (миллат қуёши) ҳисобланган буюк Навоийга тегишли ҳар бир жиҳатни чуқур ўрганишимиз керак.

Тил ва адабиёт ўқитиш методикасини такомиллаштиришда миллий, маҳаллий тажрибаларни эътибордан қолдирмаслигимиз керак. Айрим асарларни ўқитишда бу бола ёшига тўғри келмайди, психофизиологгияга мос-мос эмас, дейишдан олдин аждодлар тажрибасини обдон таҳлил қилиб кўрайлик. Чунки интеллектуал қобилият ҳамма миллатда бир хил бўлмайди. Афсуски, биздаги илмий тадқиқотларнинг аксариятида рус тили ва адабиётини ўқитиш методикасига доир назариялар асос вазифасини ўтайди.

Ваҳоланки, Беруний, Фаробий, Ибн Сино, Хоразмий, Мирзо Улуғбек, Навоий, Бобур каби даҳоларни етиштириб берган таълимий муҳит, шарт-шароит, ўқитиш методикаси ҳали махсус ўрганилмаган. Таъкидлаш лозимки, миллий педагогика тарихида мутафаккирларимизнинг педагогик қарашлари ўрганилган холос, уларни интеллектуал жиҳатдан юксалтирган таълимий муҳит эса очилмаган қўриқ бўлиб турибди. Маълумки, ўтмишда, айниқса, юқорида номлари зикр этилган аждодларимиз даврида устоз-шогирд муносабатлари таълимнинг асосини ташкил этган.

Аввал ҳам таълим турли босқичларни қамраган, жумладан, масжид, мадраса, мадрасаи олиялар фаолият юритган. Буюк инсонларнинг устозлари ҳам ўз даврида улуғ мақомлардаги комил шахслар бўлган.

Таълимнинг асоси – бу ўқув топшириқлари, яъни савол ва жавоблардир. Чунки боланинг интелектуал қобилиятини ривожлантириш икки босқичда амалга оширилади: биринчиси, болага, талабага салмоқли, фикрлашга ундайдиган муҳим савол бера олиш; иккинчиси, ўқувчининг берган саволига эринмасдан тўғри, аниқ, мисоллар асосида жавоб бериш.

Манашу икки жараён сифатли бўлса, таълим самарали бўлади. Инсон ўзи танлаган исталган соҳада юксак натижаларни қўлга киритиши мана шу икки жиҳатга ниҳоятда боғлиқ. Берилган асарни, топшириқни ўқиб келиш, ўқиб олиш қийин иш эмас, уни устоз талқинида эшитиш, бирга муҳокама қилиш тафаккурга кучли таъсир қилади.

Бугунги таълим жараёнида қўлланилаётган савол-жавоблар кўпинча хотирани машқ қилдиришга хизмат қилмоқда. Адабиёт ўқитиш методикасида профессор Қозоқбой Йўлдошев, педагогика фанлари доктори Қундуз Ҳусанбоевларнинг тадқиқотларида миллий тажрибалар, ўқувчини мустақил фикрлашга, сўзни, одам ва олам моҳиятини англатишга уринишлар борлигини мамнуният билан таъкидлаймиз.

Шу ўринда, филология фанлари доктори, профессор Ибодулла Мирзаевнинг миллий тажрибаларни ўрганган ҳолда мумтоз таълим шакли бўлган "Таҳлилий ўқиш", "Матн таҳлили" ўқув лойиҳалари юксак савияли шахслар, малакали мутахассислар тайёрлаш, иқтидорли олимлар етиштиришга хизмат қилиши шубҳасиз.

Она тили таълими орқали ижодий тафаккур соҳибларини тайёрлаш концепцияси муаллифи филология фанлари доктори профессор Намид Неъматов ва унинг издоши, муносиб шогирди, бугун Ўзбекистонда амалий тилшунослик ва прагматик таълимни ривожлантиришга катта ҳисса қўшаётган истеъдодли олим – Бахтиёр Менглиевнинг бу борада амалга ошираётган манфаатли ишларни ҳам таъкидлаш ўринлидир.

25Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2016. – 56 б.

Шундай бўлса-да она ва адабиёт таълими ўзининг янги методикасини тўла яратиб олган, у бугун самарали қўлланмоқда, деб айтолмаймиз. Чунки жаҳон тажрибасини ҳар қанча ўрганмайлик, миллий менталитет, ирсият тушунчалари ҳам мавжудки, биз узоқ ўтмишда жаҳоний шон-шуратни қўлга киритган аждодларимизнинг бой тажрибасини, албатта, ўрганишимиз керак. Унинг елементларини бугунги таълим жараёнига сингдиришимиз лозим. Бу борада бизга тарихчилар, этнографлар, киночилар, шарқшунослар, ёзувчилар ёрдам бериши керак.

Интеллектуал салоҳият, даҳолик ҳақида гап борса, бизнинг диққат марказимизга Алишер Навоий келади. Бу бежиз эмас. Чунки Навоий ижоди, унинг тафаккур маҳсули тўла ўрганилмаган, қазиб олинмаган хазинадир. Бизни қизиқтирадиган жиҳати шуки, бундай даҳо, мутафаккир қандай етишиб чиқди, унинг омиллари, сабаблари, шарт-шароитлари қандай бўлган, Навоий қандай таълим олган?

Яқинда нафақат ўзбеклар, балки жаҳон миқёсида ҳам ўқувчилари сони кун сайин ошиб бораётган, миллат тафаккурини юксалтиришга хизмат қилувчи “Генетик”, “Боқий дарбадар” каби асарлар муаллифи, истеъдодли ёзувчи Исажон Султоннинг “Алишер Навоий” романи чоп этилди. Бунинг бадиий қиммати, ижтимоий аҳамият тўғрисида мунаққидларимиз, миллат зиёлилари ўз муносабатларини билдирдилар.

Давлатимиз томонидан ҳам ушбу теран тафаккур маҳсули муносиб баҳоланди. Ёзувчига шахсан мамлакат раҳбари “Ўзбекистон халқ ёзувчиси” унвонини топширди. Бу асарга берилган энг юксак баҳо эди. Алишер Навоий асарларининг ўзига хослиги ҳам шундаки, уни ўқиган ҳар бир киши ўзига керакли маъно топа олади. Масалан, бир ғазални икки ёки уч хил талқин этиш мумкинлиги кўп марта исбот бўлган.

Исажон Султоннинг “Алишер Навоий” романи юксак бадиий асар бўлиши билан бирга фактик материалларга бой бўлгани боис тарихчилар, қадимшунослар, сиёсатчилар, нутқшунослар учун ҳам зарур манба бўла олди. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, бу роман она тили ва адабиёт ўқитиш методикаси, миллий педагогика учун ҳам қимматли манба вазифасини ўтайди.

Мамлакатда учинчи ренессанс рўй бериши учун “Тараққиёт стратегияси” ни амалга оширишда барча соҳада, жумладан, таълим тизимида, замонавий кадрлар тайёрлашда туб бурилишлар, самарали ислоҳотлар олиб бориш, миллатни интеллектуал жиҳатдан юксалтириш, жамиятда устознинг нуфузини ошириш бош масалалардан бири бўлиб турибди.

Ижтимоий тармоқларда ривожланган мамлакатларда устознинг ниҳоятда қадрланиши билан боғлиқ маълумотлар ҳавас билан қайта-қайта муҳокама қилинмоқда. Устознинг соясини босиб олмаслик учун етти қадам орқада юриш каби япон ва бошқа интеллектуал жиҳатдан тараққий этган давлатлар маданияти тарғиб қилинмоқда. Бу яхши. Аммо биздаги мумтоз устоз-шогирдлик анъанаси ҳам бундан қолишмаган. Буни тарихий фактлар, содир бўлган биринчи ва иккинчи ренессаналар исботлайди. Биз бир муддат бу анъаналардан узоқлашган эдик, мана “Алишер Навоий” каби романлар яна шу муҳитга қайтарса, ажаб эмас.

Асарда Буюк шоирнинг қандай етишиб чиқиши, бунга сабаб бўлган шахслар, омиллар ва воситалар аниқ ифодаланган. Бу миллий методикамиз, қолаверса, педагогикамиз учун жуда муҳим эди.

Бугун тил ва адабиёт ўқитишнинг замонавий методикасини ишлаб чиқишда мумтоз таълим эришган ютуқларидан фойдаланиш лозим. Эътиборли жиҳати шундаки, Исажон Султоннинг “Алишер Навоий” романида шундай ўзига хос ёндашувлар борки, уни бугунги тил ва адабиёт ўқитишга татбиқ этиш, айниқса, адабиёт дарсларида шундай суҳбатлардан фойдаланиш катта самара беради.

Жумладан, асарнинг дастлабки бобларидан бирида шоирнинг болалиги, унинг таълим олиш жараёни, устознинг шогирдларга муносабати, ўқувчиларга қандай саволлар бериши маҳорат билан тасвирланган. Эътиборни тортадиган жиҳати шундаки, бугун ўқитувчи ўқувчига бераётган билими қандай аҳамиятга эга эканлигини тушунтириб ўтирмайди, Навоий даврида эса, бунга алоҳида диққат қилинган. Ўтилганларни такрорлаш шаклидаги дарс машғулотлари одатда қуйидаги мазмунда саволлар, (ақлий ҳужум)дан бошланади:

“Мударрис алик олиб, дарсни савол билан бошлади:

– Айтинг-чи, Қуръонни не учун ўқийдурмиз?

– Аллоҳ таолонинг ҳукмлари бўлгани боис.

– Балли. Ҳандасани-чи?

– Ҳисобда хатолар бўлмаслиги учун.

– Хўш, унда абиёт-у назмни-чи?

– Гўзал қўшиқлар куйламоқ учун.

– Хайр, деб жавоб қилди мударрис. Шул сабабдинким, эл-улуснинг, райиатнинг улуғлари сўзини гўзал айтмоқ учун...” Кўриниб турибдики, мударрис ўқувчларни фикрлашга ундаяпти, хато жавоб берса, ҳафсала билан уни тузатиб турибди.

Мударрис яна шундай давом этади: “Сизларга оламнинг энг кучли қуроли ҳақида айтиб бераман, – дейди мударрис. Топинг-чи, нима экан?”. Бу ўқувчиларни фикрлашга, тафаккур қилишга ундаш, машғулотга қизиқтиришнинг энг яхши усули ҳисобланади. Қарийб олти юз йил аввал амалда қўлланган. Мударрис савол бергач ўқувчилар ҳар хил ўзлари тасаввур қилган нарсаларни айтишади:

– Манжинақ.

– Ҳўкизтумшуқ.

– Фил. Шунда мударрис ёйилиб жилмаяди ва йўқ, мен айтмоқчи бўлган нарса улардан ҳам кучли. У сўз дейди.

Мударрис болалар биладиган жониворлардан мисол келтириб, итлар уч хил товуш чиқаради: вовуллайди, ангиллайди, ҳуради. Шу уч товуш унинг умр кечимоғи учун етарли, дейди. Умуман, бу ўринда мударрис сўзнинг инсон ҳаётидаги аҳамиятини олам ва одам мисолида тушунтириб беради ва йўл-йўлакай ўқувчиларга ҳам салмоқли саволлар бериб, уларнинг жавобларини ё олқишлаб, ёки тўлдириб бораверади. Айниқса, арабча туя сўзи шарҳидан кейин туркий тилнинг гўзал ва бой эканлигини от сўзи орқали ёш Алишерга устози Абу Абдуллоҳ Кулоҳий аниқ мисоллар билан (қулун, той, айғир, бия, тўриқ, саман, тарлон, тулпор) тушунтириб беради. Сўз ва унинг маънолари устида машғулот олиб борилади. Демак, бугунгидек, қуруқ граматик қоидаларни ёдлатиш билан шуғилланилмаган.

Асарда диққатни тортадиган ўринлар жуда кўп. Масалан, “Гул сайли” бобида икки оддий фуқаронинг ўз она тилини ҳимоя қилиб жанжаллашаётгани тасвирланган саҳналар ҳам бор. Воқеалар ривожида шундай диалоглар борки, беихтиёр Навоий ҳам сиз-у биз каби оддий киши экан-ку, деб у кишининг руҳиятига яқинлашаверасиз. Буюк шоирнинг Самарқандга борган куни пулини йўқотиб қўйиб, ҳеч кимни танимагани учун қийналгани ва чопонини сотиб арзонроқ чопон олмоқчи бўлганлари ўқувчини ҳаётдаги тасодифий муаммолардан чиқиш йўлларини топишга ўргатса ажаб эмас.

Миллий педагогикада бола, айниқса, ўғил бола тарбиясида тоғаларнинг ўрни муҳим эканлиги ўрганилмайди. Масалан, фарзанд тарбиясида ота-она, оиланинг таъсири масаласи кенг ўрганиб келинади. Ҳаётда юксак натижаларни қўлга киритган инсонларнинг кўпчилигида тоғаларнинг таъсири катта бўлган. Масалан, бугун биз яхши билган Эркин Воҳидов, Тоҳир Малик каби бир қатор ижодкорларнинг улкан муваффақиятларига тоғалари сабаб бўлганни ўзлари таъкидлайдилар. Навоийнинг ҳам шеърият мулкининг султони, буюк тафаккур соҳиби бўлишида тоғалари Қобулий ва Али Ғарибийларнинг таъсири катта бўлган. Улар Алишерни кўплаб шеърият кечларига олиб борар, ёзган шеърий машқлари учун олқишлар айтар, бўлажак шоирга бундан-да зўр асарлар ёзишда рағбат уйғотарди.

Исажон Султон ўз асарида манашу жиҳатга алоҳида эътиборни қаратган. Алишернинг Навоий бўлиш жараёнини ипидан-игнасигача тасвирлаб беради. Бунга хизмат қилган омиллар ва воситаларни изма-из ифодалаб боради. Бир сўз билан айтганда ёзувчи тарихий фактларга таяниб, ишончли бадиий тўқималар келтириб, ижодий тафаккур соҳибларини етиштиришнинг миллий моделини ўзи билмаган ҳолада яратиб берган десак, муболаға бўлмайди.

Бугунга қадар Буюк Навоий ҳақида яратилган асарларни камситмаган ҳолда айтиш мумкинки, “Алишер Навоий” романини ўқиган киши борки ҳам шоир Навоийни, ҳам Низомиддин Алишерни, ҳам Амир Алишер Навоийни кўргандек бўлади. Ўзбек адабиёти, адабиёт ўқитиш методикаси учун камёб ҳодиса ўлароқ мазкур роман, шу жумладан, Исажон Султоннинг бошқа асарлари узлуксиз таълим тизимида ёш авлодда ижодий тафаккур ва кенг дунёқарашни шакллантиришга хизмат қилади.

Романни ўқиган киши Алишер Навоийни қайта кашф қилади, беихтиёр шоир ижодига шўнғиб кетади. Асар бевосита Навоийни тушунишга ёрдам беради. Бунинг учун ёзувчинг бадиий маҳорати, тафаккур сарҳадлари нақадар кенглигига тасаннолар айтиш мумкин Зеро, асар шоирни таераң англашда, шеърият бўстонига ўтишда кўприк вазифасини бажаради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. – 56 б.

2. Ҳамроев Ғ. Она тилидан ўқув топшириқлари тузиш методикаси. –Тошкент, “Донишманд зиёси” нашриёти 2021. 160 б.

3. Исажон Султон Алишер Навоий Роман. –Тошкент: “Адабиёт”нашриёти, 2021. –512 б.

UDK:371.035:370

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI LOYIHALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIYA XUSUSIYATLARI

Nazarova Kamuna Farhod qizi-
Toshkent amaliy fanlar universiteti tadqiqotchisi
nazarovakamuna02@gmail.com,+998900870596

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq kompetensiyasini rivojlantirish muammosining dolzarbligi ushbu jarayonga ta'sir qiluvchi pedagogik va psixologik xususiyatlarni chuqur tushunish zarurligini tasdiqlaydi. Ushbu maqola boshlang'ich yoshdagi bolalarda tilni o'zlashtirish bo'yicha tadqiqotlarning nazariy sharhini beradi, samarali ta'lim dizayniga ta'sir qiluvchi asosiy jihatlarni yoritadi.

Kalit so’zlar: nutq kompetensiyasi, boshlang'ich sinf, pedagogik xususiyatlar psixologik jihatlar, yoshga bog'liq rivojlanish xususiyatlari, ta'lim jarayonini individuallashtirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, o'yin o'qitish usuli.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ПРОЦЕССА РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: Актуальность проблемы развития речевой компетентности учащихся младших классов подтверждает необходимость глубокого понимания педагогических и психологических особенностей, влияющих на этот процесс. В этой статье представлен теоретический обзор исследований по овладению языком детьми начальной школы, выделены ключевые аспекты, влияющие на эффективный дизайн обучения.

Ключевые слова: речевая компетентность, начальный класс, педагогические особенности, психологические аспекты, возрастные особенности развития, индивидуализация образовательного процесса, современные образовательные технологии, игровой метод обучения.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DESIGNING THE PROCESS OF SPEAKING COMPETENCE DEVELOPMENT IN PRIMARY CLASS STUDENTS

Abstract: The relevance of the problem of development of speech competence of elementary school students confirms the need for a deep understanding of the pedagogical and psychological characteristics that affect this process. This article provides a theoretical overview of research on language acquisition in elementary school children, highlighting key aspects that influence effective instructional design.

